
Akbar ZAMONOV, Sardor Abdusodiqov

O‘ZBEKISTON TARIXI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT
KIMYO
XALQARO
UNIVERSITETI

Akbar ZAMONOV
Sardorbek ABDUSODIQOV

O‘ZBEKISTON TARIXI

II QISM

(IX – XIV asr o‘rtalari)

Oliy o‘quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun darslik
Ta’lim yo‘nalishi: 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha)

BAYOZ
Toshkent
2024

UO‘K 94(575.1)(075)
KBK 63.3ya73
Z-30

Akbar, Zamonov
O‘zbekiston tarixi. II qism: IX – XIV asr o‘rtalari. Darslik / A.Zamonov, S.Abdusodiqov. – Toshkent: «BAYOZ», 2024. – 568 b.

Oliy o‘quv yurtlari tarix yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan ushbu «O‘zbekiston tarixi» darsligi o‘quv rejada berilgan fan dasturi asosida tayyorlangan va «O‘zbekiston tarixi – 2» sillabusi (Vatanimiz tarixining IX – XIV asr o‘rtalari)ni qamrab olgan. Mazkur darslik mavjud manbalar, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqot natijalari bilan boyitilganligi, fan bo‘yicha innovatsiyalarning joriy etilganligi bilan ilgarigi o‘quv adabiyotlaridan farq qiladi.

Taqrizchilar:
tarix fanlari doktori, professor ***O‘.M. Mavlonov***
tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim ***H.M. Mamadaliyev***
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ***U.R. Xalmuminov***

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘iga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 94(575.1)(075)
KBK 63.3ya73

ISBN 978-9943-8692-0-2

© «BAYOZ», 2024.
© A. Zamonov, 2024.

Toshkent Kimyo xalqaro universitetining birinchi rektori, professor Janpolat Kudaybergenov (1978–2023) xotirasiga bag'ishlanadi.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston tarixining eng qadimgi davrlaridan bugungi kunga qadar bo'lgan davri bo'yicha davlat talablari, o'quv dasturlari, qo'llanma va darsliklar yaratilganligi, shubhasiz, ahamiyatli holdir. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston tarixi fanini o'qitishni zamonaviy asosda tashkil etish, uning samaradorligini yanada oshirish, ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, ilm-fandagi innovatsiyalarni tatbiq etish hozirgi kun ta'lim tizimining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, keyingi yillarda xalqimiz boy o'tmishini manbalarga tayangan holda chuqur va har tomonlama o'rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, mustaqillik yillarida «O'zbekiston tarixi» fani bo'yicha ko'plab o'quv dasturlari, o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, elektron va matnli darsliklar, ma'ruza matnlari, uslubiy majmualar, mavzuli xaritalar, risolalar yaratilgan bo'lsa-da, ular asosan nomutaxassis yo'nalishdagi talabalar yoki tor doiradagi oliy o'quv yurtlari uchun tayyorlangan edi. Shundan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari uchun O'zbekiston tarixi bo'yicha bir qator o'quv adabiyotlari yaratildi. Shunday bo'lsa-da, mazkur darsliklarga qo'shimcha sifatida, mutaxassislik yo'nalishi talabalariga kengroq ma'lumotlar beruvchi o'quv adabiyotlarini yaratish muhim sanaladi.

Shu maqsadda tayyorlangan mazkur darslik O'zbekiston tarixining IX – XIV asr o'rtalarigacha bo'lgan davrini qamrab oladi. O'zbekiston tarixining ajralmas qismlaridan biri bo'lgan bu davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi masalasini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davr Turon hududida Arab xalifaligidan

mustaqil bo‘lib chiqqan somoniylar, safforiylar, shuningdek, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, qoraxitoylar va anushteginiylar davrida Xuroson va Movarounnahr hududida sodir bo‘lgan harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda keskin o‘zgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. Shu bois, o‘lkamiz tarixini o‘rganish dolzarb bo‘lgan IX – XIV asrlar davri tarixi o‘ziga xos o‘ringa ega.

Vatanimiz tarixi, xususan, tohiriylar, somoniylar, safforiylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, qoraxitoylar, oltintoshlar va anushteginiylar sulolalari hukmronligi davrini o‘rganish, o‘sha davr voqea-hodisalarini, davlat negizini tashkil etgan harbiy boshqaruv tizimini haqqoniy tadqiq etish bugungi tarix fanining dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Arab xalifaligining Turon hududidagi hukmronligi, tohiriylar va somoniylarning Movarounnahr va Xurosonda hokimiyatni qo‘lga olishi, dastlab IX – X asrlardan boshlab markazlashgan davlatning barpo etilishi va faol tashqi siyosat olib borilishi bu davrda tashkil topgan yangi davlatlarning siyosiy qudratidan dalolat beradi.

Oliy ta’lim muassasalarining tarix ta’lim yo‘nalishi talabalari birinchi kursning ikkinchi yarmida «O‘zbekiston tarixi» fanidan o‘quv adabiyotlariga doimo ehtiyoj sezadi. Mazkur zaruratdan kelib chiqib, IX – XIV asrlarda Turon hududida davlatlarning tashkil topishi, markazlashuvi, markaziy va mahalliy boshqaruv hamda unda faoliyat olib borgan mansablar transformatsiyasining o‘ziga xos jihatlari, davlatlarda faoliyat olib borgan mansabdor shaxslar hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilgan tadbirlar, yer egaligi, uning taqsimlanishi bilan bog‘liq an’analar, suv inshootlari va ularning qurilish mexanizmlari, xorijiy mamlakatlar bilan olib borilgan diplomatik munosabatlar, savdo-sotiq va boshqa jarayonlarni tadqiq etish va ochib berishga ehtiyoj benihoya katta. Davlatchilikning muhim bosqichi bo‘lgan IX – XIV asr davlatchiligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari alohida faslga ajratib olinib, davrning o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga oid masalalarni yoritish asosiy maqsadlardan biridir.

Shuningdek, Movarounnahr, Xuroson va Eron hududida IX – XII asrlarda ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan davr bo'ldi. Bu davr dunyo ilmida «Musulmon Renessansi» yoki «Sharq Uyg'onishi» nomi bilan atalib kelinmoqda. Bu davr ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Umar Hayyom jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azzoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi ishlab chiqildi. She'riyatda Abu Abdullo Ro'dakiy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar, ishq-muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Islom dini mohiyatini ochib beruvchi bir qator asarlar yaratgan allomalar – Imom Buxoriy, Iso Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Moturidiy, islom tariqatida Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy kabi allomalar yetishib chiqdi. Mazkur tarixni o'rganish ham aynan ushbu o'quv adabiyotining vazifasi hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, IX – XIV asr birinchi yarmida Turon hududidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarix xususida yozilgan manbalar yetarlicha. Ushbu darslikni tayyorlashda, asosan, o'sha davr davlatlarida tuzilgan turli hujjatlar asosida yaratilgan xrestomatiyalar, IX – XIV asrlarda Turon hududiga tashrif buyurgan sayyohlar, elchilar va savdogarlarning kundaliklari, hisobotlari hamda mahalliy muarrixlarning asarlaridan, sovet va mustaqillik yillarida mavzuga doir amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalaridan keng foydalanildi.



1-MAVZU. MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MUSTAQIL DAVLATLARNING TASHKIL TOPISHI. TOHIRIYLAR VA SAFFORIYLAR DAVLATI



REJA:

1.1. Tohiriylar va safforiylar tarixiga oid manbalar.

1.2. Mustaqil davlatlarning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar.

1.3. Tohiriylar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi. Tohiriylar davlatining siyosiy tarixi.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Manba, Ya’qubiy, at-Tabariy, Ibn Hurdadbeh, Ibn al-Asir, asar, xalifa, Tohir ibn Husayn, arab, Movarounnahr, Xuroson, Hirot, yurish, Marv, Nishopur, jang, tohiriylar, Zul yaminayn, Bushang, Ma’mun, noib, xutba, saffor, Talha, Abdulloh ibn Tohir, g‘oziy, isyon, yorliq, Seyiston, Bust.

1.1. TOHIRIYLAR VA SAFFORIYLAR TARIXIGA OID MANBALAR

IX asr boshlarida Arab xalifaligida markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi, hokimiyatni egallash uchun kurash natijasida Xuroson va Movarounnahrga e’tibor biroz pasaydi. Shu bilan birga, mahalliy aholining mustaqillikka intilishi, arab-musulmon jamiyati tomonidan o‘zining tan olinishiga erishishi hamda Abbosiylarning ummaviylardan

farqli ravishda mahalliy sulolalarga nisbatan ma'lum darajada erkinliklar berishi ham muhim rol o'ynadi. Abbosiylar xalifalik hokimiyatiga kelgach, bu ulkan hududni boshqarishda yangi siyosiy va ijtimoiy tartibga asos solishi lozim edi. Bunda ular asosan mahalliy sulolalar madadiga tayandi. O'z navbatida, mahalliy sulolalar ham boshqa da'vogarlarni yengish uchun xalifalik ko'magiga muhtoj edi. Shu asosda, Abbosiylar davriga kelib Ispaniyadan to Xitoyga qadar bo'lgan hududlarda mahalliy-sulolaviy boshqaruv yuzaga keladi



«Kitob al-buldon» asari qo'lyozmasi

Bu davr tarixini, asosan, xalifalik markazlarida faoliyat olib borgan muarrixlar tomonidan arab tilida yozilgan asarlar orqali o'rganish mumkin. Jumladan, «Kitob al-buldon» asari muallifi **Abulabbos Ahmad al-Ya'qubiy** IX asr da yashagan yirik geograf, tarixchi olimdir. U yirik mansabdor xonadoniga mansub bo'lib, Bag'dodda tug'ilgan, lekin umrining katta qismini Armaniston, Xuroson, Falastin, Misr va Mag'rib (Shimoliy Afrika)da o'tkazgan. Al-Ya'qubiyning ikki yirik va muhim asari bizning zamonamizgacha yetib kelgan. Biri «Kitob al-buldon» («Mamlakatlar haqida kitob»), ikkinchisi esa «Тarix» nomi bilan mashhurdir. «Kitob al-buldon» (taxminan 891-yilda yozilgan)




Asarning rus tilidagi 2011-yilgi nashri



Asarning rus tilidagi 1986-yilgi nashri

asarida xalifalik tarkibidagi mamlakatlarning geografik holati, yirik shaharlar va qal'alari, aholisi va uning asosiy mashg'uloti, urf-odatlari, o'sha mamlakatdan olinadigan xirojning umumiy miqdori haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Yana bir Arab xalifaligi davri tarixchisi **Ibn Xurdadbeh** yoki Abulqosim Ubaydulloh Xurdadbeh (820 – 913) asli eronlik bo'lib, u oliy martabali mansabdor xonadoniga mansub edi. Otasi IX asr boshlarida Tabariston hokimi bo'lgan. Ibn Xurdadbeh Bag'dodda o'qigan va keng ma'lumot olgan. U xalifa Mo'tamid (870 – 892) davrida yuqori davlat lavozimlarida ishlagan, dastlab saroy xizmatchisi, so'ng Eronning g'arbiy-shimoliy tarafida joylashgan Jibal viloyatida sohib barid va-l-xabar (pochta va razvedka boshlig'i) lavozimini egallagan. Ibn Xurdadbeh turli mavzuda, adab, tarix, geografiyaga oid o'nga yaqin asar bitgan bo'lib, ulardan eng muhimi «Kitob masolik ul-mamolik» («Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob») nomli asaridir. Asar 846-yili yozib tamomlangan. Asarning qisqartirilgan tahriri bizgacha yetib kelgan va M. de Gue tarafidan 1889-yili chop qilingan. Ruscha tarjimasi (tarjimon Noila Velixanova) 1986-yili Bokuda chop etilgan. Kitobda arab xalifaligi qo'l ostidagi mamlakatlar, shaharlar, ularga boriladigan yo'llar, shaharlar va mamlakatlar orasidagi masofa,



Muhammad Jarir Tabariy

aholidan undiriladigan soliq va jarimalarning miqdori haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, qadimiy Sug'd shaharlaridan Kushoniya (Samarqand atrofida joylashgan), Samarqand, Ustrushona, Shahriston (Ustrushona shaharlaridan), qadimgi Shosh, Isfijob (Sayram) shaharlarida aholi o'rtasida muomalada bo'lgan pul birligi, Nuh ibn Asad (vaf. 842) va Ahmad ibn Asad (819 – 846) davrida Sug'd va Farg'onaning umumiy ahvoli, Movarounnahr va Farg'onada IX asr-da yashagan turkiy xalqlar haqidagi ma'lumotlar benihoya qimmatlidir.

Mavzuga oid ma'lumotlar nisbatan kengroq uchraydigan asarlar Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir **at-Tabariy** (839, Tabariston (Eron)ning Amul shahri – 923, Bag'dod) tomonidan yozilgan. U tarixchi, faqih va tilshunos bo'lib, mahalliy zodagon oilasida tug'ilgan. Amul shahrida dastlabki ta'limni olib, Ray, Bag'dod, Basra, Kufada mashhur muhaddis va faqihlar qo'lida o'z bilimini oshirgan. U Bag'dodga qaytgach, «al-Jaririyya» deb atalgan o'zining fiqh (huquq) maktabiga asos solgan. Tabariy fiqh va tarix ilmlarini mukammal egallab, bu ilmlar va Qur'on, hadislar bo'yicha arab tilida 20 dan ortiq asarlar yozgan. Qur'oni Karim tafsiriga bag'ishlangan «Tafsir al-Qur'on» asari uni musulmon olamiga tanitgan. «Tarix ar-rusul val muluk» («Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi», «Tarixi Tabariy» nomi bilan mashhur) asarida qadimgi Eron podshohlari, Rim va Vizantiya imperatorlari, xalifalik hududidagi yurtlar (xususan, Xuroson va Movarounnahr)ning 915-yilgacha bo'lgan tarixi o'z ifodasini topgan. Asardagi voqealar yilma-yil, xronologik tarzda bayon



Tabariy asarlarining ingliz tilidagi ko'p jidlli nashri

etilgan. Bu esa asardan foydalanishda ko‘p jihatdan qulaylik yaratgan. Asar Movarounnahrning VIII – IX asr tarixi bo‘yicha asosiy va eng noyob manbalardan biri bo‘lib, tarixiy jarayonlar nisbatan batafsil sharhlangani bilan ajralib turadi. Mazkur asarning arabcha ikki xil (mufassal va qisqartirilgan) tahriri bo‘lgan, lekin bizgacha uning faqat qisqartirilgan tahriri yetib kelgan va asar matni gollandiyalik sharqshunos M.Y. de Gue tarafidan 1879 – 1901-yillari 15 jildda nashr etilgan. Tabariy asarining forsiy tahriri ham bo‘lib, u Somoniy Abu Solih Mansur ibn Nuhning (961 – 976) vaziri, atoqli ilm-fan homiysi al-Bal’amiy (vafoti 974) tomonidan 963-yili yozilgan.



Tabariyning qabrtoshi



Asarning rus tilidagi 2006-yilgi nashri

Tohiriylar sulolasi tarixi bo‘yicha manbalar orasida **Ibn al-Asir**ning (1160 – 1234) «Al-komil fi-t-tarix» kitobi tohiriylar hukmronligi voqeligining nisbatan batafsil bayoni bilan ajralib turadi. «Al-komil fi-t-tarix» 12 jilddan iborat bo‘lib, «dunyoning yaratilishi»dan to 1231-yilga qadar Sharq mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni yilma-yil, xronologik tartibda bayon etib beradi. Asarda ko‘pgina qimmatli manbalar, xususan, Tabariy hamda as-Sallomiyning bizgacha yetib kelmagan asarlaridan

keng foydalanilgan. Unda Xurosonda tohiriylar hukmronligi o‘rnatilishi masalasi bilan bog‘liq voqealar nisbatan mufassal bayon etilgan. Ibn al-Asir o‘zi yashagan davrdan oldingi tarixiy voqealarni, xususan, Arab xalifaligi davri, Xuroson va Movarounnahrda xalifalikdan mustaqil davlatlarning tashkil etilishi bilan bog‘liq siyosiy jarayonlarni, asosan, Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839 – 923)ning «Tarixi ar-rusul va al-muluk» hamda «Kitob fi axbor vuloti Xuroson» (Xuroson hukmdorlari haqida axborot beruvchi kitob) asarlariga tayangan holda yozgan. Shuningdek, noma’lum muallifning «Tarixi Seyiston», Abu Said Gardiziyning «Zayn al-axbor» (Tarixlar bezagi) asarlarida ushbu davr tarixiga oid ma’lumotlar mavjud. «Al-komil fi-t-tarix»ning to‘la matni uch marta (1851, 1876 va 1901) chop etilgan. Ayrim parchalar rus tilida N.A. Mednikov, A.Y. Krimskiy tarafidan tarjima qilingan. Asar Xivada to‘la ravishda o‘zbek tiliga Muhammad Rahimxon II (1864 – 1910) davrida tarjima qilingan (tarjimonlar: Narzrulla muftiy, Muhammad Sharif oxund).


Shuningdek, bu tarix haqida muhim ma’lumotlarni hozirga qadar muallifi aniqlanmagan «Tarixi Seyiston» asaridan ham olishimiz mumkin. Asar qadimgi davrdan to mo‘g‘ullar bosqiniga qadar bo‘lgan Seyiston tarixini yoritib berib, ayniqsa, unda arablar va musulmon sulolalar davridagi Seyiston tarixi to‘g‘risida asarda muhim ma’lumotlar saqlangan. Bugungi kunga qadar ushbu asarning bir qancha nusxalari saqlanib qolgan bo‘lsa-da, asar nomi va muallifi aniq emas. Asar turli tadqiqotchilar tomonidan «Fazoili Seyiston» yoki «Axbori Seyiston» ko‘rinishida shartli nomlangan. Ammo ko‘p hollarda «Tarixi Seyiston» nomi bilan ataladi. Asar tadqiqotchilar fikriga ko‘ra yagona muallif tomonidan yaratilmagan. Asarning dastlabki qismi Saljuqiylar davrida, 1054-yilga qadar Sulton To‘g‘rul buyrug‘iga ko‘ra yaratilgan bo‘lib, keyinchalik, XIV asrda asarga keyingi davrda bo‘lib o‘tgan voqealar qo‘shimcha ikkinchi muallif tomonidan kiritiladi. Asarning ikkinchi qismi 1324-yili Qutbiddinshoh Ali davriga qadar bo‘lgan voqealarni yoritib beradi.

Bilib oling!

«Tarixi Seyiston» asari dastlab arab tilida yozilgan bo‘lib, keyinchalik fors tiliga tarjima qilingan. Asar, ayniqsa, tohiriylar davri, shuningdek, safforiylar, ularning kelib chiqishi, Ya’qub ibn Lays va uning faoliyati to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beradi. Jumladan, asarda Seyistonda bo‘lib o‘tgan xorijiylar isyonlari va buning oqibatida keyinchalik yuzaga kelgan g‘oziylar harakati va ushbu harakatning tarixi haqida muhim ma’lumotlar qayd etib o‘tilgan.

1.2. MUSTAQIL DAVLATLARNING VUJUDGA KELISHIDAGI TARIXIY SHART-SHAROITLAR

IX asrga kelib Turon, xususan, Movarounnahrda arab xalifaligiga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida mahalliy sulola vakillarining mustaqillikka bo‘lgan intilishlari kuchayib ketdi. Chunonchi, xalifalikning markaziy hududlarida ham ziddiyatlar keskinlashib borayotgan edi. Xususan, Ispaniyadagi Umaviylar, Marokashdagi Idrisiylar, g‘arbiy Jazoirdagi Rustamiylar, Ifrikiya, Sharqiy Jazoirdagi Ag‘labiylar, keyinchalik, Misr va Suriyadagi To‘luniylar o‘zlarini xalifalikdan deyarli mustaqil tuta boshladilar. 786-yilda xalifalik taxtiga chiqqan Horun ar-Rashid Arab xalifaligining so‘nggi buyuk hukmdori bo‘lib qoldi. 809-yilga qadar xalifalikni idora qilgan hukmdor vafotiga qadar mamlakatni yaxlitlikda saqlashga urindi va buning uddasidan chiqa oldi. Lekin uning vorislari davrida mamlakat parchalana boshladi.



Xorun ar-Rashid
(zamonaviy rasm)

Xalifa Horun ar-Rashidning 3 nafar merosxo'ri bolib, katta o'g'li Abdulloh va ikkinchi o'g'li Muhammad 786-yilda tug'ilgan. Abdulloh yosh jihatdan Muhammaddan biroz katta bo'lib, uning onasi Marajil ismli eronlik joriya bo'lgan. Uning ikkinchi o'g'li Muhammad esa kelib chiqishiga ko'ra abbosiylardan bo'lagan Zubayda binti Jafardan tug'ilgan edi. 791-yil saroy amaldorlari, jumladan Fadl ibn Yahyoning qo'llab-quvvatlovi bilan Muhammad valiahd deb e'lon qilindi. 798-yili xalifa Horun ar-Rashid katta o'g'li Abdullohni Xuroson va xalifalik Sharqiy yerlari hokimi etib tayinlaydi. Abdulloh ona tomonidan kelib chiqishiga ko'ra aslzodalarga borib taqalmagani bois ham (forsiy malika edi), xalifa uni kichik o'g'li Muhammaddan keyin voris bo'lishini e'lon qilgan edi. Abdullohga «al-Ma'mun» (arabchasiga «omadli», «iqboli baland») faxrli taxallusi berilgan. Kichik o'g'il Muhammadga esa «al-Amin» (arabchasiga «ishonchli», «sadoqatli») taxallusi berilib, u Iroq, Suriya, Mag'rib (Shimoliy Afrika davlatlari yerlari) bilan chegaradosh yerlarning noibi etib tayinlangan edi. 802-yili xalifaning yana bir o'g'li – Qosim tug'ilgach xalifa yangi farmon e'lon qiladi.

Bilib oling!

Bu yil [802-yil] Horun ar-Rashid Makkaga haj ziyoratiga bordi (...). [Oldin] ar-Rashid al-Aminni Iroq, Suriya va al-Mag'ribning haddan tashqari chegaralarigacha hokim qilib tayinladi. Al-Ma'mun ma'muriyatiga u [Horun ar-Rashid] Hamadondan al-Mashriqning chekka chegaralarigacha bo'lgan yerlarni berdi. Keyin u (uchinchi) o'g'li al-Qosimga [xalifaga] vorisi sifatida bay'at qilishni buyurdi. U [al-Qosim] al-Ma'mundan keyin taxtga chiqadi va unga «al-Mu'taman» laqabini beradi. U unga [Vizantiya bilan chegaradosh] al-Jazira chegara hududlari va al-Avosim ustidan nazoratni berdi.

Horun ar-Rashid o'g'illari, faqihlari, qozilari va lashkarboshilari bilan Makkaga kelganidan so'ng

Muhammad al-Aminni haq-huquqlarga sodiq bo‘lishga majburlovchi nizom yozdi, unga hozir bo‘lganlar guvohlik berdi. Al-Ma’mun va ular tomonidan tasdiqlangan boshqa maktubga ko‘ra al-Ma’mun al-Aminning haq-huquqlariga sodiq bo‘lishi bitildi va bu ikkala maktubni Ka’baga osib qo‘ydi.

Ibn al-Asirning
«Al-komil fit-tarix» asaridan.

Movarounnahrdagi Rofe ibn Lays qo‘zg‘olonini bostirish uchun yo‘l olgan xalifa Horun ar-Rashid 809-yilning mart oyida Xurosonning Tus shahrida vafot etdi. Horun ar-Rashid vafot etgan vaqtda al-Ma’mun Xurosonning markaziy shahri Marvga, sobiq xalifaning buyrug‘iga ko‘ra yetib kelgan edi. Al-Aminning xalifa sifatida taxtga o‘tirishini (809-813) avval boshda Ma’mun oldindan berilgan va’daga muvofiq xotirjamlik bilan qabul qildi. Ammo xalifa Horun ar-Rashid vafoti arafasida o‘zining jami boyliklarini o‘g‘li al-Ma’munga vasiyat qilgan bo‘lib, Ma’mun tomonidan Bag‘dodga yuborilgan 200 nafar a’mol (mol yig‘uvchi) al-Amin tomonidan quruq qo‘l bilan ortga qaytarib yuboriladi.

Bu ham yetmagandek, 810-yilda al-Amin o‘z valiahdi sifatida o‘g‘li Musoni tayinlaydi va unga «al-Notiq bi-l-Xaqq», boshqa bir o‘g‘li Abdullohga «al-Qo‘im bi-l-Xaqq» nomini berib, uni Musodan so‘ng taxtga chiqishini e’lon qiladi. Al-Amin tomonidan sodir etilgan ushbu harakat aka-ukalar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga olib keldi. Tabiiyki, taxtga da’vogar bo‘lgan al-Ma’mun yangi xalifaning bu qarorini qabul qila olmas edi. Garchi al-Amin tarafdorlari ancha bo‘lsa ham uning sa’y-harakatlariga ko‘pchilik harbiylar norozilik bildirdilar. Samarqandda qo‘zg‘olon ko‘targan Rofe ibn Lays al-Ma’munning hokimiyat masalasida avval boshida tutgan vazminligini qadrlab, o‘z isyoniga chek qo‘ydi hamda undan uzr so‘rab keldi. Al-Ma’mun uni gvardiya boshlig‘i etib tayinlaydi.

Bilib oling!

Musoning taxt merosxo'ri etib tayinlanishiga javoban al-Ma'mun al-Aminning nomini barcha rasmiy marosimlardan chiqarib tashlab, u bilan elchilar almashuviga chek qo'ydi. Ko'plab Movarounnahr, Xuroson va Erondagi aslzodalar ham Ma'munni qo'llab-quvvatlay boshladilar.

Kelib chiqishi bo'yicha Hirot yaqinidagi Bo'shang shahri hokimi bo'lgan Tohir ibn Husayn (Tohir ibn al-Husayn ibn Musa'b ibn Zurayk ibn Asad al-Huzayi) al-Ma'munni qo'llagan holda unga xizmat qilishni boshladi. Harbiy mahorati sababli Tohir ibn Husayn Ma'mun qo'shinlari qo'mondoni etib tayinlanadi. 811-yili Ray yaqinida Tohir ibn Husayn xalifa al-Aminning ishongan sarkardasi Ali ibn Iso ibn Moxon boshchiligidagi qo'shin bilan to'qnashadi. Ali ibn Iso ibn Moxon xalifa Horun ar-Rashid davrida Xuroson noibi sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, aholiga nisbatan haddan ziyod qattiqqo'lligi sababli lavozimidan ozod qilingan edi. Shu sababli ham Ibn Moxon zulmidan aziyat chekkan aholi al-Ma'mun qo'shinlari faoliyatini qo'llab-quvvatlaydilar. Ray yaqinidagi jangda Tohir ibn Husayn o'z shijoat va mardligini ko'rsatib, ikki qo'lda qilich bilan jang namunasini namoyon qilgan. Shu bois, Tohir «Zul yaminayn» (arabchasiga «ikki qo'llab kurashuvchi») faxriy taxallusiga sazovor bo'lgan. Tohir ibn Husayn Ray jangida Ali ibn Iso Moxonni mag'lub etib uning boshini al-Ma'munga yuboradi. Ali ibn Iso Moxonning o'ldirilishi haqidagi xabar Aminga yetib borgach, qo'shin yig'ib, Abdurahmon ibn Jabal al-Anbariyni 20 ming qo'shin bilan Hamadon tomon yurishga yubordi. Xalifa uni Mag'rib yerlari noibi etib tayinlaydi va unga Xuroson yerlarini zabt etish topshirig'ini beradi.

Abdurahmon Hamadonga yetib kelgach, shahar qo'rg'onini mustahkamlab, devorlarini tartibga keltiradi. Tohir ibn Husayn ham Hamadonga yaqinlashadi va Abdurahmon bilan bir necha bor to'qnash keladi. Uzoq muddatli qamaldan so'ng Hamadon egallanadi, al-Amin tomonidan Hamadon mudofaasiga yuborilgan kuchlar ham ortga chekinishga majbur bo'ladi. 812-yili al-Amin Ahmad ibn Mayzod va


Abdulloh ibn Xumaydni Tohirga qarshi yuboradi. Tohirga qarshi kuchlar Xanikinga o'rnashadi. Harbiy hiyla ishlatgan Tohir Xanikindagi dushmanni jangsiz mag'lub etadi va Bag'dodga qarab yuradi.

Bilib oling!

Tohir ibn Husayn 813-yili Bag'dodni egalladi. Al-Amin qo'lga olinib, Tohir ibn Husayn o'ziga topshirilgan buyruq asosida uni qatl etgan. Muarrix Ibn al-Asirning yozishicha, sobiq xalifaning boshi avval minora peshtoqiga ilib qo'yilib, keyinchalik, yangi xalifa al-Ma'mun ixtiyoriga barcha xalifalik rasmiy ashyolari bilan jo'natilgan.

Yangi xalifa al-Ma'munni (813-833) barcha qonuniy hukmdor sifatida tan oldi. Shunga qaramay, xalifa poytaxtini Bag'dodga ko'chirishga shoshilmaydi. U uzoq vaqt Marvdan turib xalifalikni idora qilishda davom etdi. Shuningdek, shia va alaviylar bilan kelishish uchun Imom Ali ar-Rizoni o'z valiahdi deb e'lon qiladi. Ma'munning bu siyosati Bag'dod zodagonlarining noroziligiga sabab bo'ladi. Natijada 817-yili Bag'dodda Horun ar-Rashidning ukasi Ibrohim ibn al-Mahdiy xalifa deb e'lon qilinadi. Ma'mun unga qarshi yana bir bor Tohir madadiga tayanadi. Tohir 819-yilda isyonni to'la bostiradi.

Al-Ma'mun o'zaro nizolarni bartaraf qilish maqsadida 819-yilga qadar xalifalikni Marvdan turib boshqargan, undan keyin Bag'dodga ko'chib o'tadi. Al-Ma'mun Tohirning xizmatlarini inobatga olgan holda, uni Bag'dod shahri hamda al-Jazira (Mesopotamiyaning janubiy qismi) viloyatining hokimi etib tayinlaydi. Ta'kidlash joizki, Tohir ibn Husayn butun xalifalik hayotida katta rol o'ynovchi shaxs bo'lib qoldi. Al-Ma'mun Bag'dodga qaytib kelgach, o'z hokimiyatidan xavfsirab, Tohirni poytaxtdan chetlatishga qaror qiladi. Ibn al-Asirning yozishicha, xalifa o'ziga sadoqat bilan xizmat qilgan Tohirni inisi al-Aminni bir paytlar o'ldirganligini bahona qilib, qolaversa, uni «makkor shaxs» deya atab, mamlakat poytaxtidan uzoqlashtirish maqsadida 821-yili Xurosonga hokim etib tayinlaydi. Shu davrda Movarounnahr hududi ham Xuroson noibligi tarkibiga kirar edi.




VII – IX asrlarda Arab xalifaligi

1.3. TOHIRIYLAR SULOLASI HUKMRONLIGINING O‘RNATILISHI. TOHIRIYLAR DAVLATINING SIYOSIY TARIXI

Tarixiy manbalardagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Tohiriylar sulolasining birinchi vakili VII asr 80-yillarida Seyiston hokimi al-Huzayi dargohida xizmatda bo‘lgan. Sulolaning keyingi vakili Musab ibn Zurayk Xurosonda Abbosiylar tashviqotida faol ishtirok etgan va Abu Muslimni qo‘llab quvvatlagan. Musab Xurosondagi Abbosiylar tashviqotchisi Sulaymon ibn Kasir al-Huzayining kotibi bo‘lgan. U va uning avlodlari Husayn va Tohirlar Hirot viloyatidagi Bo‘shang shahrini boshqarganlar.

821-yili Xuroson noibligiga tayinlangan Tohir ibn Husayn mahalliy aslzodalar, xalq ommasi noroziligidan xavfsiragan xalifalik sharqiy hududlar aholisining haq-huquqlarini kengaytirishga majbur bo‘la boshladi. Xalifalikda ilk bora mahalliy zodagonlardan bo‘lmish asli balxlik Barmakiylar markaziy hokimiyat boshqaruviga jalb



Tohiriylar sulolasi tasarrufidagi hududlar ***(ingliz tilida)***

etildilar. Tabariyning yozishicha, Barmakiylardan bo'lmish Xuroson noibi Fadl ibn Yahyo (794-795) davrida Xurosonda mahalliy aholi ichidan bir necha yuz mingga yetadigan qo'shin tashkil etilgan. Asli arab bo'lmagan mahalliy zodagonlarning hokimiyatda katta mavqega ega bo'lib borayotganligini ko'rgan xalifa Horun ar-Rashid (786-809) bu holdan xavfsiragan holda 803-yil Barmakiylar xonadonining barcha vakolatli vakillarini qirib tashlashga buyruq bergan edi. Lekin xalifalik qancha harakat qilmasin qadimiy boy madaniyat, o'troq turmush tarziga ega bo'lmish Movarounnahr va Xuroson zaminida mahalliy aslzodalarning mavqeyi ko'tarila bordi.

Xurosonga hokim bo'lib kelgan Tohir ibn Husayn xalifalik bilan munosabatlarini cheklay boshladi. Juma namozida xalifani oliy hukmdor sifatida tilga ham olmay qo'ydi. Bu holat xalifa hokimiyatini tan olmasligidan dalolat berar edi. Shu tariqa, Eron, Xuroson, Movarounnahr va unga tutash yerlarda yangi sulola – Tohiriylar (821-873) sulosasi hukmronligi yuzaga keldi. Xalifalik siyosatidan norozi ko'plab mahalliy zodagonlar yangi sulolani qo'llab-quvvatlay boshladilar. Tohirning olib borayotgan ichki va tashqi siyosati xalifaga, tabiiyki, maqbul bo'lmadi. 822-yili noma'lum qotillik sabab Tohir ibn Husayn o'z yotoqxonasidan o'lik holda topildi.

Bilib oling!

Tabariyning yozishicha, 813-yili Bag'doddagi xalifa Amin saroyiga Ma'mun qo'shinlari bostirib kiradi. Tohir ibn Husayn Aminni asir olishni so'ragan xalifaning buyrug'idan tashqariga chiqib, uning boshini kesdiradi. Tohir Aminning boshini favvoraga qo'yib, tashrif buyuruvchilarga boshni ko'rsatib «Bu Al-Maxlu» (yiqilgan) deydi. Aminning boshi, hassa va payg'ambarning ko'ylagi hamda xalifalik uzugi Ma'munga yuboriladi. Amin tomonidan hibsga olingan Ma'munning ikki o'g'li va onasi ham Xurosonga yo'l oladi. Aminning o'g'illari asir olinib, Ma'munga yuboriladi.

819-yilda Ma'mun xizmatlari uchun minnatdorchilik bildirgan holda Tohirni Xuroson noibi etib tayinlaydi. Biroq,

Aminning Tohir tomonidan o‘ldirilgani haqidagi hikoyani eshitganidan keyin, Ma’mun Tohirga ishonmay qo‘yadi. Shu sabab Ma’mun uning saroyiga, Tohir mustaqilligini e’lon qiladigan bo‘lsa, uni zaharlash vazifasini o‘z zimmasiga olgan bir qulni kiritgan edi. O‘sha kuni kechqurun qul o‘z vazifasini bajardi va Tohir o‘ldirildi.

Tohirning o‘limidan so‘ng, tez orada uning o‘rniga o‘g‘li Talha ibn Tohir (822-828) noib etib tayinlandi. Buning sababi shunda ediki, xalifalik aynan mahalliy hukmdorlarning kuchidan arablarga qarshi qo‘zg‘olonlarni bostirishda foydalanar edi. Xuroson noibining muhim vazifalaridan biri esa o‘ziga qarashli hududlarda viloyat hokimlarini tayinlash bo‘lgan. Xususan, Tohir dastlabki somoniylar vakillarini Samarqand, Ustrushona, Farg‘ona va Shoshga hokim qilib tayinlagan.

Talha davrida islomlashtirish bayrog‘i ostida ma’lum sa’y-harakatlar amalga oshirildi. Jumladan, Sirdaryoning janubiy etaklaridagi Ustrushona viloyatida xalifalikka qarshi harakatlar boshlanadi. Ustrushona hukmdori Afshin Haydar Kovus xalifalikka boj to‘lashdan bosh tortadi. Natijada, 822-yili arab sarkardasi Ahmad ibn Abduxolid boshchiligidagi qo‘shin Ustrushonaga yurish qilib, uni butkul bo‘ysundiradi. Shu bilan birgalikda, Talha muttasil davom etib turgan mahalliy isyonlar va xorijiylar harakatiga qarshi kurash olib borishga majbur bo‘ladi. Jumladan, Talha davrida butun Seyiston vohasini Hamza boshchiligidagi isyonlar qamrab oladi. O‘zaro urushlar natijasida Hamza 828-yil halok bo‘lgan. Shunga qaramay Seyistondagi isyonlarni to‘la bostirishning iloji bo‘lmaydi. Shuningdek, Talha Ozarbayjondagi Bobak qo‘zg‘olonini bostirishda xalifaga harbiy kuch bilan yordam ko‘rsatadi.

Bilib oling!

«Yana hikoya qilishlaricha, abbosiy xalifalari zamonida Xuroson amiri Abdulla ibn Tohir, kunlardan bir kuni, Nishopurda ekan, bir kishi tuhfa tariqasida qandaydir bir kitobni keltirib, uning oldiga qo‘ydi. (Amir) so‘radi: «Bu

qanday kitob?» (O‘sha odam) javob qildi: «Bu Vomiq va Uzro qissasidir. Bu ko‘p yaxshi hikoyatdirkim, hakimlar Nushiravon nomiga jam (ta’lif) qilganlar». Amir dedi: «Biz qur’onxon odamlarmiz, bizga Qur’on va payg‘ambar hadisidan bo‘lak kitob kerak emas. Bu kitobni otashparastlar jam qilganlar, bizning jamoa nazdida u bir tutun, xolos». Uning amri bilan kitobni suvga oqizdilar, (so‘ng) «har joyda ajam (fors) tilida kitob uchrasa, hammasini yoqib tashlanglar», deb amr qildi. Shu sababdan, to Somoniylar davrigacha ajamcha (forscha) she’rlarni ko‘mdilar, bordi-yu, nogoh (biror kishi) ajamcha she’r aytguday bo‘lsa, uni to‘plamadilar».

Davlatshoh Samarqandiyning
«Tazkirat ush-shuaro» asaridan.

Talha 828-yili vafot etadi. Bu paytda uning ukasi Abdulloh Xurosonda bo‘lmay, Dinovarda Bobakka qarshi harakatlar olib borayotgan edi. Shu sababli 828-830-yillarda Xurosonni Abdulloh nomidan Ali ibn Tohir idora qiladi. Xuroson taxtiga chiqqan Abdulloh ibn Tohir (830-844) otasi Tohirning mustaqillik tomon siyosatini davom ettirdi. Bu davrda Xuroson noibligiga Movarounnahr, Xorazm, Seyiston, Ko‘histon, Tabariston va Jurjon hududlari kirar edi. Abdulloh davrida turkiy o‘g‘uz qabilalariga tegishli ba’zi yerlar ham egallandi. Uning farmoyishi bilan ko‘chmanchi qabilalar hukmini bartaraf etish, munosib mudofaa tizimini yaratish maqsadida Farova va Dehiston qo‘rg‘onlari barpo etildi. Har bir viloyat bir necha ma’muriy birliklarga bo‘linib, bu birliklar katta va kichik tumanlardan iborat holda boshqarila boshladi. Abdulloh o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ayrim harbiy islohotlar ham o‘tkazgan.

Tohiriylar yuritgan siyosatning xususiyatlaridan yana biri ularning islomlashtirish siyosati edi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, Tohiriylar davrida O‘rta Osiyoning barcha hududlarida islom dini keng tarqaladi. Shu bilan birga, Ozarbayjondagi Bobak isyoni ta’sirida mahalliy

isyonlar ham davom etib turdi. 839-yili Tabaristonda mahalliy hokim Manzar ibn Qarin qo‘zg‘olon ko‘taradi. Shu bilan birgalikda, Ustrushona hokimi Haydar Kovus ham qayta itoatsizlik qila boshlaydi. Abdulloh katta harbiy kuch yordamida 841-yilga kelibgina bu isyonlarni bostirishga erishadi.

Mustahkam tartibot saqlanishini xohlagan Abdulloh ibn Tohir o‘ziga qarshi har qanday harakat yoki qo‘zg‘olonning oldini olishning eng muhim usuli – soliq yig‘uvchilarning suiste’molliklariga yo‘l qo‘ymaslikda deb hisoblar edi. U turli soliqlarning miqdorini kamaytirmagan bo‘lsa-da, soliqlar yig‘ishda turli jinoiy ishga qo‘l urganlarni jazolar edi. Amal va mansab egalarining o‘zboshimchaligini oldini olish va davlat xazinasiga ziyon etkazmaslik maqsadida Abdulloh o‘z qo‘l ostidagi o‘ziga sodiq kishilar orasidan ayg‘oqchilar tanlab, ularning xizmatidan foydalangan edi. Bunday maxfiy shaxslar joylarda hukmdorlarning yurish-turishi, har bir mansabdorning Abdulloh oldidagi majburiyatlarini qay darajada bajarishlari xususida noibga xabar yetkazib turishgan. Uning davrida Xuroson poytaxti Marvdan Nishopurga ko‘chirildi.

Abdullohning o‘g‘li Tohir II (844-862) davrida ham isyonlar va ichki kurashlar to‘xtamadi. Tohiriylar oilasining boshqa a’zolari Iroq va xalifalikning markaziy yerlarida rasmiy lavozimlarni egallashni davom ettirdilar. Biroq asosiy barqarorlik Abdulloh va uning o‘g‘li Tohir hukmronlik qilayotgan Xurosonda yetishmayotgan edi. Shu bilan birgalikda, xalifalik markazidagi Tohiriylar oilasi vakillari o‘rtasida o‘zaro kurashlar ham avj ola boshladi. 850-851-yillarda Tohiriylar orasida o‘zaro fitnalar ketma-ketligi yuz berdi. Fors hokimi Muhammad ibn Ibrohim jiyani Muhammad ibn Is’hoqning Bag‘dod hokimligiga tayinlanishiga qarshi chiqadi. Muhammad ibn Is’hoq Bahrayn, Yamoma, Arabiston bo‘ylab Makka va Madinaga boradigan yo‘l va Forsda o‘zining nazoratini yanada kuchaytirishni istaydi. Natijada, Muhammad ibn Is’hoq yordami bilan Husayn ibn Ismoil amakisi Muhammad ibn Ibrohimni o‘ldirgan va uning hokimligiga erishgan. Bu ichki janjallarning chiqishi Xurosonga ham ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

851-yilda g'oziylar guruhi boshchisi Solih ibn Nadr Bustda isyon ko'taradi. Solih ko'p o'tmay atrofida yaxshigina harbiy kuch to'plashga ham erishadi. 854-yili Solih Zarang shahrini ham egallab oladi. Natijada Seyiston to'laligicha Tohiriylar qo'lidan chiqib ketadi. Aynan ushbu holatning o'ziyoq tohiriylar sulolasi inqirozining boshlanayotganidan dalolat berar edi.

862-yilga kelib taxtga Muhammad ibn Tohir ko'tariladi. Uning davlat boshqaruvidagi layoqatsizligi sabab mamlakatdagi isyonlar yanada kengroq hududlarni qamrab ola bordi. 873-yilda Ya'qub ibn Lays Tohiriylar qo'shinlarini tor-mor etib, Xurosonning poytaxti Nishopur shahrini egallaydi. Shu bilan Movarounnahr va Xurosondagi Tohiriylar hukmronligiga barham berildi. Garchi 885-yili Muhammad ibn Tohir xalifa tomonidan yana Xuroson noibi etib tayinlangan bo'lsada, lekin endilikda uning o'zi somoniylarga qaram bo'lib qoladi. U X asr boshlarida vafot etadi.


Tohiriylar davlati ko'p sonli bilimdon amaldorlarga muhtoj edi. Shu bois Abdulloh ibn Tohir aholining barcha qatlamlari ma'lumot olishini ta'minlashga harakat qildi. Manbalarning guvohlik berishicha, Abdulloh otasi Tohir singari shoir ham bo'lgan. Abdullohning Marv, Amul va Xorazmni boshqarib turgan jiyani Mansur o'zining falsafiy asarlari bilan mashhur bo'lgan. Ta'kidlash joizki, Abdullohning o'g'li Tohir II (844-862) ham otasidan o'rnak olishga harakat qilgan.

Bilib oling!

Tohir ibn Husaynga Ma'mun «Ikki baxt sohibi» laqabini berdi. Bunga sabab Ma'mun Tohirni Ali ibn Isoga qarshi yuborganida Fazl ibn Sahl munajjimlar bashorati tuzib, osmon o'rtasida ikkita omadli yulduzni topdi: biri Suhayl, ikkinchisi Shi'ra yamani. Shu sababli [Ma'mun] unga «Ikki baxt sohibi» deb nom berdi. Bu hosiyatli voqea tufayli shunday bo'ldiki, Ma'mun yulduz ko'rish ilmiga oshiq bo'ldi. Fazl Tohir ibn Husaynga shunday degan edi: «Ey Tohir, men senda shunday bayroq ko'rdimki, oltmish besh yil [uni] avlodingdan hech kim qo'yib yubormaydi».

Tohiriylar xonadonining qudrati pasayib, Muhammad Ibn Tohir Ya'qub ibn Lays tomonidan qo'lga olinishi davrigach oltmish besh yil [o'tdi].

Umuman, Abdulloh va Tohir II hukmronliklari davri mahalliy madaniyatning qayta tiklanish davri bo'ldi. Ammo bu murakkab va qiyin jarayon edi. Gap shundaki, Tohiriylar sulolasi vakillarining o'zlari, xususan, Abdulloh ibn Tohir o'zining arab madaniyatiga hayrixohligini ta'kidlar edi. Shunga qaramasdan, bizga qadar yetib kelgan ayrim yozma manbalar va moddiy ashyolar mahalliy madaniyat rivojidan dalolat beradi.



Atamalar izohi

☑ ***Bobak qo'zg'oloni*** – Ozarbayjon va G'arbiy Eronda dahriylik g'oyalarini ilgari surgan xurramiylarning Bobak (Bobuk, 798-yil/800-yil, 838-yil) boshchiligidagi Arab xalifaligiga qarshi qo'zg'oloni (IX asrning 30-yillari). Qo'zg'olon keng yoyilib, Sharqiy Armaniston yerlarigacha tarqaldi, ishtirokchilarining soni 300 ming kishiga yetdi.

Vizantiya bilan bo'layotgan urush hamda Misrdagi qo'zg'olon (830-833) xalifalikka Bobak qo'zg'olonini bostirish imkonini bermadi. Shuning uchun xalifa Ma'munning vafotidan so'ng (833), xalifa Mu'tasim (833-842) Vizantiya bilan yarash bitimi tuzib, asosiy kuchini Bobak qo'zg'olonini bostirishga tashladi. 833-yil Hamadon shahri yaqinidagi jangda qo'zg'olonchilar og'ir talafot ko'rdilar. 835-yil arab qo'shiniga xalifaning eng yirik qo'mondoni Afshin (Ustrushona hokimi Haydar ibn Kovus) sarkarda qilib tayinlandi. U mahalliy mulkdorlarning yordami bilan qo'zg'olonni bostirdi. 837-yil qo'zg'olonchilarning oxirgi tayanch qal'asi – Badz qo'ldan ketdi. 838-yil Bobak va uning tarafdorlari qatl etildi.

☑ ***Tabariston*** — Erondagi tarixiy viloyat bo'lib, Mozandaron nomi bilan ko'proq mashhur. G'ilon bilan Xuroson oralig'ida. IX-XII asr manbalarida Tabariston nomi bilan ma'lum. XIII asrdan esa Mozandaron deb atalgan. Sosoniylar davrida mustaqil hokimlik bo'lgan; keyinchalik arablar, somoniylar, saljuqiylar, mo'g'ullar qo'l ostiga o'tgan, ammo hokimiyatni mahalliy hokimlar boshqargan.

☑ ***Seyiston*** – (qadimda Drang'iyona) — Eron va Afg'oniston chegarasida joylashgan tarixiy viloyat. Drang'iyona nomi bir marta Bihistun qoya yozuvlarida eslatilgan. Drang'iyonaga sak qabilalari kelib joylashgani uchun (mil.av. II asr) Sakiston, keyinchalik Seyiston deb atalgan. Yirik shaharlari: Zabol (Zobul) (Eronda), Zaranj (Afg'onistonda).

Savol va topshiriqlar

1. Tohiriylar bilan bog'liq qanday tarixiy manbalar mavjud?
2. Nima sababdan Horun ar-Rashid davriga kelib mamlakatda tanazzul boshlangan edi?
3. Horun ar-Rashidning valiahdlik farmonlariga tavsif bering.
4. Xalifalik markazidagi arab zodagonlarining al-Aminni qo'llab-quvvatlashiga nima sabab bo'lgan edi?
5. Tohir ibn Husayn haqida manbalarda qanday ma'lumotlar keltiriladi?

6. Xuroson va Movarounnahr tarixiy hududiga ta'rif bering. Xalifalik boshqaruvida bu hudud qanday ahamiyatga ega bo'lgan?

7. Tohir ibn Husaynning xalifa Ma'mun oldidagi xizmatlari nimalardan iborat edi?

8. Tohir ibn Husaynning xalifa nomini xutbadan chiqarib tashlashi Bag'dodda qanday kutib olingan?

9. Tohiriylar xonadonining sulolaviy boshqaruvi Abbosiy xalifalarning Xuroson va Movarounnahrdagi hokimiyatiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

10. Tohir ibn Husaynning vorislari xalifalik siyosatiga nisbatan qanday munosabatda bo'ldilar?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob. – T.: Yangi asr avlodi, 2019.

3. Eshov B., Odilov A. O'zbekiston tarixi. I jild. – T.: Yangi asr avlodi, 2014.

4. O'zbekiston tarixi. I qism. Darslik. Mas'ul muharrir: A.S.Sagdullayev – T.: Fan, 2019.

5. Rajabov Q. Turkiston tarixida o'tgan 55 buyuk siymo. 1-kitob. – T.: Fan, 2022.

6. Narshaxiy, Abu Bakr Muhammad. Buxoro tarixi / Tarjimon A.Rasulov, nashrga tayyorlovchilar H.Maqsud, N.Asqaraliyeva. – T.: Oydin tafakkur, 2022.

7. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild. – T.: Info capital group, 2019.

8. Frye R.N. The Cambridge history of Iran, volume 4. Cambridge university press. 2008.

9. Абу Саид Гардизи. Зайн ал-ахбар. – Т.: Фан, 1991.

10. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. – Т.: Узбекистан, 2006.

2-MAVZU. MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MUSTAQIL DAVLATLARNING TASHKIL TOPISHI. TOHIRIYLAR VA SAFFORIYLAR DAVLATI

REJA:



2.1. Tohiriylar davlatining inqirozi. Safforiylar davlati yuzaga kelishining shart-sharoitlari.

2.2. Safforiylar davlati.

2.3. Tohiriylar va safforiylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Tayanch so'z va tushunchalar

Xalifalik, davlat, Arab xalifasi, sulola, misgar, Safforiylar, xorijiylar, Ya'qub ibn Lays, shart-sharoitlar, tarix, siyosiy, harbiy, jang, Zarang, Bust, g'oziy, Ayyor, to'qnashuv, Xuroson, taxt, hokimiyat, Amir ibn Lays, al-Muvaffaq, moli xoss, noib, Hirot, Marv, Nishopur, jang, poytaxt, ammol, amir, qasida, arid, xalifa yorlig'i, tohiriylar, Seyiston.

2.1. TOHIRIYLAR DAVLATINING INQIROZI. SAFFORIYLAR DAVLATI YUZAGA KELISHINING SHART-SHAROITLARI

IX asrning o'rtalarga kelib Tohiriylar davlati muttasil davom etayotgan isyonlar va harbiy harakatlar jarayonida holdan toya boshladi. Jumladan, Muhammad ibn Tohir davrida mamlakatdagi vaziyat nihoyatda og'irlashadi. O'ta mayparast bo'lgan hukmdor davlat

ishlariga yetarlicha e'tibor qaratmagan. Natijada mamlakatda isyonlar yanada avj oladi. Jumladan, Tabaristonda Hasan ibn Zayd hukmron bo'lib oladi. Ko'p o'tmay u Daylamni ham egallaydi. 872-yili Elburz tog'lari orqali o'tib Qumni ham egallab oladi.

Bilib oling!

«[Xalifa]Musta'in Xurosonni Muhammad ibn Tohirga berdi, Muhammad ibn Tohir esa beparvo va uzoqni ko'ra olmas edi. U boshi bilan sharob ichishga sho'ng'idi va o'yin-kulgiga berilib ketdi.

Beparvolikdan ikki yuz ellik birinchi yilda [864-yili] Tabaristonda Alaviy Hasan ibn Zayd tomonidan qilingan isyondan g'azablanmadi. Tabariston amiri Sulaymon ibn Abdulloh ibn Tohir edi. Ibn Zayd u bilan jang qildi, Sulaymon mag'lubiyatga uchradi va Hasan Tabaristonni egallab oldi.

Musta'in taxtdan tushirildi; [undan] keyin Muxtadi xalifalik qilish uchun o'tirdi va o'n besh oy va o'n olti kun davomida xalifalik qildi, shundan so'ng u ham taxtdan tushirildi. Keyin ikki yuz ellik oltinchi yil [865-yili] rajab oyida Mu'tamid xalifalik qilish uchun o'tirdi. Xurosonni Muhammad ibn Tohir ushlab turadi, Tabariston va Gurgonda hokim bo'lib turgan Muhammad ibn Tohir amakisining o'g'li Muhammadga hasad qildi, Ya'qub ibn Lays bilan do'stlashdilar va uni Xurosonga hujum qilish, Muhammadni qo'lga olish va o'zlari Xurosonda o'tirish uchun u [Ya'qub ibn Lays]ni g'azablantirdi».

Abu Said Gardiziyning «Zayn al-axbor» asaridan.

Xalifalik hokimiyatining susayib borayotgan bu davrida Seyistonda hokimiyat uchun turli siyosiy va diniy oqimlar kurashi yuzaga keladi. Shuningdek, Zarang va Bust shaharlarida mavjud dehqonlar va barcha aholi guruhlari xorijiylarga qarshi kurashish uchun

birlasha boshlaydilar. Bu ba'zan manbalarda muttavvfa – «imon uchun ko'ngilli jangchilar» deb atalib ular, shuningdek, «ayyorlar» yoki «g'oziylar» deb ham nomlangan. G'oziylar ko'pincha islom diniga mansub bo'lmagan dushmanlar yoki xorijiylarga qarshi kurashish vositasi sifatida qaralgan.

IX asrning 70-yillarida g'oziylarning qurollangan guruhlari Turon va Eron chegaralaridagi xalq harakatining asosini tashkil etardi. Bu xalq harakatlaridan misgar hunarmand (saffor) aka-uka Ya'qub va Amir ibn Layslar (Safforiylar) o'z niyatlarini amalga oshirish uchun foydalandilar. Ya'qub ibn Lays birinchi bo'lib ushbu g'oziylar guruhlaridan biriga qo'shilish orqali mashhurlikka erishdi. U Seyiston qishloqlaridan birida tug'ilgan va misgarlik bilan shug'ullangan (arabcha – safforlik). Ya'qub dastlab Solih ibn Nasrning harbiy guruhiga qo'shildi. Solih ibn Nasr 852-yillarda Bust xalqi tomonidan o'zlarining amirlari sifatida tan olinadi. Solih butun Seyistonni egallab olish uchun kurashib, 854-yilda Zarang shahrida hokim bo'lib turgan Tohiriy hokimi Ibrohim ibn Husaynni yengadi va Zarangni Bust bilan birlashtiradi. Ibrohimning tor-mor etilishi bilan xalifalik va Tohiriylarning Seyiston ustidan nazorati deyarli to'xtatildi. Ammo Bust va Zarangning azaliy raqobati Solihning mavqeini zaiflashtirdi. Natijada 858-yillarda Solih boshqa g'oziy lashkarboshisi Dirham ibn Nasr tomonidan Zaranjdan haydab chiqariladi. Ammo Dirham ibn Nasrning hokimiyati u qadar kuchli bo'lmagan.

Lashkarboshilik qobiliyatiga ega bo'lgan Ya'qub ibn Lays tez orada g'oziylar guruhlarining boshlig'iga aylanadi. Ya'qub boshchiligidagi g'oziylar guruhi Seyistondagi siyosiy hayotga faol aralasha boshlaydi. 861-yilga kelib Ya'qub Dirham ibn Nasrni hokimiyatdan mahrum qiladi va Zarangda o'zini amir deb e'lon qiladi.


Bilib oling!

«Sijiston shahrining janubida, shahar tashqarisida, Regi-Gunjon degan joyda, ular Dari-To'm nomi bilan ataladigan bir joyga ko'zim tushdi. Bu joyning yaqinida, tepalikda, saroy vayronalari bor; ishonchli kishilar menga

xabar qilishicha, Ya'qub ibn Lays va uning ukalari, bir guruh yigitlar bilan, har haftada bir kun yigitlarning odatiga ko'ra mashq va o'yin-kulgi orqali o'zlarini chalg'itish uchun bu yerga kelishni odat qilganlar. Ular o'sha paytlarda mashq vaqtida jamoat uchun amir va uning yordamchisini saylashar edi. Shu kun Ya'qub kunlik mashg'ulotlarga amir etib saylandi; U har bir aka-uka, qarindosh-urug' va qaramog'idagi kishilarga mamlakatning vazir va zodagonlaridan birining nomini qo'ygan edi. Kutilmaganda, Sijiston amiri Solih ibn Nasr dushman ta'qibidan qaytayotib, bir xizmatchisi bilan bu yerga yetib keldi.


Xulq-atvori xushchaqchaq bo'lgan Solih: «Biz borib ko'ramiz, bu yoshlar firqasi nima qilayotgan ekan», dedi va ular turgan joyga keldi. Ya'qub ibn Lays o'tirgan joyidan qimirlamadi va amir Solihni ta'zim qilish uchun oldinga olib kelishni buyurdi. Yoshlar Ya'qubning amriga ko'ra, oldinga chiqib, Solihni otidan tushirib, uni Ya'qubga ta'zim qilishga majbur qildi.

Bu kunda Solihning boyligi va yoshi tugash oqshomiga yetib, Saffariyning saodati tong otgan edi, Ya'qub amirga chek qo'yish zarurligi to'g'risida ishora qildi. Solihning mansabini yo'qotib, darhol uni o'ldirishdi. Ya'qub zudlik bilan otga minib, u bilan birga bo'lganlar qurollanib, katta safarbarlik bilan shaharga yo'l oldilar va hukmdorning saroyiga kirib bordilar. Bu voqea peshin vaqtida ro'y berdi va asr namozi vaqtiga kelib Sijiston hududi Ya'qubi Lays qo'lida bo'lib, butun xalq xuddi qodir tangri kabi uning hukmronligiga bo'ysundi».



Juzjoniyning «Tabaqoti Nosiriy» asaridan.

2.2. SAFFORIYLAR DAVLATI



Ya'qub ibn Laysning bayrog'i

Shu tariqa, Ya'qub Seyistonning hokimi bo'lib oldi hamda 10 yil davomida Tohiriylarning so'nggi hukmdori Muhammad ibn Tohir (862-873) egallab turgan xalifalikning sobiq Sharqiy viloyatlarini undan tortib ola boshlaydi. 863-865-yillarda Bust hokimi bo'lib turgan Solih ibn Nasr bilan kurashlardan so'ng Bust to'la egallanadi. 866-867-yillarda Ya'qub ibn Lays Seyiston ustidan to'la nazorat o'rnatadi. 867-yili Ya'qub Hirotga yurish qiladi. Hirotdagi tohiriylar noibi Muhammad ibn Avs al-Anbari mag'lub etiladi. Hirot egallangach, Ya'qub tohiriylarning dastlabki markazi Bo'shangni ham zabt etadi.

Qisqa muddat ichida Ya'qub tomonidan Tohiriylarning mulklari birin-ketin egallanadi. Jumladan, 868-869-yillarda Fors va Kirmon, 871-yili Hirotda ko'tarilgan isyon bostirilib, shahar to'liq egallanadi, shundan so'ng Kobul, G'azna va Bomiyon egallanadi. 872-yilda Balx va Badaxshon egallanadi. 873-yilda Ya'qub Tohiriylar qo'shinlarini tor-mor etib, Xurosonning poytaxti Nishopur shahrini egallaydi. Shu tariqa, Movarounnahr va Xurosondagi Tohiriylar hukmronligiga barham beriladi.

Bilib oling!

Manbalarda aytilishicha, Ya'qubning dushmanlaridan biri, Tabariston hukmdori Xasan ibn Zayd, temir tabiati uchun Ya'qubga «Anvil» (eng qattiq metall) laqabini beradi. Ya'qub o'z huquqlarini himoya qilishda faqat qilichga asoslangan qoidani ilgari surgan. Shuning uchun u o'ziga sodiq qo'shin yaratish va ularga urush uchun zarur bo'lgan

mablag‘ bilan g‘amxo‘rlik qilishi kerak edi. Ikkinchidan, u tez-tez boylarning mol-mulkini musodara qilish orqali boylik to‘plagan. Manbalarning guvohlik berishicha, so‘nggi yillardagi harbiy muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, o‘limidan so‘ng uning xazinasida 4 million dinor va 50 million dirham mavjud bo‘lgan. Shuningdek, uning otarida 5000 tuya va 10000 ot bo‘lgan; uning jangchilari xazinadan otlar va ularga ozuqa olishgan. Shaxsiy hayotida Ya’qub har doim oddiy jangchi bo‘lib qoldi, paxta matosidan kiyim kiyar, yotar ekan, boshini qalqonga qo‘yardi. Faqat tantanali marosimlarda, ayniqsa, elchilarni qabul qilishda, u eng yaxshi jangchilardan tuzilgan va har biri 1000 kishidan iborat ikkita qismga bo‘lingan gvardiya uni qo‘riqlab turgan. Ya’qub barcha masalalarni yakka o‘zi hal qilardi va hech kim bilan boshqaruvni baham ko‘rmasdi.



Ya’qub ibn Lays nafaqat Tohiriylar hokimiyatiga qarshi kurash olib boradi, balki bir qator islohotlari bilan ham yodda qoladi. Jumladan, 865-yili shimoliy Seyistonda Xorijiy Ammor ibn Yosirni mag‘lub etadi va buning sharafiga yirik bayram uyushtiradi. Bayram majlisida Ya’qubning kotibi unga arab tilida qasida o‘qiydi. Ya’qub arab tilini bilmagan, shu sababli mazkur davrdan boshlab Ya’qub saroyida asosiy til sifatida **fors tili** ishlatilishini belgilab beradi.

Bag‘doddagi xalifalik hokimiyati Ya’qubning muvaffaqiyatlaridan anchagina xavotirga tushib, unga qarshi bir qator choralar ko‘rgan bo‘lsa-da, bu harakatlar natijasiz tugadi. 874-yilda xalifa bo‘lib o‘tgan voqealarni tan olib, Ya’qubni Xuroson va Movarounnahrga noib etib tayinlash haqidagi yorliqni berishga majbur

bo‘ladi. Garchi Ya’qubga Movarounnahr yerlari ham topshirilgan bo‘lsa-da, amalda uning hukmronligi Amudaryodan shimolga o‘tmadi. Ya’qub ibn Laysning diniy ayirmachi g‘oyalari ko‘p holda xalifaga ma’qul kelmas edi. Qolaversa, Ya’qub o‘z yerlarini xalifalik hududi hisobiga ham kengaytirmoqchi bo‘ladi. Bu esa o‘zaro ixtilofni kuchaytirib yuboradi. Hatto 876-yilda Ya’qub ibn Lays xalifa hokimiyatini egallash maqsadida Bag‘dodga qo‘shin tortadi.

IX asrning so‘nggi choragida xalifalik qator muammolar qurshovida qoladi. Xalifa al-Mutasim davrida mamluklardan tuzilgan turk gvardiyasi mamlakatdagi asosiy kuchga aylangan bo‘lib, ular hatto xalifalarni almashtirish darajasiga yetishgan edi. 861-yilda xalifa Mutavakkil (847-861) turk sarkardalari fitnalari tufayli o‘ldiriladi. Natijada, keyingi yillarda xalifalik ichida qoldi. Ayni shu paytda Xalifalik Mutavakkilning o‘g‘li Abul Ahmad gvardiya orasida nufuzi o‘ta bo‘lgan Abul Ahmad onasi kanizak bo‘lganligi sababli xalifa sifatida taxtga ko‘tarilmagan bo‘lsa ham akasi al-Mu’tadidni xalifa sifatida e’lon qilib, uning nomidan mamlakatni idora qiladi. 875-yildan Abul Ahmad o‘ziga al-Muvaffaq nomini oladi va xalifalikning amaldagi boshqaruvchisiga aylanadi.


boshboshdoqliklar hokimiyatiga xalifa chiqadi. Turkiy yuqori



Safforiylar jangchilari

Ya’qubning Bag‘dodga hujumi avvalida xalifa Ya’qub bilan kelishishga urinib, unga Xuroson, Juzjon, Tabariston, Ray va Fors amiri, shuningdek, Bag‘dod garnizoni qo‘mondoni etib tayinlanganligi to ‘g‘risidagi yorliqni yuboradi. Ammo Ya’qub yurishni to‘xtatmaydi. Bag‘doddan 100 km uzoqlikdagi Dar al-Akul degan joyda

Ya'qub va xalifa qo'shinlari to'qnash keladi. Xalifa qo'shinlari yetakchisi Abul Ahmad al-Muvaffaq jangda Ya'qubni mag'lub qiladi. Ya'qub Xuzistonga (Eronning janubi-g'arbiy qismida viloyat) qarab chekinadi.



Safforiylar sulolasi tasarrufidagi hududlar ***(ingliz tilida)***

Bilib oling!

U [Ya'qub] Xuzistonga yetib kelib, har tomonga odam yubortirib, tarafdorlarini chaqirtira boshlaydi. Xuroson-u Iroq xazinalaridan dirham-u dinor olib kelishga odamlarini yuboradi. Xalifa uning Xuzistondan joy olganini eshitib, tezlik bilan elchi va xat yubortirib aytadi: ***«Bizga sening soddaliging ayon bo'ldi. Dushman so'zlariga kirib mag'rur bo'libsan, ishning oqibatini ko'rdingmi? Qara, Yazid, Alloh taolo o'zi senga qandayligini ko'rsatdi: sening va lashkaring harakatini zoye qildi, bizning xonadonimizni saqladi. Bu sening xatoying edi. Endi bilamanki, hushyor bo'lib, qilgan ishingdan pushaymon yebsan. Xuroson-u Iroq amirligiga***

sendan loyiqroq kishi yo'q va biz ham unga da'vo qilmasmiz. Senga lutfimiz ziyoda va biz yoqimli ishlaringni nazarda tutib gunohingni kechdik. Dahshatli ishlarni qilmagansan, deb hisoblaymiz. Sen ham o'tgan ishga salavot deb tezlik bilan Xuroson va Iroqqa bor va viloyat ishlari bilan mashg'ul bo'l».


Xalifa nomasini o'qib, Ya'qubning ko'ngli yumshamadi, u qilgan amalidan pushaymon bo'lmadi. Oldiga bir tovoqda ko'kat, piyoz va baliq olib kelishlarini buyurdi. Elchini ham huzuriga chaqirtirib keltiribdi, unga qarab debdi:

« – Borib xalifaga ayt, men bir misgar (saffor) kishiman va otamdan shu kasbni o'rganganman. Mening ovqatim bug'doy noni-yu baliq, piyoz-u ko'katdir va bu podshohlik-u xazinalarni ayyorlik bilan olganman va mardlik bilan qo'lga kiritganman. Bular otamdan meros qolmagan va buni sen ham menga bermagansan. To sening boshingni hadya uchun olmagunimcha, avlodingni so'yib tashlamagunimcha tinch turolmayman. Yo shu aytganlarimni amalga oshiraman yoki qayta bug'doy noni-yu, balig'-u piyoz va ko'kat atrofiga o'tiraman».

Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asaridan.

Ya'qub ibn Lays 879-yili Eronning Jandishopur shahrida vafot etadi. Natijada Xurosonda taxt uchun kurashlar boshlanadi. Jumladan, Ya'qubning ukalari Ali va Amir ibn Layslar o'rtasida hokimiyat uchun kurash kelib chiqadi. Shu bilan bir qatorda, Tohiriylarning Xurosondagi tarafdorlari ham harakatga kirishadilar. Xususan, Bag'dodda yashab turgan Muhammad ibn Tohirning sarkardalaridan bo'lgan Abul Ahmad Xuzistoniy Marv va Nishopurni egallaydi va Muhammad ibn Tohir nomiga xutba o'qittiradi.

Natijada Xuroson ustidan nazorat Safforiylar qo'lidan chiqib ketadi. Amir ibn Lays qo'lida Kirmon va Fors hududlari qoladi. 882-yilda Tohiriylar tarafdori bo'lgan Abul Ahmad Xuzistoniy o'ldiriladi. 882-yildan 892-yilga qadar Xurosonni xalifa buyrug'i bilan Tohiriylar nomidan Rofe ibn Xarsama idora qiladi. Rofe ibn Xarsamaning qudrati



Ya'qub ibn Lays maqbarasi ***(Eronning Dizpul shahri)***

tezlik bilan o'sa boshlagan. Bunda Movarounnahr somoniylarining ishtiroki ham muhim ro'l o'ynagan. Jumladan, 883-884-yillarda Buxoro hukmdori bo'lib turgan Ismoil Somoniy Xuroson uchun kurashda Rofe ibn Xarsamani qo'llab quvvatlaydi. 885-yilda Rofe Hirotni egallab oladi. Oradan bir yil o'tar o'tmas Xorazmga yurish uyushtirgan Rofe, bu yerni o'ziga bo'ysdundirib, katta o'lja bilan ortga qaytgan. 886-yilda Rofe ibn Xarsama Ismoil Somoniy tomonidan so'ralgan yordamga javoban Movarounnahrga aka-uka Nasr va Ismoil orasidagi kurashda Ismoilni qo'llab-quvvatlash uchun tashrif buyuradi. Rofening bu harakatidan Amir ibn Lays Xurosondagi o'z qudratini oshirish uchun foydalanadi. 892-yilda xalifalik markazidagi siyosiy jarayonlar natijasida xalifa va Rofe orasida ajralish yuz beradi. Buning oqibatida Rofening Xurosondagi kuch-qudratiga putur yetadi. Natijada 892-yilga kelib Amir ibn Lays Nishopurni egallaydi va Xurosonda Safforiylar hukmronligi tiklanadi. Amir ibn Laysning Xurosonda hukmronligi 900-yilga qadar davom etgan.

2.3. TOHIRIYLAR VA SAFFORIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

Tohiriylar va Safforiylar garchi Xurosonning amaldagi mustaqil hukmdorlari sanalsa-da, legitimlik (hokimiyat qonuniyligi) jihatidan arab xalifasiga tobe bo'lgan. Har bir tohiriy hukmdor taxt tepasiga kelar ekan xalifadan hukmdorlik yorlig'ini qabul qilib olgan. Ushbu an'ana mazkur ikki sulola hukm surgan davrlarda to'la amal qilgan.

Tohiriylar mamlakatni obodonlashtirish borasida ham jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirdilar. Ular yangi kanallar qazdirib, irrigatsiya inshootlarini qayta ta'mirlab, suvdan foydalanishni yaxshilash choralarini ko'rdilar. Abdulloh ibn Tohirning buyrug'i bilan o'lkadagi yirik qonunshunoslar sug'orish uchun foydalaniladigan suv taqsimoti qonunlari to'plami – «Kitob al-kuniy»ni tuzdilar. Ushbu qonunlar yuz yillar mobaynida Movarounnahr va Xurosonda suvdan foydalanishdagi bahs-munozaralarni hal etishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Tohiriylar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining mohiyati, asosan, aholining hukmron tabaqalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Misol uchun, Tohir ibn Husaynning bizga qadar saqlangan va o'g'li Abdullohga yozgan vasiyat xatida shunday deyiladi: «Shuni bilginki, boylik ko'payib, xazina to'lib-toshganda ham u daromad keltirmaydi. U fuqaro zarurati, ular haq-huquqlarini ado etishga, ularni tashvish va qarzlardan ozod etish uchun sarflangan taqdirdagina ko'payadi, ortib boradi; bu bilan xalq ommasining e'tibori qozoniladi; shu bilan xalq farovonligi ta'minlansa, bu hokimlarga zeb beradi, davronning emin-erkinligi shu bo'ladi, shuhrat va qudrat bag'ishlaydi; shu bilan birga agar shunday ish yuritsang, yer solig'ini katta miqdorda undirish imkoniyatiga ega bo'lasan va boyliging oshadi. Bu bilan sen xalq ommasiga saxovat qo'lini ochsang, boyliging ortadi, kuch-qudrat egasi bo'lasan, qo'shin saqlaysan va hammani o'zingga maftun etasan». Tohir o'z o'g'lini mana shunday siyosat yurgizishga chaqiradi. Abdulloh ibn Tohir ko'p holda otasining maslahatlariga amal qilgan.

O'z davrida Abdulloh yirik yer egalari va davlat amaldorlari tomonidan ayrim yerlardagi ziroatkorlarga nisbatan bo'layotgan

nohaqliklarni cheklashga harakat qildi. U ziroatkorlarning ahvolini birmuncha tartibga soluvchi maxsus farmon e'lon qildi. Manbalarning guvohlik berishicha, bu farmonda shunday deyiladi: «Alloh bizni ularning qo'li bilan boqadi, bizni ularning tili bilan olqishlaydi va ularga ozor berishni ta'qiqlaydi». Albatta, bu bilan Abdulloh butunlay ziroatkor-dehqonlarning manfaatlarini himoya qiluvchi hukmdor bo'lgan deb bo'lmaydi. U «dehqonlarga ozor bermaslikni» talab qilishiga sabab, tabiiyki, busiz davlat xazinasiga yetarli soliqlar kelib tushmas edi.

Ahvolni yaxshilash uchun ayrim harakatlar qilingan bo'lishiga qaramay, tohiriylar davrida aholi ko'pgina qatlamlarining, ayniqsa, ziroatkor-dehqonlarning ahvoli og'ir bo'lib qolaverdi. Misol uchun, 844-yilda Abdulloh ibn Tohir ziroatkor-dehqonlardan olingan xirojdan katta miqdordagi mablag' to'plagan edi. Soliqlarning ko'pligi aholining qo'zg'olon ko'tarishiga olib kelgan.

Manbalarda tohiriylarning islomlashtirish siyosatida qat'iyat bilan turganliklari qayd etiladi. Ular huquqiy munosabatlarni islom peshvolariga tayangan holda rivojlantirganlar. Shuning uchun ham tohiriylar islom dinini xalq orasida keng yoyish siyosatini davom ettirib, islom ruhoniylarini asosiy tayanch deb bilganlar. Talha ibn Tohir davrida zardushtiylik dini saqlanib qolgan. Ustrushonada ham islom dini qabul qildirilgan.

Safforiylar davrida ijtimoiy-siyosiy tuzum tohiriylar davridan katta farq qilmagan. Davlat boshqaruv markazi devon bo'lgan. Harbiy vazir Jayish al-Shurat deb nomlangan. Shuningdek, safforiylar davrida murakkab moliyaviy tizim yo'lga qo'yilgan. Soliqlarning o'z vaqtida yig'ilishini *a'mol* yoki *ummol* lavozimidagi amaldorlar nazorat qilgan. Ya'qub devonida 3 ta xazina mavjud bo'lgan. Birinchi xazina, asosan, harbiy ta'minot, qurol-yarog' va harbiylar maoshi uchun ishlatiladi. Harbiy ishlar bo'yicha nozir *Arid* harbiylar



Ya'qub ibn Laysning kumush dirhami

maoshi taqsimoti bilan shug'ullanadi. Ikkinchi xazina hukmdorning shaxsiy xazinasi sanalgan. U *moli xoss* deb atalib hukmdorning xarajatlarini tashkil qilgan. Uchinchi xazina favqulodda yig'imlardan tushuvchi daromad bo'lib, shu bilan birga, ushbu xazina amir va sarkardalardan musodara qilingan mulklar hisobiga ham kengayib borgan. Bu xazina, ayniqsa, davlat chiqimlarining asosiy qismini yopishga yo'naltirilgan bo'lib, ham keng moliyaviy imkoniyatlarga ega edi. Jumladan, Amir ibn Laysning Isfahon hokimi Abu Dulafdan olgan maxsus soliq to'lovining o'ziyoq 300 ming dirham bo'lib, shu kabi mablag'lar hisobiga bu xazina katta miqdordagi pul zaxirasiga ega bo'lgan.



Amir ibn Lays tangasi

Shuningdek, Safforiylar saroyida ham *arid, dabir, munshiy* va *mushrif* kabi devon lavozimlari mavjud bo'lib, bu tizim Ya'qub ibn Lays davrida yaratilgan, asosan, Safforiylar davlat boshqaruvi tizimida yuzaga kelgan.

Atamalar izohi

☑ ***Dabir*** – (forscha «kotib») sosoniylar siyosatida katta rol o'ynagan sosoniylar Eron jamiyatidagi to'rt tabaqadan birining unvoni edi. Umaviylar xalifaligi davrida bu atama ma'muriy til sifatida fors tili o'rniga arab tiliga o'tgandan so'ng foydalanishdan chetda qoldi. Fors tili tohiriylar davridan boshqaruv tili sifatida tiklangandan keyin bu nom yana dabir (dbyr) shaklida ma'muriy nomga aylandi. Shundan so'ng bu nom safaviylar davrigacha o'nlab yillar davomida qo'llanilib, o'rniga munshiy nomi kelgan.

☑ ***Dirham*** – (arabcha) asli arabcha kumush tanga bo'lib, VII asr oxirida muomalaga kiritilgan. Bu nom arablashgan yunoncha «draxma» so'zidir.

☑ ***Mushrif*** – (arabcha «boshqaruvchi») 1) Somoniylar davrida saroy ish boshqaruvchisi; g‘aznaviylar davrida (XI asr) davlat nazoratchisidan tortib, alohida idora yoki muassasani tekshiruvchi oddiy nazoratchigacha bo‘lgan turli darajadagi rasmiy mansabdor shaxs. Uning vazifasi ish yuritishni kuzatib borish va turli xildagi suiiste’mollarning oldini olish bo‘lgan.

☑ ***Zaranj*** – Afg‘onistonning janubi-g‘arbiy qismidagi tarixiy shahar. U Nimruz viloyatining markazi bo‘lib, sharqda Lashkargoh va Qandahor, shimolda Farah va g‘arbda Eronning Zabol shahri bilan bog‘langan.

☑ ***Qum*** – Erondagi shahar. Tehron shahridan janubiy-sharqda joylashgan. Shaharga V asrda sosoniylar podshohi asos solgan, abbosiylar davridan yirik shaharga aylangan.

Savol va topshiriqlar

1. Tohiriylar davlatining halokatga yuz tutishiga olib kelgan asosiy sabablarni ayting.
2. Tohiriylar va xalifa o‘rtasida qanday munosabatlar o‘rnatilgan edi?
3. Tohiriylar davrida hukumron qatlamning yer egaligi va suvdan foydalanishga bo‘lgan e’tiborini izohlang.
4. Tohir ibn Husayn va Abdulloh ibn Tohirlarning yer-suv siyosatidagi qanday o‘gitlari saqlangan?
5. Safforiylar kimlar?
6. Safforiylar siyosiy maydonda qay tariqa paydo bo‘ldi?
7. Safforiylarga ko‘maklashgan shaxslar kimlar edi? Nima sababdan ular safforiylarni qo‘llab-quvvatlagan?
8. G‘oziylar kimlar? Ularning asl maqsadlari nima edi?
9. Safforiylar davlatining uzoq muddat yashamasligiga sabab nimada edi?
10. Xurosondagi siyosiy aloqalar fonida somoniylar bundan qay tariqa foydalanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob. – T.: Yangi asr avlodi, 2019.

3. O'zbekiston tarixi. I qism. Darslik. Mas'ul muharrir: A.S.Sagdullayev. – T.: Fan, 2019.

4. Narshaxiy, Abu Bakr Muhammad. Buxoro tarixi. / Tarjimon A.Rasulov, nashrga tayyorlovchilar H.Maqsud, N.Asqaraliyeva. – T.: Oydin tafakkur, 2022.

5. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild, T.: Info capital group, 2019.

6. Абу Саид Гардизи. Зайн ал-ахбар. Т.: Фан, 1991.

7. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. Т.: Узбекистан, 2006.

8. Камолиддин Ш. С., Илхамов З.А. Саманиды: из истории государственности Узбекистана в IX – X вв. Т., 2019.

9. Тарих-и Систан (история Систана). Перевод, введение и комментарий А.П. Смирнов. Москва, 1974.

3-MAVZU. SOMONIYLAR DAVRIDA O‘RTA OSIYO (1-QISM)



REJA:

3.1. Mavzuning manbalari va tarixshunosligi.

3.2. Somoniylarning kelib chiqishi va xalifalik boshqaruvida tutgan o‘rni.

3.3. Movarounnahrda somoniylar hokimiyatining o‘rnatilishi.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Manba, asarlar, tarixshunoslik, Narshaxiy, «Buxoro tarixi», Gardiziy, Ibn al-Asir, sayyoh, geografiya, fors tili, tarix, Arab xalifasi, Ma’mun, harbiy, yurish, jang, o‘g‘uz, Movarounnahr, Xuroson, O‘rta Osiyo, Turon, arablar, Somon, yabg‘u, Somonxudot, Bahrom, Balx, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Hirot, Nasr, Ismoil Somoniy, sulh, aka-uka, poytaxt, qo‘shin, Asad, jihod, jang, chubin, Banjur.

3.1. MAVZUNING MANBALARI VA TARIXSHUNOSLIGI

Somoniylar haqidagi ma’lumotlarni mo‘g‘ullargacha bo‘lgan davrda O‘rta Osiyo tarixiga oid deyarli barcha arab va fors manbalarida uchratish mumkin. Jumladan, Narshaxiyning «Tarixi Buxoro»,

Gardiziyning «Zayn al-axbor», al-Utbiyning «Tarixi Yaminiy», Ibn al-Asirning «al-Komil fi-t tarix», Abulfazl Bayhaqiyning «Tarixi Mas'udiy», Bal'amiyning at-Tabariy yozgan «Tarix»iga qo'shgan qo'shimchalari kabi tarixiy asarlari shular jumlasidandir. X-XII asrlarga oid tarixiy-geografik va tarixiy-biografik asarlarda hamda boshqa manbalarda ham somoniylar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Somoniylar sulolasi tarixiga bag'ishlangan maxsus asar – «Tarixi oli Somon» («Somoniylar xonadoni tarixi») mavjudligi to'g'risida dalillar mavjud bo'lib, u bizgacha yetib kelmagan. Somoniylar haqidagi ba'zi qimmatli ma'lumotlarni mo'g'ullardan keyingi davrning alohida manbalarida ham uchratish mumkin. Ularning ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan avvalgi manbalardan olinganligi sababli ularning ahamiyati kam emas. Jumladan, Rashidudinning «O'g'uznoma», Hamidulloh Qazviniyning «Tarixi guzida», Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Mahmud ibn Valining «Bahr ul-asror» asarlari shular jumlasidandir. Ibn Tag'riberdining «an-Nujum az-zahira» hamda Mirxond va Xonadamirning «Habib as-siyar» asarlarida somoniylar hukmronligi tarixiga bag'ishlangan alohida bo'lim mavjud. Bizgacha bir hujjat – Ismoil Somoniyning vaqfnomasi yetib kelgan bo'lib, unda somoniylar



Asarning o'zbek tilidagi nashrlari



tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Somoniylar sulolasi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni ularning boy tangashunoslik manbalari ham beradi. Mazkur numizmatik materiallar yozma manbalar ma'lumotlarini sezilarli darajada to'ldiradi va takomillashtiradi.

Sulola tarixi Abu Abdulloh Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» nomli qomusiy asarida ham yaxshi yoritilgan. Arab geografi va sayyohlaridan Ibn Hurdodbeh (X asr), Qudama (X asr), Ibn Ro'shta (X asr), al-Yaqubiy (IX asr), Ibn al-Faqih (IX-X asr), al-Mas'udiy (X asr), Abuzayd Balxiy (850-934), al-Istahriy (X asr), Ibn Havqal (X asr), al-Muqaddasiy (X asr), keyinchalik, as-Sam'oniy (1113-1197), Yoqut Hamaviy (1178-1229)larning asar va yozishmalarida ham mavzuga oid ko'plab materiallarni uchratish mumkin. Buxoro, Samarqand, Varaxsha, Termiz, Balx, Marv, Niso va O'rta Osyoning boshqa qadimiy maskanlarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar, IX-X asrlar numizmatikasi tarixiy voqeliklar bayoniga tegishli aniqliklarni kiritgan.

Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» asari somoniylar davri tarixini o'rganishda muhim manbalardan sanaladi. Narshaxiyning to'liq ismi Abubakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik bo'lib, X asrda (899-959-yillar) yashab o'tgan buxorolik yirik tarixchilardan biri. Hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlar saqlanmagan. Abulkarim Sam'oniyning ma'lumotlariga qaraganda, Narshaxiy asli Buxoroning Narshax (hozirgi Vobkent yonida) qishlog'idan bo'lgan.

Bilib oling!

Narshaxiy Buxoro va quyi Zarafshon vohasida joylashgan shahar va qishloqlarning geografik holati, aholisining VII-X asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettirgan qimmatli tarixiy asar muallifidir. Asar «Tarixi Buxoro» («Buxoro tarixi»), «Tarixi Narshaxiy» («Narshaxiy tarixi»), «Tahqiq ul-viloyat» («Buxoro viloyatini tahqiq etuvchi kitob») nomlari bilan mashhur bo'lib, 944-yili yozib tamomlangan.

«Buxoro tarixi»ning asl nusxasi, ya'ni Narshaxiy yozgan arabcha nusxasi saqlanmagan. Asar 1128-yili Farg'onaning Quva shahridan chiqqan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Qubaviy tarafidan birinchi bor qisqartirilib fors tiliga tarjima qilingan. Oradan taxminan 50 yil o'tgach, 1178-yili asar Muhammad ibn Zufar ibn Umar tomonidan ikkinchi marta tahrir qilingan. Shuningdek, asarning bizgacha yetib kelgan nusxalarida 1178-1220-yil voqealari ham qisqacha bayon etilgan. Shunga qaraganda, Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari uchinchi marta noma'lum muharrir tomonidan tahrir qilingan bo'lishi ehtimol.

«Buxoro tarixi» Turon hududining arablar tomonidan egallanishi, bu yerda islom dinining tarqalishi hamda mamlakatning somoniylar hukmronligi yillaridagi tarixini bayon etadi. Asarning forsiycha matni 1892, 1894, 1904 va 1939-yillarda Parij, Buxoro va Tehronda chop etilgan. Asar rus, ingliz va o'zbek tillariga (1897, 1954, 1966-yillari) ham tarjima qilingan.

XX asr tarixshunosligida Somoniylar davlati tarixi to'g'risida V.Bartold, E.A.Davidovich, N.Negmatov, A.A.Semyonov, E.Sumbaur, S.Len-Pul, K.Bosvort asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tarixshunosligida Azamat Ziyo, Shamsiddin Kamoliddin, Husniddin Mamadaliyev va boshqalarning masala mohiyatiga oid ilmiy tadqiqotlari e'tiborga molikdir.

3.2. SOMONIYLARNING KELIB CHIQISHI VA XALIFALIK BOSHQARUVIDA TUTGAN O'RNI

Manbalarda ilk Somoniy hukmdor sifatida Somonxudot nomi keltiriladi. Somonxudotning asl ismi Arquq bo'lib, manbalarda uning kelib chiqishi haqida turli ma'lumotlar mavjud. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, u Sosoniy shahanshohi Bahrom G'ur (420-438) yoki Xusrav I Anushirvonning (531-579) avlodlaridan biri bo'lgan. Lekin ko'pchilik manbalarda uning shajarasi Sosoniy shahanshohi Xurmazd IV (579-590)ning harbiy qo'mondoni Bahrom Chubinga (VI asr) borib taqaladi. Bahrom Chubin avval Armaniston va Ozarbayjon, keyin esa Ray va

Xuroson marzboni (noibi) etib tayinlangan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Bahrom Chubinning kelib chiqishi Sosoniylar xizmatidagi o'g'uz turklaridan bo'lgan. U Sosoniy hukmdorlar tomonidan Xuroson voliysi etib tayinlangan va Balx shahrida yashagan. Bu yerda unga qarashli yerlar va mulklar bo'lgan. 590-yilda u Sosoniylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, mag'lubiyatga uchragandan so'ng turklar tomonga qochib o'tgan va Buxoroda turk xoqonining qiziga uylangan. Ana shu oilaning avlodlari Somonxudotning ajdodlari bo'lgan. Taxmin qilinishicha, ular Farg'ona vodiysidagi Qubo shahrida yashaganlar. Turk xoqonligi To'xoristonni ishg'ol qilgandan keyin (618) Farg'onadagi Bahrom Chubin avlodlarining ba'zilari Balx shahriga kelib, ilgari bobolariga tegishli bo'lgan mulk yerlarini o'zlariga qaytarib olganlar. Ayrim manbalarda yozilishicha, somoniylarning ajdodlari islomdan oldin butun Movarounnahr hukmdorlari bo'lganlar. Bu ma'lumot shunga ishora qiladiki, somoniylar o'zlarini turk xoqonlarining avlodlari deb hisoblaganlar.

Manbalarda keltirilishicha, «Somon» so'zi sanskrit tiliga mansub bo'lib, buddaviylik martabalaridan biri hisoblangan. O'g'uzlarning diniy rivoyatlarida Somonxudot «Somon-yabg'u» deb atalgan va o'g'uzlarning ajdodlari qatorida tilga olingan. Al-Muqaddasiyning geografiyaga oid asarida «Somon turklari» qayd etilgan. Ma'lumki, somoniylarning qo'shinlari, harbiy qo'mondonlari va saroy xizmatchilari asosan turklardan iborat bo'lgan.

Bilib oling!

«Somon xonadoni hokimiyatining boshlanishi Xomitanning o'g'li Somon Xudot deb ataladigan kishi edi ... U ruhoniy bo'lgan va zardushtiylik dinga e'tiqod qilgan. Uning nasl-nasabi: Somon Xudot, Xamitan o'g'li, Nush o'g'li, Tamxasp o'g'li, Shoul o'g'li, Bahrom Chubin o'g'li, Bahrom Xosis o'g'li, Kuzek o'g'li, Anfian o'g'li, Kurdar o'g'li, Dirkar o'g'li, Jom o'g'li, Chor o'g'li, Bestor o'g'li, Hadad o'g'li Renjaxon, Fir o'g'li, Firavul o'g'li, Som o'g'li,

Bahrom o‘g‘li, Shasp o‘g‘li, Kuzek o‘g‘li, Jerdod o‘g‘li, Sefrasp o‘g‘li, Kergin o‘g‘li, Milad o‘g‘li, Meres o‘g‘li, Marzvan o‘g‘li, Mihron o‘g‘li, Fadan o‘g‘li, Keshrad o‘g‘li, Sadsad o‘g‘li, Beshdod o‘g‘li, Ixshin o‘g‘li, Fervin o‘g‘li, Vemom o‘g‘li, Arsatin o‘g‘li, Do‘ser Manuchehr o‘g‘li, Kuzek o‘g‘li, Irej o‘g‘li, Afridun o‘g‘li, Asqad o‘g‘li, Xushang o‘g‘li, Farvak o‘g‘li, Menishi o‘g‘li, yer yuzidagi birinchi shoh Qayumars o‘g‘li».

Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor»asaridan.

Somoniylar sulolasining bobokaloni Somonxudot siyosiy maydonda VIII asrning birinchi yarmida paydo bo‘lib, Balx shahrida hukmronlik qilgan. Balxda unga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilgach, Marvga, Xuroson amiri (728-735) Asad ibn Abdulloh al-Qasriy (yoki al-Qushayriy) oldiga keldi va undan o‘zining Balxdagi dushmanlariga qarshi kurashda yordam berishni so‘raydi. Uning yordami bilan dushmanlarini yengib o‘zining mavqeyini tiklab olgach, Somonxudot Asadning yordamida islom dinini qabul qiladi va uning sharafiga o‘z o‘g‘lining ismini Asad deb qo‘yadi. Keyinroq u o‘g‘li Asad bilan birga Xurosondagi Abu Muslim qo‘zg‘olonida (747-749) ishtirok etadi. Keyinchalik, uning o‘g‘li Asad xalifa Ma’munning Marvdagi saroyida xizmat qiladi. Somonxudotning nabiralari, Asadning o‘g‘illari Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos Movarounnahrda Rofe ibn Lays boshchiligida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonni (806-810) bostirishda faol qatnashib, qo‘zg‘olonchilar bilan muzokara olib bordilar va uni taslim bo‘lishga ko‘ndirdilar. Bu xizmatlari uchun Ma’mun Marvdan Bag‘dodga ketishdan oldin ularni hokim etib tayinlashga buyruq berdi va 819-yilda Nuh Samarqand, Ahmad Farg‘ona, Yahyo Shosh va Ustrushona, Ilyos esa Hirot hokimi etib tayinlandi.

821-yilda Xuroson noibi etib tayinlangan Tohir davrida va keyinchalik, uning avlodlari davrida ham somoniylar mulklari o‘zgarishsiz qoladi.

Somoniylar oilasida urug‘chilik qonun-qoidalari amal qilgan bo‘lib, unda oliy hukmronlik otadan to‘ng‘ich o‘g‘ilga meros bo‘lib o‘tgan. Asad ibn Somon o‘g‘illarining eng kattasi Nuh ibn Asad edi. U Movarounnahrdagi xalifalik boshqaruvida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, Nuh 822-823-yillarda Ustrushonadagi Kovus al-Afshin isyonini bostirishda ishtirok etadi. 839-840-yillarda Nuh ibn Asad Isfijobga yurish qilib, uni qo‘lga oldi va shaharning atrofini o‘rab turuvchi mudofaa devorini qurdirdi.

Bilib oling!

Nuh ibn Asadning tirikligida (819-842) Movarounnahrdagi barcha mis tangalar faqat uning nomidan Abbosiy xalifalar va Tohiriy amirlarning noibi sifatida zarb etilar edi. Numizmatik ma’lumotlar 841-842-yildan keyin Binkatda tangalar Yahyo ibn Asad nomidan zarb etila boshlaganligini ko‘rsatadi. Ahmad ibn Asad nomidan zarb etilgan tangalar esa hozircha ma’lum emas.

Samarqand hokimi bo‘lgan akasi Nuh ibn Asad 842-yilda vafot etgandan keyin Samarqand shahrida Ahmad ibn Asad, Shosh va Ustrushonada Yahyo ibn Asad ma’lum vaqt birgalikda hukm surdilar. 856-yilda Yahyo ibn Asad vafot etgandan keyin Ahmad ibn Asad to‘ng‘ich o‘g‘li Nasrni Samarqandga hokim etib tayinlaydi. Ahmad ukasi Yahyoga qarashli bo‘lgan Shosh va Ustrushonani ham o‘z qo‘l ostiga oladi va u yerga Ya’qub ismli o‘g‘lini hokim etib tayinlaydi. Shunday qilib, Movarounnahrda Ahmad ibn Asad xonadonining nufuzi ortadi. Narshaxiyning yozishicha, «Ahmad ibn Asad olim va porso bir kishi bo‘lib, umrining oxirigacha Samarqandda yashadi. Ahmad ibn Asad hadis ilmini o‘rganib, Sufyon ibn Uyayna, Ismoil ibn Aliyya, Yazid ibn Horun va Mansur ibn Ammor kabi arabistonlik muhaddislardan tahsil olgan va o‘zi ham hadis rivoyat qilgan». Ahmad ibn Asad 865-yil Farg‘onada vafot etgan. Ahmaddan keyin hokimiyat uning to‘ng‘ich o‘g‘li Nasrga o‘tgan.

Bilib oling!

«Somoniylarning bobosi bo‘lmish Somonxudot Balxdan qochib Marvga, uning (Asadning) oldiga kelganida u Somonxudotni izzatladi va himoya qildi, uning dushmanlariga qahr qilib Balxni unga qaytarib berdi. Somonxudot uning qo‘lida (islom dinini) qabul etdi. Uning Somonxudot deyilishiga sabab shuki, u bir qishloq barpo qilib, unga Somon deb nom berdi va Buxoro amirini Buxorxudot deb ataganlaridek uni ham shu qishloq nomi bilan (Somonxudot deb) atadilar. Somonxudotdan bir o‘g‘il tug‘ilganida u Asad Qushayriyni do‘st tutganidan o‘g‘liga Asad ismini berdi. Shu Asad Amiri moziy, (ya’ni) marhum amir Ismoil Somoniyning bobosidir. Ismoil Asadning o‘g‘li, Asad Somonxudotning o‘g‘li, Somonxudot esa Bahrom Cho‘bin malikning avlodlaridandir. O‘sha vaqtdan boshlab somoniylar davlati kundan-kunga rivoj topib, nihoyat yetgan martabasigacha yetdi».

Narshaxiyning
«Buxoro tarixi» asaridan.

3.3. MOVAROUNNAHRDA SOMONIYLAR HOKIMIYATINING O‘RNATILISHI

Manbalarda keltirilishicha, Ahmad ibn Asadning 7 nafar o‘g‘li bo‘lib, ular Nasr, Abu Ash’as Asad, Abu Homid Yahyo, Abu Yusuf Ya’qub, Abu Is’hoq Mansur, Ismoil, Ibrohimlar bo‘lgan. 865-yilda Ahmad vafot etgach, sulola boshlig‘i sifatida Ahmadning o‘g‘li Nasr tan olinadi. Keyinchalik, Nasr Samarqandni poytaxtga aylantiradi. Nasr nomidan Shosh va Ustrushona, shuningdek, Isfijobni Ahmadning boshqa o‘g‘li Abu Yusuf Ya’qub, Farg‘onani Abul Ashas Asad idora qiladi. Shu tariqa, Movarounnahrning katta qismi Ahmadning o‘g‘illari qo‘lida jamlandi. Davlat tepasida Nasr ibn Ahmad turar edi. Somoniylarning mutlaq mustaqil davlat sifatida e’tirof etilishi 875-yilda xalifa tomonidan Nasr ibn Ahmadga Movarounnahrni idora qilish to‘g‘risidagi yorliq yuborishi bilan belgilanadi.

Bilib oling!

«Bular (Somoniy amirlar) soni 9 ta bo‘lib, Forsda 102 yil, 6 oy va 20 kun hukmronlik qildilar. Ularning ajdodi Somon bo‘lib, u Bahrom Cho‘bin avlodidan edi. U kamtarona hayot kechirib tuya boquvchilik bilan shug‘ullangan. Uning shuhratparastligi ikki misra she’r bilan uyg‘onadi va u yo‘lboshchiga aylanadi. Uning o‘g‘li Asad xalifa Ma’mun davrida Tohir Zul Yaminayn (Tohir ibn Husayn)xizmatiga kiradi».

Hamdulloh Qazviniyning
«Tavorixi guzida» asaridan.

873-yilda Buxoro shahri va uning atroflarini tohiriylarning so‘nggi vakili Muhammad ibn Tohir egallab olib, ushbu hududlarga soliqlar soldi. Bundan g‘azablangan xalq ommasi Muhammadga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. 874-yilda Muhammad ibn Tohir Xorazm shaharlarini talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari Nasrdan Buxoroga oila a’zolaridan birini noib etib yuborishni iltimos qildilar. Nasr Buxoroga ukasi Ismoil ibn Ahmadni (Ismoil Somoniy nomi bilan mashhur, 849-907-yillarda yashagan) hokim etib jo‘natadi. Natijada deyarli butun Movarounnahrda somoniylar hokimiyati qaror topadi.

Nasr ibn Ahmad Somoniy X asr 60-yillarida Toshkent vohasiga bir necha bor yurishlar, 859-860-yillarda esa Shovg‘arga qarshi yurishlar amalga oshiriladi. Hatto 871-yil Ya’qub ibn Lays tomonidan Balx egallanguniga qadar Balx hokimi bo‘lib faoliyat yuritgan Abu Dovud Banjur Nasr Somoniyning vassali sifatida faoliyat yuritgan. IX asrning 70-yillarida Ya’qub ibn Lays Safforiyning Xurosondagi qudrati orta borishi xalifani tashvishga solib qo‘yadi. Nasr xalifa Mu’tamiddan (870-892) 875-yili butun Movarounnahrni boshqarishga yorliq olishga muvaffaq bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, Nasr Somoniy mahalliy hukmdorlar orasida ilk bora o‘z nomidan kumush tangalar zarb qilishni boshlaydi. Aynan shuning o‘zi ham Nasr Somoniyning mustaqillik uchun harakatidan dalolat berar edi.

Nasr mamlakatni deyarli mustaqil hukmdor sifatida 875-yildan 888-yilga qadar idora qiladi. Bu paytda uning qo'l ostiga Farg'ona vodiysi, Choch va Isfijob, Zarafshon vohasidan Amudaryogacha, shuningdek, Balx va unga yondosh ba'zi tog'li hududlardan iborat yirik mulklar jamlangan edi. Nasr bu saltanat uchun ma'muriy markaz sifatida Samarqand shahrini tanlagan edi.

Ammo Ismoil ibn Ahmad Buxoroda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Samarqandga yuboriladigan soliqni yubormay qo'ydi hamda akasiga tobe bo'lishni istamadi. Bunga, shuningdek, saroydagilarning aka-uka o'rtasidagi munosabatlarni buzishga urunishi ham sabab bo'ladi. Jumladan, 875-876-yillar atrofida Ismoil Somoniy Buxorodagi siyosiy shart-sharoit sababli akasining ruxsatisiz (mavjud qoidalar bo'yicha oliy hukmdor ruxsatisiz noiblik tashlab chiqilmaydi) Samarqandga kelishi ular orasida kelishmovchilikka sabab bo'ladi. Biroz muddat Samarqandda bo'lgan Ismoil ko'p o'tmay Buxoroga qaytadi. Keyinroq, Ismoil akasi yordamida o'z hukmronligini qayta mustahkamlaydi. Buxoroga uyushtirilgan tashqi hujumlarni bartaraf etgan Ismoilning Buxoro xalqi orasidagi nufuzi oshib ketadi.

Endilikda Ismoil o'z kuchi bilan akasiga qarshi kurashga kirishga ham qodir edi. Natijada 886-yilda aka-ukalar o'rtasida birinchi to'qnashuv sodir bo'lib, bu holat mamlakatda taxt uchun kurashga sabab bo'ladi. Nasr Somoniy boshchiligida Abul Ashas Asad va Abu Yusuf Ya'qublar Ismoilga qarshi qo'shin tortadi va Buxoroni egallaydi. Bunday vaziyatda Ismoil Somoniy Xuroson noibi bo'lib turgan Rofe ibn Xarsamadan yordam so'raydi. Rofe ibn Xarsama bunga javoban Movarounnahrga keladi va birlashgan qo'shin Nasr askarlarini Buxorodan uloqtirib, Samarqand ustiga yurish qiladi. Ammo Ismoil va Rofening Samarqandni egallashga bo'lgan urunishi zoye ketadi. Natijada Rofe vositachiligida Ismoil va Nasr o'rtasida sulh tuziladi. Ismoil noibligidan tushirildi. 888-yilda Ismoil Somoniy Nasrga qarshi yana isyon ko'taradi. Bu safar Is'hoq ibn Ahmad Somoniy Ismoil tomonida turib Nasrga qarshi jang qiladi. Ismoil bu jangda Nasr qo'shinlarini tor-mor etishga muvaffaq bo'ladi. Garchi bu kurashda

Nasr yengilsa-da, uning sulola boshlig‘i sifatidagi mavqeyi saqlab qolindi. Bu holat 892-yili Nasr o‘limiga qadar davom etdi.

Bilib oling!

Manbalarda aytilishicha, Nasr hukmdorlik bilan bir qatorda ilm-fan bilan ham shug‘ullanib, otasi Ahmad ibn Asad Somoniydan, Solim ibn G‘olib Samarqandiy va Abu Abdulloh Muhammad ibn Nasr Marvaziydan ta’lim olgan. Shuningdek, she’rlar bitgan hamda muhaddislik (hadisshunoslik) bilan shug‘ullangan.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O‘zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Tarixiy savol» ko‘rsatuvining *Somoniylar davlati tarixi*ga bag‘ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

Atamalar izohi

☑ ***Vaqfnoma*** – mulk egalari o‘z mol-mulklarini diniy ehtiyoj yoki xayriya ishlari uchun berganligi to‘g‘risidagi hujjat. Vaqfnomada mulkning vaqfga o‘tkazilishi sababi, mulk egasining nomi, vaqf mulkidan foydalanish tartibi, vaqf qilingan mulkning boshqaruvchisi, guvohlar ko‘rsatiladi. Vaqfnomaga guvohlar shahodati va qozi tasdig‘i kerak bo‘ladi.

☑ ***Isfijob*** – o‘rta asrdagi Isfijob hokimligining markaziy shahri. Aris daryosi vodiysi (Qozog‘iston)da joylashgan. Ko‘pgina

tadqiqotchilar uni Chimkentdan 12 km sharqda, Sayram bekatining o'rnida bo'lgan deb hisoblaydilar. Shaharning qachon vujudga kelgani noma'lum. Sharq geograflarining ma'lumotlariga qaraganda, maydoni Binkatdan 3 marta kichik bo'lgan.

☑ ***Sosoniylar*** – Yaqin va O'rta Sharqda, asosan, Eronda III-VII asrlarda hukmronlik qilgan eroniy sulola. Kelib chiqishi Porso viloyati (Fors)dan bo'lib, Porsoning Soson urug'idan bo'lgan birinchi shohi Papakning otasi Soson nomi bilan atalgan. Papakning o'g'li Ardasher I Sosoniylar davlatining asoschisi bo'lgan. Sosoniylar sulolasi vakillari: Ardasher I (224-239); Shopur I (239-272), Hurmuzd I (272-273); Bahrom I (273-276); Bahrom II (276-293); Bahrom III (293); Narse (293-302); Hurmuzd II (302-309); Shopur II (309-379); Ardasher II (379-383); Shopur III (383-388); Bahrom IV (388-399); Yazdigard I (399-420); Bahrom Go'r (421-439); Yazdigard II (439-457); Hurmuzd III (457-459); Feruz (459-484); Balash (484-488); Qubod I (488-496, 498-531); Zamasp (496-498); Xusrav I Anushirvon (531-579); Hurmuzd IV (579-590); Xusrav II Parviz (591-628); Qubod II (628); Ardasher III (628-629); Yazdigard III (632-651).

Savol va topshiriqlar

1. Somoniylarning kelib chiqishi qaysi xalqlarga borib taqaladi?
2. Somonxudot va Marv noibi o'rtasida munosabatlar qanday bo'lgan?
3. Somonxudot avlodlarining nufuzi oshishini taminlab bergan omillarni sanang.
4. Somonxudot nabiralari nima sababdan Movarounnahr va Xuroson viloyatlariga hokim etib tayinlangan?
5. Somonxudot nabiralari va tohiriylar o'rtasidagi munosabatlar qanday edi?
6. Qaysi Somoniy hukmdor Movaraounnahrning ilk mustaqil hukmdori sifatida qaralishi lozim?
7. Ismoil Somoniy shaxsiga ta'rif bering.
8. Nasr va Ismoil o'rtasidagi numosabat haqida ma'lumot bering.

9. Somoniylarning mustaqillikka erishishi uchun qo'l kelgan omillarni sanang.

10. Ismoil Somoniyning hokimiyatga kelishi uchun zamin yaratgan omillarni ayting.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob. T.: Yangi asr avlodi. 2019.

3. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

4. Narshaxiy, Abu Bakr Muhammad. Buxoro tarixi. / Tarjimon A.Rasulov, nashrga tayyorlovchilar H.Maqsud, N.Asqaraliyeva. T.: Oydin tafakkur, 2022.

5. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san'ati. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2018.

6. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild, T.:Info capital group, 2019.

7. Абу Саид Гардизи. Зайн ал-ахбар. Т.: Фан, 1991.

8. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. Т.: Узбекистан, 2006.

9. Камолиддин Ш.С. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний (ўзбек давлатчили тарихидан (IX-X асрлар)). Mauritius: Scholars' press, 2017.

10. Камолиддин Ш. С., Илхамов З.А. Саманиды: из истории государственности Узбекистана в IX – X вв. Т., 2019.

11. Тарих-и Систан (история Систана). Перевод, введение и комментарий А.П. Смирнов. Москва,1974.

4-MAVZU. SOMONIYLAR DAVRIDA O‘RTA OSIYO (2-QISM)

REJA:



4.1. Ismoil Somoniy – buyuk davlat arbobi.
4.2. Somoniylar davlatining siyosiy tarixi.
4.3. Somoniylar davlati inqirozi sabablari va oqibatlari.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Mamluklar, Ismoil Somoniy, o‘g‘uz, qorluq, dasht, Buxoro, davlat, somoniylar, Kanpirak, shahar, devor, ko‘chmanchilar, dashtliklar, Movarounnahr, Xuroson, Amir ibn Lays, Taroz, xoqon, sayyid, Balx, amir, qo‘zg‘olon, turklar, jihod, inqiroz, fitna, g‘ulom, qo‘shin, tegin, G‘aznaviylar, Qoraxoniylar, uyg‘ur, qarmatiylik, inqiroz, buvayxiylar, hojib.

4.1. ISMOIL SOMONIY – BUYUK DAVLAT ARBOBI

892-yilda Nasr vafot etgach, Ismoil Movarounnahrning to‘laqonli hukmdori bo‘lib qoldi. Ismoil ibn Ahmad Samarqandga sobiq hukmdorning o‘g‘li Ahmad ibn Nasrni hokim etib tayinladi va Buxoroga qaytdi. O‘sha yilda xalifa al-Mu’tazid Ismoil ibn Ahmadni Movarounnahr va Xurosonning oliy hukmdori etib tayinladi hamda unga buni tasdiqlovchi maxsus yorliq yubordi. Poytaxt esa Samaqanddan Buxoroga ko‘chirildi va somoniylar sulolasining so‘nggi vakiligacha ularning qarorgohi bo‘lib qoldi.

Bilib oling!

Ismoil ibn Ahmad Somoniy siyosiy maqsadda Termiz sayyidlarining oilasiga mansub qizga uylangan. Natijada uning avlodlari tomirlarida Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning qoni oqa boshlaydi. Bu bilan musulmonlarning ko'z o'ngida Somoniylarning hokimiyati yana ham qonuniy, shar'iy hisoblanar edi. Bu esa hukmdorning diniy, siyosiy nufuzi ortishiga ham sabab bo'lar edi.



Ismoil Somoniy

Ismoil Somoniy dastlab shimoldan bo'ladigan turklarning tinimsiz hujumlari oldini olish hamda bu yerda tuzilayotgan yangi qarluqlar saltanatiga zarba berish uchun 893-yilda ko'chmanchilarga qarshi ulkan qo'shin bilan yurish qildi. Ismoil Somoniy qo'shinlari Tarozni egalladi. Bu yurishda Ismoil ko'chmanchi Turk xoqoni, uning xotini Xotunni va o'n mingga yaqin kishini asirga oldi. Manbalarda keltirilishicha, Ismoil o'lja sifatida dashtliklarning son-sanoqsiz otlarini qo'lga kiritgan. Shuningdek, Ismoil suvoriylarining har biri ming dirhamlik o'ljani qo'lga kiritgan. Shundan keyin Ismoil Somoniy Ustrushonaga yurish qilib, uning hukmdori Sayr ibn Abdullohni yengdi va bu hududni egallashga muvaffaq bo'ldi.

IX asr oxiriga kelib Xurosonning ko'p qismi Amir ibn Lays as-Safforning qo'l ostiga o'tadi. U kuchayib, Xorazm va Movarounnahrga ham tahdid qilayotgan edi. Uning tazyiqi ostida xalifa al-Mu'tazid 898-yilda Movarounnahr va Balx voliyligini Ismoil ibn Ahmaddan olib, Amir ibn Laysga berishga majbur bo'ldi va bu haqida farmon chiqardi.

Bilib oling!

«Amir ibn Lays bilan amir Ismoilni bir-biriga qarshi xalifa al-Mu'tazid (892-902) gij-gijlatib qo'ygan edi, deb yozgan edi ibn Xollikon, – Amir Eronda o'zining mustahkam hokimiyatini o'rnatdi. Xalifa ham [Amirning] barcha xohish-istaklarini bajarishi kerak edi. Xalifaning talabi bilan 898-yili barcha Xuroson ziyoratchilarini to'plab, Ismoilning taxtdan tushirilgani, Amirning Movarounnahr noibi etib tayinlangani e'lon qilindi. Ketma-ket Nishopurga, Amir huzuriga turli tuhfalar hamda Movarounnahrga noib etib tayinlanganligi to'g'risidagi guvohnoma bilan elchilar yuborildi. Elchi o'zi olib kelgan xil'atlar: chopon va kiyimlarni yoyib qo'ydi. Amir xalifaga hurmat yuzasidan choponlarni birma-bir kiyib ko'rdi. Nihoyat, elchi Amirga Movarounnahr noibligi to'g'risidagi guvohnomani uzatdi. Amir: «Buni nima qilaman, Ismoil qo'lidan Movarounnahrni 100 ming yalang'och shamshirsiz olib bo'lmaydi-ku», – dedi. Elchi esa: «Buni o'zing bilasan, axir o'zingning ishtak-irodang shunday edi-ku», – dedi. Amir guvohnomani ikki qo'llab olib, o'pib, boshiga qo'yib, keyin oldiga qo'ydi».

Farmonni qo'liga olgach, Amir Nishopurdan qo'shin bilan shimolga qarab yurib, To'xoristondagi Abu Dovudiylar va Juzjondagi Farig'uniylarni o'ziga sodiqlikka qasamyod qilishga da'vat etdi. 899-yilda Ismoil ibn Ahmad qo'shin bilan Amudaryodan kechib o'tib, Omul shahridan janubda Amir ibn Lays yuborgan qo'shin bilan jangga kirishdi va ularni mag'lubiyatga uchratdi. Jangda Amirning 6 ming askari halok bo'ldi. Qo'shinning qolgan-qutganlari Nishopurga chekinadi. Jangdan so'ng Ismoil Somoniy barcha asir tushganlarni hayron qoldirgan holda ularni o'z vatanlariga qaytib ketishlariga ruxsat berdi. Ismoilning bunday oliyhimmatligi safforiy harbiylarini lol

qoldirdi hamda ularning somoniy hukmdoriga nisbatan munosabati o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Mazkur sarkardalarning ma’lum xayrixohligidan foydalangan Ismoil 900-yil. bahorida Balx yonida Safforiylar qo‘shinlarini tor-mor etdi. Amir ibn Lays qo‘shini butkul tor-mor keltirildi, o‘zi asirga olinib, Bag‘dodga, xalifa huzuriga yuborildi. Manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, Ismoilni nafaqat Buxorodan, balki Xorazm va Farg‘onadan kelgan harbiy kuchlar ham qo‘llab-quvvatlagan edilar.

Bilib oling!

Narshaxiyning yozishicha, Ismoil bu jangda Buxoro hunarmandlari va oddiy xalqning qo‘liga qurol berib, ularni o‘z ozodligini saqlab qolishga chaqirgan. Keng xalq ommasining qo‘llab-quvvatlashi natijasida Ismoil Somoniy arab bosqinidan keyin birinchi bo‘lib o‘zaro janjallar domiga tortilgan, bosqinchilar tomonidan talangan o‘lkani qudratli va mustaqil davlatga aylantirish yo‘lini tutdi.

900-yili xalifa al-Mu’tazid Amir ibn Laysning qo‘l ostida bo‘lgan barcha yerlarni Ismoil ibn Ahmadga topshirdi. Shunday qilib, Ismoil ibn Ahmad Somoniy Movarounnahr va Xuroson voliysi bo‘ldi. 902-yilda Ismoil ibn Ahmad Gurgon va Tabaristonda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonni bostirib, u yerlarni qayta egalladi. Bu hududga o‘z lashkarboshisi Ahmad ibn Sahlni hokim etib tayinladi. Shu yili xalifa al-Mu’tazid vafot etib, uning o‘rniga al-Muktafi xalifa bo‘ldi va Xuroson voliyligi haqida yorliqni Ismoilga, undan keyin esa o‘g‘li Ahmadga yubordi. Xurosonga qo‘shimcha qilib u Ray, Qazvin va Zinjonni ham Ismoil hukmiga topshiradi. Natijada Farg‘ona, Isfijob (Sayram), Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chag‘oniyon, Xuttalon, Kesh, Seyiston, G‘azna kabi qator viloyatlar Somoniylar davlati tarkibiga kirdi. Shunday qilib, Ismoil Somoniy uyushgan qo‘shin va markazlashgan davlat barpo etib, Xuroson va Movaro-unnahrni yagona davlatga birlashtirdi, xalifaning ishonch yorlig‘ini qo‘lga kiritdi, shimoldagi ko‘chmanchilar hujumlariga chek qo‘ydi.

904-905-yillarda mamlakatga shimoldan dashtlik turklarning katta qo'shini yana Movarounnahr chegaralariga hujum uyushtirdi. Manbalarda keltirilishicha, dashtliklar qo'shini shu qadar ulkan bo'lib, ularning qabila boshliqlarining o'zlari 700 chodirdan iborat edilar. Shunga qaramay, Ismoil Somoniy ko'chmanchilar ustiga yurishlar uyushtirib, ularni mamlakatdan haydab chiqaradi. Shu tariqa, Somoniy mamlakat shimolining butkul xavfsizligini ta'minlaydi. Endilikda turkiy ko'chmanchilarning shimoldan hujumi to'xtatiladi hamda oddiy xalq tomonidan Buxoro va uning atrof viloyatlarini o'rab turuvchi «Devori Kanpirak»ni har yili ta'mirlash zarurati yo'qoladi. Tarixchi Narshaxiy bu xususda Ismoilning: «Men hayot ekanman, Buxoroning istehkomi o'zim bo'laman», degan so'zlarini keltiradi.



Ismoil Somoniyning Dushanbedagi haykali

Ismoil Somoniyning amalga oshirgan eng muhim ishlaridan biri bu qo'shin islohoti edi. Ungacha qo'shin faqat chaqiriq bo'yicha ma'lum vaqtda to'planib harbiy xizmat o'tovchi askarlar va jihod urushlarini olib boruvchi ko'ngilli g'oziylardan iborat edi. Bu qo'shinlar dehqonlar (dehqonlar – qishloq hikimi) va xatiblarga bo'ysunar edi. Amir ularga bevosita o'z hukmini to'la o'tkaza olmas edi va faqat dehqonlar hamda xatiblar orqali ish olib borishga majbur edi. Shuning uchun amir bu vositachilarga bog'liq bo'lib qolgan edi. Ismoil Somoniy Abbosiy xalifalardan o'rnak olib, ilk bor yollangan askarlardan iborat muntazam professional qo'shin tuzishga kirishdi. Bu qo'shin endi dehqonlar yoki xatiblarga emas, balki bevosita uning o'ziga va unga shaxsan sodiq

bo‘lgan ishonchli odamlariga bo‘ysungan. Qo‘shin harbiy jihatdan yaxshi tayyorlangan turk g‘ulomlaridan tashkil topgan edi, ularga maosh hukumat tomonidan, ya’ni amir xazinasidan berilar edi. G‘ulomlar qo‘shinga, asosan, o‘g‘uz va turkman qabilalaridan yollangan hamda saroy qoshida xizmat qilar edi.



Ismoil Somoniyning Xo‘janddagi haykali

Ismoil ibn Ahmad somoniylardan birinchi bo‘lib Movarounnahrda markazlashgan davlat tamoyilida hukmronlik qila boshladi. U Abbosiy xalifalarga sodiq qolgan holda o‘zining hokimiyatini mustahkamlab, markazlashtirilgan ma’muriy boshqaruv tizimini mukammallashtirganligi, turk g‘ulomlaridan iborat kuchli muntazam qo‘shin tuzganligi natijasida ko‘chmanchi dashtliklarga qarshi serxarajat mudofaa devorlarini qurishga hojat qolmadi. Buning evaziga odamlar o‘z ichki muammolarini hal qilishga ko‘proq e’tibor berishlariga imkoniyatlar tug‘ildi. Ismoil ibn Ahmad Somoniy joriy etgan boshqaruv tamoyillari undan keyin ham 100 yil davomida amal qildi.

Ismoil Somoniy 907-yil 25-noyabr Buxoro yaqinidagi o‘ziga qarashli Zarmon qishlog‘ida vafot etadi. Unga vafotidan keyin al-Amir al-Moziy, ya’ni «Dunyodan o‘tgan amir» degan laqabini berdilar.

4.2. SOMONIYLAR DAVLATINING SIYOSIY TARIXI

907-yilda Ismoil Somoniy vafot etib, taxtni uning o‘g‘li Ahmad ibn Ismoil egalladi. Ahmad uzoq vaqt hukmronlik qilmadi (907-914). Uning davrida davlatni idora etishda arab tilining qayta tiklanishi, boshqaruvdagi ba’zi salbiy holatlar ko‘pgina mahalliy zodagonlar va turk g‘ulomlarining noroziligini uyg‘otdi. Natijada u 914-yilda turk g‘ulomlari tomonidan o‘ldirildi.

Ibn Zofirning yozishicha, Daylam hukmdori Ibn Qarin somoniylar hukmdoridan o‘z vatanidagi raqiblariga qarshi himoya va harbiy yordam so‘rab kelgan. U somoniylar saroyida bir necha kun davomida amir qabuliga kirolmasdan qolib ketadi. Ibn Qarin o‘zining eski tanishi bo‘lgan daylamlik, Ahmad ibn Ismoilning sarkardalaridan biriga bu haqida shikoyat qiladi. Oxir oqibat, bu masala saroy kotibi Abu Xasanga 6000 dinor pora berish orqali hal qilinadi. Ibn Qarin pulni mahalliy savdogarlardan qarzga oladi va ularni Abu Xasanga beradi hamda amir qabuliga kirishga muvaffaq bo‘lgan. Ahmad ibn Ismoil tashrif buyurgan kishini juda yaxshi ko‘rar va unga sovg‘alar bilan hurmat ko‘rsatib muomala qilar edi. Ahmad ibn Ismoil Ibn Qaringa maxsus xil’at, otlar, mablag‘ va harbiy kuch beradi.

Bilib oling!

Marv shahrida bo‘lgan vaqtida Ibn Qarin shahar hokimi Muhammad ibn Ali as-Sulukga Amir Ahmad ibn Ismoil qabuliga kirish uchun 6000 dinor pora berganini aytadi. Hokim ushbu mablag‘ kimga to‘langanligini so‘radi va bu haqida poytaxtga xabar yubordi. Ushbu xabarni eshitgan Somoniy amiri Ibn Qarinni huzuriga qaytarib yuborishni buyurdi. Ibn Qarin qaytgach, uni Ahmad ibn Ismoilning qarorgohiga olib kelishdi. Ahmad ibn Ismoil bu paytda ov uchun Buxoroni tark etgan edi. U voqeani aniqlash uchun Ibn Qarinni so‘roq qildi. Haqiqatni bilganidan so‘ng, Abu Xasanni chaqirib, o‘z mansabidan nojoiz foydalangani uchun unga tanbeh berdi, poraxo‘r saroy xizmatchilari bilan Buxoroga qaytib kelishi bilan shug‘ullanishga va’da beradi.

Pora olgani uchun hayoti xavfda qolgan Abu Xasan mavqeyi va hayotidan qo‘rqib, Buxoroga qaytishidan oldin amirini o‘ldirishni rejalashtirgan. Unga bu fitnada bir guruh g‘ulomlar qo‘shilgan. U ularga yuqori maosh va yirik lavozim va’da qiladi. Ular amirni o‘ldirganlaridan keyin Ahmad ibn Ismoilning amakisini taxtga qo‘yishga kelishib oladilar. O‘sha g‘ulomlar amirning chodiriga kirib, uni o‘ldirishadi.



Ahmad ibn Ismoil tangasi

Shundan so‘ng, Abu Xasan tarafdorlariga shoshilinch ravishda Buxoroga qaytib borishni va qal’ani, hokim saroyini va xazinalarni egallab olishni buyurdi. Ammo fitnaga aloqasi bo‘lmagan g‘ulomlar Buxoroga, amirning onasiga g‘ulomlar va Abu Xasanning xiyonati to‘g‘risida xabar yuborishdi. Malika darhol shahar hokimiga xabar qiladi va natijada Buxoro Abu Xasan isyonidan boxabar bo‘lib, hujumga tayyorgarlik ko‘radi. Isyonchilar amirning onasi va uning o‘rinbosari tomonidan olib borilayotgan tayyorgarliklardan bexabar holda Buxoroga yetib keladi. Ammo son jihatdan ko‘p va yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan Buxoro mudofaachilari tomonidan mag‘lub etiladilar.

Bilib oling!

«Amiri shahidning shunday odati bor edi: uning bir sheri bo‘lib, har kecha amir yotadigan uy eshigiga o‘sha sherni zanjir bilan bog‘lab qo‘yar edilar, kim u uyga kirmoqchi bo‘lsa, sher uni halok qilar edi. O‘sha kecha amir g‘amgin bo‘lganidan uning hamma xos kishilari ham u bilan mashg‘ul bo‘lib, sherni olib kelishni unutib qo‘ydilar. Amir uxlab yotganida uning qullaridan bir to‘dasi kirib boshini oldilar. (Bu voqea) hijratdan uch yuz birinchi yil jumod al-oxir oyining o‘n birinchisida (914-yil 12-yanvar) payshanba kuni (bo‘lgan edi). Uni Buxoroga olib kelib, Navkanda qabristoniga qo‘ydilar va unga «Amiri shahid» deb laqab berdilar. «Bu ishni Abul Hasan boshqargan» – deb unga tuhmat qildilar va uni Buxoroga olib kelib dorga osdilar. Amirga suiqasd qilgan qullardan ba’zilarini topib o‘ldirdilar, ba’zilari Turkistonga qochdi. Uning podshohlik muddati olti yilu to‘rt oy va besh kun bo‘ldi».

Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi»asaridan.

Isyon bostirilgach Buxoro shahri hokimi Muhammad ibn Ahmad vaqtni behuda sarflamadi va dafn marosimidan ko'p o'tmay vorislik masalasini tezda hal qildi. O'sha paytda amirning 2 nafar o'g'li bo'lib, kattasi, 12 yoshli Abu Fadl kasalmandligi sababli 8 yoshli Nasr ibn Ahmad taxtga (914-943) o'tiradi. U balog'atga yetgunga qadar davlat ishlarini bosh vazir Abu Abdulloh Jayhoniy (914-921) hamda al-Balamiy (918-938) kabi ma'rifatli vazirlar boshqardilar.

914-yil oxirida Samarqandda yana qo'zg'olon ko'tarildi. Davlatning janubiy hududlarida bo'lgan Husayn ibn Ali Marvaziy rahbarligidagi isyon, ayniqsa, keskin tus oldi. Bu qo'zg'olon qarmatlar g'oyasi bayrog'i ostida bo'lib o'tdi. Qo'zg'olon 918-yilda bostirilib, Marvaziy asir olindi. Ko'p o'tmay Nasrning qarindoshi Ahmad ibn Nuh hokimiyatga qarshi bosh ko'tardi. 922-yilda esa Somoniylardan bo'lgan Ilyos ibn Is'hoq qo'zg'olon ko'tardi. Tinmay davom etgan qo'zg'olon, boshboshdoqlik va tartibsizliklarlar Somoniylar davlatining qudratiga ta'sir ko'rsatib, u asta-sekinlik bilan inqirozga yuz tuta boshladi.

Bilib oling!

Nasr ibn Ahmad 906-yilda (Ismoil Somoniyning nabirasi) Ahmad ibn Ismoil (907-914) oilasida tug'ilgan. Nasrning yoshligi tufayli Jayhoniy imperiyaning amalda hukmdoriga aylandi. Nasr II hukmronligi Somoniylar davrining eng yaxshi davri, boshqacha aytganda, sulolaning «oltin davri» hisoblanadi. Uning taxallusi «Amir Sayyid» edi. Chunki bu shahzoda ona tomondan payg'ambar xonadoni vakili edi. Davlat barqarorligi va taraqqiyotida uning vaziri Abu Abdulloh Jayhoniyning o'rni juda muhim edi.

Nasr ibn Ahmad mamlakatda islomlashtirish siyosatini davom ettiradi. Tashqi siyosatda Sharqiy Turkistondagi uyg'ur hukmdorlari bilan aloqalar yo'lga qo'yiladi. Jumladan, uning o'g'li Nuh ibn Nasr uyg'ur hukmdorining qiziga uylanadi. Keyinchalik, bu nikohdan Abdumalik ibn Nuh tug'iladi.



Nasr ibn Ahmad tangasi

Ta'kidlash lozimki, Nasr ibn Ahmad hukmronligi davrida Somoniylar davlati hududlarida *qarmatiy*lar diniy harakati ancha keskin tus oldi. Qarmatiylar islomning yoyilishi, yer egaligi munosabatlarining kuchayishiga qarshi chiqdilar va ilgarigi an'analari qishloq jamoalarini qayta tiklash g'oyalarini yoqlab chiqqan edilar. Mazkur harakat mamlakatda ma'lum notinchliklarga sabab ham bo'ldi. Qarmatiylar harakatiga amirning ba'zi yon berishlari, hukumatning bu boradagi qat'iy harakatlarni amalga oshirmaganligi musulmon ruhoniylarining noroziligiga ham sabab bo'lgan edi. Harbiy gvardiya ham ruhoniylar tomonga o'ta boshladi. Natijada Nasr II ga qarshi fitna yuzaga keldi. Garchi Nasr II fitnachilar boshlig'ini aniqlab, uni qatl etsa-da, lekin mamlakatda yuzaga kelgan norozilik va inqiroz holatining oldini ololmasligiga ko'zi yetdi. Shu bois, o'g'li Nuh ibn Nasr foydasiga taxtdan voz kechdi.

Bilib oling!

943-yilda taxtga o'tirgan Nasrning o'g'li Nuh qarmatiylarga qarshi shafqatsiz kurash olib borishga qaror qildi. Ularning mol-mulklarini musodara qilb, o'zlarini ta'qib etdi. Shu bilan birga, Nuh islomning shia oqimiga e'tiqod qilgan *buvayxiy*larga qarshi harbiy harakatlar olib boradi. 946-947-yillarda Nuh ibn Nasr tangalarida uning *Sobiq al-Amir* unvoni yonida yangi *al-Malik al-Muayyid* unvoni paydo bo'ladi, bu esa «hamdard yoki madadkor hukmdor» degan ma'noni anglatadi. Bu nom Nuhning buvayxiylarga qarshi kurashda xalifaga bergan yordami uchun berilgan edi.



Nuh ibn Nasr tangasi

Bu paytda tinimsiz urushlar tufayli Somoniylar davlatining inqirozi yaqqol ko'zga tashlana boshladi. 942-yili moliyaviy tanglik bo'lgan yilda xiroj solig'i aholidan ikki marotaba yig'ib olindi. Qo'shinga vaqtida maosh to'lay olmaslik esa harbiylar orasida norozilik kayfiyatining kuchayishiga sabab bo'ldi. Bo'shab qolgan xazinani to'ldirish maqsadida Nuh soliqlar miqdorini ko'paytirdi. Bu esa tabiiyki, xalq noroziligini yanada oshirdi. Xalq noroziligidan foydalangan Nuhning amakisi Ibrohim ibn Ahmad Xuroson noibi Abu Ali Chag'oniy yordamida 947-yili Buxoro taxtini egallab olishga muvaffaq bo'ldi. Abu Ali Chag'oniy Xurosonga qaytgach, Nuh yana Buxoro taxtiga qaytdi va isyonkor qarindoshlarini qattiq jazoladi. Somoniylar hukmdori Abu Ali Chag'oniy bilan kelishishga majbur bo'ldi. Uni avval Chag'oniyon, 952-yili Xuroson hokimi etib tayinladi.



Abdulmalik I tangasi

Abdulmalik I hukmronligi davrida (954-961) ichki nizo va parokandalik kuchayib, turkiy gvardiya boshlig'i Alpteginning hokimiyat boshqaruvidagi o'rni o'sib ketdi. Alptegin vazir Abu Ali Balamiy bilan birga butun hokimiyatni qo'lida mujassam qilib oldi. Lekin, keyinchalik, Mansur I (Mansur ibn Nuh) (961-976) davrida uning hukmronlik darajasi cheklana boshlandi. Marv va Balx yonida bo'lgan to'qnashuvlardan so'ng Alptegin janubga qarab yo'l oldi. Tez orada G'azna va uning yon-atroflarini egallab, o'z davlatini barpo etmoqchi bo'ldi. Uning hukmronligi bor-yo'g'i ikki yilga bordi, xolos. G'aznada Sabuqtegin hokim sifatida rasman Somoniylarga qaramlikni saqlab turdi. Soliqlarning yil sayin ko'payib borishi, zodagonlarning o'zaro janjallari, noiblarning markazga



Mansur I ning taxtga chiqish marosimi (XIV asrda chizilgan surat)

bo‘ysunmay qo‘yishi va saroyda bo‘layotgan taxt uchun kurashlar Somoniylar davlatini juda zaiflashtirib yubordi.

Bu kurashlar, ayniqsa, Amir Nuh II (976-997) hukmronligi davrida keskin tus oldi. Ichki nizolar oqibatida Nuh II Yettisuv va Qoshg‘arda vujudga kelgan Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrga qilgan yurishlariga qarshilik qilolmadi. Somoniylar davlatidagi beqarorlikdan foydalangan qoraxoniy Horun Bug‘roxon 990-yilda g‘arb tomon qo‘shin tortdi va ikki yil davomida Somoniylarga qarshi kurashib, bir qancha viloyatlarni bosib oldi. Nuh II ning qoraxoniylarga qarshi harakatlari tegishli samara bermadi. Uning mamlakatni himoya qilish xususidagi chaqiriqlari zoye ketdi.



Qo‘zg‘olonchilarni mahv etayotgan Nuh II (Hofizi Abro‘ning “Majma at-tavorix” asariga ishlangan surat)

Ta’kidlash joizki, o‘zaro nizo va parokandalik, soliqlar yukidan charchagan aholining



994-yil avgust oyida Xurosonda Somoniylar hamda qo‘zg‘olonchilar o‘rtasida bo‘lgan jang tasviri.

aksariyat qismi uni qo‘llamadi. Xuroson hokimi Abu Ali Simjuriy yashirin ravishda qoraxoniylar bilan til biriktirgan bo‘lib, hukmdorga harbiy yordam ko‘rsatmadi. Somoniylar sarkardasi Foyiq esa dushman qo‘shini bilan jang qilish o‘rniga qoraxoniylar tomoniga o‘tib ketdi. Qoraxoniylar tez orada poytaxt Buxoroni egallashga muvaffaq bo‘ldilar, Nuh II esa Omul tomonga chekinishga majbur bo‘ldi. Faqatgina Qoraxoniylar hukmdori Bug‘roxonning to‘satdan vafot etishi vaziyatni o‘zgartirdi. Shundan so‘ng Qoraxoniylar qo‘shini mamlakatni tark etdi. Og‘ir vaziyatga tushib qolgan Nuh II G‘azna hokimi Sabuqteginga yordam so‘rab murojaat etdi. Uning yordamida isyonkor amaldor va harbiylarni jazoladi. Shundan so‘ng minnatdorchilik ramzi sifatida Xuroson hokimligi Sabuqteginning o‘g‘li Mahmudga (Mahmud G‘aznaviy) topshirildi. Qayd etish lozimki, Somoniy hukmdorlarining Qoraxoniylar bilan olib borgan kurashi mamlakatni holdan toydirdi. O‘zaro jang-u jadallardan charchagan aholi orasida norozilik kayfiyati kuchayib bordi.

Mansur II hukmronligi (997-999) davri ham yuqorida qayd qilingan tanazzul holatidan farqli holda kechmadi. Sulton Mahmud

G‘aznaviyning janubdan rasman somoniylarga qarashli Xuroson o‘lkasiga tahdidi, qoraxoniylarning doimiy ravishda chegaralarni buzib, ichkari o‘lkalar tomon siljiy boshlashlari, Xorazmda deyarli mustaqil ma’muniylar sulolasining sa’y-harakatlari, harbiy sarkarda, zodagonlarning hokimiyat uchun kurashi, chekka viloyatlardagi notinch vaziyat – bularning hammasi amaldagi davlat hukmronligiga chek qo‘yuvchi omillar bo‘ldi.

Bilib oling!

Qayd etish lozimki, Mansur II davrida mamlakatda G‘aznaviylarning ta’siri kuchayib ketdi. Nishopur hokimi Bektuzun va sarkarda Foyiq Mansur II ga qarshi fitna tayyorlab, uni hokimiyatdan chetlatishdi. Fitna natijasida Mansur II o‘ldirildi. Somoniylar hukmdori sifatida Mansur II ning ukasi Abdulmalik II (999) taxtga o‘tqizildi. Bu esa Mahmud G‘aznaviyning butun Xuroson, jumladan, Balx va Badaxshonni ham tezda qo‘lga kiritishiga sabab bo‘ldi. Somoniylar qo‘lida amalda faqat Movarounnahr qoldi, xolos. Sal avval Sirdaryo bo‘ylari, Farg‘ona vodiysi Qoraxoniylar qo‘liga o‘tgan edi.

Abdulmalik II harbiylar va zodagonlar orasida tegishli obro‘-e’tiborga ega bo‘lmagan shaxs edi. Shu bois ham bu hukmdor o‘z atrofiga tarafdorlarini jam qila olmadi. Tez orada poytaxt Buxoro qoraxoniylar sarkardasi Nasr Eloqxon tomonidan qo‘lga olindi. 999-yil 23-oktyabrda Abdulmalik II oila a’zolari bilan qo‘lga olinib, Qoraxoniylarning O‘zgandagi zindoniga jo‘natildi.

Shundan keyingi yillarda qoraxoniylar qo‘shini somoniylar bayrog‘i ostida harakat qilgan kuchlar bilan kurash olib bordi. 1003-yil somoniylarning qolgan jangchilari saljuq turklarining yordamida Buxoro qal’asi yonida qoraxoniylar qo‘shinini mag‘lub qilib, Buxoroni yana bir bor egallab olgan edi. Somoniylar sulolasining so‘nggi vakili Abu Ibrohim Muntasirning hokimiyatni qaytarib olishdagi sa’y-harakatlari besamar tugab, qoraxoniylarning Ali Nosir boshchiligidagi qo‘shinidan yengiladi va uning o‘zi 1005-yili o‘ldiriladi. Shu tariqa, Somoniylar sulolasi hukmronligi barham topdi.

4.3. SOMONIYLAR DAVLATI INQIROZI SABABLARI VA OQIBATLARI

Somoniylar davlati tarkibiga Farg'ona, Isfijob (Sayram), Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chag'oniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, G'azna kabi qator viloyatlar kirgan bo'lib, tabiiyki, bu qadar yirik hududni boshqarish oson kechmagan. Ismoil Somoniy yirik mulkka ega bo'lib, mahalliy zodagonlar va savdogarlarga tayangan holda davlatni idora qilgan. Ismoil Somoniy uyushgan qo'shin va marazlashgan davlat barpo etib, ko'chmanchilar hujumlariga chek qo'ygan bo'lsa-da, Ismoil va boshqa Somoniylar ham ichki ijtimoiy ziddiyatlarni yo'qota olmadilar. Natijada, dehqonlarning yer egalariga qarshi chiqishlari muntazam ravishda bo'lib turgan. Bundan tashqari, ayrim chekka viloyatlar hokimlari markazlashtirish siyosatiga qarshilik qilib turganlar.

Shu bilan bir qatorda, nafaqat mahalliy hokimlar, balki, sulola vakillarining ham markaziy hokimiyatni egallashga bo'lgan intilishlari hokimiyat zaiflashuviga olib keladi. Jumladan, 907-yilda Ismoil ibn Ahmad Buxoroda vafot etganda, Is'hoq ibn Ahmad uning o'g'li Ahmad ibn Ismoilga qarshi chiqib, markaziy hokimiyatga da'vo qila boshlaydi. Ahmad ibn Ismoil uni hibsga olgan va 911-yilda ozodlikka chiqarib, Samarqand va Andijon hokimi etib tayinlagan. 914-yilda Ahmad ibn Ismoil o'ldirilgandan keyin Is'hoq o'g'illari bilan yana markaziy hokimiyatga qarshi isyon ko'tarib, Movarounnahr va qisman Xurosondagi ko'p shaharlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. Shu yilda u o'zining kumush tangalarini chiqara boshladi. Lekin ko'p o'tmay, isyon bostirildi va Is'hoq yana hibsga olinib, zindonda vafot etadi. Shundan keyin Farg'ona Asad ibn Ahmadning Muhammad ismli o'g'li qo'l ostiga o'tadi.

Bunday isyonlar tez-tez davom etib turgan. Bunga asosiy sabablardan biri 819-yildagi xalifa farmoni bo'yicha hukmronlikning Asad ibn Somonxudot o'g'illari orasida bo'linishi ham edi. Shu sababli ham sulolaning istalgan vakili o'zini taxt da'vogari sifatida ko'rishi mumkin edi. Shuningdek, bu kurashlardan, ayniqsa, mahalliy hokimlar



Somoniylarning so‘nggi hukmdori Muntasir jangda.

ham ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Jumladan, 947-yilda bo‘lib o‘tgan Ibrohim ibn Ahmad isyonidan Abu Ali Chag‘oniy foydalangan bo‘lsa, keyinchalik, mamlakatdagi taloto‘p jarayonida yetishib chiqqan Simjuriylar sulolasi o‘z foydasiga harakat olib borishadi.

Shuningdek, mamlakatda harbiy turk g‘ulomlaridan iborat gvardiyaning mavqeyi ortib ketadi. Jumladan, 907-yilda Ismoil Somoniy vafot etishi bilan uning g‘ulomi va lashkarboshisi, Boris al-Kabir isyon ko‘taradi. 914-yilda Ahmad ibn Ismoil Somoniyning o‘ldirilishi ham aynan turk g‘ulomlarining isyoni sababli yuzaga keladi. Somoniylar davlatining keyingi faoliyatida ham turk g‘ulomlarining nufuzi orta boradi. Misol uchun, somoniylarning g‘ulomi bo‘lgan (X asr o‘rtalari) Alptegin Xuroson qo‘shinining qo‘mondoni bo‘lgan. Manbalarda uning qo‘shini soni 30000 dan 100000 gacha bo‘lganligi haqida ma’lumot keltiriladi. Shuningdek, Alptegin Somoniylar davlatining har bir yirik shahar markazida 500 ta qishloq, 1 000 000 qo‘y, 100 000 ot, tuya va xachir, saroylar, ustaxonalar, hammom va

bog‘larga hamda 2000 ta o‘z g‘ulomlari qo‘riqlaydigan mulklarga ega edi. Tegin unvonini olgan g‘ulomlarning nufuzi va moddiy imkoniyatlari ortib borishi asnosida manbalarda Fartegin ismli g‘ulomning xazinador (g‘aznabon) lavozimiga qadar ko‘tarilganligi aytiladi. Bu vaziyat ko‘pgina holatlarda saroy a’yonlarining o‘zaro raqobatiga ham olib kelar edi.

Yuqorida nomi zikr etilgan Simjuriylar xonadoni ham mamlakatda yirik nufuzga ega bo‘lib, kelib chiqishiga ko‘ra turkiy g‘ulom bo‘lgan Simjur Dovotiy avlodi sanalgan. Simjur Dovotiy Somoniylar xizmatida bo‘lib, turli hududlarni idora qilgan. Uning o‘g‘li Ibrohim ibn Simjur va nevarasi Abu Xasan Sinjuriylar esa Xuroson noiblari sifatida faoliyat yuritgan. Ayniqsa, Abu Xasan Simjuriy 856-882-yillarda Xurosonni idora etgani holda, bu yerda deyarli mustaqil hukmdor bo‘lib olgan edi. Buni uning vorisi Abu Ali Simjuriy Somoniy amirlariga qarshi borish qudratiga ega bo‘lib olishida ham ko‘rish mumkin edi

Shuningdek, keyingi davrlarda davlat amaldorlari orasida poraxo‘rlik ham avj ola boradi. Jumladan, saroy hojiblari hatto hukmdor huzuriga yordam so‘rash uchun tashrif buyurgan shaxslardan ham o‘z manfaatlari uchun ma’lum miqdorda pora olishgan. Bundan tashqari, mamlakatdagi turk g‘ulomlarining harbiy hokimiyatga to‘la egalik qilishi ham davlatda hukmdorlarning nufuzi va hokimiyati susayishiga olib keladi.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O‘zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Qismat» ko‘rsatuvining *Somoniylar sulolasiga* bag‘ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

☑ ***Qarmatiylar*** – (894–1078) Suriya, Iroq, Bahrayn, Yaman va Xurosondagi badaviylar, dehqonlar va hunarmandlar harakati. Qarmatlar aqidasi shialarning ismoiliylik oqimiga mos edi. O'zlarining rahbarlari deb xalifa Ali va Bibi Fotimadan bo'lgan ismoliylar rahnamolarini e'tirof etishardi. Harakat rahbarining nomi hech qachon aytilmagan va buzg'unchilardan birortasi o'zining rahbari kim ekanini bilmay jon bergan. Ular qo'zg'olon ko'tarish va odamlar ongini zaharlash uchun barcha yerlarga doiylarini (da'vatchilar) yuborishgan.

☑ ***G'ulom*** – (arabcha «yosh, yigit; qul») – Sharq mamlakatlaridagi xalifalar va keyinchalik boshqa hukmdorlarga bevosita bo'ysunuvchi va ularga xizmat qiluvchi jangchilar. Bo'lajak g'ulomlar ko'pincha qul bozorlaridan sotib olinsa-da, ular ko'p hollarda sobiq harbiy bo'lganligi uchun, harbiy sarkardalarning xizmatchisi, qurolbardori bo'lgan. Islomni qabul qilgandan so'ng, mavjud qoidalarga muvofiq qul bo'la olmagan. Ular shu jihatdan ular qadimgi Rim va yunon qulchiligidan farq qiladi.

☑ ***Tegin*** – «tegin» unvoni aslida xoqonlik xonadoniga mansub shahzodalarga berilgan bo'lib, keyinchalik, xoqon o'z xonadonida asrab olgan xizmatkorlarini ham tutingan o'g'li sifatida «tegin» unvonini bergan va ular xoqon xonadoni sohibiga aylangan. Alptegin va Sabuqteginlar ham shular jumlasidandir.

☑ ***Kanpirak devori*** (Devori Kanpirak, Kanpir devor) – Markaziy Osiyoda dehqonchilik vohalarini ko'chmanchilar hujumidan himoya qilish maqsadida barpo qilingan mudofaa inshootlari tizimining xarobalari. Ma'nosi qazilgan (choh) demakdir. Talaffuzda «n» bilan «m» almashuvi kuzatiladi. «Pir» so'zi esa qadimgi «payrya» – aylana, o'rov ma'nosida. Demak «kanpir» so'zining o'zi «xandaqli devor» degani. Devor so'zi kanpir so'zining tub ma'nosi unutilganda qo'shilgan. Qadimgi Buxoro vohasidagi shahar va qishloqlarni o'rab olgan mudofaa devori (Devori kanpirak). Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra, Kanpirak devori 782-831-yillarlarda qurilgan. Mas'udiyning yozishicha, Kanpirak devori qadimgi Sug'd podsholari zamonida bino

qilingan. Narshaxiy ma'lumoti Kanpirak devorining qayta tiklangan davriga to'g'ri keladi. Kanpirak devori xarobalarini arxeologik jihatdan o'rganish yozma manbalardagi ma'lumotni to'la tasdiqladi. Mas'udiy xabar qilgan dastlabki ko'hna devor Narshaxiy yozgan Kanpirak devoriga qaraganda ancha kichik maydonni egallagan.

Savol va topshiriqlar

1. Ismoil Sonomiyning hokimiyat tepasiga kelish bosqichlarini tahlil qiling.

2. Ismoil Somoniy Buxoroni poytaxt deb e'lon qilishiga sabab nima edi?

3. Ismoil Somoniy nima maqsadda Termiz sayyidlari avlodidan bo'lgan ayolga uylangan edi?

4. Qo'shimcha manbalarga suyangan holda g'ulom so'ziga ta'rif bering.

5. Somoniylar davrida turkiy g'ulomlar obro'sining oshib ketishiga sabablar nimalardan iborat edi?

6. Ismoil Somoniy va shimoliy hududlar o'rtasidagi kurash qanday kechdi?

7. Kanpirak devori ta'miri to'xtatilishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tahlil qiling.

8. Teginlar faoliyati haqida gapiring.

9. Somoniylar davlati inqirozining sabablarini izohlang.

10. Qarmatiylar harakati haqida qanday ma'lumotlarga egasiz, bu harakat qay tariqa yuzaga kelgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob.T.: Yangi asr avlodi, 2019.

3. Frye R.N. The Cambridge history of Iran, volume 4. Cambridge university press. 2008.

4. Ibn Havqal. Kitob surat al-ard. / Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi, Sh. Kamoliddin. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2011.

5. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul mùh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

6. Narshaxiy, Abu Bakr Muhammad. Buxoro tarixi. / Tarjimon A.Rasulov, nashrga tayyorlovchilar H.Maqsud, N.Asqaraliyeva. T.: Oydin tafakkur, 2022.

7. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san'ati. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2018.

8. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. I-jild, T.:Info capital group, 2019.

9. Абу Саид Гардизи. Зайн ал-ахбар. Т.: Фан, 1991.

10. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. Т.: Узбекистан, 2006.

11. Камолиддин Ш.С. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний (ўзбек давлатчили тарихидан (IX-X асрлар)). Mauritius: Scholars' press, 2017.

12. Камолиддин Ш. С., Илхамов З.А. Саманиды: из истории государственности Узбекистана в IX – X вв. Т., 2019.

13. Тарих-и Систан (история Систана). Перевод, введение и комментарий А.П. Смирнов. Москва, 1974.

5-MAVZU. SOMONIYLAR DAVRIDA O‘RTA OSIYO (3-QISM)



REJA:

5.1. Davlat boshqaruvi va mudofaa tizimi. Qo‘shin tuzilishi.

5.2. Yer egaligi va soliq tizimi.

5.3. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Markazlashgan davlat, davlat boshqaruvi, Movarounnahr va Xuroson, poytaxt, yer egaligi, vaqf, Mulki inju, g‘ulom, islohot, qo‘shin tuzilishi, gvardiya, poytaxt, Buxoro, registon, saroy, harbiy, devon, dargoh, hojib, bistagomiy, arid, visoq, visoqboshi, hojib ul-hijob, Kabir, qozi, fiqh, vaqf, ijtimoiy-iqtisodiy holat, qishloq xo‘jaligi, hunarmadchilik, savdo-sotiq, dehqonchilik, soliq, sohibi xoras, vakil.

5.1. DAVLAT BOSHQARUVI VA MUDOFAA TIZIMI. QO‘SHIN TUZILISHI

Somoniylar Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun, avvalo, kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu, ayniqsa, Ismoil Somoniy davrida dolzarb masalaga aylangan edi. Yirik yer egasi bo‘lgan Ismoil birinchi navbatda mahalliy zodagonlar va savdogarlarning manfaatlarini ko‘zlab ish tutdi. Davlatning iqtisodiy kuch-qudratini oshirish, qishloq xo‘jaligi,

hunarmandchilik va savdoni rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlar tug'dirib berish lozim edi. Shu maqsadda Ismoil katta va yaxshi qurollangan, saralangan qurolli kuchlarni tashkil qilishga kirishdi. U ayniqsa, turk g'ulomlaridan iborat qismlarni tuzishga katta e'tibor berdi. Natijada, Somoniylar davlati tez orada musulmon Sharqidagi markazlashgan kuchli davlatga aylandi. Mamlakatning kuch-qudratini mustahkamlash maqsadida Ismoil Somoniy bir qancha islohotlar o'tkazdi. Mana shunday islohotlardan biri – davlat boshqaruvining ma'muriyatini joriy qilish bo'ldi. Bu ma'muriyat *dargoh* – amir saroyi va *devon* – davlat idorasi, vazirliklardan iborat bo'lgan.

Davlatni boshqaruvchi oliy hukmdor amir unvoniga ega edi. Ismoil Somoniy o'z davrida markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini joriy etgan. Somoniylar davlati majmuyini mustahkamlashda Nuh II Somoniyning ma'rifatli vazirlari Abdulloh Muhammad Jayhoniy va Abulfazl Muhammad Balamiylarning xizmatlari ham katta bo'lgan. Somoniylar hukmronligi davrida Bosh vazir lavozimiga, asosan, shu ikki shaxs sulolasi vakillari tayinlangan. Davlat majmuyi dargoh (amir saroyi) va devonga (vazirliklar, davlat idorasi) bo'lingan edi.

Saroyda siyosiy hokimiyat *sohibi xoras* qo'l ostida bo'lib, u oliy hukmdor farmonlari ijrosini nazorat qilgan. Dargoh hamda boshqa muhim davlat idoralarining xavfsizligini amalga oshirish xizmatini *bosh hojib* va uning xodimlari olib borgan. Saroyda *sharbatdor*lar, *dasturxonchi*lar, *tashtdor*lar, *ot boqar*lar, *xo'jalik beka*lari kabi turli xizmatchilar bo'lgan. Saroydagi barcha xo'jalik ishlarini *vakil* boshqargan. Vakil saroydagi eng e'tiborli kishilardan biri hisoblangan.

Shuningdek, saroyda *sohib al-jaysh* unvoni ham mavjud bo'lib, ushbu unvon egasi saroy va poytaxt soqchilari boshlig'i, shuningdek, shahar darvozalarining mudofaasi bilan shug'ullangan. Ushbu lavozim saroydagi muhim lavozimlardan sanalib, Narshaxiyning yozishicha, Nasr ibn Ahmad davrida uning ukasi Ismoil Somoniy ma'lum muddat Samarqandda bu lavozimda faoliyat yuritgan.

Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Nasr II davrida Buxoro registonida davlatdagi 10 ta devonga atab maxsus 10 ta bino qurilgan. Davlatda quyidagi devonlar faoliyat ko'rsatgan:

SOMONIYLARNING DEVONLARI

Bosh Vazir devoni	**Devoni Vazir yoki Xo'jayi Buzrug**	Bu devonga qolgan barcha devonlar bo'ysungan. Bosh vazir devoni barcha ma'muriy, siyosiy, xo'jalik va harbiy mahkamalarni nazorat qilgan.
Moliyaviy ishlar devoni	**Devoni mustafiy**	Bu devon davlatning barcha moliyaviy ishlarini bajargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilib, uning ixtiyorida hisobchilar, munshiy va kotiblar, daftardorlar bo'lgan.
Rasmiy hujjatlar devoni	**Devoni amid al-mulk yoki Devoni Rasoil**	Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo'lgan barcha hujjatlarni tuzish va ishlab chiqish bilan shug'ullangan. Shuningdek, bu devon chet davlatlar bilan bo'lgan diplomatik munosabatlarni ham nazorat qilgan.
Harbiy ishlar devoni	**Devon al-Shurta**	Bu devon davlatning butun harbiy ishlarini nazorat qilgan, jumladan, amirning shaxsiy qo'shinini (gvardiyasini) boshqargan.
Xabar-pochta nazorati devoni	**Devon al-Barid**	Ushbu devon markazda qabul qilingan muhim qarorlar, hujjatlar, xabarnomalarni viloyat va shaharlarga yetkazish bilan shug'ullangan. Bu devonning viloyatlardagi boshlig'i faqat markazga bo'ysungan. Bu devon xodimlari viloyat va shaharlarda bo'lib turadigan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni markazga yetkazib turgan. Shuningdek, bu devon davlat elchilari, viloyat va shaharlar hokimlari ustidan maxfiy nazorat o'rnatgan.

Shariat qonunlarining nazorati bilan shug'ullanuvchi devon	**Devoni Muhtasib**	Bu devon xizmatchilari qiladigan asosiy ish shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartib-intizomni, tosh-tarozini nazorat qilish edi. Aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilishning nazorati ham shu devon zimmasida bo'lgan. Ushbu devonboshi o'z mirg'azab (xodim)lari bilan barcha shaharlarda faoliyat ko'rsatgan.
Moliya devoni	**Devoni Mushrif**	Bu devon saroy ta'minoti bilan bog'liq sarf-xarajatlarni nazorat qilgan. Muhim davlat ishlari va ayniqsa, xazina kirim-chiqimini nazorat qilish ham shu devon zimmasida bo'lgan.
Vaqf yerlari devoni	**Devoni Vaqf**	Masjidlar, madrasalar, umuman, diniy muassasalar ixtiyorida bo'lgan yer-suv, mol-mulk kabilarni boshqargan
Qozilik ishlari devoni	**Devoni Qozi**	Bu devonni davlatning bosh qozisi boshqargan. Devon barcha viloyatlar va shaharlardagi qozilar faoliyatini nazorat qilib turgan.
Harbiy-moliyaviy ta'minot devoni	**Devoni Ariz**	Ushbu devonning rahbari ariz bo'lgan. U mahkama va uning boshlig'i amir qo'shini xazinasi bilan shug'ullangan. Qo'shinga bir yilda to'rt marta maosh to'langan. Bu devon harbiy intizomni ta'minlab turgan.

Mazkur devonlarning joylarda ham bo'limlari mavjud bo'lgan. Ular markazdagi o'z devonlaridan tashqari mahalliy hokimlarga ham

bo‘ysunib, mahalliy boshqaruv idoralari bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatganlar. Bundan xat-xabarlar xizmati devoni mustasno hisoblanib, ularning mahalliy bo‘limlari faqat markazgagina hisobot berganlar, xolos. Zero, ular mahalliy hokimlar, mansabdorlar ustidan ham pinhona nazorat olib borganlar. Viloyat boshlig‘i hokim, shahar boshlig‘i esa rais deb atalgan. Hokimni oliy hukmdor, raisni esa hokim tayinlagan. Albatta, bunda u yoki bu nomzodning shu yerdagi obro‘-e’tibori, mavqeyi hisobga olingan.

Ismoil Somoniy davrida mamlakatda Arab xalifaligi namunasida mamluk qullaridan maxsus *gvardiya* tuzilgan. Ushbu gvardiya yaxshi harbiy tayyorgarlik ko‘rgan, ularga maosh davlat tomonidan berilgan. Mamluklar qo‘shini, asosan, turklardan bo‘lgan qullar hisobiga kengaytirilgan. Bunga qadar esa mamlakatdagi asosiy muntazam qo‘shin vazifasini *g‘oziylar* o‘tagan. Har bir shaharda maxsus g‘oziylar lashkari bo‘lib, zaruriy holatlarda bu qo‘shin mudofaa yoki harbiy yurishlarda ishtirok etgan. Ularga ma’lum yetakchilar saylangan bo‘lib, bu yetakchilar somoniy amirlar tomonidan ham katta hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lgan. Jumladan, manbalarda qayd etilishicha, go‘ziylar yetakchilarining janozalarida somoniy amirlar ham shaxsan ishtirok etganlar.

Bilib oling!

«Somoniylar zamonida shunday tartib bor edi. G‘ulomlarning darajalari xizmat va hunarlariga qarab ko‘tarilgan. Agarda biror qulni sotib olsalar, u bir yil rikob(uzangi)da zandanachi kiyimida va oddiy etik kiyib piyoda xizmat qilardi. Bu qulga bir yil davomida yashirin yoki ochiq holda otga minish man etilardi. Mabodo shu farmonga itoat qilmasa, jazolanardi. Bir yillik shunday xizmatdan keyin visoqboshi hojibga aytib, unga bir yaxshiroq kiyim va bir turkcha ot oddiy egari bilan olib berilardi. Bir yil shu ot va qamchi bilan xizmat qilganidan so‘ng uchinchi yili beliga bog‘lash uchun qarochuri qilichini olishga sazovor bo‘lardi. To‘rtinchi yili beliga bog‘lash

uchun unga kesh-sadoq (o‘qdon) va (qilich uchun) qin berishardi, beshinchi yili yaxshiroq egar-jabduq, yulduzli jilov, qizil kiyim va xalqaga osilgan temir gurzi berilardi. Oltinchi yili otda yurishi uchun maxsus etik berib, soqiylikka tayinlab, beliga qadah osib yurishga amr etilardi, yettinchi yili bu g‘ulom bir to‘nlikka erishardi, sakkizinchi yili o‘n olti tirgovichli chodir va endi sotib olingan qullardan uch nafari berilib, unga visoqboshi laqabi qo‘yilardi, kumushdan ziynatlangan bosh kiyim va ganjali kiyim in’om qilinardi. Shu tariqa, har yili kiyim-kechaklari ko‘payib, uning askarlari va martabasi xaylboshi bo‘lguniga qadar oshib borardi. Shundan keyingina hojiblikka erishardi».

Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asaridan.



Hojib saroy g'ulomlarining eng katta boshlig'i bo'lib, uning qo'l ostida saroy va hukumat muassasalarini qo'riqlovchi ko'p sonli soqchilar korpusi bo'lgan. Urush bo'lgan vaqtlarda bu korpusga eng mas'uliyatli ishlar topshirilgan. Hojiblarning boshlig'i *hojibi buzurg* deb atalgan, u saroydagi eng yuqori martabali amaldorlardan biri hisoblangan. Hojiblar boshqaruv ishlarini olib borishda muhim o'rin egallaganlar. Harbiy xizmatdan ko'tarilgan g'ulomlar mavqeyiga ko'ra oddiy g'ulomlar, ya'ni qullardan katta qilib, hatto, ozod odamlarda ham bo'lmagan imtiyozlarga ega bo'lganlar va yuqori tabaqali hukmron elita tarkibiga kirganlar. Ular qurol olib yurganlar, hukmdor huzuriga kirish huquqiga ega bo'lganlar, muhim lavozimlarni egallaganlar, ko'plab yer va mulk egalari bo'lganlar. Natijada qullik ularga hech qanday qiyinchilik tug'dirmagan, aksincha, ularga katta imkoniyatlar, hokimiyatga yo'l va ijtimoiy ustunlik bergan. Harbiy g'ulomlar yuqori martabaga ega bo'lgandan keyin ko'pincha qullikdan ozod etilganlar. Ularga rasmiy ozodlik berilmasa ham, haqiqatda ular qul bo'lmaganlar, chunki islom dinida *abd* («qul») so'zi odamning hozirgi holatini emas, balki faqat uning kelib chiqishini anglatgan.

Somoniylar davrida dastlab *Kabir* (arabcha «katta») unvoni mavjud bo'lib, ushbu unvon, asosan, g'ulomlarga berilgan. Kabir unvoni egasi g'ulomlar gvardiyasiga boshchilik qilgan. Jumladan, Simo al-Kabir Ismoil Somoniyning otasi Ahmad tomonidan sotib olingan qul bo'lgan. Narshaxiyning ma'lumotlariga ko'ra, u mamluk gvardiyasini boshqargan. Ismoil tomonidan ularga Mo'liyondan mulk berilgan edi. Shu kabi Ismoil Somoniyning yana bir g'ulomi Boris ham Kabir unvoniga ega bo'lib, uning 4000 atrofidagi g'ulomlar gvardiyasiga boshchilik qilgani to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

Bilib oling!

«Aytishlarich, as-Shoh va Farg'onada jangovar tayyorgarlik va qurol aslaha shunday darajada-ki, bugungi kunda biror chegara mamlakatda unga o'xshash emas. Hatto oddiy fuqarolardan bo'lgan oddiy odam hech qanday hokimiyat egasi bo'lmasa ham, 100 tadan 500 tagacha ot egasi...

Ularning qo‘shinlari barcha xalqlar ichida qat’iyati, jur’ati, shijoati va matonati bilan boshqalardan ustun turadi. Movarounnahr dehqonlari o‘zlarining xizmatdagi xushfe’lligi, itoatkorligi, [chiroyli] kiyinishlari va shohona ko‘rinishlari tufayli xalifalarning lashkarboshilari, yaqinlari va sodiq xizmatkorlari bo‘ldilar, hatto o‘tmishda ular xalifalarning eng xos odamlari va askarlariga aylandilar. Ulardan qo‘shinlarga farg‘onaliklar va turklar boshchilik qilib, xalifalarning [ishonchli] qo‘riqchilari bo‘ldilar.

O‘zlarining shijoati va jasorati tufayli ustunlik qilgan turklar: ustrushanalik al-Afshin va Ibn Abu-s-Soj, samarqandlik al-Ixshod va sug‘dlik al-Marzubon ibn Turkash, sug‘dlik Ujayf ibn Anbasa, Buxorxudot va boshqalar xalifalarning amirlari, qo‘mondonlari va askarlari edilar».

Ibn Xavqalning
«Kitob surat al-ard» asaridan.

5.2. YER EGALIGI VA SOLIQ TIZIMI

Somoniylar hukmronligi davrida yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo‘lgan:

- ☑ G‘ulomlarga berilgan mulkni qishloq chorikorlari ijaraga olganlar. Shuningdek, yer egaligining *to ‘ma* (umrbod berilgan yer), *iqto* (merosiy) turlari bo‘lgan.
- ☑ *Xususiy shaxslarga tegishli mulk*: hukmdor tabaqa xonadoni, dehqon-zodagonlarga, sayyidlar, sipohsolor, badavlat savdogarlarga tegishli mulklar hisoblangan. Bundan tashqari, shartli yer egaligi ham bo‘lgan.
- ☑ *Vaqf mulklari*: diniy muassasalar va madrasalarga tegishli mulk. Bu mulkni muassasa mutavallisi boshqargan.
- ☑ *Jamoa mulki*: yaylov, tog‘ yonbag‘irlaridagi lalmi yerlar.

Xiroj hajmi shariat va davlat qonunlari asosida belgilangan. X asrda somoniylarning birgina Buxoro va Karmana viloyatlari xirojidan tushgan daromadi 116866 dirhamni tashkil qilgan.

Somoniylar davrida mulkchilik. Somoniylar davrida qudratli markazlashgan davlatning vujudga kelishi natijasida Movarounnahr va Xurosonda ma'lum barqarorlik qaror topdi. Bu holat mamlakat iqtisodiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Movarounnahr va Xuroson bu vaqtda Sharqning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan o'lkalaridan hisoblangan.

Bilib oling!

«Al-Mashriq zaminida sarhadlari undan mustahkam, aholisi ko'p, qurol-yarog'i mukammal, munosabatlari tartibli, sovg'a-salomlari mo'l-ko'l, daromadi ko'p, yig'im va to'lovlarda muntazam bo'lgan boshqa o'lka yo'qdir. Shu bilan birga, ularda [odamlardan olinadigan] soliqlar va xirojlar [miqdori] kam, xazinalarida esa pul ko'p emas. Xuroson va Movarounnahrning Abu Solih Mansur ibn Nuhga [beradigan] solig'i, men ularning o'lkalarida bo'lgan vaqtimda, belgilangan tarzda bir yilda ikki marta, [ya'ni] har olti oyda yigirma ming dirhamdan yig'ilar edi. Agar sharoit xirojning ikki hissa olinishini taqozo etsa, u qirq ming dirhamni tashkil etar edi. Ularda [bir] jarib [yer] dan olinadigan xiroj [solig'i] kichik bo'lib, to'rtdan bir dirhamdan uchdan ikki yoki to'rtdan uch dirhamgacha bo'lgan. Men ularda nafaqa [maosh] larning bir yilda to'rt marta muntazam va kechiktirilmay berilishining guvohi bo'ldim. Har safar nafaqa [har] to'qson kunning boshida, eng avval g'ulomlarga, saroy xodimlariga va harbiy qo'mondonlarga, keyin esa boshqa xizmatchilarga beriladi. Har safar [tarqatiladigan] nafaqalarning yig'indisi besh ming dirhamni tashkil etadi, to'rt marta [tarqatiladigan] nafaqalar yig'indisi esa bir marta yig'iladigan xirojga teng bo'ladi. Bu narsa butun mamlakat aholisiga tegishli bo'lib, yil oxirida ulardan mazkur yig'imlarning asosiy qismi yig'ib

olinadi. [Odamlar] esa buni ochiq ko'ngillik, quvonch, qalb shodligi va ochiq xursandchilik bilan, o'zlariga nisbatan adolatli munosabatdan to'la mamnun ravishda amalga oshiradilar».

Ibn Xavqalning
«Kitob surat al-ard» asaridan.

5.3. IJTIMOIY-IQTISODIY AHVOL

Somoniylarning dastlabki hukmronlik yillarida yirik yer egalari bo'lgan dehqonlarning ta'siri katta bo'lgan bo'lsa, keyinchalik, asosan X asrga kelib, iqtodorlarning mavqeyi ancha kuchaygan. Biroq ular qoraxoniylar davridagi kabi dehqonlardan oldingi mavqega o'tib keta olmaganlar.

Sunniylik mazhabining hanafiylik yo'nalishini davlat dini sifatida qabul qilish aynan somoniylar hukmronligi yillarida yuz bergan. Mintaqada, shuningdek, masihiy jamoalar ham saqlanib qolgan bo'lib, ular, asosan, nasroniylardan iborat bo'lgan. Ular Marv, Xorazm, Samarqand va boshqa joylarda mavjud edilar. Biroq ular son jihatidan juda oz bo'lib, zardushtiylar kabi ta'sirga ega emas edilar. Abu Rayhon Beruniy masihiylarning Xorazmda yashagani va ular «Kalandas» degan bayramni sayl sifatida nishonlagani, bunda kichik bolalar uyma-uy yurganliklari va aholi ularni bu bayramda chog'ir va shirinlik bilan siylaganliklari haqida ma'lumot bergan.

Eron va Turon viloyat, shaharlarida yahudiy jamoalari ham mavjud edi. Hamadon, Isfahon va Sherozda, ayniqsa, Movarounnahrda yahudiylar ko'p bo'lgan. Islom dini hukmron mamlakatlarda zardushtiylik, masihiylik va yahudiylik ruxsat etilgan dinlar sirasiga kirib, bu dinlarga e'tiqod qiluvchilar jamoalarga birlashib, o'z-o'zlarini boshqarar edilar va jiz'ya solig'i to'lar edilar.

Xuroson va ayniqsa, Movarounnahr dehqonchilik o'lkalari qatoriga kirgan. Bu yerlarda dehqonchilik, asosan, sun'iy sug'orishga asoslangan. Ko'plab soy va daryolardan chiqarilgan katta-kichik kanallar mavjud bo'lgan. Buxoro vohasida Shopurkon, Shohrud,

Karmana, Poykand, Samarqand vohasida Barj (Darg'om), Barmsoy, Buzmadisoy, Ishtixon kabi kanallar shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlagan. Bundan tashqari, bunday kanallar Xorazm, Qashqadaryo, Farg'ona va Shoshda ham bo'lgan. Manbalarga qaraganda, Shosh aholisi xalifa Mu'tasim (833–842)ga murojaat qilib, vohada suv yetishmasligi tufayli kanal qurilishiga yordam so'ragan. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikdan tashqari lalmikor dehqonchilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.



Somoniylar davriga oid idish

Bilib oling!

Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot har tomonlama rivoj topgan. Bunga ayniqsa, mintaqadan o'tgan Buyuk ipak yo'lida olib boriladigan savdo ishlari ham ma'lum darajada turtki bo'lgan.

Dalalarda bug'doyning turli navlari, arpa, sholi va boshqa boshoqli ekinlar ekilgan. Qishloq xo'jaligida paxta yetishtirishga alohida ahamiyat berilgan. Paxta, ayniqsa, Zarafshon, Qashqadaryo va Marv vohasida ko'p ekilgan. Bog'dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Bog'larda olma, shaftoli, nok, behi, anor, anjir, yong'oq kabi turli mevalar yetishtirilgan. Uzum etishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, Samarqand, Marv, Hirotda yetishtirilgan uzumlar juda qadrlangan. Umuman, Xuroson va Movarounnahrning mevalari o'zining turli navlari va yuqori sifatliligi bilan butun Sharqda dong taratgan. Quruq mevalar ko'p holda Yevropaning turli shaharlariga ham jo'natilgan.



Somoniylar davriga oid siyohdon

Hunarmandchilik ham yaxshi taraqqiy etgan bo'lib, paxta, ipak, jundan turli xil matolar, tayyor kiyimlar tayyorlanib, o'lka va yon-atrof aholining talabi qondirib kelingan. Qog'oz ishlab chiqarishda mamlakatimiz O'rta va Yaqin Sharqda, Yevropa mamlakatlari orasida birinchilikda turib, ularni bu noyob mahsulot bilan ta'minlab kelganini alohida ta'kidlash lozim. «Samarqand qog'ozi kabi qog'ozni, -deb yozgandi X asr tarixchisi Istaxriy, - (dunyoning) hech bir yerida uchratmaysiz». Shuningdek, shishasozlik (rang-barang shisha idishlar, bezaklar, deraza uchun oyna ishlab chiqarish), kulolchilik (ayniqsa, sopol idish, buyumlarni sirlash borasida katta tajribaga ega bo'lingan), ko'nchilik, gilam to'qish, misgarlik, qurolsozlik, temirchilik, kunjum, chigit, zig'ir, kanopdan moy olish kabi o'nlab sohalarga e'tibor qaratilib, bu jamiyat hayotini yaxshilashga xizmat qilgan.

Somoniylar davrida konchilikka ham katta e'tibor berilgani ma'lum. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida bu borada katta ko'lamdagi ishlar amalga oshirilib, Axsikat, Navqotda oltin, kumush, Yuqori Nisyoda toshpaxta (astbest), qatron, kumush, oltin, feruza, temir, mis, qo'rg'oshin, Isfara tog'larida toshko'mir, qora, qizil, sariq rangdagi talq (slyuda), So'x yaqinida simob, O'zgandda navshadil konlari ishlab turgan. Shuningdek, Farg'onada bu vaqtda tuz, neft kabi qimmatli xomashyolar ham qazib olingan. Tuz konlari Iloqda (Ohangaron vodiysi) ham bo'lgan. Ammo bu yerda, asosan, kumush, qo'rg'oshin qazib olishga zo'r berilgan. Bundan tashqari, mazkur vodiy tog'larida gilvata, o'tga chidamli oq loy (kaolin), achchiqtosh, feruza, ofit (serpantin), ametist kabi qazilma boyliklari bo'lgan. Temir, oltin, mis, kumush, navshadil, kuporos, aqiqning yo'l-yo'l turi, tuz konlari Ustrushonada (Shosh, Farg'ona, Chag'oniyon, Samarqand viloyatlari bilan o'ralgan viloyat) ham ishlab turgan. Mintaqaning boshqa

yerlarida (Xuroson, Badaxshon va hokazo) ham yoqut, zaharmuhra, oltin, kumush, la'l, tuz, toshpaxta, feruza, marmar, oltingugurt, margimush, agat konlari mavjud edi. Arxeologik qazishlar shuni ko'rsatadiki, konchilik usuli o'z davri uchun yuqori darajada bo'lgan.

Umuman, Somoniylar davrida Xuroson va Movarounnahrda qishloq xo'jaligining turli tarmoqlari, xususan, dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Somoniylar davrida dehqonchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik ham keng sur'atlar bilan tarqalgan. Shahar aholisining ko'p qismi hunarmandchilikning turli sohalari bilan mashhur bo'lishgan. Manbalarda qayd qilinishicha, Movarounnahrda, ayniqsa, to'qimachilik yaxshi taraqqiy qilgan. Bu yerlarda ipak va jundan tayyorlangan turli-tuman gazlamalar o'zining yuqori sifatliligi, bejirim va nafis naqshlari bilan ajralib turgan. Buxoroning Zandana, Samarqanddagi Vador va Surxondaryodagi Darzangi qishloqlari to'qimachilarining mahsulotlari faqatgina Movarounnahr va Xurosondagina emas, balki Iroq, Eron va Hindistonda ham ma'lum bo'lgan. Xususan, Narshaxiyning yozishicha, Zandanada tayyorlangan gazlamalarga Sharq bozorida ehtiyoj juda katta bo'lgan. Ibn Xavqal va al-Muqaddasiyning qayd etishicha, Vadorda tayyorlangan yuqori sifatli gazlamalar aholining yuqori tabaqalari orasida juda qadrlangan. Bu gazlamalardan, asosan, amirlar, vazirlar, turli amaldorlar, qozilar o'zlariga liboslar tiktirganlar. Vador gazlamasi hatto «Xuroson parchasi» deb ham atalgan. Gazlamalarning turli navlari Kesh, Nasaf, Dabusiya va ko'pgina boshqa shaharlarda ham tayyorlangan.

Bilib oling!

«Buxoro yaqinidagi Sharg' qishlog'ining (bu joy aholisining) qadimgi vaqtlarda bir bozori bo'lib, har yili qish o'rtasida o'n kun davom etar, (kishilar) uzoq viloyatlardan kelib savdo qilar edilar. Ko'proq u joydan shinni bilan tayyorlangan mag'izli holva chiqar edi, yana u joydan ko'proq chiqadigan narsa qintoriy (daraxtning foydali ildizi ma'nosida)va cho'p (yog'och)lar, tuzlangan baliq, yangi

baliq, qo‘y va qorako‘l terilaridan tikilgan po‘stinlardan iborat edi; bu yerda ko‘p savdo bo‘lar edi. Ammo bugun bizning davrimizda har juma kuni bozor bo‘lib, shahar va qishloqlardan savdogarlar u joyga boradilar. U qishloqdan chiqadigan va bu kunlarda savdogarlar boshqa viloyatlarga olib boradigan narsa mis (qizil bo‘yoq olinadigan ildiz ma’nosida) va bo‘zdir. Rahmatli amir Ismoil Somoniy bu qishloqni barcha yer-suvlari va dov-daraxtlari bilan sotib olib, hammasini Buxoro shahrining ichkarisida Samarqand darvozasida bino etgan rabotga vaqf qilgan. Hozir u rabot ham, vaqf ham qolgan emas. Bu Sharg‘ va Iskajkat Buxoroning eng yaxshi qishloqlari bo‘lgan. Xudo ularni balolardan saqlasin! Zandana. Bu qishloq katta qal’aga, ko‘pgina bozor joylarga masjidi jome’ga ega. Bu yerda har juma kuni namoz o‘qiydilar va bozor qiladilar. Bu qishloqda (to‘qib) chiqariladigan narsa – bo‘zni «zandaniychi», ya’ni «Zandana qishlog‘idan chiqadigan» deb ataydilar. Bu yerda u ham yaxshi, ham ko‘p bo‘ladi. Shu xil bo‘zdan Buxoroning ko‘p qishloqlarida to‘qiydilar va buni ham «zandaniychi» deb ataydilar. Chunki u, avvalo, shu qishloqda to‘qib chiqarilgan. Shu xil bo‘zdan Iroq, Fors, Kirmon, Hindiston va boshqalar kabi hamma viloyatlarga olib boradilar. Barcha ulug‘lar va podshohlar undan kiyim qiladilar va ipakli kiyimlik bahosida sotib oladilar. Xudo bu qishloqni hamisha yashnatsin!

Narshaxiyning
«Buxoro tarixi» asaridan.

Kulolchilik ham Somoniylar davrida o‘z taraqqiyotining yuqori bosqichlariga ko‘tarilgan. Kulolchilik charxini yanada mukammallanishi natijasida idishlarni bezashda sirlardan foydalanish kashf etildi. Bu esa kulolchilikda o‘ziga xos yangilik edi. Natijada idishlarning turlari, shakllari ham ko‘paydi. Ularning sifati keskin darajada oshdi. Idishlar turli rangdagi sirlar bilan bezatila boshlandi.

Manbalarda qayd qilinishicha, ayniqsa, Samarqand, Binkent va Marv kulollari tayyorlagan idishlar o'zining bejirim shakli, yuqori sifati, ajoyib va nafis naqshlari bilan ajralib turgan. Epigrafik naqsh bilan bezatilgan turli-tuman idishlar, ayniqsa, diqqatga molikdir. Shu davrga oid shaharlarda olib borilgan arxeologik izlanishlarga qaraganda, kulollar shaharlarda mahalla-mahalla bo'lib yashaganlar. Mana shunday mahallalar Samarqand, Marv, Axsikat, Termizda ochib o'rganilgan.

Bilib oling!

Bu davrda shishasozlik ham keng rivojlangan. O'rta Osiyo shishasozlari turli shakldagi katta-kichik shisha idishlarni tayyorlaganlar. Idishlar ko'kimtir va shaffof rangdagi shishalardan tayyorlangan. Ularning ma'lum qismi naqshlar bilan bezatilgan. Shishasozlar ustaxonalarining qoldiqlari arxeologlar tomonidan Niso, Marv, Termiz, Poykand kabi shaharlarda o'rganilgan. O'rta Osiyo shishasozlarining mahsulotiga boshqa o'lkalarda ham ehtiyoj katta bo'lgan.

Yuqorida qayd qilingan hunarmandchilik turlaridan tashqari somoniylar davrida O'rta Osiyoda toshtaroshlik, zargarlik, duradgorlik kabi sohalar ancha rivoj topgan. Somoniylar davrida kuchli va mustaqil davlatning paydo bo'lishi dehqonchilik, hunarmandchilikning rivojlanishi, shaharlarning taraqqiyoti o'z navbatida ichki va tashqi savdoni yanada uzviylashuvi va taraqqiyotiga olib keldi. Bu davrda shahar va qishloqlar o'rtasidagi savdo kengaydi. Ikkinchi tomondan shahar va qishloqlarni qo'shni ko'chmanchi xalqlar va boshqa davlatlar bilan aloqasi rivoj topdi.

Yozma manbalarda qayd qilinishicha, bozorlar katta-kichik shaharlarda va hatto qishloqlarda ham bo'lgan. Ayniqsa, karvon yo'llari bo'ylab joylashgan shaharlarda bir nechtadan bozorlar bo'lgan. Buxoro, Xo'jand, Nasaf, Kesh, Termiz, Hirot, Marv, Nishopur

shaharlaridagi bozorlar katta va juda gavjum bo‘lgan. Istahriyning yozishicha, Samarqandda Movarounnahrning bosh bozorlari joylashgan. Bu yerga hamma yerdan savdogarlar kelgan. Movarounnahrda tayyorlangan mahsulotlarning katta qismi Samarqandga keltirilgan va undan keyin boshqa o‘lkalarga tarqalgan. Ichki va tashqi savdoda ayrim kichik shaharlarning ham o‘rni katta bo‘lgan. Bu borada Poykand shahri muhim ahamiyat kasb etadi. Manbalarda yozilishicha, bu shaharda somoniylardan oldin ham savdogarlar Xorazm, Kaspiy bo‘yidagi o‘lkalar va Xitoy bilan oldi-sotdi ishlari olib borishgan. Shahar hokimlari savdogarlar uchun hamma shart-sharoitlarni tug‘dirib berishga harakat qilganlar. Shaharda o‘nlab karvonsaroylar mavjud bo‘lgan, ular bozorga yaqin joylarda joylashgan. Savdo rastalari karvon saroyning o‘zida ham bo‘lgan. Karvonsaroylar yo‘llarda ham qurilgan.

Bilib oling!

Bozorlarda sotiladigan mollar, avvalo, mahalliy aholi ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Hunarmandlar o‘z mollarini sotib oziq-ovqat mollarini xarid qilishgan, o‘z navbatida dehqonlar hunarmandchilik mollarini xarid qilishgan. IX-X asrlarda O‘rta Osiyoning iqtisodiy hayotida savdo-sotiq katta ahamiyatga ega edi. Bu borada ko‘chmanchilar bilan chegaradosh bo‘lgan shaharlarning ahamiyati katta bo‘lgan. Ko‘chmanchilar shaharlarga kelib, dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlarini xarid qilganlar, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlarini sotganlar.

O‘rta Osiyolik savdogarlar o‘z mollarini Arab xalifaligi tarkibiga kirgan davlatlarga, Kavkazga, Xazar va Bulg‘oriyaga, Xitoy va Hindistonga olib borib sotganlar. O‘rta Osiyodan Xitoy bilan O‘rta yer dengizini birlashtiruvchi va Janubi-Sharqiy Yevropaga olib boruvchi karvon yo‘llari o‘tgan. Ayniqsa, O‘rta yer dengizi bilan bog‘lovchi karvon yo‘li ancha gavjum bo‘lgan. Bu yo‘l Bag‘dod, Hamadon, Nishopur, Marv, Amul, Buxoro, Nasaf, Kesh, Samarqand, Ustrushona, Choch, Balasog‘un orqali Xitoyga olib borgan. Xitoyga O‘rta Osiyodan

otlar va shisha buyumlar olib borilgan. Xitoydan esa turli-tuman ipak gazlamalar keltirilgan. Xazar, Bulg'or va Rus yerlariga O'rta Osiyodan quruq mevalar, turli-tuman gazlamalar, guruch va kumush chiqarilgan. O'z navbatida, Janubi-Sharqiy Yevropadan O'rta Osiyoga mo'yna, mis, teri, qoramol, qullar keltirilgan. Janubi-Sharqiy Yevropa bilan bo'lgan savdo aloqalarida xorazmlik savdogarlarning o'rni katta bo'lgan. Mazkur iqtisodiy holat rivoji keyingi sulolalar davrida ham, asosan, davom etgan.

Atamalar izohi

☑ ***Sunniylik*** – (sunna so'zidan) islom dinidagi 2 asosiy yo'nalishdan biri va eng keng tarqalgani. Islom dastlabki davrda hech qanday yo'nalish, mazhab va oqimlarga bo'linmagan. VII asrning o'rtalarida turli siyosiy sabablarga ko'ra, musulmonlar safida bo'linish paydo bo'ldi. Avval shialar, keyin xorijiylar musulmonlar ommasidan ajrab chiqdilar. Ular o'zining haqligini isbot qilish uchun o'z fikrini, yo'nalishini himoya qila boshladi, shu tariqa har guruhning o'ziga xos aqidasi shakllana bordi. Sunniylik bo'yicha Abu Hanifa (Imomi A'zam) ning «Al-Fiqhul Akbar» asari eng nodir ilmiy meros sanaladi. Bu ishda Abul Hasan Ash'ariy bilan Abu Mansur Moturidiylarning xizmatlari katta. Sunniylik yo'nalishida shu ikki alloma asos solgan aqidaviy maktablar barcha sunniy ulamolar tomonidan e'tirof etilgan. Sunniylikda 4 ta diniyhuquqiy mazhab (*hanafiylik, molikiylik, shofi'iylik, hanbaliylik*) mavjud. Sunniylik islomda an'anaviy e'tiqod yo'li deb e'tirof etilib kelgan.

☑ ***Mazhab*** – (arabcha «yo'nalish», «oqim», «yo'l», «ta'limot»), shariat mazhablari – islomda diniy huquq tizimlari va yo'nalishlari. VIII—IX asrlarga kelib shariatning shakllanishi jarayonida huquqshunoslik – fiqh. sohasida juda ko'p mazhablar yuzaga kelgan. Hozirgi vaqtda sunniy to'rtta mazhab – hanafiy, molikiy, shofi'iy, hanbaliy (Mazhablar nomi ularning asoschilari: Abu hanifa (Imomi A'zam), Molik ibn Anas, Shofi'iy, Ibn Hanbal nomidan olingan), shialikda bir Mazhab – jafariylik (asoschisi – Jafar as-Sodiq) saqlanib qolgan.

Savol va topshiriqlar

1. Devon va dargoh tushunchalariga ta'rif bering.

2. Somoniylar davlatida nechta devon bo'lgan? Ular haqida kimning qaysi asarida ma'lumotlar yozib qoldirilgan?

3. Devonlar uchun qurilgan saroylar qanday bo'lgan? Ularning vazifalari haqida ma'lumot bering.

4. Ismoil Somoniy davrida harbiy boshqaruv islohoti o'tkazishdan nima maqsad ko'zlangan?

5. Somoniylar davlati boshqaruvinbing qo'shni davlatlar bilan o'xshashliklari va farqlari qanday?

6. Somoniylar davrida turkiy g'ulomlardan iborat qo'shin tuzilishiga sabab nima edi?

7. Somoniylar davlatining iqtisodiy imkoniyatlari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

8. Somoniylar davlatida hunarmandchilikning qanday turlari rivojlangan?

9. Somoniylar davrida ichki va tashqi savdoni rivojlantirish uchun qanday choralar ko'rilgan?

10. Somoniylar davrida yer egaligining qanday turlari bo'lgan?

11. Somoniylar davridagi diniy munosabatlarga ta'rif bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob.T.: Yangi asr avlodi, 2019.

3. Frye R.N. The Cambridge history of Iran, volume 4. Cambridge university press. 2008.

4. Ibn Havqal. Kitob surat al-ard. / Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi, Sh. Kamoliddin. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2011.

5. Istaxriy. Kitob al-masalik val-mamalik. / Arab tilidan tarjima, izoh va ko'rsatkichlar muallifi R.Xudayberganov. T.:Fan, 2019.

6. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

7. Narshaxiy, Abu Bakr Muhammad. Buxoro tarixi. / Tarjimon A.Rasulov, nashrga tayyorlovchilar H.Maqsud, N.Asqaraliyeva. T.:Oydin tafakkur, 2022.

8. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san'ati. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2018.

9. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild, T.:Info capital group, 2019.

10. Абу Саид Гардизи. Зайн ал-ахбар. Т.: Фан, 1991.

11. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. Т.: Узбекистан, 2006.

12. Камолиддин Ш.С. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний (ўзбек давлатчили тарихидан (IX-X асрлар)). Mauritius: Scholars' press, 2017.

13. Камолиддин Ш. С., Илхамов З.А. Саманиды: из истории государственности Узбекистана в IX – X вв. Т., 2019.

14. Тарих-и Систан (история Систана). Перевод, введение и комментарий А.П. Смирнов. Москва, 1974.

6-MAVZU. QORAXONIYLAR DAVLATI



REJA:

6.1. Yozma manbalar.
6.2. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi.
6.3. Qoraxoniylar davlatining siyosiy tarixi.

Tayanch so'z va tushunchalar

Yozma manbalar, asar, tazkira, turk tili, olim, Mahmud Koshg'ariy, «Devonu lug'atit turk», «Qutadg'u bilig», qoraxoniy, Sotuq Bug'roxon, harbiy yurish, Bug'roxon, qarluqlar, Abu Nasr Somoniy, yag'molar, chig'illar, totem, Uyg'ur xonligi, Bolasog'un, Qoshg'ar, davlat, hudud, Tuxsi, taxt, tegin, xon, xoqon, g'oziy, yabg'u, viloyat, chegara, arslon, qoraxon, inqiroz, saljuqiylar, g'aznaviylar, sharqiy, g'arbiy, poytaxt.

6.1. YOZMA MANBALAR

Mamlakatimiz davlatchiligi tarixida o'ziga xos o'ringa ega Qoraxoniylar davlati tarixshunosligi u qadar boy emas. Tarixchi olimlar Qoraxoniylar davlati tarixi hali to'liq o'rganilmaganligini ta'kidlashgan. Mazkur davlat tarixi manbashunosligida esa bizgacha yetib kelgan ba'zi asarlar mavjud. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Mahmud

O‘shiyning «Fatovoi qozixon», Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor» asarlarida qoraxoniylar tarixi xususida tegishli ma’lumotlar mavjud. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asari turkiy qavmlar tarixi xususida qimmatli ma’lumotlar beradi. Qoraxoniylar tarixini o‘rganishda XVII asr muallifi, Usmoniylar saroyi bosh munajjimi Ahmad afandining (Munajjimboshi) arab tilidagi solnomasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Ibn al-Asirning «Al-komil fit-tarix» asari ham ushbu davr tarixini o‘rganishda mohiyatan asosiy manbalar qatoridan joy oladi.



Asarning o‘zbek tilidagi nashri

Shuningdek, Jamol Qarshiyning «Mulhaqot as-suroh» asari ham mazkur davr tarixini o‘rganishdagi yordamchi manbalardan sanaladi. Jamol Qarshiy 1269-1294-yillar orasida O‘rta Osiyoning ko‘pgina viloyatlari bo‘ylab sayohat qilgan. Masalan, 1269-1270-yillari Ilamish (Andijondan Talasga boradigan yo‘l ustida joylashgan qadimiy shahar)da, bir necha bor (1272-1293) Shoshda, 1273-yili Barchinlig‘kent va Jandda bo‘lgan. Olim ana shu sayohatlar vaqtida to‘plangan ma’lumotlardan o‘zining yuqorida qayd etilgan asarini yozishda keng foydalangan.

Jamol Qarshiyning mazkur asari Abu Nasr Ismoil ibn Hammod al-Javhariy (vaf. 1008)ning «As-sahih» («Mukammal lug‘at») nomli asariga yozilgan qo‘shimcha bo‘lib, ko‘pincha «Mulhaqot as-suroh» («As-suroh»ga ilova») nomi bilan mashhurdir. Asarda XIII asrda Olmaliq va unga qarashli yerlarda hukmronlik qilgan turk hukmdorlari; qoraxoniylar, xususan, ularning Qoshg‘arda hukmronlik qilgan namoyandalari: Qoshg‘ar, Xo‘tan, Farg‘ona, Shosh viloyatlari, shuningdek, Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan bir qator yirik o‘rta

asr shaharlari (masalan, Barchinlig'kent, Jand) haqida, Jamol Qarshiy bilan zamondosh bo'lgan mashhur kishilar (shayxlar, olimlar, shoirlar) haqida diqqatga sazovor ma'lumotlarni uchratamiz. Umuman, Jamol Qarshiyning ushbu asari Turon xalqlarining XIII asrdagi tarixi, madaniyati, yirik shaharlari, ularning umumiy ahvoli hamda mashhur kishilarini o'rganishda zarur manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, bu sulola tarixini o'rganishda diniy rivoyat ko'rinishidagi «Tazkirayi Bug'roxon» va «Tazkirayi Abu Nasr Somoniy» asarlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. «Tazkirayi Bug'roxoniy» («Bug'roxonning hayot yo'li va aytganlari») Ahmad ibn Sa'dulla al-O'zgandiy qalamiga mansub asardir. Kitob mashhur qoraxoniylardan Sotuq Bug'roxon (920-956)ga bag'ishlangan. Asarda Uvaysiya tariqati va unga ergashgan toliblarning, shular qatori Sotuq Bug'roxonning ham tarjimayi holi berilgan. Asar «Uvaysiya» (mashoyixlari)ning tarjimayi holi deb ham ataladi.

Bilib oling!

«Tazkirayi Bug'roxoniy» ilk tariqatlardan bo'lmish Uvaysiya tariqati tarixi va O'rta Osiyoda islom dini tarqalishi tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, asar afsonaviy ruhga ega bo'lib, Sotuq Bug'roxonnig hayoti va uning Abu Nasr Somoniydan *islom*ni qabul qilishi, shu bilan bir qatorda, Movarounnahr va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalari haqida ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, asarda Sharqiy Turkistondagi islomlashtirish jarayoni va qoraxoniy hukmdorlarining qo'shni qabilalarga qarshi olib borgan yurishlari haqida qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Horun Bug'roxon, Hasan Bug'roxon, Eson Bug'roxon, Ali Arslonxon kabi qoraxoniylar sulolasi vakillari hayoti, shuningdek, qoraxoniylar sulolasining Xitoy bilan aloqalari haqida qator ma'lumotlar keltirilgan. Asar matni chop etilmagan. Qo'lyozma nusxalari O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida mavjud.

XX asr tarixshunosligida O.Pritsak, V.Kochnev, E.A.Davidovich numizmatik materiallar asosida mazkur davr tarixiga oid tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Qirg'iz olimi O.Karayev ilk bora qoraxoniylar davri tarixiga bag'ishlangan monografiyani yozgan. O'zbek tarixshunosligida A.Ziyo tadqiqot ishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, B.Mahmudov va D.Duturayevalarning nomzodlik dissertatsiyalarida esa Qoraxoniylar davlati tarixi bilan bog'liq jarayonlar tahlil etilgan.

6.2. QORAXONIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

X asrning ikkinchi yarmiga kelib ichki ziddiyatlarning kuchayishi va keskinlashuvi natijasida Somoniylar davlati kuchsizlana boshlaydi. Somoniylarga tobe bo'lgan viloyatlar, ayniqsa, Xurosonda ular hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan isyonlar, toj-u taxt uchun uzluksiz olib borilgan kurashlar Somoniylar davlati inqirozini yaqinlashtirgan edi. Bunday vaziyatdan Yettisuv va Qoshg'arda yashovchi turkiy qabilalar unumli foydalandilar. Chunki X asrning ikkinchi yarmiga kelib bu hududlardagi turkiy qabilalar – qarluqlar, chig'illar, yag'molar va boshqalar o'zlarining kuchli davlatlarini tuzishga muvaffaq bo'lgan edilar.



Qarluq zodagonlari

Qoraxoniylar nomi ilk bora rus tarixchisi Vasiliy Grigoryev tomonidan 1874-yilda nashr etilgan «Qoraxoniylar Movarounnahrdagi tarixi. Munajjimboshi tomonidan usmonli matnida tarjima va eslatmalar bilan» nomli risolasida qo'llanilgan. Qoraxoniylar o'z zamonida «Mamlakati Turk», «Zamini Turon», «Xoqoni Turkiston», «Maliki

Turkiston», «Oli Elxoniya», «Al-Xoqon at-Turk Oli Afrosiyob», «Xoniyat al-Atrak», «Xoqoniya» kabi nomlar bilan yuritilgan.

Qoraxoniylar chig'illar yoki qarluqlar qavmiga mansubligi haqidagi nuqtayi-nazar o'rta asrlar davri tarixining ko'pchilik tadqiqotchilari tomonidan e'tirof etiladi. 840-yili qarluqlar sardori Isfijob hokimi Kul Bilga Qodirxon Uyg'ur xoqonligi qulaganidan so'ng o'zini *xoqon* deb atab oliy hukmronlikka da'vo bilan chiqqan edi. Lekin, o'sha yildayoq Somoniylar Isfijobni zabt etishdi. Turkiy qabilalar esa 893-yili Ismoil Somoniy Tarozni egallaganidan so'ng g'arbiy Qoshg'ar yerlari tomonga chekinishga majbur bo'lishgan edi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Kul Bilga Qodirxon 893-yilda vafot etadi. 904-yilda Movarounnahr yerlariga katta turkiy qo'shin bostirib kirib, mag'lubiyatga uchraydi va orqaga qaytariladi. 906-yilda Ismoil yana qarluq yerlariga bostirib kirdi. Somoniylar o'z mulklarini qarluqlar hisobiga kengaytirib bordilar.

Qoraxoniylar sulolasining tarix maydonida paydo bo'lgan davrga kelib, qarluqlar hali yagona kuchga ega emas edilar. Qoraxoniylar sulolasining birinchi hukmdori Kul Bilga Qodirxonning o'g'illari Bazir Arslonxon va Og'ulchak Sharqiy Turkistonda birin-ketin hukmronlik qilishadi. Sulola qudratining shakllanishi an'anaviy ravishda *islom*ni qabul qilgan birinchi qoraxoniylar vakili Sotuq Bug'roxon nomi bilan bog'liq. Manbalarga ko'ra, Sotuq Bug'roxon islom dinini Abu Nasr as-Somoniydan qabul qilgan.

Bilib oling!

U (Qodirxon)[O'g'ulchak] Nasr ibn Mansur akasidan (qochib) Qashg'arga yetib borguniga qadar islom elchilarining ko'rsatmalariga quloq solishni to'xtatgan edi. O'g'ulchak mehmonni qabul qilish joiz ekanidan uni kutib oldi va [Nasr ibn Mansur] unga dedi: «Men sening uyingga joylashdim, oilangda yashashni boshladim va agar adolatli bo'lsang, senga sodiq xizmat qilaman». O'g'ulchak uni [Nasr ibn Mansurni] Artuj viloyatiga hokim qilib tayinladi.

Buxoro va Samarqanddan kelgan savdo karvonlari [Artuj]ga tez-tez borib, idish-tovoq va gazlama sotar edi. Va u (Nasr ibn Mansur) Qodirxonga g'ayrioddiy mollarni berib, uni o'ziga jalb qilmoqchi bo'ldi. O'sha paytda bu kofir [Qodirxon] jozibali atlas kiyimlari, shakar, shirinliklarni bildi. U (Nasr ibn Mansur) bilan yaqinlashib, do'stlashib, unga suyanmaguncha ularni ko'rmadi va harakat qilmadi. Keyin Nasr undan sigir terisidek kattalikdagi yerni Robbisiga ibodat qiladigan masjid qurish uchun berishini so'radi. Qodirxon: «Faqat sen xohlagan joyingni (beraman)», dedi. Nasr sigirni so'ydi, terisini oldi, belbog'lar qilib kesib oldi va ular bilan hozir Artuj jome masjidi deb nomlanuvchi masjid uchun (yer)ni belgilab qo'ydi. Bevafo [Qodirxon] bu masalani hal qilishda uning topqirligidan hayratda qoldi. O'g'ulchak Sotuqning amakisi edi. Sotuq 12 yoshida avval shahzodalarda bo'lmagan o'zining go'zalligi, tabiiy aql-zakovati, fikri musaffoligi, sog'lom fikrliligi, beg'uborligi bilan barchani lol qoldirdi. [Bir kuni] Buxorodan karvon kelganida Sotuq ular olib kelgan narsalarni ko'rish va bir narsa sotib olish uchun Artujga boradi. Nasr as-Somoniy uni hurmat bilan yaxshi qabul qildi. Peshin vaqti kirgach, musulmonlar shariat talab qilganidek unga (namozga) o'tishdi. Ammo Sotuq (bu) baxtli majburiyatning bajarilishini hali bilmas edi, shuning uchun u uzoqdan kuzatib turdi. Ular namozni o'qib bo'lgach, u Samoniydan: «Nima qilyapsan?» deb so'radi. U (Sotuq): «Bu vazifani senga kim topshirdi?» – deb so'radi. As-Somoniy Yaratganni ta'riflay boshladi, u zotning buyukligi ulug' Muqaddasning go'zal ismlari va maqtovlari bilan komillik va [shuningdek] tilda [o'tkazilgan] islom asoslarini sanab o'tdi».

Jamol Qarshiyning
«Mulhaqot as-suroh» asaridan.

914-yilda somoniylardan bo‘lgan Is’hoq ibn Ahmad va uning o‘g‘li Mansur Somoniylar davlatida hokimiyatni egallash uchun isyon ko‘taradi. Ushbu isyon bostirilgach, Is’hoqning nabirasi Mansurning o‘g‘li Abu Nasr siyosiy boshpana izlab Qoshg‘arga qochadi (shu davrda Sotuq Bug‘roxon aynan undan islomni qabul qiladi). Diniy kelishmovchilik tufayli amakisi O‘g‘ulchakka qarshi isyon ko‘targan Sotuq Taroz va Qoshg‘arni qo‘lga olib, 927-yili Bolasog‘unni (Bu shahar hozirgi Qirg‘iziston poytaxti Bishkek shahri yaqinida bo‘lgan) egalladi hamda o‘zini oliy hukmdor deya e’lon qildi.

Bilib oling!

Manbalarda keltirilishicha, Sotuq Bug‘roxonning otasi vafot etganidan so‘ng taxt vaqtincha uning amakisiga qoldirilgan edi. Kelishuvga ko‘ra, Sotuq Bug‘roxon ulg‘ayganidan keyin aamakisi taxtni unga berishi lozim bo‘lgan. Lekin bunday bo‘lmagach, Sotuq uni kuch bilan tortib olishga qaror qilgan. Zarur kuchni to‘plash va tayanchga ega bo‘lish uchun Sotuq Bug‘roxon islom dinini qabul qilgan va shundan keyin u o‘ziga islomiy ism bo‘lgan *Abdulkarim* nomini olgan. 16 yoshga to‘lgan Abdulkarim Sotuq bir qorong‘u kechada 40 nafar yaqinlari yordamida o‘rdaga hujum qilib, amakisi va uning tarafdorlarini o‘ldirib, taxtni egallaydi. Jamol Qarshiy ma’lumotlariga ko‘ra, amakisiga qarshi kurashda Sotuqqa 1000 dan ortiq Farg‘ona *g‘oziylari* ham yordam ko‘rsatadi. Shundan so‘ng u birinchi navbatda budda diniga e’tiqod qiluvchilar makoni bo‘lgan Xo‘tanga, undan keyin Sharqiy Turkiston sharqidagi uyg‘urlar ustiga yurishlar qilgan. Abdulkarim Sotuq Bug‘roxon islom dinini bevosita o‘zi hukmronlik qilgan Qoshg‘ar va Oqsuv (Tarim daryosining g‘arbiy qirg‘oqlari) viloyatlaridagina emas, Yettisuv, Balxash ko‘li bo‘yi va Jung‘or tekisligi kabi joylarda yashovchilarga ham singdirgan. 956-yil (ba’zi manbalarda 955) u vafot etgach, Qoshg‘ardan 30-35 km uzoqlikdagi Ortush manzilida (Keyinchalik bu joy «Sulton Sotuq qabristoni» deyilgan) dafn etilgan.

Uning vafoti (955/956)dan so‘ng hokimiyat an’anaga muvofiq, katta o‘g‘li Musoga o‘tadi. Tarixiy manbalar, numizmatik materiallar ma’lumotiga ko‘ra, Muso davrida 200 ming chodirlik turkiy aholi islom dinini qabul qilgan. Muso o‘ziga Qoshg‘arni qarorgoh qilib olgan. Uning davrida Qoshg‘ar daryosi atrofida yangi-yangi suv inshootlari, xonlikda madrasalar, qiroatxonalar qurilgan. Qoshg‘ar Sharqiy Turkistonning yirik iqtisodiy va madaniy markaziga aylantirilgan. Ammo Muso Bug‘roxonning hukmronlik davri uzoqqa bormagan. Uning vafotidan so‘ng 958-yilda katta o‘g‘li Hasan Bug‘roxon taxtga o‘tirgan. Qoraxoniylarning Movarounnahrga qarshi uyushtirgan keng ko‘lamli yurishlariga ana shu Hasan Bug‘roxon boshchilik qilgan edi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar fikricha, Qoraxoniylar davlatining barpo etilishida qarluq, chig‘il, yag‘mo qabilalari katta rol o‘ynagan. IX asr o‘rtalaridan boshlab qarluq, chig‘il, yag‘mo, to‘xsi, uyg‘ur, o‘g‘uz kabi turkiy qabilalar o‘rtasida harbiy ittifoqlarning yuzaga kelishi Qoraxoniylar davlatini siyosiy jihatdan yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Aslida ushbu davlat o‘z ichki tuzilishiga ko‘ra uncha mustahkam bo‘lmagan qabilaviy harbiy ittifoqdan iborat edi. Lekin shunga qaramasdan, davlatni ilgarigidek qabilalar ittifoqi sardori bo‘lgan *jabg‘u* emas, balki chinakam qudratli saltanat hukmdori «buyuk xon», ya’ni *«qoraxon»* boshqara boshlaydi. Buyuk xoqonlar o‘sha davr turkiy qabilalarining totemi bilan bog‘liq unvonlar bilan atalgan. Misol uchun yag‘mo qabilasining totemi *«Bug‘roxon»*, chig‘il qabilasining totemi *«arslonxon»* kabi unvonlar xoqon nomlariga qo‘shib aytilgan. «Totemlar» turkiy xalqlarda ham o‘ziga xos «ilohiy qudrat» ramzi sifatida xoqon nomlariga biriktirilgan. Qadimgi davrlarda chig‘il qabilasining hukmdori *«teksin»* unvoniga ega edi, Taroz hukmdori Aylas, Suyob hukmdori «Yalan shoh», Tuxsi hukmdori Kurtekin deb nomlangan. Qoraxoniylar hukmdorlari elig (ilig, ilek), arslonxon, Bug‘roxon deb nomlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, Sotuqning otasi Bazir Arslonxon unvoniga ega edi. Turkiylar orasida eng mashhur unvon *«tegin»* edi. Xoqonga qarashli bo‘lgan barcha el-yurt, viloyat hokimlari *«elikxon»* va «tegin» unvoniga ega bo‘lib, ular «buyuk xon» – *«qoraxon»*ga itoat etgan. «Qoraxon» so‘zi

turlicha ma'noda talqin qilinadi. Xususan, «qora» so'zi «kuchli», «xalq», «xon» so'zi «hukmdor», «rahbar» ma'nolarida kelgan.

Shuningdek, Qoraxoniy hukmdorlari o'z davrida «tabg'ochxon» nomi bilan ham ulug'langan. Qoraxoniy hukmdorlar qo'llagan Tamg'och yoki Tabg'ochxon unvoni turkiylarda Chin (Xitoy) hokimiyatining ta'sirini ifodalardi. Zero turkiylar Chinda hukm surgan Tabg'och ismli turkiy qavmga nisbat bilan bu o'lkaga shu nomni bergandilar. Haqiqatan ham, butun eski turkiy xoqonlar kabi musulmon qoraxoniylar ham jahon hokimiyati mafkurasiga bog'liq bo'lib qolgan edi. Buni legitimlashtirish (qonuniylashtirish) uchun hatto qoraxoniylar o'z shajarasi kelib chiqishini afsonaviy Alp Er To'nga, ya'ni, Afrosiyobga bog'lashga intiladilar. Jumladan, Yusuf Xos Hojib: «Dunyo beylari orasida eng yaxshilari bu turk beylaridir. Ularning ham orasida eng mashhuri Alp Er To'nga (Afrosiyob) bo'lib, u xalqning mumtozi edi. Juda yuksak fazilat va bilimlarga ega bo'lgan qahramon edi. Shu sababli o'lkalar, mamlakatlar fath etilib dunyoga hokim bo'lgan edi», – deydi.

Bilib oling!

Mahmud Koshg'ariy ham uni «Ajun beyi» (Jahon podshohi) deb ulug'langanini yozadi. Islom manbalarda qoraxoniylarni Afrosiyob naslidan deb ko'rsatganlar. Bu holat qoraxoniylarning ham jahon hokimiyati mafkurasiga qanday ishonganliklarini va nimaga Tabg'ochxon yoki Tamg'ochxon unvoniga ega bo'lib, Chin o'lkasida ham hukm qilish da'vosida bo'lganliklarini ochiqchasiga izohlaydi.

Qoraxoniylar hukmronligining dastlabki davri o'zaro hokimiyat uchun doimiy kurashlar bo'lib turganligi bilan izohlanadi. Mazkur kurashlar, asosan, Ali Arslonxon va Horun Bug'roxon avlodlari o'rtasida bo'lgan. Shu bois, Alilar xonadoni va Horuniylar xonadoni degan atama shu davrga nisbatan ishlatiladi.

Qoraxoniylar butun Tangri tog' va Yettisuvni egallab bo'lgandan so'ng Somoniylar davlati tarkibida bo'lgan Movarounnahrga ham harbiy yurishlar uyushtira boshlaydilar. Ular tez orada Farg'ona va

Isfijob (Sayram)ni bosib olishga erishadilar. 990-yilda yuzaga kelgan vaziyatdan foydalanib, qoraxoniylar sulolasi Movarounnahrga sharq va shimoldan harbiy yurish qildi. Sharqiy qo'shinga Hasan Bug'roxonning o'zi boshchilik qildi. Shimoldan yo'lga chiqqan qo'shinga Hasan Bug'roxonning nabira ukasi Horun (Qilich Bug'roxon) qo'mondonlik qildi. 990-992-yillarda qoraxoniy Horun va Hasan Bug'roxon somoniylarga tegishli bo'lgan Turondagi mulklarning kattagina qismini bosib oldi. 992-993-yillarda esa Horun Bug'roxon Samarqand va Buxoroni ham egallaydi.

Bilib oling!

Manbalarning ma'lumot berishicha, Somoniylar davlatida katta ta'sirga ega bo'lgan turkiy lashkarboshi, Xuroson hokimi Abu Ali Simjuriy va yana bir lashkarboshi, Balx hokimi Foyiq ochiqdan-ochiq qoraxoniylarga yon bosadilar. Simjuriy Horun Bug'roxon bilan muzokaralar olib borgan bo'lsa, Foyiq Raboti Malik yaqinidagi Bug'roxonga qarshi jangda, har tomonlama ustunlikka ega bo'lishiga qaramay unga taslim bo'ladi. Horun Bug'roxon Samarqand va Buxoroni egallagach, kasalligi tufayli urushni davom ettira olmaydi. U 993-yili Qoshg'arga qaytishdagi Qo'chqorboshi degan joyda vafot etadi.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O'zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Moziyga sayohat» ko'rsatuvining *Horun Bug'roxonga* bag'ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.


(*Manba*: O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

6.3. QORAXONIYLAR DAVLATINING SIYOSIY TARIXI



Bug‘roxonning maqbarasi

Horun Bug‘roxon vafotidan so‘ng ulug‘ xon (qoraxon) lavozimini qisqa muddat davomida birin-ketin Muso ibn Sotuq, Sulaymon ibn Sotuq va Ali ibn Musolar egallaydi. Ammo ular uzoq vaqt taxtga o‘tira olmadi. Somoniylar davlatidagi ichki nizolar, somoniy hukmdorlari va turk lashkarboshilari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni diqqat bilan kuzatib turgan qoraxoniylar 994-yilda Farg‘ona va Xo‘jandni, 995-996-yilda Shosh va Eloqni, 997-yilda Ustrushonani egallaydilar. Ular Nasr Eloqxon boshchiligida Buxoroga yangi yurishlarni uyushtirdilar. Somoniy hukmdori Nuh II G‘azna hokimi Sabuqteginni yordamga chaqiradi. Balxdan katta qo‘shin bilan yetib



Qoraxoniylar idora etgan hududlar



Qoraxoniylarning 1006-yilgi chegaralari ***(ingliz tilida)***

kelgan Sabuqtegin Kesh va Nasaf oralig'ida joylashib, o'z qo'shinlari bilan kelib qo'shilishini so'rab Nuh II ga elchi yuboradi. Lekin o'z «vassali»ga uncha ishonmagan Buxoro hukmdori vaziri O'zayrining fikriga qo'shilib, bu taklifni rad etadi va Sabuqteginning o'zini Buxoroga chaqiradi. Bundan ranjigan Sabuqtegin o'g'li Mahmudni 20 minglik qo'shin bilan Buxoroga jo'natadi. O'zi esa Nasr Eloqxon bilan muzokaralar olib borib, unga somoniylarga tegishli bo'lgan ma'lum hududlarni taqdim etadi. 999-yilda Buxoro Nasr Eloqxon tomonidan egallanadi.

1005-yilga qadar somoniylar va qoraxoniylar o'rtasida ko'plab urushlar bo'lib o'tdi va o'sha yili so'nggi Somoniy Abu Ibrohim Ismoil Muntasirning Buxoroni ozod etishdagi harakatlari muvaffaqiyatsiz yakunlanadi hamda Somoniylar siyosiy tarix sahnasidan tushib ketdilar.

XI asr boshlarida Qoraxoniylar davlati Amudaryoning yuqori va o'rta oqimlaridan to Yettisuv, Sharqda esa Torim daryosigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan edi. Shu vaqtdan boshlab qoraxoniylar Buxoro, Samarqand va umuman, Amudaryogacha bo'lgan hududlarni

ham boshqara boshlaganlar. Siyosiy jihatdan olib qaraganda, XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. Sharqiy Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Chag'oniyon, Xuttalon viloyatlari qoraxoniylar, Amudaryoning chap qirg'oq yerlari, janubda to G'aznagacha, Xuroson, Seyiston viloyatlari g'aznaviylar, Xorazm esa Xorazmshoh-ma'muniylar, Orol dengizidan Sharq va shimoldagi yerlar o'g'uzlar ittifoqi tomonidan boshqarilar edi.

Qoraxoniylarning Movarounnahrdagi hukmronligi 200 yilga yaqin davom etadi. Somoniylarga tegishli bo'lgan yerlarni egallash jarayonida turkiylar yirik Qoraxoniylar davlatini barpo etdilar. Bu davlat bir nechta viloyatlarga bo'lingan bo'lib, Movarounnahrga dastlab Nasr Eloqxon hokimlik qilgan. Shijoatli va mohir sarkarda Nasr Eloqxon do'stona munosabatlar o'rnatish tarafdori ekanligini bildirib, qo'shnisi Mahmud G'aznaviy (998-1030) bilan elchilik munosabatlarini o'rnatadi. Ammo bunday munosabatlar uzoqqa cho'zilmaydi. Mahmud G'aznaviyning Shimoliy Hindistonda urush olib borayotganligidan foydalangan Nasr Eloqxon 1006-yilda katta qo'shin bilan Amudaryodan kechib o'tib, Balx, Tus, Nishopur shaharlarini bosib oladi. Shunga qaramasdan, tez orada g'aznaviylar qoraxoniylarni Xurosondan haydab chiqarishga muvaffaq bo'ldilar. 1008-yilda Qoraxoniylar yana Xurosonga hujum qildilar. Mahmud G'aznaviyning o'zi 500 ta jangga o'rgatilgan fillarga ega bo'lgan katta qo'shin bilan qoraxoniylarga qarshi chiqdi va ularning qo'shinini butunlay tor-mor qildi. Shundan keyin qoraxoniylar Xurosonga harbiy yurish uyushtirishga boshqa jur'at etmadilar. Termiz, Qabodiyon, Xuttalon kabi Amudaryodan shimoldagi yerlar g'aznaviylar hukmida saqlanib qoldi.

Bilib oling!

«Sulton Yamin ad-Davla Mahmud ibn Sabuqtekin (Mahmud G'aznaviy) hukmronligining boshida al-xon al-kabir Nasr Eloq bilan to'qnashuvlar bo'lgan. Xullas, Mahmud Xursondan, Eloq Movaronnahrdan lashkar olib

keldi. Har ikki lashkar Jayhun daryosining ikkala qirg‘og‘ida turib uchrashdi. Kechqurun to‘xtab, ertangi jangga tayyorgarlik ko‘rishdi. [Keyin] zulmat pardasi ostida Eloq bir xizmatkori bilan qirg‘oqqa yo‘l oldi, Jayhunni suzib o‘tdi va xizmatkorni chorrahada qayiqchi bilan qoldirib: «Meni ertalabgacha kut. Agar qaytmasam, ortingga qaytib ketaver» dedi. So‘ngra, Eloqxon Mahmud qarorgohiga borib, Sultonning chodiriga yetib keldi. U hojiblardan birining oldiga kelib: «Ichkariga kiring, Sultonga ayting, men Eloqxondan kelgan elchiman», dedi. Sultonga xabar berilgach, uni olib kelishni buyurdi. Eloq ichkariga kirib, u zotni ulug‘ va munosib odamlar qanday salomlashsa, egilmay, ta’zim ham qilmay qarshi oldi. Sulton: «Eloqkning elchisimisan?» – deb so‘radi, u: «Ha», deb javob berdi. U (Sulton): «Xatni menga ber, ey mard», dedi. Kim bilan kelganligini so‘raganda, u javob berdi: «Yolg‘iz». Ular (Sultonning mulozimlari) ketishdi. Shunda u (Sulton): «Olib kelgan narsangni ber», dedi. Lekin u (Eloq): «Yo‘q, Allohga qasamki, sen bilan men yolg‘iz qolganimizdagina yuzma-yuz bo‘lganimizda xatni o‘z qo‘lim bilan beraman», deb javob berdi. Uning javobi Sultonning g‘azabini qo‘zg‘atdi, lekin o‘ziga o‘zi: «Men bilan makkorlik qilsa-chi. Agar u menga yugurib kelib, menga hujum qilsa, [yo‘q] men yoshman, u zaif va qari». Ammo [Eloq] sultonning qalbiga qo‘rquv va xavotir uyg‘otayotganini payqab: «Allohga qasamki, menda sizlarga xavf soladigan hech narsa yo‘q. Xudo meni ayyorlikdan saqlasin. Istasangiz, meni tekshirishlarini buyuring. Agar mendan biror narsa topsalar, meni tutsinlar». Sulton [unga] ishonib, kelib xatni berishni buyurdi. U [Eloq] taxtga yaqinlashib: «Men Eloqman, ey Mahmud!» dedi. Sulton esa juda ajablandi. U (taxtdan) tushdi va ular qo‘l siqishdi.

[Eloq] dedi: «Ey Mahmud, biz bir maqsadni amalga oshirish uchun har ikki tarafdan 200 ming otliq askarni yetaklab keldik: yo sen meni mag‘lub etasan, yoki men seni mag‘lub etaman. Oramizda esa qancha erkaklar halok bo‘ladi va qancha ayollar beva, qancha bolalar yetim

qoladilar! Ertaga ulug‘ Rabbiy oldida kim javob beradi – senmi yoki menmi? Men senga boshimni olib keldim. Mana, men sening oldingda turibman, men bilan xohlaganingni qil, qiyomat kuni mendan senga hech qanday da’vo bo‘lmaydi».

So‘ng [Sulton] o‘rnidan turib: «Sening Eloq ekanligingga qanday belgi bilan ishonaman?» dedi. U (Eloq) shunday javob berdi: «Agar meni omon qoldirsang, ertaga ertalab sizlarga malomat va adovat o‘rniga sovchilarni, marosim ustalarini, qurolli otliqlar o‘rniga do‘stlik va tinchlikka intilayotgan chavandozlar guruhini yuboraman». Va u (Eloq) va’dasini bajarish uchun o‘sha kechada qaytib yo‘lga chiqdi. Maqsadiga yetib, qo‘shiniga yetib keldi. Ertasi kuni ertalab esa nikohni yakunlash uchun ta’riflab bo‘lmaydigan va misli ko‘rilmagan sovg‘alar, zo‘r xatiblar, ko‘zga ko‘ringan imom va adiblar bilan sovchilarni yubordi».

Jamol Qarshiyning
«Mulhaqot as-suroh» asaridan.

Qoraxoniylar udel tizimiga asoslangan davlat bo‘lb, sharqiy va g‘arbiy qismlarga ham shartli ravishda bo‘linar edi. Movarounnahr davlatning g‘arbiy qismini tashkil qilib, Samarqand uning markazi bo‘lgan. XI asr boshlarida davlatning sharqiy qismida To‘g‘anxon hukmronlik qilib, u Horun Bug‘roxon avlodidan bo‘lgan. U Yusuf Qodirxon (1026-1032) bilan hokimiyat borasida raqobatlashgan. 1005-yili esa u To‘g‘onxonning qo‘lidan Qoshg‘arni ham tortib olishga muvaffaq bo‘lgan. 1017-1018-yillarda Yettisuv va Sharqiy Turkistonga bostirib kirgan ko‘chmanchilar bilan jang natijasida To‘g‘anxon halok bo‘ldi. Yusuf Qodirxon esa butun Qoraxoniylar davlatidagi oliy hokimiyatni mujassam qilib olishga muvaffaq bo‘ldi.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, Nasr Eloqxon Movarounnahrni hukmdor sifatida emas, balki, Ulug‘ xoqonning noibi sifatida boshqaradi. Jumladan, u Ahmad Arslonxon (998-1015)ning vassali sifatida Movarounnahrni idora qiladi.

Nasr Eloqxonning o'limidan so'ng (1013) uning ukasi Mansur ibn Ali Movarounnahr elikxoni etib tayinlanadi. 1015-yilda u ulug' xoqonga bo'ysunishdan bosh tortib, o'z nomiga *arslonxon* unvonini qo'shib tangalar zarb etishni boshlaydi. 1015-1016-yillar qoraxoniy hukmdorlari va yirik amaldorlar o'rtasida toj-u taxtni egallash, yirik yaylovlarni qo'lga kiritish, ayrim viloyatlarni bosib olish uchun kurashlar avj ola boshlaydi. Oradan biroz vaqt o'tgach, Movarounnahrdagi hokimiyat qoraxoniylarning Hasaniylar (Horuniylar) xonadoniga mansub Ali Tegin qo'liga o'tdi. Ushbu ma'lumotlarga asoslangan M. Fedorov Movarounnahr 1025-1035-yillar oralig'ida (Bug'roxon Horun/Hasan avlodlaridan biri) Ali Teginning (Ali ibn Hasan) hukmronligi ostida bo'lgan deb ta'kidlaydi. Lekin keyingi davrlarda B. Kochnev tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, Ali Teginni Buxoroda 1021-yildan boshlab hukmronlik qilganligini ko'rsatadi. Ali Tegin bilan qoraxoniylarning ulug' xoni (tamg'achxon) Yusuf Qodirxon o'rtasida yaxshi munosabat o'rnatilgan edi. Bu munosabatning yanada kuchayib ketishidan cho'chigan Mahmud G'aznaviy Yusuf Qodirxon bilan kelishib Ali Teginga qarshi ish tutdilar. Yusuf Qodirxon Movarounnahrni o'z o'g'li Yinalteginga olib bermoqchi bo'ldi. Shu maqsadda Sharqiy qoraxoniylar 1025-yilda Movarounnahrga yurish qildilar.

Ali Tegin Zarafshonning o'ng oqimida yashayotgan ko'chmanchi turkman qabilalari va Saljuqning nevaralari Ismoil, To'g'rul va Dovudlardan yordam so'raydi. Bu jangda Movarounnahr qoraxoniylari mag'lubiyatga uchragan bo'lsalarda, Ali Tegin Movarounnahrda o'z hokimiyatini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. 1032-yilga kelib Yusuf Qodirxon hukmiga Yettisuvdan tashqari Sharqiy Turkiston, Isfijob, Taroz ham kirar edi. Bu qismning markazi Qoshg'ar bo'lgan. Keyinchalik uning vorislari Sulaymon Bug'rotegin va Muhammad Yagon teginlar ham Movarounnahrni qo'lga olishga harakat qilib, bu borada Mas'ud G'aznaviy (1030-1041) bilan ham o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamladilar. Taxminan 1030-yildan boshlab Ali Teginning o'g'li Yusuf ibn Ali va Nasr ibn Alining o'g'li Ibrohim ibn Nasr o'rtasida Movarounnahr uchun kurashlar avj oldi.

Buning natijasida Ibrohim ibn Nasr Saljuqiylarning yordami bilan 1040-yilda Movarounnahrni egallaydi va «buyuk xoqon» degan unvonga sazovor bo'ladi. Abu Said Gardiziy (XI asr) o'zining «Zayn ul-axbor» asarida Ibrohim ibn Nasrning siyosiy maydonga chiqishini 1036/1037-yillar bilan bog'laydi. Tarixchi Abulfazl Bayhaqiyning (XI asr) «Tarixi Mas'udiy» asarida Ibrohim ibn Nasr (Ibrohim Bo'ritegin) nomi ilk bora 1038-yili tilga olinadi.

O'sha yili u Ali Tegin o'g'illari qo'lidan asirlikdan qochib, avval Farg'ona tomon yo'l oladi, keyinchalik esa g'aznaviylarga qarashli Amudaryo bo'yidagi mulklarga kelishga majbur bo'ladi. 1038-yil kuzida avval Xuttalon, so'ngra Chag'oniyonni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi. U Movarounnahr hokimi Yusuf ibn Ali bilan kurashib, tez orada Samarqand, Kesh, Buxoroni qo'lga oladi. Tangashunoslik materiallariga ko'ra, 1040-yildayoq uning nomidan Kesh va Samarqandda tangalar zarb etilganligini ko'rish mumkin. XI asrning 40-yillarga kelib Xurosondagi G'aznaviylar davlati saljuqiylar tomonidan mag'lub etildi. Shunday vaziyatda Ibrohim Bo'ritegin o'z qo'shinlari bilan, avvalo, Amudaryo bo'yidagi Xuttalon, Vaxsh, Chag'oniyonni bosib oladi va tez orada butun Movarounnahr yerlarini zabt etadi. U yangi poytaxt qilib o'ziga Samarqandni tanladi va shu yerdan turib hokimiyatni boshqardi (1040-1068). Natijada, 1041-yilga kelib Qoraxoniylar davlati ikkiga: *sharqiy va g'arbiy* qismga bo'linib ketdi.


Bilib oling!

G'arbiy qism Movarounnahrdan to Farg'ona vodiysining g'arbiy chegaralarigacha bo'lgan hududlarni egallagan bo'lib, uning poytaxti dastavval Buxoro, bir muddat O'zgan, keyin esa Samarqand bo'lgan. Sharqiy qism Yettisuv, Qoshg'ar, Taroz, Isfijob, Shosh va Sharqiy Farg'onani o'z ichiga olgan. Uning poytaxti avval Bolasog'un, keyin esa Qoshg'ar edi.

Ibrohim Bo‘ritegin (uni yana «Tamg‘achxon» deb ham atashar edi) Movarounnahrda uzoq vaqt mobaynida hukmronlik qildi. Uning hukmronlik davriga tarixiy manbalar ancha yuqori baho berib, Ibrohimning o‘zini kuchli va adolatli hukmdor sifatida ta’riflashgan. U Sharqiy qoraxoniylarga tegishli bo‘lmish Axsikat, Ko‘zorda, Shubays, keyinchalik 1062-yili Bolasog‘unni ham egallashga muvaffaq bo‘ldi. U qoraxoniylarning O‘rta Osiyodagi asosiy yerlariga ega bo‘lib, poytaxt esa to‘laqonli ravishda Samarqand shahri deya belgilandi. Tamg‘achxon Ibrohim o‘qimishli, aqlli va tadbirkor xoqon bo‘lgan. O‘z siyosatida ulamolarga tayanib ish yuritgan. Tarixiy manbalarning ma’lumotlariga ko‘ra, Ibrohim Tamg‘achxon aholi osoyishtaligi, tinchligi haqida jon kuydirganligi, o‘zaro kurashlarga chek qo‘yishga harakat qilishi, qaroqchi to‘dalarga qarshi kurashi bois uning nomi xalq orasida mashhur bo‘lib ketgan.

U ichki va tashqi savdo ustidan tegishli nazorat o‘rnatdi, uning rivoji uchun ma’lum tadbirlarni amalga oshirdi, pul muomalasi tizimini takomillashtirdi. Ibrohim Tamg‘achxon bunyodkorlik, qurilish ishlariga ham homiylik qilgan. Masalan, 1066-yilda uning buyrug‘i bilan Samarqandda Qusam ibn Abbos maqbarasiga yaqin joyda madrasa qurilgan, shifoxona, shuningdek, Samarqandda qasr ham qurdirganligi ma’lum. Ibrohim Movarounnahr hududida ayirmachi qarmatlar diniy harakatiga chek qo‘ydi. Uning topshirig‘i bilan 1045-yili oxirgi qarmatchilik harakati josusi qatl etildi.

Ta’kidlash joizki, Ibrohim ibn Nasr bilan Saljuqiylar o‘rtasidagi munosabat ancha yomon bo‘lgan. U Saljuqiylarning bir necha hujumlarini qaytarishga erishgan. 1068-yilda Ibrohim ibn Nasr vafotidan so‘ng uning o‘g‘illari o‘rtasida taxt uchun kurash boshlanib, bu kurashda Shamsulmulk g‘alaba qozonib, hokimiyatni egallaydi (1068-1080). 1072-yilda saljuqiy Sulton Alp Arslon (1063-1072)ning vafotidan foydalangan qoraxoniy Shamsulmulk saljuqiylarga tegishli bo‘lgan Termiz va Balx viloyatlarini egallaydi. Ammo ko‘p o‘tmay Alp Arslonning vorisi bo‘lmish Sulton Malikshoh (1072-1092) boshchiligidagi saljuqiylar qoraxoniylarni bu yerlardan siqib chiqardilar.



1080-yilda Shamsulmulk vafot etib, taxtga Xizirxon (1080-1086) o'tiradi. Undan keyin esa uning o'g'li Ahmadxon hukmronlik qilgan. Ahmadxon davrida musulmon ulamolari va turkiy lashkarboshilar o'rtasidagi kurash avj olib ketadi. Bundan foydalangan saljuqiy Malikshoh Amudaryodan kechib o'tdi va qattiq janglardan so'ng 1089-yili Buxoro hamda Samarqandni egalladi. Ahmadxon esa asir olinadi. Lekin Movarounnahrni o'z qo'lida saqlab qolishga ko'zi yetmagan Malikshoh Ahmadxon bilan sulh tuzib, katta o'ljalar olib orqaga qaytadi. Ahmadxonning Saljuqiylarga itoatkorligi harbiy lashkarboshilar va ruhoniylarning noroziligiga sabab bo'lgan. Shu bois, 1095-yili u fitnada o'ldiriladi.

XII asrning boshlariga kelib qoraxoniylar taxtiga Saljuqiy Sulton Sanjar tashabbusi bilan saljuqiylar saroyida tarbiya topgan Muhammad ibn Sulaymonni Movarounnahr taxtiga o'tqazadi. U Arslonxon (1102-1130) nomi bilan taxtga o'tirib yarim mustaqil maqomida davlatni boshqargan bo'lsa-da, lekin to'la mustaqillik uchun sa'y-harakatlar olib bordi. Arslonxon hukmronligining so'nggi yillarida falajlanib qolgan. U taxt vorisi etib o'z o'g'li Nasrni tayinlamoqchi bo'ladi. Lekin 1130-yilda Nasr suiqasd natijasida Samarqandda o'ldiriladi. Tarixiy manbalarda ushbu isyon boshida mahalliy ruhoniylar boshlig'i Ashraf ibn Muhammad Samarqandiy (1076-yil tug'ilgan) turgani alohida

ta'kidlab o'tiladi. Lekin Ibn al-Asir keltirgan ma'lumotga ko'ra, Nasrning o'zi otasiga qarshi suiqasdda ishtirok etgani uchun otasining buyrug'i bilan o'ldirilgan. Ashraf ibn Muhammad Samarqandiy Samarqandda ko'zga ko'ringan Abu Shujo Muhammad ibn Ahmad ibn Hamza al-Alaviy (vaf. 1073-1074) avlodlaridan bo'lgan. Shuningdek, u Ashraf ibn Muhammadni hazrati Ali avlodidan ekanligini alohida bayon qilib o'tadi. Bu esa Ashraf ibn Muhammadni nafaqat siyosiy doirada, balki ulamolar o'rtasida ham katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lganini ko'rsatadi. An-Nasafiy uni 1129-yilda «shahid» bo'lgan deyish bilan cheklangan. Ehtimol, Ashraf ibn Muhammad o'sha davrda xonlarning taxt uchun kurashida ishtirok etgani uchun ham o'ldirilgan bo'lishi mumkin.

Bilib oling!

Nasr o'ldirilgandan keyin boshlangan g'alayonlarni bostirish uchun Asrlonxon yordam so'rab Sulton Sanjarga murojaat qiladi lekin shu paytning o'zida Asrlonxonning ikkinchi o'g'li Qodirxon Ahmad Samarqandda o'zi tartib o'rnatadi va isyonchilarni qatl ettiradi. Ammo Ahmadning Movarounnahrni mustaqil idora qilishga urinishi natijasida 1130-yilning erta bahorida Sanjar Samarqandni egallaydi. Arslonxon kasal holida Balxga jo'natiladi va qisqa muddatdan so'ng 1132-yilda Balxda vafot etadi. Arslonxon o'rniga Sulton Sanjar Arslonxonning vorisi etib uning ukasi saljuqiylar saroyida tarbiya olgan Tabg'ochxon-Bug'roxon Ibrohimni xon etib tayinlaydi va qisqa vaqtdan keyin, 1132-yilning o'zida taxtdan tushiradi. Undan keyin Samarqand xoni etib qoraxoniylar oilasining boshqa vakili – Qilich Tabg'ochxon (Hasan tegin) tayinlanadi. U ham taxtda ko'p o'tirmay, 1136-yilda vafot etadi. Undan keyin uning o'rniga Sulton Sanjarning jiyani va Arslonxonning o'g'li Rukniddin Mahmud taxtga o'tqaziladi. Shu tariqa, G'arbiy qoraxoniylar saljuqiylarga to'laligicha qaram bo'lib qoldi.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O‘zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Tarixiy savol» ko‘rsatuvining *Qoraxoniylarga* bag‘ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

Atamalar izohi

☑ ***Jabg‘u*** *(yabg‘u)* – Turk xoqonligida xoqon va tegin (xonzoda, taxt vorisi) kabi ma’muriy-harbiy mansablardan keyin turadigan unvon. Harbiy sarkarda sifatida qo‘shinning o‘ng qanotiga sardorlik qilgan. Bu mansabni egallashga faqat qag‘an urug‘idan chiqqan shaxslargina haqli bo‘lgan. Xitoy solnomalarida ta’kidlanishicha, Jabg‘u hukmdordan so‘ng oliy ma’muriy-harbiy mansab sifatida faoliyat ko‘rsatgan. G‘arbiy turk xoqonligida jabg‘u istilohi davlat boshlig‘i va oliy bosh qo‘mondon ma’nosida iste’molda bo‘lgan. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asarida jabg‘u «yabg‘u» fonetik shaklida qo‘llangan bo‘lib, «xoqondan ikki daraja past o‘rinda bo‘lgan odam» tarzida izohlangan.

☑ ***Eloqxon*** – el hukmdori ma’nosini bildiradi. Qoraxoniylar davlatida el-ulus, ya’ni viloyatlar hokimi bo‘lgan.

Savol va topshiriqlar

1. XI asrda yaratilgan turkiy tilda yaratilgan asarlarni sanab bering.
2. «Qoraxon» atamasiga ta’rif bering.
3. Qoraxoniylar davlati qanday shart-sharoitda tashkil topgan?
4. Sotuq Bug‘roxon kim? Uning shaxsiyatiga ta’rif bering.

5. Sizningcha, Qoraxoniylar islom dinini qabul qilishdan qanday maqsadlarni ko'zlagan edi?

6. «Tazkirayi Bug'roxon» asarining tarixiy ahamiyati nimada edi?

7. Qarluq, chig'il, yag'mo qabilalari ittifoqi tuzilishiga qanday sabablar mavjud edi?

8. Nasr Eloqxon va Sulton Mahmud G'aznaviy o'rtasidagi suhbat qanday mazmunda kechgan edi?

9. Qoraxoniylar davlati bo'linishiga sabab bo'lgan omillarni sanang.

10. Sharqiy va g'arbiy Qoraxoniylar hududini zamonaviy xaritada ko'rsatib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob.T.: Yangi asr avlodi, 2019.

3. Frye R.N. The Cambridge history of Iran, volume 4. Cambridge university press. 2008.

4. O'zbekiston tarixi. I qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

5. O'zbekistonning davlat muassasalari tarixi. Darslik. Mas'ul muharrir Z. Saidboboyev. – T.: Turon-iqbol, 2021.

6. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild, T.: Info capital group, 2019.

7. Usmon Turon. Sotuq Bug'roxon. T.: Zilol buloq, 2019.

8. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. / Turk tilidan Ulug'bek Hamdam tarjimasi. T.: Yangi asr avlodi, 2021.

8. Xodjayev A., Turdiyeva D. Qoraxoniylar xoqonligi tarixi Xitoy Xalq Respublikasi olimlari tadqiqotlarida. T.: Fan ziyosi, 2021.

9. Абу Саид Гардизи. Зайн ал-ахбар. Т.: Фан, 1991.

10 Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. Т.: Узбекистан, 2006.

11. Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991-1209 гг.). Часть I. Источниковедческое исследование. – М.: ООО Издательскийдом «София», 2006.

7-MAVZU. QORAXONIYLAR VA QORAXITOYLAR

REJA:



7.1. Qoraxoniylar davlati inqirozi. Qoraxitoylar davlati.

7.2. Davlat boshqaruv tizimi.

7.3. Qoraxoniylar davrida iqtisodiy hayot.

Tayanch so'z va tushunchalar

Go'rxon, kidan-xitan, Movarounnahr, Sharqiy Turkiston va Yettisuv, Xitoy, jurchen, Liao, sulola, qoraxoniy, qoraxitoy, Go'rxon, Elyuy Dashi, Bolasog'un, poytaxt, yurish, jang, sulton, Qatvon, saljuqiylar, Sulton Sanjar, Mahmud, qo'shin, qarluq, davlat boshqaruvi, unvon, saroy, mansab, devon, dargoh, totem, qora, arslon, tuya, tamg'achxon, hojib, qapug', bo'g'rachi, bitikchi, eltabar, xoqon ul-xoqon, tuzun, cho'ban, Arslonxon, Minorai Kalon, masjid, ilm-fan, madaniyat, iqtisodiy hayot.

7.1. QORAXONIYLAR DAVLATI INQIROZI. QORAXITOYLAR DAVLATI

Oradan ko'p o'tmasdan Movarounnahrga yangi ko'chmanchi qabilalar – qoraxitoylar (kidanlar) hujumi xavfi paydo bo'ldi. XII asrning 30-yillarida qoraxitoylar Sharqiy Turkiston va Yettisuvni, ya'ni Sharqiy qoraxoniylar hududini bosib oldilar. Sharqiy qoraxoniylar

ancha zaiflashib qolganligi tufayli o‘z mulklarini himoya qila olmadilar. G‘arbiy qoraxoniylarning ham ahvoli bundan yaxshi emas edi.

Qoraxitoylar nomi kidan qabilalarining sharq manbalaridagi nomlanishi bo‘lib, ularning kelib chiqishi Xitoyning shimoli va Manchjuriya hududlarida yashab kelgan qabilalardan bo‘lgan. X asr boshlarida shimoliy Xitoyda kidanlarning Liao davlati tuziladi. XII asrga kelib Liao davlati yana bir ko‘chmanchi qabila – jurchenlar hujumiga uchraydi. 1125-yilda jurchenlar Liao davlatini egallab oladi. Aynan shu paytda Liao hukmdorlari sulolasidan bo‘lgan Elyuy mamlakatning g‘arbiy chekkasida joylashgan Kedun shahriga o‘rnashadi va o‘ziga kidanlarning an’anaviy hukmronlik unvoni – *dashi* rutbasini oladi. Liao davlati qulagach, ko‘plab kidan qabilalari Elyuy Dashi atrofida Kedunda to‘plana boshlaydi. Elyuy Dashining 1131-yilda qoraxoniylarga qarshi ilk yurishi muvafaqqiyatsiz tugaydi. Ammo shu yili Jurchen va Xitoy birlashgan kuchlarining Kedunga uyushtirilgan hujumi barbod bo‘lishi natijasida, Elyuyning qudrati ortadi. Elyuy Dashi 1132-yili o‘ziga «Go‘rxon» unvonini qabul qiladi. 1134-yili Go‘rxon Elyuy Dashi Balosog‘unni deyarli jangsiz egallaydi va shu tariqa Sharqiy Qoraxoniylar davlati tugatiladi.

Bilib oling!

Qoraxitoylarning Movarounnahrga ilk bosqini shu davrlardan boshlanadi. 1137-yildagi Xo‘jand yaqinida bo‘lgan jangda qoraxitoylar qo‘shini qoraxoniy Mahmudxon qo‘shinlarini tor-mor etdi. Bu paytda Xorazmni egallash bilan band bo‘lgan Sulton Sanjar o‘z vassali Mahmudxonga yetarli yordam bera olmadi. Samarqand talon-taroj qilinib, katta tovon undirilgach, qoraxitoylar orqaga qaytdilar.

Oradan ko‘p o‘tmasdan, ya’ni 1141-yilda qoraxitoylar yana Movarounnahr yerlariga bostirib keldilar. Ularning hujumini to‘xtatish uchun saljuqiy Sulton Sanjar katta qo‘shin bilan Samarqand yaqiniga yetib keladi. Musulmon manbalarida qoraxitoylar armiyasi soni 300000

yoki 700000 atrofida bo'lganligi keltiriladi. Ammo tarixiy jarayon va Xitoy manbalari buni tasdiqlamaydi. Ko'plab tadqiqotchilar fikricha, bu paytda qoraxitoy armiyasi 30000 nafardan oshmagan. Sulton Sanjar lashkari esa 100000 atrofida bo'lib, ug'ruq (zaxira aslahalar, ombor, hukmdorlar oila a'zolari va h.k) va ta'minot qismlaridan tashqari 70000 faol jangchi Sulton Sanjar ixtiyorida bo'lgani ehtimol. Bu jang Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lida bo'lgan. Hal qiluvchi jangda Sulton Sanjar va qoraxoniy Mahmudxonlarning birlashgan qo'shinlari qoraxitoylar tomonidan mag'lub etildi. Jangda 30000 atrofidagi saljuqiylar janchilari halok bo'lgan. Hatto Sulton Sanjarning o'zi ham jang maydonidan zo'rg'a qochib qutilishga erishadi. Ushbu jangdan so'ng, Movarounnahr qoraxoniylari qoraxitoylarga qaram bo'lib qoldi.

Qatvon jangidan keyin Movarounnahr qoraxoniylar vakili Muhammad Arslonxonning ikkinchi o'g'li – Ibrohim ibn Muhammad (1141-1156) tomonidan boshqarildi. 1156-yilda u bilan qoraxoniylar qo'shinlari asosiy qismini tashkil etgan qarluqlar o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'ldi. Bu kelishmovchiliklar natijasida xon o'ldiriladi. Uning o'rniga xon avlodlaridan bo'lgan Mahmud ibn Husayn Shag'rixon (1156-1160/1161) o'tiradi. U Ibrohimning o'limi uchun qarluqlardan ayovsiz o'ch oldi. O'z navbatida qarluqlar Xorazmshoh El Arslondan (1156-1172) yordam so'raydi. Shag'rixon esa turkman ko'chmanchilari hamda qoraxitoylarga murojaat etadi. Shag'rixonning qoraxitoylar va ko'chmanchilardan tashkil topgan butun qo'shiniga Ilek turkman boshchilik qiladi. Ilek turkman Xorazmshohning harbiy jihatdan kuchli ekanini ko'rib kurashdan chekinadi.

Numizmatik ma'lumotlarga ko'ra, Movarounnahr Mahmud ibn Husayn Shag'rixondan keyin Ali ibn Husayn (1158-1161) tomonidan boshqariladi. U Samarqand va O'zgand qoraxoniylari bilan kurashda g'alaba qozonib, taxtni egallaydi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, 1163-yilda taxt tepasiga Mas'ud ibn Hasan keladi. Uning unvoni Qilich Tabg'ochxon yoki Qilich xoqon bo'lib, 1163-1171-yillarda hokimiyatni boshqargan. Qilich Tobg'achxon qarluqlarga qarshi va Xurosonga hujumlar uyushtirib turgan ko'chmanchi g'uzlarga qarshi

harbiy harakatlar olib boradi. U qoraxitoylarning yordami bilan Balx va Andxo'y viloyatlarini ham bosib oladi. Qilich Tobg'achxon mamlakat ichida bir qator ishlarni amalga oshirdi. Xususan, uning buyrug'i bilan 1164-yilda Buxoro shahri eski devorining tashqarisidan devor qurdiradi va eski minoralarini tiklaydi.

Bilib oling!

Mas'udning o'g'li Muhammad ibn Mas'ud 1171-1179-yillarda Samarqandni boshqaradi. Uning davrida, ya'ni 1171-yilda qoraxitoylar Xorazmga qoraxoniylar bilan birgalikda yurish qiladi. Qoraxitoy va qoraxoniy qo'shinlari yo'lda Xorazmshoh El Arslon tomonidan yuborilgan Ayarbek boshchiligidagi qo'shinni tor-mor etadi. Bu voqeadan keyin Xorazmshohlarni ma'lum muddat qoraxitoylarga soliq to'lab turishga majbur etdi.

Muhammad ibn Mas'ud vafotidan keyin hokimiyatni Abdulxoliq ibn Husayn ibn Hasan (1179) egallaydi. Noma'lum sabablarga ko'ra, u hokimiyat tepasida juda qisqa muddat bo'ladi. Undan keyin Samarqand taxtiga Qoraxoniylarning ko'zga ko'ringan vakili Tabg'ochxon Ibrohim ibn Husayn (1179-1203) o'tirdi. U «ulug' sulton», «sulton as-salotin» kabi unvonlarga ega edi. Tabg'ochxon Ibrohim ibn Husayn davrida mamlakatda tinchlik o'rnatildi va turli sohalar, jumladan, iqtisodiyot, hunarmandchilik va san'at taraqqiy etdi.

Ibrohim ibn Husayndan keyin davlatni uning o'g'li va qoraxoniylarning oxirgi vakili Usmon ibn Ibrohim (1203-1212) boshqardi. Xorazmshohlar 1210-yili qoraxitoylarni mag'lub etgach, qoraxoniylar xorazmshohlarga qaram bo'lib qoldilar. Sulolaning oxirgi vakili Usmonxon Muhammad Xorazmshohning qizi Xon Sultonga uylanadi. 1212-yilda Samarqandda Xorazmshohlar hukmronligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga ham aynan Usmonxon boshchilik qiladi. Qo'zg'olon bostirilgach, Usmonxon qatl etiladi va qoraxoniylar xonadoniga mansub barcha erkaklar yo'q qilinadi. Shu tariqa, qoraxoniylar sulolasiga barham beriladi.

7.2. DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI

Qoraxoniylar sulolasi o‘z hukmronligi davrida mulklarining sarhadlarini bir necha marta o‘zgartirganlar. Misol uchun Movarounnahrni egallaguniga qadar ularning mulklari Tyanshan va uning atroflaridagi hududlar bo‘lsa, XI asr boshlariga kelib esa xoqonlik chegaralari Amudaryogacha yetgan. Oradan ko‘p o‘tmay ular Xo‘jandni, keyin esa Sharqiy Turkistonda Qoshg‘arni qo‘lga kiritdilar. Bunday holat xoqonlikning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga ham katta ta’sir ko‘rsatar edi. Har bir viloyat ma’lum siyosiy mavqega ega bo‘lgan holda xondan kichikroq unvonli *elekxon*lar tomonidan boshqariladigan bo‘ldi. Qoraxoniylar davlatini tashkil etilishida *yag‘mo* va *chig‘il* qabilalari muhim rol o‘ynadilar. *Asrlon* – chig‘il qabilasining, *bug‘ro* (tuya) – yag‘mo qabilasi totemi bo‘lganligi sabab qabila sardorlari nomiga qo‘shiladigan atama bo‘lgan. Shu bois, yag‘mo qabilasidan chiqqanlar, keyinchalik, nomlariga «Bug‘roxon», chig‘il qabilasiga mansub bo‘lgan hukmdorlar «Asrlonxon» atamalarini qo‘shganlar.

Qoraxoniylar somoniylarga nisbatan davlat tuzilishi va boshqaruvining o‘zlariga xos shaklini joriy etishga harakat qildilar. Ularda hokimiyat somoniylarda bo‘lgani kabi to‘g‘ridan to‘g‘ri otadan o‘g‘ilga emas, balki akadan ukaga, keyin sulolaning navbatdagi vakiliga o‘tgan. Ayrim olimlarning fikricha, qoraxoniylarning butun urug‘i hokimiyatning jamoaviy sohibi bo‘lib, sulolaning har bir a’zosi o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra, umumsulola mulkining bir qismiga da’vo qila olardi. Bu mulkning asosiy qismi sulolaning uch ulug‘ a’zosi – *ulug‘ xoqon*, *kichik xoqon* va *elekxon*ga tegishli hisoblanardi. Ularning har qanday avlodiga o‘z hissasi ajratib berilar edi.

Qoraxoniylarda ikkita poytaxt: Qoshg‘ar va Bolasog‘un mavjud edi. Ulug‘ xon shu shaharlardan biridagi qarorgohda o‘tirgan. Ulug‘ xoqon yoki ulug‘ xon «xoqon ul-xoqon» degan nomda yuritilib, arab manbalarida mazkur unvon «sulton us-salotin», fors manbalaridagi «shahanshoh»ga mos keladi. Qoraxoniylarga qarashli yerlar Tamg‘achxon tomonidan uning o‘g‘illari, qarindoshlari o‘rtasida taqsimlangan edi. Shu bois, yer-mulk masalasida ota-o‘g‘il, amaki va

jiyanlar o‘rtasida doimiy nizolar yuz berib, u siyosiy ahvolga salbiy ta’sir ko‘rsatib turgan.

Qoraxoniylar Movarounnahrni egallagach, bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy hayotda katta o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Shu bois, qoraxoniylar o‘z davlatlarini viloyatlarga bo‘lib tashlaydilar. Movarounnahr viloyatining poytaxti Samarqand, Farg‘onaniki esa O‘zgan shahri edi. Bu viloyatlar boshliqlari elekxonlar bo‘lib, ular Qoshg‘ardagi tamg‘achxonlarga rasman tobe edilar. Qoraxoniylar davrida Samarqand elekxoni ancha kuchayib ketgan. Uning saroyida Somoniylar davlatida bo‘lgani kabi vazir, sohibi-borid, mustavfiy, hojib, rais-muhtasib kabi amaldorlar bo‘lgan. Ta’kidlash joizki, qoraxoniy hukmdorlari musulmon ulamolari bilan yaqin aloqa o‘rnatganlar va imomlar, sayyidlar, shayxlar, sadrlarni qo‘llab-quvvatlaganlar.

Qoraxoniylar davlati boshlig‘i lavozimi, xoqonning taxti merosiy sanalgan. Ma’muriy idoralar ikkiga: *dargoh* va *devon*ga bo‘lingan. Xoqonning *ulug‘ hojib*i xoqon bilan fuqaro o‘rtasida vositachilik qilgan. Xoqon saroyida quyidagi amaldorlar bo‘lgan: ag‘ichi – shoyi kiyimlar xazinachisi; biruk – mehmonlarni qabul qilish bo‘yicha mutasaddi; oshchi – xoqon oshxonasi boshlig‘i (bog‘archi); bitikchi – munshiy; kotib – mirza; qushchi – xoqon ovining tashkilotchisi.

Bilib oling!

Davlat boshqaruvida juda ko‘p nufuzli mansab egalari ish olib borishgan. Ular ichida eng nufuzli darajaga ega bo‘lgan mansabdor bu – *yug‘rush* bo‘lib, u vazirlik darajasidagi kishi hisoblangan. Yug‘rush xoqonga eng yaqin kishilardan bo‘lib, davlat boshqaruvida hukmdordan keyingi o‘rinda turgan. Bunday lavozimga aql-zakovatli, sinalgan va ko‘pincha yoshi ulug‘ kishilar tayinlangan. Odatda bunday lavozimdagi kishi eng og‘ir vaziyatlarda ham o‘z xoqoniga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata biladigan shaxs sifatida davlat boshqaruvida katta tajribaga ega bo‘lgan.

Qoraxoniylar davrida *ulug‘ hojib* va *hojib*lar lavozimiga ham katta e’tibor berilgan. Bunday darajaga keng bilimli, yuksak axloqiy hislatlar

egasi bo‘lgan kishilargina sazovor bo‘lishgan. Bundan tashqari, ulug‘ hojib saroyda qonun-qoidalar, rasm-rusmlar tartibini nazorat qilib borgan. Saroydagi xazinachi, kotib kabi turli xizmatchilar faoliyatiga rahbarlik qilgan. Boshqa davlatlardan kelgan elchi va mehmonlarni qabul qilish, ularning xoqon bilan uchrashuvini ta’minlash, tegishli sovg‘a-salomlarni topshirish kabi vazifalar ham ulug‘ hojibning vakolat doirasiga kirgan. Shuningdek, ulug‘ hojib oddiy xalq ahvolidan xabardor bo‘lib, ularning arz-dodini hukmdorga yetkazib turgan.


Xoqonlikda yana bir katta lavozim bu – *qapug‘boshi* bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariy «qapug‘« atamasini eshik ma’nosida kelishini aytib o‘tgan. Demak, qapug‘boshi bizning tushunchamizdagi eshik og‘asi degan ma’noni anglatar ekan. Uning vazifasi dargohdagi barcha ichki ishlarni olib borish bo‘lgan. Unga ko‘ra, saroyni qo‘riqlash, soqchilarni joy-joyiga qo‘yib chiqish, hukmdor oldiga kirib-chiquvchi har bir kishini nazorat qilish va ishonchsiz, shubhali kishilarni saroyga yaqin yo‘latmaslik kabi ishlar uning zimmasida bo‘lgan. Bundan tashqari, bu mansab egasi saroyda bo‘ladigan mehmondorchilik vaqtida dasturxonga qo‘yiladigan turli taomlar va sharbatlarni tekshirish, ov va harbiy yurish vaqtida hukmdorni himoya qilish bilan ham shug‘ullangan.

Bilib oling!

Dargohda *biruk* nomli mansabdor ham faoliyat ko‘rsatgan. Mahmud Koshg‘ariy unga «shoh yonida kattalarni o‘z joyiga o‘tkazuvchi kishi», deb izoh bergan. Biruk saroydagi mehmonlarni qabul qilish, ularga kerakli xizmatlarni tashkil etish va ularni hukmdor oldida tartib bilan o‘z o‘rniga o‘tkazish kabi vazifalarni bajargan.

Xoqonlikda *ag‘ichi* nomli lavozim egasi ham mavjud bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariy uni «ipak kiyimlarni saqlovchi xazinachi», deb qayd etgan. Haqiqatan ham «ag‘i» so‘zi ipak kiyimni anglatgan. Ag‘ichi nomi shundan olinganligi shubhasizdir. Qoraxoniylar davlatida markaziy davlat boshqarmasida xizmat qiluvchi ag‘ichi mansabidagi

kishi tom ma'noda xazinador hisoblangan. Chunki Qoraxoniylar davlatining dastlabki davrida ipak va ipak kiyimlar nihoyatda qimmatbaho mahsulot bo'lib, sarpolar, sovg'alar hukmdor xazinasidan berilgan.



Harbiy qo'shinlarning joylashish o'rni va harakati qat'iy belgilab qo'yilgan tartib asosida amalga oshirilgan. Unga ko'ra, oddiy askar *su* deb nomlansa, butun harbiy qo'shinning saf tortishi *cherik* deyilgan. Har bir harbiy qism o'ziga yuklatilgan vazifani bajargan. Xususan, *xaylboshi* – otliqlar guruhiga boshchilik qilgan, *yizak* qo'shinning

avangardi sifatida oldinda yurgan, *chovush* janglarda saflarni tuzatgan, osoyishtalik vaqtlarida bo'lsa askarlarni o'zboshimchalik bilan tinch aholiga ozor yetkazishdan saqlagan. Harbiy qo'shinlarga yo'l ko'rsatib borish esa *qulovuz* zimmasida bo'lgan.

Umumiy qo'shindan tashqari maxsus saralangan harbiy qism ham faoliyat ko'rsatgan. Bu harbiy qism *yortug'* nomi bilan yuritilib, hukmdor atrofida borib, uni xavf-xatardan himoya qilgan. Hukmdorning shaxsiy qo'riqchisi esa *yatg'oq* deb atalgan. Qo'shinga umumiy rahbarlik, ya'ni lashkarboshi *subashi* deb nomlanib, bunday lavozimga harbiy jihatdan katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan eng sadoqatli kishilar tayinlangan. Ko'pincha bu mas'uliyatli vazifani sulola xonadoniga mansub kishilar ado etishgan.

Harbiy qo'shinlarni boshqarish taktika jihatdan ham ancha takomillashib borgan. Olib boriladigan harbiy harakatlarga oldindan barcha tayyorgarliklar ko'rilgan. Har bir harbiy qism o'ziga tegishli vazifani bajarish chog'ida shunga ixtisoslashib borgan. Harbiy yurishlar vaqtida dushman qo'shiniga qarshi pistirma qo'yish, dushman hujumidan saqlanish uchun baland va qulay joylarga harbiy istehkomlar qurish (qarg'u), kechasi esa dushman ustiga qo'qqisdan hujum uyushtiradigan (akinchi) maxsus harbiy bo'linmalari shular jumlasidandir. Urushda o'zini ko'rsatgan askarlar bahodirligi uchun taqdirlanishgan.

QORAXON	• **U oliy hukmdor sanalib, davlatni dargoh va devondagi amaldorlar yordamida ijro etgan.**
ELOQXON	• **El-yurt hokimi bo'lib, o'ziga tegishli mulk – viloyatni idora etgan.**
TEGIN	• **Viloyat noibi**
HOKIM, RAIS, MUHTASIB	• **Shahar va tuman boshqaruvchilari**
TUZUN VA CHO'BAN	• **Qishloq oqsoqoli va yordamchisi**

7.3. QORAXONIYLAR DAVRIDA IQTISODIY HAYOT

Somoniylar zamonida mazkur sulola uchun xos markazlashgan davlat tuzumidan qoniqmagan aslzoda dehqonlar qoraxoniylarni qo'llab-quvvatlagan edilar. Yirik xonadon sohiblari – qoraxoniylar hokimiyatda uzoq tura olmadilar va vaqti kelib «biz hududimizning asosiy hukmdorlari bo'lib qolamiz», deb o'ylashgan edi. Ularning bunday rejalarini tushungan yag'mo va chig'illarning boshliqlari zodagonlarni quvg'in qila boshladilar. Buning oqibatida, keksa boy qatlam vakillari o'z ekinzorlari, uy-joylari, mulklari va boyliklaridan mahrum bo'ldilar. Dehqon degan nom endilikda faqat oddiy qishloq jamoasi vakiliga nisbatan aytiladigan bo'lib qoldi. Aslzodalar o'z daromad manbayi – yer-mulkdan mahrum bo'la boshlagan sari oddiy jamoachi ziroatkorlar ijarachilarga aylana bordilar. Bu paytda yerlar egasiz va qadrsiz bo'lib qoldi. Unumdor joylar yaylovlarga aylandi. Biroq keyingi voqealar jarayonida Movarounnahr ijtimoiy hayotida jonlanish yuz berganligi haqida ma'lumotlar ham uchraydi.

Bilib oling!

Qoraxoniylarda oddiy xalq ilgarigi Turk xoqonligida bo'lgani kabi *budun* deyilgan. Soliq to'lovchi fuqaro *raiyat* deb atalgan. Qabila boshliqlari *bek* deyilgan, savdogarlar *sart* deb atalgan. Qoraxoniylar davlatida hunarmandchilik (kulolchilik, to'quvchilik, shishasozlik, temirchilik, zargarlik), shuningdek, ziroat va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sohalar taraqqiy etgan. Shuningdek, konchilik ham rivojlanib qimmatbaho toshlar, oltin, mis, temir qazib olingan. Shaharsozlik inshootlari pishiq g'ishtdan bunyod etilgan. Mazkur davrda yer egaligining *iqto* shakli keng tarqalgan. Xoqon, vaqf, jamoa mulklari qoraxoniylar tasarrufidagi asosiy yer-mulklar hisoblanadi.

Qoraxoniylar davlatida saljuqiylarda bo'lgani kabi iqto egasi o'z mulkida ishlayotgan ziroatkorlardan belgilangan miqdorda qonun bilan qayd etilgan soliqdan boshqa ortiqcha mahsulot yoki haq olishga huquqi bo'lmagan. Majburiy ravishda biror-bir mahsulot tortib olinsa, bunday vaziyatda iqtoning ma'lum miqdori qirqib olingan yoki umuman tortib olingan.

Qoraxoniylar davrida konchilik sohasi ham taraqqiy etgan. Xususan, Qoramozorda (Ohangaron) mis, kumush, qo'rg'oshin; Farg'onada oltin, kumush, simob, temir, mis, feruza, qatron; Nurota tog'larida oltin, mis, qo'rg'oshin, simob, marmar; Buxoro va Ustrushonada oltin, neft, feruza, temir konlari bo'lgan.

Bilib oling!

Qoraxoniy hukmdorlari orasida Arslonxon (1102–1130) olib borgan bunyodkorlik ishlari alohida ajralib turadi. Arslonxon qurdirgan binolar haqida Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari tahrirchilari ko'plab ma'lumotlar keltiradilar. Unda Buxoroda olib borilgan qurilish ishlari haqida quyidagilar qayd etiladi: *«Buxorodagi Iskajat va Sharg' qishlog'i o'rtasida daryo bor edi. Bu ikki qishloq o'rtasidan o'tuvchi daryo ustida katta ko'prik bo'lib, Arslonxon Muhammadxon davrida uning farmoni bilan ushbu ko'prik g'oyatda mustahkam qilib g'ishtdan qayta ishlandi. Sharg' qishlog'ida hech vaqt masjidi jome' bo'lmagani bois Arslonxon o'z puliga masjidi jome' bino qildirdi. Shuningdek, Arslonxon musofirlar uchun Iskajat qishlog'i tomonda bir rabot qurishni buyurdi».*

Arslonxon Boykend (Poykand) shahrini qaytadan bunyod etish borasida ko'p xayrli ishlar qildi va Buxoroda qal'a (hisor) hamda qal'adan uzoqroq joyda Masjidi jome qurdirdi. U Shamsobodda o'zi uchun bunyod etgan saroyni faqihlarga madrasa qilib bergani manbalarda keltiriladi. Arslonxon tomonidan qurdirilgan binolarning ba'zilari hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Ana shunday binolardan

biri Buxoroda joylashgan mashhur Minorai Kalon bo'lib, u 1127-yilda Arslonxon tomonidan qurdirilgan.

Buxoro va Samarqand yon-atroflarida gazlama to'qish yaxshi rivoj topgan. Paxtadan to'qilgan turli mato-gazlamalar mahalliy bozorlar hamda chet el savdogarlari orasida shuhrat qozongan. Ko'nchilik, hayvon terilaridan turli po'stin, bosh kiyim, poyafzal tayyorlash, echki, tuya, qo'y yunglaridan issiq kiyim (qars), guldor namatlar to'qilgan.

Sharqiy Turkiston va Xitoyni arab dunyosi bilan bog'laydigan asosiy savdo yo'li ham Qoraxoniylar davlati hududidan o'tgan. Shahar va qishloqlarda bozorlar, karvonsaroylar orasta va ta'mirlangan, savdogarlarning xavfsizligiga katta e'tibor berilgan. Qoraxoniylar hukmronligi davrida Buxoroda Minorai Kalon, Jarqo'rg'onda masjid va minora, Vobkentda minoralar, O'zgandda maqbara, minora, masjidlar, Samarqandda shifoxona, madrasalar bunyod etilgan. Undan tashqari, mashhur Raboti Malik, karvonsaroylar, rabotlar, sardobalar, ko'priklar, hammomlar, xonaqohlar ham barpo qilingan.

Bilib oling!

Qoraxoniylar davrida turkiylashish jarayoni kuchaydi, *turkiy til*, ayniqsa, uning qarluq-chig'il lahjasi keng tarqala boshladi, turkiy tildagi adabiyot yuzaga keldi. Shu bilan bir qatorda sulola davrida o'ziga hos adabiy muhit shakllangan edi. Ayniqsa, Qoraxoniy Xizrxon va uning rafiqasi Zaynab xotun ushbu adabiy muhitga homiylik qilgan. Saroyda doimiy she'riy bazmlar bo'lib, bu bazmlarda oltin va kumush tangalar to'ldirilgan laganlar hadya sifatida berilib, bu hadya *siymitoqa* yoki *juftiy* deb yuritilgan. Bu davrda qoraxoniylar saroyida Ustod Rashidiy, Amaq Buxoriy, Najjori Sog'arjiy, Ali Panidiy, Ibn Dargush, Ali Sipahriy, Ibn Isfaroiniy, Najibi Farg'oniy kabi shoirlar ijod etgan. Ushbu shoirlar orasida, ayniqsa, Ustod Rashidiy «Sayyid ush-shuaro» (Shoirlar ulug'i) deya ulug'langan.

Atamalar izohi

☑ ***Jurchen*** – Sharqiy Osiyodagi tungus tilida so'zlashuvchi xalqlarni umumiy tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. Ular XVIII asrgacha Xitoyning shimoli-sharqida yashab, manchjurlar nomi bilan ham tanilgan. Jurchenlar nomi 1635-yilda Xong Tayji tomonidan manjurlar deb o'zgartirilgan.

☑ ***Qoraxitoy*** – kidan qabilalarining ittifoqiga nisbatan ishlatiladi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda xitoyliklarda shimol «qora» so'zi bilan bilan izohlangan. Shundan kelib chiqib, qoraxitoylarni Xitoy shimolidagi xalqlar deb nomlash urf bo'ldi.

☑ ***Iqto*** – arabcha «aqta'a» so'zidan olingan bo'lib, «kesmoq», «taqsimlab bermoq» degan ma'noni anglatadi. Iqto ma'lum hududdan xiroj solig'i olish huquqini biron-bir shaxsga berilishi bilan ifodalangan. Odatda davlatga qarashli egasiz va tashlandiq yerlar merosiy va musodara qilish huquqi bilan biror kishiga xususiy mulk, ya'ni muqto tariqasida berilgan. Bu yer uchastkalari qati'a deb atalib mulkka o'xshash bo'lgan, in'om etish hodisasining o'zi iqto deb atalgan. Aksariyat hollarda muqto (iqtodorlar) yerga o'zlari ishlov bermaganlar, balki yerni o'sha joydagi ijaradorlar bilan qo'shib olganlar yoki sug'orishga mablag' sarflab, o'zlashtirgan yerni ijaraga berganlar. Muqto yerdan ushr to'lagan, unga yer solig'i deb emas, balki zakot sifatida qaralgan.

Savol va topshiriqlar

1. Kidanlar kimlar? Qoraxitoylarning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qoraxitoylar davlatining asoschisi kim, Qoraxitoylar davlati qayerda tashkil topgan?
3. Qoraxitoy atamasiga ta'rif bering.
4. Qoraxitoylarda davlat boshqaruvi qanday bo'lgan?
5. Qoraxoniylar davlati inqiroziga sabablar nimalardan iborat edi?
6. Qoraxitoylar tomonidan qoraxoniylar yerlarining egallanish jarayonini izohlang.

7. Qoraxoniylar davrida davlat hukmdorining taxtga chiqish tartiblari qanday edi?

8. «Qoraxon», «Bug'roxon», «Arslonxon», «Tamg'achxon» atamalariga ta'rif bering.

9. Qoraxoniylar davlati davrida sulolaviy boshqaruvning qulayliklari nimalardan iborat edi?

10. Qoraxoniylar davlat boshqaruvining o'ziga xosligi nimalardan iborat edi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob.T.: Yangi asr avlodi, 2019.

3. Frye R.N. The Cambridge history of Iran, volume 4. Cambridge university press. 2008.

4. Latipov J. Xitanlar: davlatchilik sari yo'l. T.: Navro'z, 2019.

5. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

6. O'zbekistonning davlat muassasalari tarixi. Darslik. Mas'ul muharrir Z. Saidboboyev. – T.: Turon-iqbol, 2021.

7. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild, T.:Info capital group, 2019.

8. Usmon Turon. Sotuq Bug'roxon. T.: Zilol buloq, 2019.

9. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san'ati. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2018.

10. Xodjayev A., Turdiyeva D. Qoraxoniylar xoqonligi tarixi Xitoy Xalq Respublikasi olimlari tadqiqotlarida. T.: Fan ziyosi, 2021.

11. Абу Саид Гардизи. Зайн ал-ахбар. Т.: Фан, 1991.

12 Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. Т.: Узбекистан, 2006.

13. Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991-1209 гг.). Часть I. Источниковедческое исследование. – М.: ООО Издательскийдом «София», 2006.

8-MAVZU. G‘AZNAVIYLAR DAVLATI SIYOSIY TARIXI



REJA:

8.1. G‘aznaviylar davlati tarixi manbalari.
8.2. G‘aznaviylar davlatining vujudga kelishi.
8.3. Mahmud G‘aznaviy davrida G‘aznaviylar davlati.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Manba, tarixchi, Alptegin, G‘azna, g‘ulom, qul, o‘g‘il, Barsg‘an, Luyak, Bilgategin, Piriy, Sobuqtegin, Arab xalifasi, qoraxoniylar, noib, davlat, mustaqil, Amudaryo, Yamin ad-davla, Nosir ad-davla, Vayxind, Jaypala, sulh, sulola, aka-uka, Mahmud G‘aznaviy, Mas’ud G‘aznaviy, G‘uriylar, Xorazm, Ma’mun, Oltintosh, Hindiston, davlat, xonadon, chegara, poytaxt, somoniylar, noib, amir, Firdavsiy, madaniyat.

8.1. G‘AZNAVIYLAR DAVLATI TARIXI MANBALARI

Sobiq sovet davri tarixshunosligida G‘aznaviylar, xususan, mazkur davlatning eng yorqin namoyandasi Mahmud G‘aznaviy (998-1030) shaxsi to‘g‘risida umumiy hamda bir yoqlama salbiy qarash ustunlik qilgan. Shuningdek, turkiy davlatchlik namunalaridan biri bo‘lgan G‘aznaviylar davlatining asosiy hududi bugungi Afg‘oniston, Pokiston, Turkmaniston hududlarida bo‘lganligi tufayli mamlakatimiz tarixshunosligida u qadar jiddiy e’tibor bilan o‘rganilmagan.

Mavzuning manbashunosligiga to'xtalganda bu sulola tarixi Abu Muhammad al-Utbiyning «Tarixi Yaminiy», Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor», Abulfazl Bayhaqiyning «Tarixi Mas'udiy» asarlarida ko'proq o'z aksini topganligini ta'kidlash joiz. Shu bilan birgalikda, Nizomulmulkning «Siyosatnoma» (saljuqiylar mavzusida sharhlangan), Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Chahor maqola», Ibn al-Asirning «Al-Komil fit-tarix» va boshqalarda ham G'aznaviylar davlati xususida tegishli ma'lumotlar uchraydi.

G'aznaviylar davri tarixi bo'yicha muhim manbalardan biri **Abu Muhammad al-Utbiy**ning «Tarixi Yaminiy» asaridir. Asar muallifi al-Utbiy tarixchi va davlat arbobi bo'lib, 961-yil Rayda badavlat va nufuzli zodagon oilasida tug'ilgan. Yoshligidan Xurosonda yashagan, somoniylarning Xurosondagi noibi Abu Ali Simjuriy, so'ngra Xurosonda surgunlikda yashagan ziyoriylar hukmdori Qobus ibn Vushmagirning shaxsiy kotibi (sarkotibi), g'aznaviylar (Sabuqtegin, Mahmud G'aznaviy, Mas'ud G'aznaviy) saroyida yirik amaldor sifatida xizmat qilgan. 1036-yilda G'aznada vafot etgan. Utbiy arab tilida «Tarixi Yaminiy», «Latoif al-kuttob» («Kotiblarning latif so'zlari») va boshqa tarixiy asarlar yozib qoldirgan. «Tarixi Yaminiy» asari Sabuqtegin va Mahmud G'aznaviy davrida G'aznaviylar davlati tarkibiga kirgan Xuroson, Xorazm va qisman Movarounnahrning 975-1021-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga olgan.

Mazkur asar «Yamin ud-davla» («Davlatning o'ng qo'li») unvoniga sazovor bo'lgan sulton Mahmud G'aznaviyga bag'ishlanganligi uchun ham «Tarixi Yaminiy» deb atalgan. Asarda qoraxoniylarning Movarounnahrga hujumi (992-996) haqida nodir ma'lumotlar mavjud. Bu asar o'rta asrlar tarixshunosligiga xos og'ir uslub – saj bilan yozilgan. «Tarixi Yaminiy»ning arabcha matni Dehli (1847) va Lohur (1883)da chop etilgan. Bu asarning forscha tarjimasi Tehronda 3 marta nashr etilgan (1856, 1955, 1966). Inglizcha tarjimasi ham mavjud (London, 1858). Undan ayrim parchalar fransuz, nemis, rus, o'zbek tillarida nashr qilingan.

Saroy tarixchilaridan **Abulfazl Bayhaqiy** ibn Husayn al-Kotib (995–1077)ning g'aznaviylar tarixiga oid asarlari alohida ahamiyatga

ega. Bayhaqiy Nishopur madrasalarida tahsil ko‘rgan. Keyin esa Mahmud G‘aznaviy saroyida kotib (1021), munshiy bo‘lib xizmat qilgan. «Ziynat ul-kuttob» («Kotiblar ziynati») va 30 jilddan iborat «Tarixi oli Mahmud» («Mahmud xonadoni tarixi») nomli asarlar yozgan. «Tarixi oli Mahmud» asarining Mahmud G‘aznaviyning o‘g‘li va vorisi Mas’ud (1030-1041) hukmronligiga oid qismigina saqlanib qolgan bo‘lib, u «Tarixi Mas’udiy» va «Tarixi Bayhaqiy» nomi bilan ham mashhur. Bu asar Toshkentda so‘z boshi va izohlar bilan 1962-yilda rus tilida nashr qilingan.

Yana bir muarrix **Abu Said Gardiziy** (XI) fors tarixchisi bo‘lib, uning hayoti haqida ma’lumot bizgacha yetib kelmagan. Gardiziyning 1050-1052-yillarda yozilgan «Zayn al-axbor» («Xabarlar ziynati») asarida peshdodiylardan boshlab, 1032-yilgacha bo‘lgan arab xalifalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, 1041-yilgacha bo‘lgan Xuroson tarixi va g‘aznaviylar sultoni Sulton Mahmudning nabirasi Mavdud (1041-1049) zamonasigacha bo‘lgan voqealar sharhlangan. Asar oxirida musulmon, majusiy, yahudiy, zardushtiy va hind bayramlari, Hindiston va turkiy qabilalar haqidagi boblar ilova qilingan. «Zayn al-axbor»ning tohiriylar, safforiylar, somoniylar va g‘aznaviylar tarixiga oid qismi 1928-yil Nozim tomonidan Tehronda nashr etilgan. «Zayn al-axbor»ning Xurosən tarixiga oid qismi Toshkentda 1991-yil nashr qilingan.

G‘aznaviylar davri tarixi bo‘yicha **Nizomiy Aruziy Samarqandiy** (XI asr 90-yillari – 1160)ning bizgacha yetib kelgan asari muhim manba hisoblanadi. Nizomiy Aruziy Samarqandiy adib, adabiyotshunos olim, kotib, shoir, munajjim, tabib sifatida tanilgan. Aruzni puxta egallagani uchun Aruziy nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. 1111-yilda Xuroson va Eron mamlakatlari bo‘ylab sayohat qilgan. Balx, Hirot, Nishopur shaharlarini kezib, Afg‘onistonning G‘ur va Bomiyon viloyatlarida shansaboniylar sulolasiga 45 yil xizmat qilgan. Bizgacha XII asrning 50-yillarida yozilgan «Majma’ un-navodir» («Nodirlar majmuasi») yoki «Chahor maqola» («To‘rt maqola») deb nomlangan asarigina yetib kelgan. Asar muqaddima va 4 maqoladan iborat. Muqaddimada kitobning yozilish sabablari, maqsadi

aytilgan. Asar Turon xalqlari ilm-fani, madaniyati, yozuvchi-shoirlar hayoti va ijodini o'rganishda muhim manbadir. Asar 1899-yil ingliz tiliga, 1963-yil rus tiliga, 1985-yil asl forsiy nusxadan M. Hasaniy o'zbek tiliga qisqartirib tarjima qilgan.


8.3. G'AZNAVIYLAR DAVLATINING VUJUDGA KELISHI



Alptegin

Somoniylar hukmronligi davridayoq sobiq turkiy qul (g'ulom)lardan tashkil topgan gvardiya saroy muhiti, umuman mamlakat siyosiy hayotida muhim rol o'ynay boshlagan edi. Ushbu gvardiyaning boshlig'i hojib ham ahamiyatli lavozim egasi bo'lgan. Hojiblarning eng kattasi – hojibi buzurg (ulug' hojib) bo'lib, u eng yuqori davlat amaldorlaridan biri bo'lgan.

Somoniy hojiblari ichida Alptegin (885-963) alohida salohiyat egasi bo'lib, 35 yoshidayoq Xuroson sipohsolori darajasiga ko'tarilib, qo'lida 2700 nafar harbiy askarlari bo'lgan. Nasr ibn Ahmad Somoniy (914-943) davrida visoq boshi, xayl boshi, hojib darajasiga ko'tarilgan. U keyinchalik, Abdulmalik I davrida (954-961) katta mavqe va ulkan yer mulklar egasiga aylandi. Amir Abdulmalik vafotidan so'ng Alptegin va Somoniylar vaziri Abu Ali Muhammad Balamiy taxtga o'z nomzodlarini o'tqazishga harakat qilishadi. Ammo ularning niyati amalga oshmaydi. Natijada Alptegin yangi amir Mansur I (961-976) bilan o'zaro nizoga borib qolib, bir qator to'qnashuvlardan so'ng, dastlab Xurosonga chekinadi, keyin esa Xurosonni tark etib, Balx tarafga yo'l oladi. Ta'qib qilib kelgan Buxoro qo'shinini Xulm darasida tor-mor keltiradi. Keyin esa Bomiyon, Kobul, G'azna yerlarida Alptegin mahalliy *luyak* sulolasi hukmdori Abu Bakr Luyakni mag'lub etib, G'aznada keyinchalik mustaqil hukmronlik qilgan G'aznaviylar davlatiga asos solgan edi.



G‘aznaviylar sulolasi tasarrufidagi hududlar ***(ingliz tilida)***

963-yili Alptegin vafot etadi. Alptegindan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Abu Is’hoq Ibrohim o‘tiradi. Loyak sulolasi vakillarining G‘azna hokimiyatini qaytarib olishga urunishi kuchayadi. Kobul, Panjob va Hind daryosi vodiysi hududida hukmronlik qilgan Hindushohiylar bilan nikoh orqali qarindoshlik aloqalariga ega bo‘lgan Abu Bakr Luyak ularning madadiga tayangan holda G‘aznani qaytarib oladi. Abu Is’hoq Ibrohim (963-966) Buxoroga Nuh ibn Mansur huzuriga qochadi. Keyinchalik, 965-yilda Abu Is’hoq Buxorodan yuborilgan harbiy kuch yordamida ularni mag‘lub etadi va G‘aznani qayta egallaydi. Natijada keyingi 15 yil davomida taxtga kelgan G‘aznada hukmronlik qilgan shaxslar bu hududni somoniylar noibi sifatida boshqarib kelishdi. Hudud rasman somoniylarga qarashli deb hisoblangan. 966-yili Abu Is’hoq Ibrohim vafot etadi. Abu Is’hoq Ibrohimdan keyin Alptegin avlodidan bo‘lgan, hukmronlikka da’vo qiluvchi erkak vorislar qolmagan. Shu sababli G‘aznada kelib chiqishi turkiy g‘ulomlardan bo‘lgan Bilgategin (966-975) va Bo‘ri (Piriy)tegin (975-977) kabi amirlar hukmronlik qiladi. Ular, asosan, yirik nufuzli turkiy

g‘ulomlardan bo‘lgan sarkardalar va qo‘shinning tanlovi asosida saylanadi. Bilgategin davrida luyak sulolasi tasirini bartaraf etish uchun 974-yili Abu Ali Luyak hukmronlik qilayotgan Gardizga yurish qilinadi. 975-yili Gardiz qamali paytida Bilgategin vafot etadi. Taxtga uning vorisi sifatida Bo‘ri (Piriy) tegin o‘tiradi.

G‘aznaning yuksalishida Alpteginning suyukli g‘ulomi *Sabuqtegin*ning xizmati katta. U asli Issiqko‘l bo‘ylarida yashagan *barsg‘on* turkiy qabilasidan bo‘lib, ma’lumotlarga ko‘ra turkiy qarluq qabilasining qavmlaridan biriga mansub bo‘lgan. U yoshligida asir olinib, so‘ngra Naxshabda qul qilib sotilgan edi. Somoniylar turkiy gvardiyasi boshlig‘i Alptegin uni qaramog‘iga olgan hamda o‘ziga kuyov qilgan edi. Alptegin xizmatida bo‘lib, keyinchalik, u bilan G‘aznaga keladi. Alptegin vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Abu Is’hoq Ibrohimning xizmatiga kiradi. O‘zining harbiy salohiyati va boshqaruv mahorati tufayli Sabuqtegin atrofida tarafdorlar to‘play boradi. Manbalarda yozilishicha, 974-yilda Sabuqtegin Bilgategin davrida Gardizga uyushtirilgan yurishga rahbarlik qiladi. 977-yilga kelib davlat boshqaruviga salohiyatsiz va mayparast Bo‘ritegin sarkardalar tomonidan hokimiyatdan tushirilib uning o‘rniga Sabuqtegin o‘tqaziladi. Sabuqtegin 977-yildan boshlab G‘azna va uning atroflarini somoniylar noibi sifatida boshqaradi. Bu vaqtga kelib somoniylar sulolasi inqirozga yuz tutgan bo‘lib, Sabuqtegin rasman noib bo‘lsa-da, aslida o‘zini mustaqil hokimdek tuta boshlaydi.

Bilib oling!

«Bu yil (977-yil nazarda tutilgan. – A.Z.) Sabuqtegin G‘azna va uning tumanlarini egallab oldi. Faoliyatining boshlanishi somoniylarning G‘azna qo‘shinlari qo‘mondoni Abu Is’hoq Alpteginning g‘ulomlaridan biri bo‘lganligidir. U Alpteginning rahbarlik lavozimida va uning ishlarining bosh hakami edi. Amir Mansur ibn Nuh zamonida u Abu Is’hoq bilan birga Buxoroga yetib keladi va uni zukkolik, vazminlik, fikr sofligi va qat’iyat sohibi sifatida [Somoniylar]

sulolasining bosh ulug‘ kishilari bilan tanishtiradi. U bilan G‘aznaga qaytishgach, Abu Is’hoq ko‘p o‘tmay vafot etdi, undan keyin oilasi va qarindoshlaridan hukumatni boshqara oladigan hech kim qolmadi. Uning jangchilari yig‘ilib, ularning boshida kim bo‘lishini va ularni birlashtirishi to‘g‘risida bahslasha boshladilar. Avvaliga turlicha fikrlar bo‘ldi, lekin keyin Sabuqtegin haqida kelishib oldilar, chunki ular uning aqlli, taqvodor, mard va o‘ta hurmatli shaxs ekanligini bilishar edi. Uni o‘zlariga bosh qo‘mondon qilib sayladilar, qasam ichdilar va unga bo‘ysundilar. [Sabuqtegin] Ularga amr bera boshladi, ularga mehribonlik bilan munosabatda bo‘lib, ularni yaxshi boshqara boshladi. U o‘zini ular bilan mansabda ham, pulda ham tenglashtirdi. U o‘z uyidan ovqat olib, haftasiga ikki marta ularga ovqat tayyorlardi.

Keyin u jangchilarni yig‘di va ular bilan Hindistonga imon uchun jang qildi. U bilan hindular o‘rtasida shunday shafqatsiz urushlar olib borilganki, hatto bolalarning sochlari oqargan. Hindlar undan qo‘rqishardi. Bir qancha qal’alar va boshqa boshpanalar u tomonidan bosib olindi va shu qadar ko‘p [odamlar] halok bo‘lar ediki, buni sanab bo‘lmaydi».

Ibn al-Asirning «Al-komil fit-tarix» asaridan.

X asrning 80-yillarida Sabuqtegin mamlakat sarhadlarini kengaytirish siyosatini yurita bordi. X asrning 60-70-yillarida Somoniylarning zaiflashuvi tufayli ulkan saltanatning turli hududlari sulola boshqaruvidan chiqa boshlaydi. Shunday holatlardan biri Seyiston hududida yuz beradi. 969-yillar atrofida turkiy g‘ulomlardan bo‘lgan Baytuz Bustni egallab, 970-yildan o‘z nomidan tangalar zarb qila boshlaydi. Sabuqtegin hokimiyatni qo‘lga kiritgach, ko‘p o‘tmay Bustdagi turk g‘ulomlarining raqib guruhiga qarshi harakat qilib, bu yerda Baytuzni ag‘darib tashladi, shu bilan birga, Balujiston shimoli-sharqida joylashgan Qusdarni (Xuzdar) o‘z mulkiga qo‘shib oldi. Biroq

g'aznaviylarning kelajakdagi tarixi uchun eng muhimi Hindiston tekisliklari tomon kengayishning boshlanishi edi.



G'aznaviylar bayrog'i

O'sha davr manbalarida «Dar al-kufr», ya'ni kofirlar mamlakati deb ta'riflangan Hindiston yerlari G'aznaning sharqiy tomonidan boshlangan. Kobul daryosi vodiysi geografik jihatdan shimoliy Hindiston tekisligidagi daryolar tizimining davomi sanalgan; u ko'pincha hind madaniy va diniy dunyosining bir qismi bo'lgan va buddizm, hinduizm islomgacha bo'lgan davrda ham o'z izini qoldirgan. IX asrda Vayhind (zamonaviy Attok yaqinida, Hind va Kobul daryolari qo'shilishi) markazi bo'lgan quyi Kobul vodiysi, Lamg'on va Kobulning o'zigacha g'arbda, kuchli hindushohiylar sulolasi mavjud edi va bu hukmdorlar Shimoliy Hindistonga musulmonlarning kirib kelishi va yoyilishi yo'lini to'sib turishgan.

Taxminan 986-987-yillar atrofida Kobul-Lamg'on mintaqasida keskin janglar bo'lib, unda hindushohiy roja nihoyat mag'lub bo'ldi. Bu Sabuqteginga Kobul daryosi bo'ylab Peshovar tomon yurib, u yerda islomning «ilk urug'larini ekishga» imkon berdi. Sabuqteginning ta'siri mamlakat ichra tez orada shu qadar kuchayib ketdiki, manba tili bilan aytganda, «uning qarshisida Nuh II taxtda rasman o'tirgan zaif hukmdorga aylanib qoldi». Shijoatkor sarkarda Sabuqtegin aynan Somoniylar amiri Nuh II (976-997) dushmanlariga qarshi kurashda yordam berib, «Nosiriddin ad-davla» (Davlat va din himoyachisi), o'g'li Mahmud esa «Sayf ad-davla» (Davlat shamshiri) degan sharafli nomlarga sazovor bo'lishadi. Keyinchalik, somoniy hukmdor Mansur II (997-999) va Mahmud G'aznaviy o'rtasida nisbatan yaqin munosabatlar o'rnatilgan edi. Sabuqtegin vafotidan so'ng hokimiyatni uning katta o'g'li Ismoil boshqara boshladi. Otasining o'limidan so'ng Mahmud akasi Ismoilni taxtdan tushirib, o'zi hukmdorlik darajasini egalladi (998-1030).

Bilib oling!

Somoniylar yorlig'idagi g'aznaviy amirlar:

1. Sabuqtegin – Somoniylar noibi (977-997). Somoniylar davlati sipohsolori (994-997) – G'azna amiri.

2. Ismoil ibn Sabuqtegin (997/998) – G'azna amiri.

3. Nasr ibn Sabuqtegin (997) – Balx amiri.

4. Bog'rachuq, Sabuqteginning ukasi (997) – Hirot amiri.

5. Mahmud ibn Sabuqtegin (995-997) – Somoniylar sipohsolori (998-999), G'azna amiri, Xuroson amiri (999).

8.3. MAHMUD G'AZNAVIY DAVRIDA G'AZNAVIYLAR DAVLATI

Tarixiy manbalarda Sabuqteginning ikkinchi o'g'li bo'lgan Mahmud G'aznaviyning 967-yil tug'ilganligi aytiladi. Yoshligida otasidan harbiy san'atni puxta egallagan. Somoniylarga qarshi isyon ko'targan turk amirlari Abu Ali Simjuriy va Foyiqqa qarshi janglarda otasining qo'shini bilan birgalikda katta jasorat ko'rsatgani uchun «sayf ud-davla» («davlat qilichi») unvoni bilan taqdirlangan (994). Shundan keyin g'aznaviylarning Nishopurdagi noibi (994-997) bo'lgan.

999-yil Somoniylar amiri Mansurning o'limidan so'ng Buxoro taxtiga uning ukasi Abdulmalik II egalik qildi. Bundan norozi bo'lgan Mahmud Xurosonga qo'shin tortadi va uni butkul Somoniylar davlatidan ajratib oladi. Oradan ko'p o'tmay Somoniylar davlati Qoraxoniylar sulolasi qo'liga o'tib, oxirgi amir ham zindonband qilinadi. Shunday voqealarga boy 999-yili Bag'dod xalifasi al-Qodir Mahmud G'aznaviyga «Yamin ud-davla va amin ul-milla» («Musulmon davlatining o'ng qo'li va millatning omonligi») degan faxriy unvon va Xuroson hokimligiga yorliq, bayroq va nog'ora yuboradi. O'z navbatida, Mahmud G'aznaviy ham Abbosiylar xalifasini rasman tan olib, uni payg'ambar avlodi sifatida qadrlaydi. Bu esa Mahmud G'aznaviy davlatining to'liq mustaqilligidan darak berar edi.

Ba'zi tarixiy manbalarda Sabuqtegin emas balki Mahmud G'aznaviy yangi sulola asoschisi sifatida ko'rsatiladi. Jumladan,



Mahmud G‘aznaviy (o‘rtada)

Juzjoniy o‘zining «Tabaqoti Nosiriy» asarida Mahmud Ga’znaviyni Yaminiylar sulolasi asoschisi sifatida qayd etib o‘tadi. Shunga ko‘ra, G‘aznada hukmronlik qilgan G‘aznaviylar davlati aslida shartli ravishda ikki sulola: Teginshohiylar (962-999) hamda Yaminiylar sulolasi (999-1186) hukm surgan deya etirof etish mumkin.

1001-yildagi Qoraxoniylar xoni Nasr Eloqxon bilan o‘zaro kelishuviga binoan Amudaryo chegara qilib belgilandi. 1002-yili esa Mahmud Eronning Seyiston viloyatini qo‘lga kiritadi. 1006-1008-yillarda qoraxoniy Qodirxon Mahmud G‘aznaviy yo‘qligidan foydalanib, Xurosonga yurish qildi. Bunday hol ikki bor takrorlanib, Mahmud har ikkala holatda ham Qodirxon qo‘shinlarini tor-mor keltiradi va ularni Xurosondan haydab chiqaradi. Mahmud G‘aznaviy 1010-1011-yillarda G‘ur viloyatiga yurish qilib, uning hokimi Ibn Suriyni asir oladi. Keyin G‘archistonni (Marv va Hirot oralig‘idagi hudud) egallab, podshoh Sharrni ham bandi qiladi. 1015-yilda esa hozirgi Afg‘onistonning chekka tog‘li hududi Hamovandni ham bosib oladi. 1002-1026-yillar mobaynida Mahmud G‘aznaviy Hindistonga 17 marotaba yurish qiladi. Shubhasiz, bu yurishlarda sulton ko‘plab boyliklarni qo‘lga kiritadi. Birgina 1019-yilgi yurishda 350 ta fil, 57 mingta asir, behisob boyliklarni o‘lja sifatida qo‘lga kiritgan.

Mahmud G‘aznaviy xorazmshoh Abul Abbos Ma’munni (1009-1017) o‘ziga kuyov qilib olib, tez orada ta’sirini Xorazmga ham o‘tkazish taraddudiga tushadi. Bu vaqtga kelib, Xorazm yuqori dehqonchilik madaniyatiga erishgan, musulmon dunyosida ilm-fan markazi, yuksak salohiyatli olimlar yurti sifatida ham dong taratgan edi.

Bilib oling!

Avvaliga G‘aznaviyning elchisi, keyin Sulton Mahmudning o‘zi Ma’munni siquvga olib, undan qaramlikni talab qila boshlaydilar. Bir tarafdan Mahmud G‘aznaviy, boshqa tarafdan atrofdagi a’yonlari hamda zodagonlar tomonidan qattiq qistovga olingan xorazmshoh, 1017-yil bahorida saroy fitnasi qurboniga aylanadi. Natijada Mahmud G‘aznaviy bu voqelikni bahona qilib katta qo‘shin bilan kelib, Hazorasp yonidagi jangda Xorazm qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratadi. Xorazmdan ko‘plab boyliklar bilan birga fan va madaniyat arboblari ham G‘aznaga ko‘chirib keltiriladi. Ular orasida ulug‘ olim Abu Rayhon Beruniy ham bor edi. Xorazmga esa sultonning sobiq bosh hojibi Oltuntosh noib etib tayinlanadi.

Qoraxoniylarning o‘zaro nizolaridan foydalangan Mahmud G‘aznaviy 1024-yili Amudaryo bo‘ylariga yurish qilib, Chag‘oniyon, Qubodiyon, Xuttalon va boshqa chegaradosh viloyatlarni o‘z davlati tarkibiga kiritadi. XI asr tarixchisi Gardiziy «Zayn-ul axbor» asarida Mahmud G‘aznaviy bilan Tamg‘achxon Qodir Qoraxoniyning yuzma-yuz uchrashuvi haqida hikoya qiladi. Uchrashuv 1025-yili Samarqand janubidagi bir qishloqda bo‘lib o‘tadi. Shundan so‘ng Sulton Movarounnahr ishlariga yanada ko‘proq aralasha boshlaydi.

Shia mazhabidagi Buvayhiylar sulolasi hukmronligiga chek qo‘ygan sulton Mahmud G‘aznaviy 1029-yili Erondagi Ray va Jilob yerlarini ham o‘z mulkiga qo‘shib oladi. Natijada Mahmud G‘aznaviy musulmon Sharqidagi eng yirik va qudratli davlat sohibiga aylanadi. A.Odilovning fikricha, Mahmud G‘aznaviy o‘z davrining farzandi

bo‘lib, murakkab va ziddiyatli vaziyat, qarama-qarshiliklarga boy bo‘lmish o‘rta asrlarda hukmdorlik qilgan. Bu hol uning barcha sa’y-harakatlari, ichki va tashqi siyosatida yaqqol namoyon bo‘lgan.

Bilib oling!

MAHMUD G‘AZNAVIYNI «MAG‘LUB ETGAN» MALIKA

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida Erondagi Ray hukmdori Sayida Xotun va Mahmud G‘aznaviy munosabatlari bilan bog‘liq bir qiziqarli ma’lumot keltiriladi. Unga ko‘ra, Sulton Mahmud G‘aznaviy Ray hukmdori Fahriddin Davlo vafotidan keyin bu yurtni o‘z ixtiyoriga olmoqchi bo‘ladi. Valiahd Majdiddin Davloning hali voyaga yetmaganligi tufayli Rayni o‘g‘li nomidan Sayida Xotun idora qilib turgan edi. Mahmud G‘aznaviy Sayida Xotunga elchi jo‘natib, juma namozida o‘zining nomini xutbaga qo‘shib o‘qitishni, Sulton Mahmud nomi bilan tanga pul chiqarilishini talab qiladi. Agar malika bu shartlarga ko‘nmaydigan bo‘lsa G‘azna qo‘shini kuch bilan viloyatni egallashi, g‘orat qilishi hamda malikaning o‘zini qatl etishini ultumatum tarzida qo‘yadi.


Sayida Xotun Mahmud G‘aznaviyning do‘q-po‘psasidan qo‘rqmay dadillik bilan elchilarga shunday javob beradi: «Sulton Mahmudga shuni aytingki, mening erim Faxriddin Davlo tirikligida Sultonning Rayga hujum qilishi mumkinligidan har vaqt xavotirda turar edi. Erim vafotidan keyin men bu haqda xavotir olmay qo‘ydim. Chunki, mening nazarimda, Sulton Mahmud aql-farosatli hukmdor, u xotin kishi bilan jangga kirishni o‘ziga ep ko‘rmasa kerak. Shu narsa ma’lumki, «sherning erkagigina emas, urg‘ochisi ham xavflidir». Agar u bizga hujum qilmoqqa qaror qilsa, u vaqtda Xudo biladi, men jangdan qochmayman. Ikkisidan biri bo‘ladi: yo g‘alaba men

tomonda bo‘ladi, yoki men yengilaman. Agar g‘alaba menga nasib etsa, u vaqtda butun dunyoga elchilar jo‘natib, yuzlab hukmdorlarni qo‘l ostiga saqlagan Sulton Mahmudni men yengdim, deb mag‘rurona jar solaman. Butun dunyo muarrixlari Sulton Mahmud xotin hukmdordan yengilganligi haqida tarix yozadilar, uning nomi tarix sahnasidan yo‘qoladi, unga bundan ortiq uyat bo‘lmaydi. Agar Sulton meni yengsa, unga shuhrat kelmaydi, chunki hech qaysi shoir yoki tarixchi Sulton Mahmud xotin hukmdorning mamlakatini bosib oldi, deb maqtamaydilar». Sayida Xotunning dono va dadil fikrlarini tushungan Sulton Mahmud to bu ayol vafotigacha biror marotaba ham Rayga hujum qilmaydi. Sayida Xotun 29 yil davomida shahzoda bilan birga hukmronlik qildi va 1029-yili vafot etdi. Shundan so‘nggina Sulton Mahmud Rayga qo‘shin tortib, uni o‘z hukmronligiga o‘tkazdi.



1029-yil Ray egallangach, sulton qo‘lga kiritilgan o‘ljaning katta qismini Bag‘dod xalifasiga jo‘natadi va bu boylik, asosan, qurilish – obodonchilik ishlariga yo‘naltiriladi. Mahmud G‘aznaviy Hindiston va boshqa yurtlardan olib kelingan o‘ljalarni ko‘p hollarda obodonchilik hamda qurilish ishlariga sarflagan. Jumladan, u G‘aznada ilk davlat madrasasi, mashhur jome masjidi, ulkan suv to‘g‘oni va yana necha-necha inshootlar barpo ettiradi. G‘azna tez orada Sharqning eng go‘zal va obod shaharlaridan biriga aylanadi. Beruniy G‘azna haqida gapirganda bu shaharda hashamatli saroylar, madrasa va bozorlar ko‘pligini qayd etgan edi.

Mahmud G‘aznaviy hukmdorligi davrida (998-1030) G‘aznaviylar davlatining chegaralari g‘arbda va shimoli-g‘arbda Ray va Isfahon



Mahmud G‘aznaviy masjidi va maqbarasi

shaharlari hamda Orol dengizi bilan birga G‘arbiy Erongacha cho‘zilgan, bir qator g‘alabali yurishlar amalga oshiriladi. Ayniqsa, Hindistonga nisbatan tajovuzkorlik siyosatini o‘tkazib kelgan. Mahmud G‘aznaviy 32 yil hukmronlik qilgan va bu davr ichida Shimoliy Hindistonga 17 marta hujum qilgan. Mahmud umrining oxirlarida barpo etgan poytaxti G‘azna bo‘lgan davlat g‘arbda Isfahon va Kaspiy dengizidan sharqda shimoliy Hindistongacha, Shimolda Xorazmdan janubda Belujistongacha bo‘lgan katta hududni o‘z ichiga olib, o‘sha davrning eng yirik musulmon davlatiga aylangan.

Mahmudning o‘limidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Muhammad o‘tiradi. Vaholanki, uning katta o‘g‘li Mas’ud ham bor edi. Usha zamonda yozilgan manbalar sharhiga ko‘ra, Mahmud taxtni kichik o‘g‘li Muhammadga vasiyat qilish bilan birga unga «Akang Mas’ud bilan qarama-qarshilikka borma, agar u senga qarshi chiqsa, urushib yurma, (bekor) nobud bo‘lasan», degan. Haqiqatan ham tez orada Mas’ud va Muhammad o‘rtasida ixtilof yuzaga keladi. Mas’udning Muhammaddan ustun bo‘lganini zamondosh tarixchilar ham tan

oladilar. Xullas, shu yilning o‘zidayoq Mas’ud taxtni egallaydi. Mas’ud hukmronligi davrida (1030-1041) G‘aznaviylar davlati o‘z qo‘li ostidagi mulklarini birin-ketin qo‘ldan chiqara boshlaydi va tanazzulga yuz tutadi.

Bilib oling!

G‘aznaviylar davlati hukmdorlari:

1. Mahmud G‘aznaviy – 998-1030
2. Muhammad ibn Mahmud – 1030
3. Mas’ud ibn Mahmud – 1030-1041
4. Muhammad ibn Mahmud – 1041
5. Mavdud ibn Mas’ud – 1041-1049
6. Mas’ud II ibn Mavdud – 1049
7. Ali ibn Mas’ud II – 1049-1051
8. Abdurashid ibn Mahmud 1051-1053
9. To‘g‘rul – 1053
10. Farruxzod ibn Mas’ud – 1053-1059
10. Ibrohim ibn Mas’ud – 1059-1099
11. Mas’ud III ibn Ibrohim – 1099-1115
12. Sherzod ibn Ibrohim – 1115-1116
13. Arslonshoh ibn Mas’ud – 1116-1118
14. Bahromshoh ibn Mas’ud – 1118-1153
15. Xusravshoh ibn Arslonshoh – 1153-1160
16. Xusrav Malik ibn Xusravshoh – 1160-1186

G‘aznaviylar hukmdori Mas’ud davri, asosan, Mahmud sa’y-harakatlari bilan qo‘lga kiritilgan natijalarni saqlab qolish yo‘lidagi urinishlar yillari bo‘ldi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Birinchidan, 1034-yili Xorazm g‘aznaviylar ta’sir doirasidan chiqadi. Ikkinchidan esa Xurosonda boshqa bir siyosiy kuch – saljuqiylar sulolasining kuchayib borishi ham xuddi mana shu Mas’ud davriga to‘g‘ri kelgan. 1035-yilgi kelishuvga binoan Mas’ud saljuqiylarga (Yabg‘u, To‘g‘rul, Dovud boshliq qabilalarga) Niso, Farova, Dehiston viloyatlarini maskan va yaylov sifatida berishga majbur bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan kuch-qudrat

orttirgan saljuqiylar 1038-yili Nishopurni egallaydilar. Shu yilgi Saraxs atrofidagi Mas'ud bilan jangda mag'lub bo'lishlariga qaramay, 1040-yili Marv va Saraxs oralig'idagi Dandoniqonda saljuqiylar g'aznaviylarga shunday zarba beradilarki, buning natijasida Sabuqtegin avlodlari o'zlarini o'nglay ololmaydilar. Xuroson qo'ldan ketadi. Garchi Mas'ud o'g'li Mavdud (1041-1049) o'z xonadonining ilgarigi mavqeini tiklashga uringan bo'lsa-da, buning uddasidan chiqolmagan. Chunki fursat qo'ldan ketgandi. G'aznaviylar bundan buyon faqat G'azna viloyati va Shimoliy Hindistondagina hukm yurgizishga qodir bir hududiy sulolaga aylanib qolganlar. Biroq nima bo'lganda ham 1186-yilga qadar ular o'z faoliyatlarini to'xtatganlari yo'q. Mavduddan so'ng sulolaga navbati bilan Ali (1049-1051), Abdurashid (1051-1053), Ibrohim (1099), Mas'ud III (1099-1115), Arslonshoh (1116-1118), Bahromshoh (1118-1153), Xisravshoh (1153-1160), Xisrav Malik (1160-1186) yetakchilik qilganlar. G'uriylar hukmdori G'iyosiddin Muhammad 1186-yili oxirgi sulton Xisrav Malikni Panjobda o'ldirib, g'aznaviylar sulolasiga butkul xotima beradi.



Bahromshoh tangasi

Atamalar izohi

☑ ***G'uriylar davlati*** *(1148-1206/1215).* Poytaxti – G'ur, G'azna (hozirgi Afgoniston). Afg'onistonning markaziy qismidagi tog'li mintaqalardagi davlat. G'uriylar 1151-yili G'aznani talon-toroj etib, G'aznaviylar davlatini xarob qilishgan. Saljuqiy Sulton Sanjar vafotidan so'ng (1157) esa Xurosonni egallab olishdi. G'uriylar davlatining hududi Kaspiy dengizidan Shimoliy Hindistongacha cho'zilgan. G'aznadagi G'uriylar davlati 1206-yili Xorazmshoh tomonidan tugatildi.

☑ ***G'ur viloyati*** – G'ur Xurosondagi Hirot va G'azna o'rtasidagi viloyat bo'lib, u tog'lar va qoyalar orasida joylashgan Istaxriyning

«Masolik va mamolik» («Yo'llar va mamlakatlar») kitobida G'ur haqida shunday yoziladi: «G'ur tog'li hududdir. Aholining aksariyati kofirdir, lekin aholining oz qismi musulmonlardir. Gur aholisi egalik qilgan G'ur tog'lari Xurosonda, boshlanishi Bomiyon viloyatidadir. Ibn al-Asirning yozishicha, «G'ur mamlakati G'azna yaqinida joylashgan. G'uriylar yo'llarda talonchilik bilan shug'ullanib, sargardonlarni qo'rqitishgan. Mamlakatga kirish imkonsizligi g'uriyaliklarni tashqi dushmanlardan himoya qiladi»

☑ ***Gardiz*** – (o'rta forschada «tog' qal'asi» degan ma'noni anglatadi) — Afg'onistonning Paktiya viloyati markazi. Gardez shahri ulkan Alp vodiysini kesib o'tuvchi ikkita muhim yo'lning tutashgan joyida joylashgan. Vodiy tubidan shimolga, sharqqa va g'arbga qadar Hindukush tog'lari va cho'llari bilan o'ralgan.

Savol va topshiriqlar

1. G'aznaviylar davri tarixiga oid qanday asarlar mavjud?
2. G'aznaviylar davlatining saroy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlarni sanang. Ularning yondashuvidagi o'ziga xosliklar nimada?
3. G'aznaviylar sulolasining kelib chiqishi kimlarga borib taqaladi?
4. G'aznaviylar davlati yuzaga kelishi uchun qanday shart-sharoitlar mavjud edi?
5. G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasidagi dastlabki munosabatlar qanday kechdi?
6. G'aznaviylar davlatida hukmronlik qilgan g'ulomlar davrida mamlakat, sizningcha, mustaqil davlatlar edimi? O'z fikringizni izohlang.
7. Sabuqtegin shaxsiyatiga qanday tavsif berasiz?
8. Sabuqtegin nima sababdan katta o'g'li Mahmudni emas, Ismoilni valiahd qilib tayinlagan edi?
9. Mahmud G'aznaviy shaxsiya va faoliyatiga ta'rif bering.
10. G'aznaviylar davlati inqirozi qanday omillarga bog'liq edi?
11. Davlatning shaxsga nisbatan markazlashuvi deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob.T.: Yangi asr avlodi, 2019.

3. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

4. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild, T.:Info capital group, 2019.

5. Rahman A. The last two dynasties of the Sahis (An analysis of their history, archaeology, coinage and palaeography) / This Thesis is submitted for the degree of Doctor of Philosophy in the Australian National University. 1976.

6. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san'ati. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2018.

7. Абу Саид Гардизи. Зайн ал-ахбар. Т.: Фан, 1991.

8. Абулфазл Муҳаммад ибни Ҳусайни Байҳақи. Таърихи Байҳақи. / Табдил, кириш ва изоҳлар муаллифи Сайфуллоҳ Мулложон. Душанбе: Бухоро, 2014.

9 Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. Т.: Узбекистан, 2006.

10. Шарипов М. М. Этапы военно-политической деятельности государства Гуридов (1148-1215 гг.). Диссертация на соискание учёной степени кандидата исторических наук. Худжанд, 2021.

9-MAVZU. G‘AZNAVIYLAR DAVLATINING SIYOSIY VA IJTIMOIY TUZUMI



REJA:

9.1. G‘aznaviylarning tashqi diplomatik aloqalari.

9.2. G‘aznaviylar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

9.3. Davlat boshqaruv tizimi.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Diplomatik aloqalar, kelishuv, Amudaryo, qoraxoniylar, saljuqiylar, Xorazm, Hindiston, Arab xalifaligi, Bag‘dod, al-Qodir, Yamin ud-davla va amin ul-milla, yorliq, Nasr eloqxon, buvayxiylar, korizlar, suv charxpalaklari, G‘azna suv ta’minot tizimi, yer-mulk, qishloq xo‘jaligi, savdo, soliqlar, ijtimoiy-iqtisodiy tizim, shaharlar, ilm-fan va madaniyat, masjid, madrasa, davlat boshqaruvi, sulton, unvon, mansab, devon va dargoh, hojib, harbiy boshqaruv, qo‘shin, bosh qo‘mondon – sipohsolor.

9.1. G‘AZNAVIYLARNING TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARI

G‘aznaviylar O‘rta Sharq hududida yagona geosiyosiy maydonni birlashtirishga muvaffaq bo‘ldilar, shuningdek, ular hukmronligi davrida ma’naviy hayotga tahdid soluvchi kuchlarga nisbatan chek qo‘yildi.

G‘aznaviylarning tashqi aloqalari masalasida ikki narsaga e’tibor berish lozim: ularning mintaqa hududidagi munosabatlari va mintaqadan tashqaridagi aloqalari. 1001-yilgi Mahmud G‘aznaviy va Nasr Qoraxoniy o‘rtasidagi kelishuvga binoan Amudaryo ikki tomon manfaatlarini ajratib turuvchi chegara hisoblangan. Garchi bu ahdnoma keyinchalik bir necha marta (asosan qoraxoniylar tomonidan) buzilib turgan bo‘lsa-da, umuman olganda, daryo ikki tomon uchun chegara bo‘lib qolavergan. Shu bilan bir qatorda Sulton Mahmud G‘aznaviy Nasrning qiziga uylanishi natijasida ikki sulola orasida siyosiy aloqalar chuqurlashadi. 1006-yil Nasr Xurosonga yurish qildi. Ammo Sulton Mahmud Nasr Qoraxoniyni yengishga muvaffaq bo‘ladi. 1007-yili ikki o‘rtada yana harbiy harakatlar yuzaga keladi. Bu safar Nasrga amakivachchasi Yusuf Qodirxon ham harbiy ko‘mak beradi. Ammo Mahmud G‘aznaviy Xurosonni muvaffaqiyatli tarzda mudofaa qiladi.

XI asr 20-yillari o‘rtalarida Movarounnahrdagi Qoraxoniy hokimi Ali Tegin va Bolasog‘unda hukmronlik qilgan Yusuf Qodirxon o‘rtasida nizolar kelib chiqadi. Qoraxoniylarning o‘zaro tafovutlaridan foydalangan Mahmud G‘aznaviy 1024-yili Amudaryoni kechib o‘tib temir darvoza orqali Samarqandgacha yurish qiladi. Bu yurishdan so‘ng Chag‘oniyon, Qubodiyon, Xuttalon va boshqa chegaradosh viloyatlarni o‘z davlati tarkibiga kiritadi. XI asr tarixchisi Gardiziy «Zayn-ul axbor» asarida Mahmud G‘aznaviy bilan Tamg‘achxon Qodir Qoraxoniyning yuzma-yuz uchrashuvi haqida hikoya qiladi. Uchrashuv 1025-yili Samarqand janubidagi bir joyda bo‘lib o‘tadi. Bu uchrashuvdan so‘ng Mahmud G‘aznaviy Qodirxon Yusuf bilan ittifoq o‘rnatadi va har ikkala hukmdor Movarounnahrni Ali Tegindan tortib olib Qodirxonning o‘g‘li Yinal Teginga berishga qaror qilishadi. 1025-yilda Mahmud Movarounnahrga Ali Teginga qarshi yurish boshlagan. Buxoro atroflarigacha yurish qiladi. Ammo Mahmud G‘aznaviy va Yusufning rejalari amalga oshmaydi.

Shuningdek, Mahmud G‘aznaviy Shimoliy Eronda hukm surgan Buvayxiylar (Builar yoki oli Buya) sulolasi vakillari bilan ham kurashlar olib borgan, bo‘lib, bu jarayondagi diplomatik aloqalar ham diqqatga sazovordir.

Bilib oling!

G‘aznaviylar uchun xuddi o‘zlari kabi kuchga to‘lib turgan qoraxoniylar bilan munosabatlarni keskinlashtirishdan ko‘ra Xorazm va Shimoliy Hindistonni bo‘ysundirish ham mumkin, ham moddiy jihatdan ancha foydali edi. Shu ma’noda Mahmud ko‘proq uzoqni o‘ylaydigan, mintaqadagi umumiy siyosiy vaziyatni yaxshi biladigan siyosatchi sifatida gavdalanadi. Shimoliy Hindistonda, keyinchalik, Xorazmda erishilgan harbiy-siyosiy yutuqlardan so‘ng esa g‘aznaviylar qoraxoniylar bilan nafaqat tengma-teng raqobatlasha oladigan, balki ulardan ustunroq mavqega ham yetishadilar.

Saljuqiylar bilan munosabatda ham Mahmud G‘aznaviy uzoqni ko‘zlab ish tutadi. Garchi bu vaqtda saljuqiylar o‘ta qudratli bo‘lmasalarda, lekin umuman jiddiy harbiy kuch sifatida Xurosonga xavf tug‘dirishlari mumkin edi. Ayniqsa, Mahmudning Shimoliy Hindistonga uyushtirgan yurishlari chog‘ida bunday xavf voqelikka aylanishi ehtimolga yaqin bo‘lgan. Shuning uchun ham u 1025-yili turk-o‘g‘uz urug‘laridan bir qismiga (to‘rt ming chodir) Xurosondan manzil beradi. Keyinchalik, Mas’ud G‘aznaviy davrida ular kuchayib, g‘aznaviylarga qaqshatqich zarba beradilar.

G‘aznaviylarning mintaqadan tashqaridagi aloqalarida ilgarigi qudratini yo‘qotgan xalifalik hurmatini o‘rniga qo‘yishga harakat qilganlar. Zero, bu ularning manfaatlariga mos kelar edi. Bu davrda Arab xalifaligi shunchalar zaif ediki, mintaqadagi biron-bir siyosiy sulola (masalan, qoraxoniylar, xorazmshohlar va g‘aznaviylarning o‘zlari ham) uni real qudrat sifatida tan olmasdi. Demak, xalifalik tomonidan g‘aznaviylarga qarshi harbiy xavf-xatar yo‘q edi. Aksincha, Mas’udning tili bilan aytganda, «Agarda xalifalik dargohiga hurmatimiz bo‘lmaganda edi nochor Bag‘dodga otlanib haj yo‘lini holi qilib qo‘yardik. Agar otamiz qazo qilmay, Xurosonga qaytishga majbur bo‘lmaganimizda, albatta, bugun Misr va Shomda (ham hukmron) bo‘lardik». Mintaqaning o‘zida ham g‘aznaviylarning raqiblari yetarli

edi. Arab xalifaligining mintaqaga qo'li yetmasa ham «tili» yetardi. Ya'ni mintaqadagi siyosiy kuchlarni bir-biriga gij-gijlash uning siyosatiga aylanib qolgan edi. G'aznaviylar esa xalifalikka «hurmat» bilan qarab, o'zlariga nisbatan har qanday buzg'unchilik harakatlarini bartaraf etdilar va hatto undan raqiblariga qarshi foydalanish imkonini ham chetga surib qo'ymadilar.

Bilib oling!

G'aznaviy hukmdorlari qo'shni davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yganlar. Xususan, Sabuqtegin 996-yil Movarounnahrga bostirib kirgan qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi. Natijada ular o'rtasida shartnoma tuzilib, unga muvofiq Sirdaryo havzasi qoraxoniylar qo'liga o'tadi. Sabuqtegin esa Amudaryoning janubidagi yerlarga hukmdor bo'lib oladi. Uning o'g'li Mahmud G'aznaviy G'arbiy Qoraxoniylar davlati (poytaxti Samarqand) va Sharqiy Qoraxoniylar (poytaxti Bolasog'un) hukmdorlari o'rtasidagi ziddiyatlardan ustalik bilan foydalangan.

Manbalarda ta'kidlanishicha, 1025-yil Mahmud Sharqiy Qoraxoniylar tamg'achxoni Qodir bilan Samarqand yaqinida uchrashgan. Ana shu uchrashuvda Mahmud G'aznaviy Qodirxonning siyosiy diplomatiyada savodsizligi, qo'polligini ko'rgach, uni o'zining muomalasi, mehmondo'stligi, boyligi va zeb-ziynatlari bilan lol qoldirmoqchi bo'lgan. U bezatilgan chodir tayyorlatib, uni hayratomuz yasattirgan, qimmatbaho sovg'alar bilan bezagan. Ziyofatni haddan ortiq darajada quyuq qilgan. O'z qarorgohiga qaytgan Qodirxon Mahmud oldida uyalmaslik uchun g'aznaviy sultonga katta miqdorda pul, oltin bilan bezatilgan egar-jabduq, yuganli dul-dul otlar, oltin belbog'li turk g'ulomlari, turli mo'ynalar va boshqa turdagi boyliklarni yuborgan. Bu Mahmudning diplomatik g'alabasi edi.

999-yili Bag'dod xalifasi al-Qodir Mahmud G'aznaviyga «Yamin ud-davla va amin ul-milla» («Musulmon davlatining o'ng qo'li va

millatning omonligi») degan faxriy unvon va Xuroson hokimligiga yorliq, bayroq va nog‘ora yuboradi. O‘z navbatida Mahmud G‘aznaviy ham abbosiylar xalifasini rasman tan olib, uni payg‘ambar avlodi sifatida qadrlaydi. Bu esa Mahmud G‘aznaviy davlatining to‘liq mustaqilligidan darak berar edi.

Bilib oling!

«Shundoy eshitgonmanki, ey farzand, sening bobong sulton G‘aznaviy (Mahmud) Bag‘dod xalifasi Al-Qodir billohga noma yozib yubordi va dedikim: «Movarounnahrni menga bergil, yo‘q ersa qilich bila olurman va raiyat menga mute’ bo‘ladilar. Agar sen Movarounnahr tasarrufining yorlig‘ini yuborsang, men u yorliqni xaloyiqqa ko‘rguzarman, toki sening farmoning bila raiyat menga mute’ bo‘lg‘aylar». Al-Qodir billoh esa Mahmudga elchi yuborib dedi: «Olamda menga Movarounnahr raosidin muteroq qavm yo‘qdur, hargiz bermasman. Agar sen mendin farmon yetmay turib ularga qasd qilsang, barcha olamni senga dushman qilurman».

Sulton Mahmud bu so‘zdin tang bo‘lib, xalifaning elchisiga qarab: «Mening haqimda bu so‘z munosib emas erdi. Endi Qodirga aytgil, men ikki ming fil bila borib, xalifani fillarning oyog‘i ostida vayron qilurman Bag‘dod tuprog‘ini fillarga yuklab, G‘azniga olib kelurman va fillarni vosita qilib katta tahdid taxvif ko‘rguzurman».

Xalifaning elchisi qaytib kelib, xalifaga mazkur xabarni yetkurdi. Xalifa buning javobini elchiga topshirib yubordi va elchi sulton Mahmudning viloyatiga yetdi. Sulton Mahmud taxt ustida o‘tirib erdi. Hojiblar, muqarrablar, amirlar, sipohiylar atrofida saf tortib turardilar, mast fillarni keltirib, ulug‘ haybat bila ko‘chalarda qator qilib qo‘ymish erdilar. Shundin keyin elchini ko‘rinishga keltirdilar. Elchi nomani sulton oldiga qo‘yib dedi: «Amiralmo‘minin

yuborgon nomasin o‘qidim, unga loyiq javob yozib yubordim, – deb meni sizga yo‘llamish». Xo‘ja Abu Nasr Meshkon sultonning munshiysi edi. U nomani olib ochib o‘qidi. Nomani boshida «Bismillohir rahmonir rahim» deb yozilgon erdi. Undin keyingi satrda alif, lom, mim deb yozilgon erdi va «rabbil olamin....» deb yozilgon erdi, boshqa birorta so‘z yozilmagon erdi.

Sulton Mahmud hamma kotiblar bila o‘ylashib ko‘rib bu qanday so‘zdur, – deb Qur’ondagi har baytniki alif, lom, mim bo‘lsa o‘qib, tafsir qildi. Hech biri uning so‘ziga javob emas erdi. Nihoyat, Abu Bakr Qahnoniy (u o‘tirg‘onicha yo‘q erdi, ayoq ustida turg‘on yosh yigit erdi) shunday dedi: «Ey xudovand, xalifa sizga alif, lom, mimni yozib yuborgani yo‘qdur. Siz uni fil bila qo‘rqitib va xavf berib noma yubormish erdingiz va Bag‘dodning tuprogini fillarga yuklab G‘azniga keltururmiz, deb erdingiz. Shu jihatdin xalifa: «Xudo filbonlaring boshiga ne ko‘ylarni solg‘onin nahotki tushunmamishsan?, – deb yozmishdur. Sizning fil yurishingizga javob ushbudur».

Sulton Mahmud bag‘oyat diyonatli odam erdi. Bu so‘zni eshitgach, hayratda qolib, ko‘p vaqtga qadar hushi qochdi va yig‘lab zorliqlar qilib, xalifadin uzr tilab, unga maktub yo‘lladi. Abu Bakr Qahnoniyga xil’at berib, tarbiyat qildi va nadimlarning orasidin o‘rin berdi. Ko‘rmasmusan, Qahnoniy bir so‘zning sababi bila shuningdek ulug‘ darajaga yetdi».

Kaykovusning «Qobusnoma» asaridan.

Mahmud G‘aznaviy buyuk olim Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning ham o‘z saroyida xizmat qilishni xohlagan. O‘z vaqtida xorazmshoh Ma’mundan boshqa olimlar qatorida uni G‘aznaga yuborishini talab qilgan. Shu bois, Gurganjga Ibn Ali Miqol boshliq elchilarni ham jo‘natgan edi. Lekin Masihiy va Ibn Sino sulton Mahmud G‘aznaviy saroyida xizmat qilishini istamay, Xorazmdan qochishga qaror

qilishadi. Mahmud G‘aznaviy Ibn Sinoni o‘z saroyiga jalb etishga ko‘p urindi, hatto uning siymosini 40 nusxada qog‘ozga ko‘chirtirib, qanday qilib bo‘lmasin, uni topib keltirishga farmon beradi. Xorazmdan qochgan Ibn Sino dastlab Gurgonga boradi, so‘ngra Rayga Majdud davlo saroyiga keladi. Ibn Sino 1029-yili Sayida Xotun vafotiga qadar bu yerda xavfsizlikda yashagan. Keyinchalik, Ray Sulton Mahmud tomonidan egallangach, Hamadonga qochishga majbur bo‘ladi.

9.2. G‘AZNAVIYLAR DAVLATIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

Mahmud G‘aznaviy Hindiston va boshqa yurtlardan olib kelingan o‘ljalarni ko‘p hollarda obodonchilik hamda qurilish ishlariga sarflagan. Jumladan, u G‘aznada ilk davlat madrasasi, mashhur jome masjidi, ulkan suv to‘g‘oni va yana necha-necha inshootlar barpo ettiradi. G‘azna tez orada Sharqning eng go‘zal va obod shaharlaridan biriga aylanadi. Beruniy G‘azna haqida gapirganda bu shaharda hashamatli saroylar, madrasa va bozorlar ko‘pligini qayd etgan edi.

Bilib oling!

«G‘azni uchinchi iqlimdadir. Uni Zobul ham deydilar. Zobuliston shu viloyatga tegishli. G‘azni Kobuldan g‘arbga tomon o‘n to‘rt yig‘och (Ma’lumotlarga ko‘ra, 12 ming qadam 1 yig‘och deb qabul qilingan. Agar bir qadam 0,75 m bo‘lsa, u holda 1 yig‘och 9 km ga teng bo‘ladi. – A.Z.)yo‘ldir. ...Kam hosilroq viloyatdir. Anhorida to‘rt-besh tegirmon suvi bo‘ladi. G‘azni shahri va yana to‘rt-besh kenti ushbu suv bilan obodondir. Yana uch-to‘rt kenti koriz bilan sug‘oriladi. Kobul uzumidan G‘azni uzumi yaxshiroq bo‘ladi. Qovuni ham Kobul qovunidan afzalroq. Olmasi ham yaxshi bo‘ladi. Uni Hindistonga eltardilar. Ekin yetishtirish juda sermashaqqatdir. Ekin ekish oldidan har yili yerga butunlay yangi tuproq soladilar. Lekin bu yerning Kobul

ekinidan hosili ortiqroq bo‘ladi. Ro‘yan ekadilar. Hosili butunlay Hindistonga ketadi. Bu elning yaxshi hosili ro‘yandir. Hazora va afg‘onlar sahro-dashtda yashaydilar. Kobulga qaraganda G‘aznida hamisha arzonchilikdir. Eli hanafiy mazhabli, pokiza e’tiqodli musulmon eldir. Uch oy ro‘za tutadigan elati ham anchagina. Ayollari hijobda va yopingandirlar. ...Sulton Mahmudning qabri G‘azni mahallalari orasida. Sulton qabri unda bo‘lgani uchun Ravza derlar. G‘aznining yaxshi uzumi Ravzadandir. Avlodi Sulton Mas’ud bilan Sulton Ibrohimning qabri ham G‘aznidadir. G‘aznida tabarruk mozorlar ko‘pdir. ...G‘azni – juda kamhosil yer. Hindiston va Xurosonni o‘z zabtlarida tutgan podshohlarni nega bunday nochorgina yerni poytaxt qilganliklariga hamisha taajjub qilinadi. Sulton Mahmud zamonida uch-to‘rt to‘g‘on bo‘lgan ekan. Bir to‘g‘on ushbu G‘azni daryosida. G‘aznidan shimol sari uch yig‘och yuqoriroqdan Sulton bir katta to‘g‘on solibdi. Bu to‘gonning balandligi qirq-ellik qari, uzunligi taxminan uch yuz qari keladi. Suvni unda zaxira qilib saqlab, ehtiyojga yarasha ekinga ochar ekanlar.

Alovuddin Jahonso‘z G‘uriy bu viloyatni egallaganida ushbu to‘g‘onni buzib sulton avlodining ko‘p qabrlarini kuydiripti. G‘azni shahrini buzipti va kuydiripti. Elni talapti, o‘ldiripti, qo‘lidan kelgancha qatl va buzuqchilik qilipti. O‘shandan beri bu to‘g‘on buzuqdir. Hindiston fath qilingan yili (1526) bu to‘g‘onni tiklash uchun Xoja Kalondan mablag‘ yuborildi. Tangri inoyatidan umid borki, bu to‘g‘on obod bo‘ladi».

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asaridan.

Sulton Balx va Nishopurda ham bir qator qurilish ishlarini amalga oshirgan. Shuningdek, sulton ilm-fan, madaniyat arboblariga ham homiylik qilgan. Mahmud G‘aznaviyning o‘zi turkiy, arab, fors tillarini

mukammal bilgan, she'riyatdan xabardor bo'lgan. Uning saroyida Farruxiy, Unsuriy, Manuchehriy, Utbiy, Gardiziy, Bayhaqiy va shu singari shoir, tarixchilar ham faoliyat ko'rsatishgan. Beruniyning eng sara asarlari ham G'aznada dunyoga kelgan. U sulton bilan ko'pgina yurishlarda ishtirok etgan. XI asr muallifi Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'zining «Chahor maqola» nomli asarida Beruniy bilan sulton o'rtasida ancha iliq munosabat bo'lganligini ta'kidlaydi. Abulfazl Bayhaqiyning mashhur «Tarixiy Mas'udiy»sida, garchi sulton bilan Beruniyning munosabatlari hamisha ham silliq kechmaganligi qayd etilsa-da, lekin sultonning buyuk olimga xayrixohlik bilan qaraganini e'tirof etadi. Beruniy Mahmud G'aznaviy vafotidan (1030) keyin ham G'aznada to umrining oxirigacha, ya'ni 1048-yilga qadar yashab qoladi. U G'aznada rasadxona ochib, shogirdlariga dars beradi, unumli ijod qiladi. Mahmud G'aznaviy otasi Sabuqtegin yozib qoldirgan «ma'naviy ulug'vorlik bamisoli alanga va shamol, bularning harakat va parvoz xususiyati bor. Maishat esa qiya yerdagi qum uyumiga o'xshash uning tubanlikka surilish xosiyati bor», degan nasihatiga ko'ra ilm-fan sohasiga ham katta e'tibor bilan qaragan. Shunisi diqqatga sazovorki, sulton 1019-yili musulmon olamida ilk davlat madrasasini ochib, unga noyob qo'lyozmalarni to'platgan.

XI asr ilm-fani, madaniyati taraqqiyoti hamda olamshumul yutuqlarida g'aznaviylarning hukmfarmon bo'lgan makon va zamonning o'rni katta bo'lgan. Albatta, buning sababini, eng avvalo, mintaqaning an'anaviy fan va madaniyat o'chog'i bo'lib kelganligi bilan bog'lash mumkin. Shu bilan birga, bunda g'aznaviylar sulolasi namoyandalarining mazkur sohaga bo'lgan munosabatlari, shaxsiy imkoniyatlari omili ham alohida o'rin tutgan. Chunonchi, Mahmud G'aznaviy ona tilisi bo'lgan turkiydan tashqari fors, arab, hatto pahlaviy tillarini ham mukammal bilgan, she'r bitgan. Shuning uchun ham bo'lsa kerak Mahmud va umuman g'aznaviylar hukmronlik qilgan markazlar o'z davrining madaniy muhitida eng oldingi o'rinlarda turganlar. Farruxiy, Unsuriy, Manuchehriy, Utbiy, Gardiziy, Bayhaqiy, Nosir Xisrav kabi mashhur shoirlar, tarixchilar, olimlar g'aznaviylar homiyligida faoliyat ko'rsatganlar. Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon

Beruniy (973-1048) ham g'aznaviylar saroyida ilm bilan shug'ullanib o'zining ko'plab mashhur asarlarini, jumladan, «Hindiston», «Geodeziya», «Xorazmning mashhur kishilari», «Qonuni Mas'udiy», «Mineralogiya», «Saydana» asarlarini G'aznada yozgan.

G'aznaviylar bilan yana bir mashhur madaniyat arbobining nomi bog'liq. Fors adabiyotining daho shoirlaridan hisoblanmish Firdavsiy hammaga ma'lum «Shohnoma» asarini o'ttiz yildan ortiq vaqt ichida yozib tugatib, o'sha zamon tartib-qoidalariga ko'ra davr sultoni Mahmudga taqdim etadi. Mahmud bu ulkan she'riy asar (60 mingdan ko'p baytdan iborat) uchun taomilga ko'ra shoirni taqdirlashi va hurmatini o'rniga qo'yishi kerak edi. Ammo u bunday qilmaydi. Ba'zi bir adabiyotlarda buning uchun Mahmudni qoralash an'ana tusiga kirib qolgan. Firdavsiy o'z xalqi farzandi va kuychisi sifatida tabiiy ravishda Eronzamin va eron xalqini madh etadi. Bunda eronliklarning tarixi va fazilatlari (donoligi, shijoati va hokazo) masalasini yoritishda ularga turonliklarni qarshi qo'yadi. Bugungi kun tili bilan aytganda asarda turonliklar salbiy «qahramonlar» sifatida gavdalanadilar. Turkiynasab hukmdor sifatida Mahmud buni qabul qilolmasligi tabiiy edi. Shuning uchun bu borada Mahmudni ayblash tarixiy haqiqatga va umuman mantiqqa ziddir.

Bilib oling!

G'aznaviylar davrida ichki va tashqi savdo-sotiq aloqalari ancha rivoj topdi. Shaharlarda hunarmandchilik sohalari, qurilish, binokorlik, ganchkorlik va boshqalar taraqqiy etdi. Qishloq xo'jaligi avval boshidagi inqirozdan so'ng yana qaddini rostlab ola boshladi, bozorlarda turli mahsulotlar turi ko'payadi.

G'aznaviylar davrida ijtimoiy hayot deyarli boshqa sharq xalqlarinikidan katta farq qilmagan. Asosiy soliq yer solig'i *xiroj* bo'lgan. Shuningdek, saroylar qurish va shoh ovlarida ishtirok etish uchun majburiy mehnat, mard-begori talab qilingan. Qishloq xo'jaligi vohalarda jamlangan bo'lib, mohiyatan kichik miqyosda bo'lgan va




Buqaning boshi shaklidagi burunli idish, G'aznaviylar sulolasi davri

tegishli qishloq hududida yashash uchun yoki o'zlari uchun yetarli oziq-ovqat yetishtira olmaydigan Hirot, Marv va Nishopur kabi shaharlarni ta'minlash uchun mo'ljallangan edi. Asosiy suv manbalari Amudaryo, Murg'ob va Hilmand kabi daryolar bo'lib, ularda ko'plab suv tegirmonlari mavjud bo'lgan. Sug'orishning ko'p qismi yer osti qanotlari yoki korizlar orqali ta'minlangan bo'lib, ular uchun qurilish va texnik xizmat ko'rsatish uchun faqat badavlat yer egalari ta'minlay oladigan katta mablag'ni talab qilar edi. Sultonlarning o'zlari G'azna viloyatidagi gidrotexnika inshootlari uchun mas'ul bo'lganlar. Faqat bir nechta qulay tog'li hududlarida lalmikor dehqonchilikka imkon mavjud edi. Yuqori Amudaryo vodiysi va uning irmoqlaridagi yam-yashil yaylovlarda aholi yilqichilik bilan shug'ullangan.

Deyarli barcha shaharlar to'qimachilik yoki gilam ishlab chiqaradigan Xurosondagina Nishopurning *kattabi* va *saqlatun* ipaklari, Hirotning oq paxtalari va Marvning tilla ipli *mulham* matolari kabi mahalliy matolar mashhur bo'lib, xorijiy o'lkalarga ham eksport qilingan. Shaharlarda savdo-sotiq nazorati asosan raislar qo'lida bo'lib, Nishopurda Muykaliyning oilasi somoniylar va g'aznaviylar davrining ko'p qismida rais lavozimini egallab kelganlar. Bu kabi oilalar bir tomondan Xurosonni Movarounnahr va dashtlar bilan, ikkinchi tomondan Bag'dod va Iroq bilan bog'lab turuvchi karvon savdosi bilan ham shug'ullangan. IX asrdan boshlab Iroq va islom o'lkalariga muntazam ravishda Movarounnahr qul bozorlaridan qullar Xuroson bo'ylab olib kelingan. Qullar qoraxoniylar vositachiligidaXuroson bozorlariga yuborilgan. Shuningdek Hindistonga tinimsiz yurishlar davomida ham ko'plab hind qullari olib kelingan

9.3. DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI

G'aznaviylar davri boshqaruv tizimi o'zining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. U ko'p jihatdan somoniylar, qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruvi tizimlariga yaqin va o'xshash. Bu tabiiy hol. Chunki har qanday boshqaruv tizimi (shakli) mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sharoitga bog'liq bo'ladi. Boshqa tomondan esa g'aznaviylar hukmronligi ostida bo'lgan Xuroson, Seyiston, Kobul, G'azna kabi viloyatlar mintaqaning ajralmas tarkibiy qismlari bo'lib kelganliklarini nazarda tutsak, boshqaruvchilik taraqqiyotidagi o'xshashliklar, yaqinliklar sababi ma'lum bo'ladi.



Demak, boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Avvallari ham bo'lganidek, dargohga oliy hukmdor hayoti va faoliyati bilan aloqador xizmatlar, amallar kirgan. Har qanday boshqaruv tizimi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy sharoitga bog'liq bo'ladi. G'aznaviylar davrida davlat boshqaruvi ancha murakkab

bo‘lgan. Hojiblik xizmati o‘z vazifasiga binoan har xil turlangan. masalan, ulug‘ hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib va boshqalar. Ulug‘ hojib hojiblar orasida, umuman, davlat hayotida ko‘pchilik yuqori mansablardan ham (jomadorlarni misol qilish mumkin) yuqori mavqega ega bo‘lganlar.

Bilib oling!

«...Sulton Mahmud saltanatga o‘tirganida amir al-muminin al-Qodir billohdan unvon so‘raydi. Unga Yamin ud-davla (davlatning baxti, o‘ng qo‘li) unvonini beradilar. U Nimro‘z, Xurosonni, Hindistonda esa ko‘p viloyatlarni olib, Sumanotta borib Manotni zabt etib keladi. Samarqandni qo‘lga kiritib, Xorazm yo‘lini ochadi, Ko‘histon va Iroqqa keladi. Ray, Isfahon, Hindistonni bosib, Tabaristonni o‘z itoatiga bo‘ysundirganida amir al-mumininga elchisini ko‘p hadyalari bilan yuborib, unvonlari martabasini ko‘tarishni so‘rab deydi: «Menga Hindiston, Xuroson, Iroq, Tabariston taslim bo‘ldi. Movarounnahrni olganman, sening noming ostida jang qilaman. Samarqand xoqoniga uch unvon berganlar. Bular: Zahir ud-davla (davlat madadkori), Muinu xalifatullohi (Olloh o‘rinbosarining yordamchisi), va Malik ush-Sharq va-s-sin (Sharq va Chin maliki). Hozir xoqon menga tobedir. Unga uchta unvon berganlar, menga bo‘lsa bitta, xolos».

Shuncha hadyalar bilan Mahmudga javob keladi: «Unvon mardning sharafini ko‘taradi, martabasi oshib, shu unvon bilan odamlar orasida taniqli bo‘ladi. Sen o‘zing sharafli va taniqli kishisan, senga bir unvon ham yetadi. Xoqon esa savodsiz, nodon bir zotdir. Shu uchun uning iltimosini bajardik. Bilib qo‘yki, odamga ota-ona nom beradi, o‘zi kuniyat oladi, podshohlar esa unvon va laqab beradilar. Shu ikkala ismlardan ortig‘i kibr va g‘urur nishonasidir. Hech bir xiradmand kishi o‘zining

sharmandaligini xohlamaydi. Odam yosh bo'lsa, uning nomini oladilar, ammo katta bo'lib yaxshi-yomonning farqiga borsa, o'zini bilib qolganda kuniyat oladi, chunki «al-kunya maylani» (ya'ni kuniya mening maylimdir). Odamlar ham uning hurmati uchun kuniyati bilan chaqirib ehtirom qiladilar. Mulk va millat undan shoyista xizmatlar ko'rsa, podshoh uni xizmatiga yarasha sharaflab, unvon beradi va boshqalardan ajratib, fazilatini ko'rsatadi. Podshoh va xalifa bergan unvon ota-ona qo'ygan nomdan ham, o'zi tanlagan kuniyatdan ham yaxshiroqdir. Odamlar kishining yuksalishi uchun uni podshoh bergan unvon bilan chaqiradilar. Shu uchta nomdan ortgan unvon behudadir.

Sen har xil ilmlardan xabardorsan, senga e'tiqodimiz ziyodadir. Bizdan so'ralgan so'z xalq o'rtasida tarqalib ketadi, kitoblarda yoziladi. Sen bo'lsa, savodsiz kishi qiladigan ishni qilayapsan». Mahmud bunday javobni eshitib, xafa bo'ladi».

Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asaridan.

Mahmud G'aznaviy XI asr birinchi choragida musulmon Sharqi siyosat maydonida katta o'rin tutgan buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi sifatida tarixda nom qoldirdi. Har bir tarixiy shaxs kabi uning faoliyati ham ziddiyatlardan xoli bo'lmagan. Ayniqsa, bu hol uning butun hukmronlik davrining asosiy mohiyatini tashkil etgan.

G'aznaviylar davlatida boshqaruv tizimi Somoniylar, Qoraxoniylar davridagi boshqaruvga yaqin bo'lgan. Boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Dargohda hojiblik xizmati alohida e'tiborga sazovor bo'lgan. Hojiblikning bu davrda tarixchi Bayhaqiy ta'kidlagan quyidagi shakllari bo'lgan: ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib-jomador. Ulug' hojib nafaqat hojiblar orasida, balki butun mamlakat hayotida katta mavqega ega bo'lgan. Masalan, Mahmud G'aznaviydan so'ng bevosita hokimiyat ishlarini qo'lga olgan ulug' hojib Ali Qarib ismli shaxs bo'lgan. Rasmiy marosimlar, turli tadbirlarda ulug' hojib hukmdorga eng yaqin joyda

turgan. Janglarda ham unga qo‘shinning eng salmoqli va mas’uliyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Masalan, hukmdor markaziy, sipohsolor o‘ng qanot, ulug‘ hojib esa chap qanotiga boshchilik qilgan.

Dargoh faoliyatida sipohdor (saroy xizmatchisi), davotdor (hukmdor shaxsiy hujjatlari bilan bog‘liq ishlarga bosh), pardador (maxfiy xizmatlarni bajaruvchi), martabador (o‘rta darajadagi amaldor), farrosh (kichik xizmatchi), xazinachi, jomaxona (kiyim-kechak saqlovchi xona) boshlig‘i kabi mansab va xizmatlarning ham o‘z o‘rni bo‘lgan. Devonlar (vazirliklar) tabiiyki, ijroiya idoralari bo‘lib, ularning manbalarda beshtasining nomi keltiriladi: vazir devoni, ya’ni bosh vazir devoni, harbiy ishlar devoni, diplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar, hujjatlar devoni, moliya devoni, xat-xabar (pochta) devoni. Shuningdek, mushriflik (davlat nazorati), muhtasiblik xizmatlari ham bo‘lgan. Viloyat boshlig‘ini voliy deb atashgan, u hukmdor tomonidan tayinlanar edi. Viloyatdagi ijroiya boshqaruv ishlarini amid olib borgan. Shahar boshlig‘ini esa rais deb atashgan. Shahar miqyosida shixna, qutvol (qal’a komendanti), sohibi devon (ma’muriy boshqaruvchi) kabi amaldorlar ham faoliyat yuritishgan.

G‘aznaviylar, xususan, Mahmud G‘aznaviy davrida kuchli qo‘shin yuzaga kelgan. Davlat qudratli qo‘shinga ega bo‘lgan. Qo‘shinning bosh qo‘mondoni – sipohsolor, lashkarboshilar – solor, harbiy qismlar boshlig‘i esa sarhang deb atalgan. Bosh qo‘mondon – sipohsolor mansabiga sulolaning eng ishonchli kishisi tayin etilgan. Masalan, Mahmud G‘aznaviy davrida bu mansabga Muhammad Yusuf tayin etilgan.

Bilib oling!

«Agar har turli qabiladin lashkar tutsang, u holda bir toifa ikkinchi toifadin xavf gumon qilur va nofarmonlik qila olmaslar, sening farmoning esa lashkaringga ravo bo‘lur. Shundoqki, sening bobong sulton Mahmudning to‘rt ming turk g‘ulomi va to‘rt ming hindu g‘ulomi bor erdi. Turklarni hindulardin qo‘rqitardi. Bu ikki toifa bir-biridin qo‘rqishi natijasida mute va farmonbardor bo‘lur erdilar».

Kaykovusning «Qobusnoma» asaridan.

Yuqori harbiy lashkarboshilar sarhang deyilib, ular xayl (bir necha o'n otliq)larga boshchilik qilishgan. Harbiylar o'z qozilik, xat-xabar xizmatlariga ega bo'lganlar. Dargohda shaxsan saralangan kuchli gvardiya ham alohida tarzda mavjud bo'lgan. G'aznaviylarning ham saralangan jangavor qismlari bor edi, ammo ular to'g'ridan to'g'ri dargoh ixtiyorida bo'lgan. Manbalarda yozilishicha, Mahmud G'aznaviyning 300 mingga yaqin otliq va piyoda lashkari bo'lgan. Bundan tashqari, qo'shin tarkibida harbiy kemalar (daryo va dengiz floti), 500 ta harbiy fillar bo'lgan. Harbiy qo'shin kamon, nayza, qilich, gurzi va boshqa qurollar bilan qurollangan.

Atamalar izohi

☑ ***Al-fil*** – Qur'ondagi 105-sura bo'lib, ushbu surada arab ziyoratchilarini undan qaytarish va xristianlikka targ'ib qilish uchun Ka'bani yo'q qilish maqsadida Yamandan Makkaga yo'l olgan Efiopiya hukmdori Abraha al-Ashram haqida hikoya qilinadi. U katta qo'shin va harbiy fillar bilan Toifga yo'l oladi, u yerda Abraha armiyasi va arablar o'rtasida to'qnashuvlar yuz beradi. Garchi Abraha jangda g'alaba qozongan bo'lsada, Yaman va Hijoz qabilalari tomonidan uyushtirilgan tungi hujumlar tufayli ko'plab qiyinchiliklar va qo'shin qamrab olgan epidemiya tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. U o'z mamlakatiga qaytib keladi, qo'shinining katta qismini yo'qotadi va maqsadiga erisha olmaydi. Yo'lda Abraha ham chechak epidemiyasi tufayli kasallanib vafot etadi. 570-yoki 571-yillarda sodir bo'lgan ushbu yurish Arabistonda islomdan oldingi Hijoz taqvimiga «Fil yili» nomi bilan kiritilgan. Qobusnomada keltirilishicha, Bag'dodga yurish qilib, uni fillar bilan vayron qilish haqidagi Sulton Mahmudning xatiga javoban xalifa al-Qodir fil surasini javob sifatida yuboradi. Bu esa sharq donishmandchiligida, xalifa tomonidan Mahmudning Abrahaga qiyoslanishi edi.

☑ ***Kunya*** – abu (arabcha: abu – ota so'zining izofa holatidagi shakli). Arablar va boshqa musulmon xalqlarda ko'pchilik kunyalarning tarkibiy qismi. Masalan, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy

va boshqalar. «Abu» bilan kelgan ism shaxsning otasi ekanligini, «ibn» bilan kelgan ism esa shaxsning o'g'li ekanligini bildiradi.

☑ ***Shixna*** – O'rta asrlardagi islomiy atama bo'lib, taxminan «harbiy boshqaruvchi» degan ma'noni bildiradi. Bu atama, xususan, Abbosiy xalifasi Iroqdagi turklarning saljuqiy vakili uchun ishlatilgan. Keyinchalik, bu atama qal'a boshqaruvchisiga beriladigan unvonga aylandi.

☑ ***Sarhang*** – (forscha «qo'shin boshlig'i») Saljuqiylar, Xorazmshohlar, G'aznaviylar kabi turkiy davlatlarda 500 otliq askardan tashkil topgan harbiy guruh qo'mondoni. Sarhang saltanat oldidagi buyuk xizmatlari evaziga malik darajasiga ko'tarilishi hamda muayyan viloyatga hokimlik qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Mumtoz fors-tojik va o'zbek tili tarixiy-badiiy adabiyotida umuman «lashkarboshi, sarkarda, boshliq» ma'nolarini anglatgan. Xususan, soqchilar boshlig'i «sarhangi devon», darvozabonlar rahbari «sarhangi navbat» birikmalari bilan ifodalangan.

Savol va topshiriqlar

1. G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasidagi diplomatik aloqalar qanday bo'lgan?
2. Mahmud G'aznaviy davrida mamlakat qaysi hududlarni o'z ichiga olgan edi?
3. Mahmud G'aznaviy tashqi diplomatiyada qanday siyosat olib borgan edi?
4. Mahmud G'aznaviy va Arab xalifasi al-Qodir o'rtasidagi munosabatga ta'rif bering.
5. G'aznaviylar davlati yuzaga kelgan vaqtda davlat hukmdorini saylashning qanday o'ziga xos tomonlari bor edi?
6. G'aznaviylar davlatida davlat boshqaruvi boshqa Sharq davlatlari bilan qanday o'ziga xosliklar va o'xshashliklarga ega edi?
7. G'azna shahriga ta'rif bering.
8. G'aznaviylar davrida ijtimoiy hayotda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

9. G'aznaviylar davrida ilm-fan va madaniyatga ta'rif bering.

10. Nima uchun Mahmud G'aznaviydan so'ng davlat tezlik bilan o'z qudratini yo'qotadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob.T.: Yangi asr avlodi, 2019.

3. Kaykovus. Qobusnoma. / Nashrga tayyorlovchilar: U.Dolimov, S.Dolimov. T.: Yangi asr avlodi, 2019.

4. Nizomulmulk. Siyosatnoma. / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar mualliflari Sh.Vohidov va A.Erkinov. T.: Yangi asr avlodi, 2010.

5. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

6. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild, T.:Info capital group, 2019.

7. Rahman A. The last two dynasties of the Sahis (An analysis of their history, archaeology, coinage and palaeography) / This Thesis is submitted for the degree of Doctor of Philosophy in the Australian National University. 1976.

8. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san'ati. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2018.

9. Абу Саид Гардизи. Зайн ал-ахбар. Т.: Фан, 1991.

10. Абулфазл Муҳаммад ибни Ҳусайни Байҳақи. Таърихи Байҳақи. / Табдил, кириш ва изоҳлар муаллифи Сайфуллоҳ Мулложон. Душанбе: Бухоро, 2014.

11 Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. Т.: Узбекистан, 2006.

12. Шарипов М. М. Этапы военно-политической деятельности государства Гуридов (1148-1215 гг.). Диссертация на соискание учёной степени кандидата исторических наук. Худжанд, 2021.

10-MAVZU. SALJUQIYLAR DAVLATINING SIYOSIY TARIXI



REJA:

10.1. Saljuqiylar davlati tarixiga oid manbalar va maxsus adabiyotlar.

10.2. Saljuqiylar davlatining tashkil topishi.

10.3. Saljuqiylar davlatining siyosiy tarixi. Qoraxoniylar va Saljuqiylar.

Tayanch so'z va tushunchalar

Manbalar, Nizomulmulk, poytaxt, Marv, sulton, qiniq, Saljuq, o'g'uzlar, Arslon, Sirdaryo, To'qoq, nur, Marv jangi, To'g'rul, Suboshi, Dandanaqon jangi, Mansikert, Yusuf Xorazmiy, Nizomulmulk, Malikshoh, Barqiyoruq, Turkon Xotun, xalifa al-Qayum, g'aznaviylar, Amudaryo, qoraxoniylar, taxt talashlar, Xuroson, Movarounnahr, Xorazm, Kichik Osiyo, Iroq, harbiy yurishlar, qo'shin, suboshi.


10.1. SALJUQIYLAR DAVLATI TARIXIGA OID MANBALAR VA MAXSUS ADABIYOTLAR

Saljuqiylar tarixi xususida bir qator tarixiy manbalar mavjud bo'lib, ular orasida Abulhasan Movardiyning «Al-ahkom as-sultoniya val-valoyot ad-diniya» («Sultonchilik ahkomlari va diniy boshqaruvlar»), Nizomulmulkning «Siyosatnoma» Sadriddin Ali Husayniyning «Zubdat at-tavorix», «Tarixi Salojaqa» Zahiriddin Nishopuriyning

«Saljuqiynoma», noma'lum muallifning «Hudud ul-olam», Mas'udiyning «Muruj az-zahab», Abul Fazl Bayhaqiyning «Tarixi Mas'udiy», Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor», Ibn al-Asirning «Al-Komil fit-tarix» asarlarini alohida ta'kidlash joiz. XIII asr tarixchilari, shu davrda yashagan davlat arboblari al-Bundariy, ar-Ravandiy, Abul Faraj, ibn Bibi, Juvayniy va boshqalarning asarlari, esdaliklari ham shu davrni o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan asarlarning ayrimlari o'tgan mavzularda o'z sharhini topgan bo'lsa, qolganlarini, saljuqiylar tarixiga bevosita bog'liq bo'lganlarini shu yerda tavsiflash maqsadga muvofiqdir. Shulardan XI asr muarrixi, qomusiy olim **Abulhasan Movardiy** (974-1058)ning «Al-ahkom as-sultoniya val-valoyot ad-diniya» (qisqacha «Ahkom»)asarida saljuqiylarning davlat boshqaruvi sohasidagi siyosati yaxshi yoritilgan. Movardiy din, adabiyot, she'riyat, tilshunoslik, falsafa va ijtimoiy fanlarga oid asarlar yozib qoldirgan. Shuningdek, olimning «Adab ud-dunyo vaddin» (Dunyo va din odobi) asari musulmon olamida mashhur. Movardiyning «Ahkom» kitobida qozilik tizimi, shikoyatlar bo'yicha devonning ishlarini yo'lga qo'yish tartiblari va taftishchilik bo'yicha nimalar qilinishi lozimligi batafsil bayon qilingan. Bundan tashqari, imom Movardiy o'zining bu kitobida davlatning vazifalari, hokim va mahkum o'rtasidagi aloqalari aytib o'tgan. Kitobda o'lja, jizya, xaroj va qo'riq yerlarni o'zlashtirish masalalari ham batafsil yoritilgan. Asar o'zbekistonlik manbashunos olim Z.Jo'rayev tomonidan o'rganilib, uning ayrim qismlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Saljuqiylar davlatining saroy xizmatchisi, yirik davlat va jamoat arbobi **Nizomulmulk** (1017-1092) mavzuga oid muhim manba – «Siyosatnoma»ni yozib qoldirgan. Uning asl ismi Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiy bo'lib, «Nizom ul-mulk» nomi bilan shuhrat qozongan. Nishopur va Marvda o'qib, voyaga yetgach, mahalliy hokimlar saroyida xizmat qilib, keyinchalik, Saljuqiylar sultoni Alp Arslon saroyida vazirlik mansabigacha ko'tarilgan. 1072-yil Alp Arslon o'ldirilgach, uning o'g'li, 17 yoshli Maliksho (1072-1092) saroyida vazirlik qilib, qariyb davlatning hamma ishlarini o'zi olib



Asarning o'zbek tilidagi nashrlari



borgan. Malikshoh uni o'z homiysi – otabek deb atagan. Nizomulmulk mamlakatda yirik mulkdorlar va qabila boshliqlarining ayirmachilik (separatistik) harakatlariga qarshi kurashib, davlatni boshqarish ishlarini markazlashtirish siyosatini o'tkazgan. 1067-yil Bag'dodda «Nizomiyya» aqoid va huquq madrasasini qurdiradi. 1091-yil dunyoga mashhur «Siyosatnoma» («Siyar ul-muluk») asarini yozadi. Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo'shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilar-u posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayg'oqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, hatto shohning oilaviy ishlari, soliq va xiroj, zakot va vaqf masalalari ham o'rin olgan. Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, vazir Nizomulmulk sulton va hokimlarni adlu insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat qiladi. Eng muhimi, asar XI asrning ijtimoiy-siyosiy tarxida ma'lumot beruvchi muhim manbadir.

Nizomulmulk 1092-yil Bag'dod safari yo'lida yollangan qotil tig'idan halok bo'ladi.

XII-XIII asrga oid «Axbor ad-davlati saljuqiyya» asari **Sadiriddin Husayniy** tomonidan yaratilgan muhim manba sanalib, ushbu asar 41 bobdan iborat bo'gan. U saljuqiylar va eldengiziylar davri tarixini yoritib bergan kam sonli manbalardan sanaladi. Asar Markaziy Osiyoda saljuqiylar sulolasining kelib chiqishidan to oxirgi Saljuqiylar saltanati hukmdori Sulton Tog'rul III vafotigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Garchi 1092-yildan 1152-yilgacha u, asosan, Imoduddin al-Isfahoniyning Nusrat al-fatra, shuningdek, dastlab 1183-yilda yozilgan va keyinchalik 1226-yilda qisqartirilgan Al-Bundari (XIII) asarlaridan Saljuqiylar tarixini yoritish uchun manba sifatida foydalangan bo'lsada, asarda ushbu manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar ham bisyor. Shuningdek, asar muallifi 1040-yili Dandanaqon jangida g'aznaviylar ustidan g'alaba qozongunga qadar bo'lgan davrdan to Malikshoh vafotigacha (1092) bo'lgan davrini qamrab olgan qismini yoritishda bugungi kunga qadar yetib kelmagan «Maliknoma»ga tayanadi. Shu jihatlariga ko'ra, asar saljuqiylar tarixi uchun muhim manba sanalib kelingan. Jumladan, asarning 1071-yili Mansikert jangiga oid qismlari XIX asrdayoq ingliz tiliga tarjima qilingan.

Bilib oling!

Shuningdek, mo'g'ullar davrida, XIII asrda yozilgan Atomalik Juvayniyning «Tarixi Jahongusho» asarida Saljuqiylar va Xorazmshohlar orasidagi aloqalar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Jumladan, Sulton Sanjar bilan Otsiz o'rtasidagi aloqalar, shuningdek, saljuqiylar davlatining so'nggi yillari, Sulton Sanjarning davlat qudratini qayta tiklashga harakati namoyon etilgan.

XX asr tarixshunosligida saljuqiylar masalasi yuzasidan A.Lembton, K. Kaen, G.Xorst, N.Kyuner I.Kafas o'g'li, S.Len-Pul, K.Bosvort, B.Zaxoder va boshqalar tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Saljuqiylar davlati xususidagi fundamental asar turkman

tarixchisi S.Agadjanovga tegishli bo'lib, yuqorida qo'yilgan masala yuzasidan muallif tomonidan e'lon qilingan adabiyotlarda to'laqonli ravishda o'z aksini topgan.

10.2. SALJUQIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

Saljuqiylar kelib chiqishi bo'yicha turkiy o'g'uz qavmiga tegishli bo'lib, Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlarda ko'chmanchi tarzda hayot kechirar edilar. O'g'uz qabilalari bir necha urug'larga bo'lingan edi. Ushbu urug'lardan biri – *qiniq* urug'i bo'lib, uning sardori – Saljuq ibn To'qoq ismli kishi bo'lgan. Uning ajdodi Qerekuchi Hoji o'g'li Tug'shirmish bo'lgan.




Saljuq ibn To'qoq

Saljuq o'zining fazilatlari, bilimdonligi, abjirligi hamda mardligi orqasida obro'-e'tibor qozonib boradi va bir qancha o'g'uz qabilalari sardori, katta harbiy kuch boshlig'i darajasiga erishadi. Tabiiy ravishda bunday shaxslarning borib-borib o'z davrasi, ta'sir doirasi vujudga keladi. Saljuqda ham shunday bo'lgan. Bu esa o'z o'rnida muayyan qarama-qarshiliklarni ham vujudga keltirgan. Xullas, iqtisodiy-siyosiy raqobat natijasida Saljuq o'z tarafdorlari bilan Sirdaryoning o'rta oqimlarini tark etib, daryoning quyi oqimi chap qirg'ogida joylashgan Jand yaqiniga kelib o'rnashadi.

O'g'uzlar davlati va konfederatsiya shaklidagi siyosiy tuzumi 756-1055-yillar orasida shakllandi va taraqqiy etdi. O'g'uzlar VII asrda Turk xoqonligi tarkibida G'arbiy Yettisuv hududida istiqomat qilgan, VIII asr o'rtalarida esa turkashlar xoqonligi tanazzulga yuz tutishi bilan

esa Yettisuv hududini tark etib, Sirdaryo mintaqasiga ko'chib kelib joylashgan. Bunga turkashlarning merosi uchun ularning qarluqlar bilan bo'lgan kurashi sabab bo'lgan. VIII asrda ular Orol dengizidan shimoldagi cho'llar va Sirdaryo quyi oqimidagi yerlarda joylashganlar. Ammo Sirdaryo atrofidagi yerlarda ular qang'lilar qarshiligiga duchor bo'lganlar va bu kurashlar oqibatida VIII-IX asrlarda Sirdaryoning o'rta va quyi qismlarida O'g'uzlar davlatini tashkil qilganlar. Islom dinini qabul qilgan O'g'uzlar turkmanlar nomi bilan tarixga kirgan.

X asrning 60-yillarida o'g'uzlar yabg'usi bilan kelisholmaslik tufayli (musulmon dinini qabul qilish va qilmaslik masalasida) qiniq qabilasi ajralib ketib, ularning bir qismi Sirdaryoning quyi oqimlariga ko'chib ketadilar. Ikkinchi, katta qismi esa Samarqand va Buxoro o'rtasidagi cho'llarda, Nurota tog'lariga kelib o'rnashadilar. XI asrning boshlaridan boshlab qiniq qabilalarining o'troqlashuv jarayonlari kuchayib boradi.



Saljuqqa Ashxobodda o'rnatilgan haykal

XI asr o'rtalarida saljuqiylar Movarounnahrdagi siyosiy jarayonlarga ham aralasha boshladi. Jumladan, Arslon Isroil ibn Saljuq Movarounnahr hukmronligi uchun kurashda Qoraxoniylardan bo'lgan Ali Teginni qo'llab quvvatlaydi. 1025-yili Ali Teginga qarshi yurish uyushtirgan Mahmud G'aznaviy bir qancha saljuqiylarga mansub aholini Xurosonga ko'chiradi.

Manbalarga ko'ra, Sulton Mahmud saljuqiylarga mansub 4000 oilani, ularning iltimosiga binoan, Amudaryodan Xuroson tomondagi yerlarga kechib o'tishlari uchun farmon bergan. Boshqa bir ma'lumotga ko'ra, ular Movarounnahrdan majburan ko'chirilgan. Mazkur guruhlarni Yag'mur, Bug'oy, Ko'k-Tosh,

Qizil, Mansur va Anas o‘g‘li kabi saljuqiy amirlar boshqarganlar. Ular Xurosonning – Farova (Xorazm va Dehiston orasida joylashgan Niso atrofidagi shaharcha), Saraxs hamda Obivard (Bovard) yerlarida chodirlar tikib o‘rnashib olganlar. Saljuqiylar Iroq va Fors hududlariga qadar turli joylarda mustaqil guruhlar sifatida Iroq turkmanlari nomi bilan tarixga kirdilar.

Turkmanlar o‘rnashib olgan o‘z yerlarida tinch aholiga nisbatan talon-taroj va hujumlar uyushtirib turganlar. 1027-yil oxirlariga kelib Niso, Obivard va Farova aholisi turkmanlarning tartibsizliklaridan Mahmud G‘aznaviy saroyiga arz qilib kelganlar. Shundan keyin Mahmud Tus amiriga saljuqiylarga nisbatan chora ko‘rishga farmon bergan. Tus amirining bir necha yurishlari samara bermagan va oxir-oqibat 1028-yili Sulton Mahmud o‘z qo‘shini bilan G‘aznadan chiqib kelib ular ustiga yurish uyushtirgan. Farova raboti yonida bo‘lgan to‘qnashuvda turkmanlarning 4000 jasur suvoriysi g‘aznaviylar qo‘shini tomonidan o‘ldirilgan, ko‘plari asirga olinib, qolganlari Balxan tog‘lari va Dehiston (Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan viloyat) tomonga qochib ketganlar. Ko‘chmanchilarning esa katta qismi g‘arbda Iroqi Ajam (Sharqiy Iroq yoki arab bo‘lmagan iroqliklar yeri) yerlarida ko‘chib yurdilar, keyin esa Armaniston va Ozarbayjonga ko‘chib o‘tganlar.

Mahmud G‘aznaviy vafotidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Mas’ud (1030-1041) keldi va u o‘z harbiy qo‘shini safiga saljuqiylarning guruhini taklif qildi. Bular yuqorida nomlari tilga olingan Yagmur, Bug‘oy, Qizil va Ko‘k-Tosh edilar. Bu saralangan otliqlar qo‘shini Mas’udning Belujistonda jazo vazifasini ado etishi lozim edi. Mas’ud tomonidan mazkur qo‘shinga boshliq qilib Xumor Takin Turshoh tayinlandi. Yurishdan so‘ng saljuqiy lashkarboshilar va g‘aznaviylar qo‘shinboshilari orasida nizo kelib chiqadi. Saljuqiylarning lashkarboshilari Mas’udga qarshi fitna uyushtirganlar, ammo bu fitna fosh bo‘lib, undan xabar topgan Mas’ud Yag‘mur va uning sheriklarini tutib olib qatl etgan. Bu saljuqiylarning umumiy noroziligiga va isyonlariga sabab bo‘lgan. 1031, 1033 va 1034-yillari Farova, Gurgon,

Xuroson va Saraxsda saljuqiylarning norozilik qo‘zg‘olonlari sodir bo‘ldi. Bu chiqishlar ayovsiz ravishda bostirilgan.

Ali Teginning Movarounnahrda 1034-yilga qadar hukmronligi davomida har qalay saljuqiylar sulolasi rahnamolari To‘g‘rulbek, Chag‘ribek Dovud (Chag‘ri – turkcha «burgut») va Muso Yabg‘u hamda ular bilan birga bo‘lgan saljuqiylar uchun unchalik qattiq tazyiq o‘tkazilmagan. Ammo Ali Tegin vafotidan so‘ng uning balog‘atga yetmagan o‘g‘illari borligidan foydalanib, hokimiyat tizginini o‘z qo‘liga olgan Tunush ismli shaxs davrida saljuqiylarning ahvoli og‘irlashdi. Vaziyat murakkablashgani bois ular Zarafshon vohasini tark etishga majbur bo‘ldilar. Xorazmshoh Horun (1034-1035) ularga 1034-yili Rabati-Masha, Sho‘raxona va Gahvoradan yerlar bergan bo‘lishiga qaramay Jand hokimi ularga hujum qilib 8 ming kishini kaltaklagan. 1035-yilning may oyi boshlarida saljuqiylar To‘g‘rulbek va uning birodarlari rahnamoligida 10000 kishilik otliqlar bilan Marvdan Niso tomonga ravona bo‘ldilar. Ular g‘aznaviylardan ularga cho‘lning chekkasi bo‘lgan Niso va Farova viloyatlaridan yer berishni iltimos qilishadi. Ammo Mas’ud G‘aznaviy o‘g‘uzlarni mamlakat osoyishtaligi uchun xavf sifatida ko‘radi. Mas’ud saljuqiylarga qarshi 1035-yilning iyulida Solor Bektug‘di boshchiligida qo‘shin yuboradi. Jang Farova va Shahriston o‘rtasida yuz beradi. Bu jangda saljuqiylar g‘aznaviylar ustidan g‘alaba qozonadi va 10 ming dinorga teng sulton xazinasini, qurol-yarog‘larni, mol-mulk, chorva mollari va asirlarni ham qo‘lga kiritishadi. Solor Bektug‘di qochib qutiladi, g‘aznaviylarning boshqa bir qo‘shin boshlig‘i Husayn ibn Ali Mikoil asirga tushadi. Sulton qo‘shinlari Nishopur tarafga tumtaraqay bo‘lib qochdi. Sulton Mas’ud ayrim viloyatlarni saljuqiy amirlarga berishga majbur bo‘ldi. To‘g‘rulbekka Niso, Chag‘ribek Dovudga Dehiston berildi, saljuqiy amirlarga esa *dehqon* unvoni berildi. Mulk va unvonlarni sulton Mas’ud nomidan qozi Abu Nasr Siniy taqdim etgan. Bu voqealar sulton, uning mulozimlarini esankiratib qo‘ydi. Mas’ud endi mushkul va murakkab vaziyatga tushib qolgan edi.

Oxir-oqibat saljuqiylar 1035-yili Nishopurdagi shartnomaga muvofiq Niso, Farova va Dehiston hududlarida yer olishga muvaffaq


bo‘ldilar. Biroq mahalliy aholi bilan ular o‘rtasida yana nizo-janjallar chiqa boshladi. Saljuqiylar yangi yerlarni, asosan, Marv hamda Saraxs atroflarida joylashgan mulklarni berishni talab qildilar. Bu talablarga javoban g‘aznaviylar qurol kuchini ishlatish yo‘liga o‘tdilar. G‘aznaviylarning ham o‘z mulklaridagi idora va boshqaruv ishlari tuzuk emas edi.

Bilib oling!

1036-yilning 12-noyabrida saljuqiylar sulton Mas’udga elchilar yuborib, maktubda saljuqiylarning g‘aznaviylar qo‘li ostidagi aholiga nisbatan kuch ishlatishmayotganligi va Xurosonning boshqa turkmanlari Amudaryo va Balxan tog‘lari orqali yo‘l ochiqligi sababli bu yerlarga xavf solishi ehtimoli borligi hamda saljuqiylarning yerlari ular uchun torlik qilayotganligi va cho‘l chekkalarida joylashgan Marv, Saraxs va Obivard shaharchalarini berishni talab qilib, unda sohib ul-barid, davlat xazinasi va sohib devonlari joylashishini nazarda tutib, soliqlar yig‘ilib ularga xizmat haqi sifatida berilishini talab qilganlar. Bunday talab qo‘yish orqali saljuqiylar o‘zlarini g‘aznaviylar davlatining qo‘shinlari sifatida nazarda tutganlar va bu davlatni turli xavf-xatarlardan saqlash va himoyalashni nazarda tutganlar. Agar Iroqda biror-bir xizmat talab qilinsa ular bunday xizmatga va har qanday qiyinchilikka har doim tayyor ekanliklarini bildirganlar.

Saljuqiylar g‘aznaviylarning ojizligini sezganlar va ularga kuch ishlatish yo‘li bilan javob bera olish qobiliyatiga ega edilar. 1036-yili saljuqiylarning Chag‘ribek Dovud boshchiligidagi 4 ming kishidan iborat qurollangan suvoriylardan iborat qo‘shinlari Marv viloyati tomon yurish qilgan. 1037-yilning yanvarida g‘aznaviylarga kelgan xabarga ko‘ra saljuqiylar Xuroson bo‘ylab tarqalib Tun shahrini talaganlar. 1037-yilning aprelida Marv aholisi juma namozida Chag‘ribek Dovud nomidan xutba o‘qiganlar. 1038-yilning martidagi

xabarga ko'ra turkmanlar qish faslining boshida Taliqon va Faryobni talaganlar, Ray shahrini qamal qilganlar. Ray shahri qamali vaqtida g'aznaviylarning sipohsolori Tosh-Farrosh o'ldirilgan. 1038-yilning aprelida sulton Mas'ud g'aznaviylarning *suboshi (sarkarda)*siga turkmanlarga hal qiluvchi zarba berishga farmon beradi. Suboshi 1038-yilning mayida katta harbiy qo'shin va oziq ovqat zaxirasi bilan Nishopur yo'li orqali Saraxsga tomon yo'l oladi. 1038-yilning iyulida saljuqiylar bilan bo'lgan jangda g'aznaviylar qo'shinlari yengiladi va suboshi 20 g'ulomi bilan birga jang maydonini tark etib, Hirotga yashirinadi. Uning orqasidan quvgan Chag'ribek Tus shahriga g'olib sifatida qaytadi. Uni bu yerda Nishopur zodagonlari qarshi olishgan. Bu g'alaba tufayli To'g'rulbek *as-Sultan al-muazzam Rukn ad-Dunya va-d-din Abu Tolib* laqabini oldi.



To'g'rulga Ashxobodda o'rnatilgan haykal

Saljuqiylar o'z yurishlarini davom ettiradilar. Endi yo'l Nishopur tarafga qaratilgan edi. Suboshi mag'lubiyatidan 12 kun o'tgandan so'ng To'g'rulbekning amakivachchasi Ibrohim Yinal 200 otliq bilan Nishopurga yaqinlashdi va shaharga o'z vakilini jo'natdi. Nishopurning bosh qozisi Sa'id Abul A'lo o'z qismlarini saljuqiylarning avangardi deb tanitib shaharni topshirishni va xutbadan Mas'ud nomini olib tashlashni talab qiladi. 1038-yilning may oyi oxiri va iyun boshlarida Nishopurda To'g'rulbek nomiga xutba o'qildi. To'g'rulbek bu shaharda sulton deb e'lon qilingan. Uning oldiga itoatliklarini bildirgan holda shaharning bosh qozisi va naqib (Ali ibn Abu Tolib avlodlari boshlig'i) Sayyid Zayd ibn Muhammad ibn al-Muzaffar Bayhaqi (vaf. 1048/1049) kelgan. Tarixchilar shu voqeadan keyin Saljuqiylar davlati tarixi boshlanishini ta'kidlashadi.

1039-yilning iyun oyida Mas'udning qo'shinlari saljuqiylar ustidan Saraxs vodiysida g'alabaga erishadi. To'grulbek va Chag'ribek sahroga qochib ketdilar. Ammo sulton o'z kuchlariga yuqori baho berganligi bois bu yerdan o'z qo'shinlarini olib chiqib katta xatoga yo'l qo'yadi. Tez fursatda saljuqiylar o'zlarini tartibga keltira olganlar.

Bilib oling!

1040-yilda Saraxs va Marv o'rtasidagi suvsiz sahroda joylashgan Dandanaqon (*Marv atrofidagi shaharchalardan biri bo'lib, u 10 farsax masofada qumlik sahroda joylashgan. Hozirgi vaqtda bu joy Marv shahridan 33 km janubi-g'arbda joylashgan. Bu joy Tosh-Rabot nomi bilan mashhur*) yonida saljuqiylar va g'aznaviylar o'rtasida hal qiluvchi jang sodir bo'lgan. Saljuqiylar g'aznaviylar qo'shini yo'lidagi barcha quduqlarni buzganlar va bu qo'shinni holdan toydirgan. Suvsiz biyobonlar va cho'llardan horg'in holda charchab kelgan g'aznaviylar qo'shini uch kunlik jangda saljuqiylardan mag'lubiyatga uchradi. Mas'udning o'zi kichik bir qo'shin bilan jang maydonidan zo'rg'a qochib qutulgan. G'aznaviylarning mol-mulklari va qurol-yarog'lari saljuqiylar tomonidan musodara etilgan. Mazkur g'alaba saljuqiylar uchun g'arbga – Sharqiy Anatoliyaga va Shimoliy Eronga yo'l ochib berdi. Shu voqea sabab qudratli bo'lgan g'aznaviylar davlati mahalliy hokimlikka aylanib qoldi.

G'aznaviylar davlatining xarobalarida yangi davlat vujudga keldi va buyuk saljuqiylar davlati nomi bilan tarixga kirdi. Mazkur davlat Movarounnahr yerlaridan tashqarida tug'ilgan bo'lsa-da, u bilan doimiy aloqada bo'lgan. G'aznaviylarning yerlari saljuqiylar xonadoni a'zolariga iqto tarzida bo'lib berildi. *To'g'rulbek*ka Eronning shimoli va shimoliy-g'arbiy viloyatlari, *Chag'ribek Dovud*ga – Marv va Xurosonning katta qismi, *Muso Yabg'u*ga esa Tus, Hirot va Seyiston viloyatlari tegdi.

Sulton unvonini olgan To‘g‘rulbek Dandanaqondagi g‘alabadan so‘ng xalifa al-Qoyim (1031-1075)ga maktub yo‘llab, g‘aznaviylar ustidan qozonilgan g‘alaba haqida xabar bergan va Xurosonda adolat o‘rnatish bilan mashg‘ul ekanini bildirgan. Mas’ud ustidan qozonilgan g‘alabadan so‘ng uni nishonlash maqsadida Marv va Xurosonning boshqa shaharlari aholisini 3 yilga xirojdan ozod qilgan. U Xurosonda tartib-osoyishtalik o‘rnatish bo‘yicha chora-tadbir olib borgan va buning natijasida shaharlarga aholi kelib o‘rnasha boshladi.

Saljuqiylar va g‘aznaviylar orasida o‘zaro aloqalar yomonlashgan bo‘lishiga qaramay har ikkala xonadon o‘rtasida oila-nikoh munosabatlari ham mavjud edi. Chag‘ribek Dovudning qiziga Sulton Mas’udning o‘g‘li Abul Fatx Shihobidavla Mavdud (1041-1050) uylangan. Mavdud Balx va To‘xaristonning hukmdori bo‘lgan. U taxtga kelgan vaqtida uning raqibi tug‘ishgan ukasi Majdud bo‘lgan va u taxt uchun kurash boshlagan. Ammo Majdud 1041-yilning avgustida G‘azna yo‘li yo‘nalishidagi Lahorda to‘satdan olamdan o‘tgan. Mavdud saljuqiylarga qarshi urush harakatlarini amalga oshirgan. Ammo 1043-yilda Mavdud saljuqiy Alp Arslon tomonidan tor-mor etilgan.


10.3. SALJUQIYLAR DAVLATINING SIYOSIY TARIXI



To‘g‘rulbek

Saljuqiylar rahnamosi *To‘g‘rulbek* (1040-1063) boshchiligidagi qo‘shin tez orada Xurosonning katta qismi, Xorazm, Dehiston, Gurgonni qo‘lga kiritdi. 1042-yili To‘g‘rulbek otliqlari shimoliy Erondagi Ray viloyatini qo‘lga kiritdilar. Saljuqiy otliqlar Ozarbayjon, Fors, Iroq yerlariga tez-tez hujum uyushtirib turganlar. To‘g‘rulbek qo‘shini 1055-yili Bag‘dodga kirib keldi. Bag‘doddagi abbosiylar xalifasi al-Qayum (1031-1075) To‘g‘rulbek hukmini tan olgan

holda uni *«sulton»* deb e'lon qildi. To'g'rulbek qo'shinlari Kirmon va Forsni egallab, Kavkazda Vizantiya imperiyasiga qaqshatqich zarba berdi. Tez orada Xorazm, Xuroson, Eron, Iroq va Kavkazning bir qismini o'z ichiga olgan Saljuqiylar davlati yuzaga keldi. To'g'rulbekning kuchli markazlashgan davlatni yuzaga keltirish, mamlakatda o'zaro parokandalikni tugatish, turli ayirmachi diniy guruhlarga qarshi kurashini aholining katta qismi, xususan, xalifaning o'zi ham qo'llab-quvvatlar edi.



To'g'rulbekning Raydagi maqbarasi

To'g'rulbek vafotidan so'ng taxtga uning jiyani *Alp Arslon* o'tirdi (1063-1072). Alp Arslon hokimiyatini tan olishni xohlamagan ba'zi saljuqiy qarindoshlariga qarshi kurash olib bordi. Uning amakisi Faxr al-Mulk Hirotda o'zini mustaqil deb e'lon qildi. Alp Arslon katta qo'shin bilan Hirotni egallashga muvaffaq bo'ladi. Faxr al-Mulk uni yagona va qonuniy sulton sifatida tan oldi. Shundan so'ng kuchli harbiy lashkarboshi bo'lgan Alp Arslon Chag'oniyonga yurish qiladi. Chag'oniyon hokimi Muso jangda asir olindi. Shu tariqa, davlat hududi yanada kengaydi. Bosib olingan yerlarda odatda mahalliy hokimlar, sulolalar hukmiga deyarli chek qo'yilar edi. Ular o'z aholisidan yillik boj solig'i to'lashar, oliy hukmdor sifatida saljuqiylar sultonini tan olishar edi. Sulton esa istilo qilingan yerlarni o'z qarindosh-urug'lari, taniqli harbiy boshliqlarga bo'lib bera boshladi.

Alp Arslon keyingi harbiy harakatlarni davom ettirib, 1071-yili Kichik Osiyodagi Mansikert qal'asi yonida Vizantiya imperatori Roman IV Diogenga (1067-1071) hal qiluvchi zarba berdi. Imperator Alp Arslonga asir tushdi. Mansikert yonidagi jang Dandanaqon (1040) jangidan so'ng saljuqiylar tomondan amalga oshirilgan ikkinchi yirik

harbiy operatsiya bo'ldi. Bu jang hosilasi o'laroq saljuqiylarning Old va Kichik Osiyoga kirib borishlariga keng yo'l ochildi.

Bilib oling!

Tarixchilar Alp Arslonni fazilatli, adolatli va savodli inson sifatida ta'riflashgan. U Saxovat bilan sadaqa berib, har yili ramazon oyida 15 000 dinorni sadaqaga sarflar edi...

Mansikert jangida g'olib bo'lgach Vizntiya imperatori Roman Diogen Alp Arslon tomonidan asirga olinadi. Saljuqiy qarorgohida o'tkazgan butun 8 kun davomida Alp Arslon uning huzuriga kuniga 2 marta tashrif buyurib, u bilan do'st sifatida suhbatlashar, tasalli berib, jangda ko'rgan xatolarini aytib, muloyimlik bilan qoralaydi.

Bu suhbatlarda sultonning saxiyligi eng yuqori darajada edi. »Agar men sizning mahbusingiz bo'lganimda nima qilgan bo'lardingiz?» – deb so'radi bir kuni u. Imperator uni qamchi bilan kaltaklashini aytib keskin javob berdi. – Men esa, – deb javob qildi sulton tabassum bilan, – sizlarga e'tiqodingiz talablaricha munosabatda bo'laman, chunki Iso Masih insoniylikni va haqoratlarni kechirishni tavsiya qilganini eshitdim.

Oxir oqibat Alp Arslon imperatorni har yili 360 ming oltin tanga o'lpon hamda har ikki tarafdagi mahbuslar ozod qilinishi sharti bilan ozod etadi. Shartnoma tuzilgandan so'ng, Alp Arslon o'zining sarkardalaridan biriga yuz otliq bilan imperatorni Konstantinopolga kuzatib borishni buyuradi.

Oydin Alizodaning «Musulmon mamlakatlar solnomasi» kitobidan.

Alp Arslon Movarounnahrga harbiy yurish vaqtida 1072-yili mahalliy qal'a boshliqlaridan biri Yusuf al-Xorazmiy tomonidan og'ir yarador qilindi. Asirlikdagi Yusufning qahramonona xatti-harakatiga darhol chek qo'yilib, o'zi o'sha zahotiyoq saljuqiy askarlar tomonidan o'ldirildi. Og'ir yaralangan sulton Alp Arslon ham tez orada vafot etdi. Sulton Marvda dafn etilgan.



Sulton Alp Arslon taxtda



Alp Arslon

Ibn al-Asirning yozishicha, Alp Arslon hayotlik chog'idayoq 1066-yili Eron shimolidagi Radkon (Radakon) degan joyda saroy a'yonlari oldida o'g'li *Malikshoh*ni taxt vorisi deya e'lon qilgan edi. Jaloliddin Malikshoh nomi bilan taxtga o'tirgan yangi sulton hukmronligi roppa-rosa yigirma yil davom etdi (1072-1092). Uning hukmronligi saljuqiylar davlatining eng gullab-yashnagan davri bo'ldi.

Bilib oling!

«Uning (Malikshoh) bir nechta katta akalari bo'lsa-da, Nizom ul-Mulk uning vorisligiga erishdi. Unga amakisi Qavurd hujum qildi, ammo Karaj hududida mag'lub bo'lib, asirga olindi. Keyinchalik, qo'shinlarning qo'zg'oloni xavfi tufayli zaharlangan. Hijriy 467-yili (1073-yil) akasi Tukush unga qarshi isyon ko'tardi, lekin asirga tushib, keyinchalik ko'zlariga mil tortildi. Samarqand hijriy 471-yil (1078-yil)da qamal qilinib, olingan. Amudayro qayiqchilariga maosh

berilib, Antioxiyada Malikshoh saltanatining qamrovini o'rgatish uchun, xaritalar chizishadi».

Hamdulloh Qazviniyning «Tavorixi guzida» asaridan.

Sulton Jaloliddin Malikshoh avval qoraxoniylardan Termizni qaytarib oldi. Qoraxoniylar sulton ustunligini tan oldilar. 1089-yili saljuqiylar sultoni Malikshoh qoraxoniylar xoni Ahmadxondan norozi guruhlar bilan kelishgan holda Movarounnahrga yurish qilib, Samarqand va Buxoroni egalladi. Shundan so'ng sulton Qoshg'ar tomonga yurish qila turib, Farg'onaning O'zgand shahriga yetib keldi. Sultonning harbiy yurishidan cho'chigan Qoshg'ar hokimi uning oliy hukmronligini tan olganligi haqida chopar jo'natdi. Keyinchalik Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'olon bois shahar ikkinchi marotaba egallandi. Shu bilan birgalikda Malikshoh Movarounnahrning Qoraxoniy hukmdorlaridan bo'lgan Tamg'achxon Ibrohim ibn Nasrning qizi *Turkon Xotun*ga uylanadi.

Jaloliddin Malikshoh davrida saljuqiylar davlatining chegaralari Sharqiy Turkistondan O'rta yer dengiziga qadar cho'zilib ketdi. Ta'kidlash joizki, bu ulkan hududdagi yerlardagi ijtimoiy-siyosiy,



Saljuqiylar saltanati



Sulton Malikshoh

iqtisodiy hayotni boshqarish uchun malakali mutaxassislar kerak edi. Shunday bir vaziyatda Movarounnahr va Xuroson madaniy qatlamlaridan chiqqan o'qimishli mahalliy xalq vakillarini davlat ishlariga jalb etish boshlandi. Shunday kishilardan biri asli Tusdan bo'lgan Abu Ali ibn Ali ibn Is'hoq bo'lib, u deyarli 30 yil davomida (1063-1092) Alp Arslon, Malikshoh saroylarida bosh vazir lavozimida bo'lgan. Uning yuksak salohiyati, aql-u zakovatiga yuqori baho berib, sulton Malikshoh vaziriga «Nizomulmulk» («Davlat nizomi, qonun-qoidasi») faxriy taxallusini berdi. O'z davrining oqil kishisi bo'lgan Nizomulmulk mashhur «Siyosatnoma» asarida davlat boshqaruvi, siyosat tamoyillari haqida so'z yuritgan.



Nizomulmulkning o'ldirilishi (XIV asr miniturasi)

1092-yilda saljuqiy hukmdori Malikshoh vafot etadi. Malikshoh o'zi uchun voris belgilamagan bo'lib, Malikshoh o'limidan keyin uning avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Nizomulmulk Malikshohning katta o'g'li *Barqiyoruq*ning taxt uchun kurashuviga madad beradi va bu bilan Malikshohning xotini Turkon Xotunning ashaddiy dushmaniga aylanadi. Davlat ishlariga ta'siri juda sezilarli bo'lgan Turkon Xotunning bevosita ishtirokida Nizomulmulk vazirlikdan olinib, o'rniga shu xotinning yaqin kishisi Tojulmulk Abulqanoim ibn Xusravi Feruz tayinlanadi.

Vazirlikdan ketgan Nizomulmulk ana shu kishilarning ishtiroki bilan Bag'dod safari yo'lida Naxovand shahri yaqinida Abu Tohir ismli yollangan qotil tig'idan 1092-yil oktyabrda o'ldiriladi. Mamlakatda taxt uchun kurash avj oladi. Jumladan, Suriya hududida Malikshohning ukasi *Tutush* o'zini hukmdor deb elon qiladi. Malikshohning rafiqasi Turkon Xotun esa o'zining 4 yashar o'g'li *Mahmud*ni Bag'dodda sulton deb e'lon qilinishiga erishadi. Barqiyoruq esa Rayda oliy hukmdorga aylanadi. 1094-yili Barqiyoruq va Turkon Xotun kuchlari o'rtasidagi jangda Turkon Xotun mag'lub bo'ladi va ko'p otmay o'g'li Mahmud bilan birga halok bo'ladi.

1095-yil boshida Tutush ibn Alp Arslon Barqiyoruq tomonidan o'ldiriladi. Natijada, Eron va Iroq to'laligicha Barqiyoruqning boshqaruviga o'tadi. 1095-yilda Barqiyoruq Xurosonga amakisi Bo'ribarsni markaziy hokimiyat uchun kurashlardan foydalanib, bu yerda mustaqil bo'lib olgan boshqa bir amakisi Arslon Arg'unga qarshi yuboradi. Ammo Arslon Arg'un uni yengib, Xuroson hokimligini saqlab qoladi. Bir yil o'tgach, sulton ukasi Sanjarni Xurosonga yuboradi, yil boshida Arslon Arg'un o'z g'ulomi tomonidan o'ldirilgan va Sanjar 1097-yil bahorida butun Xurosonni osongina egallab olgan. Shu yili Barqiyoruq Sharqqa tomon harakatlanib Termizgacha keladi. Qoraxoniy Sulaymon tegin o'z tobeligini izhor qildi. Shu yurish vaqtida *Barqiyoruq* Xorazmga Anushtegining o'g'li *Qutbiddin Muhammad*ni noib etib tayinlaydi.

1099-yilda Ganja hukmdori, uning ukasi Muhammad Barqiyoruqqa qarshi chiqdi. Barqiyoruq Xuroson hukmdori, ukasi



Barqiyoruq (XIV asr miniaturasi)

Sanjardan yordam kutadi. Ammo, Sanjarning o‘zi Barqiyoruqqa qarshi chiqadi va Nushjan qishlog‘i yaqinida Barqiyoruq qo‘shinlarini mag‘lub etadi. Shunday qilib, Shimoliy Eron va O‘rta Osiyoning g‘arbiy hududlari Sanjar hukmronligi ostida qoldi. 1101-yilda Hamadon yaqinidagi jangda Barqiyoruq Muhammaddan mag‘lubiyatga uchradi va jang maydonidan zo‘rg‘a qochib ketdi. Ammo, Barqiyoruq oradan bir yil o‘tib, 1102-yil bahorida o‘z ukasi Muhammadni qattiq jangda mag‘lub etdi. 1103-yilda ham ikki o‘rtada to‘qnashuvlar sodir bo‘ladi. Oxir-oqibatda, 1104-yilda birodarlar mol-mulkni taqsimlash to‘g‘risida kelishib oldilar va Muhammadga Eronning shimoli-g‘arbiy viloyatlari, Furot, Mosul va Suriya viloyatlari ham berildi. Barqiyoruq o‘z qo‘lida Eronning g‘arbiy va markaziy qismlarini, Xuziston, Diyorbakr va Jazirani saqlab qoldi.



Saljuqiylar davlati ramzi

Natijada, XII asr boshida ulkan Saljuqiylar saltanati 3 mustaqil davlatga parchalanib ketadi.

Atamalar izohi

☑ **Suboshi** – qo‘shin boshlig‘i, xuddi shu qozoq ichidagi sipohilar boshlig‘i, tinchlik davrida jamoat qo‘riqchisi vazifasini ham bajaradi va alaybayga bo‘ysunadi. U cheribashi unvonini ham olgan.

☑ **Turkon Xotun** – asli «Terkan» bo‘lib, «oliy nasabli», «zodagon oilaga xos» ma’nosida kelsa, ba’zi manbalar «turkon» so‘zini «turklar onasi» tarzida keltiradi. «Xotun» so‘zi malika ma’nosidadir. Turkiy sulolalarda Turkon Xotun ismli malikalar bir nechta bo‘lib, saljuqiy va anushteginiylar sulolasidagi Turkon Xotunlar mashhurdir.

☑ **Saraxs va Obivard** – Turkmanistondagi Tajan daryosi vodiysida joylashgan hududlar.

☑ **Dandanaqon** – Marv shahridan 33 km janubiy-sharq (hozirgi Toshrabot shaharchasi o‘rni)da o‘rta asrlardan qolgan shahar harobasi 1040-yil 23-mayda Mas’ud G‘aznaviy bilan saljuq sultoni To‘g‘rulbek o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jang tarixda mashhur. Dandanaqon jangida saljuqiylar davlatining tashkil topishida muhim rol o‘ynagan. 1158-yilda u o‘g‘uzlar tomonidan vayron qilingach, asta-sekin tashlandiq holga tushib qolgan.

Savol va topshiriqlar

1. Saljuqiylarning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘g‘uzlar kimlar va saljuqiylarning o‘g‘uzlarga qanday aloqasi bo‘lgan?
3. «Turkman» atamasiga izoh bering.
4. Saljuqiylarning dastlabki yo‘lboshchilari kimlar edi?
5. G‘aznaviylar nima sababdan saljuqiylarga Xuroson yerlaridan yaylov ajratgan edi?
6. Saljuqbek boshchiligidagi o‘g‘uzlar Movarounnahrning qaysi hududlariga ko‘chib kelib o‘rnashgan edi?
7. Saljuqiylarning qisqa vaqt ichida katta davlatlarni oson zabt etishiga qanday omillar sabab edi?
8. Alp Arslonning o‘limi haqida qanday ma’lumotga egasiz?
9. Saljuqiylar davlati tashkil topish shart-sharoitlarini tavsiflang.

10. Saljuqiylar saltanatining bir necha qismga bo‘linib ketishiga sabab bo‘lgan omil nimada edi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

2. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob.T.: Yangi asr avlodi, 2019.

3. Basan A. The Great Seljuqs: A history. Routledge. 2010.

4. Ibn Havqal. Kitob surat al-ard / Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh. Kamoliddin. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2011.

5. Kaykovus. Qobusnoma. / Nashrga tayyorlovchilar: U.Dolimov, S.Dolimov. T.: Yangi asr avlodi, 2019.

6. Nizomulmulk. Siyosatnoma / Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar mualliflari Sh.Vohidov va A.Erkinov. T.: Yangi asr avlodi, 2010.

7. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. / Turk tilidan Ulug‘bek Hamdam tarjimasi. T.: Yangi asr avlodi, 2021.

8. O‘zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas’ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

9. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild, T.:Info capital group, 2019.

10. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san’ati. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2018.

11. Абулфазл Мухаммад ибни Ҳусайни Байҳақи. Таърихи Байҳақи. / Табдил, кириш ва изоҳлар муаллифи Сайфуллоҳ Мулложон. Душанбе: Бухоро, 2014.

12 Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. Т.: Узбекистан, 2006.

13. Шарипов М. М. Этапы военно-политической деятельности государства Гуридов (1148-1215 гг.). Диссертация на соискание учёной степени кандидата исторических наук. Худжанд, 2021.

11-MAVZU. SALJUQIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-SIYOSIY TARIXI

REJA:



11.1. Sulton Sanjar faoliyati. Saljuqiylar davlati inqirozi.

11.2. Saljuqiylar davrida Movarounnahr va Xurosonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

11.3. Saljuqiylar davlatining ma'muriy boshqaruv tizimi.

Tayanch so'z va tushunchalar

Sulton Sanjar, saljuqiylar, xutba, malik al-Mashriq, mamlakatning qismlarga bo'linishi, noib, taxt uchun kurash, Saveh, xorazmshoh, o'g'uzlar, sulton, Marv, Nizomiya, axi jamoasi, davlat boshqaruvi, unvon, mansab, devonlar faoliyati, bosh vazir, kutubxona, kasalxona, bozorlar, savdo-sotiq, diplomatik aloqalar, yer-suv, mulk, mahalliy hokimlar, kadxudo, ilm-fan va madaniyat, astronomiya, rasadxona.

11.1. SULTON SANJAR FAOLIYATI. SALJUQIYLAR DAVLATI INQIROZI

XII boshlarida saljuqiylar davlati amalda 3 qismga bo'linib ketgan edi. Movarounnahr va Xuroson hududlari kirgan Sharqiy saljuqiylar qismida Malikshohning o'g'li Sanjarning ta'siri ortib bordi. 1097-yildan Xuroson hokimi bo'lgan Sanjar (1118-1157-yillarda Saljuqiylar

hukmdori) oliy hukmdorga rasman bo‘ysunsa-da, amalda mustaqil harakatlar olib bordi. 1099-yil u To‘xaristonni, 1102-yil Samarqandni qo‘lga oldi. Termiz yonida qoraxoniylar xoni Qodirxon qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratib, Movarounnahr taxtiga boshqa qoraxoniylar vakili, o‘z jiyani, shu bilan birga qayin otasi Arslonxon Muhammadni o‘tqazishga muvaffaq bo‘ldi. 1104-yili G‘azna qo‘lga kiritildi. G‘aznaviylardan taxtga o‘tqazilgan Bahromshoh har yili Sanjarga besh ming dinor boj solig‘i to‘lash majburiyatini oldi.



G‘iyosiddin Muhammad Topar tangasi

1105-yil Sulton Barqiyoruq vafot etdi. U kenja o‘g‘li Muizzuddin Malikshohni taxt vorisi sifatida tanladi (*u tarixiy asarlarda Malikshoh II sifatida aytiladi*). Biroq haqiqiy kuch amakisi Muhammad Toparning qo‘lida edi. Xuddi shu yili Muhammad Topar jiyanini taxtdan tushirdi va davlatni o‘zi *sulton* sifatida boshqarishni boshladi. Muhammad 1118-yil 4-aprelda vafot etganida, uning o‘g‘li Mahmud II yangi *sulton* deb e’lon qilindi. Ko‘p o‘tmay Mahmud tomonidan mulklaridan mahrum etilib, zindonga tashlangan Yazd hukmdori Garshasp asirlikdan qochib Yazdga keladi va Sulton Sanjarni Mahmudga qarshi yurishga undaydi. Natijada 1118-yili Sanjar Mahmudga qarshi yurishga otlanadi, Saveh yaqinidagi jangda Mahmud mag‘lub etiladi va Sanjar Saljuqiylar davlati hududini qayta tiklaydi.

Taxtga Sulton Muiziddin Sanjar (1118-1157) nomi bilan o‘tirgan yangi hukmdor sharqiy va g‘arbiy saljuqiy hududlarni birlashtirdi. O‘z g‘alabalaridan ruhlangan holda Mozandaron, Damovand, Qum, Damg‘on, Ray yerlarini ham egalladi. Uning hukmdorlik rutbasini Seyiston, Xorazm, G‘azna, Movarounnahr yerlari ham tan oldi. Sanjarning sultonlik hokimiyatini olishda Xorazmshoh *Qutbiddin Muhammad* (1097-1127) katta ko‘mak ko‘rsatdi. Garchi Sulton Sanjar barcha saljuqiylarning oliy hukmdori sanalib, uning nomi ramziy tarzda xutbada, tangalarda qayd etilsa-da, lekin Iroq, Kichik Osiyo, Janubiy



Sulton Ahmad Sanjar va uning maqbarasi

Kavkazda uni rasmangina tan olishar edi. Sulton Sanjarga uzoq vaqt Mozandaron, Xorazm, Seyiston, G'azna, Movarounnahr qaram bo'lib keldi. Sanjarning uzoq hukmronligi davrida o'z davri kishilik jamiyati, muarrixlar «Malik al-mashriq», «buyuk sulton», «sultonlar sultoni», «ulug' shahanshoh» nisbalari bilan ulug'lashgan. Sulton Sanjar o'z poytaxti sifatida Marv shahrini tanlagan.

Ta'kidlash lozimki, Saljuqiylar davlati singari ulkan hududlarni o'z ichiga olgan davlatni yagona markazdan turib boshqarish oson emas edi. Shuning uchun ham markazdan turib boshqaruvdagi qiyinchiliklar, sulola vakillarining toj-u taxt uchun kurashlari, mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilishlari, qaram o'lkalardagi norozilik harakatlari Saljuqiylar davlatining zaiflashuviga sabab bo'lgan edi. Garchi O'rta Sharqning eng buyuk hukmdori sanalmasin, mamlakat ichkarisida ham, tashqi tomonlama ham Sulton Sanjarga qarshi kuchlar yetarlicha topilar edi. Hatto, 1129-yilda Buxoro yaqinida ovda bo'lgan Sanjarga qarshi fitna ham uyushtiriladi. Shu bilan bir qatorda, arab xalifasi Sanjarga qaram bo'lgan mahalliy hukmdorlarni unga qarshi gijgijlashga uringan. Natijada Sulton Sanjar davriga kelib Saljuqiylar davlatining g'arbiy Iroq qismida uning ta'siri pasayib ketdi. Mamlakatning sharqiy qismi – Eron, Afg'oniston, Xorazm va



Sulton Ahmad Sanjar

Movarounnahrda sultonning ta'siri birmuncha kuchli edi. Ammo 1141-yilda Sulton Sanjar va uning vassali hamda ittifoqchisi, qoraxoniy Mahmudxonning birlashgan qo'shinlari bilan qoraxitoylar o'rtasida Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lidagi jangda Sulton Sanjar hamda uning ittifoqchisi qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Natijada 30 ming kishi, jumladan, 3-4 ming amir-u amaldorlar halok bo'ladi. Bu o'z o'rnida saljuqiylarga qaram bo'lgan Xorazmdagi mahalliy sulolalar yuksalishi uchun sharoit yaratadi. Bundan tashqari, Movarounnahrning qaramligi qo'ldan ketib, sultonning mavqei ancha pasayib ketadi.

Saljuqiylarning mag'lubiyatidan Xorazmshoh Qutbiddin Muhammadning o'g'li *Otsiz* (1127-1156) ustalik bilan foydalanib, 1141-yilning qishida saljuqiylarning poytaxti Marvni bosib oldi va 1142-yilda Nishopurga yurish qildi. Lekin Sulton Sanjar Xorazm qo'shinlarini Xurosondan quvib chiqardi va Otsizni yana o'ziga bo'ysundirishga erishdi. Sulton Sanjarning harakatlariga qaramay Saljuqiylar davlati o'zining avvalgi qudratini yo'qota boshlagan edi. Saljuqiylarga hal qiluvchi zarbani Balx va Xuttalon viloyatlarida yashovchi o'g'uz (g'uzz) qabilalari berdi. Manbalarda aytilishicha, Sanjarning ochko'z amirlari va lashkarboshilaridan Balx hokimi

sipohsolor *Ko'mach* 10 ming kishilik qo'shin bilan soliqlarning ko'payganligiga qarshi qo'zg'olon ko'targan o'g'uzlarga qarshi yurish qilib, mag'lubiyatga uchraydi. Amir Ko'mach va uning tarafdorlari Sanjarni o'g'uzlarga qarshi yurish qilishga ko'ndirishgan. 100 ming kishilik ulkan lashkar to'plagan Sanjar o'g'uzlarning uzri va tovon tariqasida 50 ming ot va tuya, 200 ming qo'y, 200 dinor va bir yillik xiroj to'lash taklifiga rozi bo'layotganda urushqoq amirlar jang boshlashni talab qilganlar. Balx atrofida bo'lgan katta jangda Sulton Sanjar lashkarlari mag'lubiyatga uchrab (jangda amir Ko'mach ham halok bo'ladi), Sultonning o'zi Marvga chekinadi va ikkinchi yurishga hozirlik ko'ra boshlaydi (1153-yil iyul). Shu yilning o'zida Marv yaqinida Sanjar o'g'uzlarga qarshi jangda yana mag'lub bo'ladi, o'g'uzlar uning o'zini asir oladilar. O'g'uzlar himoyasiz qolgan Marv va Nishopur shaharlarni talon-taroj qilib, ularga o't qo'yadilar.

Bilib oling!

«Fozillardan mavlono Abu Sulaymon Zikriyo Kufiy «Suvar ul-aqolim» (Iqlimlar surati) kitobida aytibdirkim, Sulton Sanjar Bag'dodni fath etgach, Samarraga (Somra) qasd qildi. Samarraning masjidi jomesi oldida bir g'or bo'lib, shialar e'tiqodicha, imom Mahdiy o'sha joydan chiqishi kerak emish. (Shu bois) juma kunlari bir saman otni umid bilan o'sha g'or og'zida tutib turar ekanlar... Sulton bu holni mushohada qilib, boisini so'rab bildi. Bu go'zal va tengi yo'q ot unga yoqib qoldi, (so'ng) unga mindi va dedi: «Bu ot menda omonat turadi, har qachon imom chiqsa, o'zim unga topshiraman». Aytadilarki, bu hol oqibati sultonga yaxshilik keltirmadi. Buningdek behurmatlik zarofat yuzasidan sultonga xush ko'rinsa ham, maqbul ko'rmadilar. (Yana) hukmronligi so'nggida u ulamo va zohidlar maoshini to'xtatib qo'ydi. Bu ham (oqibatda) davlatining zavol topishiga sabab bo'ldi. G'uzzlar unga xuruj qildilar, (sulton asir olindi) va birmuncha vaqt qamoqda yotdi. Viloyatining ko'p qismi — Xuroson mamlakati, har ikkala Iroq (Iroqi

Arab va Iroqi Ajam) balki, tamom jahon ma'mur qismining ko'pchiligi o'sha g'avg'oda xarob bo'ldi... (Oxiri) Termiz qal'asida g'uzzlar qo'lidagi tutqunlikdan (Sulton Sanjar) xalos bo'ldi, (lekin) qarib, munkillab qolgan edi, 551-yil rabi ul-avval oyining o'ninchisida (1156-yil 3-mayda) Marv shahrida tangrining rahmatiga yetishdi».

Davlatshoh Samarqandiyning
«Tazkirat ush-shuaro» asaridan.

O'g'uzlar Xurosonni egallab, Marv, Nishopur, Mashhad, Tus va boshqa shaharlarni talashgan. Biroq o'g'uzlar Sanjarga katta izzat-hurmat ko'rsatib, uni Balxda sulton sifatida faxriy tutqunlikda ushlab turishgan. Otamalik Juvayniyning yozishicha, Termiz hukmdori *Ahmad ibn Abu Bakr* (amir Ko'machning nevarasi) ming kishilik maxsus chavandozlar guruhini jo'natib, Sanjarni o'g'uzlar qo'lidan qutqargan va Termizga olib kelgan (1156-yil oktyabr). Movarounnahr, Xorazm va Xurosonning asosiy qismi qo'ldan ketganligini ko'rgan Sanjar avvalgi qudratini tiklashga behuda uringan. 1156-yil noyabrda u Termizdan Marvga kelgan va poytaxt yaqinidagi Andarobod qal'asida yashagan.

Manbalarda yozilishicha, Sulton Sanjar Marvdagi saroyida o'z davrining mashhur shoir va ulamolari to'plangan. Sanjar poytaxt va boshqa shaharlarda ko'plab me'moriy obidalar qurdirgan. U bir yildan so'ng xastalanib, Marvda vafot etgan. Sulton Sanjar vafoti bilan (1157) saljuqiylarning O'rta Osiyodagi hukmronligi o'z poyoniga yetdi.

Saljuqiylar hukmronligi u yoki bu darajada 1157-yildan – 1194-yilgacha faqat G'arbiy Eron va Iroq hududlarida saqlanib qolindi.

11.2. SALJUQIYLAR DAVRIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLAR

Saljuqiylar davri iqtisodiy munosabatlar ahvoliga keladigan bo'lsak, albatta, biz butun saltanat, ya'ni Movarounnahrdan O'rta dengizgacha bo'lgan hududda kechgan iqtisodiy munosabatlar

to‘g‘risida fikr yuritmay, asosiy e’tiborni mazkur masalaning mintaqaga aloqador tomonlariga to‘xtalib o‘tsak to‘g‘ri bo‘ladi.

Shu ma’noda o‘z davri uchun katta ahamiyat kasb etgan dehqonchilik rivojlanib borib, bunga, asosan, sun’iy sug‘orish tizimlarining kengayib, mukammallashib borishi keng yo‘l ochib bergan. Chunonchi, suv to‘g‘onlarini ta’mirlash, yangilarini qurish, yer osti va yer usti suv inshootlarini barpo etish, dehqonchilikning ilg‘or usullaridan foydalanish, sun’iy suv havzalarini yaratish kabi tadbirlar o‘sha zamon dehqonchiligi taraqqiyotidagi asosiy omillardandir. Dehqonchilik sohasining rivoji, albatta, hunarmandchilik taraqqiyoti uchun tegishli asos yaratib beradi. Shuning uchun ham yozma manbalar, arxeologik izlanishlar natijalari bergan guvohliklarga nazar solinsa, to‘qimachilik, kulolchilik, gilamchilik, zargarlik, oynasozlik, temirchilik, ko‘nchilik kabi qator sohalar ham ichki, ham tashqi talab va ehtiyojlarni qondirish yo‘lida taraqqiy etib borgan.

Bilib oling!

Savdo-sotiqning rivojlanishida ishlab chiqarish (dehqonchilik, hunarmandchilik) bilan bir qatorda ulkan iqtisodiy-savdo makonining mavjudligi ham muhim o‘rin tutgan. Albatta, bunday makonni yaratish oson bo‘lmagan. Shaharlarda bozorlar ahvolini yaxshilash, tartib o‘rnatish, karvon yo‘llari xavfsizligini ta’minlash, ma’lum masofalarda rabotlar, to‘xtash joylari bino etish, pul muomalasini nazorat qilish kabi qator muhim tadbirlarni doimo amalga oshirishga to‘g‘ri kelgan. Buning natijasida mintaqaning O‘rta va Yaqin Sharq, Sharqiy Yevropa, Hindiston, Xitoy kabi mamlakat va o‘lkalar bilan savdo aloqalari gurkirab borgan.

Saljuqiylarda savdo-sotiq uch yo‘nalishda rivoj topib bordi: ichki savdo, tashqi savdo va tranzit savdo. Ichki savdo va shahar hayotining rivojlanishi o‘rtasida o‘zaro ta’sir mavjud edi. Chakana savdoda ochiq bozorlar va katta bozorlar hamda ulgurji savdoda jamoat uylari muhim ahamiyatga ega edi. Ochiq bozorlar va katta bozorlardagi savdogarlar ishlab chiqarish va chakana savdo bilan band edi. Savdogar organi ichki

va tashqi savdoda ishtirok etuvchi, karvonlarni jihozlovchi, chetdan tovarlar olib kiruvchi va savdo uchun sanoat faoliyatini tashkil qiluvchi tadbirkorlar guruhi edi. Bozorlar davlat muhofazasi va nazorati ostida edi. Tovar va naqd pul almashinuvi yonma-yon amalga oshirilgan. Bozorlardan olinadigan soliqlardan tashqari shaharga va shahar tashqarisiga olib kiriladigan boshqa barcha turdagi tovarlar ham soliqqa tortilgan. Saljuqiylar davrida *tunga* deb ataladigan soliq yig'ilgan. XII asrda savdo va hunarmandlar *Axi* jamoasi deb nomlangan tashkilot tarkibida birlashdilar. Bu tashkilot iqtisodiy, siyosiy va axloqiy qoidalarni tartibga solib, siyosiy inqiroz va qiyinchiliklarni yengishda muhim xizmatlar ko'rsatdi. Marv «Eron va Xurosonning yirik shaharlaridagi eng yaxshisi» deb ta'riflangan bozorga ham ega edi.

Bilib oling!

Marvning quritilgan mevalari, jumladan, mayiz, qovun va boshqa turli xil quritilgan oziq-ovqatlar boshqa hududlarda ham yuqori talabga ega edi. Istaxriy Marv mevalari shunchalik shirinligi, qovunlar haqida to'xtalib, ularning Iroqqa sotilganligini eslab o'tadi. Xuddi shunday, Qazviniyning aytishicha, nok, uzum va qovun kabi Marvning eng yaxshi quritilgan mevalari bir necha viloyatlarda sotilgan.

1087-yili Sulton Malikshoh Sharq va G'arb yo'nalishlararo savdoni yanada jonlantirish niyatida Xuroson va Iroq savdogarlarini ba'zi bir savdo to'lovlaridan ozod etgan. Savdo-sotiqda quruqlikdan tashqari Kaspiy dengizi imkonyatlaridan ham oqilona foydalanishga intilingani ma'lum. Kaspiy dengizi orqali O'rta Osiyoga neft mahsulotlari keltirilgan. Yo bo'lmasa Sirdaryo quyi oqimi, o'ng qirg'og'i yerlaridan chiqadigan mushk, oltin, kumush yombilar nafaqat tashqi bozorda, balki mintaqaning o'zida ham g'oyatda qadrlangan. Umuman olganda mintaqa bozorlarida qimmatbaho mo'yna, qorako'l terisi, tuzlangan baliq, morj qoziq tishidan tortib quruq meva, nafis matolar, qimmatbaho toshlar, taqinchoqlargacha topish mumkin edi.

Pul muomalasiga kelsak, eng yuqori darajadagi pul birligi o‘rnida sof oltindan zarb etilgan *dinor* (qizil dinor) qabul qilingan. Tarkibida oltindan tashqari qo‘shimcha metall aralashmasi bo‘lgan va mahalliy ahamiyat kasb etgan dinor ham bo‘lib, uni *rukniy* deganlar. Shuningdek, muomalada mis dirhamlar ham bo‘lib, ular ichki bozorga mo‘ljallangan.



Saljuqiylar dinori (oltin), XII asr

Saltanatning Sharqiy Turkistondan O‘rta dengizgacha yastanishi geografik jihatdan ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarixiy Xitoy va Vizantiya bilan chegaradosh qilib qo‘ydi. Xitoy ham, Vizantiya ham bundan xavfsirashi turgan gap edi. Shuning uchun ham ular iloji boricha saljuqiylarning zaiflashib borishidan manfaatdor edilar. Chunonchi, saljuqiy Sulton Malikshoh davrida Vizantiya diplomatik yo‘llar bilan Xitoyni saljuqiylarga qarshi gij-gijlab, ular o‘rtasida urush chiqarishga obdon harakat qilgan. Vizantiya bu bilan tinchimay endi to‘g‘ridan to‘g‘ri g‘arbda, Yevropaning o‘zida saljuqiylar, aniqrog‘i «musulmonlar xavfi»ni bayroq qilib, ularga qarshi kurashga da’vat qila boshlaydi. Saljuqiylar Vizantiya uchun, eng avvalo, siyosiy, xalqaro savdo munosabatlarida katta raqib hisoblanardi. Odatda raqibni yengish ishi unga nisbatan ko‘pchilik fikri, ya’ni mafkurasini qarshi qo‘yishdan boshlanganidek, Vizantiya saljuqiylarning harbiy-siyosiy xavfiga qarshi mafkura, e’tiqod omilini qo‘ydi. Bundan Rim cherkovi va boshqa Yevropa mamlakatlari iloji boricha foydalanishga harakat qildilar. Shu tariqa, XI asrning so‘nggi o‘n yilligida



Saljuqiylar davriga oid idish (Britaniya muzeyi)



Saljuqiylar davriga oid osori-atiqalar



mafkura bo‘yoqlari bilan chaplangan, aslida ta’sir doiralar kurashidagi bir harakatgina bo‘lgan salib yurishlari boshlangan. Salibchilarning sharqqa qarab harakatlarini qirqishda saljuqiylarning xizmatlari katta bo‘lgan.

Saljuqiylar o‘z tobeligida bo‘lgan yurtlarda fan va madaniyat taraqqiyoti uchun barcha shart-sharoitni yaratib berishga intilganlar. Saljuqiylar xonadoniga mansub oliy hukmdormi, shahzodami yo malikami, hammalari mamlakatdagi biron-bir shaharda bir yo bir nechta madrasa qurishni o‘z vazifalari deb bilganlar. Ulardan vazirlar, amirlar, mahalliy hokimlar ham o‘rnak olib ish tutganlar. Chunonchi, mashhur vazir Nizomulmulk o‘z davrida ko‘plab madrasalar qurdirgan. Har bir madrasada o‘nlab, yuzlab ilm toliblari ham diniy, ham dunyoviy sohalarda bilim olganlar. Madrasalarda ham tabiiy-aniq fanlar, ham ijtimoiy-diniy bilimlardan tahsil olingan. O‘quvchilarga oylik nafaqa berib borilib, joy bilan ham ta’minlangan, ularni o‘z davrlarining yetuk olimlari o‘qitganlar, ilm toliblarining ixtiyorida ko‘p ming jilddan iborat kutubxonalar ham bo‘lgan. Nizomulmulk o‘zining vazirligi davrida Bag‘dod, Basra va Isfahonda «Nizomiya» nomidagi

madrasalar bino qiladi. Masalan, 1067-yili Bag'dodda asos solingan *«Nizomiya»* madrasasida olti ming talaba yashab, ta'lim olgani ma'lum. Har bir madrasa qoshida kutubxona, ba'zida esa kasalxona ham mavjud bo'lgan. Jumladan, *Nishopur*da asos solingan madrasaga kasalxona ham biriktirilgan edi. Tarixchi va sayyoh Yoqut Hamaviy Marvda bo'lganida bu yerda o'nta yirik kutubxona borligini ko'rgan. Mazkur kutubxonalarda saqlanayotgan kitoblar qimmati va soni jihatidan dunyoda biron-bir kutubxona unga teng kelolmaydi, deb yozgandi tarixchi.

Ilm-fan va madaniyatga e'tibor haqiqatan ham shunday bo'lganini o'sha zamonda yashagan buyuk olimlar, shoirlar faoliyati ham tasdiqlaydi. Bahoviddin Abubakr Marvaziy, Sharafiddin Tusiy, Abulhasan Ali Marvaziy, Umar Hayyom, Abulhotam Muzaffar Isfizoriy, Zahiriddin G'aznaviy kabi handasachilar, yulduzshunoslar, riyoziyotchilar, Sharaf az-zamon Muhammad Iloqiy, Sayyid Ismoil Jurjoniy, Faxriddin Roziy kabi tabiblar, kimyogarlar, Mu'iziy, Anvariy, Sobir Termiziy, Asiriddin Axsikatiy, Raf'iy Marvaziy kabi yirik shoirlar shular jumlasidandir. Odatdagidek, ular o'z zamonlarining barcha ilmlaridan xabardor bo'lganlar. Masalan, Umar Hayyomni biz ko'proq mashhur shoir, aniqrog'i, to'rtliklar ustasi sifatida taniymiz. Malikshoh va uning vaziri Nizomulmulk davlatida iqtisodiy sharoit yaxshilangan davrda 30 yoshli Umar Hayyom (1040-1123) taniqli astronom edi. Uni 1074-yili sosoniylarning shamsiy taqvimi (kalendari)ni isloh etish uchun tuzilgan guruhga rahbarlikka taklif qilishadi. Umar Hayyom bu ishni bajarib, devonning ilmiy va davlat ishlariga taklif qilinadi. Bu taklifni Umar Hayyom rad etsa ham Nizomulmulk unga yiliga 1200 tuman haq berib, ilmiy va adabiy



Umar Hayyom

faoliyatini olib borishi uchun sharoit yaratib bera oladi. Hayyom ishtirokida rasadxona loyihasi chizilib, so‘ng bir yil ichida barpo etilgan. Unda olib borilgan kuzatishlar va boshqa izlanishlar natijasida 1097-yili Umar Hayyom Sulton Malikshoh topshirig‘iga ko‘ra yangi taqvim tuzadi. Uning aniqligi Grigoriy kalendaridan ham yuqori bo‘lishiga qaramay amalda joriy qilinmasdan qolib ketgan. Bundan tashqari, matematika tarixida sonlardan butun musbat ildiz topishning umumiy qoidasini birinchi isbotlab bergan ham Umar Hayyomdir.

Markazlashgan yirik siyosiy birlikning mavjudligi, iqtisodiyot, fan va madaniyat yo‘nalishlaridagi umumiy o‘sish o‘z navbatida ma’naviy madaniyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etdi. Xususan, tasavvuf ta’limoti keng rivojlandi. Bu davrda Xuroson tasavvuf maktabining ta’siri kengayganligi kuzatiladi. Abdullo Ansoriy (1006-1089), Yusuf Hamadoniy, Ahmad Jom (1049-1142) uning yirik namoyandalari edilar. Yusuf Hamadoniy saljuqiy Sulton Sanjar hukmronligi davrida (1118-1157) yashagan. Bu davrda poytaxt Marv bilan bir qatorda Buxoro va Samarqand shaharlari ham madaniy-ma’naviy jihatdan yuksaldi. Xoja Yusuf Hamadoniyning Buxoro va Samarqand shaharlarida yashaganligi ham xuddi shu davrga to‘g‘ri keladi.

Bilib oling!

Yusuf Hamadoniy Turon hududida tasavvuf ta’limotini targ‘ib qilish bilan shug‘ullanib, ko‘plab murid-muxlislar orttirdi. Ularning orasidan to‘rt kishi – Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy Yusuf Hamadoniyning asosiy xalifalari bo‘lganlar. Yusuf Hamadoniy tasavvufga oid «Odobi tariqat», «Inson va koinot haqida risola» kabi bir qancha asarlar yozganligi ham ma’lum.

Malikshoh saljuqiylar imperiyasi poytaxti bo‘lmish Marvda katta rasadxona qurdirdi. Saroyda ilmiy madaniy muhit shakllanadi. Bo‘lg‘usi buyuk olim – Muhammad G‘azzoliy (1058-1111) bu vaqtda endi ijodga kirishgan, arabiynavis shoirlar Muiziy, Tantaroniy, Tug‘roiy kabilar Malikshoh saroyi bilan bog‘langan edilar.

Nizomulmulk Bag'dodda olamga mashhur «Nizomiya» madrasasini qurdirganda Muhammad G'azzoliy o'z vaqtida ana shu madrasada dars bergan.

Marv shahri saljuqiylar davrida ayniqsa rivoj topadi. 1118-yildan boshlab u butun imperiyaning poytaxti bo'lib xizmat qildi. Bu davrda Marv o'zining eng katta hajmiga qadar kengaydi. Arab va fors geograflari uni «dunyoning onasi», «buyuk va kichiklarning uchrashuvi», «Xurosonning bosh shahri» va «Sharqiy Islom dunyosining poytaxti»deb atashdi.

Bilib oling!

Manbalarda qayd etilishicha, turkiylar (jumladan, o'g'uzlar) islomga e'tiqod qilsalar-da, eski turmush tarzi va an'analarini bir qadar saqlab qolgan. Xususan, ayol-u erkak bir joyda qimiz ichishgan, o'yin-kulgu uyushtirishgan. Ayollar ham erkaklar bilan bir safda jang qilgan, qahramonliklar ko'rsatishgan. Gardiziyning yozishicha, ayollar siyosiy va ijtimoiy mavqelariga hamda erkin hayotlariga qaramay, qadimda juda iffatli, hayoli bo'lganlar. Ibn Fadlan X asrda shimoliy o'g'uzlarda zino mavjud bo'lmaganini, bo'lgan taqdirda zinokor qotil kabi o'ldirilishini qayd etadi. Musulmon turkiylarda uylanish uchun ota-onaning roziligi shart bo'lgan. Qizning otasiga beriladigan narsani «qaling» (qalin) deyishgan. Tarbiya haqqi uchun yana otaga «boshliq», onaga sut haqqi deya «sutliq», aka-ukalariga «og'irliq» hadya etilgan.

11.3. SALJUQIYLAR DAVLATINING MA'MURIY BOSHQARUV TIZIMI

Saljuqiylar davrida davlat boshqaruvi, albatta, hukmdorning qo'l ostida edi. Buyuk saljuqiylar davlati rahbarlari turkiy xalqlarning boshqa hukmdorlaridan farqli ravishda o'z ismlarini turkcha so'z va nomlardan olganlar. Xalifa tomonidan ularga berilgan unvon va laqablargina arabcha nomda bo'lgan. Saljuqiylar hukmronligi davriga

qadar podshohlar unvonida dunyo va din atamalari uchramagan. Xalifa al-Muqtadiy sulton Malikshoh uchun Mu'iz ad-dunyo va-d-din unvonini ta'sis etadi.

Saljuqiy sultonlar va ularning laqablari:

Barqiyoruq ibn Malikshoh

- **Rukn ad-dunyo va-d-din.**

Mahmud ibn Malikshoh

- **Nosir ud-dunyo va-d-din.**

Muhammad ibn Malikshoh

- **G'iyos ud-dunyo va-d-din.**

Sanjar ibn Malikshoh


- **Mu'iz ad-din Abul'-Xoris Ahmad.**

Saljuqiylar boshqaruv tizimida bosh vazir alohida mavqega ega bo'lgan. Manbalarda bosh vazir – rais ur-ruaso (raislarning boshlig'i), sayyid ur-ruaso (boshliqlarning kattasi) deb atalib, u barcha devonlar faoliyatiga rahbarlik qilgan holda xazina, moliya, soliq, davlatga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish muassasalari faoliyatini nazorat qilgan. Saljuqiylar davrida vazir lavozimi egasining nufuzi shu qadar ediki, hatto ba'zi vazirlar valiahdlik kurashlarida hukmdorlarni tayinlay olish darajasida kuchga ega edi. Jumladan, shunday vazirlardan biri Abu Ali Tusiy – Nizomulmulk edi.

Saljuqiylar davrida vazirlik qilgan shaxslardan biri asli Tusdan bo'lgan Abu Ali ibn Ali ibn Is'hoq bo'lib, u deyarli 30 yil davomida (1063-1092) Alp Asrlon, Malikshoh saroylarida bosh vazir lavozimida bo'lgan. Uning yuksak salohiyati, aql-u zakovatiga yuqori baho berib,

sulton Malikshoh vaziriga «Nizomulmulk» faxriy taxallusini berdi. O‘z davrining oqil kishisi bo‘lgan Nizomulmulk mashhur «Siyosatnoma» asarida davlat boshqaruvi, siyosat tamoyillari haqida so‘z yuritgan.

Saljuqiylar davlat boshqaruv organlari





Davlatni markazlashtirish, o‘zaro parokandalik va ayirmachilikka qarshi kurash, xo‘jalik va madaniy hayotni yuksaltirishda Nizomulmulk ning hissasi yuqori darajada bo‘ldi. U an’anaviylik tarafdori bo‘lib, ijtimoiy-ma’naviy hayotda ismoiliylik diniy oqimiga qarshi turgan. Sohibqiron Amir Temur ham o‘z «Tuzuklari»da Nizomulmulk faoliyatiga ijobiy baho berib, uning xizmatlarini e’tirof etgan edi.

Bilib oling!

«Bir kuni Malikshoh Nizomulmulkning o‘g‘lidan xafa bo‘ladi. U sulton shixnasi (qal’a hokimi)ni tahqir qilgan emish. Sulton o‘z vaziri oldiga odamlarini yuborib, xafa bo‘lganini ayttiradi: «Agarda mamlakat boshqaruvida sen menga sherik bo‘lsang, mayliya, biroq menga tobe’ bo‘lsang, nimaga o‘g‘ling qilmishlarini nazorat qilmaysan, u haddidan oshib ketibtiku. Xohlasam buyuraman, oldingdan davotni oladilar (ya’ni seni vazirlikdan tushiraman)». Nizomulmulk unga javob berdiki, sening davlat-u tojing mening davotimga bog‘liq, vazirlikni mendan olsang, sendan tojingni oladilar».

Mirxondning «Ravzat us-safo» asaridan.

Nizomulmulkdan so‘ng uning bir qator o‘g‘illari ham vazirlik lavozimida faoliyat yuritgan. Ularning barchasi mamlakat boshqaruvida katta mavqega ega bo‘lib, ba’zi holatlarda hatto, hukmdorlar bilan teng kuchga ega bo‘lganlar. Jumladan, 1099-yilda oliy hukmdordan (Barqiyoruq) norozi bo‘lgan Muayyid al-Mulk uning ukasi Muhammadni qo‘llab quvvatlab, uni mustaqil davlat hukmdori darajasiga qadar ko‘taradi.

Nizomulmulk avlodidan bo‘lgan Saljuqiy vazirlar

Ismi	Lavozimi	Xizmat qilgan hukmdorlari	
Muayyid al-Mulk	Vazir	Barqiyoruq 1094-1095-yillar	Muhammad I 1099-1101-yillar
Fahr al-Mulk	Vazir	Barqiyoruq 1095-1099-yillar	Ahmad Sanjar 1099-1106-yillar
Ziyo al-Mulk Ahmad	Vazir	Muhammad I 1107-1122-yillar	Xalifa Mustarshid 1122-1123-yillar
Shams ul-Mulk Usmon	Vazir	Mahmud II 1122-1123-yillar	

Shihob al-islom (Nizomulmulk-ning Jiyani)	Vazir	Ahmad Sanjar 1118-1121-yillar

Saljuqiylar boshqaruv tizimi dargoh va devonga bo'lingan bo'lib dargohdagi eng asosiy xizmat va vazifalar quyidagilar edi:

☑ *Ulug' hojib* – oliy hukmdorning eng yaqin kishisi, dargoh bilan devonlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib turuvchi, rasmiy qabullarni uyushtiruvchi amaldor;

☑ *Amiri horis* – oliy hukmdor chiqargan jazolar hukmlarini ijro etish bilan shug'ullanuvchi amaldor;

☑ *Silohdor* – saroydagi qurol-aslaha, ayniqsa, oliy hukmdorga tegishli narsalarni saqlash bilan shug'ullanuvchi amaldor;

☑ *Xos vakil* – dargoh ishlarini boshqaruvchi amaldor;

☑ *Jangdor* – sulton va dargoh xavfsizligini ta'minlovchi amaldor.

Undan tashqari, oliy hukmdor huzuridagi dargoh faoliyatini ta'minlashda *jomador, sharobdor, choshnigir* (sultonning ovqatlanishiga mas'ul), *sarhang, miroxo'r, tashtdor* kabi amaldorlar ham xizmatda bo'lgan.

Saljuqiylar davlat boshqaruvidagi devonlar sulolaviy va rasmiy devonlarga bo'lingan. Sulolaviy devonlar oliy hukmdor xonadoni faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bu xonadonga tegishli bo'lgan mol-mulk, yer-suv, xazina kabilarning boshqaruvi va hisob-kitobi bilan shug'ullangan. Rasmiy devonlar quyidagilar bo'lgan:

☑ **Devoni tug'ro** – bu devon oliy hukmdorning farmonlari, qarorlari, rasmiy yozishmalari va hujjatlarini tayyorlab, ularni muhr bostirishga taqdim etgan. Joylarga rasmiy hujjatlar yuborish, ulardan hujjatlar qabul qilish, chet ellarga maktublar yuborish, davlat hujjatlarida maxfiylikni ta'minlash ham shu devonning vazifasi edi;

☑ **Devoni istifo** (moliya devoni) – davlat kirim-chiqimlarini, soliqlar, boj va boshqa moliyaviy daromadlar, ularni alohida ro'yxatga olish bilan shug'ullangan. Bu devonning xizmatchilari dargoh kirim-chiqimlari, xazinadagi ahvol, mavjud naqd pulning hisobi, davlat qaramog'ida bo'lganlarga ketadigan xarajat, maosh, nafaqa miqdori kabilarni ham nazorat qilganlar;

☑ **Devoni ishrof** (davlat nazorati) – moliya-soliq ishlarini nazorat qilish va tekshirish, vaqfga tegishli mulklar ustidan umumiy nazorat olib borish, sulolaga tegishli yer-suvlar, qimmatbaho moliya qog‘ozlari, zarbxonalar, amaldagi muhrlar, bozor mutasaddilari, soliqchilar, qishloq oqsoqollari va boshqa amaldorlar ustidan nazorat olib borgan;

☑ **Devoni arz** (harbiy vazirlik) – lashkarga mo‘ljallangan maosh va ta’minot, harbiylarning ro‘yxati, yangilanib turishi, harbiy qismlarning tarkibiy soni, ularga ketadigan xarajatlarning turi va hajmi, ot-ulov, harbiy yurishlar paytidagi ta’minot, harbiylar ko‘rigini tashkil etish kabi vazifalarni bajargan.

Saljuqiylar hokimiyatida, ayniqsa, Sulton Sanjar hukmronligi davrida hokimiyatda harbiy sarkardalar katta o‘rin egallaganlar. Harbiy boshliqlar va sarkardalarning ko‘pchiligi turli urug‘ va qabilalardan (o‘g‘uz, turkman, xalaj, chig‘il va boshq.) chiqqan kishilardan bo‘lgan. Harbiy sarkardalar tabaqasi o‘z ta’sirini Sulton Sanjar boshqarayotgan hokimiyatga o‘tkazib, ularning ixtiyori bilan ish tutishni talab qilganlar. Harbiy sarkardalarning mavqei Sulton Sanjarning Qatvon cho‘lidagi mag‘lubiyatidan so‘ng yanada kuchayib ketgan edi.

Bilib oling!

ELCHILAR VA ULARNING ISH TARTIBI

«Tashqaridan kelgan elchilarning saroyga kelib-ketishlari noma’lum qolishi, ularning ahvolidan xabardor bo‘lmaslik g‘aflat va ishning tartibsizligidan darak beradi. Chegarada turgan amaldorlar mamlakat hududiga kirib kelayotgan har bir kishi haqida suvoriy chopar orqali ma’lumot berib turishlari shart. Agarda kelayotgan kishi elchi bo‘lsa, biror obro‘li kishini unga yo‘ldosh qilib, tegishli shartlarga yuborishsin. Bu yerda uni boshqa kishilarga topshirib, yangi obod shahar va nohiyalarni tomosha qildirib, oxiri saroyga olib kelsinlar. Amaldorlar va mansabli kishilarga farmon shudirki, elchilar qaysi manzilga qo‘nsalar, mehmondo‘stlik bilan kuzatishi kerak. Elchilar

yuborgan podshoh sha'niga yaxshi-yomon so'zlar bo'ladi. Podshohlar ham bir-birlarining hurmatlarini bajo keltirib, elchilarni e'zozlaganlari, shunda ularning qadrlari va martabalari oshgan. Agarda podshohlar o'rtasida ziddiyat yo dushmanlik vujudga kelsa va shu sharoitda elchilar kelib, farmon bo'yicha ish yuritsalar, hech qachon ular xafa bo'lmaydilar va yaxshilikni ulardan darig' tutmaydilar.

Shu ma'noda Alloh Azza va Jalla nozil qilgan kitobi – «Qur'on»da shunday deyilgan: «Elchining faqat bir vazifasi bor – so'zlarni to'g'ri yetkazib berish». Podshohning elchi yuborishdan maqsadi xat yo maktub yuborish emas, balki uning safardan ko'zda tutgan qator maqsadi va sir asrorlari mavjud. Podshoh tog' yo'llarining ahvoli, daryolar qandayligi, lashkar darajasi, u yerda qancha yem-xashak bor, qayerda kim hokimu va malik, lashkarlarning soni qancha shularni bilish uchun elchi yuboradi. Bular: qurol-aslaha miqdori, ziyofat va majlis ahvoli, saroyning qabul tartibi, qonun-qoidalari, chavgon o'yini (polo) va ov tartibi, podshohning siyratu xulq-atvori, uning sahiyligi, ko'rinishi va ishlari qay darajadaligi, keksami yoki yoshmi, viloyati obodmi yo kambag'almi, lashkari undan xursandmi, o'zi baxilmi yoki saxiy, ishlarda xushyormi yoki g'ofil, vaziri o'ziga mosmi yoki yo'q, o'zi diyonatli va yaxshi kishimi yo manfurmi, lashkarboshlari ishbilarrnon va rasm-rusumlarni biladigan kishilarmi, nadimlari zarif insonlarmi, qanday dushman va do'sti bor, sharobga mayli qanaqa, din ishlarida salbiy, himmatli va shafqatlimi yoki zolim va berahm kishimi, hazilga moyilligi ko'proqmi yoki jiddiy gapga. Ko'proq qullar orasida bo'lishni istaydimi yo ayollar davrasidami kabi masalalar qiziqtiradimi va shu savollarga javob topish uchun elchi yuboriladi. Agarda uni qo'lga olmoqchi bo'lsalar va unga muxolifat qilib biror yomonlikni ko'zlasalar, uning ahvolidan voqif bo'la turib, yomonlik yo

yaxshilik tadbirini qiladilar. Alp Arslon, uning ruhi shod bo‘lsin, davrida bu bandaning boshiga bir voqea tushdi.

Rahmatli shahid Sulton o‘z mazhabida juda ham mustahkam edi va takror-takror shunday dedi: «Hay darig‘, agar mening vazirim shoi’iy mazhabidan bo‘lganda edi, kuchli siyosatchi va haybatli bo‘lardi. Shu sababdan uning o‘z mazhabida qat’iy va mo‘taqid bo‘lganligidan va shofi’iy mazhabidan xato sanashidan kamina hamisha undan andisha qilib hayiqardim». Shunday bo‘ldiki, rahmatli shahid Sulton Movarounnahr va Samarqand azmini qildi. Chunki Samarqand xoqoni Shams ul-mulk unga bo‘ysunmasdi. Lashkar yig‘ib, Shams ul-mulk Nasr ibn Ibrohimga elchi yubordi. O‘z tomonidan men ham bo‘ladigan voqeadan xabardor qilishi uchun Ashtarni sulton elchilariga qo‘shib yubordim. Sulton elchisi xat va xabarni yetgazdi va u yerda ham o‘z elchisini sulton rasulga hamroh qilib qaytardi. Odat borki, elchilar hamma murod va maqsadlarmi eshitib olib, avval vazirga aytadilar, bundan maqsad shuki, vazir sultonga qaytganidan so‘ng bularni unga o‘zi yetgazsin. Ittifoqo bir kuni o‘z chodirimda yaqin kishilarim bilan o‘tirib shaxmat o‘ynardim. Bir kishini shaxmatda yutib, uning uzugini garovga olib, chap qo‘limning barmoqlari kattalik qilganidan o‘ng qo‘limga taqib olgandim. Shu payt Samarqand xonining elchisi kelib, eshik oldida kutayotganligi habar berdilar.

– Olib kiringlar, – dedim. Buyurdim, shaxmatni olib ketdilar. Elchi kirib o‘tirdi va bandaga bor gaplarini aytib berdi, men esa uzukni barmog‘imda aylantirib o‘tirdim. Elchining ko‘zi uzukka tushdi, u xizmatini bajarib tashqariga chiqdi. Sulton farmoni bilan xon elchisi va u bilan bir kishini elchi qilib yubordi. Men ham donishmand Ashtarni juda jasur kishi bo‘lgani uchun ular bilan jo‘natdim.

Elchilar Samarqandga yetib borib, Shamsul-mulk oldiga kirganda xoqon o‘z elchisidan so‘radi;

– Sulton Alp Arslonning fikr-u ishlari va ko‘rinishi qanday ekan, lashkarlari qancha va qanday qurollangan?

Elchisi aytibdi:

– Mening xoqonim, Sulton ko‘rinishiyu nazari, mardligi va siyosati, haybati va farmon berishida tengi yo‘qdir. Lashkarlari sonini Xudo biladi, qurol-aslahalarida ham kamchlik yo‘q, saroy va devon tartibi, majlisi va qabul qilish ishlari ham yoqimli. Mamlakatida hech ayib ko‘rinmaydi. Illo bir ayb bor. Agarda shu kamchilik bo‘lmasa, juda yaxshi bo‘lardi.

Undan so‘rashdi;

– Qaysi aybi bor ekan?

– Vaziri rofiziy ekan, – dedi elchi.

– Qanday qilib bildingiz?

– Peshin nomozini ado qilib, uning chodiriga kirdim, suhbatlashib o‘tirganimda vazirning o‘ng qo‘lida uzuk ko‘rdim. U uzukni barmog‘ida aylantirib, men bilan suhbat qildi.

Donishmand Ashtar ham tez menga xabar berdiki, Shamsul-mulk huzurida sen haqingda shunday gap bo‘ldi, xabardor bo‘lganing yaxshi. Men Sultondan xavfsirab, ko‘p qayg‘urdim, Sulton mening mazhabimdan or qiladi va har vaqt meni urishadi, deb o‘ylardim. Agarda u mening rofiziylikda ayblanayotganligimni va Samarqand hokimi dargohida shunaqa gap bo‘lganini eshitsa edi, meni omon qo‘ymasdi.

Shunda aybsizligimga qaramay, bu xabar Sultonga yetmasin deb o‘ttiz ming dinorni xarj qildim. Bu voqeani shuning uchun ham esladimki, elchilar ko‘proq ayb qidiradilar. Ular podshoh va uning mamlakatida bo‘lgan ayb va kamchliklarni, yaxshi ishlarni so‘rab-surishtirib,

qulay vaqti kelganda podshohni yomonlaydilar. Shuning uchun ham dono va ziyrak podshohlar o‘z axloqlarini yaxshilab, hech kim ularni ayb qilmasligi uchun shoyista va pok din-u rostgo‘y kishilarni o‘z atrofiga yiqqanlar.

Elchi ham podshohlar xizmatida bo‘lgan, so‘zlashda jasur, jahon ko‘rgan, donishmand, o‘tkir xotirali, andishali va chiroyli bo‘lsin. Agarda elchi yoshi ulug‘ va olim bo‘lsa yaxshidir, yuborilgan nadim shu yo‘sinda bo‘lsa, ishonch uyg‘otadi. Agarda jasur va qo‘rqmas kishini elchi qilib yuborsalar va u odobli, qurol ishlatishini, chavandozlikni bilsa, muboriz bo‘lsa, yaxshiroqdir. Unda bizning haqimizda ham boshqalarda xuddi shunday taassurot qoladi. Elchi ulug‘vor kishi bo‘lsa ham yaxshi, chunki uning hurmati oshgan bo‘lib, unga yomonlikni ravo ko‘rmaydilar. Sharob ichmaydigan, masxarabozlik qilmaydilar, qimor o‘ynamaydigan, kamgap, dono elchi yaxshiroqdir. Ko‘p vaqtlar podshohlar elchiga hadya va sovg‘alar yuborib, o‘zlarini kuchsiz va mehribon ko‘rsatganlar va shu yo‘l bilan elchi orqasidan lashkar yig‘ib, botirlarini yuborib, dushmanni mag‘lub etganlar. Elchining siyrati va fikri-zikri podshohning aqli zakovatidan dalildir».

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asaridan.

Saljuqiylar davri mahalliy boshqaruv tizimida viloyat boshliqlari (voliylar) ham o‘z devonlariga ega bo‘lganlar. Voliylarni oliy hukmdor tayinlagan va mansabidan olgan. Voliylar butun viloyat hayoti bilan bog‘liq barcha sohalarga boshchilik qilganlar. Moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralari voliylar nazorati ostida faoliyat ko‘rsatgan. Tumanlar va shaharlar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham viloyatlarniki singari bo‘lgan.

Qishloq hokimi *kadxudo* deb atalgan. Kadxudo mahalliy aholi orasida katta hurmatga sazovor bo‘lgan keksa odam edi. Qishloq

yoshlari orasidan ko‘ngillilar qishloq mudofaasi va hududni tartibga solish ishlariga jalb etilgan. Ularning rahbari *yigitboshi* katxudo tomonidan tayinlangan va unga bevosita hisobot bergan. Yoshlar tashkiloti aholi punktining haqiqiy kuchi edi va uni hududni tartibga solish uchun osongina chaqirish mumkin edi. Saljuqiylar davlatida iqta deb belgilangan yerlardan tashqari yana ikkita toifadagi yer egaligi turlari mavjud edi – vaqf yoki xayriya maqsadlari uchun mo‘ljallangan yerlar va mulk deb ataluvchi yer – davlat tomonidan xususiy mulkdorlarga sotiladigan yerlar. Mulk egalariga uni sotish, hadya qilish, meros sifatida o‘tkazish va hokazolar ruxsat etilgan.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O‘zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Tarixiy savol» ko‘rsatuvining *Saljuqiylar va G‘aznaviylarga* bag‘ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

Atamalar izohi

☑ **Nizomulmulk** – davlatning, mulkning nizomi, tartibi, qonun-qoidasi ma’nosini anglatadi. O‘rta asrlarda musulmon davlatlarida hukmdorlar yonidagi yirik davlat arboblariga berilgan faxriy nomlardan biri bo‘lgan.

☑ **Kadxudo** – (qadimgi forscha) 1) dastlab katta oila – kat(...kent) boshlig‘i, uy sohibi, keyinchalik qishloq oqsoqoli; 2) hozirgi Eronda qishloq oqsoqoli; 3) el-yurt ichida so‘zi o‘tadigan, gapiga hamma quloq soladigan oqsoqol, sardor.

Savol va topshiriqlar

1. Saljuqiylar davlati inqirozining sabablari nimalardan iborat edi?
2. Sulton Sanjar shaxsiyatiga ta'rif bering.
3. Saljuqiylar va ularning vassallari o'rtasidagi munosabatlar qanday bo'lgan?
4. Xorazmshoh Otsiz va Sulton Sanjar munosabatlarining ijobiy va salbiy ko'rinishlariga izoh bering.
5. Saljuqiylar davlati boshqaruvining o'ziga xosliklari nimalardan iborat?
6. Saljuqiylar davlatida vazir mansabining boshqa davrlarga qaraganda nufuzi ortib ketishini qanday izohlaysiz?
7. Saljuqiylar davlati markazlariga qaysi shaharlar kirgan? Poytaxtlarchi?
8. Saljuqiylar davrida O'rta Osiyoda ijtimoiy hayot rivoji qay tariqa kechdi?
9. Nizomulmulk faoliyatiga baho bering.
10. Saljuqiylar davlati hududini zamonaviy xaritada belgilab ko'rsating.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.
2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. 1-kitob.T.: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Basan A. The Great Seljuqs: A history. Routledge. 2010.
4. Kaykovus. Qobusnoma. / Nashrga tayyorlovchilar: U.Dolimov, S.Dolimov. T.: Yangi asr avlodi, 2019.
5. Nizomulmulk. Siyosatnoma. / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar mualliflari Sh.Vohidov va A.Erkinov. T.: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. / Turk tilidan Ulug'bek Hamdam tarjimasi. T.: Yangi asr avlodi, 2021.

7. O‘zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas`ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

8. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild, T.:Info capital group, 2019.

9. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san`ati. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2018.

10. Абулфазл Муҳаммад ибни Ҳусайни Байҳақи. Таърихи Байҳақи. / Табдил, кириш ва изоҳлар муаллифи Сайфуллоҳ Мулложон. Душанбе: Бухоро, 2014.

11. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. Т.: Узбекистан, 2006.

12. Шарипов М. М. Этапы военно-политической деятельности государства Гуридов (1148-1215 гг.). Диссертация на соискание учёной степени кандидата исторических наук. Худжанд, 2021.

12-MAVZU. ANUSHTEGIN-XORAZMSHOHLAR DAVLATI



REJA:

12.1. Mavzuning manbalari va o‘rganilishi tarixi.

12.2. Anushtegin-xorazmshohlar davlatining shakllanishi.

12.3. Xorazmshohlar davlatining siyosiy tarixi va tashqi aloqalar.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Manba, asar, xalifalik, saljuqiylar, xorazmshohlar, Anushtegin, bekdili, tashtdorlik, turkiy gvardiya, Qutbiddin Muhammad, Otsiz, mustaqil, sulton, oltin tanga, hojib, qorluq, isyon, qoraxitoy, Movarounnahr, Xorazm, hokim, sulton, Xuroson, sulola, elchi, Takish, ismoiliylar, G‘ur, davlat, rais, ustod, vazir, iqto, shixna, saltanat, malik, Muhammad Xorazmshoh, xalifa an-Nosir, xutba, Usmonxon, Xon, Sulton, sulola, xutba, Hulvon viloyati.

12.1. MAVZUNING MANBALARI VA O‘RGANILISHI TARIXI

Xorazmshoh Anushteginiylar davlati tarixini o‘rganishda bir qator manbalar mavjud. Ibn al-Asirning (1160-1234) «Al-komil fi-t-tarix» («Mufassal tarix»), Rashididdin Fayzulloh Hamadoniyning (1247-1318) jahon tarixiga bag‘ishlangan «Jome ut-tavorix» («Tarixlar

majmuasi»), Shihobiddin Muhammad Nasaviyning katta ahamiyat kasb etuvchi «Siyrat us-sulton Jaloliddin Mankburni» («Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati»), Hamidulloh Qazviniyning (1281-yil tug'.) «Tarixi guzida» («Saylangan tarix»), Abul Fidoning (1273-1257) «Muxtasar tarix al-bashar» («Insoniyatning qisqacha tarixi»), Sharofuddin Abdulloh Vassofning «Tarixi Vassof», Minhojiddin Juzjoniyning «Taboqati Nosiriy» («Nosirga atalgan tabaqalar») asarlari shular jumlasiga kiradi. Alouddin Otamalik Juvayniyning (1226-1283) «Tarixi Jahonkushoy» asari ham bu davr tarixini o'rganishda muhim manbalardan sanaladi.



Alouddin Otamalik Juvayniy Mo'g'uliston, Turon hamda Eronning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan hikoya qiluvchi asari bilan shuhrat topdi. Kitob 1260-yili yozib tamomlangan. «Tarixi jahonkushoy» asari uch qismdan iborat: 1) Mo'g'ullar, ularning Chingizxon davridagi istilochilik yurishlaridan to Guyukxon (1246-1249) davrigacha, shuningdek, Jo'chixon, Chig'atoyxon va avlodlari tarixi; 2) Xorazmshohlar va Xurosonning mo'g'ul hukmdorlari davridagi (1258-yilgacha) tarixi; 3) Eronning 1256-1258-yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, Ismoiliylarning diniy-harbiy uyushmasi va Ismoiliylar davlati (1090-1258) tarixi. Ismoiliylar tarixi Maymanduzdagi kutubxonada topilgan asarlar, xususan, ismoiliylarning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan Hasan Sabohning (taxminan 1055-1124) hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi «Sarguzashti sayyidmo» («Sayidimizning sarguzashtlari») nomli kitob asosida yozilgan. O'rta Osiyo tarixi uchun «Tarixi jahonkushoy»ning I–II qismlari alohida ahamiyatga ega. Asarning Xorazm va Xorazmshohlar tarixiga oid qismi (II qism) bizgacha yetib kelmagan

«Mashorib at-tajorib va g‘avorib al-g‘aroib» («Imtihonni salqinlashtirish joyi va ajoyib narsalarning yuqori darajasi»), Faxriddin Roziyning (1210-yili vafot etgan) «Jome’ ul-ulum» («Ilmlar majmuasi») kitoblari asosida yozilgan. Movarounnahr va Sharqiy Turkiston tarixi, shuningdek; Mo‘g‘uliston haqidagi xabarlar, asosan, muallifning shu mamlakatlarga qilgan sayohatlari vaqtida to‘plangan ma’lumotlar asosida yozilgan.

Bilib oling!

Asarning II qismi to‘gridan to‘g‘ri Xorazmshohlar davlati tarixiga oid sanaladi. Ushbu asar anushteginiylarning kelib chiqishi, Xorazmshohlar davlati siyosiy taqdiri va inqirozi to‘g‘risida muhim ma’lumotlar mavjudligi bilan ajralib turadi.

Xorazmshoh-anushteginiylar davlati tarixi XX asr tarixshunosligida ham chuqur o‘rganilganligini ta’kidlash lozim. Rus olimlaridan V.V.Bartold, S.P.Tolstov, A.Ya.Yakubovskiy, S.Volin va boshqalar yuqorida ta’kidlangan masalaning u yoki bu jihatlariga e’tibor bergan holda o‘z asarlarida tegishli masala mohiyatini yoritib berganlar. Shubhasiz, xorazmshohlar tarixi xususidagi fundamental asar bu ozarbayjonlik sharqshunos olim Z.Bunyodov qalamiga mansub «Anushtagin xorazmshohlar davlati» kitobi hisoblanadi. Muallif o‘z asarida xorazmshohlar davlatining paydo bo‘lishi, taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy hayot, iqtisodiy munosabatlar, madaniyat masalalarini mukammal tarzda yoritib beradi.

Ushbu asarni o‘zbek kitobxonlari 1998-yildagi tarjima asnosida o‘z ona tillarida o‘qishga muyassar bo‘ldilar. Mustaqillik yillarida mavzuga oid adabiyotlar ichiga Azamat Ziyoning 2001-yili chop etilgan «O‘zbek davlatchiligi tarixi» asarini alohida ta’kidlash joiz. Mazkur adabiyotda muallif o‘zbek davlatchiligi tarixida Xorazmshoh-anushteginiylar davlatining tutgan o‘rni va rolini manbalar tahlili asosida ko‘rib chiqishga muvaffaq bo‘lgan. Mavzuga oid masalalarning ma’lum jihatlari qator xorijiy olimlar asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Ular

orasida K.Bosvort, Ibrohim Qafas o'g'li, J.A.Boyl, K.K.Valker, R.Krausset, D.Martin, R.Maxapandita, E.Knoblich, O.Tonariy, G.Brokgelman B.Shpuler, A.Xartmann, F.Daftariy, J.Kolbas, D.Siyoqiy. D.Timoxin va boshqalarning asarlarini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

ASOSIY VA BIRLAMCHI MANBALAR

Muallif	Asar nomi	Yozilish sanasi	Yozilgan joyi
Ibn al-Asir (1160-1234)	Al-komil fit-tarix	1231	Shom (Suriya)
Shihobiddin Nasaviy (vaf. 1249)	Siyrat us-sulton Jaloliddin Menkburni	1241	Halab (Suriya)
Otamalik Juvayniy (1226-1283)	Tarix Jahonkushoy	1260	Iroq
Rashiduddin Fazlulloh (1247-1318)	Jome' ut-tavorix	1301-1311	Tabriz

12.2. ANUSHTEGIN-XORAZMSHOHLAR DAVLATINING SHAKLLANISHI

Xorazm vohasida hukmronlik qilgan mahalliy sulolalar qadimdan xorazmshohlar umumiy nomi bilan yuritib kelinganlar. Masalan, III-X asrlarda afrig'iylar, 995-1017-yillarda ma'muniylar (Ma'mun I, Abulhasan Ali, Ma'mun II), 1017-1041-yillarda esa oltuntoshiylar (Oltuntosh, Horun, Handon) sulolalari xorazmshohlar unvoni bilan boshqaruv kursisida o'tirganlar. Ammo Xorazm doirasidan tashqariga chiqib, Turon hududlarida ot surib va bu bilan ham cheklanmasdan boshqaruvning saltanat darajasiga erishgan sulola bu anushteginiylardir.

Xorazmshoh-anushtaginiylar sulolasining asoschisi Anushtegin tarixchilardan Rashididdin, Hofizi Abro'larning yozishlariga qaraganda o'g'uzlarning turkiy *bekdili* urug'iga mansub bo'lib, yoshligida qul qilib sotilgan. Uni saljuqiy harbiy amirlaridan Izziddin O'nar Bilgitegin sotib olgan. Ushbu amir qul bolani saljuqiy sultonga taqdim etgan. Sulton Jaloliddin Malikshoh I (1072-1092) davrida Anushtegin saroyda ishonchli kishilar safidan joy olib, tez orada *tashtdorlik* (hukmdor hammomiga mas'ul) mansabini egallagan. Eng ishonchli kishilarga taqdim etiluvchi ushbu mansab egasi tez orada sultonning eng yaqin kishilaridan biriga aylanadi. Keyinchalik u «Xorazm mutasarrufi» mansabiga tayinlanib, unga Xorazm shixnasi (qal'a boshlig'i) unvoni beriladi. Saljuqiy Sulton Ruknіddin Berkiyoruq (1094-1104) davrida Xuroson hokimi bo'lgan Dodbek Habashiy ibn Oltuntosh (vaf. 1097-yil) Anushteginning xizmatlarini inobatga olgan holda uning o'g'li Qutbiddin Muhammadni Xorazm hokimi etib tayinlab, unga «xorazmshoh» unvonini beradi. Aynan shu yildan sulola tarixi ham boshlanadi.

Qutbiddin Muhammad (1097-1127) saljuqiylarning hokimiyat uchun kurashlarida faol qatnashgan. Jumladan, 1100-yili sulton Jaloliddin Malikshoh I ning o'g'li Sanjar tomonidan Xuroson hududlarini egallashda, unga qarshi isyonni bostirishda ishtirok etdi. Shuningdek, u 1118-yili Sanjar tomonida turib, uni sultonlik taxtiga o'tirishiga munosib hissasini qo'shdi. Diplomatik mahorat qobiliyatiga ega bo'lgan xorazmshoh Qutbiddin Muhammad turli nizolarni bartaraf etishda ham faol ishtirok etar edi. Xususan, Saljuqiylar sultoni Sulton Sanjarning (1118-1157) Samarqanddagi qoraxoniylar xoni Arslonxonga (1102-1130) qarshi harakatida Qutbiddin Muhammad vositachiligida ushbu nizo tinch yo'l bilan hal etildi. Bu esa xorazmshohning o'z davrida qanchalik nufuzi baland bo'lganligidan darak beradi. Qutbiddin Muhammad saljuqiylar dargohiga qaram edi. Har yili o'zi yoki o'g'li Otsiz orqali markazga viloyatdan undirilgan soliqni olib borib turardi.

Uning sadoqatli xizmatini e'tirof etgan Sulton Sanjar, xorazmshoh vafotidan so'ng hokimlik kursisini hech ikkilanmay uning 29 yoshli

o‘g‘li Al-Malik Abu Muzaffar Alouddin Jaloliddin – Otsizga (1127-1156) topshiradi.

Bilib oling!

Otsiz nomi qadimgi turkiylar orasida keng tarqalgan ismlardan bo‘lgan. Tarixiy manbalarda, jumladan, VIII asrga oid uyg‘ur manbalarida shunday nomga ega shaxslar uchraydi. Shuningdek, Saljuqiy Sulton Alp Arslonning Xorazmlik Otsiz ibn Uvak ismli sarkardasi ham mavjud bo‘lgan. Ibn Xalliqonning yozishicha, «Otsiz» ismining asosi «ot» – «ism» so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, «Agarda turklar xonadonida tug‘ilgan barcha farzandlari vafot etaversa, keyingi tug‘ilgan chaqaloqqa Otsiz ismini qo‘yishgan, bundan maqsad bolani zararli ruhlardan himoya qilish sanalgan».

Otsiz otasi singari saljuqiylar poytaxti Marvda ta’lim olgan, ilm ahlini qadrlovchi hukmdor bo‘lgan. U ulamo va olimlarga homiylik qilar, o‘zi ham forsiyda ruboiylar yozar, ko‘plab shoirlarning baytlarini ham yoddan bilar edi. Tarixiy manbalar Otsizni o‘z aholisiga g‘amxo‘r, adolatli, xalq hurmatiga sazovor, uning hukmronlik davri asosan osoyishtalikda o‘tganligini ta’kidlashgan.

Musulmon olamida katta ma’naviy nufuzga ega Bag‘dod xalifaligi saljuqiylar mavqeyi kuchayib ketishidan xavfsiragan holda xorazmshohlar bilan o‘zaro aloqani o‘rnatdi. Bag‘dod xalifasi al-Mustarshid (1118-1135) 1133-yili Sulton Sanjarga qarshi ittifoq tuzish va hamkorlik o‘rnatish maqsadida o‘z elchilarini Otsiz huzuriga jo‘natadi. Tabiiyki, bu hol saljuqiy sultonga maqbul emas edi.

Otsiz nomiga xalifa elchisining jo‘natilishi asnosida Sulton Sanjarga qarshi kurash masalasining ko‘tarilishi o‘zaro keskinlikning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Bu holat o‘z navbatida xalifalik tomonidan xorazmshoh Otsizning yuqori obro‘-e’tiborga molik hukmdor sifatida tan olinganligini ham bildirar edi. Saljuqiylarga bo‘ysunuvchi o‘zining o‘n yillik hukmronligi mobaynida Otsiz Xorazmni ichki va tashqi jihatdan mustahkamlashga katta e’tibor berdi. Yetarlicha kuch to‘plab,

o‘z hududini mustahkamlab olgan xorazmshoh endilikda qaramlikdan qutulish vaqti yetdi, deb hisoblagan holda ichki va tashqi siyosatda mustaqil harakat qila boshlaydi. Sulton Sanjar itoatiga bo‘ysunmagan holda Jand va Mang‘ishloq yerlariga yurish uyushtirib, bu hududlarni o‘z davlati tarkibiga kiritdi. Bu itoatsizlik esa o‘z navbatida Sulton Sanjarning 1138-yil oktyabrida Xorazm tomonga harbiy yurish qilishiga sabab bo‘ldi. Bu urushda Otsiz mag‘lubiyatga uchragan. Sulton Sanjar shu yo‘l bilan boshqa qaram sulolalarga ham tobelikdan chiqish uchun jazolanish muqarrarligini ko‘rsatmoqchi edi.

Otsiz mag‘lubiyatidan so‘ng Sulton Sanjar tomonidan Xorazm uning jiyani Sulaymonshohga iqto sifatida berildi. Oradan hech qancha o‘tmay, 1139-yilning fevralida Otsiz Xorazm aholisining qo‘llab-quvvatlashi hamda ko‘magi bilan hukmronlikni qaytarib oldi. Shundan so‘ng deyarli mustaqil ravishda vohada hukmronlik qilib, o‘z xatti-harakatlarida saljuqiylar sultoniga hisob bermadi. Jumladan, u Bag‘dod xalifasi al-Muqtafiy (1136-1160) bilan elchilik munosabatini o‘rnatib, o‘zini Xorazm va unga qo‘shib olingan hududlar hukmdori sifatida tan olishni so‘radi. Xalifalik tomonidan Otsiz mustaqil hukmdor sifatida tan olinib, unga xalifa al-Muqtafiy tomonidan «sulton» oliy martabasi berilganligi xususida farmon yetib keldi. Otsiz esa mustaqil hukmdorlik ramzi sifatida 1141-yildan o‘z nomi ostida *oltin tanga*lar zarb eta boshladi.

Qoraxitoylar bilan bo‘lgan jangda qoraxoniylar bilan ittifoqdagi Sulton Sanjarning yengilishi, uning eski shon-shuhrati va obro‘siga ancha salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Sulton, keyinchalik, Movarounnahrda o‘z hukmini qayta tiklashga harakat ham qilmadi. Mazkur holat xorazmshoh Otsizga ham qo‘l keldi. U 1141-yilning oktyabrida Sulton Sanjarga qarshi bosh ko‘tardi. Avval Saraxs, so‘ngra poytaxt Marvni ham egallashga muvaffaq bo‘ldi.

Sulton Sanjar xorazmshoh Otsizning mustaqil xatti-harakatlari uning davlat asoslariga tahdid sola boshlaganligini e’tirof etgan holda Xorazmga *ikkinchi* marta yurish qiladi. Bu safar ham Otsiz Sulton Sanjarga bo‘yin egib, sulh tuzishga qaror qildi.

Xorazmshoh Otsiz 1145-yilning oktyabrida Sirdaryoning Orolga yaqin hududi Jandni beruxsat ravishda, deyarli jangsiz tarzda egalladi. Otsizning mazkur xatti-harakati sulton tomonidan salbiy tarzda qabul qilindi. Otsizning «isyonkorona» deb hisoblangan harakatlari uchun jazolanishi lozim degan qaror bilan sulton 1147-yil noyabrida xorazmshohga qarshi o'zining *uchinchi* harbiy yurishini boshladi. Xorazm qal'alari, jumladan, Hazorasp ikki oy davomida qamal qilindi. Otsiz darvesh Ohu-po'sh vositachiligida sulh bitimini imzolashga muvaffaq bo'ladi. Shunday bir murakkab vaziyatda 1153-yilgi o'g'uzlar g'alayoni Saljuqiylar saltanatiga hal qiluvchi zarba bo'lib xizmat qildi. Isyon natijasida Sulton Sanjarning o'zi ham asir olindi. Bunday bir vaziyatda xorazmshoh Otsiz saltanat uchun mas'uliyatni o'z bo'yniga olish, qolaversa, shu yo'l bilan hududni kengaytirib, davlatni mustahkamlash maqsadida Amudaryoning yuqori oqimidagi Omul qal'asini egallashga harakat qildi. Shu bois, imkon topib, asirga tushgan sultonga chopar yo'lladi.

Bilib oling!

Asirlikdagi keksa Sulton Sanjar o'z siyosiy tajribasi hamda mavjud ahvolidan kelib chiqqan holda Omul qal'asini olmoqchi bo'lib chopar jo'natgan Otsizga quyidagi javobni yuboradi: «*Men senga faqat Omul emas, boshqa juda ko'p qal'alarni ham beraman, faqat shu shart bilan-ki, bizni qutqarish uchun o'g'ling El Arslon boshchiligida bu yoqqa lashkar yuborasan*».

Xorazmshoh Otsiz o'z davlatini qaramlikdan tamomila xalos etish, saljuqiylar hukmronligini tugatishni asosiy maqsadi deb hisoblar edi. Lekin, o'g'uz qabilalarining kuchaya borishi, saltanatda yuzaga kelgan tahlikali vaziyat, o'zaro boshboshdoqlik Otsizning bu xavfga qarshi turishiga sabab bo'ldi. Shu bois ham xorazmshoh Otsiz Seyiston hukmdori Tojiddin Abul Fazlga, G'ur podshohi Alouddin Husaynga, Mozandaron maligi (hokimi) Abul-fath Rustamga maktublar jo'natib, barchani o'zaro notinchliklarni tugatib, Sulton Sanjarni asirlikdan

qutqarib, o‘g‘uzlar solayotgan xavfga chek qo‘yishga da’vat etdi. Shunday bir paytda saljuqiylar taxtiga Sanjarning jiyani Ruknniddin Mahmudxon o‘tirdi. O‘zaro nizo-parokandalik yanada kuchayib ketmasligi uchun Otsiz yangi sultonga o‘z xayrixohligini bildirdi. Mazkur holat yana bir karra Otsizning siyosiy mahoratidan darak berar edi.

Saljuqiylarning yangi hukmdori sulton Mahmudxon xorazmshoh Otsizning mintaqada tutgan mavqeini tushungan holda «o‘g‘uzlar isyoni»ga qarshi kurashda undan harbiy yordam so‘radi. Xorazmshoh Otsiz 1156-yilning aprel oyida katta o‘g‘li El Arslon bilan isyonni bostirish hamda Sulton Sanjarni asirlikdan qutqarish maqsadida o‘z qo‘shiniga boshchilik qilgan holda Xurosonning Shahriston degan joyiga qadar yetib keldi. U yon-atrofdagi hokimliklarga murojaat etib, birgalikda sa’y-harakatlarni amalga oshirishga da’vat etdi. Shunday bir vaqtda Sulton Sanjarning o‘g‘uzlar asirligidan qochishi vaziyatni bir muncha o‘zgartirib yubordi. Otsiz Sulton Sanjarga maktub jo‘natib, uning ozodlikka chiqishi bilan tabrikladi hamda unga o‘z sadoqatini izhor etdi.

Bilib oling!

Bu voqeadan ko‘p o‘tmay Xorazmshoh Otsiz Xurosonning Habushon mavzeida turgan vaqtida og‘ir dardga chalinib qoldi va 1156-yilning 30 iyul kuni 61 yoshida olamdan o‘tdi. Ta’kidlash joizki, aslida Otsiz to‘laqonli ravishda Anushtegin-xorazmshohlar davlatining asoschisi hisoblanadi. U Xorazm davlatining xalqaro aloqalarini boshlab berdi, davlat nufuzi va obro‘sini ko‘tarish jarayoniga zamin yaratdi.

12.3. XORAZMSHOHLAR DAVLATINING SIYOSIY TARIXI VA TASHQI ALOQALAR

Otsiz vafotidan keyin bo‘lgan hokimiyat uchun sa’y-harakatlarda uning katta o‘g‘li El Arslonning qo‘li baland keldi (1156-1172). El Arslon 1156-yilning 22-avgust kuni Xorazm taxtiga o‘tirdi. Taxtga



Xorazmshoh El Arslonning taxtga o‘tirishi marosimi.
«Jome at-tavorix» kitobidan.

o‘tirgan yangi hukmdor o‘z otasining siyosatini davom ettirishga harakat qildi. Shu bois janub – Xuroson hududiga katta e’tibor berdi. O‘z hokimiyatini mustahkamlash, nizo-parokandalikning oldini olish hamda davr taomiliga muvofiq Sulton Sanjarga o‘z itoatini bildirib, noma jo‘natdi. Shu davrda Saljuqiylar saltanati bir necha qismlardan iborat bo‘lib, ularning aksariyati faqat Sulton Sanjarni oliy hukmdor sifatida tan olar edi. Sulton Sanjar asirlik paytida sultonlik taxtiga o‘tirgan uning jiyani Mahmudxonni ko‘pchilik saljuqiy amirlar, harbiy sarkardalar oliy hukmdor sifatida tan olmasdilar. Shunday bir vaziyatda saljuqiylarning buyuk sultoni Sanjar 1157-yilning may oyida vafot etdi. Sulton Sanjar ta’siri ostida bo‘lgan Movarounnahrda saljuqiylar hukmronligi barham topdi.

Odatda xorazmshohlar saljuqiy sultonlariga murojaatlarida o‘zlarini «banda», ya’ni «qaram», «qulingiz» deya murojaat etgan bo‘lsalar, endilikda El Arslon ularga nisbatan o‘z maktublarida «muxlis» (samimiy do‘st) atamasini ishlata boshladi. Bu bilan xorazmshoh o‘zining bundan buyon saljuqiylar hukmida emasligini ham ta’kidlagan edi. Sulton Sanjar vafotidan keyin saljuqiylar ichida

o‘zaro nizo va parokandalik yanada kuchaydi. El Arslon ham Xuroson mulklari uchun kurashga tortildi. Tez orada Xurosondagi Jurjon va Dehiston hududlari El Arslon ta’sir doirasiga o‘tdi.

1167-yili Xorazmshoh tomonidan Bayhaq, Sabzavor, so‘ngra katta ahamiyatga molik Nishopur shahri egallandi. Xorazm qo‘shini Iroq saljuqiylariga zarba berib, Ozarbayjonga qadar kirib bordi. El Arslon qoraxitoylardan aziyat chekkan qarluqlarga yordam bera turib, Movarounnahr ishlariga ham aralasha boshladi. Natijada 1171-yili qoraxitoylar qo‘shini Amudaryodan o‘tib Xorazm yerlariga bostirib kirdi. Davlat xavfsizligi, kuchlar notengligini chamalab ko‘rgan El Arslon suv to‘g‘onlarini ochib, poytaxt Gurganj yaqinidagi yerlarni suvga bostirishga farmon berdi, o‘zi esa Omul qo‘rg‘oni tomon chekindi. Qoraxitoylar bilan jangda xorazmshoh xastaligi tufayli qatnasha olmadi. Jangda qoraxitoylar g‘olib kelib, qarluqlar sardori Ayyorbekni asirga oldilar. Kasalligi kuchaya borgan El Arslon Gurganjga qaytib keldi va 1172-yilning 17-mart kuni vafot etdi. Xorazmshoh El Arslon vafoti arafasida katta o‘g‘li Alouddin Takish va kichik o‘g‘li Sultonshoh Mahmud orasida taxt uchun kurash yuzaga keladi.

Bilib oling!

Takish yordam so‘rab qoraxitoylar malikasi *Chen-Tyan*ga (1164-1177) murojaat qildi. Takishning keyinchalik ham yillik o‘lpon to‘lab turishi xususidagi va’dasini olgan qoraxitoylar malikasi *Fuma* boshchiligidagi qo‘shinni Xorazmga yubordi. Qoraxitoylar qo‘shini kelayotganini eshitgan Sultonshoh tezda poytaxtni tark etadi. Akasiga qarshi kurashda Sultonshoh G‘ur sultoni G‘iyosiddindan harbiy ko‘mak kuchi olishga erishdi. Ikkinchi tomondan Sultonshoh qoraxitoylarga murojaat qilib, Takishga qarshi kurashda yordam kuchi so‘radi. Takish bilan munosabatlari buzilgan qoraxitoylar malikasi Sultonshoh tomonidan turib jang qilish uchun o‘z qo‘shinini Xorazmga jo‘natdi.

Sultonshoh qoraxitoylardan bir qism qo'shin olishga erishib, ular yordamida Xuroson shaharlarini zabt etdi. Xurosonda yuzaga kelgan vaziyat Takish davlati uchun xavf tug'dirar, shu bois ham u avval Sultonshohga qarshi emas, balki Xurosonda muhim ahamiyatga ega Nishopurni egallashga harakat qildi. Nishopur Takish tomonidan qaytarib olingach, Nishopurga xorazmshohning o'g'li Nasriddin Malikshoh hokim etib tayinlandi. Garchi Xurosonning anchagina qismi xorazmshohlar davlati tarkibiga kirgan bo'lsa-da, ammo Marv, Sabzavor va unga tutash yerlar hali ham Sultonshoh ixtiyorida edi. Takish vayron bo'lgan Nishopur devorlarini tiklab, o'z qo'shini bilan Kaspiy dengizi janubiy sarhadlaridagi Mozandaronga yurish qildi.

1188-yilning bahorida bir qator xurosonlik obro'-e'tiborli zotlar vositachiligida Sultonshoh va Takish o'rtasida sulh bitimi imzolandi. Aksariyat amirlar Takish tomoniga o'tdilar. Tabiiyki, bunday vaziyatda deyarli qo'shinsiz qolgan, yon-atrofidagi tayanchlaridan mahrum bo'lgan Sultonshoh Takish tomonidan taqdim etilgan shartlarga so'zsiz bo'ysunishdan boshqa iloji yo'q edi. Sultonshohga Xurosondagi uch viloyat taqdim etildi. Mazkur bitimdan keyin 1189-yil 4-iyulda Xurosondagi Rodkon degan joyda rasman sulton maqomida Alouddin Takishning taxtga o'tirish marosimi o'tkazildi.

Takishning Xurosondan poytaxt Gurganjga qaytib ketishi bilan Sultonshoh yana o'z isyonkorona faoliyatini boshladi. U endilikda xorazmshohlar yuksalishidan xavfsirayotgan G'uriylar davlati, qoraxitoylar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishga harakat qildi. Ular yordamida Xuroson yerlariga yurishlarni amalga oshirdi, Takish yo'q vaqtida hatto Gurganjni ham qamal qildi. Sulton Alouddin Takish o'z isyonkor ukasini batamom bo'ysundirish maqsadida 1193-yilning bahorida yana Sultonshoh ustiga yurish boshladi. 1193-yil 19-sentyabr kuni boshiga tushgan bu ko'rgulikni ko'tara olmagan Sultonshoh Mahmud vafot etdi. Shu tariqa, aka-ukalar o'rtasida davom etgan yigirma yillik kurash o'z nihoyasiga yetdi.

Takish asosiy raqibini mag'lub etgach, 1193-yildan boshlab tashqi siyosat borasida dadil harakat qilishni boshladi. U avvalo, o'z shimoliy-sharqiy sarhadlarini mustahkamlash borasida Jand hududiga alohida


e'tibor berdi. Takish Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi muhim istehkomlardan biri Barchinlig'kent, so'ngra Raboti To'g'on shaharlarini o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi. Buxoroda o'z nomiga xutba o'qittirib, Movarounnahrga ham ta'sirini yoya boshladi.

1194-yil mart oyining boshlarida Takish Iroqqa, saljuqiy Sulton To'g'rulga qarshi yurish boshlaydi. Jangda Iroq saljuqiylarining so'nggi vakili To'g'rul III mag'lub bo'lib, uning o'zi xorazmshohlar qo'shini tomonidan o'ldirildi. Uning mag'lubiyatidan so'ng Takish Hamadon va unga tutash yerlarni ham qo'lga kiritdi. Sulton Alouddin Takish tomonidan Iroq Ajamining egallanishi, mazkur yerlarning bir qismi tegishidan umidvor bo'lgan xalifa an-Nosir bu holdan norozi bo'ldi. Xorazmshoh Takishni xalifaga itoat etishi xususidagi elchilik sa'y-harakati esa samarasiz tugadi. Tez orada xorazmshoh Takish va xalifa an-Nosir o'rtasidagi munosabatlar tamomila uzildi.

Shundan so'ng xalifa qo'shini Iroq Ajamini egallab olishga muvaffaq bo'ldi. Xorazmshohlar davlati tarkibiga kirgan yerlardan Bag'dod xalifaligi qo'shini chiqib ketishi to'g'risidagi talab xalifa an-Nosir tomonidan inobatga olinmadi. Xalifa qo'shini shimoliy Erondagi Ray viloyatini ham qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Bilib oling!

Xorazmshoh Takish xalifa bilan o'zaro elchilik almashuvi, muzokaralar hech qanday ish bermasligini anglab yetgan holda hamda o'z davlati manfaatlarini himoya qilish maqsadida Bag'dod xalifaligiga qarshi qat'iy harakatlarni boshladi. 1196-yilda xalifa qo'shinlari tor-mor etilib, Hamadon, Ray, Isfahon va unga tutash yerlar yana Xorazmshohlar davlati ixtiyoriga o'tdi. 1198-yili Takish Kirmondagi nizo-fitnalarga chek qo'yib, mazkur hududni ham o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi. Takish o'z hukmron-ligining so'nggi yillarini yaqin va O'rta Sharqda xavfsizlik va ma'naviyatga tahdid soluvchi *ismoiliylar* diniy guruhiga qarshi kurashda o'tkazdi. U Eronning Daylam viloyatida joylashgan ismoiliylarning ikkinchi muhim qal'asi Al-Qohira (Arslon Kushoni)ni qo'lga olishga muvaffaq bo'ldi.



Sulton Takish maqbarasi (Ko'hna Urganch, Turkmaniston)

Sulton Alouddin Takish 1200-yil Xurosonning Shahriston degan joyida vafot etdi. Uning jasadi poytaxt Gurganjga olib kelinib, o'zi tomonidan qurdirilgan katta madrasa qoshidagi maqbaraga dafn qilindi.

Xorazmshoh Takish tomonidan qoldirib ketilgan ulkan davlat uning vorisi Alouddin Qutbiddin Muhammad (1200-1220) tomonidan davom ettirildi. 1200-yil 3-avgust kuni poytaxt Gurganjda Xorazmshohlar davlatining yangi sultoni Qutbiddin Muhammad tantanali ravishda taxtga o'tirdi. Xorazmshoh Alouddin Qutbiddin Muhammad o'z hukmronligining dastlabki davridanoq ichki va tashqi siyosat bobida qator muammolarga duch keldi. Mozandaronda Husomiddin Ardasher Astrobodgacha yerlarni egallab, mazkur hududlardan xorazmlik qo'shinlarni haydab chiqardi. Iroqi Ajamda ham vaziyat og'irlashib, mazkur hududning ham yangi sulton qo'lidan chiqib ketish ehtimoli kuchaydi. Xorazmshoh Muhammad bunday vaziyatda Xurosondagi ahvol ham keskinlashishi mumkin deya hisoblab, ukasi Tojiddin Alishohni Iroqi Ajam markazi Isfahondan chaqirib olib, uni Xuroson noibi etib tayinladi.

Tojiddin Alishohning Iroqdan ketishi bu yerdagi mahalliy hokimlarning ajralib ketish xavfini kuchaytirib yubordi. Shuningdek, Nishopurning sobiq hokimi, o'zboshimchaligi bois lavozimidan olingan Hinduxon esa avval Marvda isyon ko'tarmoqchi bo'ladi, so'ngra esa G'ur sultoni huzuriga qochib, undan yordam so'raydi. G'ur sultoni G'iyosiddin G'uriy vaziyatdan foydalanib qolish maqsadida Hinduxonga yordam berishga qaror qildi. Shu maqsadda u 1201-yilning fevral oyida katta qo'shin bilan Marvni egallaydi. Marv endilikda G'ur sultoniga qaram Hinduxon qo'liga topshirildi. Tez orada G'uriylar qo'shini tomonidan Xurosonning Saraxs, Niso, Obivard, Tus shaharlari ham egallandi. Hatto, G'iyosiddin G'uriy Xurosonning ma'muriy markazlaridan biri bo'lgan Nishopurni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Bilib oling!

Xorazmshoh Muhammad 1201-yilning avgustida kutilmaganda Hirotni qurshab oldi. Hirot 40 kun qamal qilinsa-da, uni ishg'ol etishning iloji bo'lmadi. Shu payt Hindistondan o'z qo'shini bilan yetib kelgan G'iyosiddinning ukasi Shahobiddin G'uriy akasini mag'lubiyatdan saqlab qoladi. Shundan so'ng xorazmshoh Marv, Nishopur, Saraxs yerlarini qayta egallashga muvaffaq bo'ldi. 1203-yilning boshida G'ur sultoni G'iyosiddin G'uriy vafot etadi.

Akasining o'rniga taxtga chiqqan Shahobiddin G'uriy qayta Xorazm tomon yurishga otlandi. Qorasuv anhori bo'yida xorazmshohlar qo'shiniga zarba bergan Shahobiddin boshchiligidagi g'uriylar qo'shini poytaxt Gurganjni qurshab oldi. Ayni paytda Xorazmshohlarning murojaatiga ko'ra, qoraxitoylar xoni Huyurxon tomonidan yuborilgan qo'shin Andhudda Shahobiddin G'uriy qo'shiniga qaqshatqich zarba berdilar. Natijada Shahobiddin G'uriy to'liq mag'lubiyatga uchradi.

Ko'p o'tmay, Shahobiddin G'uriy o'zaro kurashlar qurboniga aylanib, 1206-yilning martida o'ldirildi. Sultonning o'ldirilishi G'uriylar davlatining yemirilishidan darak berar edi. Tez orada

g'uriylarga xizmat qilgan noib va amirlar turli hududlarda o'z hukmronliklarini o'rnata boshlaydilar. Shunday bir vaziyatda o'zini g'uriylarning yangi sultoni deb e'lon qilgan Mahmud qo'lida bir paytlar g'uriylarga bo'ysungan hududlarning bir qismi qoldi, xolos. Xorazmshoh g'uriylar saltanati zaif holatga tushib qolganligidan foydalanib, tez orada Balx, Hirot, keyinroq, Mozandaron, Seyistonni ham qo'lga oldi. G'uriylar sultoni Mahmud xorazmshoh Muhammad talabiga ko'ra o'zini xorazmshohlar davlatining noibi deb e'lon qildi. Shu tariqa, xorazmshoh yo'qotilgan yerlarning asosiy qismini qaytib qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Movarounnahrda shu davrga kelib ancha murakkab siyosiy ahvol yuzaga kela boshladi. 1206-yili Buxoroda sadr diniy unvonidagi hokimi Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulazizning soliq siyosatiga qarshi qaratilgan asli savdogarning o'g'li bo'lmish qalqon yasovchi hunarmand Sanjar isyon ko'tardi. O'zini hokim sifatida Malik Sanjar deb nomlagan qo'zg'olonchilar rahbari Buxorodagi «e'tiborli kishilar»ni haydab chiqarib, ularning mol-mulkini musodara etdi. Sadr o'zining siyosiy homiysi bo'lgan qoraxitoylar go'rxoni oldiga najot so'rab borgan, ammo undan Buxoroni idora qilish huquqi yozilgan yorliqdan boshqa hech narsa ololmagan. Bu orada Malik Sanjar bir qasr qurdirishga ulgurgan. Juvayniyning bergan ma'lumotiga ko'ra, bu qasr keyinchalik «Malik Sanjar qasri» deb atalgan. Malik Sanjar bu qasrdan turib, chamasi shaharning boylari va zodagonlariga qarshi tadbirlarni amalga oshirgan. Shundan keyin Buxoro sadri unga qarshi kurashda xorazmshohdan yordam so'radilar.

Janubdagi muammolarni muvaffaqiyatli tarzda yechgan xorazmshoh Muhammad Movarounnahr ishlariga aralashishni boshlaydi. Xususan, 1207-yil u Buxoroga yurish qilib, uni egallashga muvaffaq bo'ladi. Malik Sanjar isyoni bostiriladi, uning o'zi qo'lga olinib, Xorazmga olib ketilgan. Movarounnahrning asosiy shaharlaridan biri – Buxoroning qo'lga olinishi xorazmshoh mavqeining yanada o'sishiga sabab bo'ldi. Movarounnahr qoraxoniylari o'zlarini xorazmshohlar vassaliga aylanganliklarini tan oldilar.

O‘zaro parokandalikka chek qo‘ygan xorazmshoh Muhammad oldida shu vaqtdagi uning asosiy dushmani – qoraxitoylarga qarshi kurash endilikda asosiy maqsad bo‘lib qoldi. Bu paytga kelib sultonning mavqei shunchalik mustahkamlandiki, endilikda bir necha o‘n yillardan buyon O‘rta Osiyodagi siyosiy vaziyatga ta’sir ko‘rsatib kelayotgan qoraxitoylarga hal qiluvchi zarba berish vaqti yetgan edi.

Ma’lumki, Otsiz hukmronligi davridan boshlab har yili xorazmshohlar qoraxitoylarga tegishli hajmda o‘lpon to‘lab turishar edi. 1209-yili sulton xorazmshoh Muhammad huzurida navbatdagi o‘lpon haqi uchun kelgan qoraxitoylar elchisining surbetlarcha harakati sulton poymonasini to‘ldirdi. Elchi qatl etilib, qoraxitoylarga qarshi jangga zudlik bilan tayyorgarlik ko‘rildi. Butun saltanatda qoraxitoylar jabr-zulmiga qarshi targ‘ibot ishlari boshlandi. Qoraxitoylar tomonidan ezilib kelayotgan Movarounnahr aholisi uchun xorazmshohlar qo‘shini xaloskorlar sifatida kutib olindi. Tez orada xorazmshoh qo‘shini Sirdaryodan kechib o‘tib, *Ilamish* dashtida *Tayangu* boshchiligidagi qoraxitoylar navkarlari bilan to‘qnashdi. 1210-yil sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan Ilamish dashtidagi jangda qoraxitoylar mag‘lub bo‘ldilar. Tayanguning o‘zi ham asirga olindi. Butun Sirdaryo bo‘ylaridagi yerlar, Farg‘onaning O‘zgan, O‘tror va unga tutash barcha yerlari ham sulton davlati hududiga qo‘shib olindi. Shu tariqa, butun Movarounnahr o‘lkasi sulton qo‘liga o‘tdi. Uning barcha shahar va qishloqlariga sulton o‘z kishilarini hokim, shixna (komendant) lavozimlariga tayinladi.

Xorazmshoh Muhammad yuqorida ta’kidlanganidek, qoraxitoylarni mag‘lub etganidan so‘ng qoraxoniylar xoni Usmonxon unga qaramlikni tan oldi. Sultonning qizi bo‘lmish Xon Sulton unga turmushga chiqdi. Xorazmshoh bilan birga uning kuyovi Usmonxon ham Gurganjga kelgan va poytaxtda bir yil qolishiga to‘g‘ri keldi. U Samarqandga qaytib ketmoqchi bo‘lgan, ammo xorazmshohning onasi Turkon Xotun uni o‘z huzurida ushlab turgan. Sababi – turkiy odatlarga ko‘ra, yosh kuyov o‘z uyiga faqat bir yil o‘tgandan keyingina ketishi mumkin bo‘lgan. Usmonxon, keyinchalik, Samarqandga qaytgach, shaharga xorazmshon tomonidan shixna sifatida qo‘yib ketgan Do‘rt-Abo shahar xalqiga jabr-zulm qilganligi sababidan Usmonxon uni va

xorazmiy harbiylarni qatl etgan. Jasadlarni esa tilka-pora qilib, ko‘chalar, bozorlar uzra osib qo‘ydirgan. Shundan keyin Usmonxon xorazmshohlar qaramligidan voz kechib, qoraxitoylarga shaharni topshirishni ma’lum qilib, go‘rxonga o‘z elchilarini yuborgan.

Bilib oling!

Sulton bundan qattiq g‘azablanib, o‘z qo‘shini bilan Samarqand ustiga yurish qildi. Qoraxoniylar xoni Usmonxon va uning barcha qarindoshlari Xon Sultonning talabi bilan qatl etildi. Qoraxoniylarga aloqador barcha kishilar o‘z oilalari bilan o‘limga mahkum etildilar. Qoraxoniylar sulolasining umri shu tariqa 1212-yili o‘z nihoyasiga etdi.


Sulton shundan so‘ng o‘z e’tiborini yana janubga – Xuroson, Eron tomonga qaratdi. Fors Iroqi (yoki Iroqi Ajam – hozirgi g‘arbiy Eron yerlari) da ichki vaziyat bir necha yillar davomida keskinlashib, o‘zaro kurashlarda Ozarbayjon otabeklari, Bag‘dod xalifaligi, turli harbiy noib, sarkardalar faol ishtirok etar edilar. 1215-yil Iroqi Ajamda hokimiyatni olgan Sayfiddin O‘g‘ilmish sulton Muhammad xorazmshoh nomini xutbaga qo‘shib o‘qitdi. Natijada Fors Iroqi qayta sulton izmiga o‘tdi. Keyinchalik, Xorazmshoh Eronning Kirmon viloyati, Mikron, so‘ngra Balujistonni ham egallashga muvaffaq bo‘ldi.

1216-yili G‘azna, G‘ur, Bomiyon yerlari qo‘lga olindi, sulton Muhammad xorazmshoh davlati Sind daryosi bo‘yiga chiqib, bevosita Hindiston bilan chegaradosh bo‘lib qoldi. Ammo shu yili Fors Iroqi (Iroqi Ajam)dagi xorazmshoh noibi Sayfiddin O‘g‘ilmish ismoiliylar rahbari Jaloliddin Hasan tomonidan o‘ldirildi. Ozarbayjon hokimi Otabek O‘zbek Isfahonni, Otabek Sa’d ibn Zangi Ray, Qazvin, Huvor va Simnon yerlarini egalladilar. Xorazmshoh bu voqeani eshitgach, 100 000 kishilik qo‘shin bilan Iroqi Ajamga yurish boshladi va bu yerni qayta egallaydi. Shundan so‘ng xorazmshoh Muhammad yerlari tarkibiga Arron, Ozarbayjon, Shirvon va hozirgi Dog‘istonning Kaspiy

bo‘yidagi Darband yerlari ham qo‘shib olindi. Sobiq Ozarbayjon Otabegi (hokimi) O‘zbek itoatgo‘ylik belgisi sifatida o‘zi panoh topgan tog‘li Farrozin qal’asini ham topshirdi. 1217-yilga kelib sulton Muhammad Xorazmshoh davlati tarkibiga Fors Iroqi (Iroqi Ajam), Mozandaron, Arron, Ozarbayjon, Shirvon, Fors, Kirmon, Mikron, Mang‘ishloq, Seyiston, G‘ur, G‘azna, Bomiyon yerlari, jumladan, Kaspiy dengizidan Hindistongacha bo‘lgan yerlar kirgan.


Bilib oling!

Sharqning eng buyuk hukmdoriga aylanib olgan Xorazmshoh Bag‘dod xalifaligiga o‘z ta’sirini o‘tkazishga harakat qila boshladi. 1204-yildan boshlab sulton Bag‘dod xalifaligidan xuddi saljuqiylar davridek uning oliy hukmronligini tan olishni talab qila boshladi. Manbalarda keltirilishicha, xalifaga quyidagi mazmundagi maktub yuborilgan: «*Sendan avvalgi xalifalar Alp Arslon, Malikshoh va yaqindagina o‘tgan Sanjar kabi saljuq sultonlari bilan qanday munosabatda bo‘lgan bo‘lsa, men bilan ham shunday munosabatda bo‘lgin. Bag‘dod va Iroqda bo‘ladigan ishlar mening izmimda bo‘lishi lozim, mening nomim bilan xutba o‘qishdan boshqa sening chorang yo‘q*». Bunga tabiiyki, xalifa an-Nosir rad javobini beradi. Sulton va xalifa o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tobora sovuqlashib bordi. Shihobiddin Nasaviyning yozishicha, 1212-yili xorazmshoh ulamo va imomlar yig‘ilishini o‘tkazib, ulardan xalifani taxtdan tushirish, asli kelib chiqishi Ali ibn Abu Tolib avlodidan bo‘lgan A’lo ul-mulk at-Termiziyni xalifa qilib ko‘tarish xususida fatvo chiqarib oladi. Bag‘dod xalifasi an-Nosirning o‘z vaqtida g‘uriylar sultoni hamda qoraxitoy amirlariga Xorazmshohga qarshi kurashga chorlovchi maktublarning Sulton Muhammadga ayon bo‘lishi bu munosabatlarga tamomila chek qo‘yishga sabab bo‘ldi.



Xorazmshoh-anushteginiylar davlatining yirik ilmiy-madaniy markazlari (rus tilida)

Muhammad Xorazmshoh 1217-yilning kuzida 400000 nafar atrofidagi o‘z qo‘shinini Bag‘dod yurishiga jo‘natdi. Xorazmshoh oldindan xalifalik yerlarini bo‘lib olishni, ularni kimlarga iqto sifatida bo‘lib berishni ham e’lon qilgan edi. Xorazmshoh qo‘shini Erondagi Hulvon viloyatining Asadobod darasiga yetganida to‘satdan havo sovib, uch kecha-yu uch kunduz qor yog‘di. Izg‘irin sovuq hammayoqni qamrab oldi. Jangchilar sovuqdan aziyat chekdi, otlar, tuyalarga qiron keldi. Bu ofatdan iztirobga tushgan sulton o‘z qo‘shinini orqaga qaytarishga buyruq berdi. 1218-yil martida sulton xalifa nomini xutbadan chiqarib tashlashni buyurdi. Sulton tez orada Samarqandni o‘z poytaxti deya e’lon qilib, 1218-yil aynan shu shaharga kelib o‘rnashdi.



Yulduz shaklidagi yaltiroq plitka (1211 – 1212-yillar)

☑ **Iroqi Arab, Iroqi Ajam** – O‘rta asrlarda Iroqning arablar yashaydigan janubiy-g‘arbiy qismiga nisbatan Iroqi Arab, arab bo‘lmagalar, asosan, forslar yashaydigan shimoliy-sharqiy hududidaga nisbatan Iroqi Ajam nomi ishlatilgan.

☑ **Ismoiliylar** – VIII asr o‘rtalarida arab xalifaligida shialik yo‘nalishida shakllanib, X-XI asrlarda Yaqin va O‘rta Sharqda keng tarqalgan diniy oqim tarafdorlari. Shialikning ba’zi tarafdorlari xalifalik taxtini egallagan abbosiylar bilan ma’lum darajada kelishib ish tutganlari tufayli abbosiylarga qarshi kurashni davom ettirish niyatida bo‘lgan bir guruh shialar imom Ja’far as-Sodiqning katta o‘g‘li Ismoil (oqimning nomi shundan) atrofiga jipslashdilar. Imom Ja’far Ismoilni vorislikdan mahrum etib, kichik o‘g‘li Muso al-Kozimni voris qilib tayinladi. Bundan norozi bo‘lgan Ismoil tarafdorlari uning vafotidan (762-yil) keyin, o‘g‘li Muhammad ibn Ismoilni imom deb tanidilar. IX asr oxirlariga kelib, ismoiliylik mustaqil diniy firqa sifatida tashkil topdi. Ular maxfiy uyushma yoki tashkilotlar tuzdilar. Bu tashkilotlar muayyan guruhlarning manfaatini ifoda etar edi. Ularning ta’limoti avvalo ikkiga: zohiriy (tashqi) — ochiq va botiniy (ichki) — maxfiy ta’limotlarga bo‘linadi.

☑ **Arron** – Kavkaz Albaniyasining VI-IX asrlardagi arabcha nomi; IX-X asrlarda Kura va Araks daryolari oralig‘idagi hudud (hozirgi Mil dashti).

☑ **Shirvon** – Shimoliy Ozarbayjonda, Kaspiy dengizining g‘arbiy sohilida joylashgan tarixiy viloyat.

☑ **Mang‘ishloq** – (qozoqcha: Маңғыстау түбегі) Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘og‘idagi yarim orol bo‘lib, hozirda Qozog‘istonning janubiy g‘arbiy chekkasida joylashgan.

☑ **Bomiyon** – Afg‘onistonning markaziy qismidagi qadimiy viloyat. Bomiyon I asrda barpo bo‘lgan, VII asrda uni arablar egallagan. X-XIII asr boshida Bomiyon dastlab g‘aznaviylar, so‘ng g‘uriylar, keyin xorazmshohlarga tobe bo‘lgan.

Savol va topshiriqlar

1. Xorazmda Ma'muniylar sulolasi davri va Oltintoshlar davri haqida nimalarni bilasiz?

2. Ma'muniylar sulolasi va Mahmud G'aznaviy o'rtasidagi munosabatlarga izoh bering.

3. Tashtdorlik qanday lavozim edi? Saljuqiylar saroyidagi Anushteginning Xorazmga qanday aloqasi bo'lgan?

4. Anushteginiylar sulolasi qanday qilib Xorazmda hokimiyat tepasiga keladi?

5. Sulton Sanjar va Alouddin Otsiz munosabatlari nima sababdan yomonlashib borgan?

6. Sulton Takish va Sultonshoh Mahmud o'rtasidagi siyosiy kurash qanday yakun topgan edi?

7. Sulton takish davrida Xorazmshohlar davlati tarkibiga qaysi hududlar qo'shib olingan?

8. Xorazmshohlar va Arab xalifalari orasidagi munosabatlarni izohlang.

9. Xorazmshohlar davlati, sizningcha, yetarlicha markazlashgan davlat edimi?

10. Murakkab boshqaruv tizimi Xorazmshohlar davlati rivoji uchun qanday vazifalarni bajargan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

2. Basan A. The Great Seljuqs: A history. Routledge. 2010.

3. Bunyotov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.

4. Juvayniy, Alouddin Atomalik. Tarixi jahongusho (Jahon fotihi tarixi) / Turk tilidan Rahimbek Nazar tarjimasi. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2015.

5. Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkilotlari, iqtisodiy va madaniy hayot. / Turk tilidan N. Rahim tarjimasi. – Urganch: Ogahiy, 2022.

6. O‘zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas’ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

7. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild, T.:Info capital group, 2019.

8. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san’ati. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2018.

9. Shihobuddin Muhammad Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsilotlari. / Kamol Matyoqubov tarjimasi. – T.: O‘zbekiston – Yozuvchi, 1999.

10. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. Т.: Узбекистан, 2006.

11. Шарипов М. М. Этапы военно-политической деятельности государства Гуридов (1148-1215 гг.). Диссертация на соискание учёной степени кандидата исторических наук. Худжанд, 2021

13-MAVZU. ANUSHTEGIN-XORAZMSHOHLAR DAVLATINING IJTIMOIY-SIYOSIY VA IQTISODIY TARIXI



REJA:

13.1. Xorazmshohlar davlatining boshqaruv tizimi.

13.2. Xorazmshohlar davlatining harbiy tizimi. Qozilik ishlari.

13.3. Xorazmshohlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Tayanch so'z va tushunchalar

Davlat boshqaruvi, devon, dargoh, vazir, Turkon Xotun, valiahd, majlis, devon al-jaysh, qoid xaras, mansab va unvonlar, tug'ro, dabbabat, lulul avbob, malik, harbiy, qo'shin, bosh qozi, shixna, qorluq, sadr, kubraviya, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, shaharlar, tanga-pullar, poytaxt, Samarqand, Gurganj, elchilik, Bahovuddin Valad, ilm-fan, madaniyat, musiqa.

13.1. XORAZMSHOHLAR DAVLATINING BOSHQARUV TIZIMI

Shuni ta'kidlash joizki, xorazmshohlar davlatida o'ziga xos diarxiya – ya'ni ikkihokimlik tizimi yuzaga kelgan edi. Garchi sulton Muhammad xorazmshoh mutlaq hukmdor, qudratli davlat egasi hisoblansa-da, aslida esa o'z onasi Turkon Xotun izmiga to'liq bo'ysunar edi. Ko'p holda sulton farmonlari onasi tomonidan bekor

ham qilinar edi. Sulton onasiga hech qachon qarshi chiqmas va bu holatni tarixchi Nasaviy quyidagicha izohlab, uni ikki sabab bog'lab ko'rsatgan edi: «birinchidan, onasining unga bo'lgan mehrini qadrlashi, ikkinchidan, mamlakatning barcha amirlari onasining urug'idan ekanligidir». Turkon Xotun «Jahon hokimi» degan laqabga ega bo'lib, uning shaxsiy muhri (tug'ro)da: «Ismat ud-dunyo vad-din Ulug' Turkon malika niso al-olamiyn» («Dunyo va uning pokdomoni, Ulug' Turkon, olam ayollarining malikasi») degan bitik yozilgan edi. Turkon Xotun poytaxt Gurganjda doimiy tarzda istiqomat qilar, o'z saroyi, ulkan mulklarga ega edi. Sulton bosib olingan yerlardagi eng boy hududlarni, eng yaxshi o'ljalarni onasiga taqdim etar edi. Malika saltanat, moliya ishlarini shaxsan o'zi boshqarar, tegishli tarzda farmonlar berar, noib va amaldorlar tayin etilishini nazorat qilar va hokazo. Turkon Xotun katta nabirasi Jaloliddin Manguberdini emas, balki uning ukasi Qutbiddin O'zloqshohni taxt vorisi etib tayinladi.

Chunki, O'zloqshohning onasi Turkon Xotunning urug'idan edi. Turkon Xotun boshqa urug'dan bo'lmish shahzoda Jaloliddinning onasi Oychechakni xush ko'rmas edi. Shuningdek, uning ko'rsatmasiga ko'ra vaqti-vaqti bilan asir olingan yoki garovda ushlab turilgan shaxslar, sobiq hokimlar qatl etib turilgan.

Bilib oling!

TURKON XOTUN QAYSI URUG'DAN?

Turkon Xotunning qaysi turkiy urug'ga mansubligi ham manbalarda va adabiyotlarda turli shaklda keltiriladi. Atomalik Juvayniy Turkon Xotunni qang'lilarlan desa, Minhojiddin Juzjoniy «Taboqati Nosiriy» asarida Turkon Xotunni qipchoq raisi Akranxonning qizi deb, Shihobiddin Nasaviy yemek qabilasining Bayot urug'iga mansub, deb fikr bildiradilar. Turk tadqiqotchisi Osman Yo'rulmaz qang'lilarning yashagan hududlari va bu hududda qang'lilar ichida eng mashhuri Uran urug'i bo'lganligi va Takashning Iroq Otabegi Pahlavonga yozgan maktubidagi «Uran

qabilasi bilan tuzilgan ittifoq....» to‘g‘risidagi maktublariga tayangan holda, Turkon Xotunni qang‘lilarning Uran urug‘iga mansub bo‘lgan degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. S.M.Axinjanov esa o‘z tadqiqotlarida Turkon Xotun Uran urug‘i sardori Alp Qoraning o‘g‘li Qiran (Kiran)ning qizi, deb ma’lumot beradi. Tadqiqotlarda Uran urug‘i yemek qabilasiga, yemek qabilasi esa qadimgi mo‘g‘ullarning Kay qabilasiga mansubligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. S.M. Axinjanov Kay qabilasi 847-yili kidanlar ta’qib qilgach g‘arbga siljigani hamda «Uran» etimologiyasi «ilon» nomini bildirishini, ilon qabila totemi ekanligini bildiradi. Shu bilan birga, S.M.Axinjanov yana Alouddin Atomalik Juvayniyning «Tarixi Jahongusho» asarida keltiriladigan «Qayr Bukuxon», «Qodir Bukuxon», Abu Umar Minhojiddin Juzjoniyning «Taboqoti Nosiriy» asarida keltirilgan «Qipchoqlardan bo‘lgan «Ikranxon»i ham bir odam deb ma’lumot beradi. Shihobiddin Nasaviyning Turkon Xotunni bayot urug‘idan deb bergan ma’lumotiga suyanib o‘g‘uzlardan bo‘lishi mumkinligini ta’kidaydi. Turkon Xotinning kelib chiqishi bo‘yicha olib borgan izlanishlari davomida D.Timoxin esa Turkon Xotunning kelib chiqishi bo‘yicha ma’lumot bergan uchta muallif (Shihobiddin Nasaviy, Atomalik Juvayniy, Minxojiddin Juzjoniy) qaydlarida tafovut yo‘qligini, hammasi bitta odam haqida turli xil nomlar bilan ataganligini isbotlaydi.

Yuqoridagi manbalar hamda ushbu manbalar asosida qilingan tadqiqotlar asosida Turkon Xotunni qang‘li qabilasining Uran urug‘iga mansub bo‘lgan, deb xulosa chiqarishimizga asos bo‘ladi. Uning (Turkon Xotunning) qabilaviy mansubligi Shihobiddin Nasaviy va Minxojiddin Juzjoniy hamda boshqa ayrim o‘rta asr musulmon tarixchilari tomonidan qipchoq deb keltirilishiga sabab, bu qang‘lilarning qipchoqlar konfederatsiyasiga kirib, umumiy konfederatsiya nomi – qipchoqlar deb keltirgan bo‘lishi mumkin. Ma’lumotlarga ko‘ra, Uran bu qang‘lilarning xon

urug‘i hisoblangan va bugungi kunda Uran etnonimi toponim sifatida Boshqirdistonda qishloq nomlari, kishi ismlarida uchrashi, Orenburg atroflarida gidronim sifatida Samara daryosining ikkita irmog‘i Katta Uran va Kichik Uran daryolari mavjud.

Bekzod Abdirimovning
«Xorazmiylar izini izlab» kitobidan.

Xorazmshohlar davlati boshqaruv tartibida an’anaviy dargoh va devon tizimiga rioya qilinar edi. Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruv idorasi «al-majlis ul-oliy al-faxri at-toji» deb nomlangan bo‘lib, uni vazir boshqargan. Vazir – mamlakatda sultondan keyingi eng yuqori mansabdor shaxs bo‘lgan. Vazir sultonning bosh maslahatchisi bo‘lib, bevosita unga bo‘ysungan. Vazir rasmiy marosimlarda, davlatlararo aloqalarda, mustamlakalar bilan olib boriladigan muzokaralarda xorazmshoh nomidan ishtirok etib, sulton va raiyat (fuqarolar) o‘rtasida vositachilik qilgan. Barcha davlat amaldorlari, jumladan, amirlar, beklar va harbiy boshliqlar vazirga bo‘ysungan. Vazirning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

– ashob ad-davanin yoki devonxonalar amaldorlarining boshlig‘i. Yuqori mansabli amaldorlarini ishga tayinlagan yoki ishdan bo‘shatgan;

– davlat amaldorlariga nafaqalar (arzak) va moddiy yordam (mavajib) joriy etish ishlarini boshqargan;

– davlat amaldorlarini hayot uchun zaruriy ozuqa va ashyolar bilan ta’minlanishini belgilagan;

– bojxona va xazina faoliyatini nazorat qilgan;

– sultonga muntazam ravishda hamrohlik qilgan, ba’zi paytlarda qo‘shin jo‘natib ularga boshchilik qilgan.

Xorazmshohlar davlatida vazirlik lavozimi katta hurmatga ega bo‘lib, o‘rta asr manbalarining birida vazir haqida shunday ma’lumot beriladi: «eng yuksak mahkama – vazorat (vazirlik) bo‘lib, barcha jamoat ishlari hamda odamlar hayotining to‘g‘ri yo‘ldan borishi u bilan aloqadordir, buning natijasida mamlakatning chiroyi va martabasi

ortadi, davlatda tartib va qonunchilik o'rnatiladi... Vazir – idora qilish qonunlarini biladigan, davlat kelajagini biladigan, hayotiy tajribaga boy, yaxshi ishlarga undovchi, shon-shuhrat va yutuqlarga yetaklovchi, fuqarolar ahvolidan ro'yi-rost xabardor qilib turadigan, ko'rsatmalariga to'la ravishda ishonish mumkin bo'lgan kishi bo'lishi lozim ...».

Vazirlarga sadr, dastur, xojayi buzurg kabi unvonlar berilgan. Vazir lavozimidagi shaxs o'zining siyohdoni (dovot) va ma'lum xil movutdan o'ralgan sallasi (dastor) bilan ajralib turgan. Manbalarda aytilishicha, vazir tashqariga chiqqan vaqtida uning oldida dastasi tilla bilan qoplangan to'rtta nayzalik kishi yurib borgan. Vazirlar aksariyat arab va fors tillarining bilimdonlari bo'lganlar. Qabul vaqtida vazir hukmdorning o'ng tomonida o'tirgan. Xorazmshohlar davlatida vazir lavozimi dastlab Otsiz davrida paydo bo'lgan edi.

Bilib oling!

Xorazmshoh Alouddin Muhammad hukmronligining so'ngida vazirat (vazirlik lavozimi)ni bekor qiladi. «Vaziratga aloqador ishlarni hal qilishni olti vakildor zimmasiga yuklash haqida» farmon chiqaradi. Bu xorazmshoh qoshidagi davlat kengashiga o'xshash narsa edi. Ular biror-bir hukmni olti vakildorlarning har biri (hamda oxiri xorazmshohning shaxsan o'zi) tasdiqlagandan so'nggina e'lon qilar edilar. Ushbu kengash tarkibiga kotib Nizomiddin (kotib al-insho), Mujirulmulk Tojiddin Abul Qosim, Amir Ziyouddin al-Biyobangiy, Shamsiddin al-Kalobodiy, Tojiddin ibn Karim ash-Sharq an-Nishopuriy, ash-Sharif Majdiddin Muhammad an-Nasaviy kabilar kirganlar.

Viloyat va okruglarning vazirlari ham oliy ma'muriy mansab egalari hisoblanganlar. Ushbu mansab faqat Xorazmshohlar davlatidagina mavjud bo'lgan. Ushbu mansabga obro'-e'tiborli shaxslarning tayinlanganligidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ushbu vazirlar yoki xorazmshohlar yerlarini shaxsan boshqarganlar, yoki sultonlar

tomonidan faqatgina siyosiy jihatdan muhim hisoblangan shahar va viloyatlarga jo'natilganlar. Vazirlar tayinlangan viloyat va shaharlar muayyan vakolatlarga hamda o'ziga xos mavqega ega bo'lganlar.

Devoni tug'ro va insho, asosan, hukmdorning davlat ahamiyatiga molik yozishmalari, hujjatlari, vassallarga maktublar matnini tayyorlaganlar. Ushbu devonda tug'royi deb nomlangan lavozim mavjud bo'lgan. Hujjatlarga hukmdor tug'rosi (muhri) qo'yilgandan keyin ular haqiqiy hisoblangan. Tug'rolarni bosish huquqi tug'royilarda bo'lgan. Shuningdek, «devon al-barid» (pochta devoni) ham mamlakat hayotida katta ahamiyat kasb etgan. Masalan, Oltuntoshiy sulolasi (1017-1041) vakili bo'lgan hukmdor (xorazmshoh) Horun (1032-1041) G'aznaga boradigan xabarlarni nazorat qilish maqsadida «sohib al-barid», ya'ni pochta devoni boshlig'i lavozimiga o'zining ishonchli kishilarini tayinlagan.

Tarixiy manbalarda Xorazmshohlar saroyida turli mansab, lavozimlar haqida ham ma'lumotlar beriladi:

☑ **Amiri shikor** – sulton ovlarini tashkil etgan.

☑ **Amir ul-a'lam (a'lamdor)** – sulton bayroqdori.

☑ **Qissador** – hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yig'ib, payshanbadan jumaga o'tar kechasi sultonga topshirar edi. U eng obro'li mansabdorlardan biri bo'lgan.

☑ **Tashtdor** – sulton hammomlari va hovuzlarining boshlig'i. Uning qo'lida ko'plab qullar ham bo'lgan. U sultonga eng yaqin kishilardan biri bo'lgan. Masalan, xorazmshoh Muhammad tashtdori Ayozga keyinchalik o'n ming otliq lashkar berilgan. Sulton unga malik (hokim) unvonini ham bergan.

☑ **Farrosh** – sulton o'rni-to'shak saqlanadigan farroshxona boshlig'i bo'lib, uning ixtiyorida gilam, chodir, ko'rpa-to'shaklar bo'lgan. Farroshga ko'plab o'rgatilgan qullar xizmat qilgan.


☑ **Choshnigir** – dasturxon yozilgan vaqtida sulton taomlari xavfsizligi uchun javob berar edi.

☑ **Sharobdor** – sulton sharobxonasining boshlig'i.

Xorazmshohlar ijroiya boshqaruvida tug'ro (insho) devoni rasmiy hujjat, yozishlarini tuzish bilan shug'ullangan.

Istifo devoni – moliya ishlari bilan, ishrof devoni – davlat nazorati tadbirlari bilan, devoni arz – harbiy masalalar, qo'shinni qurol-aslaha bilan ta'minlash, shaxsiy tarkibni nazorat qilish, harbiy ko'riklar o'tkazish, harbiylarga ajratilgan mulklar nazorati kabilar bilan shug'ullangan.

Xorazmshohlar davlat boshqaruv organlari



13.2. XORAZMSHOHLAR DAVLATINING HARBIY TIZIMI. QOZILIK ISHLARI

Xorazmshohlar davlatida qo'shin boshqaruvining eng oliy organi *Devon al-ard* yoki *Devon al-jaysh* deb atalgan. Bu devon boshlig'i *sohibi devon al-ard, sohibi devon al-jaysh, oriz al-jaysh* nomlari bilan atalgan. Devon al-ard butun harbiy iqtolar tasarrufi, jangchilarga beriladigan har qanday maosh va to'lanmalarning qaydini olib borgan va nazorat qilgan. Jangchilarga beriladigan «mavojib» va «arzak» kabi belgilangan maosh turlarini muayyan vaqtda berilishini *Devon al-ard* nazorat qilib borgan.

Xorazmshohlar armiyasining qo'mondonlari *qoid* yoki *muqaddam* deb atalganlar va ular qobiliyatli va mohir amirlar ichidan tanlab olingan. Masalan, xorazmshoh El Arslon o'z askarlari qo'mondoni etib


qarluq amirlaridan hisoblangan Shamsul Mulk ibn Husayn Ayyorbekni tayinlagan. Unga o‘z singlisini turmushga bergan va uni o‘z qo‘shinlarining qo‘mondoni etib tayinlagan. Mamluklardan iborat bo‘lgan *xaras* deb nomlangan xorazmshohlarning shaxsiy gvardiyasi ham mavjud bo‘lib, uni ilk bor Xorazmshoh Takash joriy etgan. Bu qo‘shin oliy hukmdorni shaxsan qo‘riqlash bilan birgalikda jazo maqsadidagi yurishlarda ham ishtirok etgan. Muhammad Xorazmshoh davrida Ayoz Jahon Pahlavon ushbu bo‘linmaga rahbarlik qilgan.

Bilib oling!

Xorazmshohlar davlatida yana bir muhim mansab sifatida katta va buyuk *hojib* lavozimini ko‘rsatish mumkin. Turk tarixchisi O‘zoydinning fikriga ko‘ra, hojibi buzurg (katta hojib) lavozimi Saljuqiylarda hukmdor shaxsiy tarkibining boshlig‘i hisoblangan va mavqe jihatidan vazirdan keyin turgan. O‘rnatilgan tartibga ko‘ra, turkiy oqsuyaklarning vakillari hojiblik lavozimiga tayinlanganlar. Hojiblar xorazmshohga aynan uning o‘ziga tegishli bo‘lgan ishlar to‘g‘risida hisobot berib borganlar va ma’muriy marosimlarning to‘g‘ri bajarilishini kuzatib borganlar. Xorazmshohlarning bir vaqtning o‘zida bir necha hojiblari bo‘lgan va ular sultonlarning eng muhim topshiriqlarini bajarganlar hamda sultonning atrofidan uzoqlashmagan holda har vaqt uning huzuriga yaqin bo‘lganlar. *Hojibi buzurg* yoki *hojib al-kabir* lavozimidagi shaxs hojiblar guruhiga rahbarlik qilgan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Xorazmshohlar o‘z davlatida majburiy umumxalq harbiy ta’lim tizimini joriy qilganlar. Aholining aksariyati harbiy ta’limdan xabardor bo‘lgan. Davlatdagi harbiy qo‘shin soni davr va yurishlarga qarab o‘zgarib turgan. Masalan, 1195-yili harbiy devonxona-ning daftarlarida qayd etilishicha, xorazmshoh Takish qo‘shinida 170 ming nafar otliq askar bo‘lgan. 1214-yilda xorazmshoh Muhammadning Fors Iroqi, Ozarbayjonga qilgan yurishida 100 ming nafar suvoriy bo‘lgan. 1218-yilgi ko‘rikda 150 mingga yaqin otliq, 100 ming piyoda askar mavjudligi qayd etilgan.

1211-va 1212-yillarda qoraxitoylarga qarshi qilingan yurishlarda xorazmshoh Muhammad otliq askarlari sonining o‘zi 400 ming nafar bo‘lganligi alohida ta’kidlangan. Shuningdek, Bag‘dod xalifaligiga qarshi yurishda ham 400 ming nafar suvoriy qatnashganligini harbiy devondagi qayd daftarlari ham tasdiqlaydi. Xorazmshohlar doimiy harbiy qismlardan tashqari shaxsiy muhofaza qo‘shini (xaras)ga ham ega bo‘lib, ular yollanma askarlar (mamluklar)dan tuzilgan edi. Xorazmshoh Muhammad shaxsiy qo‘shinida 10 ming nafar kishi bo‘lgan. Shuningdek, xorazmshohlarda doimiy bo‘lmagan «lashkari berun» ham bor edi.



Xorazmshohlar yangi istilo etilgan o‘lka va viloyat yerlarini amirlarga iqto sifatida taqsimlab berganlar. Ularga o‘z navbatida amiral umaro faxriy unvoni berilar edi. 10 ming kishilik suvoriylar guruhiga qo‘mondonlik qilgan kishilarga *malik* unvoni berilgan. Choparlarga *chovush* unvoni, ularning boshlig‘iga esa *muqaddam chovushiya* degan nomlar berilgan. Shuningdek, maxsus xufya va ayg‘oqchilar bo‘linmalari ham mavjud bo‘lgan. An’anaviy urush qurollaridan tashqari palahmonlar (manjaniq), qamal qilish uskunlari (dabbabat), yuradigan minoralar (matarks), devor buzadigan moslamalar (jamalukat), hujum vaqtida ishlatiladigan narvonlar (salalim) ham bo‘lgan. Davlatda ko‘plab harbiy jihatdan mustahkam qal’alar mavjud edi. Qal’alardagi garnizonlarga – musatahfizlar qo‘mondonlik qilishgan. Qo‘shindagi harbiy nozir – nozir al-jaysh bo‘lib, u harbiy devonxona boshlig‘ining

nazorati ostida faoliyat ko‘rsatgan. Davlatda aholi tinchligi bilan shixnalar o‘z odamlari bilan shug‘ullanishgan.

Shixna aholi ichida xavfsizlik masalalariga mas’ul bo‘lgan. Urushdan avval xorazmshohlar, albatta, harbiy kengash chaqirishar, unga yirik harbiy sarkardalar, ulamolar, faqihlar, munajjimlar taklif etilar edi. Shuningdek, mamlakatda *qozilik* lavozimi ham muhim lavozimlardan sanalgan. Islom olamida qozilar, asosan, sud ishlariga rahbarlik qilgan bo‘lib, buning uchun, albatta, qozidan yuksak ilm, notiqlik va nutq mahorati, shuningdek, holislik va kelishuv mahorati ham talab etilar edi.

Bilib oling!

Har bir shaharning bosh qozisi bo‘lib, bosh qozi shahar qozilarining tayinlanishiga mas’ul bo‘lgan. Shahar qozisi umumiy majburiy jarayonlar, shahar mudofaasi kabi holatlarda shahar jamoasiga boshchilik qilgan. Shuningdek, shahar bosh qozisi yoki bosh qozi elchilik vazifasini ham bajargan. Jumladan, mo‘g‘ullar hujumi mahalida Nishopur shahri qozisi, shaharliklar tomonidan sulh uchun elchi sifatida yuborilgan.

Xorazmshoh Muhammad va Jaloliddin saroyida qozi lavozimida xizmat qilgan Mujiriddin Umar ibn Sa’d al-Xorazmiy Hamaviy, ayniqsa, mashhur bo‘lib, u Xorazmshoh Muhammad davrida Bag‘dod xalifasi bilan, Jaloliddin davrida ko‘plab Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalarda elchilik vazifasini bajaradi. Tarixchi Maqriziy uning ismini «Majiddin qozi al-Mamalik al-Hanafiy» deb yozadi. Mujiriddin Xorazm davlatining eng ulug‘ allomalaridan biri hisoblangan.

Harbiy qo‘shinda ham alohida qozi mavjud bo‘lib, u qo‘shin qozisi sanalgan va qo‘shin ichidagi sud ishlari hamda tartibni saqlashga boshchilik qilgan. Ba’zi hollarda qo‘shin qozisi ham elchilik vazifasini ijro etgan. Qozilik lavozimi boshqa ko‘plab lavozimlar singari ko‘pgina hollarda meros sifatida otadan bolaga o‘tadi. Jumladan, O‘tror qozisi Al-Amid Said xonadonidan bo‘lgan bir qancha shaxslar qozilik lavozimiga ega bo‘lgan.

13.3. XORAZMSHOHLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Xoramshohlar davlati aholisi tarkibi, yashash tarzi, ijtimoiy ahvoli, etnik kelib chiqishi, diniy e'tiqodi yuzasidan turlicha edi. Aholi orasida xorazmshoh himoyasida ozod aholi xuddi avvalgi paytdagidek raiyat deb atalgan. Aholi davlatning markaziy qismida, asosan, dehqonchilikka qulay hududlarda yashovchi o'troq va chorvachilik bilan shug'ullanishga qulay bo'lgan cho'l, chalacho'l mintaqalarda yashovchi ko'chmanchi aholi vakillaridan iborat edi. O'troq aholi hunarmandchilik, savdogarlik kabi ishlar bilan shug'ullangan bo'lsalar, ko'chmanchi aholi vakillari chorvachilikdan tashqari harbiy sohada ancha muvaffaqiyatli faoliyat olib borganlar. Anushteginiylar qurgan saltanat kengliklarida turkiy, eroniy xalqlar vakillari, arablar asosiy aholini tashkil etganlar. Shuningdek, shaharlardan yahudiy, xristian, hind kabi oz sonli aholi vakillari ham yashaganlar.



Otliqlar tasviri tushirilgan idish (XIII asr boshlari)



Musulmon ruhoniylarini tashkil etuvchi sayyidlar, xo'jalar va boshqa shu kabi tabaqa vakillari barcha musulmon davlatlaridagi kabi anushteginiylar davlatida ham katta imtiyozlarga ega bo'lganlar. Shuningdek, bu davrga kelib harbiy qullik institutlaridan faqatgina g'ulomlar to'g'risida keng ma'lumotlar uchraydi. Uy xo'jaligida ham ozod bo'lmagan qullar, cho'rilar xizmatidan foydalanilgan. Manbalarda ayollarning ham jamiyat hayotida faol ishtiroki to'g'risida qisqacha bo'lsa-da ma'lumotlar uchraydi. Malikalar, zodagon ayollar siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda faol ishtirok etganlar.

Jumladan, Alouddin Muhammadning onasi Turkon Xotun davlat siyosiy hayotida faol ishtirok etgan, keng xayriya faoliyati olib borgan, madrasalar, masjidlar qurdirgan hamda bir qator vaqflarga asos solgan. Shuningdek, u o'zining devoniga undan najot istab kelgan har bir mazlumni alohida himoyasiga olganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

Xorazmshohlar islom dinining sunniylik mazhabi *hanafiylik* yo'nalishini davlat dini sifatida tan olganlar. Xiva va ayrim boshqa yerlarda esa sunniylik mazhabining shofiylik yo'nalishi keng tarqalgan. Biroq anushteginiylar shialikning *ismoiliy* yo'nalishi tarafdorlari bilan shafqatsiz kurash olib borganlar va ularga nisbatan toqatsiz munosabatda bo'lganlar. Sufiylik tariqatlari keng tarqalgan. Quyi Sirdaryo, Mang'ishloq va boshqa shu kabi hududlarda *yassaviya* va boshqa tariqatlar qisman tarqalganligi manbalarda aytiladi. Sufiylik tariqatlari o'troq hamda ko'chmanchi aholi vakillari o'rtasida keng tarqalgan.

Poytaxt Gurganj o'z davrining buyuk, boy va go'zal shahri sanalgan. U yerda o'z zamonasining deyarli barcha ilg'or hunar turlari rivojlangan bo'lib, ular turi 50 ga yetgan. Gurganj aholisi mohir hunarmandlardan ekanligi, ayniqsa, temirchilar, duradgorlar va boshqalar o'z ishining ustalari ekanligi to'g'risida qaydlar bor. Gurganjlik o'ymakor duradgorlar fil suyagi va obnus daraxti yog'ochidan ajoyib mahsulotlarni yasaganlar. Shaharda tabiiy shoyi mato ishlab chiqaradigan ustaxonalar bo'lgan. Qurilish ishlarida esa majnuntol yog'ochidan keng foydalanilgan. Ushbu yog'ochdan qurilgan inshootlar yengil bo'lgan va toshdan qurilgan binolardan ko'ra zilzilaga chidamli hisoblangan.

Bilib oling!

O'rta asrlarda ham kuchli yer silkinishlari bo'lib turgan. Masalan, mamlakatimiz hududida yer qimirlashi haqidagi dastlabki ma'lumotni Abu Said Gardiziyning «Zayn al-Axbor» asarida uchratish mumkin. Unda: «224 (838-839 yillar – A.Z.)-yilda Farg'onada kuchli zilzila natijasida ko'plab imoratlar vayronaga aylandi», deb yozilgan.

Xurosonlik mashhur tarixchi Atomalik Juvayniy o'zining «Tarixi Jahongushoy» asarida 1208-yil Xorazm viloyatida yuz bergan kuchli zilzila haqida shunday yozadi: «Shu yili, ya'ni 605-yilda (1208-1209-yilda – A.Z.) ulug' Alloh «Qachonki, yer o'zining (eng dahshatli) zilzilasi bilan qimirlaganida» hukmini ko'rsatdi. Zilzilaning kunduzi boshlangani ham Uning (Allohning) bir lutf-karami edi. Shahar xalqi nimasi bo'lsa, shaharda qoldirib, o'zlarini shahar tashqarisiga otdilar, uylari esa sajda qilgandek boshlarini yerga qo'ydilar. Bir nechtagina masjid va binodan boshqa yiqilmagan imorat qolmadi. Shu sababdan xalq bir oz muddat uysiz-joysiz qirlarda yashadi. Ikki ming ayol-u erkak yiqilgan uylar ostida qoldi. Qishloqlar shunday zarar ko'rdiki, bu yerda uni so'z bilan tushuntirishning iloji yo'q». Shuningdek, bu yer silkinishining kuchli bo'lgani sababli Urganchning (Ko'hna Urganch. – A.Z.) bir qismi Amudaryoga cho'kib, shahar vayronaga aylangani haqida ma'lumot mavjud.

Yo'llar va karvonlarni qo'riqlash ishining oliy darajada tashkil etilgani ichki va tashqi savdo aloqalarining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Gurganj savdogarlari Bag'dod, hattoki Andalusga qadar mahsulotlar olib borganlar. Gurganj mo'g'ullar tomonidan vayron etilguniga qadar aholi unda juda zich yashagan.

Shaharda ko'plab bozorlar mavjud bo'lgan. Bozordagi tartibni asosan muhtasib ushlab turgan. U mahsulotlarning sifatini, idishlarning tozaligini, mahsulotlarning yangiligini, tarozi toshlari va uzunlik o'lchovchi asboblarning to'g'riligini nazorat qilgan. Muhtasiblar ko'pincha imom darajasiga ega bo'lganlar. Xorazmning Ardaxushmisan, Xiva, Darg'an, Savakon, Govshfinj, Kot, Nuzkot, Hazorosp kabi kichikroq shaharlarida ham hunarmandchilik rivojlangan va savdo-sotiq gullab yashnagan. Marv, Buxoro, Samarqand, Ray, Nishopur kabi shaharlar mamlakat siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin egallaganlar.

Manbalar anushteginiylarning oxirgi ikki hukmdorlari zamonida Xorazmning ekinlari «go'zal ishlov berilgan yerlar» hisoblanganligi to'g'risida ma'lumot beradi. Daryo toshganda uning suvi toshib chiqmasligi uchun daryo atrofiga qumlardan kichik to'g'onlar qurilgan. Bu to'g'onlarda daraxtlar va butalar ekilgan. Bu to'g'onchalar har yili ta'mirlab turilgan. Sun'iy sug'orish tizimi rivojlangan.

Bilib oling!

Rasmiy hujjatlarning ma'lumot berishicha, xorazmshoh-anushteginiy hukmdorlar ichida birinchi bo'lib, Otsiz tomonidan tangalar zarb qilingan. Lekin bu tangalar qaysi metalldan zarb qilinganligi to'g'risida manbalarda ma'lumotlar mavjud emas.

1167-yil mayda xorazmshoh El Arslon tomonidan Nishopur egallab olinganidan keyin uning barcha mulklarida hukmdor nomi bilan oltin dinorlar va kumush dirhamlar zarb qilingan. Shuningdek, xorazmshohlarga vassal bo'lgan hukmdorlar mulkida ham xorazmshoh nomi bilan xutba o'qilgan va tangalar zarb qilingan.

Sulton Alouddin Muhammad hukmronligi davrida Balx, Mozandaron va boshqa bir qator viloyatlar hukmdorlari tomonidan xorazmshoh ismi xutbada o'qitilgan va ular nomi bilan tangalar zarb qilingan. Xorazmshoh Jaloliddin 1222-yilda mo'g'ullardan Hindistonga chekinib, u yerda mahalliy hukmdorlar Nosiruddin Qubacha (1205-1227), Shamsuddin Eltutmish (1211-1236), rajputlar va xakkarlar ustidan g'alaba qozonganda u yerlarda Jaloliddin ismi bitilgan kumush va mis tangalar zarb qilingan. Qo'lyozma manbalarda tangalar zarb qilinishi bu xorazmshohlar oliy hukmronligining isboti va rasman tan olinishi ekanligi ta'kidlanadi. Albatta, manbalarda barcha viloyat va hududlar nomi qayd etilmagan.


Faqatgina bugunga qadar topilgan numizmatik manbalar, ya'ni tangalar yozuvlariga tayanib, xorazmshoh-anushteginiylar ismi yozilgan tangalar Samarqand, Buxoro, O'tror, Termiz, Chag'oniyon,

Vaxsh, Balx, Bomiyon, G'azna, G'ur, Jurzuvon, Zamindovar, Yamur, Kunduz, Marv, Naso, Nishopur, Peshovar va boshqa hududlarda zarb qilinganligini aytish mumkin. Bunday zarbxonalar soni Alouddin Muhammad hukmronligi davrida 30 dan oshiq bo'lgan.

1226-yilda Tiflis (Tibilisi) va Sharqiy Gruziyani egallaganidan keyin sulton Jaloliddin bu yerda o'z nomidan tangalar zarb qilgan. Bunday tangalar soni juda ko'p bo'lib, bu uning gruzin hukmdorlarining xazinasini egallay olganligi bilan izohlanadi. X asr oxirida Somoniylarning oxirgi hukmdorlari tomonidan zarb etilgan tangalarning sifatiga ta'sir qilgan kumush inqirozi keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. Bu ulkan mintaqaning deyarli barcha hududiga xos ikki holatning kuzatilishi bilan izohlanadi. Birinchisi, bu muomala vositasi sifatida oltinning faollashuvi bo'lsa, ikkinchisi tarkibida kumush oz bo'lgan turli past probali kumush tangalarning, umuman, asosi misdan iborat bo'lgan tangalarning keng tarqalishidir.



Xorazmshohlar dirhami (Jaloliddin davri)



Xorazmshohlar zarbxonasi shahar nomi bilan emas, balki viloyat nomi bilan «Xorazm» deb atalgan. Otsiz, El Arslon, Alouddin Takish, Alouddin Muhammad nomidan oltin dinorlar zarb qilingan. Ayniqsa, Alouddin Muhammad tomonidan zarb qilingan oltin tangalar ko'plab topilgan. Biroq Xorazm hududida nafaqat mahalliy tangalar, boshqa davlatlar, ayniqsa, Saljuqiylar tangalari ham keng tarqalgan bo'lgan. 1213-1214-yillarda Samarqandda Muhammad Xorazmshoh tomonidan kumush suvi yurgizilgan mis tangalar zarb qilingan. Ular 1218-yilgacha juda katta miqdorda zarb qilingan.

Xorazmshohlar davlatida, ayniqsa, Takish va Muhammadlar davrida madaniy hayot ancha rivoj topdi. Ayniqsa, she'riyat, adabiyot sohasi gullab-yashnadi. Muhammad Avfiy (1172-1235-1241) qalamiga mansub forsiy tildagi ikki jilddan iborat «Lubob ul-albob» («Ilmlar mag'zi», 1221-1222)ning beshinchi bobida yigirma yetti nafar shohlar ijodidan namunalar keltiriladi. Shular orasida Xorazmshoh anushteginiylardan to'rtta sultonning ijodiga taalluqli izoh va qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Bular Otsiz Xorazmshoh va uning nabirasi Takash ibn El Arslon hamda Takashning farzandlari Muhammad Xorazmshoh va Tojiddin Alishoh (vaf. 1209)lardir. Takish musiqani sevgan, udni juda yaxshi chalgan. Tazkirada Otsiz Xorazmshoh haqida quyidagicha keltiriladi: «Uning davrida Xorazm podsholigi taxti ulug'vorlashdi, faxr-u g'ururli dovrug'i turli atrof-iqlimlarga borib yetdi. U ilm ahlini himoyasiga oldi, san'atkorlarga, hunar ahliga e'tibor kuchaydi, natijada ularning bahosi qimmatlashdi, xaridorlari ko'paydi». Ko'rinadiki, Otsiz Xorazmshoh zamoni ilm, adabiyot va san'at ahli uchun beqiyos darajada ko'rkli bo'lib, ularning qadri yuksalgandan yuksaladi. «Lubob-ul-albob»da Otsiz Xorazmshoh ijod bisotidan bir dona qit'a va uch ruboiy keltiriladi. Jumladan, asarda Otsizga tegishli quyidagi ruboiy ham kiritilgan:

Jahon nishoni o'zim, farmon manman
Falak qulog'iga sirg'a shon manman
Butun saltanat menga mute bugun
Shodlik hosili do'sti iymon manman

Bu ruboiydan nafaqat Otsizning shoirlik mahorati, balkim XII asr o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyo siyosiy maydonida yetakchilik uchun kurashganligining misoli ham edi. Deyarli butun umrini ot ustida o'tkazgan Xorazmshoh she'riyat bilan faol shug'ullanib, nazmiy devon ham tuzgan edi. Bu devon, keyinchalik, G'ur hukmdori Alouddin G'uriy she'rlari bilan bir kitobga jam qilingan. Shuningdek, Xorazmshoh Alouddin Muhammad, Tojiddin Alishoh, Hinduxon kabi sulola vakillari ham she'riyat bilan qizg'in shug'ullangan.

Xorazmshoh saroyida ham qator shoirlar faoliyat olib borgan bo'lib, ular orasida eng ko'zga ko'ringan olim va shoir Rashididdin Muhammad al-Umariy (1115-1182) bo'lgan. U Votvot taxallusi bilan mashhur bo'lib, uch hukmdor – Otsiz, El Arslon, Takish saroylarida kotib al-insho lavozimida xizmat qilgan.

Votvot arab, fors tillarida nomalar bitishga mohir bo'lgan. Rashididdin Votvot ko'plab adabiyot, madaniyat ahliga homiylik qilgan. Uning ayniqsa «Rasoil» («Nomalar») she'riy to'plami mashhur bo'lgan. Jaloliddin Isfahoniy (vaf.1192) va uning o'g'li Kamoliddin Ismoillar (1172-1237) ham ko'zga ko'ringan qasidago'y shoirlar bo'lishgan. Kamoliddin Ismoil ma'noli g'azallari bois «xalloqi maoniy» (ma'nolar yaratuvchi ijodkor) laqabini olgan. Faryobiy (Xoja Zahiriddin Tohir ibn Muhammad) (1160-1202) – iste'dodli shoir bo'lib, Nishopur, Isfahon, Tabrizda turli sabablarga ko'ra ko'chib yurib, ijod qilgan. Asiriddin Axsikatiy (vaf. 1184) – xorazmshohlar davrida atoqli shoir va taniqli ulamo sifatida nom chiqargan. Sulton al-fuzalo (Fozillar sultoni) unvonini olgan bu shoir asli Axsikatda (Farg'ona vodiysidagi shahar) tug'ilgan bo'lib, keyinchalik Ozarbayjonda ijod qildi. Buxoroda yashab ijod qilgan Sayfiddin Isfarangiy o'zini Axsikatiyga shogird deb bilib, ko'plab g'azal, qasidalar yozgan.

Xorazmshohlar davridagi atoqli shoirlardan yana biri al-Jandiy (G'iyosiddin Abulmajid Muhammad ibn Hasan ibn Ibrohim)ni adabiyot ahli «eng go'zal yozuvchi shoirlardan biri, she'rlari ajoyibdir», deya ta'riflashgan. Shuningdek, Adib al-Xorazmiy (vaf. 1165), Umar Xorazmiy (vaf. 1155), Ahmad Samarqandiy, Rustam Xorazmiy va boshqa shoirlar ham samarali ijod qilishgan.

Bilib oling!

Xorazmshohlar davlatida tibbiyot ilmi ham rivoj topgan edi. Masalan, al-Qoniniy atoqli tabib bo‘lib, tibbiyotga oid qator asarlar yozgan. U o‘zini Umar Hayyomning shogirdi deb hisoblagan. U xorazmshoh Otsizga atab «Kitob fil hikma» («Donishmandlik kitobi») asarini, ibn Xorogiy esa tarix va falsafa bo‘yicha asarlarini yozgan. Salohiyatli olim sifatida Otsiz uni o‘z saroyiga chaqirib olgan. Jo‘g‘rofiya sohasida Najib Bakronning «Jahonnoma» nomli xarita va izohli asari e’tiborga molik ishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Sharqshunos olim Z.Bunyodov Xorazmshohlar davlatining 50 ga yaqin mashhur shoir, olim, ulamolarining nomini sanab o‘tgan.

Mamalakat hududlarining kengayib borishi bilan mamalakat iqtisodi ham o‘sa borgan. Bu esa o‘z navbatida tanga pul muomalasida qator yangiliklarni talab etar edi. Shu bilan bir qatorda XII-XIII asrlarda mintaqada kumush madanlari inqirozi ham boshlanadi. Natijada, bu davrdan boshlab, mintaqada oltin va mis tangalar zarb qilish ham keng tus ola boshlaydi. Shu bilan birgalikda, mamlakatda tashqi savdo aloqalari ham keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yilgan. Oltin tangalar mamlakatlar aro tashqi savdodagi asosiy birlikka aylangan bo‘lsa, mis tangalar asosan ichki chakana savdoda to‘lov vositasi vazifasini bajaradi.

Atamalar izohi

☑ **Ziyo Bunyodov** – (1923-1997) — ozarbayjon sharqshunosi, Ozarbayjon Fanlar akademiyasi akademigi (1976), Ozarbayjonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1982), tarix fanlari doktori (1964), professor (1965). Ikkinchi jahon urushi Qahramoni (1945). Buniyotovning ilmiy faoliyati Ozarbayjon va unga qo‘shni Yaqin va O‘rta Sharq davlatlari tarixi hamda madaniyati masalalariga bag‘ishlangan. Buniyotov Qur’oni Karimning ozarbayjon tilidagi

tarjimoni. U ko‘plab o‘rta asr tarixchilari asarlarini arabchadan rus tiliga tarjima qilgan. Buniyotovning «Xorazmshohlar—anushteginiylar davlati (1097-1231)» nomli yirik tadqiqoti diqqatga sazovordir.

☑ **Malik** – «malik» so‘zi hukmdor, podshoh ma’nolarini bildiradi. «Malik» unvoni musulmon dunyosi hukmdorlari unvonlari ierarxiyasida ancha past mavqeda bo‘lgan («sulton», «xoqon», «shahanshoh», «xon» va boshqalarga nisbatan).

Savol va topshiriqlar

1. Anushteginiylarning davlat boshqaruvi haqida olgan bilimlaringizga tayanib, turkiy, musulmon an’analarni farqlab ko‘ring.

2. Xorazmshohlar davlatida qanday devonlar bo‘lgan? Devon va dargohning qanday vazifalari bo‘lgan?

3. Xorazmshohlar davlatida unvon va mansablar nimaga qarab berilgan?

4. Xorazmshoh saroyining o‘zida qanday lavozimlar bo‘lgan?

5. Xorazmshohlar davlat boshqaruvi an’analarini Saljuqiylar davlatidagi boshqaruv bilan solishtirib, farqli va o‘xshashliklarni aniqlang.

6. Xorazmshohlar davlatida vazir mansabi kimning davrida tashkil etilgan va qachon u tugatilgan. Uning tugatilish mohiyati nima bilan bog‘liq?

7. Davlatda Turkon Xotunning o‘rni qanday edi?

8. Davlatda qozilik ishlari kimlarning qo‘lida bo‘lgan. Jinoyat va jazoda qanday huquq normalari amal qilgan?

9. Xorazmshohlar qo‘shini soni va tarkibi haqida nimalarni bilib oldingiz?

10. Mamlakatda ishlab chiqaruvchi asosiy xo‘jalik shakllari va turlarini sanab bering.

11. Xorazmshohlar davlatida ilm-fan va madaniyat nima sababdan gullab-yashnadi? Qaysi hukmdorlar bevosita ilm-fan va madaniyat bilan shug‘ullangan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

2. Basan A. The Great Seljuqs: A history. – Routledge. 2010.

3. Bunyotov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1998.

4. Juvayniy, Alouddin Atomalik. Tarixi jahongusho (Jahon fotihi tarixi). / Turk tilidan Rahimbek Nazar tarjimasi. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2015.

5. Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkilotlari, iqtisodiy va madaniy hayot. / Turk tilidan N. Rahim tarjimasi. – Urganch: Ogahiy, 2022.

6. O‘zbekiston tarixi. I qism. Darslik. Mas’ul muh.: Sagdullayev A.S. – T.: Fan, 2019.

7. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Sirojiddin Ahmad tahriri. 1-jild. – T.: Info capital group, 2019.

8. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san’ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2018.

9. Shihobuddin Muhammad Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsilotlari. / K. Matyoqubov tarjimasi. – T.: O‘zbekiston – Yozuvchi, 1999.

10. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. – Т.: Узбекистан, 2006.

11. Шарипов М. М. Этапы военно-политической деятельности государства Гуридов (1148-1215 гг.). Диссертация на соискание учёной степени кандидата исторических наук. – Худжанд, 2021.

14-MAVZU.
BAYT-UL HIKMA VA UNDA O‘RTA OSIYOLIK ALLOMALAR FAOLIYATI



REJA:

14.1. Bayt ul-hikmaning tashkil topishi va ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi.

14.2. Bayt ul-hikmada faoliyat ko‘rsatgan O‘rta Osiyolik olimlar.

Tayanch so‘z va tushunchalar

IX-XII asrlar, manba, asar, O‘rta Osiyo, Bag‘dod, madaniy uyg‘onish, islom, musulmon renessansi, Bayt ul-hikma, Ma’mun, aniq fanlar, tibbiyot, matematika, kimyo, diniy ilmlar, adabiyot, rasadxona, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, algoritm, aljabr, algebra, alfraganus, Miqyos an-Nil, mantiq, fiqh, falsafa.

14.1. BAYT UL-HIKMANING TASHKIL TOPISHI VA ILM-FAN RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo hududida yuz bergan madaniy uyg‘onish (Renessans), uning tarixi, mazmun-mohiyati, shu davrda ijod qilgan buyuk allomalarning hayoti va ijodi, ularning bashariyat ilm-fani, madaniyati ravnaqiga qo‘shgan ulkan hissasi hamisha jahon olimlarining diqqat markazida turgan.

Bizning davrimizgacha IX-XII asrlar madaniyati, ilm-fan va falsafiy tafakkur rivojiga doir anchagina manbalar yetib kelgan.



Ilm ahllari Bag'dod kutubxonasida ***(Yahyo al-Vasitiy, 1237-yil)***

Masalan, Yoqut al-Hamaviy (1179-1229) «Irshod al-arib ila ma'rifat al-adib» asarida IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo va Xurosonda yashagan mashhur va iste'dodli fan va madaniyat arboblari haqida, jumladan, Mahmud ibn Aziz al-Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad Abul-Fadl, Ahmad ibn Muhammad Abul-Husayn al-Xorazmiy, Hasan ibn al-Muzaffar Abu-Ali, Ali ibn Iroq, Abulhasan al-Xorazmiy, Muhammad ibn Abul-Qosim Bayjuq, Abul-Fadl al-Xorazmiy al-Odamiy, Nosir ibn Abd-as-Sayid ibn Ali al-Xorazmiy al Nahviy al-Adib, Yusuf ibn Abu Bakr ibn Muhammad Abu Ya'qub as-Sakkokiy (Xorazmdan), Al-Qosim ibn al-Muhammad ibn Muhammad al-Xorazmiy kabi adib va faylasuflar haqida batafsil ma'lumotlarni beradi.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo va Xurosondagi madaniy hayot, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlar, ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarida yuz bergan yuksalish, ya'ni ilk uyg'onish haqidagi qimmatli ma'lumotlar boshqa ko'pgina manbalarda va boy ma'naviy merosimizni o'rganishga bag'ishlangan ijodiy ishlarda har tomonlama keng sharhlab berilgan.

IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri bo'ldi. VIII asrda Arab xalifaligi hozirda O'rta Osiyo deb atalmish hududni egallagan, bu yerlarda islom dini keng yoyilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot Arab xalifaligi tartib-qoidalariga butunlay bo'ysundirilgan edi. Xalifalik tarkibiga kiritilgan o'lkalarda faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning davlat tili bo'lsa, islom dini uning mafkurasi edi. Shu sababli bu mamlakatlarda arab tilini o'zlashtirishga intilish kuchli bo'lgan. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida Qur'on suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab uni mustahkamlashning garovi deb hisoblaydilar. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda hatto o'z ona tilidan ko'ra *arab tili* va yozuvini yaxshi o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Chegaralari borgan sari kengayib, ulkanlashib borayotgan xalifalik uchun ilm ahli suv va havodek zarur bo'lib qoldi.

Bilib oling!

Ilm-fan, madaniyat va san'atda o'ziga xos o'zgarish yasagan qomusiy bilim sohiblari, olim, fozil va barkamol shaxslar yashagan rivojlangan o'rta asrlar zamoni Sharq Uyg'onish davri nomi bilan ma'lum. O'zining ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy belgilariga ko'ra, bu davr XV-XVI asrlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi madaniy hayot, ilm-fan, falsafiy tafakkur sohasidagi buyuk yuksalishlar yuz bergan Renessans davriga ham qiyos qilinadi.

Fanda *«Uyg'onish davri»* deb ataladigan davr G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarda XIV-XVI asrlardagi rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba «Uyg'onish» atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi *J.Vazari* o'z asarlarida ishlatadi. «Uyg'onish», «Uyg'onish davri» atamalari XIV-XVI asr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko'proq antik davr merosini, ya'ni antik madaniyatga o'xshash madaniyatni qaytadan «tirilishi», «uyg'onishi» ma'nosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik, fanda bu atama keng qo'llanila boshlandi. Shu ma'noda ko'pchilik tadqiqotchilarning IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida madaniyat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ham «Uyg'onish» davri atashi an'ana tusiga kirdi.

Bilib oling!

***Sharq Renessansi* iborasi va fikri ilk bor yevropalik sharqshunos olim Adam Metsning «Musulmon Renessansi» kitobida ilgari surilgan edi. Bu asar IX-X asrlardagi arab xalifaligi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, ko'plab olimlarning diqqat-e'tiborini jalb qildi.**



Sharqda Uyg'onish davri deganda ko'pchilik olimlar davrning madaniy taraqqiyot sohasidagi muvaffaqiyatlarini nazarga olib, Uyg'onish g'oyasini muayyan bir tarixiy davrga xos ilm-fan, madaniyatning yuksalishi degan ma'noda talqin etadilar. Ularning fikricha, Sharq Renessansi insoniyatning madaniy-tarixiy taraqqiyotidagi ana shu yuksalish davrlaridan biridir. «Renessans» (Uyg'onish) tushunchasi esa Sharqqa nisbatan shartli ravishda qo'llaniladi: Sharq Renessansi deganda G'arb mamlakatlarida XV-XVI asrlarda yuz bergan uyg'onish davri an'analariga o'xshash yoki shularga yaqin hodisalar ko'zda tutilishi qayd qilinadi. Muammoga mana shu nuqtai nazardan qarashda o'zlarining qadimiy tarixiy an'analariga ega bo'lgan barcha xalqlarning nafaqat qadimgi

madaniyatning, xususan, yunon madaniyati va ellinizm an'analarining tiklanishi, balki o'z qadimiy madaniyati, milliy qadriyatlarning ham qayta tiklanishi ko'zda tutiladi.

Sharq va G'arb uyg'onish davrlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy negizlarning turlicha holatlarini ko'rsatish bilan birga IX-XII asrlarda Sharq musulmon mamlakatlaridagi uyg'onishning Yevropa Renessansi arafasida jahon madaniyati taraqqiyotidagi muhim bosqich bo'lganini yoddan chiqarmaslik lozim. Sharq Uyg'onish davri tarafdorlarining ko'pchiligi bu nuqtai nazarni e'tirof etadilar. Ammo ular Sharqqa nisbatan renessans – tiklanish, uyg'onish atamalarini shartli ravishda ishlatish mumkin deb hisoblaydilar.

Bilib oling!

Ming yilliklar davomida turli sivilizatsiya va madaniyatlar, jahon savdo yo'llari chorrahasida joylashgan o'lkamiz hududida o'ziga xos bebaho ma'naviy qadriyatlar va madaniyat mavjud bo'lgan. Ilg'or madaniyat, ilm-fan xalifalik hukmi davrida aynan yurtimiz hududida rivoj topgan bevosita Bag'dod xalifaligidagi musulmon uyg'onish davri, ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ulkan xalifalik hududlarida taraqqiyot darajasi turlicha o'lka va xalqlarning bir davlatga birlashuvi, ular o'rtasida tegishli munosabatlarning o'rnatilishi, iqtisodiy hayotining ravnaq topishi ichki va tashqi savdo aloqalari rivojiga turtki bo'ldi. Bu esa xalifalik xalqlari madaniyatining yuqori taraqqiy etishiga ham turtki bo'ldi. Bu davrda metallurgiya, tog'-kon, to'quvchilikda yangiliklar tatbiq etildi; qog'oz, sopol, shisha ishlab chiqarish, foydali qazilmalarni qazib olish; qishloq xo'jaligida sun'iy sug'orish, gidrotexnik inshootlardan foydalanish, irrigatsiya shahobchalarini qurish, turli o'simliklarni ekib, ko'paytirish yo'lga qo'yildi. Hunarmandchilikning ko'plab sohalari rivojlanib, turli buyumlar soni va sifati o'sdi, ichki va tashqi savdo aloqalari juda rivojlandi.



Bayt ul-hikma

Daryo va dengizlarda ham yangi savdo yo'llari yurishi boshlandi. Shu davrda yuzaga kelgan ko'plab afsona, rivoyat, hikoyat, jumladan, «Ming bir kecha» ertaklarida mazkur davr qahramonlari faoliyati adabiy talqinda, sharqona lutf bilan bayon etilgan edi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi keng ko'lamli o'zgarishlar turli muammolarni keltirib chiqarar edi-ki, buni faqat ilm-fan yechishga qodir bo'lgan. Xususan, tabiiy fanlar, matematika, astronomiya, geometriya katta inshootlarni qurish, kemasozlik, savdo-sotiq uchun zarur bo'lgan. Aholi joylashuvi, ko'payishi, shaharlarning taraqqiy topishi tibbiyot faniga ehtiyojni tug'dirgan bo'lsa, hunarmandchilik, tog'-kon sanoati uchun geologiya, mineralogiya ilmidan boxabarlik taqozo qilingan.

Taraqqiyot, shuningdek, al-kimyoning rivojiga keng yo'l ochadi. Ulkan xalifalik hududida arab tili nafaqat vosita tili, balki ilm-fan tiliga ham aylandi. Shu davrda yaratilgan aksariyat ilmiy adabiyotlar arab tilida bitilar edi. Abbosiy xalifalar (750-1258) davrida yuqorida ta'kidlangan o'zgarishlar yanada taraqqiy etdi, islom madaniyati, ilm-fan yuqori cho'qqiga chiqdi. Xalifalik o'z davlat boshqaruvi, turmush tarzi, urf-odat, madaniyat, me'morchilik sohalarida ko'proq sharqiy hududlar, xususan, Movarounnahrdan namuna oldi, ko'p holatda Eron va Turon zaminidan chiqqan arboblar xalifalik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynay boshladilar. Abbosiylar davrida yaratilgan ma'naviy boylikda ajdodlarimizning ulkan hissasi mavjud edi.

762-yili xalifalik poytaxti Damashqdan Bag'dodga ko'chdi. Tez orada Bag'dod xalifalik ilmiy markaziga aylandi. Abbosiy xalifalardan Horun ar-Rashid (786-809), ayniqsa, Ma'mun (813-833) nafaqat ilm-fanga hayrihohlik bilan qaradilar, balki uning rivojiga ham homiylik qildilar. Horun ar-Rashid davrida Bag'dodda tashkil etilgan kutubxonada ko'plab noyob kitoblar jam etilib, boshqa tillardagi adabiyotlarni tarjimonlar arab tiliga o'girar edilar.

Xalifa Ma'mun (813-833) hukmronligi davrida ilm-fan sohasiga homiylik yanada kuchaydi. Tabobat, falsafa, astronomiya, matematika fanlariga oid yunon, suriyoniy, sanskrit, pahlaviy, xorazm tillaridagi asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Ma'mun diniy ilmlar, falsafa, aniq fanlar bilan qiziqqan va o'zi ham ular bilan muntazam shug'ullangan. Uning bevosita homiyligi ostida Yunoniston, Hindiston, Rum, Eron va Marvdan «Bayt ul-hikma»ga katta miqdorda turli mavzudagi kitoblar kelib tushgan. Muhammad Muso Xorazmiy, Javhariy, Ahmad Farg'oniy, Ali Marvaziy va boshqalar keng ijodiy faoliyat yuritish uchun Bag'dodga taklif qilindi. Shu tariqa, xalifalik poytaxti Bag'dodda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») – «xalifa Ma'mun akademiyasi» tashkil topdi. Ilm markazida nemis tadqiqotchisi H.Zuter ta'kidlaganidek, olimlarning aksariyati Xuroson, Movarounnahr, Baqtriya, Farg'onadan bo'lgan.



Aban al-Laqihi tomonidan nasrdan nazmga o'girilgan "Kalila va Dimna" dostoni parchasi

Shu tariqa, aksariyat Turon zaminidan chiqqan olimlar tafakkuri bilan arab tilidagi ilm-fan yuzaga keldi. Yevropada keyinchalik katta xatoga yo'l qo'yilib, ularning barchasini «arab olimlari» deb atashgan edi. Chunki Bag'dodda barcha olimlar arab tilida ijod qilgan, asarlar arab tilida yozilgan edi. «Bayt



Arastu ilmi tolibga saboq bermoqda

ul-hikma»da yunon fani, hind-sanskrit madaniyati o‘rganildi, tibbiyot, astronomiya, matematikaga oid adabiyotlar tarjima qilindi, ularning ba’zilariga sharh yozildi, zamonaviy algebra, geometriya, optika asoslari yaratildi, kimyo fani juda taraqqiy topdi. Akademiya nafaqat tarjima va tahlil ishlari bilan, balki ilmiy asnodagi ekspeditsiyalarni ham uyushtirgan. Masalan, 830-yili Muso Xorazmiy rahbarligida G‘arbiy Hindiston, keyinchalik, Vizantiyaga ilmiy safarlar uyushtirilgan. Shu davrda nafaqat poytaxt Bag‘dod, balki Kat, Marv, Buxoro, Samarqand, Balx va boshqa Turonning hududlaridagi shaharlarda ham ilm-fan keng taraqqiy topa boshlagan. Islom dini Qur’on va hadislardagi ta’limotda ilmga intilish, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham egallash imkoniyatini namoyon qildi. Bu esa o‘z navbatida oddiy aholi ichida ham xat-savod chiqarish, badiiy adabiyotdan boshlang‘ich ma’lumot olish, islom diniga oid bilimlar ko‘nikmasiga ega bo‘lish, afsona, rivoyat, doston, ertaklardagi qahramonlarni madh etish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Natijada she’riyat, adabiyot yuksak darajada rivojlana bordi. Rasmiy doirada ilm-fan, ma’rifatni qo‘llab-quvvatlash mazkur soha vakillari obro‘-e’tiborini nihoyatda yuksak mavqega erishuviga sabab bo‘ldi. Islom dinining birlashtiruvchi kuchi tufayli ilm-fan va madaniyat bobida ulkan muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. Aksariyat zamonaviy fanlarning poydevori ham aynan shu davrda qo‘yildi.

Bayt ul-hikmaga rahbarlik qilish va nazorat xalifaning o‘z vakolatida edi. Shuningdek, xalifalardan keyin unga vazir Sahl ibn Horun mas’ul edi. Manbalarda Sahl ibn Horunning «Bayt ul-hikma» bo‘yicha maslakdoshi deb Sa’id ibn Horun ham eslatiladi. O‘z

zamonasining fozil kishilaridan sanalgan, bir qancha risolalar muallifi bo'lgan bu shaxsga oid yetarli ma'lumotlar saqlanmagan. Ulardan birinchisiga nisbatan manbalarda «Bayt ul-hikma»ning egasi («sahib») degan atama ishlatiladi. Bu sohib «Bayt ul-hikma»dagi barcha ishlarni boshqargan, ularga mas'ul va javobgar bo'lgan. U «Bayt ul-hikma»dagi lavozimlarning eng oliysi hisoblangan. Tadqiqotchilar «sohib Bayt ul-hikma»ni «Bayt ul-hikma»ning boshqaruvchi egasi» deb tarjima qilishgan. Xuddi shunday «Bayt ul-hikma»ning boshqaruvchi egasi» lavozimiga hozirga qadar to'liq ismi ham, tarjimai holi ham aniqlanmagan «Sallam» ismli yana bir shaxs ham sazovor bo'lgan. Manbalarda uning fors tilidan arab tiliga qilgan tarjimalari haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu hol uning ham Saxl ibn Horun kabi fors madaniyatiga mansubligini ko'rsatadi.

Bilib oling!

Manbalarda «Bayt ul-hikma»da faoliyat ko'rsatgan bir qancha allomalarga nisbatan «xazin», «amin», «mushrif» kabi biror faoliyatni idora etganini anglatuvchi so'zlar uchraydi. Bunday lavozimlarga ega olimlarning soni bir vaqtning o'zida bir nechta bo'lganidan ish faoliyati o'z mazmuni, tili yoki yana boshqa birorta xususiyatiga ko'ra qismlarga bo'lingan deb taxmin qilish mumkin.

Idora etuvchi mas'ul boshqaruvchilar, olimlar va tarjimonlardan tashqari «Bayt ul-hikma»da nusxa ko'chiruvchilar, xattotlar, varroqlar, kitobxonlarga xizmat ko'rsatuvchilar, muqovalovchi ustalar kabi amaliy ishlarni bajaradigan xodimlar guruhi xam faoliyat ko'rsatgan. Bu toifadagi xizmatchilar uchun alohida xonalarning mavjud bo'lgani ehtimoldan holi emas. Nusxa ko'chiruvchilar odatda, tushgan talablarga binoan «Bayt ul-hikma»dagi noyob kitoblardan yangi nusxalar tayyorlaganlar. Shu bilan bir qatorda, ular yangi asarlardan nusxalar olib, «Bayt ul-hikma»dagi kitoblar sonini adabiyotlar bilan doimo boyitib borganlar. «Bayt ul-hikma»dagi eng mashhur nusxa ko'chiruvchi *A'lon ash-Shu'uvbiy* bo'lgan.

Demak, «Bayt ul-hikma» dastlab kutubxona sifatida vujudga keladi. Bu esa «Bayt ul-hikma» ta'sis etilgan ilk davrlarda uning asosiy vazifasi qo'shni davlatlardan keltirilgan qadimgi yunon, fors va hind tillaridagi turli asarlarni saqlash, jamlash va ularni ko'paytirishdan iborat bo'lganini ko'rsatadi. Kitoblar Bag'dodda jamlangandan so'ng, tabiiyki, ularning mazmunini bilish va tushunishga ehtiyoj tug'iladi. Buning uchun esa keltirilgan kitoblarni arab tiliga o'girish taqozo etiladi. Shu tariqa «Bayt ul-hikma»dagi eng dolzarb masala – xorijiy tillardagi kitoblarni arab tiliga o'girish va ulardan olingan natijalarni tajribalar orqali qaytadan tekshirib chiqish muammosi paydo bo'ldi. Tabiiyki, buning uchun turli tillarni biladigan, yuqori malakali tarjimonlar guruhi talab qilinar edi. Shu bois, Bag'dod hokimlari turli mamlakatlardan arab va boshqa qadimiy tillarni biladigan mutaxassislarni «Bayt ul-hikma»ga taklif eta boshladilar va ularga tarjima ishlari uchun katta maosh tayinladilar.

«Bayt ul-hikma»dagi dastlabki tarjimonlarning aksari qo'shni mamlakatlardan taklif etilgan nasroniy, majusiy, yahudiy, hind va musulmonlar bo'lgan. Ularning ko'pchiligi nafaqat oddiy tarjimon, balki o'z sohasining yetuk bilimdonlari va olimlari edi. Bu olimlar «Bayt ul-hikma»da tarjima va sharhlash ishlaridan tashqari o'zlarining nodir asarlarini yozish bilan ham shug'ullangan va ilmiy izlanishlar olib borganlar. Shu tariqa, «Bayt ul-hikma» tarjimonlar, faylasuflar, matematiklar, astronomlar, tabiblar, shoirlar kabi turli toifadagi olimlarning tez-tez uchrashib, ilmiy munozaralar olib boradigan, bir-birlari bilan maslahat va fikrlar almashadigan maskanga aylandi.

14.2. BAYT UL-HIKMADA FAOLIYAT KO'RSATGAN O'RTA OSIYOLIK OLIMLAR

IX-X asrlarga kelib Movarounnahr hududida mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Gurganj va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib, rivojlana boshladi.

Bilib oling!

Yoqut al-Hamaviy «Mo'jam al-buldon» asarida shunday yozadi: *«Movarounnahr eng ko'rkam, eng unumdor va xazinasi ko'proq o'lkalardandir. Aholisi esa yaxshilikka va saxovatga rag'batli, chaqirgan kishiga kamtarlik bilan muomala qiluvchi, qo'llarida borini baham ko'ruvchidirlar. Agar bir xonadonda bir kechada yuz, ikki yuz yoki ko'proq odamlar ot-ulovlari bilan mehmon bo'lsa, ulovlariga yem-xashak, o'zlariga taom va ko'rpa-to'shaklar ham topish mumkin edi. Uy egalari esa bu narsa doimiy odat bo'lganligi uchun hech qiynalmaydilar. Movarounnahr aholisining ko'pchiligi o'z mablag'larini bog'-rog' barpo qilishga, yo'llarni ta'mirlashga sarf qilishga odatlanganlar. Ko'rkamlikda esa butun dunyoda Buxorodan go'zal joy yo'q».*

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, IX-XIII asr boshlarida O'rta Osiyoda Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatlari hukm surdi. Bu davlatlar xalqaro maydonda o'z mavqei va tutgan o'rni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'ldilar. Ahmad, Nasr, Ismoil Somoniy, Alptegin, Mahmud G'aznaviy, To'g'rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takish singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishlarga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi.

Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa katta shaharlarda O'rta Osiyodan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ajdodlarimiz soni bu davrga kelib ko'paya bordi. Bag'dod shahri Sharqning ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu yerda «Bayt ul-hikma» – («Donishmandlar uyi») Sharqning o'ziga xos fanlar akademiyasi tashkil etilgan edi. Bunga monand holda X asr oxirlarida Xorazmda ham xorazmshoh Ma'mun davrida (995-997) «Donishmandlar uyi» yoki «Ma'mun akademiyasi» (Xorazm akademiyasi) tashkil topdi. Bu ikki ilm o'chog'larida

Sharqning mashhur va ma'lum olimlari tahsil olganlar. Ular orasida Ahmad Farg'oniy, Muso Xorazmiy, Yahyo ibn Abu Mansur, Abul-fazl ibn Turk Xuttaliy, Abu Homid Ahmad ibn Muhammad as-Sag'oniy kabi qator olimlar ham bu ilm markazi rivojiga katta hissa qo'shadi.



Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850). Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad Muso Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Xorazmiy Xorazmda tug'ilib o'sdi. Adabiyotlarda 783-yil uning tug'ilgan yili deb qabul etilgan. U dastlabki ma'lumot va turli sohadagi bilimlarni asosan o'z yurtida, O'rta Osiyo shaharlarida ko'pgina ustozlardan olgan.

Ma'lumki, Ma'mun dastlab Marvda xalifa Horun ar-Rashidning noibi, so'ng 813-yildan boshlab xalifa sifatida bu shaharda yashadi. 819-yilga kelib o'z qarorgohini Bag'dodga ko'chadi. Xalifa Ma'mun Marvda bo'lganida Xorazmiyni, movarounnahrlik va xurosonlik boshqa olimlarni o'z saroyiga jalb qilgan.

Xalifa Ma'mun davrida Bag'dodda O'rta Osiyo va Xurosondan kelgan bir guruh olimlar ijod etgan. Ular orasida Xorazmiy bilan bir qatorda Marvdan Yahyo ibn Abu Mansur, Ahmad Farg'oniy, Habash Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik Marvarrudiy, Forobdan Abul Abbos Javhariy va boshqa olimlar bor edi.



«Al-jabr va al-muqobala»ning bir sahifasi

Bilib oling!

«Muso Xorazmiy o'z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri».

J. Sarton




Bag'dodda xalifa Ma'mun otasi tomonidan asos solingan ilmiy markaz – «Bayt ul-hikma» faoliyatini har tomonlama takomillashtirib, unga yirik davlat muassasasi tusini berdi. Vizantiya, Hindistondan ko'plab kitoblar keltirilib, «Bayt ul-hikma»ning faoliyat doirasi birmuncha kengaytiriladi, uning qoshida ikkita yirik rasadxona: birinchisi 828-yilda Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida, ikkinchisi 831-yilda Damashq yaqinidagi Kasiyun tog'ida barpo etiladi. Xorazmiy bu ilmiy markazning mudiri sifatida uning faoliyatini kuzatib turadi. Xorazmiy ana shunday ilmiy muhitda yashab ijod qildi. U 850-yilda Bag'dodda vafot etdi. Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» – algebraga oida asar, «Hind hisobi haqida kitob» yoki «Qo'shish va ayirish haqida kitob» – arifmetik asar, «Kitob surat ul-arz» – geografiyaga oid asar, «Zij», «Usturlob bilan ishlash haqida kitob», «Usturlob yasash haqida kitob», «Usturlob yordamida azimutni aniqlash haqida» – astronomiyaga oid asarlar, «Kitob ar-ruhoma», «Kitob at-ta'rix», «Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola» – tarix va mantiqqa oid asarlardir. Bu asarlarning to'rttasi arab tilida, bittasi Farg'oniyning asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchtasi hali topilgan emas.

XII asrda Jerar Kremona va Roberts Chester Muhammad Xorazmiyning algebrasini lotin tiliga tarjima qildi. Dunyo matematiklari undan XVI asrgacha foydalanganlar. Tarjimaning XIV asrda ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanib,1857-yilda Kembrij universiteti kutubxonasida topilgan. Risola quyidagi so'zlar bilan boshlanadi: «Diksit Algorizmi», ya'ni «Al-Xorazmiy aytdi. Keling, Xudoga, rahbarimiz va himoyachimizga munosib hamdu sanolar aytaylik». Yevropada shu tufayli «Diksit Algorizmi» – «al-Xorazmiyning aytishicha» degan qoida yuzaga kelgan. Bundan keyin Xorazmiy to'qqizta hind raqamining sonlarni ifodalashdagi afzalliklari va ular yordamida har qanday sonni ham qisqa qilib va osonlik bilan yozish mumkinligini aytadi. Asarning lotincha qo'lyozmasida hind raqamlari ko'pincha yozilmay, ularning o'rni bo'sh qoldirilgan yoki ahyon-ahyonda 1, 2, 3, 4, 5 sonlarga mos keladigan hind raqamlari yozilgan. Ko'pincha esa hind raqamlari o'sha davrda Yevropada keng tarqalgan Rim raqamlari bilan almashtirilgan.

Hozirda ispan (guarismo) va portugal (algarismo) tillarida 0 sonining nomlanishi ham Xorazmiyning ismidan kelib chiqqan edi.

Xorazmiy hind raqamlari asosida o'nlik pozitsion sistemada sonlarning yozilishini batafsil bayon qiladi. U sonlarning bunday yozilishidagi qulayliklar, ayniqsa, nol ishlatilishining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Keyin Xorazmiy arifmetik amallarni bayon qilishga o'tadi. Bunda Xorazmiy sonlarning martabalarini, ya'ni razryadlarini e'tiborga olishni hamda nolni yozishni unutmaslikni uqtiradi, aks holda natija xato chiqadi, deydi u.



Bilib oling!

Xorazmiyning arifmetik risolasi XII asrdayoq Ispaniyada seviliyalik Ioann tomonidan qayta ishlangan. Keyinchalik, to yangi davrgacha Yevropa olimlari Xorazmiy risolasiga qayta-qayta murojaat qilib, u asosida darsliklar yozganlar. Bu qayta ishlangan nusxalar va darsliklarning nomida «Algorizm kitobi» degan ibora bo'lgan.

Xorazmiyning eng yirik astronomik asari uning «Zij»idir. Olim bu asarini 830-yil atrofida yozgan. Xorazmiy «Zij»i xalifalikdagi dastlabki astronomik asarlardan edi. Asar 1037-yili ko'chirilgan yagona arabcha nusxasida bizgacha yetib kelgan bo'lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi. Geografiyani iqlimlar nazariyasiga to'la rioya etgan holda birinchi marta Xorazmiy bayon qiladi. U yerning ma'mur, ya'ni insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Xorazmiy qadimgi yunon olimi Ptolomeydan farqli o'laroq mintaqalar, mamlakatlar va ulardagi geografik joylarni emas, balki birinchi iqlimdan to yettinchi iqlimgacha joylashgan hududlarni tavsif etadi. Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Uning asarlari G'arb va Sharq tillariga tarjima etilgan.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O'zbekiston 24» telekanali tomonidan efirga uzatilgan «Гений алгоритма» ko'rsatuvini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

Ahmad Farg'oniy (797-865) O'rta Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik va geograf sifatida shuhrat qozongan. Olimning to'liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy bo'lib, Farg'ona vodiysining Qubo (Quva) qishlog'ida tug'ilgan. Shunisi ma'lumki, Ahmad Farg'oniy xalifa Horun ar-Rashidning sharqiy yerlaridagi muovini, o'g'li Abdullohning (bo'lajak xalifa Ma'mun-ning) Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. 819-yili Ma'mun butun saroy a'yonlari va ulamolari bilan birga Bag'dodga ko'chadi. Ular orasida Farg'oniy ham bor edi.



Ahmad Farg'oniy (rassom M.Nabiyev, 1994)



Nihoyat, Ahmad Farg'oniyning hayoti haqidagi eng so'nggi va eng aniq xabar 861-yil bilan bog'lanadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, u shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya'ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan. U barcha suv havzalarining sathi va miqdorini o'lchashga mo'ljallangan edi. Uskuna ilk bor Nil daryosida sinab ko'rilgani uchun «Miqyosi Nil» nomini olgan. Olimning Nil daryosi orollaridan biri – Roud «burni»ga qurgan «Miqyosi Nil» uskunasi Misrda yangicha soliq miqdoriga asos soldi.

Manbalarda Ahmad Farg'oniyning kanal qurilishi bilan bog'liq bir voqeaga jalb qilinganiga doir bir qiziq ma'lumot mavjud. Unga ko'ra, xalifa Mutavakkil Muso ibn Shokirning ikki o'g'li Muhammad va Ahmadga al-Ja'fariy nomli kanal qazishni nazorat qilishni ishonib topshirgan edi. Ular bu ishni Ahmad Farg'oniyga topshirdilar va shu tariqa o'zlarining kasbiy hasadlari tufayli Samarradagi al-Mutavakkil saroyidan uzoqda, Bag'dodga jo'natishlariga sabab bo'lgan yaxshiroq

muhandis Sind ibn Aliga atayin e'tibor bermadilar. Kanal Mutavakkil Dajla bo'yidagi Samarra yaqinida qurgan va o'z nomi bilan atalgan yangi shahar al-Ja'fariya orqali o'tishi kerak edi. Ahmad Farg'oniy xatoga yo'l qo'yib, kanalning boshini qolgan qismidan chuqurroq qilib qo'ydi, shuning uchun Dajla baland bo'lgandagina kanal uzunligidan yetarlicha suv o'tmaydi. Bu xabar xalifani g'azablantirdi. Sind ibn Alining al-Farg'oniyning hisob-kitoblarining to'g'riligiga kafolat berish, o'z farovonligi va ehtimol hayotini xavf ostiga qo'yishga intilishi tufayli ikki aka-uka og'ir jazodan xalos bo'ldi. Al-Farg'oniyning xatosini tushuntirish shundan iboratki, u amaliy muhandis emas, nazariyotchi bo'lgani uchun qurilishni muvaffaqiyatli tugatmagan.

Bilib oling!

Ahmad Farg'oniyning hayoti haqidagi ma'lumotlar juda kam bo'lganligiga qaramay, o'rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo'lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII-XIII asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (X asr), Hoji Xalifa (XVII asr) kabi Sharq allomalari uni o'z asarlarida salohiyatli olim sifatida eslatadilar.


Ahmad al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» («Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum») bo'lib, XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng uning lotinlashtirilgan nomi «Alfraganus» shaklida G'arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning bu kitobi shu asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o'tadi.

Hatto XIII asrdan boshlab keyingi 400 yil davomida Yevropa universitetlarida asosiy astronomik qo'llanmalardan biri bo'lib xizmat qilgan mashhur astronom Iogan de Sakrobosko (Hollybushlik Jon)ning «Sfera» asarida ham Farg'oniyning «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» asaridan ko'plab iqtiboslar keltirib o'tilgan.





«Miqyosi Nil»



Oydagi kraterlardan biriga Ahmad Farg'oniy nomi berilgan

Ahmad Farg'oniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493-yilda nashr etilgan bo'lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. Asar 1590-yili Yakov Anatolius tomonidan ibroniychaga, 1669-yili mashhur golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius al-Farg'oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so'ng al-Farg'oniy va uning asarining Yevropadagi shuhrati yanada ortdi. Yevropa Uyg'onish davrining buyuk namoyondalaridan biri bo'lgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma'ruzalarni al-Farg'oniy kitoblaridan o'qigan. Al-Farg'oniy nomini Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham o'z asarlarida eslagan edi.

Hozirgi kunda al-Farg'oniyning sakkizta asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador. Ular quyidagilardir: yuqorida tilga olingan asar, odatda uni «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomi bilan ham atashadi. Uning «Usturlob yasash haqida kitob», Usturlob bilan amal qilish haqida kitob», «Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola», «Quyosh soatini yasash haqida kitob» dunyoning ko'plab kutubxonalarida

saqlanadi. Uning «Al-Xorazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash» asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo'lyozmasi topilmagan.

Bilib oling!

Aldo Miele shunday deydi: ***«Abu al-Abbos al-Farg'oniy sayyoralarning masofalari va o'lchamlari uchun aytib o'tgan o'lchovlarni ko'pchilik, deyarli o'zgarmagan holda, hatto astronom Kopernik ham qo'llagan».***

Farg'oniyning nomi Xorazmiy kabi butun Sharq va G'arbda mashhurdir. O'rta asrda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida manbalarda, so'nggi G'arb va Sharq mualliflar asarlarida, o'z yurti O'zbekistonda iftixor bilan tilga olinadi, o'rganiladi. 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan allomaning 1200 yillik tavallud sanasi katta tantanalar bilan nishonlandi.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O'zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Buyuk yurt allomalari» ko'rsatuvining *Ahmad Farg'oniy*ga bag'ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

Abu Hamid Ahmad ibn Muhammad as-Sag'oniy al-Asturlabiy o'rta asr arab manbalarida «Sag'aniyan», fors manbalarida esa «Chag'aniyan» deb yuritilgan shahardan kelib chiqqan. O'sha davrdagi Sag'oniyon bugungi Surxondaryo viloyatining Denov shahri atrofini

egallagan. Olim o‘z davrining yirik astronomlaridan edi. U, asosan, Bag‘dodda faoliyat ko‘rsatgan. Ahmad as-Sag‘oniyning ismiga qo‘shib aytilgan «asturlabiy» laqabi uning usturloblar, umuman, astronomik kuzatuv jihozlar yasashda va ularni qo‘llashda mohir mutaxassis (konstruktor) bo‘lganidan dalolat beradi. Olim falakiyotdan tashqari handasaga oid bir nechta asarlarning ham muallifidir.

Bilib oling!

Ibn al-Qiftiyning Ahmad as-Sag‘oniy haqidagi quyidagi fikrlari diqqatni jalb etadi: «Abu Hamid Ahmad ibn Muhammad as-Sag‘oniy al-Asturlobiy o‘z vaqtida handasa (geometriya) va falakiyot (astronomiya) fanlaridagi aksariyat muvaffaqiyatlarning sohibi bo‘lgan fozil olimlardan edi. U Bag‘dodda usturloblar va boshqa astronomik jihozlar yasashda ham katta yutuqlarga erishgan. U yaratgan jihozlar o‘sha vaqtdagi astronomlarga yaxshi tanish. Uning bir qancha shogirdlari katta shuhrat qozonganlar va o‘z ustozlari bilan faxrlanganlar. Ahmad as-Sag‘oniy qadimgi jihozlarni takomillashtirishda hech kim bajara olmagan natijalarga erishgan».

Ibn al-Qiftiy yana shularni ma’lum qiladiki, Bag‘dod hukmdori Adud ad-Davlaning o‘g‘li Sharaf ad-Davla (951-989) Bag‘dodni boshqargan yillarida u yerda rasadxona sifatida foylalanish uchun bir uy qurdiradi. Bu rasadxona 988-yilda Bag‘dodning xushmanzara bog‘laridan birida bunyod etiladi. Uyning diametri 12,575 m bo‘lgan sharning segmenti, shar markazi esa shu uyning shiftidagi teshik bo‘lib, u orqali Quyosh nurlari kirib kunlik parallelni chizgan. U yerda astronomik tajribalarni amalga oshirish maqsadida olimlar to‘planishar edi. Ular orasida mashhur astronomlardan Vijan al-Kuxiy (X-XI) va Ahmad as-Sag‘oniylar ham ishtirok etgan. Sulton Sharaf ad-Davla Vijan al-Kuxiyga rasadxonani bunyod etish va yetti sayyoraning harakatlari va ularning o‘z burjlarida siljishlarini aniqlashni topshiradi. Vijan al-Kuxiy rasadxonada olib borilgan tajribalar haqidagi

ma'lumotlarni mamlakatning yirik olimlari, hakimlari va qozilarining ishtiroki va guvohligida tuzgan. Qiziqarlisi shuki, tajriba yakunlanganidan so'ng ikki bayonnoma tuzilib, ishtirokchilar uni o'z imzolari bilan tasdiqlaganlar. Ibn al-Qiftiyning ta'kidlashicha, Ahmad as-Sag'oniy yig'ilganlar orasida bo'lib, Quyoshning ikki burj bo'yicha botishini o'z qo'li bilan yozgan va ba'zi tuzatishlar kiritgan.

Bilib oling!

Ahmad as-Sag'oniyning ilmiy merosi Abu Rayhon Beruniy, Ibn Iroq, Sijjiziy kabi mutafakkirlar tarafidan hurmat bilan eslanadi. Bu hol uning asarlari shuhrat qozonganidan dalolat beradi. Jumladan, Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarining yahudiy yillari va davrlarini aniqlash haqidagi qismida as-Sag'oniy hisoblaridan foydalanganini aytadi. Beruniy doiralar va nuqtalardan iborat kurralarni sathga aylantirish mumkinligi haqida gapirar ekan shunday deydi: «Abu Homid as-Sag'oniy konuslar boshini ikkala qutbdan ko'chirib, uni o'qlar bo'yicha qarab kurraning ichiga yo toshga qo'ygan. Shunda kurra to'g'ri chiziqlar, doiralar va as-Sag'oniy istagan kayfiyatda to'liqsiz, yetarli va ortiqcha parchalar tashkil etgan. Bu ajoyib sathni undan oldin hech kim ishlatmagan».

Abu Rayhon Beruniy o'zining «Geodeziya» asarida Ahmad as-Sag'oniy qalamiga «Falakiyot nomining qonunlari» («Qavanin ilm al-hay'a») kitobi mansubligini ko'rsatadi va unda as-Sag'oniy 965-yilda Bag'dodning g'arbiy tarafidagi «Birkatu Zal-zal» degan joyda diametri olti qarich va aylanasi besh minutlik bo'limlarga taqsimlangan halqa yordamida o'lchash olib borib, to'liq og'ishni va Bag'dodning kenglik tenglamasini topganini ta'kidlaydi. As-Sag'oniy 990-yili Bag'dodda olamdan o'tgan.

As-Sag'oniyning «Osmon sferasini tekislikda tasvirlash» («Kayfyiat tastiyx al-kura») risolasi Patna va Istanbuldagi kutubxonalarda saqlanadi. Risola o'n ikki bobdan iborat bo'lib, unda

osmon sferasining astrolyabiya sathida tasvirlash masalalari ustida mulohazalar yuritiladi. Alloma yuqoridagilardan tashqari «Doira ichiga joylashtirilgan to'g'ri tarafli yetti burchakning tarafini yasash» («Risala fia 'amal dil al-musabb'a al-mutasavi fi-d-da'ira») va «Masofalar va hajmlar haqida» («Maqala fi-l-ab'ad va-l-ajram») nomli Parij va Damashqda saqlanayotgan asarlarning ham muallifidir.

Atamalar izohi



☑ ***Varroq*** – o'rta asrlardagi «varroq»lik zamonaviy tilda «kitobfurush» mazmunini beradi. Varroq deganda ko'chiriladigan asar uchun munosib qog'oz turini tanlab, uni ko'chirib yoki ko'chirtirib, so'ngra mas'ul bo'lgan shaxs nazarda tutiladi, boshqacha aytganda, varroq kerakli asarni tanlaydi, unga munosib qog'oz topadi, o'zi ko'chiradi yoki ko'chirtiradi, ko'chirilgan asarni ko'zdan kechiradi va xatosi bo'lsa tuzatadi, uning muqovalanishiga, do'konlarga chiqishiga va sotuviga javobgar bo'ladi. Varroqlarning aksari o'z davrining ziyoli kishilari bo'lgan.

☑ ***Zij*** (fors) – islom mamlakatlaridagi astronomik jadvallarning umumiy nomi. Jadvallarning o'zlariga qo'shimcha ravishda, zijlar ulardan foydalanish qoidalarini va ko'pincha bu qoidalarning ko'proq yoki kamroq nazariy batafsil dalillarini bergan.

☑ ***Algoritm*** – ma'lum bir turga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida (dastur). Kibernetika va matematikaning asosiy tushunchalaridan biri. O'rta asrlarda sanoqning o'nli tizimi bo'yicha to'rt arifmetik amal bajariladigan qoidani *algoritm* deb atashgan. Bu qoidalarni matematikaga IX asrda al-Xorazmiy kiritgan. Yevropada bunday qoidalar uning tug'ilgan yurtiga nisbatan lotinchalashtirilgan (Algoritmus yoki Algorithmus shaklida «algorism» deyilgan), keyinchalik «algoritm»ga aylangan.

Savol va topshiriqlar

1. «Renessans» atamasiga ta'rif bering.

2. Sharq uyg'onishiga nisbatan «musulmon renessansi» deyish qanchalik to'g'ri?

3. Nima sababdan IX-X asrlarda Arab xalifaligi hududida ilm-fan va madaniyat yuksalishi ro'y berdi?

4. Xalifalarning ilm-fanga homiylik qilishiga nimalar sabab bo'lgan?

5. Ma'munning ilm-fan homiysi ekanligini izohlang.

6. «Bayt ul-hikma»ning tashkil topish bosqichlarini sanang. U dastlab qanday muassasa edi?

7. «Bayt ul-hikma» qanday boshqarilgan?

8. O'rta Osiyoda ilm-fan rivoji uchun qanday omillar mavjud edi?

9. Muhammad Muso Xorazmining ilmiy merosi haqida nimalarni bilib oldingiz?

10. Muso Xorazmiyning ma'naviy merosi bugungi kun uchun qanday ahamiyatga ega?

11. Farg'oniy qurgan «nilometr»ning asosiy xususiyati nimada edi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduhalimov B.A. Bayt ul-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'dodlagi ilmiy faoliyati (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Boboyev S. Ahmad Farg'oniy. – T.: Tafakkur, 2011.

3. Jumanazar A. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – T.: Akademnashr, 2017.

4. Jumayeva N. O'rta Osiyo allomalarining ilmiy merosi. Uslubiy qo'llanma. – Buxoro: Durdona, 2013.

5. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashxur siymolar, allomalar, adiblar) / Mas'ul muharrir: M. M. Xayrullayev. To'ldirilgan qayta nashr. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.

6. Usmonov T. Ahmad Farg'oniy va Bayt ul-Hikma. – T.: O'qituvchi. 1998.

7. O'zbekiston tarixi. I qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. – T.: Fan, 2019.

8. Qayumov A. Ahmad Farg'oniy. – T.: Cho'lpon, 1998.



Abu Ali ibn Sino

ish olib boruvchi uyushmalariga aylangan. Aynan mazkur akademiyalarda ilm-fan va ta'lim sohalari uyg'unligi namoyon bo'ldi.

Ushbu tarixiy an'analar islom davrida yangi sifat darajasiga yetdi. Bag'dodda Ma'mun ibn Horun ar-Rashid davrida tashkil topgan «Bayt ul-hikma» Sharqning eng buyuk allomalarini, shu jumladan, o'rta osiyolik olimlarni o'z atrofiga to'plagan edi. «Bayt ul-hikma» o'z davri fan taraqqiyotini yuksak darajaga yetkazibgina qolmay, mumtoz yunon-rim antik davri fanining yoyilishiga ham xizmat qildi.

X asr oxiri – XI asr boshlariga kelib Arab xalifaligi siyosiy hokimiyatida inqirozli holatlar kuzatilgan bir vaziyatda an'anaviy





Ma'mun akademiyasining hozirgi ko'rinishi

davlatchilik zanjiri uzoq asrlar davomida uzilmay kelgan Xorazm bir muncha barqaror rivojlanish pallasida edi. Xususan, afrig'iylardan hokimiyatni olgan ma'muniylar davri bor yo'g'i 22 yilni tashkil etsada, ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalarda o'ziga xos jo'shqin davr bo'ldi. Ayni shu qisqa davrning 1004-1017-yillari orasida shakllanib, tez sur'atlar bilan rivojlangan «Donishmandlar uyi» yoki «Majlisi ulamo» sharqona «akademiyachilik»da misli ko'rilmagan ilmiy salohiyatni ishga soldi. Bu hodisa ajdodlarimiz ilmiy dunyoqarash an'analarining kuchli ildizlaridan dalolat edi. Asrlar osha to'plangan ilmiy tajribalar, Bag'dod «Bayt ul-hikma»si an'analari tarix taqozosi bilan Xorazm diyorida yanada yuksak pog'onaga ko'tarildi. Xorazm Ma'mun akademiyasi umumbashariy ahamiyatga ega ulkan ilmiy meros qoldirishga erishdi.

Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan yubiley tantanalari jarayonida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Xorazmdagi Ma'mun akademiyasini qayta tiklash tashabbusi bilan chiqdi va 1997-yil 11-noyabrda imzo chekkan farmoniga binoan Xiva shahrida Ma'mun akademiyasi qayta tashkil qilindi. Bu voqea o'zbek xalqi

madaniy va ma'naviy hayotida muhim o'rin egalladi. O'zbekistonning taklifi va tashabbusi bilan YUNESKO tomonidan Ma'mun akademiyasining 1000 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashda ishtirok etish haqida qabul qilingan qaror hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shunga muvofiq qarori asosida 2006-yil 2-noyabr kuni Xiva shahrida yubiley tantalari va xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi.

15.2. ABU NASR FAROBIY – «IKKINCHI MUALLIM»



Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Farobiy (873-950) ilm-fanga katta hissa qo'shgan mashhur faylasuf, qomusiy olim hisoblanadi. Farobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug'lanib, «Al-Muallim as-soniy» – «Ikkinchi muallim» (Aristoteldan keyin), «Sharq Arastusi» deb yuritilgan.

Farobiy turkiy qabilalardan bo'lgan harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryo qirg'og'idagi Farob – O'tror degan joyda tug'ilgan. Farobiy boshlang'ich ma'lumotni ona yurtida oldi. So'ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o'qidi. Keyinroq o'z ma'lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo'lgan Bag'dodga keldi. Taxminan 941-yildan boshlab Farobiy Damashqda yashagan. Farobiy 949-950-yillarda Misrda, so'ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va «Bob as-sag'ir» qabristoniga dafn qilingan.

Farobiy o'rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko'proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin: 1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ'ib qilish va

o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar; 2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Farobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Yevklid, Ptolomey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari («Metafizika», «Etika», «Ritorika», «Sofistika» va b.)ni batafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko‘rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Farobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqnigina emas, o‘rta asr G‘arbini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o‘ynadi. Bu faoliyat uning ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu bosqich Farobiyga o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tagan va yangi mavzularda tadqiqotlar olib borish uchun zamin hozirlagan.

Mutafakkir o‘z asarlarini o‘sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Farobiy, shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she’rlar ham yozgan. Farobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq, lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan.

Bilib oling!


Ibn Sinoning yozishicha, u qadim yunon faylasufi Arastuning «Metafizika» asarini bir necha bor o‘qib hech narsani tushunmaganini eslaydi. Kunlardan bir kun bir kitob sotuvchi tanishi unga kerakli asarni olib kelganini aytadi va Ibn Sino unchalik qimmat bo‘lmagan 3 dirhamga Farobiyning «Arastuning «Metafizika» asariga sharh»ini sotib oladi. Ibn Sino ushbu asar orqali metafizika masalasidagi savollariga javob topganligini xotirlab o‘tadi.

Farobiy «Fozil shahar aholisining maslagi» risolasida jamiyat («inson jamoasi»)ning kelib chiqishi haqida bunday yozadi: «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun

insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi... Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda, ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi».

Bilib oling!

Mutafakkir inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqdi. «Davlat arbobining hikmatlari» risolasida esa u doimiy urushlar va bosqinchilikka asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi. Farobiy «Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola», «Baxt-saodatga erishuv haqida risola» asarlarida o‘zining orzu qilgan fozil jamiyatini yana ham yorqin tasvirlaydi.



Abu Nasr Forobiy kitobidagi shohrud musiqiy asbobi chizmasi

Farobiy «Musiqa haqida katta kitob» degan ko‘p jildlik asari bilan o‘rta asrning yirik musiqashunosi sifatida ham mashhur bo‘ldi. U musiqa ilmini nazariy, amaliy tarmoqlarga; kuylarning ichki tuzilishi, qonuniyatlarini hisobga olib, ta’rif va ilmi iyqoga ajratadi. Keyinchalik, ushbu kitob Yevropada arab musiqasi nomi bilan tanishtirildi. Farobiy yirik musiqashunos sifatida qator musiqiy asboblarni ixtiro qildi. Aytishlaricha, Farobiy shunday musiqachi bo‘lganki, qachonki u musiqa chalsa, odamlarni xohlagancha kuldirishi yoki yig‘latishi mumkin edi. Al-Farobiyning yana bir muhim ilmiy ishi shundaki, u turli kasalliklarga chalingan odamlarni davolash uchun birinchilardan bo‘lib ***musiqa terapiyasi***ni amalga oshirdi. Farobiy keyinchalik Yevropa uyg‘onish davrining ko‘plab ilg‘or mutafakkirlari dunyoqarashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O‘zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Buyuk siymolar» ko‘rsatuvining ***Abu Nasr Forobiyga*** **bag‘ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.**

(*Manba*: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

15.3. BERUNIY – XI ASR DAHOSI

Abu Rayhon Beruniy o‘z zamonasining barcha fanlari – fizika, matematika, astronomiya, geodeziya, tarix, geografiya va bir necha boshqa fanlarni puxta egallagan olim bo‘lgan. Olim 362-hijriy yili (973-y.) Xorazmning qadimgi Kat shahrida tug‘ilgan.

Bilib oling!

Beruniy Kot (Kat) shahrining tashqarisida tug‘ilganligi uchun «Beruniy», ya’ni «tashqarilik» degan taxallus bilan atalgan. Uning ilk ustozi Abu Nasr ibn Iroq bo‘lib, Beruniy undan astronomiya, algebra va geometriyaga oid bilimlarni o‘rgangan. «Batlimusi soniy» («Ikkinchi Ptolomey») degan faxriy nom olgan Abu Nasr ibn Iroq Beruniyga mehri balandligidan 12 ta asarini mazkur sevimli shogirdiga bag‘ishlagan. Beruniyning ikkinchi ustozi Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan Jurjondagi paytida tanishgan. Beruniy undan tibbiyot, astronomiya va falsafaga oid bilimlarni o‘rgangan.

Beruniy ismidagi «Abu Rayhon» qismi – Rayhonning otasi (rayhonning eng yaxshisi, a’losi ma’nosida), «Muhammad» – mutafakkirning o‘z ismi, «ibn Ahmad» – Ahmadning o‘g‘li ekanini anglatadi.



Abu Rayhon Beruniy

O‘sha davrda Kat shahri afrig‘iylar sulolasining poytaxti bo‘lib, muhim savdo va madaniy markazlardan biri edi. Afsuski, Beruniyning tarjimai holi haqida bizgacha juda kam ma’lumot yetib kelgan. Shuning uchun u boshlang‘ich ta’limini kimdan, qachon olganligi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Ammo bir narsa aniqki, u yoshligidanoq ilm-fanga juda ham qiziqqan, qobiliyatli, mehnatkash yigit bo‘lgan.

U Xorazmdagi Ma’mun akademiyasining eng ko‘zga ko‘ringan faol ishtirokchilaridan biriga aylanadi. Shu bilan birga u shoh Ma’mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakat siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi. Xorazmdagi siyosiy ziddiyatlar va notinchlik sabab Beruniy 22 yoshida ona shahrini tark etib, Kaspiy dengizi janubidagi Jurjon va Rayda nihoyatda faqirlikda kun kechirgan. Hatto ilmiy munozaralarda ham puldor olimlar uning muhtojligi ustidan kulishgan. Bu haqida Beruniyning o‘zi shunday yozadi: *«Ray shahrida bir olim astronomiya sohasida men bilan bahsga kirishdi va ilmda mendan ancha past tursa-da, mendan o‘zini yuqori olib, hatto kaminani haqorat ham qildi. Vaholanki, faqat boylik ortiqchaligi oramizdagi farq edi».*



Beruniy qiyofasining 3D (uch o‘lchamli) ko‘rinishi

Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillar: arab, sug'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rganadi. Beruniy «Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000-yilda Tabariston hukmdori saroyida yozib tamomlagan. «Osor al-boqiya» Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanligini ko'rsatdi. Ushbu asarda garchi Beruniy turli xalqlarning vaqt o'lchovlarini aniqlash masalasiga katta e'tibor qaratgan bo'lsada, asar fanning turli sohalarini qamrab olgan qomusiy qo'llanma edi. Jumladan, Beruniy ushbu asarda insoniyat tarixida birinchilardan bo'lib *kesarcha kesish* (keserva)ning ilmiy asoslarini keltirib, jarayonni tasvirlab beradi.

Bilib oling!

Bundan tashqari, Beruniy Jurjonda astronomiya, petrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi. Beruniy Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbos Ma'mun II ibn Ma'mun (1009-1017) tomonidan mamlakatning yangi poytaxti Gurganjga chaqirtirildi. U Xorazmshoh tomonidan katta izzat-ikrom bilan qabul qilindi. Beruniy Gurganjda Ma'munning bevosita rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat ko'rsatdi.

Xorazmning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotiga o'zgarish yasaydi. U xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G'azna shahriga olib ketildi. Beruniyning 1017-1048-yillarda G'aznada kechirgan hayoti, bir tomondan ancha og'ir kechgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo'ldi. Beruniyning «Xorazmning mashhur kishilari» asari ham shu davrda yaratilgan. Beruniyning «Hindiston» nomli mashhur yirik asari – «Tahqiq mo li-l-Hind min ma'quda maqbula fi-l-aql av marzula» («Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash

kitobi») 1030-yilda yozilgan bo‘lib, bu shoh asar G‘arb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan.

Bilib oling!

Xorazm 1017-yil Mahmud G‘aznaviy tomonidan zabt etilgach, ko‘pchilik olimlar qatori Beruniy ham G‘aznaga olib ketiladi. Mahmud G‘aznaviy Xorazm hukmdori Ma’munning sadoqatli odamlari sifatida qarab, Beruniy va ba’zi olimlarga dastlab yaxshi munosabatda bo‘lmagan. Ammo keyinchalik, vaziyat o‘zgardi. Sulton Mahmud o‘zining Hindistonga qilgan bir nechta yurishlarida hatto Beruniyni munajjim sifatida yonida olib yurgan. Bu yurishlar davrida to‘plangan ma’lumotlar asosida olim o‘zining mashhur «Hindiston» asarini yozgan. Beruniyning ilmiy faoliyati Sulton Mahmudning o‘g‘li Mas’ud G‘aznaviy (1030–1041) davrida yanada yuksaldi. U Mas’udning arab tilini o‘rganishiga, astronomiyadan xabardor bo‘lishiga ko‘maklashdi. Sulton Mas’udning homiyligidan minnatdor bo‘lgan Beruniy unga bag‘ishlab «Qonuni Mas’udiy» asarini yaratgan.

Beruniy o‘z asarlari ro‘yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bulardan biri «Mineralogiya»dir. Bu risola o‘z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, xatto Yevropada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo‘q asar hisoblanadi. Uning «Dorivor o‘simliklar haqida kitob»i «Saydana» nomi bilan mashhur bo‘lib, unda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning to‘la tavsifini beradi. Beruniy yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi.

Yerdagi geologik o‘zgarishlarni muhokama qilganda, Beruniy «Yerning tortishish markazi ham uning yuzasida o‘zgaruvchan moddaning holatiga ko‘ra o‘z pozitsiyasini o‘zgartiradi», deydi. «Vaqt o‘tishi bilan dengiz quruqlikka va quruq yer dengizga aylanadi, lekin

agar bunday o‘zgarishlar yer yuzida inson paydo bo‘lishidan oldin sodir bo‘lgan bo‘lsa, biz ulardan xabardor emasmiz», deydi Beruniy. Masalan, u dengiz bo‘lgan va keyin qumga to‘lgan Arab cho‘li haqida hikoya qiladi. U 1029 ta yulduzning koordinatalari va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini hamda dunyoning geografik xaritasini tuzgan. Beruniy o‘zining falakiyotga oid asarlarida Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni birinchi bo‘lib ilgari surdi. U shu paytgacha noma’lum bo‘lgan Amerika qit’asi mavjudligini taxmin qilib, o‘z asarlarida bu haqda bir necha bor yozgan. Allomaning g‘arbiy yarim sharda katta quruqlik borligi to‘g‘risidagi fikri XV–XVI asrlarda o‘z tasdig‘ini topdi.

Abu Rayhon Beruniy 1048-yil 11-dekabrda G‘aznada vafot etgan.

Beruniy avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o‘z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma’lum. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmakognoziya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shug‘ullanib she’rlar yozdi.



XIX asrdan boshlab Yevropa va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima etildi. Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho bergan amerikalik tarixchi Jorj Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta’rifladi. Shuningdek, u Beruniyning merosiga katta baho berish

bilan birga , uni «o‘z davrining jahondagi birinchi donishmandi» deya baholaydi. Atoqli sharqshunos olim V.R.Rozen esa unga ilmiy qarashlari taajjublanarli darajada kengligi, uning hozirgi ma’nodagi haqiqiy fanning ruhiga xos ekanligini qayd etadi. Hind olimlari ham Beruniyning Hindiston falsafasi, dini, ilmi, urf-odatlari tarixini o‘rganishga qo‘shgan ulkan hissasiga yuqori baho beradilar. Beruniy merosi rus olimlarini ham qiziqtirib keldi. Mashhur sharqshunos olim I.Yu.Krachkovskiy Beruniy merosiga yuqori baho berib, «uning qiziqqan ilm sohalaridan ko‘ra qiziqmagan sohalarini sanab o‘tish osondir» deb, allomaning qomusiy aqlini yana bir bor ta’kidlab o‘tadi.

Bilib oling!



Beruniyning o‘z vatani O‘zbekistonda ham uning ijodiga katta e’tibor berib kelinmoqda. Toshkentda unga bag‘ishlangan qator xalqaro ilmiy konferensiyalar o‘tkazildi. Birinchi bor Beruniyning «Qadimgi yodgorliklar», «Hindiston», «Mas’ud qonuni», «Geodeziya», «Saydana» kabi asosiy asarlarini o‘z ichiga oluvchi ko‘p tomli saylanma asarlari o‘zbek va rus tillarida nashr etildi.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O‘zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Aslida qanday?» ko‘rsatuvining *Beruniy merosining o‘rganilishiga* bag‘ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

15.4. ABU ALI IBN SINO – TIB ILMINING SULTONI



Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri – Abu Ali ibn Sino bo'lib, u Yevropada «Avitsenna» nomi bilan mashhurdir. Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlog'ida, hijriy 370-(980) yilning safar oyida amaldor oilasida tug'ildi. 986-yilda Ibn Sino oilasi Buxoroga ko'chib keladi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlang'ich ma'lumot olishga, ilm-fanni o'rganishga kirishadi. Uning yoshligi, yigitlik chog'lari Somoniylar hukmronligining so'nggi yillariga, xususan, Nuh II ibn Mansur Somoniy hukmronligi davri (976-999)ga to'g'ri keladi.

Ibn Sino iste'dodli, xotirasi kuchli, zehri o'tkir bo'lganligidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tezda egallay boshladi. 10 yoshidayoq Qur'oni Karimni boshdan oyoq yod o'qir edi. 13 yoshlaridan boshlang'ich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shug'ullana boshlaydi. Ibn Sino yosh bo'lishiga qaramay Abu Abdulloh Notiliy rahbarligida falsafani, Hasan ibn Nuh al-Qumriydan tibbiyot ilmini har tomonlama o'rganadi, asta-sekin tabiblik bilan ham shug'ullanadi. U o'zidan avval o'tgan Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rganish bilan birga qadimgi yunon tabiiy-ilmiy, falsafiy merosini, xususan, Aristotel, Yevklid, Ptolomey, Galen, Gippokrat, Pifagor, Porfiriylarning asarlarini ham qunt bilan o'rgandi. 16-17 yoshidayoq Ibn Sino mashhur tabib – hakim bo'lib tanildi. Shu qatorda Ibn Sino fanning boshqa sohalarini ham chuqur o'zlashtirgan qomusiy olim sifatida shakllana borgan. Jumladan, uning ta'rifi yana bir yosh buyuk

olim Abu Rayhon Beruniyga ham yetib boradi. Ikki orada olimlar tomonidan xat almashinuvlari sodir bo‘lib, Ibn Sino bu jarayonda Beruniyning falsafa, metafizika va fizika, shuningdek, olam va koinot masalalari haqidagi 7 savoliga javob berib o‘tadi.



999-yilda Buxoro qoraxoniylar tomonidan zabt etilgach, somoniylar hokimiyati inqirozga uchradi. 1000-yilda Ibn Sino Buxorodan chiqib ketdi va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan Xorazmga bordi, u yerda Xorazm hokimi Ali ibn Ma’mun saroyidagi olimlarni birlashtirgan o‘z zamonasining akademiyasiga qabul qilindi. Ibn Sino Beruniy, Ibn Miskavayx, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr Hammor, Abu Nasr ibn Iroq kabi yetuk olimlar bilan yaqindan tanishdi. Lekin bu davrda kuchayib borayotgan Mahmud G‘aznaviyning ta’qibidan qochib, Xorazmni tashlab ketishga va Xuroson, Eronning turli shaharlarida sarson-sargardonlikda yurishga majbur bo‘ldi. Obivard, Tus, Nishopur shaharlari orqali Jurjon shahriga kelgan Ibn Sino hokim Qobus ibn Vashmagir saroyida mashhur tabib sifatida yashadi, bo‘lajak shogirdi Juzjoniy bilan tanishdi.



1019-1021-yillarda Hamadonda vazir lavozimida xizmat qildi. 1023-yilda Isfahonga qochdi va butun umrini ilmiy asarlar yozishga bag‘ishladi. Ibn Sinoning «Kitob al-qonun fit-tibb», «Kitob un-najot», «Kitob ul-


insof» kabi mashhur asarlari, geometriya, astronomiya, o‘simlik, hayvonot olami, mantiqqa oid risolalari, «Hayy ibn Yaqzon» falsafiy qissasi so‘nggi yillarda yozilgan. U Isfahonda rasadxona qurish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Umrining so‘nggi yillarida o‘zaro urushlar kuchayib ketganligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda o‘zi ham faol qatnashganligi tufayli u Isfahon, Ray, Hamadon shaharlari orasida sarson-sargardonlikda yurib, 1037-yil 18-iyunda Isfahon shahrida vafot etdi.

Ibn Sinoning hayot yo‘li o‘zi yozgan tarjimai holi va shogirdi Abu Ubayd Juzjoniy tomonidan qoldirilgan manbalardan ma’lum. Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan, xolos. Ko‘p manbalarda Ibn Sino, avvalo, tabib sifatida talqin etiladi, holbuki tabobat uning ilmiy sohalari orasida muhimlaridan biridir. Ibn Sino asarlarining asosiy qismi Yaqin va O‘rta Sharqning o‘sha davr ilmiy tili hisoblangan arab tilida, ba’zilari fors tilida yozilgan. Uning bizga ma’lum bo‘lgan katta asari «Kitob ush-shifo» («Shifo kitobi») 22 jilddan iborat bo‘lib 4 ta katta bo‘limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan. Uning ayrim qismlari lotin tiliga, Yevropadagi boshqa tillarga, sharq tillariga, shuningdek, rus, o‘zbek tillariga tarjima qilingan.

Bilib oling!

Ibn Sino fan tarixida birinchi bo‘lib, efir moylarini ishlab chiqarish uchun bug‘ distrillash usulini ixtiro qiladi. Ibn Sino davolash ishida dori va preparatlar bilan ishlashning 7 qoidasini ishlab chiqdi. U ishlab chiqqan qoida preparatlar va dori vositalaridan foydalanishda yangi dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Ibn Sino asarlari o‘rta asrlarda Yevropada ilmiy til hisoblangan lotin tiliga, u orqali Yevropaning boshqa tillariga tarjima etilgan. Ibn Sino ilmiy risolalardan tashqari chuqur falsafiy mazmunli badiiy obrazlar va ma’lum voqealar orqali ifoda etuvchi «Tayr qissasi», «Salomon va Ibsol», «Hayy ibn Yaqzon» kabi falsafiy qissalar yaratgan.



Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri ham bo‘lgan. U Sharq, xususan, fors poeziyasida ruboiy janrining asoschilaridan biri bo‘lib, ruboiylari o‘zida chuqur falsafiy xulosalarni ifodalaydi. Ibn Sino tabobat masalalarini ommabop holda nazm bilan izohlovchi «Urjuza» nomli tibbiy asar yaratdi. Uning Aristotel (Arastu) ta’limoti xususida Abu Rayhon Beruniy bilan va o‘zining shogirdi – ozarbayjonlik mutafakkir Baxmanyor bilan yozishmalari fan olamida mashhur. Ayniqsa, tabobat u bilan bog‘liq holda anatomiya, psixologiya, farmakologiya, terapiya, xirurgiya, diagnostika, gigiyena kabi ilmlar Ibn Sino ijodida bir qancha yangi ixtirolar bilan boyidi va yangi bosqichga ko‘tarildi. Bulardan tashqari, kimyo, mineralogiya, astronomiya, matematika, o‘simlik dunyosi, geologik jarayonlarni o‘rganish sohasida ham u yangi-yangi fikrlarni olg‘a sura oldi.


Bilib oling!

Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlaridan «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari»), «Kitob ul-qulanj» («Ichak sanchiqlari»), «Kitob un-nabz» («Tomir ko‘rish haqida kitob»), «Fuj ul-tibbiya joria fi majlisih» («Tib haqida hikmatli so‘zlar»), «Tadbir ul-manzil» («Turar joyning tuzilishi»), «Fil-hindubo» («Sachratqi o‘simligi haqida»), «Risola fi-dastur it-tibbiy» («Tibbiy ko‘rsatmalar haqida») kabi asarlari mavjud. Uning tibbiyotga oid qomusiy asari «Kitob al-qonun fit-tibb» 5 mustaqil katta asardan tarkib topgan: ularning har biri ma’lum sohani izchil, har tomonlama yoritib beradi. «Qonun» 800 yil davomida hakimlar uchun asosiy qo‘llanma bo‘lib keldi. O‘rta asrlarda «Qonun» Sharqdagina emas, balki G‘arb mamlakatlarining universitetlarida ham talabalar uchun tibbiyotdan yagona qo‘llanma edi.

Ibn Sino dunyoqarashi Farobiy asarlari ta'sirida shakllandi, u ijtimoiy-falsafiy masalalarda Farobiy qarashlarini davom ettirdi, ilg'or falsafiy oqimni yangi tabiiy-ilmiy fikrlar bilan boyitib tizimlashtirdi va yangi bosqichga ko'tardi. Ibn Sino Beruniy kabi qomusiy olim sifatida ham faoliyat olib boradi. Jumladan, astronomiyada u Venera Yerga qaraganda Quyoshga yaqinroq ekanligini taklif qildi. U yulduz koordinatalarini kuzatish uchun usturlab ixtiro qildi. U bir nechta astronomik kuzatuvlarni o'tkazdi va yulduzlar o'z-o'zidan nurli ekanligini aytdi. U faylasuf sifatida falsafada Ibn Sino mantig'i tizimini ishlab chiqadi.

Bilib oling!

Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta hissa qo'shdi. O'z ijodi, ilmiy faoliyatida Ibn Sino Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi yuqori madaniy ko'tarinkilik, madaniy «uyg'onish»ning ma'naviy yutuqlarini mujassamlashtira oldi, bu bilan butun Sharq va Yevropadagi ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. U o'z davrida Sharq va Yevropada «Shayx ur-rais», «Olimlar boshlig'i», «Tabiblar podshohi» kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi. Ibn Sino mashhur murabbiy sifatida Abu Ubayd Jurjoniy, Umar Isfahoniy, Muhammad Sheroziy, Ahmad Ma'suriy, mashhur ozarbayjon mutafakkiri Baxmanyor ibn Marzbon, Yusuf Iyloqiy, ajoyib olim va shoir Umar Hayyom kabi shogirdlarini tarbiyaladi. Uyg'onish davri miniatyura va suratlarida Ibn Sino mashhur qadimgi yunon olimlari Aristotel, Galen, Gippokrat, Ptolomey, Yevklid bilan bir qatorda tasvirlangan. O'simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan tabiatshunos Karl Linney doimo yashil bo'lib turuvchi bir o'simlikni Ibn Sino sharafiga «Avitseniya» deb atagan.



Ibn Sino asarlari Yevropada XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilina boshlandi. «Tib qonunlari» asarining o'zi lotinchada 30 martadan ortiq nashr qilindi. «Kitob ush-shifo»ning ko'p bo'limlari, mantiq, musiqa, yerning tuzilishi, geologik jarayonlar, metafizikaga oid qismlari ham lotinchada nashr etildi. Buxoro shahri va Afshona qishlog'ida allomaga haykal o'rnatildi. Belgiyaning Kortreyk shahrida ham Ibn Sinoga haykal qo'yilgan (2000). Afshonada buyuk allomaning muzeyi ochildi. O'zbekistonda Ibn Sino xalqaro jamg'armasi tuzildi (1999), shuningdek, «Ibn Sino» va «Sino» nomli xalqaro jurnallar nashr qilinmoqda.

Bilib oling!

Ibn Sino tibbiyot tarixida birinchi bo'lib vabo bilan ofatni farqlagan, yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni boshqalardan ajratgan holda saqlashni ta'kidlagan. Bemorlarni davolashda olim 3 narsaga: ovqatlanish tartibi (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo'llash (qon olish, zuluk yoki banka qo'yish va boshqalar)ga ahamiyat berish kerakligini aytadi. U kasallikni davolashda shaxsiy gigiyena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtiradi.

15.5. IJTIMOIY FANLAR VA ADABIYOT RIVOJI

Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vafoti 997-y.) O'z davrining bilimli, peshqadam olimlaridan biri Abu Abdulloh al-Xorazmiy bo'lgan.

Bu olim haqida saqlanib qolgan ma'lumotlar juda oz. Olimning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiydir. Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o'tgan. Bu shaharlarda u voyaga yetgan, yashagan, ta'lim olgan. Olim Xurosonda ham yashagan. Uning mashhurligi vazir Abul Hasan al-Utbiy huzurida kotib bo'lib xizmat qilgan davrida cho'qqisiga chiqqan. Shu vazifasi tufayli u «Al-kitob al-Xorazmiy» nomi bilan ham tanilgan. O'z xizmat vazifalari yuzasidan Buxoroga tez-tez borib turgan

va ko'pgina allomalar bilan hamsuhbat bo'lgan. Ayni vaqtda ilmga chanqoq olim xizmat asnosida amirning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo'lga kiritgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy 997-yilda vafot etgan.


Bilib oling!

Olimning dunyoqarashi o'sha davrda keng tarqalgan qadimgi yunon falsafasi va madaniyati, Sharq namoyandalari Ya'qub ibn Isxoq al-Kindiy, Abu Nasr al-Forobiy hamda Abu Bakr ar-Roziy ta'siri ostida shakllandi.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan, arab tilida bitilgan, yagona ma'lum asari – «Mafotih al-ulum» («Ilmlar kalitlari») dir. «Mafotih al-ulum»ning qo'lyozma nusxalari ko'p emas. Uning to'rt nusxasi bor deb hisoblanadi. Ana shu to'rt nusxadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida hamda Berlin kutubxonasida saqlanadi.

«Mafotih al-ulum» o'ziga xos qomusiy asar bo'lib, o'sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini o'z ichiga qamrab olgan. Muallif o'rta asrlardagi har bir ilm mazmunini sharhlash yo'li orqali tushuntirib beradi. Umuman, asarda Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'z davri tabiiy va riyoziyot ilmlarini yaxshi bilganligi, ularni nazariy falsafaga kiritish bilan, bir tomondan, ularning ahamiyatini oshirish va ta'kidlash, ikkinchi tomondan, falsafani boyitishga intilganligi o'z ifodasini topgan. Al-Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» asari o'rta asr madaniyati va ma'naviyatini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Abu Abdulloh Ro'dakiy (860-941) Abu Abdulloh Ja'far Ro'dakiy taxminan hijriy 243 (860)-yilda Samarqand yaqinidagi Panjrudak qishlog'ida, dehqon oilasida tug'ilgan. Ro'dakiy yoshligidanoq she'riyatga ixlos qo'ydi, o'z zamonasining mashhur cholg'uchisi Abul Abbos Baxtiyor qo'lida musiqadan ma'lumot oldi. Dastlabki ma'lumotni o'z qishlog'ida olgan Ro'dakiy o'qish uchun Samarqandga bordi. U yerda bilim olib, tez orada adabiyot va san'at sohasida ham dong chiqarishga muvaffaq bo'ldi.



Ro‘dakiy

Buxoro hukmdori Nasr II (91–
Ro‘dakiyning shoirlik shuhrati Buxoro
umuman Sharqqa keng tarqaldi. Ro‘da
asarlariga e’tibor berilsa, uning astronomiya
qadimgi yunon falsafasini ham yaxshi tushun-
ganligini ko‘rish mumkin. Somoniylar davlatining
ko‘zga ko‘ringan davlat arbobi, Nasr II ib
Ahmadning yaqin do‘sti Abufazl Ba’ian
Ro‘dakiy haqida «U faqat mashhur sho
bo‘libgina qolmay, balki o‘z davrining ye
olimi ham edi», deb qayd etgan.


Nasr II Ro‘dakiyni o‘z saroyiga tak
etgandan so‘ng uning hayotining ko‘p qi
Buxoroda o‘tdi. Uning ko‘zi ojiz bo‘lgan. Manbalarda uning ona
ko‘r tug‘ilganligi haqida mulohazalar mavjud. Ba’zi olimlarn
fikricha, u saroydan quvilishi oldidan ko‘ziga mil tortilib ko‘r qilingan
Ro‘dakiy qarigan chog‘ida quvg‘inga uchragan, o‘z qis
faqirlikda umr kechirgan. U 941-yilda olamdan ko
vatanida dafn etilgan.

Bilib oling!

Ro‘dakiyning adabiy merosidan bizgacha mingta bayt yetib kelgan (2 qasida, 50 ruboiy, she’rlar, doston va boshqalar). XII asr shoiri Rashid Samarqandiyining ta’kidlashicha, biror-bir shoir Ro‘dakiy singari ko‘p asar yozgan emas. Ba’zi olimlarning fikricha, Ro‘dakiy bir million uch yuz ming misra she’r yozgan. Muhammad Avfiyning xabar berishicha, Ro‘dakiy yuzta to‘plam (daftar) yozgan.

Ro‘dakiyning qasidalaridan «Modari may», «Dar vasfi Buxoro» va «Shikoyat az piri» («Qarilikdan shikoyat») bizgacha yetib kelgan. Ro‘dakiyning ijodida X asrning ijtimoiy hayoti o‘z aksini topgan. Uning hamma asarlarida xalqning orzu-umidlari, manfaatlari ifoda qilingan.

...skir kishilar o'rtasidagi do'stlik ... o'zaro hamkorlik kishilik jamiyati uchun ... ega ekanligini bir necha bor ...'kidlab o'tgan. Uning fikricha, haqiqiy do'stlik ...uchun kishilarni. hatto turli dinda bo'lishlari ham ...alal bo... o'maydi. Uning quyidagi satrlari ...ordir: «*Jahonning shodligi ... do'stlar diydoridan ...*».




Ro'dakiy

Yusuf Xos Hojib (XI asr). Yusuf Xosog'uniy Yettisuv o'lkasidagi Kuzo'rda (Bolasog'un) shahrida 1016-1018-yillar ...asida dunyoga keladi. Bu davrda Yettisuv va Sharqiy Turkiston o'lkalari turkiy qarluq qabilasidan chiqqan ...oraxoniylar sulolasi qo'l ostida edi. Bu sulola Turk xoqonligining ...avomchi'laridan bo'lib, IX asr o'rtalaridan davlatni boshqarib keldi. X ... boshlarida Abdulkarim Sotuq Bug'roxon islom dinini qabul qildi va ... bilan turkiy elatlar ham uzil-kesil islom mintaqa madaniyatiga kelib qo'shildilar. X asr oxiriga kelib Somoniylar tanazzulga yuz tutgach, ...oraxoniylar Movarounnahrni tugal egalladilar. Bolasog'un ushbu ...mlakatning ...himolidagi poytaxti edi.

...bilib oling!

Shoir haqida ma'lumotlar ko'p emas. U «Qutadg'u bil...» ...ini 50 yoshlarda, hijriy 462-yili (1069/70) yozib ...tgan. Kitobda nomi tilga olingan xoqon Nasriddin ...lug' Bug'ro Qoraxon Abu Ali Hasan Horunxon ...Arslonxon bo'lib, 1075-1103-yillar davomida Qoraxoniylar davlatini boshqargan. «Qutadg'u bilig» asari unga bag'ishlangan paytda u Qoshg'arda Arslontegin To'g'rul Qoraxon Mahmudxon (1059-1075)ning o'rtoq-qo...'oni ...fatida hukm surardi (Qoraxoniylar sulolasida ...dat bo'lib, Bolasog'unda asosiy xoqon hukmdor ...Qoshg'arda uning o'rtoq-qog'oni ish yuritardi).



Yusuf Xos Hojib

Asar mazmuni, tili va uslubidan kelib chiqib aytish mumkinki, Yusuf Xos Hojib arab va fors tillarini mukammal bilgan, bu tillardagi diniy, ilmiy, badiiy adabiyot bilan chuqur tanish bo‘lgan. Bundan tashqari, shoir qadim turk yozma adabiyoti, turkiy xalqlar og‘zaki ijodini ham yaxshi bilgan, ular muhitida tarbiya olgan. Shoir turkiy elatlarning qadimiy qo‘shnilari – xitoy, mo‘g‘ul, hind, eroniy xalqlar madaniyati, yunon falsafasi va boshqa o‘sha davr ma’naviy hayotining turli tomonlari haqida mukammal ma’lumot egasi bo‘lgan. Bizgacha yagona dostonidan boshqa asari yetib kelmagan.

Bilib oling!

Firdavsiy «Shohnoma»si mintaqa xalqlarining o‘tmish tarixini badiiy aks ettirsa, Yusuf Xos Hojib asari uning yangi davrdagi holatini badiiy tafakkur qonuniyatlari asosida mujassam etdi. Muallif o‘z asarini «Shohnomayi turkiy» deb shuhrat topganini aytadi, bu qiyos shu ma’noda to‘g‘riki, o‘tmishda mintaqa eroniy hukmdorlar – Kayoniy va Sosoniylar hukmida bo‘lgan bo‘lsa, Yusuf davrida Sosoniylar mulki turkiy hukmdorlar qo‘liga o‘tgan edi. Bolasog‘undan Bag‘dodgacha turkiy sulolalar hukm surar edilar. Shu sababli endi sulolalar tarixi emas, davlat boshqarish odobi muhim edi. Asarning yana boshqa shuhrat topgan nomlari «Adab ul-Muluk» («Hukmdorlar odobi») va «Oyin ul-mamlakat» («Mamlakatni idora etish qoidalari») xuddi shu jihatni aks ettirar edi.

«Qutadg‘u bilig» kitobi oddiy aholi uchun emas, birinchi navbatda, xoqon va beklar, ya’ni yurtning hukmdorlari uchun atab yozilgandir. Turkiy sulolalar butun islom mintaqasida hukmfarmon bo‘lib kelayotgan bir paytda ijtimoiy jihatdan «Shohnoma»dan ko‘ra «Qutadg‘u bilig», ya’ni «Hukmdorlar adabnomasi» ko‘proq zarur va bu kitob aynan turkiy tilda yozilmog‘i kerak edi. Yusuf Xos Hojib ushbu ijtimoiy zaruratni vaqtida anglab yetdi; unga yuksak saviyada javob bera oldi. Abu Ali Hasan Horunxon uni yaxshi qabul qilgani, shoirni munosib taqdirlagani Kuntug‘di va Oyto‘ldi timsollari hayotiy haqiqatga ancha muvofiq kelganini ko‘rsatadi.




Yusuf Xos Hojib

Bilib oling!

Yusuf Xos Hojib jamiyatni tubdan o‘zgartirishni emas, muvofiqlashtirish, uyg‘unlashtirish, takomil baxsh etishni maqsad qilib qo‘yadi. Chunki XI asr islom jamiyatining shakllanib, yuksalib kelayotgan davri bo‘lib, unda takomillashtirish takliflari o‘rinli edi.

Mahmud Koshg‘ariy (XI asr). Mahmud Koshg‘ariy Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asr madaniyatining ko‘zga ko‘ringan arboblaridan bo‘lib, tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o‘rganish sohasida mashhur bo‘ldi, tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Mahmudning otasining ismi Husayn, bobosi Muhammad bo‘lib, kelib chiqishiga va tiliga ko‘ra Koshg‘ariy nisbasini olgan. U XI asrda tug‘ilib, yashab ijod etdi. Mahmud Koshg‘ariy ham o‘zining uzoq yillar davomida yozib tugatgan «Devonu lug‘atit turk» kitobini hijriy 469 (1074/75)-yilda tugallab, uni abbosiy xalifalar avlodidan bo‘lgan Abulqosim Abdulloh ibn





Xulosa qilib aytganda, Mahmud Koshg‘ariyning islomdan ilgarigi va ilk islom davri turkiy madaniyat obidalarini tadqiq etish, to‘plash va avlodlarga yetkazib berishdagi xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi. Uning tarix, etnografiya, tarix-jug‘rofiya xususidagi keng bilim doirasi, til va adabiyot sohasidagi qomusiy salohiyati, tadqiq qudrati bugungi kunda ham hayratlanarli darajada bo‘lgan.

Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar ilmiy merosi va faoliyatini qayta o‘rganish boshlandi. Ularning xotiralariga yuksak hurmat va ehtirom davlatimiz ilm-fan siyosatining asosiy qirralaridan biri bo‘lib qoldi.

☑ ***Akademiya*** – (lotincha: Academia – afsonaviy qahramon Akadem nomidan) ko'pgina ilmiy muassasa, jamoat tashkilotlari, o'quv yurtlarining nomi. Mil. av. IV asrda Platon (Aflotun) asos solgan yunon falsafiy maktabi, Afina yaqinidagi joy ham uning nomi bilan atalgan. Sharq mamlakatlarida Akademiya tarzidagi muassasa va jamiyatlar VIII-IX asrlarda tarkib topa boshlagan. Xususan, arab xalifaligida Horun ar-Rashid hukmronligi davri (786-809)da «Bayt ul-hikma»ga asos solinib, xalifa Ma'mun hukmronligi davri (813-833)da uning faoliyati yanada rivoj topgan, uning rasadxonasi va katta kutubxonasi bo'lgan (buyuk matematik Muso Xorazmiy va astronom Ahmad Farg'oniy shu yerda ishlagan). Mashhur olim va shoir Ibn Hamdon (935 yil vaf.) Mosul shahrida kutubxonali «Dor ul-ilm» («Ilm uyi») ochgan va bu joy ilmga intilganlarning kirishi uchun bemalol bo'lgan. Bunday akademiyalar Bag'dodda, shuningdek Misr, Xorazmda ham ochilgan.

☑ ***Metafizika*** (yuncha «meta», «physika» — fizikadan so'ng) — borliqning sezgilardan yuqori turuvchi prinsiplari va umumiy asoslari to'g'risidagi fan. Fizikada tadqiqotchi bevosita hissiy ob'yektlar ustida izlanish olib borsa, metafizikada esa tadqiqotchi sezgilar vositasida anglab olish mumkin bo'lmagan ob'yektlarni tadqiq etadi. Shu jihatdan tarixan metafizika atamasi, ko'pincha, falsafa atamasining sinonimi sifatida ishlatilgan. Fizika – tabiat, borliq, moddiy dunyo haqidagi fan bo'lsa, metafizika inson qalbi va ruhi haqidagi nomoddiy fanlar majmuidir.

☑ ***Yuqori Chin*** – qadimgi turkiy xalqlar yashagan joy nomi. «Ulug'», «mustahkam» degan ma'noni bildiradi. Qoshg'ariyning «Devonu lugatit turk» asarida Chin aslida uchga bo'linadi. Birinchisi Yuqori Chin bo'lib — buni Tabg'ach (Tavg'ach) deydilar, ikkinchisi O'rta Chin bo'lib — buni Xitoy deydilar, uchinchisi Quyi Chin bo'lib, buni Barxan deydilar. Lekin hozir Tabg'ach — Mochin, Xitoy — Chin, Barxan — Qashqar deb yuritiladi deb yozadi. Yana shu kitobda Chindan Mochingacha bo'lgan hududda 20 turkiy qabilaning biri xitoylar (qitonlar, kidanlar) yashaganligi aytilgan.

☑ ***Qasida*** – (arab tilidan olingan bo‘lib, «ko‘zlamoq», «niyat qilmoq» ma’nosini anglatadi) Sharq mumtoz adabiyotidagi she’riy janrlardan biri. Qasida biror shaxsning (ko‘pincha hukmdorning) madhiga bag‘ishlanganligi uchun ko‘tarinki, unga tantanavor ohang xos. G‘azalga o‘xshab qofiyalanadi.

☑ ***Matal*** – muayyan hayotiy hodisani aniq va to‘g‘ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. Matalda o‘xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so‘z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Majoziy iboraning o‘z asl ma’nosi bilan ko‘chma ma’nosi o‘rtasida yaqinlik, mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi lozim. Matal bir yoki bir necha jumladan tuziladi, ular orasida qofiyalanish hamisha ham saqlanmaydi. Masalan, «Shamol bo‘lmasa, daraxtning shoxi qimirlamas», «Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit» va boshqalar.

Savol va topshiriqlar

1. Xorazmda o‘ziga xos ilm uyining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan omillar nimalardan iborat edi?
2. Abu Nasr Farobiyning dunyo ilm faniga qo‘shgan hissasi nimalarda ko‘rinadi?
3. Farobiyning ma’naviy merosi haqida kichik esse yozing.
4. Jorj Sartonning XI asrni Beruniy asri deya e’tirof etishi, sizningcha, qanchalik to‘g‘ri?
5. Beruniyning faoliyati va shaxsi o‘z davri ilm-faniga qay darajada ta’sir ko‘rsatgan edi?
6. Beruniy va g‘aznaviylar o‘rtasidagi munosabatga oydinlik kiriting.
7. Beruniy va Abu Ali Ibn Sino o‘rtasidagi aloqalar haqida nimalarni bilasiz?
8. Qaysi yurtdoshimizni Arastu va Farobiydan keyin «uchinchi muallim» sifatida bilishgan?
9. Ibn Sinoniy ilmiy faoliyati haqida ma’lumotnoma tayyorlang.
10. Mahmud Koshg‘ariyning turkiy so‘zlar lug‘atini tuzishiga sabab bo‘lgan omillar nimalardan iborat edi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduhalimov B.A. Bayt ul-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'dodlagi ilmiy faoliyati (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). T.: O'zbekiston, 2010.

2. Boboyorov G'. O'zbek tili tarixi. T.: Fan, 2022.

3. Isayev Y. Abu Ali ibn Sino. T.: Tafakkur, 2011.

4. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashxur siymolar, allomalar, adiblar). // Mas'ul muharrir: M. M. Xayrullayev. – To'ldirilgan qayta nashr. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.

5. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'ati-t-turk. / Nashrga tayyorlovchi Q.Sodiqov, Solih Mutallibov tarjimasi asosida. T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2017.

6. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

7. Qobilov N. Abu Nasr Forobiy. T.: Tafakkur, 2011.

8. Sodiqov Q. Eski o'zbek yozma adabiy tili. – T.: Akademnashr, 2021.

9. To'xtayev B. Abu Rayhon Beruniy. T.: Tafakkur, 2011.

10. Ziyo A. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

16-MAVZU. ISLOM DINING RIVOJI VA TARAQQIYOTIGA HISSA QO‘SHGAN ALLOMALAR. MUHADDIS OLIMLAR

REJA:



16.1. Tilshunoslik va grammatika.

16.2. Tasavvuf va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni.

16.3. Kalom va fiqh ilmi taraqqiyoti.

16.4. Hadis ilmining rivoji.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Fanlar tasnifi, tilshunoslik, arab tili, so‘z, Zamaxshariy, grammatika, ma’naviy hayot, kubraviya, yassaviya, naqshbandiya, tarki dunyo, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, fiqh, fatvo, kalom ilmi, aqiod ilmi, tasavvuf, tariqat, sufiylik, tariqat-suluk, olti muhaddis, Turon, Buxoro, Termiz, hadis ilmi, Qur’on sharhi, kalom, lug‘atshunoslikning rivoji, sunnat, sunniy, ustoz, shogird, muhaddis, Imom Buxoriy, Iso Termiziy, nabaviya.

16.1. TILSHUNOSLIK VA GRAMMATIKA

O‘rta asrlarda O‘rta Osiyoning arablar tomonidan egallanishi va ushbu hudud xalqlari tomonidan islom dinining qabul qilinishi natijasida VIII-XII asrlarda Movarounnahr diniy ilmlar markaziga aylandi. Shu bilan birga, O‘rta Osiyoda arab tili rivoji uchun ham talab yuzaga keldi. Arab xalifaligi o‘z davlati hududida faqatgina arab tilini


asosiy til sifatida faoliyat etishini qonun bilan belgilab beradi. Turonda boshqa fan toifalari qatortida arab tili grammatikasi ham rivoj topadi.

Qomusiy olim Abu Nasr Farobiy (873-950) yaratgan asarlar ichida «Fanlar tasnifi» (yoki «Fanlar tasnifi haqidagi so'z») kitobi tilshunoslik masalalariga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. Buyuk alloma tilshunoslikning fonetika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya va stilistika kabi bo'limlari haqida dastlabki tushunchalarni bergan. Farobiy fonetika haqida fikr yuritar ekan, nutq tovushlari, tovush-larning undosh va unli turlari, undosh tovushlarning paydo bo'lishi, o'rni, unli tovushlar va ularning xususiyatlari, so'zga qo'shimchalar qo'shganda yuz beradigan tovush o'zgarishlari, so'zning fonetik me'yori haqida fikr yuritadi.

Bilib oling!

Qomusiy alloma Ibn Sino: «Kitobi al-milh finnahv» («O'tkirlik sintaksisda ekanligi kitobi»), «Kitob lison ul-arab» («Arab tili kitobi»), «Asbobi xudud al-xuruf» («Tovushlarning chegaralanish sabablari») kabi tilshunoslikka oid qator asarlar qoldirdi.

Musulmon sharqida «Ustod ul-arab va-l ajam» (Arablar va g'ayri arablar ustozi), «Faxru Xvarazm» (Xorazm faxri) kabi sharafli nomlar bilan mashhur bo'lgan O'rta Osiyolik allomalardan yana biri Mahmud az-Zamaxshariydir (1075-1144). Mahmud Zamaxshariy Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida dunyoga keldi. Uning yoshlik yillari ilmu fan va madaniyat taraqqiy qilgan davrga to'g'ri keldi. Zamaxshariylar oilasi dindor, hurmatga sazovor ziyoli oilalardan edi. Shunga ko'ra u dastlabki bilimini Zamaxsharda – o'z ota-onasidan oladi, xat-savodli bo'ladi. Mahmud o'z bilimini oshirish, ilm-fan bobida mukammal bo'lish maqsadida Xorazmga (Urganchga, so'ngra esa Buxoroga) yo'l oladi. Ushbu shaharlardagi madrasalarda o'zining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshiradi. Bilimni yanada chuqurlashtirish maqsadida Isfahon, Bag'dod, Makka, Marv, Nishopur, Shom, Hijoz va Iroq kabi



ilm-fan, madaniyat taraqqiy qilgan shaharlarda bo‘ladi, yetuk allomalardan, olim-u fozillardan ilm-fan sirlarini o‘rganadi, tinimsiz mehnat qiladi, doimiy izlanishda bo‘ladi. Shunga ko‘ra Mahmud Zamaxshariy o‘z zamonasining buyuk allomasiga, ilm-fan homiysiga, dong‘i ketgan mashhur kishisiga aylandi.

Yoshlik chog‘larida Buxoro shahriga kelib ilm olib yurgan kezlarida bexosdan yiqilib, oyoqlaridan jiddiy jarohat olgan. Yaralangan oyoqning sovuq urishi oqibatida illatlangan oyoq tabiblar tomonidan kesiladi va u yoshligidan bir oyoqda qoladi. Zamaxshariy bu nogironlik tufayli ilmdan to‘xtab qolmaydi. Yog‘ochdan oyoq qo‘ydirib, matonat bilan ilm olishni davom ettiradi.

Zamaxshariy Makka shahrida 5 yildan ko‘proq yashab, ilm-ma’rifat tahsil qiladi va bu joyga kelgan tolibi ilmlarga dars berish bilan shug‘ullanadi. Alloma arab tilini lahja va shevalarini to‘liq tadqiq qilib, bu tilning grammatikasi va leksikasi haqida bir nechta risola yozadi. Hatto arablarga qarata «kelinglar o‘z tilingizni o‘zingizga o‘rgatib qo‘yay» deb aytgan ekan. Arablarning: «Agar Xorazimlik shu ko‘sa cho‘loq az-Zamaxshariy bo‘lmaganda, arablar o‘z tillarini bilmas edilar» degan so‘zlari allomani arab millatining buyuk olimlarini lol qoldira olganiga isbot bo‘ladi.

Bilib oling!

Buyuk alloma avlodlar uchun ulkan boy ilmiy meros qoldirdi. U tilshunoslik, lug‘atshunoslik, jo‘g‘rofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis, fiqh va qiroat ilmiga oid 50 dan ortiq asar yaratdi, ko‘plab she’rlar yozdi (ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan). Mashhur tarixchi Ibn Qiftiy Mahmud Zamaxshariy haqida shunday deydi: «Xudo

rahmat qilgur az-Zamaxshariy ilmu adab, nahv va lug'at bobida o'zgalarga misol (namuna) bo'ladigan alloma edi», desa, Misr tarixchisi Ibn Tag'riberdi esa «Mahmud Zamaxshariy shayx, buyuk alloma, o'z davrining yagonasi, o'z asrining eng peshvosi va imomi bo'lgan», deydi.

Buyuk imom Zamaxshariy tilshunoslik bobida ham qator asarlar yaratdiki, bu asarlar dunyo tilshunosligi fanida alohida qadrlanadi. Arab tili grammatikasiga oid asarlar ichida Zamaxshariyning bir yarim yil davomida Makkada yaratgan «Al-Mufassal» (1121) kitobi alohida o'rin tutadi. Ayni asar arab tilining morfologiyasi va sintaksisiga oid tadqiqot bo'lib, u musulmon olamida mashhur bo'lgan va yuksak baholangan. Zamaxshariyning «Al-Mufassal» asarida grammatikaga oid masalalar so'z turkumlari – ot, fe'l va yuklamalar orqali o'rganilgan. Asarning har bir bo'limida morfologiya va sintaksis masalalari ko'rib chiqilgan. Asar fonetika bo'limi bilan yakunlanadi.

Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» («Adabiyot muqaddimasi», 1137-yil) yirik asari ham bo'lib, alloma bu asarda o'z davridagi arab tilining iste'molda bo'lgan qator so'z va iboralarini jamlashga harakat qilgan, ularning etimologiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» asari besh bo'limdan iborat bo'lib, unda so'zlar ism (ot), fe'l, bog'lovchi, ot o'zgarishlari (otlarning turlanishi) va fe'l o'zgarishlariga (fe'llarning tuslanishiga) bo'linadi va har bir bo'lim haqida alohida fikr yuritiladi.

Bilib oling!

Alloma «Alfoiq fi g'arib il-hadis» («Hadisdagi notanish so'zlarni o'zlashtirish») lug'atini ham yaratadi. U asarda so'z masalasiga, aniqrog'i, ma'nosini tushunish, anglash murakkab, qiyin bo'lgan so'zlarga to'xtaladi. Ayni so'z ma'nolarini sharhlaydi, tushuntiradi, ularning o'zlashishi uchun yo'l ochadi.

Zamaxshariyning «Asos ul-balog'a» («Chechanlik asoslari») asari ham bo'lib, ushbu manba, asosan, lug'atshunoslikka oiddir. Kitobda

arab tilining mukammaligi haqida, so‘z, so‘zlarning ma’no xususiyatlari, so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, ko‘chma ma’nolarning paydo bo‘lish sabablari, shuningdek, nutqning asosiy birligi sifatida faqat so‘z emas, balki frazeologik birliklar ham olinib, ulardan nutq faoliyatida foydalanish usullari haqida atroflicha ma’lumotlar beriladi.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O‘zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Buyuk siymolar» ko‘rsatuvining *Zamax-shariy*ga bag‘ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

16.2. TASAVVUF VA UNING IJTIMOIY HAYOTDAGI O‘RNI

Tasavvuf falsafiy oqim va diniy-ma’naviy hodisa sifatida islom dini doirasida (ko‘pgina ichki sabablar va ba’zi tashqi unsurlar – buddaviylik va hinduiylikning ilk diniy tasavvurlari, sharqiy xristian tarkidunyochiligi, neoplatonizm kabilarning ta’siri ostida) paydo bo‘ladi. Olloh va olamning porlab turishi, fano bo‘lish, orif shaxsining Tangri taolo bilan ruhan birlashib ketishi kabi mushohadalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oqim namoyandalari va tarafdorlarini sufiylar deb ataganlar va «so‘fizm» atamasi shundan paydo bo‘lgan. Ilk so‘fiylar aholining kambag‘al toifasi orasida shakllangan. Ularning qarashlari istilochilar zulmi, adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida ham yuzaga kelgan. Tasavvufning muhim jihatlari yirik musulmon ilohiyotchisi Abu Homid Muhammad ibn

Muhammad al-G'azzoliyning (1059-1111) «Diniy ilmlarning tiriltirilishi» asarida bayon etilgan. Olim Allohni aql bilan anglash mumkin emasligini ta'kidlagan. U faqat qalb, maxsus ruhiy harakatlar – iltijo-ibodatlar ko'magida bilib boriladi. Tasavvufda kubraviya, yassaviya, naqshbandiya tariqat-suluklari keng tarqalgan.

Tasavvufning ijtimoiy asosini shaharlardagi hunarmandlar, mayda savdogarlar tashkil qilgan. IX-X asrlardayoq Iroq va Eronda uning yirik vakillari vujudga keladi. Movarounnahrda esa tasavvuf ta'limoti X asrdan boshlab yoyila boshladi. Hozirgi O'zbekiston hududida tasavvufning rivojlanishida *Yusuf Hamadoniy* ta'limoti muhim rol o'ynaydi. Manbalarda qayd qilinishicha, Yusuf Hamadoniy 1043-1049-yilda Eronning Hamadon shahrida tug'iladi. Dastlabki bilimlarini Hamadon va Bag'dodda oladi. Imom G'azzoliy kabi buyuk allomalarni tarbiyalab voyaga etkazgan shayx Abu Ali Farsadiyga shogirdlikka tushadi. Yusuf Hamadoniy umrining katta qismini Turon shaharlarida o'tkazgan. U hunarmandchilik – kosibchilik bilan shug'ullangan. Shuning uchun ham bo'lsa kerak, uning ta'limoti, asosan, hunarmandlar orasida keng tarqalgan va ularning manfaatlarini ifodalagan.

Bilib oling!

Yusuf Hamadoniy sufiylik ilmi bo'yicha ko'plab shogirdlar tayyorladi. U Buxoroda maxsus xonaqoh qurdirib, o'sha yerda shogirdlarga dars bergan. Hamadoniy ta'limotida vatanparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Manbalarda aytilishicha, uni pir deb bilgan shogirdlaridan 213 tasi mashhur shayxlar bo'lib yetishgan ekan. Hamadoniy ta'limotidan Turonda ikki tasavvuf maktabi – yassaviylik va naqshbandiylik kelib chiqadi.

O'rta Osiyo hududida birinchi vujudga kelgan sufiylik oqimi yassaviylikdir. Bu oqimga 1105-yilda Yassa (Turkiston) shahrida tug'ilgan *Ahmad Yassaviy* asos solgan. Ahmad Yassaviy Buxoroda Yusuf Hamadoniydan ta'lim olgach, yana ona shahri Turkistonga




Ahmad Yassaviy (zamonaviy rasm)

qaytib keladi va shogirdlar tarbiyasi masalasi bilan shug‘ullanadi. Madrasa va xonaqolar qurdiradi. Yassaviy ta’limotining asoslari turkiy tilda yozilgan «Devoni Hikmat» asarida bayon etilgan. U o‘troq va ko‘chmanchi turkiy xalqlar orasida sufiylik ta’limotini targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqat bo‘la olmaydi. Ular doimo bir-birini to‘ldiradi. Bu yo‘l kamolot yo‘li bo‘lib, inson hayotining asl mohiyatini tashkil etadi.

Ahmad Yassaviy ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 100 yoshdan oshiq umr ko'rgan. U O'rta Osiyo hududida mashhur zotga aylanib, «Sulton ul-orifin» degan sharafli nomga ham ega bo'lgan.

Yusuf Hamadoniyning yana bir shogirdi *Abduxoliq G'ijduvoniy* bo'lgan. Yassaviy bilan G'ijduvoniy shu darajada iqtidorli shogirdlardan bo'lishganki, keyinchalik, ulardan biri «Yassaviya», ikkinchisi «Naqshbandiya» tariqatining asoschilari bo'lib yetishadilar. Xoja Abduxoliq 1103-yilda G'ijduvonda tug'ilib, 1179-yilda o'z vatanida vafot etadi. Xoja Abduxoliqqa dastlabki savodni o'z tug'ilgan yurtida Imom Sadriddin beradi. Keyinchalik, o'qishni Buxoroda davom ettirib, yuqorida qayd qilinganidek, Yusuf Hamadoniyga shogird tushadi. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, ustoz va shogirdning bir-birlariga hurmati, mehr-oqibati shu darajada bo'lgan ediki, ular birgalikda Sharqning fan va madaniyat o'choqlaridan bo'lmish Samarqand, Buxoro, Marv, Isfahon, Balx singari shaharlariga borganlar va u yerlarda tasavvuf sohasidagi o'z bilimlarini yanada chuqurlashtirganlar.



Abduxoliq G'ijduvoniyning qabri



Abduxoliq G‘ijduvoniy

Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy Sharq falsafa tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning falsafiy dunyoqarashi tasavvufdagi Xojagon (Xojalar) xalqasida shakllandi. Agar bizgacha Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar»i meros bo‘lib qolgan bo‘lsa, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniydan «Risolayi Sohibiya», «Risolayi Shayx buyuk Xazrati Abu Yusuf Hamadoniy» kabi asarlar meros bo‘lib qolgan. Ammo bu asarlar hali yaxshi o‘rganilmagan va keng xalq ommasi orasida targ‘ib qilinmagan.

Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy ustozidan ko‘p narsalarni o‘rganar ekan o‘zi ham ko‘p hollarda mustaqil fikr yuritib, ba’zi masalalarda o‘z yo‘lini shakllantirishga harakat qilgan. U zikr aytish usuli bo‘yicha «Zikri Xufiya», «Zikri dil» amalini targ‘ib qila boshlagan. Xoja Abduxoliqning ustozi Yusuf Hamadoniy o‘sha vaqtda o‘z sahobalari bilan «Aloniya» zikr tushish amalini bajargan. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy yuqorida qayd qilinganidek, «Xojagon» (Naqshbandiya) tariqatining asosiy qonun-qoidalarini ishlab chiqqan buyuk allomadir.



Najmiddin Kubro

Najmiddin Kubro (1145-1221) – tasavvuf ta’limotining Turondagi yirik vakillaridan biri. Sufiylikdagi Kubraviya oqimining asoschisidir. U 1145-yilda Urganchda (Gurganj) tug‘ilib, Misr, Tabriz va Hamadonda ilm olgan. Keyin Urganchga qaytib, o‘z ta’limotini rivojlantirib, shu

yerda yangi so‘fiylik oqimiga asos soladi. U «Favoix al-Jamol va fovotix al-Jalol» («Jamolining muattarligi va kamolotning egalari»), «As-usul al-ashara» («O‘nta qonun va qoidalar») nomli qator risola va asarlar yozib, o‘z ta’limotini takomillashtirishga erishdi.



Najmiddin Kubro

Kubroviya tariqatining asosini 10 tadan iborat qonun-qoidalar tashkil etadi. Ularga, asosan, «tavba», «zuxd» («mol-dunyodan voz kechish»), «tavakkal» («Alloh yo‘lida»), «qanoat», «uzlat», «doimiy zikr», «tavajjuz», «sabr», «muroqaba» («kamolot topish») va «rizo» («Haqqa yetishish») kabi qoidalar kiradi.

Bilib oling!

Kubroviya tariqati yassaviya tariqatidan farq qilib, tarki dunyochilik rad etiladi. Unda kamolot yo‘lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo nozne’matlaridan bahramand bo‘lish kerakligi ilgari suriladi. Bu ta’limotda vatanga, xalqqa bo‘lgan muhabbat g‘oyasi nihoyatda kuchli bo‘lib, har qanday og‘ir sharoitda ham xalq bilan birga bo‘lish, vatan himoyasi uchun kurashish, uning mustaqilligini saqlash zarurligi da’vat qilinadi. O‘z g‘oyasiga sodiq Najmiddin Kubro Vatan himoyasi yo‘lida shahid bo‘ldi va jasorat namunasini o‘z muridlariga ko‘rsata oldi.

Shunday qilib, tasavvuf Movarounnahr aholisining ma’naviy hayoti bilan chambarchas bog‘langan ta’limot bo‘lib, o‘rta asrning xalqparvar adib va mashoyixlari uni chuqur bilishga va u orqali ommaga ziyo va ma’rifat tarqatishga intilganlar.

16.3. KALOM VA FIQH ILMI TARAQQIYOTI

Turonda islom dini rivojlanishi bilan islom aqidalari yuzasidan ba'zi noaniqliklar va turli soxta diniy guruhlar ham yuzaga kela boshladi. Aynan shu jarayonda *kalom* ilmi yuzaga keldi.

Kalom ilmi o'rta asrlarda falsafiy-diniy fikrlar va dinning nazariy asoslarini o'rganish, islom aqidalariga e'tiqod etish haqidagi bilimlarni ifodalagan. Biron-bir dinga mansub shaxs uchun majburiy hisoblangan, har qanday sharoitda muhokama qilmasdan e'tiqod qilinishi lozim bo'lgan diniy talablar majmuiga nisbatan aqliy mulohaza yuritish jarayonida u maxsus bilimlar tizimi sifatida vujudga keldi.

Bilib oling!

Kalom – «ilm ul-kalom» atamasi keng ma'noda o'rta asrlar musulmon adabiyotida diniy-falsafiy mavzularda (jumladan, nasroniylik va yahudiylikda ham) erkin fikr yuritishga nisbatan qo'llangan, tor ma'noda esa aqidaparastlik, ya'ni dinda obro'-e'tiborli hisoblangan shaxslar – payg'ambar, sahobalarga taqlid yo'li bilan emas, balki Qur'on va sunniy ta'limotni aql-idrokka mos talqin etish, tafakkurga suyanib ish yuritishga nisbatan ishlatilgan. Hadis ilmi payg'ambarimiz tomonidan rivoyat qilingan fikrlar va ishlarni, fiqh ilmi shariat qonunchiligini, kalom ilmi esa islom dinida e'tiqod qanday bo'lishini o'rgatadi.

Abu Mansur al-Moturidiy (vaf. 945) sunniy e'tiqodidagi ikki yirik oqimlardan biri bo'lmish *moturidiya* oqimining asoschilaridan hisoblanadi. Uning hayoti haqida ma'lumotlar juda kam. Abu Mansur al-Moturidiy tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumotlar yo'q. U Samarqandda 944-945-yillar orasida vafot etgan va shahar chekkasidagi Chokardiza degan qabristonga dafn etilgan. To'liq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiydir. Buyuk kalom imomi va fiqh olimi asli

Samarqandning Moturid qishlog'idan (hozirgi Jomboy tumanida joylashgan) bo'lib, uning taxallusi shu qishloqqa nisbatan olingan. Abu Mansur Moturidiy dastlabki ta'limni shu qishloqda olib, keyinchalik, Turonning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarqandda davom ettiradi.



Imom Moturidiy

Moturidiy yashagan vaqt somoniylar hukmronlik qilgan davrga to'g'ri keladi. Samarqand dastlab bu davlatning poytaxti bo'lib, so'ngra IX asrning oxiridan boshlab poytaxt Buxoroga ko'chirildi. Biroq o'sha vaqtda ham Samarqand Buxoro bilan bir qatorda Movarounnahrning iqtisodiy-madaniy markazi bo'lib qolaverdi.

Bilib oling!

Imom Moturidiy islom olamidagi martabasi juda yuqori bo'lgan. Shu sababli Imom Moturidiy islom ahli tomonidan «Alam ul-huda» – hidoyat bayrog'i, «Imom ul-huda» – hidoyat imomi, «Musahhihu aqiydata ahlis-sunna» – «Sunniylar aqidasini to'g'irlovchi», «Imom ul-mutakallimin» – mutakallimlar imomi kabi nomlar bilan e'tirof etilgan.

Imom Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, *hanafiya* mazhabi olimlaridan dars olib o'z bilimini oshiradi. Shu vaqt davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan va munozaralar qilgan. Butun umri davomida shu sohaga oid asarlar yozib qoldirgandir. Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning (vaf. 1582) «Katoib ul-a'dom al-axyor fi taboqot va mashoyix mazahab an-

Nu'mon» («Nu'mon mazhabiga mansub bo'lgan taniqli alloma faqihlar va shayxlar haqidagi kitob») nomli kitobida Moturidiy va uning asarlari haqida ayrim ma'lumotlar beriladi. Masalan, quyidagi asarlari nomlari keltirilgan: «Kitobi Tavhid», «Kitob Maqomat», «Kitob rad avomil lil adila lil kabiy» («Ka'biy zalolatlarining boshlanishini rad qilishga bag'ishlangan kitob»), «Kitob bayon va hum ul-ma'tazila» («Mu'tazila g'avg'olari va undan qo'rqmaslik haqidagi kitob bayoni»), «Kitob ta'vilot al-Qur'on» («Qur'on ta'vili kitobi»).

Bilib oling!

«So'ngra bilki, ilmi kalomda Ahli sunna val jamoaning raisi ikki kishidir. Ulardan biri hanafiy, ikkinchisi shofe'iy. Hanafiysi – Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy imomul huda».

Toshko'prizodaning «Miftoh us-sa'odati va misboh us-siyoda» asaridan.

Abu Mansur umri davomida faqihlar, muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan va munozaralar olib borgan. U islom dinining hanafiya mazhabini Movarounnahrda tarqatish va o'zidan keyingi avlodlarga qusursiz yetkazish ishiga muhim hissa qo'shdi.

Moturidiy nafaqat fiqh, kalom ilmiga oid, balki boshqa fanlarga oid asarlar ham yozgan deb aytish mumkin. Moturidiyning ovchilikka oid asari bunga dalil bo'ladi. Bu asarning bir qo'lyozma nusxasi «Risola jonvor doriy» («Jonivorlarga oid risola») deb nomlangan bo'lib, unda ovchi qushlarni boqish haqida fikr yuritiladi. Bu asarda ovchi burgutlarning har xil zotlari, ularning tashqi ko'rinishlari, oziqlantirish, ovga yaroqliligi bilan bir qatorda ko'paytirish va chatishtirish usullari kabi masalalar haqida gap boradi.

Imom Moturidiy o'z davrining islomiy ilmlari sohasida eng yetuk bilim sohibi hisoblanib, musulmon dunyosi olimlari tomonidan tan olingan va hozirda ham turli diniy asarlarda katta ehtirom bilan tilga olinadi. Moturidiyni ulug'lab «Imom al-mutakallimin» («Hidoyat yo'li imomi va mutakallimlar imomi») kabi nomlar bilan ham ataganlar.

Islomning nazariy-huquqiy asoslari ilk islom davridan keyingi davrlarda shakllana boshladi. Bu paytga kelib islom dini o'z atrofiga arab bo'lmagan xalqlarni ham birlashtirishga ulgurgan edi. Shu tufayli diniy – huquqiy ta'limotning yaratilishida islomni qabul qilgan turli millat va irq vakillarining manfaatlarini ham hisobga olish lozim edi.



Imom Moturidiy maqbarasi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 2000-yilda allomaning 1130 yillik tavallud sanasi mamlakatimizda keng miqiyosda nishonlandi.

Bilib oling!

***Fiqh* – islom huquqshunosligi sohasi sifatida VIII-X asrlarda shakllandi va uning metodologiyasi vujudga keldi. Fiqh ilmi mustaqil huquqshunoslik sohasi sifatida rivojlana borib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga oid bo'lgan masalalarni qamrab olgan: iymon asoslari, aqida talablari, inson turmush tarziga xos bo'lgan muomala, axloq, ibodat qonun qoidalari. Bu jarayon ikki yarim asr davom etib, islom huquqshunosligining shakllanishida «oltin asr» deb nomlandi.**

Bu davrda islom dinining turli o'lkalarga kirib borishi va u yerlarda turli din va mahalliy urf-odatlar bilan to'qnashishi natijasida islom huquqshunosligi sohasida ko'plab mazhablar yuzaga keldi. Fiqh ilmi musulmon huquqshunosligi va shariat qonun-qoidalari ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi soha bo'lgani uchun u diniy ilmlar qatoriga kiritilgan. Fiqh bilan shug'ullanuvchi, uni o'rganuvchi kishi faqih – huquqshunos deb atalgan.

Huquqiy masalalarni yechishda asosiy manba sifatida dastlab «Qur'on» va sunnat, ya'ni payg'ambar hadislari xizmat qildi. Fiqh ilmining rivojiga Turon diyoridan yetishib chiqqan olimlar katta hissa qo'shganlar. Chunonchi, musulmon dunyosida katta shuhrat qozongan Abu Mansur Moturidiy (vaf. 945), Abu Lays as-Samarqandiy (vaf. 983), Faxr al-islom Pazdaviy (vaf. 1089), Alouddin as-Samarqandiy (vaf. 1145), Burhonuddin Marg'inoniy (1123-1197)larning bu boradagi xizmatlari nihoyatda ulkan bo'lgan. Turonda fiqhning hanafiya mazhabi ustuvor bo'lganligining sababi, bir tomondan, IX asrda bu yerda mahalliy fiqh maktabi shakllanishida mazhab asoschisining safdoshi va shogirdi imom Muhammad ash-Shayboniyning shogirdi Ahmad ibn Hafs Abu Hafs Buxoriy (vaf. 216/832) ning xizmatlari bo'lsa, ikkinchidan, mazkur mazhabning mezon va tamoyillari mahalliy shart-sharoitlarga ko'proq mos kelganligi edi. Bundan tashqari, mahalliy fiqh maktabining shakllanishiga Balxdagi yirik hanafiylik markazining ham ta'siri katta bo'ldi.

Bilib oling!

Mazkur fiqh maktabining vujudga kelishi xronologik jihatdan Somoniylar hukumronligi davriga (819-1005) to'g'ri keladi. Ayni shu davrda Balx bilan Movarounnahr o'rtasidagi mustahkam madaniy aloqalar rivojlangan edi. Shuning uchun mahalliy fiqh maktabi shakllangan dastlabki davrlarda unda Balx, Bag'dod va boshqa hanafiya mazhabi markazlarining ta'siri sezilib turdi. Zero, turonlik ulamolar dastlab Bag'dod va xalifalikning boshqa shaharlarida ta'lim olishar, o'rgangan ilmlarini dars berish yoki asarlar yozish orqali keyingi avlodga yetkazar edilar.

Qoraxoniylar davrida (999-1212) Turonda fiqh ilmi yuksaklikka erishdi. Endi faqihlar jamiyat hayotida muhim o'rin tuta boshladilar. Chunki ular mamlakatdagi o'zgarishlarni islom dini talablariga mos kelishi yoki kelmasligi xususida fikr bildira oladigan yagona toifa kishilar edi. Ular ko'pincha shahar aholisining o'rta tabaqasiga mansub

kishilar bo'lib, albatta, xalq ommasining muammolari, tashvish va quvonchlaridan yaxshi xabardor edilar. Shu sabab aholi turli masalalar bo'yicha o'zlari yashab turgan joydagi faqihga murojaat qilardi.

Odatda faqihlar o'z ilmining mukammal sohiblari bo'lib, ularning yuksak malakalariga asoslanib chiqargan hukmlari yozib olingan va bu hukmlar fatvo maqomiga ega bo'lgan. Shunisi diqqatga sazovorki, faqihlar faoliyati mahalliy ma'muriyatga bo'ysunmas edi, shu bois, ular tomonidan qabul qilingan qaror hamda fatvolar har doim ham mahalliy ma'murlarga ma'qul bo'lavermas va hatto, ular ba'zan faqihlarga tazyiq o'tkazishga ham urinar edilar. Tabiiyki, bu holat faqihlarning xalq orasidagi mavqeini yanada oshirar edi. Bu dalillar faqihlarning fatvolari o'sha davrda yetarlicha kuchga ega bo'lganligidan guvohlik beradi.

Bilib oling!

Qoraxoniylar davrida Movarounnahrda qator yirik fiqh olimlari yashab ijod etgan bo'lib, ular mahalliy urf-odatlar va huquqiy mezonlar ichidan hanafiya mazhabi talablariga muvofiq keladiganini ajratganlar va yozma fatvolarida aks ettirganlar.

Eng e'tiborlisi, bu davrda Movarounnahrda fatvo chiqara olish quvvatiga ega faqihlar ko'pchilikni tashkil etgan. Bu borada Husomuddin Umar ibn Abdulaziz al-Buxoriy (vaf. 1141), Burhonuddin al-Buxoriy, Abu Hafs an-Nasafiy (vaf. 1142), Zahiriddin al-Marg'inoniy (vaf. XII asr) va boshqalarning nomlari mashhur. Mazkur davrning yana bir xususiyati – faqihlarning har xil mavzu va sohalardagi turli masalalar bo'yicha chiqargan fatvolari to'planib, muayyan mualliflarning asarlarida jamlangan. Ayni paytda bunday to'plamlarning ellikdan ortig'i mavjud edi.

Movarounnahrda fiqh ilmi rivoji haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun jo'g'rofiy nuqtai nazardan baho berib, o'sha davrda mavjud ilmiy markazlarning har biridan vakillarni xronologik jihatdan qatorma-qator tartibda keltirish mumkin. Mazkur ma'lumotlar

Movarounnahrda IX asrda shakllanib borgan mahalliy fiqh maktabi mintaqadagi Samarqand, Buxoro kabi yirik ilm markazlaridan tashqari Kesh, Nasaf, Marg'ilon, O'zgan kabi shaharlardan yetishib chiqqan allomalar tomonidan rivojlantirilganligini ko'rsatadi.

Bu hol mintaqada fiqh ilmi X-XII asrlarda o'zining eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan va ayni o'sha davrda butun islom olamida fiqh ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan asarlar yaratilishiga qulay muhit yaratilgan, deb xulosa qilishga asos beradi.

Movarounnahr fiqh maktabining islom tarixida tutgan o'rnining yana bir xarakterli tomoni – bu yerda shakllangan boy ilmiy meros va amaliy tajriba faqatgina Turondagina tarqalib qolmay, balki boshqa musulmon o'lkalariga, jumladan, arab mamlakatlariga ham yetib borib, u mamlakatlarda hanafiya mazhabining fiqhi rivojiga ham salmoqli hissa bo'lib qo'shilganidir. Qator musulmon mamlakatlari hukmdorlari sunniy musulmonlar mavqeini kuchaytirish maqsadida turonlik faqihlarga murojaat etganlar. Ayniqsa, Bag'dod va Nishopurda hanafiya mazhabi nufuzi susayib ketgach, bunga ehtiyoj kuchaygan. Turonlik faqihlar Yaqin Sharq mamlakatlarida hanafiya mazhabi nufuzini oshirishga xizmat qildilar.

Hanafiylik mazhabi doirasida mahalliy odatlar, udumlar va tasavvurlarni yuzaga chiqarish qoraxoniylar davridagi faqihlar qalamiga mansub asarlar tufayli amalga oshdi. Hanafiylik udumlari uchinchi darajali mujtahidlar (mujtahidi mutloq) qatoriga qoraxoniylar davrida yashagan 6 ta yirik faqihni kiritadi. Bular al-Xalvoniy, al-Buxoriy, as-Saraxsiy, Ali ibn Muhammad al-Buxoriy, Burhoniddin Muhammad ibn Ahmad al-Buxoriy hamda Qozixon al-Farg'oniylardir. Bu olimlarning qanchalik yirik faqihlar bo'lganliklari ularga berilgan islom va dinning «quyoshi», «faxri», «dalili», «iftixori» kabi faxrli unvonlardan ma'lum.

Yuqorida keltirilgan dalillar Turonda yirik hadisshunoslik maktabi bilan birga o'z udumlari va tartib-qoidalariga ega bo'lgan fiqh maktablari ham mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Bu maktablarning vakillari ham islom dunyosida o'z asarlari bilan mashhur bo'lganlar. Ana shunday fiqh maktablari qatorida Samarqand fiqh

maktabining yirik vakili Abu Mansur Moturidiy maktabini keltirish mumkin. U hanafiylik mazhabining Turon hududida keng yoyilishi hamda rivojlanishiga katta hissa qo'shgan zabardast faqih bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining «Nasoyim ul-muhabbat» asarida Moturidiy haqida «Shayx Abu Mansur al-Moturidiy o'z zamonasining ta'lim ulamosidin ermish. Ul vaqt ulamosi alarni sulton ul-muizzin der ermishlar,» – deb yozgan edi.

Bilib oling!

VIII-XII asrlarda butun islom huquqshunosligining sunna maktabi mazhablari, shuningdek, Movarounnahrda paydo bo'lgan va taraqqiy etgan huquq maktablarida yaratilgan huquqiy ta'limotlarning asosiy g'oyalari, shubhasiz, Movarounnahr huquq maktabining namoyondasi, buyuk faqih olim Burhonuddin Marg'inoniyning «Al-hidoya fil furu' il-fiqh» («Huquq tarmoqlari bo'yicha qo'llanma») asarida o'z aksini topdi va nafaqat o'rta asrlar Turonda, balki hozirgi kunlarga qadar ham islom huquqining sunna maktabi hukmronlik qiladigan musulmon mamlakatlarining o'quv yurtlarida huquqdan asosiy darslik, qo'llanmaga aylandi. Burhonuddin Marg'inoniyning mana shunday buyuk huquqshunos olim bo'lib yetishishiga, albatta, u yashagan davrdagi ijtimoiy muhit, huquqiy fanlar taraqqiyotining yuksak cho'qqiga erishganligi muhim omil bo'lib xizmat qildi. Chunonchi, manbalarda keltirilishicha, «u yashagan qoraxoniylar davrida 300 ga yaqin yirik faqihlar mavjud bo'lib, 150 dan ortiq huquqiy asarlar, 20 dan ortiq fatvolar yozilgan va ulardan 98 foizi hanafiylik mazhabiga oid bo'lgan».

Burhonuddin al-Marg'inoniy (1123-1197). Buyuk faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'inoniy 1123-yil 23-sentyabrda tug'ilgan. U Qur'onni, hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh – islom huquqshunosligi borasida benihoya





chuqur ilmga ega bo‘lganligi va bu sohada beqiyos durdonalar yaratganligi tufayli Burhonuddin val-l-milla va Burhonuddin al-Marg‘inoniy nomlari bilan mashhurdir.

Burhonuddin al-Marg‘inoniy dastlabki ta’limni Marg‘ilonda olib, keyinchalik, Movarounnahrning o‘sha davrdagi diniy va ma’rifiy markazi bo‘lgan Samarqandga ko‘chib borgan va umrining oxirigacha o‘sha yerda yashagan. Burhonuddin Marg‘inoniy yoshlik chog‘laridanoq Qur’oni Karimni yod olib, hadislarni chuqur o‘rgangan.

Burhonuddin Marg‘inoniy islom dinidagi sunniylarning to‘rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o‘rganish bilan birga o‘zi ham fiqhga oid bir qator asarlar yaratgan. Bizgacha yetib kelgan asarlaridan «Bidoyat al-muntahiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta’lim»), «Kifoyat al-muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta’lim»), «Nashr ul-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»), «Manosik ul-haj» («Haj marosimlari»), «Majma ul-navozil» («Nozil bo‘lgan narsalar to‘plami»), «Kitob ul-faroiz» («Farzlar kitobi») va boshqalar ma’lum.

Bilib oling!

Manbalarda aytishlishicha, Sulton Sanjar Farg‘onaga qilgan harbiy yurishidan qayta turib Rishton shahri yaqinidagi soya-salqin yerda dam olish uchun to‘xtaydi. Peshin namozi vaqti bo‘lganligi uchun Sulton imomgarchilikka o‘ta oladigan mulla hozir bo‘lishini so‘raydi. Mahalliy aholi bu ishga yosh Burhonuddinni taklif qiladi.

Burhonuddin ko‘rsa-ki, hukmdor va uning odamlari yo‘l va jang azobidan toliqqan bir holatda ekan. Shu boisdan o‘n rakatli namozni to‘liq, lekin qisqa zam suralarda o‘qib tugatadi. Shunda amir va ulamolar: «Shohimiz va ahli musulmonlarni hurmat qilmay, nechuk namozni qisqa qilding?», deb dashnom beradilar. Bunga javoban yosh Burhonuddin «Malol kelib o‘qilgan namozning savobi kam bo‘lur», deydi. Yosh imomning javobi Sulton Sanjarga ma’qul kelib, uni o‘zi bilan birga Samarqandga olib ketgan ekan.

Al-Marg‘inoniyning butun islom olamida mashhur bo‘lgan «Hidoya» asari 1178-yili Samarqandda yozilgan. Keyinchalik, bu asarlarning ham hajmi kattalik qilib, yanada mo‘’jaz bo‘lgan, butun islom olamida hanafiya mazhabining fiqh masalalarida asosiy qo‘llanmasiga aylangan Marg‘inoniyning «Hidoya» asari yaratildi. Bu asar butun musulmon olamida mashhur bo‘lib ketdi, musulmon huquqi – fiqh bo‘yicha eng aniq, izchil, mukammal asar sifatida tan olindi.

«Hidoya»da huquqiy masalalarning yechimi dastlab yirik fiqh olimlari fikrlarining bayoni va unga boshqa mualliflar e’tirozlari yoki qo‘shilishlarini izhor etish yo‘li bilan berilgan. Ana shu obro‘li mualliflar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan masalada eng ma’qul yechimni tanlab olish yo‘liga amal qilin-gan. Shu tariqa, unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki uning mukammal sharhi ham asoslab keltiriladi.



«Hidoya» bir necha asrlar davomida ko‘plab musulmon mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda ham huquqshunoslik buyicha eng asosiy qo‘llanma hisoblanib, bu yerda 1917-yilgi davlat to‘ntarishidan keyin ham to XX asr 30-yillarigacha shariat qozilari bekor qilinib, sovet sud tizimi joriy

qilinguncha amalda bo‘lib keldi. Hozirgi kunda ham islom shariati asosida ish yuritadigan musulmon mamlakatlar huquqshunosligida bu asardan keng foydalaniladi.

Shomlik alloma Haddod «Hidoya» asariga quyidagi ta’rifni beradi: «Hidoya» ham Qur’on singari o‘zidan ilgari yozilgan kitoblarni (fiqhshunoslik bo‘yicha) e’tibordan qoldirdi». Shomlik allomalardan biri «Hidoya»ni o‘qib chiqib, «Ajabo! O‘zi ajamlik bo‘lsa, bu gaplarni qayerdan topdiykin?! Biz arab bo‘la turib, bu gaplarni bilmaymiz»,– deb hayratlangan edi.

Bilib oling!

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi tufayli islom yodgorliklari, jumladan, shariat, fiqhga oid asarlarni o‘rganish, bu sohadagi boy merosimizni nashr etish imkoniyati vujudga keldi. Vatandoshimiz Marg‘inoniyning «Hidoya» asari islom huquqshunosligida mashhurligini nazarga olib, uning 1-kitobi Toshkentda 1994-yilda qayta nashr etildi. O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan 2000-yilda Marg‘inoniyning 910 yillik tavallud sanasi keng jamoatchilik tomonidan tantanali ravishda nishonlandi.

16.4. HADIS ILMINING RIVOJI

Bu davrda islom ta’limotiga bebaho hissa qo‘shgan Imom Buxoriy va Iso Termiziy kabi ko‘plab ulamolar yetishib chiqdilar. Ular shu kunga qadar hadis ilmining eng ko‘zga ko‘ringan, butun musulmon dunyosi tomonidan tan olingan allomalari darajasiga ko‘tarilgan zotlardir.

Imom Buxoriy (810-870). Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan IX asrda hadisshunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilgan. Chunonchi, bu davrda butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan olti ishonchli hadislar to‘plamining mualliflari yashab ijod qilganlar. yana shunisi diqqatga sazovorki,

mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi turonlik bo‘lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj (819-874), Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy (824-892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (817-880), Imom Ahmad Nasoiy (830-915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (824-886) kabi siymolardir. Shular ichidan «Hadis ilmida amir al-mo‘miniyn» degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan Imom Buxoriy alohida e’tiborga molik buyuk olimdir.



Imom Buxoriy

Uning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mag‘iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo‘lib, u hijriy hisobda 194-yil shavvol oyining 13-kuni (810-yil 20-iyul)da Buxoro shahrida tavallud topgan. U yoshligidan aql-idrokli, o‘tkir zehnli va ma’rifatga havasi kuchli bo‘lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo‘r qiziqish bilan egallaydi. Manbalarda aytilishicha, u o‘n yoshidan boshlab o‘z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh ibn Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to‘plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustozi Shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg‘in bahslarda qatnashgan.

825-yili o‘n olti yashar Ismoil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo‘l oladi, muqaddas shaharlar – Makka va Madinani ziyorat qilib, bir necha yil Hijozda yashab, hadis ilmidan o‘z bilimini yanada oshirish maqsadida o‘sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag‘dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlaridan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta’lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslar-u munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi. Imom al-Buxoriy hayotining ko‘p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o‘tdi.



Ilm oshirish maqsadida Imom Buxoriy ko‘plab olimlardan ta’lim oladi. O‘z navbatida Imom Buxoriy ham ko‘pgina shogirdlariga ustozlik qilgan. Is’hoq ibn Muhammad Ramodiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy, Muhammad ibn Xalif ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso Termiziy, Muhammad ibn Nasr Marvaziy, Muslim ibn Hajjoj kabi yetuk olimlar uning shogirdlaridir.


Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso Termiziy Imom Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o‘zaro munosabatlari ibratli bo‘lgan. Uzoq yillar Sharqning turli-tuman mamlakatlariga safar qilgandan keyin umrining oxirlarida Buxoriy besh (863-868) yil

Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergan. O‘sha paytda Nishopur musulmon Sharqidagi eng yirik ilmiy markazlardan biriga aylanganligi sababli ko‘p mashhur olimlar shu shaharda to‘plangan edilar. Imom Buxoriyning Iso Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz berib, Turondan chiqqan ikki mashhur muhaddis o‘rtasida unutilmas, qizg‘in ilmiy bahslar, ko‘pdan ko‘p ijodiy, do‘stona uchrashuvlar bo‘lib o‘tadi. Termiziyning yozishicha, u o‘z asarlari uchun ko‘p ma’lumotlarni Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga, Buxoriy ham Termiziyning bilimini yuqori baholab: «Men sendan ko‘rgan foyda sen mendan ko‘rgan foydadan ortiqroq», deb unga nisbatan chuqur hurmatini bildirgan.

Bilib oling!

Imom Buxoriy zehni o‘tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g‘oyat shuhrat qozongan. Manbalarda uning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan. O‘z davrining mashhur muhaddislaridan biri sanalgan Muslim ibn Hajjoj Imom Buxoriyning chuqur bilimiga tan berib, unga samimiy ravishda: «Sizni faqat hasadgo‘ylargina ko‘ra olmaydi. Mening imonim komilki, sizdek buyuk olim jumlai jahonda yo‘q», – deb xitob qilgan.

Imom Buxoriy xorijdan qaytgach, o‘z vatani Buxoroda ko‘plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Aksariyat omma uni hurmat qilgan, ammo ba’zi hasadgo‘y, qora niyatli kishilar Buxoriyni ko‘rolmas edilar. Natijada hasadgo‘ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad Zuhaliy bilan Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab amir olimdan uning huzuriga kelib «Al-jome’ as-sahih», «At-ta’rix» kitoblarini o‘qib berishni talab qiladi. Lekin Buxoriy «Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo‘lsa, o‘zi izlasin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay uni toliblarga sarf qilgani uchun meni kechiradi», degan javobni aytadi.



Imom Buxoriy maqbarasi

Amirga javob yoqmay, fitnachi shaxslarning gapiga kirib Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin Buxoriy Samarqandga ketib, birmuncha muddat Xartang qishlog'ida o'z shogirdlari va qarindosh-urug'larinikida yashagandan keyin og'ir kasalga chalinib, hijriy 256-yil (milodiy 870-yil 1-sentyabr) 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan «Al-jome' as-sahih», «Al-adab al-mufrad», «At-ta'rix as-sag'iy», «At-ta'rix al-avsot», «At-ta'rix al-kabir», «Kitob al-ilal», «Barr ul-volidayn», «Asomi us-sahoba», «Kitob al-kuna» va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, «Al-jome' as-sahih»dir. Bu asar «Sahiyh al-Buxoriy» nomi bilan ham mashhur. Uning g'oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom Buxoriygacha o'tgan muhaddislar o'z to'plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay qatorasiga kiritavergan bo'lsalar, Imom Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarni tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi.


Bilib oling!

Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat.

Bu sharafli ishni birinchi bo'lib Buxoriy boshlab bergan bo'lsa, keyin qator olimlar unga taqlid qilib, shu zaylda hadislar to'plamini

yaratganlar. Imom Buxoriyning ushbu yirik asari yozilganiga taxminan 1200 yil bo'ldi, o'sha davrdan boshlab toki shu vaqtgacha u islom ta'limotida Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda.

Yana bir muhaddis Sulaymon ibn Xarab o'z zamonining mashhur allomasi va hadis hofizlaridan hisoblanib, Makkada qozi ham bo'lgan. Uning xotirasi g'oyatda kuchli bo'lib, hech bir kitob-daftarga qaramay, o'n minglab hadisni yoddan rivoyat qilar edi. Abu Xotam shunday hikoya qiladi: «Men Bag'dodda Sulaymon ibn Xarabning darslaridan saboq olganman. Uning sabog'ini olganlarning soni qirq mingdan ham oshib ketgan bo'lib, u hijriy 224-yilda vafot etgan. Imom Buxoriy ham uning shogirdlaridan hisoblanardi. Fazl-u kamolining shunchalik buyuk bo'lishiga qaramasdan, u Buxoriydan «Sen bizga Shu'abaning xatosini tushuntirib ber», – deb iltimos qilardi. Hifz-u zakovat, idrok-u tafakkurdan rabboniy (ilohiy) bir noyob qobiliyat va iste'dod Imom Buxoriyga ato etilgandiki, hatto unga ustozlari tomonidan ham yuksak izzat-ikrom va hurmat ko'rsatilib, ko'p muhaddislar uning huzurida dars o'tishdan ham xijolat bo'lib, hayiqib turganlar».



Bilib oling!

«Al-jome' as-sahih» va «Al-adab al-mufrad» kitoblari Toshkentda qaytadan nashr qilinishi Buxoriy merosini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkentdagi diniy oliy institutining Imom Buxoriy nomi bilan atalishi bundan o'n ikki asr muqaddam ilm-fan yo'lida beqiyos xizmat qilgan buyuk olimga chuqur hurmat-e'tiborning ramzidir. Allomaning Xartang qishlog'ida joylashgan salobatli maqbarasi eng obod va ko'rkam qadamjolardan biri sifatida ardoqlanib, islom ahli va barcha mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhurdir. 1998-yili buyuk hadisshunos allomaning 1225 yillik tavalludi keng jamoatchilik tomonidan katta hurmat bilan nishonlanib, uning maqbarasi qayta qurildi.



Imom Termiziy

Imom Termiziy (824-892). Katta ahamiyatga ega asarlar yaratgan buyuk allomalardan biri – mashhur muhaddis (hadis ilmi olimi) Abu Iso Muhammad Termiziydir. Uning to'liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn Dahhok Sullamiy (umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligidan *Dariyr* taxallusi bilan ham atalgan) at-Termiziy bo'lib, u hijriy hisobda 209 (milodiy 824)-yilda Termizda, o'rtahol oilada tavallud topdi. Turonlik mashhur olim va tarixchi Abu Saad Abdulkarim as-Sam'oniy (1167-yili) «Al-Ansob» nomli asarida yozishicha, Termiziy Bug' (hozirgi Sherobod tumani) qishlog'ida vafot etganligi uchun uning nomiga al-Bug'iy taxallusi ham qo'shilgan. Uning yoshlik yillari Termiz shahrida o'tib, dastlabki ma'lumotni ham shu shaharda olgan. Bolaligidan o'ta ziyrakligi, yodlash qobiliyatining kuchliligi, noyob qobiliyati bilan o'z tengqurlaridan ajralib turgan Termiziy diniy va

dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan egallab, bu boradagi o‘z bilimlarini muttasil oshirish maqsadida ko‘plab Sharq mamlakatlarini ziyorat qilgan. Jumladan, u uzoq yillar Iroq, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Ko‘p yillar davom etgan safarlari chog‘ida Termiziy ilm-fanning turli sohalari – ilm al-qiroat, ilm al-bayon, fiqh, tarix, ayniqsa, o‘zi yoshligidan qiziqqan hadis ilmidan o‘z davrining yirik olimlari – mashhur muhaddislaridan ta’lim oladi. Uning ustozlaridan Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Sa’iyd, Is’hoq ibn Muso, Mahmud ibn G‘aylon va boshqa mashhur muhaddislarni ko‘rsatish mumkin.

Musofirchilikdan qaytgan Imom Termiziy o‘z yurtida yirik muhaddis olim sifatida shuhrat qozondi va ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘ldi. U 279-hijriy (892) yilda Termizdan uzoq bo‘lmagan Bug‘ qishlog‘ida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Iso Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha etib kelgan. «Al-jome’» («Ja’mlovchi»), «Ash-shamoil an-nabaviya» («Payg‘ambarning alohida fazilatlari»), «Al-ilal fi-l-hadis» («Hadislardagi og‘ishishlar»), «Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»), «At-tarix» («Tarix»), «Kitob az-zuxd» («Taqvo haqida kitob»), «Kitob ul-asmo val-kuna» («Ismlar va laqablar haqida kitob») kabi asarlar shular jumlasiga kiradi.

Bilib oling!

Imom Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, «Al-jome’» bo‘lib, avval eslatib o‘tganimizdek, oltita ishonchli hadislar to‘plamlaridan biridir. Ushbu asar ilmiy adabiyot va manbalarda «Al-jome’ al-kabir» («Katta to‘plam»), «Al-jome’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam»), «Jome’ at-Termiziy» («Termiziy to‘plami»), «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») nomi bilan ham atalib, payg‘ambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim manbalardan hisoblanadi.

Imom Termiziyning mashhur asarlaridan yana biri «Ash-Shamoil an-nabaviya» («Payg‘ambarning alohida fazilatlari») bo‘lib, ba’zi manbalarda «Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sallolohu alayhi

vasallam» nomi bilan ham keltirilgan. Nomidan ham ko‘rinib turibdiki, bu asar payg‘ambar alayhissalomning shaxsiy hayoti, u kishining surat va siyratlari, ajoyib fazilatlari, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o‘z ichiga qamragan manbadir.

«Ash-shamoil an-nabaviya»ning birinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar payg‘ambarimizning surat (tashqi qiyofa)lariga, ikkinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar esa ichki dunyolariyu axloqiy fazilatlarini bayon qilishga bag‘ishlangan.

Xulosa qilib aytganda, buyuk vatandoshimiz Abu Iso Muhammad Termiziy bizga boy va katta ilmiy meros qoldirgan. Mustaqillik yillarida uning merosi chuqur va har tomonlama o‘rganilmoqda. Alloma dafn etilgan joy esa obod qilinib, umumxalq ziyoratgohi maqomiga aylangani unga bo‘lgan ulkan hurmat va e’tibordan darak beradi.

Atamalar izohi

☑ ***Hadis*** (arabcha – xabar, gap, yangilik) — Muhammad (s.a.v.) aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, iqrorlari to‘g‘risidagi rivoyat. Islom dinida Qur’ondan keyin 2-manba hisoblanadi. Payg‘ambar zamonida hadislarni yozib olishga ruxsat berilmagan. Bunga sabab musulmonlar Qur’on oyatlari va hadis sunnatlarini adashtirib yuborishining oldini olish bo‘lgan. Keyinchalik, xalifa Marvon davridan hadis to‘plash boshlangan. Hadis 2 qismdan iborat bo‘ladi: matn va isnod. Hadis 2 turga — hadisi qudsiy (ma’nosi Alloh taoloniki, aytilishi rasululloh tomonidan bo‘lgan hadislar) va hadisi nabaviyga bo‘linadi. Hadislar e’ti-borga olinishi jihatidan 3 qismga bo‘linadi: 1) sahih (ishonchli); 2) hasan (yaxshi); 3) zaif.

☑ ***Fatvo*** (arabcha – «tushuntirish», «izoh», «hukm», «qaror») – islomda muftiy yoki ulamolar kengashi tomonidan diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masalalarda beriladigan qaror, hukm yoki izoh. Islomning dastlabki davrida Muhammad (s.a.v.) safdoshlari, ayniqsa, dastlabki to‘rt xalifa (choryorlar)ning turli huquqiy masalalar yuzasidan bergan izohlari, shuningdek, ularning fiqhga doir chiqargan qarorlari fatvo deb aytilgan.

☑ ***Hidoya*** – (arabcha — «yo'llanma»; to'la nomi «Hidoya fi furu' al-fiqh» — «Fiqh sohalari bo'yicha yo'llanma») — hanafiylikda keng tarqalgan shariat qo'llanmasi (kodeksi). Uni Burhoniddin Marg'inoniy 13 yil davomida yozgan. Qo'llanmani yaratishda Qur'on oyatlariga, dastlabki 4 xalifa, sahobalar va tobe'inlarning rivoyatlari, hadislar, sunniylikdagi 4 mazhab asoschilarining asarlariga tayangan.

Savol va topshiriqlar

1. Turkiy tilda yozilgan dastlabki asarlar va ularning mohiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Arab tilining yuksalishi sabablarini tushuntiring. Arab tilining takomillashuvida rol o'ynagan vatandoshlarimiz faoliyati haqida esse yozing.
3. Zamaxshariyning arab tili rivojidagi faoliyatiga baho bering.
4. Tasavvuf nima? Sufiylar kimlar?
5. Fiqh ilmi nima? Faqihlar haqida gapiring.
6. Yusuf Hamadoniy va Najmiddin Kubrolar faoliyati haqida ikki ustunda ma'lumotnoma tayyorlang.
7. Kalom ilmi nima? Kalom ilmiy bilan shug'ullangan shaxslarni sanang.
8. Yassaviylik, naqshbandiya, kubraviylik tariqatlarining asosiy xususiyatlarini sanang.
9. Islom dinidagi mazhablar haqida ma'lumotnoma tayyorlang.
10. Hadis nima? Muhaddislar kimlar?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadislar. 1-4 jild. – T., 1997.
2. Abu Iso Muhammad at-Termiziy. Sunnani Termiziy. / Tarjimon, sharh va izohlar muallifi Mirzo Kenjabek. – T.: Sharq NMAK, 2013.
3. Azizxo'jayev A. Davlatchilik va madaniyat. – T.: Sharq, 1997.

4. Bahodirov R. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. – T., 1995.

5. Buyuk siymolar, allomalar. – T.: Meros (uch kitob), 1996,1998.

6. Jo'rayev O., Muhiddinov A. Mahmud Zamaxshariy. – T.: Tafakkur, 2011.

7. Mamadaliyev S. Imom Termiziy. – T.: Tafakkur, 2009.

8. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashxur siymolar, allomalar, adiblar). // Mas'ul muharrir: M. M. Xayrullayev. – To'ldirilgan qayta nashr. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.

9. Muhammadiyev F. Imom Moturidiy. – T.: Tafakkur, 2011.

10. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. –T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001.

11. Umarov Sh. Burhoniddin Marg'inoniy. – T.: Tafakkur, 2009.

12. Uvatov U., Jo'rayev O. Hakim Termiziy. – T.: Tafakkur, 2011.

13. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. – T.: Fan, 2019.

17-MAVZU.
IX – XII ASRLARDA TA'LIM TIZIMI

REJA:



17.1. O'rta asrlarda maktab ta'limi

17.2. Madrasalarning yuzaga kelishi, madrasa ta'lim tizimi.

Tayanch so'z va tushunchalar

Ta'lim-tarbiya, boshlang'ich, qissa, xalfa, islom, arab, fors, maktab, ilm, bola, mulla, domla, abjad, kattob, yozuv, dars, yodlash, «Haftyak», «Chor kitob», rivoyat, savod, ajdodlar merosi, o'tmish qadriyatlar, milliy meros, xalq og'zaki ijodi, Qur'oni Karim, hadis, musulmon maktablari, fanlar, diniy kitob, madrasa, shaharlar, Samarqand, Buxoro, ilk madrasalar, oliy ta'lim, mudarris, talaba, madrasa bosqichlari, quyi, adno, avsat, a'lo, vaqf, mutavalli.

17.1. O'RTA ASRLARDA MAKTAB TA'LIMI

VII asrdan keyingi pedagogik qarashlar va madaniyat haqida gapirganda shu narsaga amin bo'lamizki, bu masalalar O'rta Osiyo tarixida islom dini g'oyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki shu davrdan boshlab bizning yurtimizga ham islom dini g'oyalari kirib kela boshlagan edi

Bilib oling!


Xitoy sayyohi Syuan Szyan 630-yilda Samarqand haqida quyidagilarni yozadi: bu shaharda o‘g‘il bolalarning hammasi besh yoshdan boshlab yozish va hisoblashga o‘rgatiladi, o‘smirlik yoshiga yetganda esa savdo ishini o‘rganmoq uchun savdogarlarning karvoniga qo‘shilib, safarga jo‘naydilar. «Buyuk ipak yo‘li» bo‘yida savdo-sotiq ishlarini o‘z qo‘liga kiritib olgan savdogarlarning bolalarigina shunday qilardilar.

VII asrboshlarida islom g‘oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o‘z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni ham zabt etishni boshladi. Butun Arabiston yarim oroli, shuningdek, Eron, Kavkaz orti, Suriya, Shimoliy Afrika, Ispaniya xalifalik tarkibiga kiritildi. 651-715-yillar davomida arablar Movarounnahrni egalladilar. Ular bosib olingan xalqlarni islom diniga kirita boshladilar. Islom dini tarqalgan dastlabki vaqtlarda masjidlar musulmonlar uchun ilk ta’lim beruvchi muassasalar vazifasini bajara boshlaganlar. Shaharlar va qishloqlarning aholisi hayotida masjidlarning o‘rni katta edi. Zero, ular odamlarga bilim beruvchi, islomni tushuntirib beradigan dastlabki ta’lim muassasalari edi. Shundan kelib chiqqan holda, xalifa Umar (644-656) davridan boshlab masjidlar qoshida odamlarga Qur’on va hadislarni so‘zlab beruvchi «qoss» (qissa aytuvchi, rivoyat qiluvchi, notiq) deb nomlangan lavozimlar ta’sis etildi. Ular asosan odamlarga payg‘ambar hayotidan lavhalarni, Qur’on oyatlarini o‘qib berardilar. Ushbu sodda va oddiy bilim berish jarayoni rivojlanib borib, arab tili va adabiyotini o‘rgatishning yagona tizimi joriy etilishiga olib keldi va u keyinchalik, alohida ta’lim muassasalarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Ushbu tilni o‘rgatish bo‘yicha sodda yo‘riqnomalar boshlang‘ich ta’lim muassasalari – maktablarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Islom madaniyatida ta’lim tizimining asosini tarbiya tashkil etgan. Birinchi navbatda tarbiya orqali bilim berishga harakat qilingan. Boshlang‘ich tarbiya maktab (kattob)larda berilgan bo‘lsa, u madrasalarda davom ettirilgan.

Maktab o‘qituvchisidan o‘quvchiga va o‘qitiladigan fanlarga nisbatan hurmatda bo‘lish talab qilingan. Maktabda o‘z iqtidorini namoyon qila olgan bolalar keyingi ta’lim bosqichlarida o‘qishni davom ettirishga tavsiya etilgan. Maktablar umuman olganda, aholining diniy va adabiy savodini chiqarishga mo‘ljallangan ta’lim muassasalari bo‘lib, ular, shuningdek, keyingi ilmiy ta’lim muassalalari uchun o‘quvchilarni tayyorlaganlar. Maktablar masjidlar qoshida yoki boy odamlarning xususiy xonadonlarida faoliyat ko‘rsatgan.

Boshlang‘ich maktablar kattoblar deb ham atalgan. Ular arabcha «kataba», ya’ni yozmoq fe’lidan olingan va keyinchalik, bu nom ko‘plab mamlakatlarda «maktab» so‘zi bilan almashgan. Maktablarning maqsadi yosh avlodga o‘qish va yozishni o‘rgatish hamda islom dinining asoslari bilan tanishtirishdan iborat bo‘lgan. Maktablarda o‘g‘il bolalarga ham, qizlarga ham ta’lim berilgan. Maktablarda bolalarga o‘qish, yozish, nahv (grammatika), she’r, tarix va hisob kabi fanlardan ta’lim berilgan. Arab tili ham yangi madaniyat tili bo‘lib maydonga chiqdi. Arablar yunon fani yutuqlaridan foydalandilar, faylasuflar asarlarini tarjima qildilar. Astronomiya, tibbiyot, kimyoga oid yirik asarlar arabchaga o‘girildi.



Arab istilochilarining Movarounnahrdagi g‘alabasidan so‘ng barcha mustamlaka mamlakatlar qatori bu yerda ham islom dinning asoslari xususida ma’lumot beruvchi muqaddas kitob – «Qur’on» nozim bo‘lgan til – arab tilini o‘rganish joriy etildi. Diniy ulamolarning maxsus ko‘rsatmalariga muvofiq muqaddas kitobni boshqa tillarga tarjima qilish ta’qiqlandi. Shu bois, musulmon maktablarida asosiy manbaning tili hamda fan sifatida arab tilining o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. Mavjud fanlarning asoslari arab tilida o‘rganila boshlandi. Arab xalifaligi tasarrufiga olingan barcha mamlakatlarda masjidlar qoshida maxsus maktablar tashkil etildi.

Bilib oling!

VIII asrning boshidagi ijtimoiy tuzumning rahnamosi sifatida xalifalar «hamma masjidlar huzurida maktablar ochilsin va o‘g‘il bolalarga shu maktablarda Qur’on o‘qish o‘rgatilsin», deb farmon beradi. Islom dini borib yetgan joylarning hammasida masjidlar ochilaverdi, masjidning imomi esa o‘g‘il bolalar uchun maktab tashkil qiladigan bo‘lib qoldi. Qadimgi vaqtlarda savod chiqarish harf va so‘zlarni yozishni o‘rgatishdan boshlanar edi.

Bolalarga dastlabki saboq harflari o‘qishdan boshlangan, bu usulda har bir bola alifbe tartibida harfning nomini bilib olishi, so‘ngra shu harflarni qo‘shib o‘qishni mashq qilar edi. Ana shu mashq oxiriga yetgandan so‘ng, bolalar qo‘llariga «Qur’on» berilgan va ustoz rahbarligida «Qur’on»ning har bir surasi takrorlanib o‘rganilar edi. Lekin «Qur’on»ni o‘qish bolalar uchun juda og‘ir edi. Chunki maktablarda faqat og‘zaki mashq usuliga – «savod» chiqarilishiga o‘tgach, savod chiqarish yanada qiyinlashdi.

Yozuv alohida «fan» sifatida ajratilib, kotiblik kasbiga o‘qiyotganlargagina yozuv o‘rgatilar edi. Shunga qaramay, maktablarga deyarli hamma bolalar tortiladi va «Qur’on»ni o‘rganish majbur qilinib, arab bo‘lmagan bolalar uchun uni yodlash har qancha

og‘ir bo‘lsa ham Movarounnahr maktablarida «Qur’on»ning bu usuli qabul qilinadi va to‘g‘ri deb topildi.

Asta-sekin ota-onalar bolalarni 5-7 yoshidan maktabga bera boshlaydilar. «Qur’on»ni yod bilgan kishi qori deb atalardi. Qorilar katta hurmatga sazovor edilar. Asta-sekin o‘qimishli kishilar, ya’ni domla alohida ajralib, ular o‘z xonadonlarida ham maktab ochadi. Talabalar maktabdor domlalar maktabida husnixat, og‘zaki hisobni ham o‘rganar, asta-sekin fors-tojik tilida va turkiy tildagi kitoblarni, qo‘lyozmalarni ham o‘qitishar, o‘rgatishar edi.

X-XIII asrlardan boshlab Samarqand, Buxoro, Urganch, Marv, Balx, Nishopur kabi yirik shaharlarda maktab va madrasalar mavjud bo‘lgan va ular Sharq xalqlari uchun yetakchi o‘quv yurtiga aylangan. Maktab va madrasalar masjidlar huzurida tashkil etilgan. Maktab va madrasalarda yoshlarga ma’lum dasturlar asosida ta’lim va tarbiya berilgan. Ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarga diniy va dunyoviy bilim asoslarini o‘rgatishga, ularda go‘zal axloq-odob va insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. O‘rta asrlarda barcha musulmon mamlakatlarida ta’lim-tarbiya tizimi uch bosqichdan: boshlang‘ich ta’lim, umumta’lim va oliy ta’limdan iborat bo‘lgan. Boshlang‘ich ta’lim masjidlar qoshidagi maktablarda berilgan va u besh yilga mo‘ljallangan. O‘g‘il bolalar masjid imomlari, qizlar ayol xalfalar qo‘lida tarbiyalangan. Boshlang‘ich maktablarda arab yozuvi va o‘qish, Qur’oni Karim va hadisdan olingan namunalar, abjad hisobi, she’riy kitoblar, pandnoma, axloq-odob qoidalari o‘qitilgan. O‘quvchilar o‘qitilish bosqichiga qarab «Haftiyakxon», «Abjadxon» va «Qur’onxon» deb yuritilgan.

Bilib oling!

Maktablardagi ta’lim tizimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etilgani bois savod o‘rgatish jarayoni ko‘p vaqtni olar edi. Chunonchi, faqatgina alifboni o‘rganishga 3-4 oydan bir yilgacha, ba’zida undan ham ko‘p vaqt sarflangan. Har bir maktabda 20 ga yaqin o‘quvchi bilim olgan. Maktab darslarini mullalar olib borgan.

O‘quvchilar dastlabki o‘qish ko‘nikmalarini egallaganlaridan so‘ng «Haftiyak»ni (forscha, «Qur’oni Karimning yettidan bir qismi») o‘qishni boshlaganlar. Ushbu kitob Qur’oni Karimning diniy marosimlarni ado etishda ko‘proq (13-14 ta) o‘qiladigan kichikroq suralarini o‘zida jamlagan, qiroat kitobi shakliga keltirilgan. «Haftiyak»ni o‘qish maktablarda ikki yilgacha, ba’zan undan ham uzoq davom etgan. «Haftiyak» maktablarda xrestomatiya vazifasini o‘tagan birinchi qo‘llanma hisoblanadi. O‘quvchilar «Haftiyak»ni tugatganlaridan so‘ng «Chor kitob» (To‘rt kitob)ni o‘qishga kirishganlar.

Bilib oling!

«Chor kitob» – islomga oid pand-nasihatlar kitobi. Kitobda toat-ibodat, shariatning qonun-qoidalari: farz, sunnat, namoz va ro‘za haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, unda qiziqarli voqea va hikoyatlar, sharqona donolik namunalari bayon etilgan. Kitob fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, turkiy-o‘zbek tilidagi tarjimalari ham mavjud. «Chor-kitob» har xil davrlarda turli mualliflar tomonidan tuzilgan.

IX asrda Sharafiddin Sanoiy al-Buxoriy qalamiga mansub bo‘lib, u 2 she’riy va 2 nasriy majmuadan iborat «Nomi Haq», «Chahor kitob» («To‘rt kitob») deb nomlanuvchi maktab darsligining birinchi qismida diniy amallar (tahorat, namoz, ro‘za va h.k.)ga oid masalalar she’riy usulda bayon etilgan, ikkinchi qismida Qozi Azmuddinning «Bidon» (Bilgil) nomli kitobidan olingan va yuqoridagi masalalar izoh shaklida ancha keng yoritilgan parchalar o‘rin olgan. «Chor-kitob»ning «Musulmonlikning muhim masalalari» deb nomlangan uchinchi qismi o‘quvchilarni shariatning asosiy ustuni, ya’ni musulmon huquqshunosligi bilan tanishtiradi. Kitobning «Pandnoma» (Nasihat kitobi) deb nomlangan to‘rtinchi qismi XIII asrda yozilgan va Qur’oni Karimdan olingan odob-axloq masalalariga oid qoidalar she’riy shaklda bayon etilgan.

17.2. MADRASALARNING YUZAGA KELISHI, MADRASA TA'LIM TIZIMI

XIII asrda 150 ming aholi yashagan Samarqandda 250 ta masjid va 40 ta madrasa bo'lgan. Buxoroda esa 200 ming aholiga 400 masjid va 30 ta madrasa to'g'ri kelgan. Samarqanddagi Raboti G'oziyon madrasasi yana ham qadimiyroq bo'lib, unda Imom Moturidiy, Abulqosim Hakim kabilar Muhammad ibn Fazl Balxiydan (vaf. 931) tahsil olgan.

Islom dini VIII Turonda chuqur ildiz otdi va mustahkamlandi. Shu asrning ikkinchi yarmi, asr oxirgi choragida mamlakatda yangi tamaddunni shakllantiruvchi hadis, tajvid, tilshunoslik, tafsir, tarix, butkul o'zga mazmundagi adabiyot va boshqa ilmlar paydo bo'ldi.

Turon hududida yangi sivilizatsiyaning Buxoro, Samarqand, Nasaf, Kesh, Termiz, Shosh maktablari shakllandi, keyinchalik ularning barchasi birikib Movarounnahr ilm-fani va madaniyati nomi bilan yuritila boshladi. VIII asrda Movarounnahrda bunyod etilgan masjidlar va taniqli allomalar hovlilarida o'qitish ishlari uchun maxsus ajratilgan xonalar ilk ilm maskanlari vazifasini o'tadi. Buxoroda masjidlar, odatda, qishki va yozgi qismdan iborat qilib qurilgan.

Bilib oling!

Buxoroda VIII asr oxiri – IX boshlarida bugungi oliy ta'lim ilm maskanlari – madrasalar qurila boshlaydi. Arab va ajam (arab bo'lmagan) mamlakatlarida bo'lgani kabi, Turonda ham dastlab masjidlar va uning hovlisida, keyinchalik, hovli atrofiga qurilgan hujralarda islom ta'limoti targ'ib qilindi. Masjidlardan alohida ajratilib, faqat o'qitish ishlariga mo'ljallangan maxsus o'quv binolari qurilishi VIII asrning oxirgi chorigiga to'g'ri keladi.

Madrasaga maktabni tugatgan o'spirinlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo'lgan. Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo'lgan. Talabalar kunduzgi bo'lim va darslarga

erkin qatnovchi sirtqi bo‘lim talabalari toifalariga ajratilgan. Madrasalarda ta’lim olayotgan talabalar uchun ta’lim dasturlari uch bosqichga ajratilgan: birinchi, quyi bosqich – (adno yoki ibtidoiy), ikkinchi, o‘rta bosqich – (avsat yoki rushdiy) va uchinchi, yuqori, oliy bosqich – (a’lo yoki iqdadiy) guruhi deb yuritilgan. Har bir bosqich uchun alohida dastur ishlangan bo‘lib, bir bosqichdan navbatdagi bosqichga o‘tish yakuniy imtihonlar orqali hal etilgan. Shu bilan talabalarning oladigan nafaqalari (stipendiya) ham oshirilib borilgan. Madrasa o‘quv kursi, odatda, «Avvali ilm» deb nomlangan fors tilidagi o‘quv qo‘llanmasini o‘zlashtirish bilan boshlangan.

Adno bosqichi «Aqoid» kitobini o‘qishga o‘tguncha davom etgan, avsat bosqichi «Aqoid» kitobini o‘qishdan boshlanib, «Sharhi mulla» kitobini o‘rganguncha bo‘lgan va undan keyingi murakkab qo‘llanmalarni o‘rganuvchilar a’lo bosqich talabalari hisoblangan. Madrasada o‘qish talabalar iqtidoriga qarab, o‘rtacha 7-12 yil davom etgan. Har bir madrasada 60-100 ga yaqin talabalar bilim olganlar. O‘rta bosqichdagi madrasalarda ta’lim oluvchilar musulmon ta’limoti, qonunshunoslik, mantiq, qadimiy falsafa, qiroat, tajvid, hisob-kitob, geografiya, arab va fors tillarini o‘qiganlar. O‘qish kursining birinchisi o‘rta asrlarning ilmiy tili hisoblangan arab tili grammatikasi

Abu Xafs Kabir madrasasi	VIII asr oxiri IX asr boshlarida qurilgan.
Abu Bakr ibn al-Fazl madrasasi	Abulkarim sa’moniy yozishicha Xasr boshlarida bunyod etiladi.
Farjak madrasasi	Buxoroning eng qadimiy madrasalaridan biri bo‘lib, 937-yil yozida Buxoro yong‘inida yonib ketadi. Keyinchalik, qayta tiklangan.
Timchai xon madrasasi	Madrasa Buxoroda, katta ehtimol bilan X asr oxiri XI asr boshida bunyod etilgan. Bu madrasada Abu jafar Utbiy va Raziaddin Nishopuriylarning maqbaralari joylashgan.

Imom ul-muslimin madrasasi	Dastlab qorixona bo‘lib, Abu Xafs Kabir Buxoriy qabri ustida joylashgan. Keyinchalik madrasa maqomini oladi.
Kulartegin madrasasi	1099-1102-yillarda hukmronlik qilgan qoraxoniylar sulolasi hukmdorlaridan Qodirxon Jabrail yoki Kulartegin tomonidan qurdirtirilgan. Jubayi baqqolon (Baqqollar bozori) guzarida joylashgan.
Arslonxon madrasasi	Asl nomi Kalabod bo‘lib, xon madrasasi deb ham yuritiladi. XII-XVII asrlar oralig‘ida Arslonxon madrasasi nomi bilan ham mashhur bo‘lgan.
Imom G‘azzoliy madrasasi	Sufiyon dahasida Imom G‘azzoliy guzarida edi. Dastlab qorixona bo‘lgan. Imom G‘azzoliy yashagan davrlardan kelib chiqib, taxminan XI asr oxiri XII asr boshlarida qurilgan.

O‘qitilgan – arabshunoslik (leksikografiya, etimologiya, sintaksis, ritorika, tarix), o‘quv kursi ikki bo‘limga: umumta’lim kursi – mushkulot – falsafa (mantiq, geografiya, tibbiyot, tabiiy fanlar va kalom ilmi), so‘ng fiqh kursi – masala – dinshunoslik va qonunshunoslik («Qur’on» tafsirlari, hadislar, shariat qonunlari, faroiz – meros huquqi, matematika, mol-mulkni taqsimlash) bo‘limlariga ajratilgan. Talabalar o‘z xohish-istaklari va qobiliyatlariga qarab mushkulot yoki masala bo‘limlaridan birini, agar istasalar har ikki bo‘limni o‘qib tamomlashlari mumkin edi.

Madrasalarda to‘liq kursni o‘qib tamomlash uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 140 ga yaqin darslik – qo‘llanmani o‘zlashtirish talab etilgan. Madrasalarda talabalarning qiziqishlari va mudarrislarning mavjudligiga qarab, falakiyot, handasa, kimyo, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morlik asoslari, xattotlik, musiqa, axloq, notiqlik kabi fanlar ham o‘qitilgan. Asosiy ta’lim metodlari ma’ruza va bahs-munozaralarni tashkil qilgan. Ma’ruza (va’zxonlik) larda 100 tadan 400 tagacha tinglovchilar, ta’lim oluvchilar qatnashgan. O‘rta tipdagi madrasalarning vazifalariga maktablar uchun mullalarni

tayyorlash, masjid uchun din peshvolarini tayyorlash kirgan. Oliy tipdagi madrasalarning vazifalariga davlat idoralari, boshqaruv mahkamalariga qozilarni tayyorlash, shariat ulamolarini tayyorlash, musulmon qonunshunoslarini tushunadigan mutaxassislarni tayyorlash kirgan.

Bilib oling!

Madrasa binolari musulmon olamida me'morchilik inshooti sifatida VIII-X asrlarda vujudga kelgan. Ilk madrasalar bir qavatli, o'rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo'lgan. Ba'zan gumbazli go'rxona qurilib, unga madrasaga homiylik qilgan kishi dafn qilingan.

Narshaxiy, qadimiy madrasalardan biri sifatida Buxorodagi Farjak madrasasi haqida qisqa ma'lumot qoldirgan. Unga ko'ra madrasa 937-yili yong'inda vayron bo'lgan. Samarqandda X asrda 17 ta madrasa tashkil etilgan. Madrasalar birinchi navbatda ularda muayyan mazhab uchun fiqhdan – musulmon qonunshunosligidan tahsil beruvchi ta'lim muassasasi sanalgan.

Ilk marta e'tiborli fanlarni tasniflash Abu Nasr Farobiy tomonidan amalga oshirilgan. «Ihso ulum» («Fanlarni tasniflash») quyidagi ko'rinishda umumiylashtirilishi mumkin:

I. Til ilmi: sintaksis, grammatika, talaffuz va nutq, nazm.

II. Mantiq ilmi. O'z-o'zidan bu guruh mantiq ilmining bir necha bo'limlariga bo'linib ketadi.

III. Aniq bir yo'nalishdagi fanga kirish ilmi.

1. Arifmetika (nazariy va amaliy).
2. Geometriya (nazariy va amaliy).
3. Optika.
4. Astrologiya.
5. Musiqa.
6. Aruz ilmi (Vazn ilmi).
7. Dastgohshunoslik ilmi (turli san'at sohalari, hunarda ishlatiladigan dastgohlarni yasash).

IV. Fizika va metafizika ilmlari. Bir necha mayda sohalarga ajratib ko‘rsatilgan.

V. Jamiyatshunoslik ilmi:

1. Fiqh.
2. Notiqlik (Ritorika).

XIV-XV asrlardan boshlab hashamatli madrasa binolarini qurish avj oldi. Ularning aksariyati ikki, ba’zan uch qavatli bo‘lib, odatda, katta va go‘zal peshtoqli, atrofi hujralar bilan o‘ralgan hovlisi, darsxona, kutubxona, masjidi bo‘lgan. Keyinroq katta madrasalar yoniga yoki hovlisiga minora qurish rasm bo‘lgan. Madrasa binolarining tashqi va ichki qismi turfa rang koshin va ganchkori bilan bezatilgan, Qur’ondan oyatlar va hadislar yozilgan.

Madrasalarga nafaqat diniy bilimlarga qiziquvchilarni, balki turli ziyoli tabaqalari, o‘qituvchilik, tabiblik kasbini egallashni xohlovchilarni ham o‘qitganlar. Oliy tipdagi madrasalar Samarqand, Buxoro, Urganchda bo‘lgan, shuning uchun turli yurtlardan tolibi ilmlar kelib ta’lim olib, bu yurtlarning dong‘ini dunyoga tanitganlar. O‘rta Osiyodagi madrasalarda ta’lim beradigan mudarrislar arab tilida dars olib borishlaridan tashqari, adabiyot va ilmiy talablar asosida fors tilida hamda turkiy tillarda ta’lim berganlar. Bundan tashqari, arab va fors tilida yozilgan kitoblar o‘qitilib, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan.

Bilib oling!

Madrasada mudarrislar va boshqa xizmatchilar maosh, talabalar stipendiya, o‘quv jihozlari (daftar, kitob, qalam va b.) va turar joy bilan ta’minlangan. Madrasada arab, fors va turkiy allomalarning asarlaridan tashqari qadimgi hind va yunon olimlaridan Klavdiy Ptolomey, Suqrot, Platon, Aristotel va boshqalarning arab tiliga o‘girilgan asarlari hamda ularga yozilgan sharhlar darslik sifatida o‘qitilgan. Badiiy adabiyotga doir asarlardan Abulqosim Firdavsiy, Farobiy, Ibn Sino hamda Beruniy asarlari sevib o‘rganilgan. Madrasalarga talabalar imtihon

yoki tanlov asosida o‘qishga qabul qilingan. Mudarrislar ham imtihon qilingan va davlat rahbari tomonidan tayinlangan. Mudarrislar dars berishdan tashqari qozilik, muftiylik kabi davlat ishlari bilan ham shug‘ullanib turishgan.

O‘qish yili oxirida ham talabalar o‘tilgan fanlar yuzasidan imtihon topshirishgan. Imtihon bevosita ota-onalar ishtirokida qabul qilingan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga shahodatnoma (diplom) topshirilgan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlaganlar islomning yetuk ulamolari: shayx, shayxulislom, mulla, imom, mudarris, maktab muallimi yoki qozi, muftiy, a’lam, mirzo sifatida davlat mahkamalariga yuborilgan. XIII asr oxiri XIV asr boshlaridan boshlab madrasalar xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar kabi turlarga bo‘lingan.

Madrasa muassislari madrasani ta’minlash uchun maxsus mulk – vaqf ajratishgan. Ularning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo‘shimcha mablag‘ hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o‘z vaqf mulki va vaqfnoma hujjati bo‘lgan. Vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar: mutavalli, mudraris, hofiz, muhri, naqib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalar soni, ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq ko‘rsatilgan.

Madrasalarni boshqarish, o‘qitish jarayoni va xo‘jalik ishlariga shayxulislom va qozilar rahbarlik qilishgan. U vaqf yerlaridan kelgan daromadlarni, ushr, sadaqa va ehsonlarni madrasa ehtiyojlariga taqsimlab sarflagan. Mutavalli vaqf kirimlari, madrasaning moliyaviy xarajati, ta’mirlash, xodim va talabalarga to‘lanadigan haq va boshqa ishlarga mas’ul bo‘lgan. Madrasa xizmatchilari, mudarrislari va talabalarga beriladigan yillik maosh miqdori naqd pul va ovqatlik don hisobidan ajratilgan. Madrasalarning ehtiyojlariga vaqf daromadlaridan bir qismi vaqf mulkini saqlab turish, madrasa binosini ta’mirlash uchun ajratilgan, ma’lum qismi esa mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilarga berilgan.

Har bir madrasa qoshida o‘zining kutubxonasi bo‘lgan. Madrasa o‘quv dasturining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Mashg‘ulotlar, odatda, sentabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta’tilga chiqilgan. Madrasalarda shanba, yakshanba, dushanba, seshanba kunlari mashg‘ulotlar olib borilgan. Haftada ikki kun ya’ni chorshanba va payshanba kunlari mustaqil mutolaa kunlari, juma kuni esa dam olish kuni bo‘lgan.

Bilib oling!

Madrasalarda bir o‘qish yili 7 oy davom etadi. O‘qish yili mezon oyining birinchi kuni 21 sentabrda boshlanib, hamal oyining birinchi kunida 21 martda tugallangan. Qolgan oylar ta’til kunlari hisoblanib, talabalar bu vaqtda xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullangan. Darslar quyosh chiqish payti (*bomdod* namozidan keyinroq) boshlangan. Madrasalarda talabalarning ta’lim va tarbiya olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ularga har kuni to‘rt mahal issiq ovqat va iqtidorli talabalarga qo‘shimcha mukofotlar ajratilgan.

Madrasalarda ichki tartib-intizomga qat’iy amal qilingan. Madrasa nizomini buzgan talaba va xizmatchilar uch marotabagacha ogohlantirilgan, kamchilik yana takrorlansa, bunday shaxslar madrasadan chetlashtirilgan. Lekin bunday ko‘ngilsizlik juda kamdan kam sodir bo‘lgan. Madrasaning ichki hayotiga daxldor masalalar mutavalli, mudarrislardan tarkib topgan hay’at kengashida hal etilgan. O‘qituvchilik-mudarrislik eng mas’uliyatli va sharafli kasb hisoblangan. Eng iste’dodli, barcha bilimlardan xabardor, hurmat-e’tibor qozongan allomalar maxsus komissiya sinovidan o‘tib, mudarrislik vazifasiga tavsiya etilgan. Ba’zi madrasalarga butun boshli qishloqlar vaqf qilib berilgan. Ba’zan iste’foga chiqqan yuqori martabali amaldorlar mudarris bo‘lib ishlagan.

Yozma manbalarda anushteginlar davrida Xorazmda 12 mingdan ziyod masjid, ular qoshida shuncha maktab, 4440 ta madrasa bo‘lganligi qayd etiladi. Faqat Gurganjda madrasalar soni 700 ga yaqin bo‘lgan. Xorazmshoh-anushteginiylar davrida madrasalarning imomlari va mudarrislari sulton yoki uning noibi tomonidan tayinlangan. Masalan, xorazmshoh El Arslon 1162-yilda Turkiston xoqoni Abulmuzaffar Tamg‘och Bug‘roxon zimmasiga boshqa ishlar bilan birga madrasalarga munosib mudarrislar tayinlash vazifasini ham yuklagan. Uzoq yillar madrasaning mudarrisi maktab darslariga rahbarlik qilish mumkin bo‘lgan. Madrasaning barcha vaqflari shu kishining tasarrufiga berilgan, bu kishi vaqf daromadlaridan munosib ishlarga, imoratlar qurish, ziroat uchun sarflagan. Madrasaning barcha ilohiyotchi, faqih, ulamolari, talabalari bu kishini izzat-hurmat qilishlari, uning yig‘inlarida qatnashishlari zarur bo‘lgan va bu kishi shayx deb yuritilgan.

Yangi madrasalar qurilishini odatda taniqli din arboblariga topshirilgan. Masalan, Xurosondagi bir madrasa qurilishi muftiy va imom Aziziddin Ali Balxiyga, Nishopurdagi bir madrasa qurilishi muftiy va mudarris imom Faxriddin Abu Sobit Abdulaziz ibn Abdul-Jabbor Kufiyga topshirilgan. Xorazmshoh Jaloliddin taniqli ma’rifatparvar olim Muqarrabiddin Muhammad ibn Ibrohim Pahlavon al-Xorazmiyga Isfahonda otasi sulton Alouddin Muhammad xotirasi uchun katta madrasa qurishni topshirgan va bu ishga 30 ming dinor mablag‘ ajratgan. Bu mablag‘dan tashqari yana Iroqdan keladigan xirojlardan bir qismi «...madrasa qurilishini tamomlash uchun qo‘shimcha mablag‘lar berilgan. Muqarrabiddin Isfahonga borib, madrasa qurilishini boshladi. To‘rt oydan keyin madrasa qurilishi nihoyasiga yetdi».

Bilib oling!

O‘rta asr madrasalarida ham tolibi ilmlar kunduzgi va sirtqi bo‘limlarga bo‘lingan. Kunduzgi bo‘limda yotoqxonaga haqdor bo‘lgan, hujrada yotib o‘qiydigan talabalar va uyidan qatnab o‘qiydigan talabalar; sirtqi bo‘limda esa, turli

kasb-kor bilan shug'ullanadigan, mudarris bilan kelishilgan vaqtlarda kelib tahsil olib ketadigan kishilar o'qiganlar. Madrasa talabalarining katta qismi hujralarda istiqomat qilganlar. Hujra uchun tag-joy (ijara puli) olinmagan. Ba'zi hujralar madrasa tolibi ilmidan bo'lmagan kishilar – ijodkorlar, allomalar, xattotlarga ijaraga berilgan yoki muassasa ixtiyori bilan ijara haqisiz berilgan.

Atamalar izohi

☑ ***Mulla*** – O'rta Osiyo mamlakatlarida musulmon odatining bilimdoni, din xizmatchisi, diniy maktab o'qituvchisi, savodli, ilmli kishi hisoblangan.

☑ ***Domla*** – katta mulla degan ma'noni anglatgan.

☑ ***Abjad*** – qadimgi arab alifbosi tarkibidagi harflardan tuzilgan va har qaysi harfning son qiymatini eslab qolish uchun yasalgan sakkizta so'zning birinchisi va shartli umumiy nomi. Bu so'zlar: abjad, havvaz, hutti, kalaman, sa'ufas, qarashat, saxxaz, zazag'. Aslida arab harflarining mazkur tartibi finikiya va oromiy harflaridan kelib chiqqan bo'lib, ular muayyan sonlarni ifodalaydi. Arablar mazkur sakkizta so'zning oldingi oltitasini 22 harfdan iborat finikiya-oromiy alifbosi asosida tuzib, harflarning son ifodalarini 1000 ga yetkazish uchun finikiya-oromiy alifbosida bo'lmagan oltita arab harflaridan abjadning keyingi ikki so'zini (saxxaz, zazag') yasaganlar. Harflarni sonlar bilan va sonlarni harflar bilan ifoda qilish abjad va jimal hisobi ismlari bilan atalib, qadimgi vaqtlarda sonlarni, masalan, ko'paytirish jadvalini yodlashni osonlashtirgan. Bundan tashqari, Sharq, shu jumladan o'zbek mumtoz adabiyotida biror muhim hodisaning sanasini esda tutishni osonlashtirish uchun sonlar harflar bilan ifodalangan. O'zbek adabiyotida abjaddan maxfiy yozuvlar yozishda ham foydalanilgan. O'zbek mumtoz adabiyotida abjad hisobi XX asr boshlarigacha qo'llangan.

☑ ***Savod*** – lug'aviy ma'nosa «qora», «nursiz». Qadimgi va o'rta asr shaxslari o'z farzandining ongiga nur, ziyo to'ldirish uchun uning

ichidagi qorani, ya'ni – savodni chiqarishni iltimos qilib mudarrisga olib borganlar. «Savod chiqarish» degan shundan qolgan. Bugungi kunga kelib bu so'z asliga teskari qo'llaniladi, yani, savodli – bilimli, o'qimishli ma'nosida.

Savol va topshiriqlar

1. Ilk o'rta asrlar ta'limi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
2. Islom dini kirib kelishi ta'lim tizimiga qanday ta'sir qilgan?
3. Turon hududidagi dastlabki madrasalar qayerlarda bo'lgan?
4. Turondagi ilk madrasalarning ko'rinishi, ta'lim mazmun-mohiyati haqida ma'lomot bering.
5. Tasavvur qiling: IX asr maktabidasiz, siz bu ta'lim tizimini butkul qabul qila olasizmi? Zamonaviy ta'lim tizimi bilan taqqoslang va o'z munosabatingizni bildiring.
6. VIII-X asrlar maktablarining o'ziga xosliklari haqida gapiring.
7. Turonda tashkil etilgan ilk madrasalarni sanang.
8. Dastlabki madrasalarda ta'lim dasturlari, ta'lim mazmuni, shakli va moliyalashtirilishi qanday bo'lgan?
9. Mudarrislar va tolibi ilmlar faoliyati va hayoti haqida kichik esse yozing.
10. Boshlang'ich maktablar qanday bo'lgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – T.: Akademnashr, 2017.
2. Jumanazar Abdusattor. Samarqand ta'lim tizimi va madrasalari tarixi. – T.: Fan, 2021.
3. Jumayeva N. O'rta Osiyo allomalarining ilmiy merosi. Uslubiy qo'llanma. – Buxoro: Durdona, 2013.
4. Nizomulmulk. Siyosatnoma. / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar mualliflari Sh.Vohidov va A.Erkinov. T.: Yangi asr avlodi, 2010.

5. Muhammad Yahyoxon Xo‘qandiy – Xo‘qandi Latif manoqibi. – T.: Movarounnahr, 2018.

6. Ta’lim tarixi. O‘quv qo‘llanma. M.Abdullayeva (va boshqalar). – T.: «Muharrir» nashriyoti, 2013.

7. Zunnunov A. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: Sharq, 2000.

8. O‘zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas’ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

9. Vaxitov M., Mirzayev Sh. Me’morchilik tarixi. 1-qism. T.: Tafakkur, 2010.

10. Ziyo A. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

18-MAVZU.
O‘RTA OSIYODA MUSIQA, SAN’AT VA ME’MORCHILIK



REJA:

18.1. IX-XII asrlarda musiqa san’ati.

18.2. IX-XII asrlarda me’morchilik va shaharsozlik.

Tayanch so‘z va tushunchalar

San’at, musiqa, musiqa madaniyati, «Qo‘shiqlar kitobi», Musadjiq, Ibn Muqriz, musiqa asboblari, musiqiy risola, barbat-ud, navba, Ro‘dakiy, rubob, xarrak, zarbli cholg‘ular, damli cholg‘ular, me’morchilik, inshoot, paxsa, xom g‘isht, pishiq g‘isht, bino, rabot, karvonsaroy, minora, masjid, maqbara, xonaqoh, gumbaz, saroy, bog‘, to‘rtburchak, diniy inshootlar, ark, shahriston, suv inshootlari.

18.1. IX-XII ASRLARDA MUSIQA SAN’ATI

O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo‘shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy va qadimiy merosga ega. Turon xalqlarining musiqa madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeologlar tomonidan topilgan yodgorliklar buning dalili bo‘ladi va shu xalqlarning yuksak madaniyatga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Lekin arab istilosi davrida (VII-IX asrlar) boshqa madaniy yodgorliklar qatorida musiqaga doir yozma manbalar ham kuydirilib, yo'qotib yuborilgan.

Turonning Arab xalifaligiga qo'shib olinishi musiqa san'ati uchun ma'lum darajada ijobiy ahamiyatga ham ega edi. Arablar o'z navbatida musiqa san'ati sohasida mahalliy aholidan ko'pgina narsalarni o'rganib oldilar. Abulja'far Isfaxoniy (897-967)ning arab tilida yozilgan «Qo'shiqlar kitobi»ga ko'ra, juda ko'p arablar Markaziy Osiyo kuylaridan foydalangan. Masalan, Musadjiq nomi bilan mashhur bo'lgan birinchi arab qo'shiqchisi Turonda (boshqa mamlakatlar qatori) ham bo'lib, turli xil kuylarni tanlab oldi va ular asosida qo'shiqlar ijrosi tizimini yaratdi. Boshqa bir qo'shiqchi – Ibn Muqriz (vaf. 757) esa birinchi bo'lib markaziy osiyolik qo'shiqchilardan o'rgangan holda arab baytlarini ijro eta boshladi. Farobiy turli xil asboblardan tovush qatorlarini o'rgana borib, Xuroson tanburiga alohida e'tibor berganining o'zi ham mahalliy musiqa asboblarining ahamiyati katta ekanligidan guvohlik beradi.

Bilib oling!

IX-X asrlarda ilm-fan, madaniyat va san'atning barcha turlari ravnaq topdi, buyuk mutafakkirlar, ulamo-yu fuzalo ham ayni shu davrda shu hududdan yetishib chiqdilar. O'tmish madaniyatimiz, ma'naviyatimizga taalluqli manbalarning asosiy qismi ham shu davrda yaratildi. Xususan, al-Kindiy, Abu Nasr Farobiy, «Ixvanus-safo», Abu Ali ibn Sino, Muhammad Muso Xorazmiy kabi qomusiy allomalarning musiqa masalalariga bag'ishlangan asarlari IX-X asrlar musiqa madaniyatini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Albatta, markazlashgan yirik davlatlarda iqtisod, xalqlarning turmush-tarzi yaxshilana borgani sari ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at bilan birga musiqa ham rivojlana boshlaydi. Albatta, har yerdagidek bu yerda ham bayramlar, to'ylar, xalq sayillari musiqa va

qo‘shiqlarsiz o‘tmagan. Bu haqida Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni lug‘atit turk» asarida keltirilgan ma’lumotlar diqqatga sazovordir. Bu davrda quyidagi musiqa asboblari bo‘lgan: ud, tanbur, qubuz, rubob, nay, surnay, karnay, qo‘shnay kabi g‘oyat xilma-xil torli, zaburli va puflab chalinadigan cholg‘u asboblaridan keng foydalanilgan. Bu davrda hatto yangi sozlar ixtiro etilgan. Masalan, Ro‘dakiyning zamondoshi Abu Xafz Sug‘diy nayga monand *shohrud* nomli torli asbob yaratgan edi. Manbalarda Abu Bakr Rubobiy, Bunasr, Buamir, changchi Lo‘kariy kabi sozanda hamda hofizlarning nomlari saqlanib qolgan. Ro‘dakiy ud va tanbur kabi sozlarni yaxshigina chaladigan sozanda va xushovoz hofiz bo‘lgan. Uning mashhur «Bo‘yi jo‘yi Mo‘liyon» (Mo‘liyon arig‘ining ifori) she’ri ushshoq kuyida aytilib, nihoyatda shuhrat qozongan. Ana shu davr kuylari, qo‘shiqlari xalqimizning klassik kuyi «Shashmaqom» va boshqalar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Bilib oling!

Rivoyat:

Somoniylar amiri Nasr Hirotda ziyofatlar ichida yuraveradi. Yurtni, Buxoroni sog‘ingan a’yonlar amirga ta’sir ko‘rsatishni Ro‘dakiydan iltimos qilishadi. Shunda Ro‘dakiy bir ziyofat chog‘ida o‘zining mashhur «Bo‘yi jo‘yi Mo‘liyon oyad hami» («Dimog‘imga Mo‘liyon arig‘ining hidlari urildi») degan qo‘shig‘ini changda ijro etadi. Qo‘shiqdan amir shunchalik ta’sirlanadiki, yalangoyoq holda otga minib, Amudaryo kechuviga qarab yo‘naladi.

G‘azal shunday boshlanadi:

Bo‘yi jo‘yi Mo‘liyon oyad hame,

Yodi yori mehribon oyad hame.

(Mo‘liyon arig‘ining hidlari (dimog‘imga) kelmoqda. Unda mehribon yor yodi ham kelmoqda.)

Bu misralar amirning ko‘z oldida olmazor bog‘larni, Mo‘liyon arig‘ining suvlarini, ayni paytda uzoqda qolgan yor va diyor xotirasini uyg‘otadi.

Muhammad Muso Xorazmiy Bag'doddagi «Ma'mun akademiyasi» («Bayt ul-hikma»)ning mudiri bo'lgan. Rivoyatlarda aytilishicha, olimlar orasida shifo uslublari haqida bahs ketganda shogirdlardan biri Xorazmiyga – «Siz insonlarni davolashda nimani afzal ko'rasiz, dori-darmonnimi yoki jarrohliknimi?» – deb savol bergan ekan. Shunda ustozning «Mening vatanimda ularning ikkalasidan ham musiqaning shifobaxsh kuchini ustun tutadilar», degan so'zlari tarixga kirib qolgan. Xorazmliklarning oddiy odamlaridan, hunarmandlaridan tortib eng oliy tabaqa vakillarigacha o'zini soz san'atiga yaqin tutgan. Beruniyning ma'lumot berishicha, Xorazmshoh Ma'mun II musiqa va she'riyatni chuqur idrok qiladigan, atrofidagi shoir va sozandalarga nozik uqtirishlar qiladigan podshoh bo'lgan. Tarix kitoblarida Ma'mun akademiyasining tarkibida musiqashunoslik ilmida e'tibor topgan olimlarning nomlari ham tilga olinadi.

Bilib oling!

Xorazmshoh Sulton Muhammad o'zi barbat (ud)da navba (turkumli asar)lar chalib huzur topishni odat etgan. Hattoki Xorazmshoh muhim davlat ishlariga qo'l urishdan oldin unga ruhiy tayyorlanib, miriqib kuy chalib, aql va tuyg'ularini sozlab bo'lgandan keyin kirishar ekan.

Zamonasining eng «Buyuk ustoz – Shayxi sharif» unvonini olgan qomusiy olim Faxriddin Roziy musiqashunoslik tarixida ham alohida o'rin tutadi. Uning «Jome' al-ulum» qomusining musiqaga bag'ishlangan qismi Farobiy va Ibn Sino bilan keyingi davrlar o'rtasidagi juda muhim bosqich hisoblanadi. Roziyning risolasi Farobiy va Ibn Sinolarning arab tilida yaratilgan musiqiy asarlarida mahalliy tillardagi iboralarning qo'llanilishi, masalan, ud cholg'usining qadimgi nomi «barbat» bo'lganligi haqidagi mulohaza bilan ham farq qiladi.

Aytish joizki, musiqa san'atiga o'sha davr hukmron sinflarining maishiy turmush tarzi va vaqtguzaronligi yaxshigina ta'sir ko'rsatgan. Musiqa hukmron sinf hayotining muhim lazzatbaxsh omillaridan biri

edi. Bu haqda Kaykovusning mashhur «Qobusnoma» asarida ham qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. O'sha davrda musiqachilarning ikki asosiy guruhi tashkil topadi. Birinchisi, bazm-u ziyofatlar, majlislarda xizmat qiladigan guruh bo'lib, xonanda, torli va damli sozlar ijrochilari, shuningdek, yopiq maydonda ijro etish uchun mo'ljallangan zarbli cholg'ular ijrochilaridan iborat; ikkinchisi esa harbiy-amaliy funktsiyalarni bajaradigan guruh bo'lib, tarkibiga karnay, nog'ora, dovul kabi ochiq maydonda ijro etiladigan jarangdor cholg'ular ijrochilari kirgan. Bunday bo'linish, atoqli olim F.M.Karomatovning qayd etishicha, keyinchalik, o'zbek milliy cholg'u ansambllarining ikki asosiy turi vujudga kelishiga olib kelgan.

Bilib oling!

IX-X asrlarda Turon xalqlari cholg'ularining ko'p turliligi bilan ajralib turgan. Kasbiy ijrochi va nazariyotchilar orasida ud (yoki barbat) eng ommalashgan cholg'u edi. Musiqiy risolalarning alohida boblari mazkur cholg'u tavsifiga bag'ishlangani ham bejiz emas. Bundan tashqari, ikki turdagi – Bag'dod va Xuroson tanburi, shuningdek, rubob ham amaliyotda qo'llanilgan. Damli cholg'ular – nay va surnayning har xil turlari keng tarqalgan. Rivoyatlarda keltirilishicha, Chingizxon bosqinidan oldin Xorazmshohlar saltanati markazi bo'lgan Ko'hna Urganch shaharida ko'plab hunarmandlar musiqani o'zlariga hunar qilib olganlar. Hatto ma'lumotlarga qaraganda, yolg'iz Ko'hna Urganch shaharida dutor soziga eshak (xarrak) yo'nib, sotib kun ko'radigan hunarmandlarning o'zigina mingga yetar edi.

Shu bilan birgalikda saroy musiqachilariga tegishli axloqiy va kasbiy qoidalar ham mavjud bo'lgan. Bu jarayon Kaykovusning mashhur «Qobusnoma»sida quyidagicha aks ettirilgan: «Agar nazirsiz (benazir) ustod bo'lsang ham majlis ichidagi harif (ulfat)larga qarag'il, agar musiqiydan zavq olg'uvchi qarilar va xos odamlar bo'lsa, mutriblik qil, yaxshi yo'llarni va navolarni chertg'il... Yana diqqat qilib

qarag'ilki, mazkur bazmda har kishi qaysi yo'lni yaxshi ko'radi, shu kishiga kosa yetg'on choqda uni aytg'il. Unday vaqtda ul odamlardin biror narsa umid qilsang, shuni topasan...».


Biroq musiqachilarning kiborlar didi va ehtiyojlariga tobe bo'lganligiga qaramay ushbu davr musiqa madaniyati o'zining asrlar davomida shakllangan badiiy-estetik tamoyillarini saqlab qoldi va rivojlantirdi. Musiqa san'atining yuksak badiiy-estetik ideallari, kasbiy musiqachining axloq kodeksi, eng avvalo, musiqa ilmiga bag'ishlangan asarlarda o'z ifodasini topdi. O'sha davrda chiltor va ud singari torli hamda puflama cholg'ular (nay) keng tarqalgan edi. Udsimonlardan kvartaga sozlanadigan, besh-olti juft torli ud qo'llanilgan. Darveshali Changiy (XVI-XVII asr) udni «barcha musiqa asboblarining podshosi» deb baholagan edi.

18.2. IX-XII ASRLARDA ME'MORCHILIK VA SHAHARSOZLIK

IX-XII asrlarda o'lkada markazlashgan yirik davlatlarning shakllanishi va ularning rivoji, davlatchilikning mustahkamlanishi, ma'naviy hayot, ilm-fanning rivojlanishigagina emas, balki moddiy madaniyatning ham rivojlanishiga asos bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Urganch (Gurganj), Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda saroylar, masjid, madrasalar, minoralar, maqbaralar, tim va karvonsaroylar ko'plab qurila boshladi. Bu davr O'rta Osiyo me'morchiligida ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, qurilish materiali sifatida paxsa, xom g'isht va pishiq g'isht hamda bog'lovchi element sifatida ganchdan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu vaqtda sinch qadab quriladigan uy-joylar va umum ahamiyatga ega bo'lgan binolar, saroylar, masjidlar, madrasalar qurilishida yog'och ham muhim o'rin egallar edi.

X asrlarga kelib binokorlikda qurilish tartibi ham o'zgara boshladi. Mahobatli qurilishda tomi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binolar muhim ahamiyatga ega bo'la boshladi. Buxoroda qurilgan Ismoil Somoniy qabri ustiga pishiq g'isht bilan qurilgan go'zal maqbara fikrimizga misol bo'la oladi. Bu bino to'rtburchak shaklida bo'lib, tomi





Ismoil Somoniy maqbarasi

gumbaz qilib yopilgan. To‘rtburchak nayzali ravoqlar yordami bilan sakkiz qirrali shaklga o‘tilgan. Shu bilan birga bu bino to‘rt fasadlidir. Uning to‘rtala tomoni ham bir xil, old tomonidek bezatilgan. Oddiy qilib aytganda, binoning oldi, yoni va orqa tomoni yo‘q. Hamma tomoni bir xilda bezatilgan. Ismoil Somoniy maqbarasini qurishda va bezatishda arablardagi o‘sha davr uchun xos bo‘lgan me’moriy xususiyatlardan ham ko‘p foydalanilgan. Masalan, binoning tashqi burchaklariga ustunlar o‘rnatishgan. Bino ichidagi bunday shakldagi, shuningdek, dumaloq manzarali maydonlar ham islomgacha bo‘lgan yodgorliklarda uchraydi.

IX-X asr me’morchiligi uslublarining saqlanib qolganligini ko‘plab masjidlar misolida ham kuzatish mumkin. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, Somoniylar davridagi ko‘pgina masjidlar o‘z vaqtida arablargacha bo‘lgan ibodatxonalarning masjidga moslashtirish asosida qurilgan. Ular bir xonali bo‘lib, masjidning tomlari ustunga tayanib turgan. Masjidlarning tomi odatda gumbaz shaklida bo‘lgan. Masjidlarda, ayniqsa, mehroblari shaklli, yozuvli qilib qirqilgan g‘ishtlar, o‘yma ganchlar va hatto tilla suvlar bilan bezatilgan. Bunga misol tariqasida X-XII asrlarga oid maqbaralar va Arabota (Tim qishlog‘i), Mir Sayyid Bahrom maqbarasi (Karmana), Buxorodagi Mag‘oki Attor, Poykand masjidlarini qayd qilish mumkin. Bu

yodgorliklar O‘rta Osiyoda diniy me’morchilikning rivojlanish yo‘llarini kuzatish imkoniyatini berdi.

Bilib oling!

Narshaxiyning yozishicha, amir Nasr ibn Ahmad Buxoro Registonida o‘zi uchun katta saroy qurdirgan va uning qurilishiga katta mablag‘ sarflagan. Bu saroy g‘oyat go‘zal bo‘lgan. Saroyning oldida esa devonlar uchun binolar qurilgan. Amir va hokimlar saroyi Nishopur, Marv, Samarqand va boshqa shaharlarda ham bo‘lgan. Bu saroylar o‘zlarining kattaligi va go‘zalligi bilan ajralib turgan. Ko‘p hollarda bunday saroylar xushmanzara joylarda, bog‘lar ichida bunyod etilgan.

Saroylarning go‘zalligini Termiz shahridagi saroy misolida ko‘rish mumkin. Bu saroy to‘liq ochib o‘rganilgan. Saroy shahar mudofaa devorlaridan tashqarida, bog‘lar orasida joylashgan va 10 gektarga yaqin maydonni ishg‘ol etgan. Saroy mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Saroy o‘zining mahobatliligi, serhashamligi va bag‘oyat go‘zal, nafis bezaklari bilan odamni o‘ziga jalb qiladi.

Somoniylar davrida me’morchilik o‘z taraqqiyotida katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan. O‘rta Osiyo me’morlari bu davrda shunday noyob binolar, san’at durdonalarini bunyod etganlarki, ular asrlar osha odamlarni hayratga solib kelmoqda. Bu davrga oid shahar va qishloq aholisining uylari to‘g‘risida arxeologiya tadqiqotlari ma’lum aniqliklarni qo‘lga kiritmoqda. Bu borada qadimiy Samarqand – Afrosiyob, Xorashkent – Qanqa, Binkent, Termiz, Marv, Dehiston kabi o‘nlab yodgorliklarda olib borilgan izlanishlarning natijasi diqqatga molikdir. Afrosiyobda bu davrga oid katta bir mahalla ochib o‘rganilgan.

Qoraxoniy hukmdorlar savob ishlardan ham qochmaganliklari haqida ma’lumotlar bor. Chunonchi, qoraxoniy Ibrohim ibn Nasr (1052-1068) 1066-yili Samarqanddagi bir shifoxona ixtiyoriga butun imoratlari, rastalari bilan ikki karvonsaroyni taqdim etgan (vaqf qilgan).

Ana shu ikki karvonsaroydan keladigan daromaddan kasallarning oziq-ovqati, dori-darmoni, tabiblar, barcha turdagi xizmat ko'rsatuvchilarni tegishli maosh bilan ta'minlash yo'lida foydalanilgan. Samarqandda bunyod etilgan madrasa majmuini ta'minlash uchun Ibrohim ibn Nasr uch mehmonxona, bir karvonsaroy, bir erkaklar hammomi, suv ayirgich, uzumzor, bir qancha ekin yerlari va boshqalardan keladigan daromadni vaqf qilib bergani haqida ma'lumotlar mavjud.

Bilib oling!

Qoraxoniylar Turon hududida boshqaruvni qo'lga olganlaridan so'ng bu yerdagi madaniy hayotda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Shaharlar taraqqiy etdi, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Shaharlar rivojlanishi bilan shahar aholisi soni ham ko'payib bordi. Somoniylar davridayoq yirik shaharlar bo'lgan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv qoraxoniylar davrida yanada kengaydi. Bu shaharlar endi uch qismli – ark, shahriston, rabotdan iborat edi. Ularda yangidan yangi hashamatli imoratlar paydo bo'lib, bu imoratlar o'z tuzilishi va naqshlari bilan ajralib turardi.

Qoraxoniy hukmdor Shams ul-Mulk Buxoro yaqinida saroy barpo etdi va bundan tashqari Hazara qishlog'i yaqinida Dingaron masjidini va Raboti Malik nomi bilan mashhur bo'lgan karvonsaroy qurdiradi. Buxoro shahrida 1127-yilda Qoraxoniy Arslonxon tomonidan mashhur imorat – Minorayi Kalon barpo etildi. Vobkentda XII asrning oxirida Buxoro sadri Abdulaziz II tomonidan qurilgan minorani, Jarqo'rg'onda (Surxondaryo viloyati) Qoraxoniylar tomonidan 1108-1109-yillarda barpo etilgan minorani, shuningdek, Buxorodagi Namozgoh va Attoriy masjidini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Qoraxoniylar davrida Samarqand shahrida ham ko'plab binolar barpo etildi. Afrosiyobdagi arxeologik qazilmalar shundan dalolat berib turibdi. Lekin mo'g'ullar istilosidan so'ng bu binolar vayronaga aylandi. Termiz shahri XI-XII asrlarda ancha rivojlandi, yangi mustahkam mudofaa devori qurildi, bu yerda barpo etilgan Termiz

hukmdorlari saroyi, ayniqsa, mashhurdir. Bu saroyni qazib ochgan arxeologlar turli idishlar bilan birga afsonaviy hayvonlar tasvirini ham topishdi. XI-XII asr boshlarida Xorazmda ham ko'pgina binolar qad ko'tardi, jumladan, Gurganjdagi Faxriddin Roziy va Shayx Sharif maqbarasini, ko'plab karvonsaroylarni, Buronqal'a, Nayifqal'a va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Shu davrda me'morchilikdan tashqari, bir necha suv inshootlarini qurish va unda yo'nilgan tosh, pishiq g'isht, suvga chidamli qurilish qorishmalaridan bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar qurilgan. Bu inshootlar mamlakatda fan va ishlab chiqarishni g'oyatda rivojlanganligidan dalolat beradi. 1,5 mln. metr kub suvni to'plash imkoniyatiga ega bo'lgan Xonbandi nomli suv omborining qurilishi fikrimizning dalili bo'lib xizmat qiladi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, bunday suv inshootlarini qurish uchun suvning vertikal va gorizontal bosim kuchlarini hisoblab chiqish va tog'da qurilganligi uchun tez-tez yerning qimirlab turish kuchlarini ham matematik yo'llar bilan hisoblab chiqish lozim bo'lgan va bu ish muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Bilib oling!

Bu davr me'morchiligi bilan bir qatorda unga bog'liq bo'lgan naqqoshlik va tasviriy san'at ham jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Imoratlarni o'ymakor ustunlar va to'sinlar, devorlarni esa bo'yoqli, ganchkor naqshlar bilan bezash keng rasm bo'la boshladi. Sekin-asta naqqoshlik san'atida ham ilgarigidek, odamlar va hayvonlarni tasvirlangandan ko'ra murakkab geometrik va gulli naqshlarga o'tila boshlandi.

Naqqoshlik san'ati qadimgi Termizda juda rivojlangan edi. Bu borada Hakim Termiziy maqbarasi o'z davridan saqlanib qolgan o'yma naqsh parcha ayniqsa qimmatlidir. Unda Samarqand usulini eslatuvchi shakllar, o'ziga xos uslublar mavjuddir. Bu davrda xattotlik san'ati kitoblarni ko'chirishdagina emas, balki binolarni bezashda ham keng qo'llanila boshlandi.

Atamalar izohi

☑ **Shashmaqom** – Bu atama «olti» ma'nosini anglatadigan forscha «shash» sanoq soni bilan «kuy», «ohang» ma'nosini anglatadigan arabcha «maqom» so'zlaridan tuzilgan bo'lib, olti klassik maqomni o'z ichiga olgan musiqiy asar nomidir (olti + maqom). O'zbek va tojik xalqlari musiqiy merosida markaziy o'rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan, Buzurg, Navo, Dugoh, Segoh, Rost, Iroq maqomlaridan tashkil topgan mumtoz kuy va ashulalar majmuidir.

☑ **Qobusnoma** – Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta'limiy asar, fors-tojik badiiy nasrining dastlabki va yirik yodgorligi (XI asr). Tabariston (Mozandaron) hukmdori Shams al-Maoliy Qobusning nabirasi Unsur al-Maoliy (Kaykovus, 1021-1098) tomonidan fors tilida yozilgan (1082-1083) va «Nasihatnomai Kaykovus» deb atalgan. «Qobusnoma» shu asarning o'zbekcha tarjimasidir. Muallif asarni o'g'li G'ilonshohga bag'ishlagan. «Qobusnoma» asosini Qur'oni Karim suralari, Muhammad (s.a.v.)ning faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi.

☑ **Rabot** – 1) Mustahkamlangan qo'rg'onlarda soqchilar turadigan joy yoki bir-biridan ma'lum masofada joylashgan istehkom; qo'rg'on. 2) Savdo yo'llaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy. 3) Shahardan chetroqdagi turar-joy.

Savol va topshiriqlar

1. Ilk o'rta asrlarda musiqa san'ati qay darajada taraqqiy etgan edi?
2. Islom dini kirib kelishi musiqa san'ati rivojida qanday o'zgarishlarga sabab bo'lgan?
3. Musiqa bilan insonni davolash deganda hayolingizga nima keladi?
4. «Qobusnoma» asarida musiqa san'ati haqida qanday ma'lumotlar mavjud? Asarning o'zidan mavzuga oid ma'lumotlarni toping.

5. Farobiy, Ibn Sino, Navoiy, Binoiy kabi allomalarning musiqaga oid asarlarini aniqlang.

6. O'rta asrlarda shaharsozlikda qanday o'zgarishlar yuzaga kelgan?

7. Arablar davridan boshlab Turon me'morchiligida qanday turdagi yangi me'morchilik namunalari paydo bo'ldi?

8. Islom dini bilan bog'liq inshootlarni islomgacha qurilgan me'moriy obidalar bilan taqqoslang: farqlar va umumiylikni ayting.

9. Yo'lbo'yi inshootlariga nimalar kiradi?

10. Diniy-ma'rifiy inshootlar qanday uslubda qurilgan? Ularning me'moriy yechimi haqida ma'lumot bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumanazar A. Buxoro ta'limi tizimi tarixi. – T.: Akademnashr, 2017.

2. Jumanazar A. Samarqand ta'lim tizimi va madrasalari tarixi. – T.: Fan, 2021.

3. Madrimov B.X. O'zbek musiqa tarixi. O'quv qo'llanma.-T.: Barkamol fayz media, 2018.

4. Mansurov U., To'xtabayev A. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi. O'quv qo'llanma. T.: O'zkitob savdo nashriyoti MIU, 2021.

5. Nizomulmulk. Siyosatnoma. / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar mualliflari Sh.Vohidov va A.Erkinov. T.: Yangi asr avlodi, 2010.

6. Ta'lim tarixi: o'quv qo'llanma. M. Abdullayeva (va boshqalar). – T.: «Muharrir» nashriyoti, 2013.

7. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

8. Vaxitov M., Mirzayev Sh. Me'morchilik tarixi. 1-qism. T.: Tafakkur, 2010.

9. Zunnunov A. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: Sharq, 2000.

10. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. М.: Музыка, 1995.

19-MAVZU. O‘ZBEK XALQINING SHAKLLANISHI. ETNOGENEZ VA ETNIK TARIX



REJA:

19.1. Etnogenez va etnik jarayonlarning xususiyatlari.

19.2. Qadimgi migratsiyalar va etnomadaniy jarayonlar.

19.3. O‘zbek xalqining shakllanishi masalasi.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Etnogenez, demografiya, prototurk, oriy, urug‘, arya, avesto, etnik shakllanish, etnik tarix, urf-odatlar va an’analar, avtoxton qatlam, etnik belgilar, etnik omillar, etnik til birligi, etnik nom, etnik birlik, etnos, xalq, elat, qabila, etnografik guruh, etnik guruh, etnik birlashish, etnik bo‘linib ketish, etnik an’analar, etnik jamoa, urug‘, mahalliy aholi, O‘rta Osiyo, Ikkidaryo oralig‘i irqi, O‘rta yer dengizi irqi, Xorazm, baqtriy, sug‘d tillari, etnik-madaniy jarayonlar, o‘zbek etnonimi, o‘zbeklar.

19.1. ETNOGENEZ VA ETNIK JARAYONLARNING XUSUSIYATLARI

Etnogenez masalalari, O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixi bo‘yicha turli yillarda A.Y.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, L.V.Oshanin, A.N.Bernshtam, T.K.Xodjayov, I.M.Jabborov, K.Sh.Shoniyozov, A.A.Asqarov kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar.

Bilib oling!

Arxeologik, antropologik, etnografik va tilshunoslik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan holda har bir xalqning etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda olimlar tomonidan quyidagi tamoyillarga asosiy e'tibor berish taklif etildi:

1) biror xalqning kelib chiqishi tarixi ko'p qirrali jarayon bo'lib, u o'z ichiga shu xalqning madaniyati va ijtimoiy tuzilmasi, uning biologik xususiyatlari, o'zining jamiyatda tutgan o'rnini tushunish, tili va o'zligini tanishni qamrab oladi;

2) etnogenez masalasiga bir tomonlama qarab, uni soddalashtirish bilan chegaralanib qolmasdan shu xalqning kelib chiqish tarixida ma'lum ahamiyat kasb etgan barcha tarkibiy qismlar ham e'tiborga olinishi shart;

3) etnogenez murakkab va uzoq davom etgan jarayon. Binobarin, bu jarayonni bosqichma-bosqich tiklash maqsadga muvofiqdir.

Etnologiya fanida qo'llanilgan ilmiy-uslubiy nazariyaga ko'ra etnogenez jarayonida antropologik va etnogenetik xususiyatlar etnik omillar va belgilarni (muayyan elat, xalqning hududiy, iqtisodiy, madaniy birligi, tili, dunyoqarashlari) hamda boshqalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Etnogenez jarayonida hamda qadimgi etnik tarixda tub joyli (avtoxton) aholi an'analari va kelgindi aholi guruhlarining etnomadaniy sintezi (qo'shilishi, qorishib ketishi) natijasida yangi an'analarning vujudga kelishi e'tiborga molik.

Etnogenez va xalqning etnik rivojlanishini o'rganishda etnik belgilar va etnik omillarning tarkib topish jarayonini kuzatib borish etnogenetik tadqiqotlarni to'g'ri yo'nalishga soladi. Etnologiya fanida e'tirof etilgan nazariyaga ko'ra, etnik omillar tarkibini hududiy iqtisodiy-madaniy birlik, antropologik tip birligi va siyosiy uyushma birligi, ya'ni etnosning ma'lum bir davlat doirasida uyushqoqligi tashkil etadi. Etnik belgilarga esa til birligi, etnik nom va o'zlikni anglash birligi, ya'ni, tarixiy taqdirning umumiyligi kiradi. Yuqorida

ta'kidlanganidek, mazkur omillar va belgilarning tarkib topishi bi davrda yuz bermaydi, balki uzoq davom etgan tarixiy jarayonda birin ketin shakllanib boradi. Ularning asosiy qismi tarkib topgach, elat - xalq shakllanadi.

Bilib oling!

Tarixiy adabiyotlardan bizga ma'lumki, xalqlar haqidagi fanga bundan 2,5 ming yil ilgari Qadimgi Yunonistonda asos solingan. Shuning uchun ham zamonaviy fanda yunon tilidan olingan so'zlar ko'p uchraydi. Bunday so'zlarni xalqlar haqidagi fanlarda ham uchratish mumkin. Qadimgi yunonlarda «xalq» tushunchasini ifodalovchi bir necha so'zlar bo'lgan. Shulardan biri «demos» bo'lib, bu so'z orqali aholining asosiy qismi tushunilgan («demokratiya»- »xalq hokimiyati», «demografiya» – «xalqlarni ta'riflash» va boshq.). Shunday so'zlardan yana biri «etnos» bo'lib aynan tarjimasi «xalq» demakdir. Etnografik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, har qanday etnos o'z shakllanishining dastlabki pallasida bir-biri bilan iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq odamlar jamoasidan iborat bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, xalqlarning kelib chiqishi tarixini o'rganishda ijtimoiy-gumanitar fanlarda «etnik birlik» va «etnos» atamalari ishlatiladi. Etnik birlik – ma'lum bir ijtimoiy tuzumda, tabiiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy va etnik uyushmadir. Ularning sinonimi esa etnosdir. Ammo etnik birlik «xalq» tushunchasiga nisbatan ma'no jihatdan aniq tushunchadir. Etnos atamasi, ya'ni xalq juda keng ma'noda ham, tor ma'noda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, keng ma'noda, Amerika xalqi, Rossiya xalqi, jahon xalqlari, O'zbekiston xalqi; tor ma'noda esa rus xalqi, ingliz xalqi, o'zbek xalqi, qozoq xalqi va boshq. Kichik bir guruhga nisbatan ham umumiy tarzda, aholi sifatida «xalq» iborasi qo'llanilishi mumkin. Masalan, tuman xalqi, shahar xalqi, mahalla xalqi, orolcha xalqi, qishloq xalqi, guzar xalqi va boshq.

Fanda etnik birlikning uch bosqichi, ya'ni uch turi mavjud: qabila, elat (xalq) va millat. Ketma-ket kelgan bu atamalar turli davrda vujudga kelgan bo'lib, ular o'z davriga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Qabila – ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichida xos etnik birlik hisoblanadi. Qabila urug'larga bo'linish xususiyatlari bilan elatdan farq qiladi. Qabilaning o'ziga xos tili (lahjasi), hududi, qabila nomi (etnonimi)ning bo'lishi va qabila an'analariga uning a'zolari bo'ysunishi bilan boshqa qabilalardan ajralib turadi. Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi va davlatchilik tizimining paydo bo'lishi bilan qabila uyushmasi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Ammo qabila atamasi va unga tegishli bo'lgan ba'zi xususiyatlar ayrim jamiyatlarda (ularga moslashgan holda) saqlanib qolgan.

Bilib oling!

«Elat» atamasi turkiy va forsiy tilli aholi o'rtasida qabila, qabila ittifoqi, davlat yoki ma'lum hudud aholisiga nisbatan «xalq» atamasi o'rnida ishlatib kelingan. Shuning uchun «elat» atamasi turkiy va forsiy til muhiti hukmron doirasida yaratilgan og'zaki manbalarda uchraydi. Keyinchalik, o'troq hayot uzoq vaqt kundalik turmush tarziga aylangan etnik birliklar uyushmasiga nisbatan «xalq» atamasi, «el», «elat» o'rnida ishlatib kelinadi.

Etnologiya fanida «etnografik guruh» va «etnik guruh» atamalari ham keng qo'llaniladi. Etnografik guruh – ma'lum bir etnosning ajralmas qismi, uning tarkibidagi bo'linmalaridan biri bo'lib, o'ziga xos lahjasi, xo'jalik faoliyati, turmush tarzining ba'zi bir tomonlari bilan muayyan elatdan farq qiladi. Etnografik guruh deb odatda bir qabila yoki elatning boshqa yerga borib, ikkinchi bir xalq tarkibiga hali mutlaqo singib ketmay, balki u birga yashab kelayotgan etnik birlikka aytiladi. Tarixdan bizga ma'lumki, qipchoqlar, quramalar, umuman, ko'chmanchi turkiy qabilalar etnografik guruhlar bo'lganlar. Ayrim etnoslar (eroniylar, arablarning said va xo'ja toifasi) asrlar davomida

mahalliy aholi orasiga singib ketib, ba'zi hollarda o'z tili va urf-odatlarini saqlab qoldilar. Hozirgi kunda xalq, millat darajasiga ko'tarilgan etnografik guruhlar mavjud emas.

Etnik guruh esa muayyan bir xalqning parchalanib, alohida qismlarga bo'linib ketishi natijasida vujudga keladi. Bu guruhning etnografik guruhdan farqi shundaki, parchalangan xalq tarkibida uzoq muddat yashab, shu xalqning tili, xo'jalik faoliyati, madaniyati, urf-odatlari va turmush tarzini qabul qilib, ularning o'ziga singdirib, o'zini uning nomi bilan ataydigan bo'ladi.

Etnik birliklar tarkibiga kirgan etnik guruhlar o'rtasidagi etnik, iqtisodiy-xo'jalik va madaniy aloqalarning uzluksiz rivojlanib borishiga «etnik jarayonlar» deyiladi. Tadqiqotchilar etnik jarayonlarni bo'linib ketish va birlashishga moyil jarayonlarga ajratadilar. Bo'linib ketish ko'proq ko'chmanchi chorvadorlarga, birlashish tamoyili esa o'troq turmush tarzi kechirgan aholiga xosdir.

Ayrim etnoslarni bir-biridan farqlovchi muhim belgilaridan biri bu madaniy xususiyatlardir. Mazkur xususiyatlarni har bir xalq o'z tarixiy-madaniy rivojlanishi jarayonida o'zlashtiradi va avloddan avlodga qoldiradi. Fanda bu jarayon «etnik an'analar» deyiladi. Bunday an'analar har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy geografik shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu tarixiy davrlarda shakllanadi. Etnosni qisqacha qilib uyushgan til-madaniy jamoasi deyish mumkin. Ilmiy adabiyotlarda «etnik jamoa» degan so'z ham ko'p ishlatiladi. Faqatgina alohida xalqlarni emas, balki ularning kelib chiqishida qarindoshchiligi bo'lgan guruhlarni ham etnik jamoa deb atash mumkin.

Bilib oling!

Tadqiqotchilarning fikricha, qarindosh-urug'chilik etnik jamoalari asta-sekinlik bilan urug' jamoalariga aylanib boradi. Urug'-birga yashab, hamkorlikda mehnat qilgan qarindoshlar uyushmasi bo'lib, ma'lum xalqlarning etnik shakllanishidagi dastlabki bosqichlardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

19.2. QADIMGI MIGRATSIYALAR VA ETNOMADANIY JARAYONLAR

Turon hududi inson tomonidan qadimgi tosh davrida o‘zlashtirilganligi bizga ma’lum. So‘nggi paleolit va mezolit davrida urug‘chilik jamoalari tog‘lar va tog‘ oldi, daryo vohalari, dengiz va ko‘llar bo‘ylarida joylashganlar. Ovchilik, baliqchilik va termachilik – o‘zlashtiruvchi xo‘jaliklar talablaridan kelib chiqqan holda oziq-ovqat mahsulotlariga boy atrof-muhitni va tosh qurollar yasash uchun xom ashyo zahiralari mavjud yerlarni o‘zlashtirish jarayoni tobora kengayib bordi. Shu bois aholining bir hududdan ikkinchisiga ko‘chishi – migratsiyalar kuchaygan. Umumiy mintaqa doirasida ko‘chishlar ichki migratsiyalar hisoblanib, tub joyli aholi vakillarining hududiy joylashuvi chegaralarining kengayishini belgilab beradi. Tashqi migratsiyalar olis yurtlardan ko‘chib kelgan aholi guruhlarining harakatlari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Bilib oling!

Bu borada tub joyli (avtoxton) va kelgindi aholisining o‘zaro munosabatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzuga tegishli fanda ikki nazariya ma’lum. Birinchisi, jamiyatning asosan avtoxton bosqichma-bosqich rivojlanishini tan oladi, ikkinchisi, xalqlarning avtoxtonli va migratsiyalar o‘zaro bog‘liqlikda taraqqiy topishi jarayoni bilan belgilanadi.

Tarixiy etnografiyadan ma’lumki, tashqi madaniy-iqtisodiy ta’sirsiz, ichki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan chegaralangan, avtoxton an’analari asosida rivojlangan «yopiq» jamiyatlar madaniy taraqqiyot jihatdan orqada qolib ketgan. Avtoxton va migratsiyalar o‘zaro aloqadorligi va ta’siri yo‘lidan qadam bosgan xalqlar qadim zamonlardan madaniy, iqtisodiy va texnologik yutuqlarga erishgan. O‘rta Osiyo xalqlari tarixida ham migratsiyalar natijasida moddiy va ma’naviy madaniyat, til, e’tiqodlar va diniy qarashlarning tubdan

o‘zgarishi, siyosiy jihatdan yangi davlatlarga asos solinishni haqida talaygina misollar keltirish mumkin.

Bu holat juda muhim, chunki etnogenez va etnik tarixi masalalarni o‘rganishda u yoki bu xalq etnogenezining boshlang‘ich nuqtasini aniqlash, uni tanlangan voqealar va alohida qabilalar sa’y-harakatlari bilan bog‘lash hozirgi nashrlarda keng o‘rin topdi. Umuman olganda, xalqlarning kelib chiqish masalasi jahon tarixi fanida o‘z dolzarbligi bilan ajralib turgan muhim va o‘ta murakkab muammo bo‘lib, nazariy va amaliy jihatdan ilmiy va ilmiy bo‘lmagan usullar qarama-qarishligida yoritilgan.

O‘tgan asrning 30-yillari o‘rtalarida O‘rta Osiyo xalqlari tarixini yozish masalalari ro‘yobga chiqarildi. Shu munosabat bilan arxeologik va etnografik ekspeditsiyalar tashkil qilina boshlandi, ko‘pdan ko‘p muammolarni qayta ko‘rib chiqish, jumladan, etnogenez jarayonlarni tahlil qilish alohida vazifaga aylandi.

Bilib oling!

XX asrning 40-yillarida o‘zbek xalqining shakllanishini XV asr oxirlari – XVI asr boshlarida Dashti Qipchoqdan kirib kelgan «ko‘chmanchi o‘zbeklar» bilan bog‘lash tarixiy haqiqatga zid bo‘lgan an’anaviy qarash rad etildi. «Ko‘chmanchi o‘zbeklar» guruhlari O‘rta Osiyo Ikki daryo oralig‘idagi tub joyli turkiy tilli aholisiga aralashib, unga «o‘zbek» nomini berdi, o‘zbek xalqi etnogenezi esa Turk xoqonligidan boshlanadi, degan xulosa ilgari surildi (A.Y.Yakubovskiy). Biroz keyinroq o‘zbeklar etnogenezining boshlang‘ich sanasi mil. avv. IV-III asrlarga qadar qadimiylashtirildi (S.P.Tolstov). Hozirgi kunda o‘zbek xalqi etnogenezining boshlanishi so‘nggi bronza davri bilan belgilanmoqda (A.A.Asqarov). Shunday qilib, o‘zbeklar etnogenezining boshlang‘ich nuqtasi taxminan mil. avv. XV asrgacha qadimiylashtirildi. Biroq bronza davriga qadar mintaqada yashab kelgan tub joyli aholi etnogenez jarayonida qanday ahamiyat kasb etgan degan savol ochiq bo‘lib qoldi.

XXI asrning boshlariga kelib, O‘rta Osiyo respublikalarida chop etilgan ayrim nashrlarda «oriylar-eroniylar», «oriylar-turkiylar» va «prototurklar» (qadimiy turk) hamda «bronza davri o‘g‘uzlari» kabi barchasi kelgindi chorvador qabilalar bilan zamonaviy xalqlar etnogenezining boshlang‘ich bosqichini belgilash ilmiy jihatdan yetarlicha asoslab berilmagan. Bunday yondashuv insoniyatning ko‘plab avlodlari vakillarining obyektiv vorisiyligi jarayoniga sirayam to‘g‘ri kelmaydi, o‘z navbatida u yoki bu qadimgi elatlarning har biri o‘z ajdod va avlodlariga ega bo‘lganlarki, bu umumtarixiy qonuniyat hisoblanadi.

Xalqlar (etnoslar) insonlarning, alohida qabilalarning irodasiga muvofiq shakllanmagan, ammo shunga qaramasdan ba’zi mualliflar, tarixiy jarayonning obyektiv rivojlanish qonunlarini nazar pisand qilmasdan, hech ikkilanmay o‘z xalqi qadimiyroq davrlarda shakllanishini qayd etib o‘tishga harakat qilganlar. Antropologik, etnik, etnomadaniy va lingvistik mezonlar bahosi nuqtai nazaridan xalqlarning kelib chiqishi – etnogenez – bu uzoq davom etadigan, serqirra jarayondir. Xalqning shakllanishi xronologik jihatdan uzoq davr oralig‘ini qamrab oladi, mazkur jarayonda uning o‘z-o‘ziga nom berishining yuzaga kelishi etnogenez jarayonining boshlanishi bilan qiyoslaganda nisbatan kechroq sodir bo‘ladigan hodisadir.

Bilib oling!

Uzoq o‘tmishda har qaysi urug‘ va qabila ma’lum hududda umr guzaronlik qilishgan, xo‘jalik yuritishgan hamda zaruriyat taqozo etganda qo‘shni qabilalarning hududga bo‘ladigan da’volari va bosqinlaridan himoyalanishgan. Aholi sonining o‘sishi nafaqat ushbu hududning to‘la o‘zlashtirilishiga, balki, yangi yerlarni o‘zlashtirish maqsadida uning hududlaridan tashqariga chiqilishiga ham olib kelgan. Yangi qabilalarning alohida qabilaga emas, balki o‘zaro qarindosh qabilalar guruhiga birikishiga asoslangan yangi hududlar shu tariqa tashkil topgan.

Ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari – ziroatchilik va chorvachilikning vujudga kelishi bilan yangi hududlarni o'zlashtirish jarayoni (suv manbalari, unumdor yer va yaylovlar izlash) tezlashgan. O'zlashtirilgan hududlarning kengayishiga muvofiq turli mavzelarda insonlarning joylashuvi aralash xususiyat kasb eta boshladi hamda urug'-jamoa tuzumi uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan qon-qarindoshlik aloqalari o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qotdi. Muayyan hudud doirasida tig'iz joylashgan qabilalar guruhi asosida etnik jamoalar – qadimgi xalqlar shakllandi. Yangi etnik jamoalar ichida til va madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy aloqalar rivojida hudud asos vazifasini o'tadi.

Bilib oling!

Endi qadimgi xalqning o'z-o'ziga nom berishi xususida etnologiyada odatda ehtimolga yaqin bo'lgan ikkita variant ajratib ko'rsatiladi:

– xalqning o'z-o'ziga nom berishi u yashagan hudud nomi bilan bog'liq, ya'ni u toponim hisoblanadi;

– xalqning o'z-o'ziga nom berishi uning etnik xarakterini aks ettiradi hamda etnonim hisoblanadi.

Shu bilan birga alohida qadimgi etnoslarning o'z-o'zini nomlashi ko'pincha boshqa tushunchalar bilan ham bog'lanadi hamda etnonim yoxud toponim hisoblanmaydi.

O'rta Osiyoning bronza davri mil. avv. III mingyillik o'rtalari – II mingyilliklardagi aholisi tarixi, bu davrga oid yozma manbalar noma'lumligicha qolayotganligi bois faqat arxeologiya materiallari asosida o'rganiladi.

Besh-to'rt ming yillar avvalgi davr va undan yanada oldingiroq davrlarga taalluqli arxeologiya ma'lumotlari jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatining turli tomonlarini yetarli darajada tahlil qilishga imkon beradi. Biroq agar gap yozuv paydo bo'lishiga qadargi tarix xususida borar ekan, bu aynan mintaqaning ko'rib chiqilayotgan

davriga ham tegishli ekanligi obyektiv dalil, bu o'rinda arxeologiya manbalari muayyan etnos va etnonimni belgilab beruvchi indikator vazifasini o'tay olmaydi. Mil. avv. III – II mingyilliklar va undan ancha qadimiyroq davrga oid u yoki bu arxeologik topilmalar taalluqli bo'lgan qabilalar, garchi ular so'zsiz zamonaviy xalqlarning qadimgi ajdodlari hisoblansalarda, nomsizliklaricha qoladilar. Qachonki buni rad etuvchi yozma manbalar topilmas ekan, ushbu dalil o'z kuchida qolaveradi.

Bundan quyidagi xulosalar kelib chiqishi muqarrar:

- O'rta Osiyoda 5-4 ming yillar avval va tabiiyki, undan oldingi davrlarda yashagan qadimgi qabilalarning nomlari zamonaviy tarix faniga ma'lum emas;

- u yoki bu viloyatda yashagan aholi xususida arxeologik ma'lumotlarga asoslangan holda, biroq yozma axborotga ega bo'lmay turib biz ular haqida mintaqa miqyosida aniq bir etnosning, ayniqsa zamonaviy etnosning qadimiy vakili deb hukm chiqara olmaymiz.

Endi *oriy*lar (ariylar) qabilalari xususida. Ko'plab olimlarning fikricha, ya'ni hind-eroniylar etnomadaniy birligiga tegishli bo'lgan, dastlab Volgabo'yi va Janubiy Ural dasht hududlarida yashaganlar. Boshqa bir taxminga ko'ra, Old va Kichik Osiyoda, Bolqonda hamda Qora dengiz bo'ylaridagi dashtlarda yashaganlar. «Arya» atamasi Rigveda madhiyalarida (mil. avv. II mingyillik o'rtalari), «Avesto»da hamda mil.avv. VI-V asrlarga oid qadimgi fors bitiklarida uchraydi. Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan qadimgi fors podsholari ham o'zlarini oriylar hisoblashgan: «Men kim Doro, buyuk shoh..., oriy, oriylar urug'idan».

Arxeologiya fanida hind-eroniylar mil. avv. II mingyillik o'rtalarida Janubiy Ural, Markaziy Qozog'iston va Sibir, dasht doirasidagi O'rta Osiyoga ko'chib kelgan yoxud «dashtli bronza» Andronovo madaniyati qabilalariga mansub ekanligi e'tirof etiladi, shuningdek, ular turkiy tilli qabilalar bilan bog'lanadi. Dashtning chorvador qabilalari kelgan paytda O'rta Osiyoning turli viloyatlarida ziroatchilik bilan shug'ullanuvchi, ko'p sonli, tub o'troq aholi istiqomat qilardi. Ularni olis ajdodlar safidan chetda qoldirish unchalik to'g'ri bo'lmasa kerak. O'rta Osiyo ziroatchilari yuqori darajada taraqqiy

topgan moddiy madaniyat, hunarmandchilik, binokorlik va me'morchilik bilan ajralib turganlar. Ziroatchilik vohalariga kirib olgan, chorvador guruhlar sekin-asta mahalliy aholi ichiga singib ketdilar va uning madaniyatini qabul qildilar. Mazkur jarayon ilk boshda tinch vaziyatda kechgan bo'lishi ehtimoli bor, ammo harbiy to'qnashuvlarni ham istisno etib bo'lmaydi. «Avesto» ning qadimgi qismlarida qabilalar bir-birlari bilan o'zaro nizolashgan, urush va bosqinlar insonlarga cheksiz iztirob va o'lim olib kelgan notinch va tahlikali zamonlar xususida hikoya qilinadi.

Bilib oling!

O'rta Osiyoning bronza davri mahalliy aholisining tili va madaniyati kelgindilar tilidan farq qilgan, shu boisdan bo'lsa kerak turli muzofotlarda ma'lum vaqtgacha ikki-tillilik saqlanib turgan, ammo keyinchalik kelgindilarning tili va e'tiqodi keng ko'lamda yoyilib ketgan. Ilk yozma manbalarning guvohligiga ko'ra, mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida Turonning o'troq dehqonchilik vohalarida parfiyon, baqtriy, sug'd va xorazm tillari yoyilgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan ular turkiy va tojik tillari tomonidan siqib chiqarilgan, shu bilan birga so'nggi jarayon turli joylarda ma'lum bosqichlarda ikki tillilik sharoitida kechgan.

O'rta Osiyo tarixining xususiyati shundan iboratki, hali olis o'tmishlardayoq mahalliy aholi tarkibi turli davrlarda nafaqat ichki o'sish hisobiga, balki tashqi migratsiyalar evaziga ham kengaya borgan. Arxeologiya ma'lumotlarining guvohligiga qaraganda, migratsiya jarayonlari eneolit va bronza davriga kelganda ayniqsa kuchayadi. Bu davrda qadimgi ziroatchilarning Kopetdog' oldi hududlari, Murg'ob daryosi etaklari, Shimoliy Afg'oniston hamda Surxon va Zarafshon vohalariga keng joylashuvi qayd qilinadi. Shuningdek, Mohenjodaro va Xarappa aholisining Hind daryosi vodiysidan Panj daryosi havzasiga bosqichma-bosqich singib ketishini ham ta'kidlash joiz. Mil. avv. II

ming yillikning o‘rtalari, ikkinchi yarmida chorvador aholining Yevroosiyo dashtlaridan O‘rta Osiyoga jadal siljishi boshlanadi. Mazkur jarayon to mil. avv. IX-VIII asrlarga qadar davom etadi. Bularning barchasi etnik joylashuvning ancha murakkab manzarasidan dalolat beradi. Eng qadimgi migratsiyalarning asosiy sabablari ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta’sirida ro‘y bergan. Shunday qilib, O‘rta Osiyoning eng qadimgi tarixi qabilaviy migratsiyalar, turlicha iqtisodiy asosdagi qabilalar o‘rtasida assimilyasiya (qorishib ketish) jarayonlari hamda uzoq davom etgan o‘zaro madaniy-iqtisodiy hamkorlik bilan tavsiflanadi.

Shu boisdan ham zamonaviy xalq qaysidir alohida qabilalarning to‘g‘ridan to‘g‘ri etnomadaniy yoxud genetik avlodlaridir yoki oriylar (eroniylar, turkiylar, prototurklar)ning mintaqa hududlariga migratsiyasi natijasida zamonaviy xalqning etnogenezi boshlandi degan tezis yana bir bor shubha uyg‘otadi. Bularning bari zamonaviy xalqning kelib chiqishini «buyuk etnoslar»ga olib borib taqashga muvaffaqiyatsiz urinishdan boshqa narsa emas. Qadimgi etnogenez jarayoni, etnik tarix rivoji quyidagi tartibda kechgan: tub (avtoxton) an’analar – sintez (qorishish, qo‘shilish) – yangilanish, yana an’analar hamda etnomadaniy yangiliklarning (innovatsiya) ro‘y ko‘rsatishi, shunday ekan, bunday kelgindi qabilalar uzoq vaqt mobaynida o‘zgarmasdan saqlanib qola olmasdilar. O‘rta Osiyo, shimoli-sharqiy Eron, Afg‘oniston hamda Hind-Pokistonga yoyilgan xuddi o‘sha oriylar sekin-asta qadimiy mahalliy aholi orasiga singib, aralashib ketdilar. Yangi etnik jarayonlar shu asosda rivojlandi va Turonning ilk yozma manbalardan ma’lum bo‘lgan qadimiy elatlarining shakllanishi ro‘y berdi. Ular mintaqa zamonaviy xalqlarning ajdodlari edi.

O‘rta Osiyo xalqlarining tarixiy-madaniy merosiga va ayniqsa etnogenez hamda etnik tarixi muammosiga murojaat etish bugungi kunda ham, kelgusida ham raqobatlashuv elementlaridan holi bo‘lmog‘i lozim. Shu boisdan mintaqaviy hamjihatlikni saqlab qolish va mustahkamlash hamda zamonaviy davlatlar o‘rtasida hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash masalasi muhim ahamiyatga ega. Bularning bari mintaqaviy mas’ullik muammosi bilan uzviy bog‘liq.

19.3. O‘ZBEK XALQINING SHAKLLANISHI MASALASI

Qadimshunoslarning yozishicha, o‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixini o‘rganishni qancha erta davrlardan boshlasak, uning tarkibida hozirgi kunlargacha saqlanib kelinayotgan irqiy va etnik unsurlarning mahalliy xalq tarkibiga kirgan davri va uning nisbiy miqdori to‘g‘risida shunchalik keng fikr yurita olamiz.

O‘zbek xalqiga xos O‘rta Osiyo – Ikki daryo oralig‘i irqining shakllanish davri, makoni va tarixi masalalarida fanda yaqingacha yagona fikr yo‘q edi. Bir guruh olimlar bu irq bundan 6-8 ming yil ilgari, ikkinchi bir guruh tadqiqotchilar bundan 3 ming yil ilgari shakllangan desa, uchinchi guruh olimlari esa, VI asrda shakllandi, deb hisoblar edilar. Keyingi yillardagi antropologik tadqiqotlari natijasida olimlar O‘rta Osiyo – Ikkidaryo oralig‘i irqining shakllanishi bundan 2200-2300 yil ilgari boshlanganligini asoslab berdilar.

Bilib oling!

Ahamoniylar, Makedoniyalik Aleksandr, Yuechji-Kushonlar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, mo‘g‘ullar yurishlari davri migratsiyalar Turon xalqlari madaniyatiga, tiliga, turmush tarziga va diniga albatta o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Ammo bu jarayonlarning mahalliy xalqlarni irqiy va etnik tarixiga bo‘lgan ta’siri kam ekanligini ta’kidlash joiz. Antropologik nuqtai nazardan ular mahalliy xalq «qonini» yoki genetikasini tubdan o‘zgartira olmadilar. Ular son jihatdan ko‘pchilikni tashkil etgan mahalliy aholi tarkibiga singib ketganlar. Bu o‘rinda mahalliy va kelgindi aholi orasidagi o‘zaro munosabatlarning fanda ma’lum holatlarini eslatib o‘tish joiz.

Ilk temir davridan boshlab o‘lkamizning qadimgi dehqonchilik vohalarida yashovchi o‘troq aholi o‘zlari yashab turgan hudud nomlari bilan atala boshlaganlar. Bular Sug‘diyonadagi sug‘diylar, qadimgi Xorazmdagi xorazmiylar, Baqtriyadagi baqtriyaliklardir. Shuningdek,

yozma manbalarda ko'chmanchi qabilalar sak-massagetlar tilga olingan. Bu etnonimlarni ilk yozma manbalarda uchratish mumkin.

«Avesto» tili hamda antik davrga oid mahalliy yozuv namunalari (xorazm, sug'd, baqtriya yozuvlari) bo'yicha O'rta Osiyo o'troq aholisi Sharqiy eroniy tilli elatlar bo'lgan. Ahamoniylar davrida (mil. avv. VI asr ikkinchi yarmi – mil. avv. IV asr) tub joyli aholi guruhlari til va madaniyati jihatdan o'zgarmaydi, ular o'troq ziroatchilar va ko'chmanchi chorvadorlardan iborat bo'lgan. Yozma manbalarga ko'ra, Xorazm, Sug'd va Baqtriya Sharqiy eron tilli aholisidan iborat bo'lgan, shuningdek, Sirdaryo havzasi va Farg'ona vodiysidagi jamoalar turkiy tilli bo'lishi ehtimoldan holi emas. Bu tilda Quyi Sirdaryo havzasida mil. avv. V-IV asrlarda Chirikrabot, Babishmo'lla madaniyatiga asos solgan qabilalar va biroz keyin Qang' davlati aholisi so'zlashgan. Bu borada Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida hamda uning atrofida Sharqiy eron tilli elatlari va turkiy tilli qabilalarning yaqin qo'shnichiligi va o'zaro aloqalariga e'tibor berish lozim.

O'rta Osiyo xalqlarining keyingi davr etnik shakllanishida bu hududga ko'chib kelgan turli elat va qabilalar ma'lum ma'noda ishtirok etganlar. Yuechjilar, xioniylar, kidariylar, eftaliylar shular jumlasidandir. IV asrning oxirlaridan boshlab Turonda yirik turkiy etnoslar xioniylar va eftaliylarning o'troqlashuv jarayonlari kuchayadi. V-VI asrlarga kelib eftaliylar va xioniylarning asosiy qismi o'troq hayotga o'tadilar. Bu qabilalar o'troq hayot kechirib an'anaviy chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan shug'ullanganliklari haqida yozma va arxeologik manbalar ma'lumotlar beradi.

Turk xoqonligi davrida (VI-VIII) Toshkent vohasi, Zarafshon, Qashqardaryo, Surxondaryo vohalari va Farg'ona vodiysi, Xorazm hududlariga turkiyzabon guruhlarning kirib kelishi yanada kuchaydi va ularning ko'pchiligi bu hududlarda o'troqlashib qoldi. Mazkur hududlarda ikki tillilik – Sharqiy eroniy va turkiy tilli aholi guruhlarning rivojlanishi davom etadi.

VIII asr boshlarida arablar Movarounnahr va Xorazm hududlariga kelishi oqibatida bu hududlardagi o'troq va yarim o'troq turkiyzabon aholi, sug'diylar va Xorazmning tub yerli aholisi etnik jihatdan

o‘zgarmaydi. Arablar VII asrning o‘rtalaridan VIII asrning o‘rtalariga qadar Xuroson va Movarounnahrga (Marv, Buxoro, Qarshi vohasi) ko‘chib keladi. Tadqiqotchilarning yozishicha, bir qator kelgindi arab qabilalari (amir, quraysh, xuzail va boshqa) Qashqadaryo va Zarafshon vohalarida yangi manzilgohlarga asos solganlar, shuningdek, ular shaharlarda (Marv, Buxoro) alohida guzarlarni egallab olganlar. Bu voqealar yozma manbalardan ma’lum arab tili islom dini tili bo‘lib, adabiy tilga aylanadi.

VIII asrning ikkinchi yarmidan turkiy qarluq qabilalari kuchaya boshlaydilar. IX asrning o‘rtalariga kelib Yettisuv, Chimkent viloyati, Toshkent vohasi, Farg‘onaning shimoliy qismlarini o‘z ichiga olgan Qarluq davlati tashkil topadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tirof etilishlaricha, o‘zbek elatining shakllanishida Qarluq davlatining ahamiyati katta bo‘ladi. X asr o‘rtalaridan boshlab bu davlat tarixiy manbalarda Qoraxoniylar davlati nomi bilan tilga olinadi.

Bilib oling!

Qarluqlar ko‘p sonli, nufuzli «xalq» bo‘lib, bir qismi chorvachilik bilan shug‘ullangan. Qarluqlar yashagan hududlarda yirik qabilalar – chigillar, yag‘molar, xalachlar ham yashagan bo‘lib, ular bir-biriga qon-qarindosh bo‘lib turkiy tilda so‘zlashganlar.

XI asrning boshlarida janubiy hududlarning to Balx viloyatigacha bo‘lgan yerlari dastlab qoraxoniy turkiylar, so‘ng esa g‘aznaviylar qo‘liga o‘tdi. Buning natijasida navbatdagi katta turkiy qatlam Sug‘diyona, Xorazm va To‘xariston yerlariga kirib boradi. Qoraxoniylar davrida Movarounnahrning barcha hududlarida turkiy qatlamlar mavjud edi.

Qoraxoniylar davlatida qarluq-chig‘il turkiy til lahjasi keng tarqaldi. Keyinchalik, shu til asosida adabiy turkiy til yuzaga kelib, uni Mahmud Koshg‘ariy «eng ochiq va ravon til» deb atagan. Turkiy tilda IX-XII asrlar mobaynida bir qator asarlar yozilgan bo‘lib, Ahmad

Yugnakiyning (775-869) «Hibat ul-haqoyiq» (Haqiqatlar tuhfasi) dostoni, Yusuf Xos Xojibning (XI asr). «Qutadg'u bilig» (Saodatga yo'llovchi bilim) asari, Ahmad Yassaviyning (1041-1167) «Hikmatlar»i hamda «O'g'uznoma», «Alpomish», «Go'ro'g'li» kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Movarounnahr va Xurosonning forsiy-dariy tilda so'zlashuvchi aholisi X asrdan boshlab o'zini «tozik», ya'ni «tojik» deb yurita boshlaydilar. Qoraxoniylardan keyin hukmronlik qilgan sulolalar, G'aznaviylar (977-1186), Saljuqiylar (1040-1147), Xorazmshoh-Anushtaginiylar (1097-1231)ning barchasi turkiy qavmga tegishli bo'lib, o'z vaqtida Turon hududida hukmronlik mavqeiga ega bo'lganlar. X-XI asrlarda Sharqiy eroniy tillarini (xorazm, sug'd) turkiy va fors-tojik tillari butunlay siqib chiqaradi.

Mo'g'ullar bosqini davrida Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalariga turkiy va mo'g'ul qabilalari kelib joylashadilar. Jaloir, barlos, ming, mang'it, qo'ng'irot qabilalari va boshqalari shular jumlasidandir. Shuningdek, Amudaryo va Sirdaryo oralig'i hududlarida mo'g'ul (mongoloid) irqiga mansub aholi guruhlari biroz ko'payadi. XIV asrning o'rtalariga kelib mo'g'ul qabilalari turkiylashib ketadilar.

Bilib oling!

«O'zbek» etnonimining kelib chiqishi haqida qisqacha fikr yuritadigan bo'lsak, bu etnonimning kelib chiqishini ayrim guruh tadqiqotchilar Oltin O'rda xoni O'zbekxonning (1312-1341) nomi bilan bog'laydilar. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa bu fikrni inkor etadilar va «o'zbek» nomi O'zbekxongacha Oq O'rda mintaqasida, uning G'arbiy Sibir va Qozog'iston qismida yashagan turkiy qabilalariga mansub (xon nomi qabilalar nomidan olingan bo'lishi mumkin) degan fikrni ilgari suradilar. Ayrim tadqiqotchilar esa «o'zbek» atamasini «o'zi bek», «erkin», «mustaqil» so'zidan kelib chiqib XII-XIV asrlarda xalqimizga nisbatan ishlatila boshlangan deb hisoblaydilar.

O‘zbek etnonimi kelib chiqishi davriga qarab o‘zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq xalqlarini aniq bir vaqtda paydo bo‘lgan deb aytib bo‘lmaydi. Bu xalqlar ko‘p asrlar davomida hozirgi joylashgan mintaqalarida yashaganlar. Lekin olis paytlarda hali zamonaviy nomi bilan atalgan emas. Ular umumiy nom bilan «turkiy» deb yoki bo‘lmasa o‘z qabilalari nomlari bilan atalganlar.

Tarixning qadimgi davrlarida aholi ko‘p hollarda o‘zlari yashagan joy nomi bilan atalgan bo‘lib, o‘rta asrlarga kelib bu nomlar o‘zgaradi. Xususan, Dashti Qipchoq hududlarida yashagan turkiy aholi XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Movarounnahr yerlariga kelib, bu yerda yashayotgan tub joyli turkiy aholi bilan uyg‘unlashib ketgan va aholini nomi «o‘zbek» deb atalgan. O‘rta asrlar tarixiy adabiyotlarida ham bu nom «o‘zbek», «o‘zbeklar» sifatida tilga olinadi. Ammo shu narsa aniqki, Dashti Qipchoq hududlaridan kelgan turkiy qabilalar mahalliy aholi etnogeneziga, urf-odat va madaniy an’analariga sezilarli darajada ta’sir etmadilar. Aksincha, ular orasiga singib ketib, chuqur tarixiy ildizlari ega yuqori darajadagi madaniyat ta’sirida bo‘ldilar. Tadqiqotlarga ko‘ra, o‘zbek xalqi ikki etnik qadimiy Sharqiy eron va turkiy tilli qatlamdan tashkil topgan.

Hozirgi fanda mavjud ilmiy qarashlarga ko‘ra, o‘zbek elati Sharqiy eroniy va turkiy tilli aholisining (xorazmliklar, sug‘diylar, baqtriyaliklar va turkiy qabilalar) qorishib ketishi natijasida X asrda shakllanadi. XI-XII asrlarda uning rivojlanishi turkiy komponentlar asosida o‘tadi. Etnogenez jarayonida til, shubhasiz, muhim jihat bo‘lgan, shuningdek, mazkur muammoni o‘rganishda antropologik, genetik belgilarga e’tibor berish lozim. Misol tariqasida, turkiy tilli o‘zga xalqlar – qozoqlar va qirg‘izlar mongoloid irqiga mansub, o‘zbeklar va turkmanlar esa asosan yevropoid irqi vakillaridir.

Atamalar izohi

☑ ***Etnogenez*** (grek. ethnos – «qabila, xalq» va genozis – «kelib chiqish») –xalqning kelib chiqishi. Tarix fanidagi mavjud ilmiy metodologik ishlanmaga ko‘ra, etnogenez deb ilgaridan mavjud

bo‘lgan bir necha etnik komponentlar asosida yangi etnos (elat)ning vujudga kelishiga aytiladi. «Etnogenez» tushunchasi fanga ilk marotaba XX asrning 20-yillarida N.Ya.Marr tomonidan kiritilgan.

☑ ***Genetika*** – jonli organizmlardagi nasldorlik va turlanishni o‘rganuvchi fandir. Hayvon va o‘simliklarning ba’zi xususiyatlari nasldan naslga o‘tishi mumkinligi ibtidoiy jamiyat davridayoq ma’lum edi va bu bilimdan chorvachilik va dehqonchilikda tanlanma ko‘paytirish orqali qo‘llanilar edi. Biroq, zamonaviy genetika nasldorlik mexanizmlarini tushunadigan fan sifatida Gregor Mendel (XIX asr) mehnatlaridan keyingina rivojlana boshladi.

☑ ***Irqlar*** – Homo Sapiens turi ichidagi sistematik guruhlar. Har bir irq o‘ziga xos irsiy belgilar, masalan, ko‘z, soch va teri rangi, yuz va bosh qutisi shakliga binoan boshqa irqlardan farq qiladi. Hozirda odamlar 3 ta: ekvatorial (negroid, avstraloid), yevrosiyo (yevropoid), osiyoamerika (mongoloid) yoki 5 ta (negroid, avstraloid, yevropoid, mongoloid va amerikanoid) yirik irqlarga bo‘linadi.

Savol va topshiriqlar

1. Etnogenez tushunchasiga izoh bering.
2. O‘zbek xalqining ajdodlari bo‘lgan xalqlarni sanang.
3. O‘zbek xalqining shakllanishi bilan bog‘liq siyosiy voqealarni bosqichma-bosqich izohlab bering.
4. XIII-XV asrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarga nisbatan qo‘llanilgan umumiy nom qanday bo‘lgan?
5. «O‘zbek» atamasiga ta’rif bering. Atamaning qo‘llanilish davri va kirib kelish omillarini izohlang.
6. Tashqi va ichki migratsiya nima? Turon hududidagi migratsiyalar qanday kechdi?
7. O‘zbek xalqining shakllanishida qanday etnik guruhlar faol ishtirok etgan?
8. O‘zbek xalqining shakllanishi haqida qanday fikrlar mavjud?
9. O‘zbek urug‘lari haqida nimalar bilasiz?
10. O‘zingiz mansub bo‘lgan o‘zbek urug‘i haqida ma’lumot bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. / A.Rasulov tarjimasi asosida to'ldirib, qayta tayyorlangan nashr muallifi A.Ahmedov. – T.: O'zbekiston NMIU, 2022.

3. Abulg'oziy. Shajarayi turk. – T.: Cho'lpon, 1994.

4. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994.

5. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – T.: O'zbekiston, 2015.

6. Jo'rayev N. Etnomadaniyat. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2018.

7. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. –T.: Sharq, 2001.

8. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. – T.: Fan, 2019.

9. Ziyo A. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

10. Ziyotov Z. Turon qavmlari. – T.: Istiqlol, 2008.

20-MAVZU. XORAZMSHOH VA CHINGIZXON O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR



REJA:

20.1. Mavzuning manbalari va tarixshunosligi.

20.2. Mo‘g‘ullar davlatining tashkil topishi.

20.3. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar.

20.4. Mo‘g‘ullar bosqini arafasida Movaro-unnahr va Xurosondagi siyosiy ahvol.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Manba, asarlar, ismoiliylar, Eron, Turon, Kavkaz, Chingizxon, Juvayniy, elchilik aloqlari, xon, mo‘g‘ul, menva, Nasaviy, tatar, Xitoy, Mo‘g‘uliston, Baykal, Yesugay, Temuchin, Jamuxa, nayman, qoraxitoy, qurultoy, shomon, yasoq, bilik, qo‘shin, jang, Muhammad Xorazmshoh, Turkon Xotun, farmon, To‘rg‘ay dashti, Ilamish, Jo‘chi, Mahmud Yalavoch, Ibn Kafroj Bug‘ro, Qipchoq zodagonlari, Inolchiq, O‘tror, elchilik.

20.1. MAVZUNING MANBALARI VA TARIXSHUNOSLIGI

Ushbu mavzu yuzasidan bugunga kelib bir qancha manba va adabiyotlar ma’lum. Jumladan, *Alouddin Atomalik Juvayniy*ning «Tarixi jahonkushoy» asari shular jumlasidandir. Juvayniy Mo‘g‘uliston, Turon hamda Eronning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy

tarixidan hikoya qiluvchi asari bilan shuhrat topdi. Asar 1260-yili yozib tamomlangan «Tarixi jahonkusho» asari uch qismdan iborat:

1) Mo‘g‘ullar, ularning Chingizxon davridagi istilochilik yurishlaridan to Guyukxon (1246-1249) davrigacha, shuningdek, Jo‘chixon, Chig‘atoyxon va uning avlodlari tarixi;


2) Xorazmshohlar va Xurosonning mo‘g‘ul hukmdorlari davridagi (1258-yilgacha) tarixi;

3) Eronning 1256-1258-yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, Erondagi Ismoiliylarning diniy-harbiy uyushmasi va Ismoiliylar davlati (1090-1258) tarixi.

Bilib oling!

Turon tarixi uchun «Tarixi jahonkusho» ning I–II qismlari alohida ahamiyatga egadir. Asarning Xorazm va Xorazmshohlar tarixiga oid qismi (II qism) bizgacha yetib kelmagan. «Mashorib at-tajorib va g‘avorib al-g‘aroyib» («Imtihonni salqinlashtirish joyi va ajoyib narsalarning yuqori darajasi»), Faxriddin Roziyning (vaf. 1210) «Javome’ ul-ulum» («Ilmlar majmuasi») kitoblari asosida yozilgan Movarounnahr va Sharqiy Turkiston tarixi, shuningdek, Mo‘g‘uliston haqidagi xabarlar asosan muallifning shu mamlakatlarga qilgan sayohatlari vaqtida to‘plangan ma’lumotlar asosida yozilgan.

Bu davr tarixiga oid yana bir manba – «Jome’ at-tavorix» («Tarixlar majmuasi») asaridir. Uning muallifi mashhur qomusiy olim, tarixchi, tilshunos, tabib va yirik davlat arbobi *Rashiduddin Fazlulloh* ibn Imoduddavla Abulxayr al-Hamadoniydir. Uning ota-bobolari ham o‘z zamonining o‘qimishli kishilaridan bo‘lganlar. Masalan, bobosi dastlab yirik qomusiy olim Nosiruddin Tusiy (1201-1274) bilan birgalikda Alamut qal’asida ismoiliylar xizmatida bo‘lgan, so‘ng mo‘g‘ullar tomoniga o‘tib ketgan. Otasi Imoduddavla Abulxayr o‘rtahol kishi bo‘lib, Hamadonda tabiblik qilib kun kechirgan,



«Jome' at-tavorix»ning qo'lyozmasi (Toronto, Kanada)

keyinchalik, Elxoniylar (mo'g'ullarning xulagular sulolasi) saroyiga taklif qilinib, u yerda ham o'z kasbi bilan shug'ullangan. Rashiduddin 1247-yili Hamadonda tug'ilgan. Yoshligidan yaxshi o'qib, ota kasbidan tashqari ko'pgina ilmlarni – ilohiyot, tabiiy fanlar, mumtoz adabiyot, tarix, geografiya va boshqa fanlarni puxta egallagan Rashiduddin Elxon Abaqaxon (1265-1282) davrida uning shaxsiy tabibi bo'lib xizmat qilgan, keyinchalik, G'ozonxon (1295-1304) va O'ljoytuxon (1304-1317)lar vaziri bo'lgan. Olimning bizgacha to'la yetib kelgan birdan-bir asari «Jome' at-tavorix» bo'lib, u o'rta asr tarixnavisligining o'ziga xos noyob obidasi hisoblanadi. Bu kitob o'rta asr Sharq tarixchiligida yangi an'anani boshlab bergan asar sanaladi. Unda umumiy tarix sifatida musulmon mamlakatlari tarixi bilan birga G'arb mamlakatlari, Xitoy hamda Hindiston tarixini ham yoritishga intilgan, Sharq mamlakatlari tarixi umumjahon tarixining bir qismi deb hisoblangan. «Jome' at-tavorix» asari 1301-1311-yillar orasida G'ozonxonning topshirig'i bilan yozilgan. Asar uch qismdan iborat:

1) Mo'g'ullar va ular asos solgan davlatlar – Ulug' yurt, ya'ni Mo'g'uliston, Elxoniylar davlati hamda mo'g'ullar asoratiga tushib

qolgan mamlakatlar, Shimoliy Xitoy, Turon va Yaqin Sharq mamlakatlari xalqlarining mo'g'ul istilosigacha bo'lgan qisqacha tarixi;

2) Sharq mamlakatlari xalqlarining islomdan avvalgi tarixi, Arab xalifaligi va uning tarkibida tashkil topgan G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlati tarixi; Xitoy, qadimgi yahudiylar, franklar, Rim imperiyasi va Hindiston tarixi;

3) Yer kurrasi hamda yetti iqlim mamlakatlarining geografik holati. Afsuski, asarning so'nggi, uchinchi qismi saqlanmagan.

Bilib oling!

«Jome' at-tavorix» asarining, ayniqsa, turk-mo'g'ul xalqlari tarixini o'z ichiga olgan qismi Turon xalqlari tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Kitobning Turon, Eron va Kavkaz xalqlarining XIII asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qismlari ham nihoyatda qimmatlidir.



Mazkur davr tarixiga oid eng muhim manbalardan biri bu – *Shihobiddin Muhammad Nasaviy*ning «Siyrat us-sulton Jaloliddin Mankburni» asaridir. Nasaviyning otasi xorazmshohlarning e'tiborli amirlaridan biri bo'lgan. Niso viloyatiga qarashli Xurandiz qal'asining hokimi edi. Otasi vafot etgach(1220), uning mol-mulki va mansabi o'g'liga o'tgan. U 1224-yilga qadar Niso viloyati hokimining noibi bo'lib xizmat qilgan. Mo'g'ullar Nisoni egallagach, Astrobod viloyatlaridan Kabudjoma hokimi huzuriga kelgan va uning yordami bilan yana Nisoga qaytishga muvaffaq bo'lgan. Lekin oradan ko'p vaqt o'tmay, Nisoda o'zaro urushlar kuchayib ketganligi sababli u Iroqqa ketib qoladi va 1224-yili Sulton Jaloliddin Manguberdining (1220-1231)


xizmatiga kiradi va uning kotibi (kotib al-insho) lavozimiga tayinlanadi. Shihobiddin Muhammad Nasaviy bu lavozimda 1231-yilgacha, ya'ni sultonning o'limiga qadar xizmat qiladi.

Shihobiddin Muhammad Nasaviy O'rta Osiyo, Kavkaz, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining mo'g'ul istilosi davridagi (1220-1231) ijtimoiy-siyosiy ahvolidan bahs yurituvchi «Siyrat us-sulton Jaloliddin Mankburni» nomli qimmatli asari 1241-yilda Halabda tugallangan bo'lib, u memuar – xotira-yodnoma uslubida yozilgan.

Kitob muqaddima va 108 bobdan iborat. Asarning I-IV boblarida mo'g'ul-tatarlar, Chingizxonning kelib chiqishi, xon bo'lib ko'tarilishi masalalari ixcham tarzda bayon etilgan. V-XXII boblar xorazmshoh Alouddin Muhammadning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. XXIII bobdan boshlab kitobning to oxirigacha mo'g'ul istilosi va xorazmshoh Alouddin Muhammadning fojiali taqdiri, sulton Jaloliddinning hayoti va harbiy yurishlari, fojiali halokati hikoya qilinadi. Ushbu asarning 1224-1231-yillar voqealarini o'z ichiga olgan boblari original va zo'r ilmiy ahamiyatga ega, chunki bayon etilgan voqealarning ko'pchiligida muallifning bevosita shaxsiy ishtiroki bo'lgan.

20.2. MO'G'ULLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

Mo'g'ullar haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud bolib, ular menu (menva) nomi ostida Xitoyning Tan sulolasi (618-907) solnomasida ilk bora tilga olinadi. Ular Oltoy va Janubiy Sibirdagi turkiy qabilalarga yaqin va qondosh bo'lganliklari ehtimoldan xoli emas. Bu xususda olimlar turli fikrlarni bildiradilar. Mo'g'ul etnogenezi ham murakkab masala bo'lib, ular elat sifatida XIII asrda yuzaga kelgan. X-XI asrlarda esa asli Amur daryosi bo'ylarida yashagan 16 ta urug'-aymoqlarga bo'lingan tatan (tatar)larning tarkibiy qismi sifatida ularning bir urug'idan alohida, moxe (mo'g'ul) qabilasi vujudga kelgan deb hisoblanadi. Bu qabila tezda kuchayib, 1135-1139-yillarda Xitoyga qarshi qator yurishlarni amalga oshirgan. Hatto Xitoy imperatorlari 1147-yili mo'g'ullar bilan ittifoq tuzishga ham majbur bolgan.



Chingizxon



Temuchin mo‘g‘ullarning umum qurultoyida oliy mo‘g‘ul hukmdori – xon deb e’lon qilinmoqda («Jome’ at-tavorix» miniaturasi)

XII asr o‘rtalariga kelib Baykal ko‘li atrofi, hozirgi Mo‘g‘uliston hududlarida yashovchi turkiy va tungus-manjur qabilalarining ko‘pchiligi mo‘g‘ullar rahnamosi *Yesugay* bahodir ta’siriga o‘ta boshlaydilar. Lekin unga qarshi turgan tatar, markit qabilalarini bo‘ysundirish oson kechmaydi. Yesugayni tatarlar ziyofat paytida xiyonatkorona o‘ldirishganidan so‘ng, uning o‘g‘li *Temuchin*ning ta’siri mo‘g‘ullar ichida ko‘tarila boshlaydi. Temuchin (1155-1227) (mo‘g‘ulcha, temir ustasi) – kuchli va tadbirkor, ayyor sarkarda bo‘lib, parokanda qabilalarni turli yo‘llar bilan o‘z qo‘li ostida mustahkam birlashtirishga mavaffaq bo‘lgan shaxs edi. 1186-yilda u boshqa bir mo‘g‘ul sarkardasi *Jamuxa* yordamida o‘zining eski raqibi markitlarni boysundirdi. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, bu g‘alabadan so‘ng mo‘g‘ul no‘yon (harbiy boshliqlar)lari va navkarlari uni olqishlab, mo‘g‘ul hukmdori – xon deb e’lon qilishgan. XIII asr boshida esa yana bir boshqa kuchli qabila – tatarlar ustidan ham g‘alaba qozoniladi. Temuchin 1203-yili kerayitlarning xoni O‘ngxonni mag‘lub etib, qo‘ng‘irot va naymanlar ustidan o‘z hukmronligini o‘rnatdi.

Mo‘g‘ullarni birlashtirish chog‘ida Temuchin kuchli harbiy tuzilmani tashkil etdi. Unga ko‘ra, mo‘g‘ul qabilalari mingliklarga

bo‘lingan bo‘lib, u butun bir boshli harbiy okrug vazifasiga to‘g‘ri kelar edi. Okruglar tepasiga sadoqatli kishilar qo‘yilar edi. Temuchin intizomli, sadoqatli va o‘ta jangovar harbiy tuzilmalarni yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Ularni boshqarishni esa, avvalo, o‘z o‘g‘illari – Jo‘chi, Chig‘atoy, O‘qtoy, Tuli, nufuzli xotini Burte-fujen, safdoshlaridan Subutoy, Jebelarga topshirdi. O‘z hokimiyatini to‘liq mustahkamlab olgach, Temuchin 1206-yili mo‘g‘ullarning umum qurultoyi (mo‘g‘ulcha «xalq xohishi»)ni chaqiradi. Qurultoyda u oliy mo‘g‘ul hukmdori – xon deb tantanali ravishda e’lon qilinib, unga bosh shaman *Teb-Tangriy* Chingizxon degan faxriy nom beradi. Rashididdinning yozishicha, «chingiz» so‘zi kuchli, buyuk degan ma’noni anglatadi.

Bilib oling!

Qurultoyda odat bo‘yicha Chingizxon o‘z tug‘i – bayrog‘ini ko‘tardi. Eng avvalo ma’muriy harbiy islohot o‘tkazilib, 10 ta eng asosiy lavozim joriy etildi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar negadir Chingizxonning poytaxti Qoraqurum shahri bo‘lgan deb ta’kidlashadi. Aslida uning poytaxti (qarorgohi) to o‘limigacha Avarga bo‘lgan. Qoraqurum esa uning vorisi O‘qtoy davrida 1235-yilda qurilgan.

O‘z qo‘li ostidagi mansablarni esa 3 toifaga bo‘lib, ularga aniq vazifalarni bo‘lib berdi. Ularga Boorgu, Muxali, Nayaa mas’ul bo‘ldilar. U o‘z qo‘shinlarini ham isloh etdi. Butun Mo‘g‘uliston 95 ta harbiy-ma’muriy birlikka bo‘lindi. Yangi mo‘g‘ul davlati – *Eke Mongol ulus* (Buyuk mo‘g‘ul davlati) deb atala boshlandi.

Qurultoydan avvalroq, 1203-yildayoq hali bir tizimga ega bo‘lmagan qonunlar to‘plami vujudga kelib, u o‘z ichiga yorliqlar (buyruqlar), yasoq (qonunlar), bilik (nasihat)larni olgan edi. «Yasoq» bizgacha to‘liq yetib kelmagan bo‘lib, u turli ko‘rinishlarda, manbalarda qayd etiladi. Yasoq quyidagilarni o‘z ichiga olgan: xalqaro, shaxsiy, savdo va sud huquqlari. Chingizxon tayin etgan davlat bosh hakami *Shiki Xutuxu*ga yasoqqa qarab ish tutishni qat’iy belgilab bergan edi. Chunki, Yasoqning muallifi ham aynan Shiki Xutuxu

bo‘lgan degan fikrlar mavjud. Yasoq qonunlari mo‘g‘ullarning qadimiy urf-odatlari, an’analari, mavjud siyosiy tuzum mohiyatidan kelib chiqqan holda keskin va juda qattiq ohangda, patriarxal harbiy tuzumni o‘zida aks ettirgan ravishda tuzilgan edi.

Bilib oling!

Yasoq qonunlarining asosiy yo‘nalishlari quyidagicha bo‘lgan:

1. Hukmdor (xon) Yasoqqa qat’iy rioya etishi xususida qasamyod qilishi va unga amal qilishi, amal qilmagudek bo‘lsa xonni umrbod qamash mumkin bo‘ladi;

2. Chingizxon mo‘g‘ullar orasida diniy adovat kelib chiqmasligi uchun barchaga to‘la diniy erkinlik beradi. Ruhoniylar soliqdan ozod etiladi;

3. Ayollar naslni davom ettiruvchi bo‘lganliklari uchun ham urush vaqtida ularning gunohlari kechirilishi lozim;

4. Jazolash darajasi sifatida o‘lim jazosini eng ko‘p miqdorda qo‘llash;

5. Bosib olinayotgan mamlakatlar xalqlariga mutlaqo rahm-shafqat qilmaslik.

1204-yili uyg‘ur alifbosi asosidagi mo‘g‘ul yozuvi, muhr (tamg‘a) hamda taqvim qabul qilindi. Chingizxon shaxsiy gvardiyasi sonini (keshik) 9000 kishigacha yetkazdi. Uning a’zolari har 3 kunda navbatchilik qilar, ularning ishini shaxsan xonning o‘zi nazorat qilar edi. 1204-yili *uyg‘ur alifbosi* mo‘g‘ullar yozuvi uchun qabul qilindi. Shuningdek, mustaqil davlat belgisi bo‘lgan muhr (tamg‘a) hamda taqvim qabul qilindi. Chingizxon 1209-yilda tangutlarni, 1211-yilda uyg‘urlarni, 1215-yilda esa shimoliy Xitoyni poytaxt Chjundu (Pekin) bilan birgalikda o‘ziga tobe qilib oldi. Xitoydagi Sin sulolasi tugatilib, katta miqdorda o‘lja olindi. Xitoy yurishi vaqtida yuksak harbiy mahorat va urushning yangi usullari qo‘llanildi. Madaniy jihatdan ancha qoloq bo‘lgan mo‘g‘ullar ko‘p jihatdan uyg‘ur va musulmon

aholisi tajribasidan keng foydalanishdi. Sharqiy uyg'urlarning boshlig'i *Ediqut* (Saodatbek) Chingizxonning do'sti va maslahatchisi, sobiq naymanlar xoni Tayanxonning muhrdori uyg'ur *Tatatunga* esa mo'g'ullarni savodga o'rgatar edi. Musulmon savdogarlarining zehni, tadbirkorligiga Chingizxon doimo yuqori baho berib, ulardan ko'pincha xufiya, ayg'oqchi sifatida ham foydalanar edi.

Bilib oling!

Ta'kidlash joizki, Xitoyni zabt etgan Chingizxon ushbu istilo bilan kifoyalanib qolmasligi aniq bo'lgan. Movarounnahrning badavlat savdo ahli, o'lkaning behisob boyliklari, yuqori madaniyatli ajdodlarimiz yaratgan ajoyib me'moriy obidalar, qolaversa, Turonning fayz-u tarovati mo'g'ullarni anchadan beri o'ziga jalb qilayotganligi ma'lum edi. Musulmon mamlakatlarining behisob boyliklari to'g'risidagi afsona-rivoyatlarni eshitib, tekin o'lja va boyish istagida bo'lgan mo'g'ul harbiy zodagonlari Chingizxon boshchiligida zimdan harbiy yurish qilish istagida turar edilar. Chingizxon davlati g'arbda Qipchoq cho'llari, qoraxitoylarning ko'chmanchi G'arbiy Lyao (Si Lyao) va Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati bilan chegaradosh bo'lib qolgan edi. Shubhasiz, uning g'arbdagi eng yirik va kuchli qo'shnisi hamda raqibi buyuk Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati (1097-1231) hisoblanar edi.

20.3. CHINGIZXON VA MUHAMMAD XORAZMSHOH O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR

Sulton Muhammad Xorazmshoh Markaziy Osiyoda harbiy jihatdan katta zafarlarga erishgach, Xitoyni ham zabt etishni maqsad qilgan edi. Ammo u sharqda Chingizxon rahnamoligida paydo bo'lgan ulkan kuch – mo'g'ullarning qator zafarlari haqida xabarlar eshita boshlaydi. Yangi fotih Uyg'ur va Tibet mintaqalarini qo'lga kiritgach, 1215-yilda Shimoliy Xitoyning poytaxti Pekin shahrini egallaydi. Shunday bir



Xorazmshohlar saltanati hududi (XIII asr boshi)

sharoitda Sulton Muhammad ana shu xabarlarni tekshirib ko'rish, sharq xalqlari ko'ngliga g'ulg'ula solayotgan mo'g'ullar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida o'z davlat arboblaridan biri Sayyid Bahouddin Roziy boshchiligida Xitoyga elchilik jo'natadi. «Tabaqoti Nosiriy» kitobining muallifi bu to'g'rida ma'lumot berar ekan, ushbu elchilikning maqsadi va vazifalari haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: «Bu elchilikning sababi shul edikim, Chingizxonning paydo bo'lish tarixi va mo'g'ul lashkarlarining Tamg'och, To'kir, Tibet mamlakatlari, Chin iqlimi, Uzoq Sharqdagi istilosi haqidagi xabarlar to'g'risida ishonchli odamlar orqali aniq ma'lumotlar yig'ish hamda mo'g'ul lashkarlarining ahvoli, sifati, uning soni va quroli haqida ma'lumot to'plashdan iborat edi».

Chingizxon o'z huzuriga kelgan Xorazm elchilarini yaxshi kutib oladi. U elchilarga katta izzat-ikrom ko'rsatib, ikki mamlakat o'rtasida do'stona munosabatlar va tijorat ishlarini yo'lga qo'yish niyatida Xorazmshohga katta sovg'a-salomlar yuboradi. Muallifning yozishicha, u elchilarga shunday xitob qiladi: «Muhammad Xorazmshohga ayting, men kun chiqar tomon podshosi bo'lsam, u kun


botar tomon podshosidur. Bizning o‘rtamizda ahd-u vafo, mehr-u muhabbat va do‘stlik mustahkam bo‘lsin va o‘zaro tijorat hamda karvonlar bordi-keldisi yo‘lga qo‘yilsin».

Bu orada mo‘g‘ullar o‘z hududlarini Oltoy tog‘ tizmalarining g‘arbiy etaklari, Tangri tog‘, Balxash ko‘li havzasi va Issiqko‘lgacha kengaytirib keldilar. Xorazmshoh ham o‘z sharqiy chegarasini Qipchoq cho‘llarigacha yetkazdi. Natijada Xorazm savdogarlari Oltoy dovoni orqali Mo‘g‘uliston va Xitoy bilan savdo-sotiq olib borish imkoniga ega bo‘ldilar. Manbalarda aytilishicha, musulmon savdogarlaridan uch nafari – Ahmad Xo‘jandiy, Abdullo ibn Amir Xusayn Jandiy va Ahmad Boljij nomli shaxslar zardan to‘qilgan qimmatbaho matolar ortilgan o‘z savdo karvonlari bilan Chingizxon qarorgohiga keladilar. Mo‘g‘ul hukmdori ularni katta hurmat va ehtirom bilan kutib olib, ularning matolarini yuqori bahoda xarid qilishni buyuradi. O‘z navbatida, u o‘z tijoratchilarini xorazmliklarga qo‘shib jo‘natadi.

Bilib oling!

Eronlik mualliflarning yozishicha, mo‘g‘ul savdogarlariga Mahmud Xorazmiy, Alixo‘ja Buxoriy va Yusuf O‘troriy nomli musulmon savdogarlar boshchilik qilishgan. Aftidan, bu kimsalar mo‘g‘ullar bilan anchadan beri hamkorlik qilib kelishgan. Ular Turonning turli mintaqalaridan ekanligi ham ma’lum mulohazaga sabab bo‘lishi mumkin. Demak, Chingizxon bu paytga kelib o‘zidan g‘arbda joylashgan kuchli va yirik davlat – Xorazmshohlar imperiyasini yaqindan o‘rganish, o‘sha yerlik zukko shaxslarning o‘z xizmatida bo‘lishini ta’minlash, o‘zaro muloqotlarda ulardan faol foydalanish siyosatini jiddiy yo‘lga qo‘ygan. Bu esa mo‘ljallangan va ma’lum maqsadlar sari yo‘naltirilgan davlat siyosatining bir ko‘rinishi edi, albatta.

Chingizxon o‘z xizmatidagi ana shu musulmon savdogarlar orqali Xorazmshohga atab qimmatbaho sovg‘alar yuborgan. Ular 1218-yilning bahorida Movarounnahrga keladilar. Elchi savdogarlar Chingizxonning sovg‘a-salomlari hamda maktubini sultonga



Sulton Muhammad Xorazmshoh

topshiradilar. Manbalarda keltirilishicha, Chingizxon o‘z maktubida quyidagilarni yozgan: «Salom, senga! Bilaman, sen o‘zing tengsiz va cheksiz qudrat sohibi ulug‘ podshohsan, men seni o‘z farzandimdek (o‘g‘lim) e’zozlayman. Shuni ham eslatib qo‘ymoqchimanki, men ham dunyoning bu qismida katta qudratga egaman, jumladan, Xitoy, butun Turkiston va uning turk qabilalarini o‘z tasarrufimga kiritib, bo‘ysundirganman. Bugungi kunda mening mamlakatim jangovar qudratli botirlar bilan to‘la, ayni paytda, boylik jihatdan ham kumush va tilloga ko‘milgan. Shuning uchun bunday qudrat va boylik sohibi bo‘la turib, boshqa mamlakatlarni o‘z qamrovimga qo‘shib olishga hech qanday ehtiyoj sezmayman. Sulton dargohiga maxsus elchilarni yuborishdan maqsadim, do‘stlik va tijorat aloqalarini qaror toptirishdan iborat. Shunday bir bitimni tuzish katta moddiy boyliklardan foydalanishdan tashqari, fuqarolarimiz o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlaydi».

Elchilar keltirgan maktub mazmuni shubhasiz sultonga ma’qul bo‘lmagan. Ayniqsa, mo‘g‘ul davlatining xoni, uni o‘z o‘g‘li qatorida ko‘rishi, bu sharqona qarashlarda «qaram qilish» yoki «o‘z homiyligiga olish» degan ma’noni anglatishini sulton yaxshi tushunar edi. Shuning

uchun ham u elchidan haqoratomuz bir ohangda: «Ayt-chi menga, sen tilga olgan Chingiz o'zi kim va nima ish qiladi? Bu maktubda yozganidek, Chin mamlakatini qo'lga kiritgani rostmi?» – deb so'raydi. Shohning barcha savollariga elchilar birin-ketin juda ehtiyotkorlik va o'ta ziyraklik bilan javob qaytaradilar. Ular asosiy urg'uni Chingizxonning do'stlik haqidagi fikrlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratadilar. Chingizxon tomonidan Xorazmshohga tortiq sifatida o'ta qimmatbaho sovg'a-salomlar – oltin-kumush yombilar, turli qimmatbaho yashma toshlari, oq tuya junidan to'qilgan matolar va boshqa tortiqlar yuborilgan edi. Sultonga taqdim etilgan sovg'alar orasida Xitoy tog'laridan keltirilgan tuya o'rkachidek sof oltin bo'lib, uni alohida aravaga qo'shib jo'natishgan. Aynan ushbu sovg'alar ham oradagi ko'ngilsizlikni yumshatishga sabab bo'ladi.



Chingizxon

Bundan tashqari, Xorazmshoh sharqda paydo bo'lgan bu qudratli davlatni yaxshi bilmas, Bag'dod bilan munosabatlar keskinlashgan bir vaqtida u bilan dushmanlik yo'liga kirishni ma'qul topmasdi. Shu sababli, sulton o'sha tunda o'z yoniga Chingizxonning asli xorazmlik bo'lgan elchisi *Mahmud Yalavoch*ni chorlab, bor haqiqatni bayon etishni, uning xizmatiga o'tib, maxfiy josus bo'lib xizmat qilishni buyuradi. Muarrix Nasaviyning yozishicha, o'z hayotidan xavfsiragan Mahmud Yalavoch, sulton eshitishni xohlagan ma'lumotni aytib, sulton taklifiga ko'nadi. Xorazmshoh unga qimmatbaho javohir sovg'a qilib, Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozi ekanligini bildiradi. Xullas, muzokaralar asnosida Xorazmshohning maktub mazmunidan bo'lgan noroziligi asta-sekin so'nib, tomonlar ikki o'rtada Chingizxon taklif etgan do'stlik shartnomasini tuzishga erishadilar. Bu shartnomaga

muvofiq, taraflar bir-birlarining do‘stini do‘st, dushmanini esa dushman deb bilish majburiyatini oladi.

Bu shartnoma Chingizxon uchun ma’lum darajada o‘z harbiy yurishlarini bemalol tayyorlash hamda qulay sharoit paydo bo‘lishini kutish yo‘lida muhim diplomatik qadam bo‘lgandi. Ayni vaqtda u Xorazmshohlar va mo‘g‘ullar o‘rtasidagi siyosiy va tijorat masalalarini qonun sifatida mustahkamlab, qadimiy ipak yo‘lining qayta tiklanishiga ham katta ma’naviy-huquqiy asos yaratgan edi. Ammo voqealarning keyingi rivoji undan tinch munosabatlarni rivojlantirib borish yo‘lida foydalanish imkonini cheklab qo‘ydi.

Bilib oling!

Ayni paytda Xorazmshohning Bag‘dod xalifaligi bilan kurashi natijasida xalifalikning mo‘g‘ullar bilan yaqinlashuvi sodir bo‘ldi. Muhammad Xorazmshoh va Chingizxon o‘rtasida do‘stlik shartnomasi tuzilishi xalifani havotirga soladi. U Xorazmshoh va Chingizxon orasini buzishga harakat qiladi. Shu sababli Chingizxon saroyiga maxfiy ravishda maxsus elchi yuboradi. Elchi qo‘lga tushib qolmasligi uchun Chingizxonga yuboriladigan xabar elchining sochi qirib tashlanib, boshiga yoziladi. Chunki elchi Mo‘g‘ul davlatiga borishi uchun albatta Xorazmshohlar davlati hududidan o‘tishi kerak edi. Manbalarga ko‘ra, bu elchi Chingizxon saroyiga borib, uning qabulida bo‘lgan.

1218-yili Chingizxon sulton Muhammad Xorazmshohga o‘z minnatdorchiligini izhor etish va o‘zaro shartnoma tuzish maqsadida katta savdo va elchilar karvonini jo‘natadi. Ulkan savdo karvoni 450 ta musulmon savdogari va 500 ta tuyaga ortilgan qimmatbaho mollardan iborat edi. Har bir savdogarlarga tegishli mollar olib kelishlari uchun bitta oltin va bitta kumush bolishdan (75 dinor) mablag‘ berildi. O‘z davlati qudratini namoyon etish niyatida Chingizxon Tangut va boshqa davlatlardan o‘lja olingan, janubiy Sibir va Xitoydan talab keltirilgan

ajoyib, sara mollar bilan xurjunlarni to'ldirgan edi. Shuningdek, karvon bilan Chingizxon elchisi, mo'g'ullardan bo'lgan Uxuna ham bo'lib, u xorazmshohga Chingizxon nomasini olib kelayotgan edi. Noma jahon fotihligiga da'vo qilayotgan Chingizxon nomidan buyruqnamo ohangda yozilgan bo'lib, unda jumladan, «... biz bundan buyon davlatlar o'rtasida tinchlik o'rnatilishini buyuramiz...», – deyilgan edi. Mazkur maktub Chingizxonning ochiq-oydin jahon egasi bo'lishga ishtiyoqi baland ekanligidan dalolat berar edi.

Yuborilgan karvonda asli movarounnahrlik bo'lmish Umarxo'ja O'troriy, hammol Merokiy, Fahruddin Dizaqiy Buxoriy, Aminuddin Haraviy singari savdogarlar, karvon sarbonlari hamda o'rda (davlat) elchilari bor edilar. Karvon Urganch (Gurganj) tomon yo'l olgan edi. Lekin xorazmshohlarning chegara viloyati O'tror yerlariga kirib kelishi bilanoq bu karvon ushlab qolindi. O'tror hokimi Inolchiq (G'oyirxon) Turkon Xotunning yaqin qarindoshi, Xorazmshohga yaqin shaxs bo'lgan. Inolchiq Xorazmshoh ijozati bilan bu karvonlarni talashga buyruq berib, karvon a'zolarini josuslikda ayblaydi va ularni qirib tashlaydi. Talab olingan mollar Samarqand va Buxoro savdogarlari o'rtasida taqsimlanadi.

Bilib oling!

«O'trorning hokimi Inalchuq kim Sulton Muhammadning tog'asi erdi. Sulton Muhammad anga G'oyirxon (deb) ot qo'yub erdi. Bozirgonlar (Chingizxon savdogarlari nazarda tutilgan) ani ko'ra bordi. Onlarning orasinda bir kishi bor erdi, Inalchuqning (eski) oshnosi erdi. Ul G'oyirxon temay, Inalchuq tedi. Aning ul so'zi yomon kelib bozirgonlarni tutub, Sulton Muhammadga bir pora kishi josuslikga kelib turur teb, arza dosht qilib yubordi. Sulton Muhammad ham fikr qilmay o'ltursun va molin olsun teb hukm yubordi. Bu ham bularni o'lturub, molini oldi. Bozirgonlarning birisi qochib borib voqeotni Chingizxonga arz qildi. Chingizxon bu so'zni eshitkandin so'ng, qattiq

achchiqlanib, beklarini chaqirib kengashib, Sulton Muhammadning ustiga yurumak bo‘lub, chirik yig‘ish-turmoqg‘a mashg‘ul bo‘ldi. Taqi Sulton Muhammadga kishi yubordi kim, sening sari mutavajjud bo‘lduk. Senga ma’lum bo‘lsun tedi».

Abulg‘oziy Bahodirxonning «Shajarai turk» asaridan.

O‘tror fojeasidan so‘ng Chingizxon Ibn Kafroj Bug‘roni ikki mulozim bilan xorazmshoh huzuriga elchi etib jonatdi. As-Subqiyning yozishicha, Chingizxon O‘tror fojeasining aybdori Inolchiqni tutib, mo‘g‘ullar qo‘liga topshirishini hamda elchilar o‘limining sabablarini keskin tarzda so‘raydi. Mo‘g‘ullar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik uchun «O‘tror hokimini Chingizxon qo‘liga topshirish kerak», degan taklifni ko‘targan shahzoda Jaloliddinning fikrini sulton rad etadi. Sulton buyrug‘i bilan elchi bo‘lmish Ibn Kafroj Bug‘ro o‘ldirilib, ikki mulozimning soqol-mo‘ylovlari sharmandali tarzda qirib tashlanadi. Xorazmshoh mo‘g‘ullar bilan ertami-kechmi, urush bo‘lishini yaxshi anglagan, qolaversa, mamlakatda mo‘g‘ullar bostirib kirishi xususida turli mish-mishlar ham avj olgan edi.

Bilib oling!

Shuningdek, Xorazmshoh Alouddin Chingizxon talabini islom davlati boshlig‘iga nisbatan haqorat, haddan oshish deb sanadi va jinoyat sodir etgan musulmonni boshqa davlatga va boshqa shariatda hukm qilinishi uchun topshirmadi va Chingizxonga: *«Agar musulmonlardan birontasining mo‘g‘ul tijoratchilarni o‘ldirgani isbot etilsa, o‘z yurtida va shariati islomiyaga ko‘ra hukm qilishini»* aytdi. Uning bu gapi mantiqan to‘g‘ri va butun yer yuzida maqbul ham edi. Qaysidir davlatda biror jinoyat sodir etilsa, jinoyatchi o‘sha davlatning qonuniga ko‘ra jazo oladi, boshqa davlatda va boshqa davlatning qonuniga ko‘ra emas, albatta.

Xorazmshoh Muhammad qo‘shini Samarqanddan jo‘nab Jand (Sirdaryoning quyi oqimida) orqali Irgiz daryosi (Qozog‘istonning To‘rg‘ay viloyati)ga yetishgan edi. Muhammad Xorazmshoh va mo‘g‘ullar qo‘shini ilk bor 1216-yilda Irg‘iz daryosi bo‘yida to‘qnashgan. Xorazmshoh qo‘shini (60 ming kishi) mo‘g‘ullarning Jo‘chi, Subutoy bahodir, Toxuchar no‘yon boshchiligidagi 20 minglik qo‘shini bilan to‘qnashgan. Bu kutilmagan uchrashuv sababi shuki, mo‘g‘ullar Chingizxon buyrug‘iga ko‘ra merkit qabilasini tor-mor qilib orqaga qaytmoqchi bo‘lganda Xorazmshoh qo‘shiniga duch kelgan. Mo‘g‘ullar dastlab jang qilishdan voz kechishgan, biroq Muhammad Xorazmshoh bilan o‘chakishib qolib, jangga kirishga majbur bo‘lishgan. Bu voqea 1216-yilning yozida kutilmagan bir hol sifatida sodir bo‘lgan.

Bilib oling!

Jo‘chixon Xorazmshohga elchi yuborib: «Biz siz bilan jang qilmaymiz, ulug‘ xon (Chingizxon) siz bilan urushmoqni buyurmadi» degan xabarni yuboradi. Xorazmshoh Muhammad bunga javoban: «Agar Chingizxon sizlarga men bilan jang qilishni buyurmagan bo‘lsa, Alloh taolo menga sizlar bilan jang qilishni buyurdi. Demak, jang qilamiz», deydi. Ana shu jangda Xorazmshoh qo‘shinni 3 qismga bo‘ladi va ulardan biriga Jaloliddinni lashkarboshi qilib tayinlab, pistirmada turishini buyuradi.

Irgiz jangida Xorazmshoh dushmanning siquviga dosh berolmaydi, uni Jaloliddinning xos lashkarlari bilan jangga kirib, dushmanga qaqshatqich zarba berishi qutqarib qoladi. Birinchi kungi to‘qnashuvda hech bir tomonning qo‘li baland kelmagan. Tun kirgach, tomonlar o‘z qarorgohiga qaytgan va tongda mo‘g‘ul qo‘shini gulxanlar yoqib qo‘yib, dushmanga sezdirmasdan o‘z qarorgohini tark etib ketgan. Ehtimol, shu to‘qnashuv, keyinchalik, Xorazmshohning mo‘g‘ullar bilan ochiq maydonda to‘qnashish fikridan qaytargandir.

20.4. MO‘G‘ULLAR BOSQINI ARAFASIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSONDAGI SIYOSIY AHVOL.

XIII asr boshlaridagi Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati yuqorida ta’kidlanganidek, o‘z hududining kengligi, saltanat egasining nufuzi, xalqning salohiyati, madaniyati, xo‘jalik hayotining yuqori darajada bo‘lganligi bilan musulmon olamida buyuk davlat sanalar edi. O‘zining ko‘proq qang‘li-qipchoq hamda turkmanlardan iborat muntazam qo‘shiniga ega edi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, umumiy qo‘shinning soni 400.000 ga qadar yetib, bu mo‘g‘ullar qo‘shiniga nisbatan ikki baravar ortiq bo‘lgan. Davlat musulmon olamida qabul qilingan qonun chiqaruvchi – dargoh hamda ijroiya – devonlar tizimida boshqarilar, davlat boshlig‘i *sulton* hokimiyatining huquqlari hech bir qonun-qoida bilan chegaralanmagan edi. Saltanatni hokimlar, noiblar, vazirlar, lashkar boshliqlaridan iborat kuchli harbiy aslzoda guruhlar, mustavfiy, qozilar, sadrlar va boshqa ko‘plab saroy mansablaridan iborat ulkan arkoni davlat doirasi qurshab turar edi.

Bilib oling!

Hokimlar ko‘p holda o‘z bilganicha ish tutishar, soliqlar to‘plashning ham aniq tizimi yo‘q edi. Hashar yo‘li bilan biron-bir yo‘l, ko‘prik, qal’a va boshqa inshootlarni qurish keng tarqalgan edi. Davlat ahvoli tang bo‘lganda ko‘p holda iqtadorlarga ishonch qolmas edi. Ayrim viloyat hokimlari xorazmshohning onasi, mamlakat bosh malikasi *Turkon Xotun*ga bo‘ysunib, o‘z bilganlaricha ish tutar edilar. Turkon Xotunning qo‘shin oliy sarkardalari bo‘lmish qipchoq sarkardalari bilan aloqasi mustahkam, o‘zi ham shu qabilaga mansub bo‘lganligi uchun ularni hamisha qo‘llab-quvvatlab turar edi. Sarkardalar, qo‘shin boshliqlari, vazirlar, hokimlar ko‘p holda uning ijozati va ko‘rsatmasi bilan tayin etilar, ular ham o‘z navbatida, avvalo Turkon Xotunga bo‘ysunar edilar.

Turkon Xotun boshqa turkiy qabiladan bo‘lmish kelini Oychechak va uning o‘g‘li, nevarasi Jaloliddinni yoqtirmas, ular o‘rtasida ixtilof kuchli edi. Xorazmshoh farzandlik mehri va hokimiyatga olib kelgan shaxs sifatida onasining so‘zini ikki qilmas, hamisha uning fikrlariga xohlasa-xohlamasa qo‘shilar edi. Xorazmshohning onasi Turkon Xotun aslida davlatdagi birinchi darajali shaxs hisoblanar, uning shiori «Etasamtu Billohi Vahda» (yani, «yolgiz Allohdan panoh so‘rayman») muhriga yozilgan bo‘lib, hukmdor farmoniga shu muhri bilan u birinchi imzo qo‘ysa, uning farmoni vojib hisoblanar edi. Turkon Xotunning amri bilan taxt vorisi etib o‘z qavmidan bo‘lgan nevarasi – O‘zloqshoh tayin etilgan.

Bilib oling!

SULTON MUHAMMADNING ONASI TURKON XOTUN

Turkon Xotun asli «qang‘li» nomi berilgan turk qabilasidan edi. Bu qabilaga mansublar Turkon tomonidan doimo himoya qilinar va boshqaruvda so‘z sohibi edilar. «Ajamiylar» ham deyilgan bu odamlar qo‘pol tabiatli va marhamatsiz edilar. Ular qayerga borsalar, o‘sha yerni xarob qilardilar, xalq ularni ko‘rgan paytda qochishga yo‘l izlardi. Ularning xalqqa ravo ko‘rganlari bu aziyat va zulm, Sulton davlati asoslarini shiddatli tarzda larzaga keltirgan muhim omillardan biri edi.

Sulton Muhammadning farmoni onasi tomonidan muhokama qilinmasdan rad etilgan paytlar ham ko‘p bo‘lgan. Uning o‘z shaxsiy «devon al-inshosi» bo‘lgan va mamlakat ishlarini mustaqil hal qilgan. Juvayniyning aytishicha, Turkon Xotun Gurganch(Urganch)ni o‘ziga poytaxt qilib tanlagan edi. Uning o‘z saroyi, o‘z mulki bor edi. Turkon Xotunning alohida bir saroyi, o‘ziga bog‘liq bir davlat arkoni, o‘ziga xos mol-mulk va yerlari bor edi. Bulardan tashqari, uning so‘zi Sulton va uning yaqinlari

tomonidan tinglanar, Sulton xazinasini u xohlaganicha sarflay olardi. Turkon Xotunning tez-tez yashirin vaqtichog'lik ziyofatlar tashkil qilganligini aytadilar. Shu bilan birga, u davlat sohibi bo'lgan bir qancha xonadonga mansub shaxslarni yo'q qildirgan edi. Yangi bir mamlakat fath etilganidan so'ng u yerning boshqaruvchilari garov sifatida Xorazmga keltirilgan paytda Turkon Xotun ulardan o'g'liga biror aziyat yetmasin, deb ularning hammasini o'ldirtirib, daryoga otib yuboradi.

Sulton onasi va haramini Mozandaronga olib ketib (mo'g'ullar hujumi davri haqida gap ketmoqda), u yerning qal'asiga berkitish uchun Xorazmga odamlarini yubordi. Turkon Xotun o'g'lining buyrug'iga ko'ra harakat qildi. Sulton oilasi va haramini olib ketayotganida askarlarni Xorazmda qoldirishdi. Harakat paytida asir qilib olingan turli mamlakatlarning podshohlarini buyruq bilan Jayhun daryosiga cho'ktirib yuborganidan so'ng bolalari, nevaralari, yaqinlari va xazinasi bilan vazir Nosiriddinning kuzatuvida Dehiston ustidan Mozandaronga tomon harakat qildi.

Mozandaronga kelgan Sulton u yerni ham ishonchli deb hisoblamay Turkon va boshqa haram a'zolarini Lorijon (Tehrondan 50 mil shimoli sharqdagi nohiya) va Ilol (Tejen irmog'idagi hudud) qal'asiga yubordi. Sulton ketidan ta'qib qilib Mozandaronga kelgan Subutoy eslatilgan qal'alarni qamal qilish uchun askar chaqirdi. Taqdirni qarangki, yomg'ir bulutlari o'z yuklarini ustiga to'kkan va o'sha paytgacha hech kim suv tanqisligini ko'rmagan Ilol qal'asi qurshovga olingan vaqtda yomg'ir ham ularga dushmanlik qilib, yog'may qo'ydi.

O'n besh kundan so'ng suv tugagach, og'ir ahvolda qolgan Turkon Xotun boshqa haram a'zolari bilan va vazir Nosiriddin bilan pastga tushdi. Ular qal'aning tubiga borgan vaqtda ob-havo yuzini norozi ohangda bujmaytirib,

qovog'ini osib, yashin ustiga yashin chaqib yig'lay boshladi. Mo'g'ul askarlari Turkon Xotunni o'g'illari, qizlari va Nosiriddin bilan birga Toliqonda turgan Chingizxon yoniga olib bordilar.

618(1221 – 1222)-yili Chingizxon buyrug'iga ko'ra, Nosiriddinni qiynab o'ldirdilar. Sultonning o'g'il farzandlaridan birontasini ham tirik qoldirmadi. Tirik qolgan Turkon, Sultonning qizlari, singillari va ayollariga Chingizxon buyrug'i bilan Sultondan va uning mamlakatidan ayrilgani uchun dod-faryod qilib, yig'latdilar (Chingizxonning «Yasoq» qonunida ayollarni o'ldirish taqiqlangan, chunki ular kim bo'lishidan qat'iy nazar insoniyatni davom ettiruvchilar, deb hisoblangan).

Qoraqurum(Chingizxon davlati poytaxti)ga olib ketilgan Turkon Xotun u yerda bir necha yil baxtsiz hayot kechirdi va 1233-yilda vafot etdi. Chingizxon uning qizlaridan ikkitasini Chig'atoyga taqdim qildi. Chig'atoy ularning birini o'zining cho'risi qilib, boshqa birini esa vaziri Qutbiddin Habash Amidga berdi. Boshqa shahzodalar chekiga tushgan qizlaridan birini Amid hojibga berdilar.

«Shihobiddin Nasaviyning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankburni» asari asosida.

Muhammad Xorazmshoh qo'shini garchi son jihatdan ko'pchilikni tashkil etsa-da, bu qo'shin harbiy intizomi uncha mustahkam bo'lmagan, salohiyati ancha past, ko'proq janubliklardan olingan yollanma qo'shin edi. O'z navbatida bu qo'shin Vatan mudofaasi uchun emas, balki ko'proq istilo, talon-taroj, o'lja olish uchun mo'ljallangan qo'shin edi. Haqiqatda Xorazmshoh kuchli, o'ziga munosib keluvchi raqib bilan kurash olib borgani yo'q hisobi, bu esa yuqorida qayd etilganidek, o'z harbiy mahoratiga noxolis tarzda yuqori baho berishiga olib kelgan edi.

Joylarda noib va hokimlik lavozimidagi amaldorlar oddiy xalqqa nisbatan ko'pincha zo'ravonlik, tazyiq bilan munosabatda bo'lar, bu esa

xorazmshohlar davlatiga nisbatan aholining noroziligiga sabab bo‘lar edi. Soliqlar miqdori bir me’yorda turmas, mehnatkash ommaning ahvoli ancha og‘ir edi. Masalan, 1218-yili xorazmshoh xiroj solig‘ini bir yo‘la uch marotabagacha undirib olishga buyruq bergan edi. 1206-1212-yillarda ro‘y bergan Buxoro va Samarqanddagi xalq g‘alayonlari o‘z navbatida zo‘ravonlik va soliqlar oshib ketishiga qarshi qaratilgan edi. Soliqlar va zo‘ravonlikdan ezilgan xalqning sulton Muhammadga ixlosi va ishonchi mo‘g‘ullar bosqini arafasida susayib ketdi. Shuningdek, sultonning Bag‘dod xalifaligiga yurishi va o‘z holicha termizlik sayidlardan bo‘lmish Shayx A’lomulk Termiziyning xalifa deb e’lon qilinishi, taniqli din arboblarining ta’qib etilishi Movarounnahr ulamolarining norozilik kayfiyatiga sabab bo‘lgan edi.

Chingizxon o‘zining rivojlangan tizimga asoslangan ayg‘oqchilar tarmog‘i orqali Xorazmshohlar davlatidagi ushbu ahvoldan boxabar bo‘lgan. Shuningdek, u ushbu qadimiy madaniyat va yuqori salohiyatga ega Movarounnahr aholisini osonlikcha bo‘ysundirib bo‘lmasligini ham yaxshi bilib, bo‘lajak yurishga jiddiy tayyorgarlik ko‘rdi. O‘tror voqeasidan avvalroq Chingizxon qo‘shinlarining Yettisuvga qilgan harbiy yurishlari sulton Muhammadni tashvishga solib qo‘ygan edi. Garchi xorazmshoh katta qo‘shinga ega bo‘lsada, o‘zaro ixtiloflar, sarkardalarga nisbatan ishonchsizlik, o‘z atrofidan xavfsirash xorazmshoh qo‘shinining zaiflashuvi, harbiy intizomning pasayishiga olib kelgan edi.

Atamalar izohi

☑ ***Halab*** – Suriyaning eng katta shahri. Halab ko‘p asrlar davomida Buyuk Suriyaning eng yirik shaharlaridan biri va Usmonli imperiyasida Konstantinopol va Qohiradan keyin uchinchi katta shahar bo‘lgan.Halabning tarixiy ahamiyati uning O‘rta Osiyo va Mesopotamiyadan o‘tgan Buyuk ipak yo‘lida joylashganidadir.

☑ ***Yesugay bahodir*** (? – taxminan 1168) – Mo‘g‘ulistondagi ko‘chmanchi qabilalar ittifoqidan birining rahbari. Chingizxonning otasi. Yasugay bahodirning otasi – Bartan bahodir, bobosi –

Qobulxonlar ham qabila sardori bo'lishgan. Yesugay bahodir kuchli tatar qavmi bilan qattiq kurash olib borib, ular yurtini tobe ettirgan.Yesugayning beshta o'g'li bo'lgan. Temuchin (Chingizxon), Jo'chi Qasar, Qachun, Tamuka, Bilgutoy o'tchikin. Yesugay bahodir o'g'illari va urug'aymog'ining aksariyati oq yuzli va qora ko'z bo'lishgan; mo'g'ullar qora ko'zli odamlarni burjigin deb atashgan. Shu tufayli Yesugay bahodir urug'i burjigin – qiyot (mo'g'ulcha qiyot – kuchli, shiddatli) deb nom olgan. Yesugay bahodir vafot etganda Chingizxon 13 yoshda, ukalari esa yanada yosh bo'lishgan (Mirzo Ulug'bek. «To'rt ulus tarixi»).

☑ ***Inolchuq*** – chig'atoy turkchasida inol «shaxzoda» ma'nosini bildiradi. Bu so'z unvon bo'la olishi bilan birga ism ham bo'lishi mumkin.

☑ ***G'oyir*** – turkmancha bo'lgan bu so'z qudratli ma'nosini bildiradi. Inolchiqqa berilgan faxriy nom va unvon edi.

Savol va topshiriqlar

1. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh o'rtasidagi munosabatlar qaysi manbalarda keltirilgan?
2. Mo'g'ullar, tatarlar kimlar?
3. Chingizxon qanday usulda uzoq vaqt mobaynida dushman bo'lgan qabilalardan bunchalik uyushqoq davlat tuzishga erishadi?
4. Chingizxonning hokimiyat tepasiga kelishida ko'makchi bo'lgan omillarni sanang.
5. «Yasoq» qoidalari haqida kichik esse tayyorlang. Uning mo'g'ul jamiyatini tartibga solishdagi o'rni qanday bo'ldi?
6. Muhammad Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlarining dastlabki bosqichi qanday edi?
7. Muhammad Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlarining keskinlashuv omillarini sanang.
8. Xorazmshoh Alouddin Muhammadning davlat tizginini onasiga topshirib qo'yishiga sabablar nimalar edi?
9. Xorazmshoh-Anushtaginiylar qaysi turkiy qabiladan bo'lgan?

10. Chingizxon bosqini arafasida Xorazmshohlar davlatining ahvoli qanday edi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdirimov B. Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha. – T.: Sharq ma'rifati. 2021.

2. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahongusho (Jahon fotihi tarixi). / Turk tilidan Nazarbek Rahim tarjimasi. – T.: Mumtoz so'z, 2015.

3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

4. Buniyodov Z. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar: Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – T.: Mumtoz so'z, 2012.

5. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur: harbiy san'ati, strategiya va taktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2017.

6. Masharipov Q. Jaloliddin Manguberdining jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o'rni. T.: Yoshlar media print, 2021.

7. Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkilotlari, iqtisodiy va madaniy hayot. / Turk tilidan N. Rahim tarjimasi. – Urganch: Ogahiy, 2022.

8. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san'ati. – T.: «O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi» DIN, 2018.

9. O'zbekistonda elchilik xizmati tarixidan lavhalar. Mas'ul muh.: Otaxo'jayev A., Xidirova N. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.

10. Shihobiddin Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati. – T.: O'zbekiston, 1999.

11. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. – Т.: Узбекистан, 2006.

12. Фазлуллах Рашид-ад-дин. Джами ат-таварих. – Баку: Нагыл Ева, 2011.

21-MAVZU. CHINGIZXONNING MOVAROUNNAHRGA BOSQINI

REJA:



21.1. Chingizxonning Movarounnahrga hujumi. O‘tror qamali.

21.2. Buxoro va Termizning bosib olinishi.

21.3. Samarqand jangi.

21.4. Sig‘noq va Jandning olinishi.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Chingizxon, mo‘g‘ul, Jo‘chi, Chig‘atoy, O‘qtoy, Movarounnahr, chegara shahar, O‘tror, Inolchiq, qo‘shin, harbiy yurish, qamal, Sirdaryo, Urganch, harbiy kengash, Muhammad Xorazmshoh, Shahobiddin Xivaqiy, Jaloliddin, Xuroson, Iroq, qipchoq harbiylari, mudofaa, qal’a, viloyatlar, «lashkari berun», Qoracha hojib, Buxoro qamali, 12 kunlik qamal, din ulamolari, Termiz, Samarqand janggi, Naxshab, Hasan hoji, Sig‘noq, Chin Temur, Jand, mudofaa, talon-taroj, hokim.

21.1. CHINGIZXONNING MOVAROUNNAHRGA HUJUMI. O‘TROR QAMALI

Chingizxon 1219-yili o‘z o‘g‘illari boshliq anchadan beri puxta tayyorlangan 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan Xorazmshoh-anushteginiylar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi. Bu kuchlar yozni Irtish daryosi bo‘yida o‘tkazib, sentyabr oyida

chegaradan o‘tadi. Chingizxonga uyg‘ur ediquti (xoni) Baurchak, qarluqlar xoni Arslonxon va Olmaliq hukmdori Sig‘noqteginlar ham o‘z qo‘shini bilan kelib qo‘shildilar. Chegaradan o‘tgan Chingizxon o‘z qo‘shini bilan janubiy cho‘llarning Sirdaryoga tutashgan joyidagi O‘tror shahri yaqinida to‘plab, uni 4 qismga bo‘ldi.

Bilib oling!

Chig‘atoy va O‘qtoy qo‘shinning *bir qismi* bilan O‘trorni qamal qilib, uni egallash uchun qoldirildi.

***Ikkinchi* qism esa Jo‘chi boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Barchinlig‘kent, Sig‘noq shaharlarni bosib olish uchun yuborildi.**

***Uchinchi* qismdagi besh ming chog‘li qo‘shinga Uloq no‘yon va Suketu cherbi bosh bo‘lib O‘trordan janubga yurish, Xo‘jand va Banokat (Toshkent viloyatida)ni egallash vazifasi topshirildi.**

Chingizxon o‘zi bosh bo‘lgan *to‘rtinchi*, asosiy qism (uning tarkibida taniqli sarkardalar Jebe va Subutoy ham bor edi) Zarafshon vohasi tomon – Buxoro hamda Samarqandni istilo etish uchun yo‘l oldi.

Shunday qilib, mo‘g‘ul bosqini boshlangach, Muhammad Xorazmshoh mo‘g‘ullarga zarba berish xususida Urganchda (Gurganj) harbiy kengash chaqiradi. Unda ko‘zga ko‘ringan davlat arboblari, aslzodalar, harbiy sarkardalar ishtirok etadilar. Asli xivalik mashhur fiqhshunos hamda davlat arbobi Shahobiddin Xivaqiy bor qo‘shinni Sirdaryo bo‘yiga to‘plab, uzoq yo‘l bosib kelayotgan mo‘g‘ul qo‘shiniga chegaradayoq hal qiluvchi zarba berish to‘g‘risida harbiy jihatdan haq fikrni bildirdi. Xivaqiyning ushbu fikrini qo‘llab, o‘shanigina amalga oshirish kerak deganlardan biri Xorazmshohning eng ishongan, jasur va dovyurak o‘g‘li Jaloliddin edi. U mo‘g‘ullarni Movarounnahrga kiritish va ular uchun begona bo‘lgan bu hududda ularni tor-mor etish taklifini ilgari surgan.

Bilib oling!

Juvayniyning naql qilishicha, Jaloliddin otasiga: «Siz qo‘shinga buyruq bering-da, o‘zingiz bir chetda bizning g‘alaba qozonishimizni kuting», degan jur’atli taklifni bildirgan edi. Ikkinchi fikr, Xorazmshohning davlat amaldorlarining fikri bo‘lib, u butunlay boshqacha edi, ular Xivaqiyning fikrini mensimadilar. Ular shunday dedilar: «Biz mo‘g‘ullarni Sirdaryoning bu tomoniga o‘tishiga to‘sqinlik qilmaylik, mayli o‘tishsin, keyin mana bu tog‘lar va tor yo‘llardan yursinlar. Ular bu yo‘llarni bilmaydilar, biz esa juda yaxshi bilamiz. Ular tor joylarga kirganlarida ularni bitta qo‘ymay qirib tashlaymiz». Bu fikr mantiqli bo‘lib ko‘rinishi mumkin, lekin Chingizxonning ayg‘oqchilari yillar davomida Xorazmshoh yerlarini, tijorat karvonlari yuradigan yo‘llarni juda yaxshi o‘rgangan edilar. Ular shu holatda ekan, Chingizxonning elchilari kelib, O‘trorda o‘ldirilgan tijoratchilarining qasosini, tortib olingan mol-mulklarining tovonini olish uchun Chingizxon urush safariga chiqqanini aytib, Xorazmshohga tahdid qilishdi. Uchinchi fikr, janubga G‘aznaga chekinish taklifi bo‘ldi. Agar u joyda ham himoyalanish qiyin bo‘lib qolsa, Hindistonga chekinilar edi. Bu eng sharmandali qo‘rqoqlarning fikri edi.

Xorazmshoh ikkinchi fikrni qo‘lladi, lekin uni boshqacharoq tarzda amalga oshirishni reja qildi. Xorazmshoh o‘z sarkardalariga, ayniqsa, qipchoq harbiylariga ishonchsizlik bilan qarar, katta qo‘shinni bir joyga to‘plashdan, qo‘shin yig‘ilganda esa o‘zini taxtdan ag‘darib tashlashlari mumkin ekanligidan cho‘chir edi. Shuning uchun sulton va uning onasi tazyiqi bilan kengash mudofaa usuliga o‘tishni ma’qul deb topdi. Jami 450 taga yaqin shahar (qal’a) va viloyatlardan iborat bo‘lmish davlatda qo‘shin katta jangga kirib, Vatan sharafini himoya qilish o‘rniga shahar va qal’alarga bo‘lib tashlandi. Ba’zi markaziy shaharlar, jumladan «Buxoro va Samarqand mudofaasini mustahkamlash zarur», degan

fikrga kelindi, xolos. Ammo bu mudofaa tizimi ham qoniqarli darajada tashkil etilmadi. Bu paytda mo‘g‘ul qo‘shini allaqachon chegara yerlaridan ancha kira boshlagan edi.

Chegaradagi O‘tror mustahkam shahar qal’a bo‘lib, mo‘g‘ullarga olti oyga yaqin vaqt davomida mardonavor ravishda qarshilik ko‘rsatdi. O‘tror hokimi *Inolchiq* (G‘oyirxon) qo‘lida 20 000 chog‘li suvoriy bo‘lib, Xorazmshoh unga yordam tariqasida yana 50 000 kishilik «lashkari berun»ni ham yuborgan edi. Yana saroy mulozimlarining boshlig‘i Qoracha hojib boshchiligida 10 ming askar ham O‘trorga yordamga otlandi. Shundan ma’lum bo‘ladiki, O‘trorda 80 ming askar to‘plandi. O‘tror Movarounnahr shimolidagi Xorazmshoh saltanatining o‘ziga xos darvozasi sanalar, shu sababli bu shahar mudofaasi har tomonlama muhim edi. Ammo mo‘g‘ullar hujumining ilk kunlaridanoq qal’a mudofaasida birlikning yo‘q ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, ilgari Xorazmshoh tomonidan qatl etilgan O‘tror qozilaridan bo‘lgan Al-Amid Sa’dning o‘g‘li Badiruddin Amid Chingizxon tomonga o‘tib ketadi.



O‘tror qamali

Shu bilan bir qatorda, mo'g'ul qo'shinining harbiy kuchi mudofaachilarni sarosimaga ham solib qo'ygan edi. 1211-1215-yillarda Shimoliy Xitoyga uyushtirilgan harbiy yurishlar davomida mo'g'ul qo'shini xitoyliklarga tegishli qal'a ishg'ol qiluvchi qurollar va ulardan foydalanish taktikalari bilan yaxshigina tanishib olgan bo'lib, bu holat, albatta, mudofaachilarni qiyin ahvolga solib qo'yadi. Shunga qaramay, O'tror qamali besh oydan ortiq davom etgan. Shundan so'ng qal'aning o'ziq-ovqat zaxiralari tugaydi va ocharchilik boshlanadi. Natijada, mudofaaga boshchilik qilayotgan Inolchiq va Xorazmshoh tomonidan yuborilgan qo'shin qo'mondoni *Qoracha hojib* orasida kelishmovchilik yuz beradi. Qoracha hojib boshchiligidagi 10 mingga yaqin jangchilar So'fixona darvozasidan tashqariga qochib chiqadi va mo'g'ullarga taslim bo'ladi. Xiyonatkor Qoracha hojibdan mo'g'ullar kerakli ma'lumotlar olib bo'lgach, uni va qo'shinini qatl etadi. Inolchiq (yoki G'oyirxon) Qoracha hojib xiyonatidan so'ng 20 ming kishilik qo'shin bilan shahar arkiga qamalib olib, yana bir oy davomida qarshilik ko'rsatishni davom ettirgan. Inolchiq jangchilari 50 nafar bo'lib, ular ark ichidagi ayovsiz janglarda halok etilgan, Inolchiq esa asir olinib, Chingizxon huzurida qiynab o'ldirilgan.

Bilib oling!


«G'ayir (Inolchiq) va uning odamlari so'nggi askari qolguncha jang qilishda davom etdilar va mo'g'ullar qo'shiniga katta talafot yetkazdilar. Bir oycha ularga qarshilik qilib, so'ngra ikki jangchisi bilan qolgan G'ayir jon-jahdi bilan kurashdi, lekin taslim bo'lmadi. Uni odamlari bilan bir uyning tomiga chiqib, iskanjaga oldilar. Tiriklayin ushlanishi buyurilganligi uchun o'ldirishga urinmadilar. Qisqa bir muddatdan keyin ikki do'stiga shahidlik sharbatini ichirganidan so'ng G'ayirning qo'lidagi qurolni tushirgan paytda ayirtomga yoyilgan sopollarini mo'g'ullar ustiga otib, o'zini himoya qila boshladi. Sopollar ham tugagach, atrofini to'liq qurshab olgan askarlarga hujum qilib, bir nechtasini yiqitsa ham uni asirlik tuzog'iga tushirdilar va zanjirlar bilan

mahkam bo‘gladilar. Shundan keyin qal’a va devorlarni yer bilan yakson qildilar. Qilichdan qutilgan san’atkor va ayrim mulozimlarni o‘zlariga xizmat qilishi uchun olib ketdilar. Avvalroq Buxorodan Samarqandga ketgan Chingizxonga qo‘shilib olish uchun yo‘lga chiqdilar. Qarorgohda G‘ayirga o‘lim sharbatini ichirib, abadiylik libosini kiydirdilar».

Juvayniyning «Tarixi jahongusho» asaridan.

Chingizxon savdogarlariga qilgan qilmishlari uchun Inolchiq xon buyrug‘iga ko‘ra tiriklayin qo‘lga olinishi lozim edi. Shu sababli mo‘g‘ul askarlari uni tiriklayin qo‘lga olish payida bo‘lishadi. Inolchiq qo‘lga olingach, Chingizxon huzuriga Samarqandga keltirilgan. So‘ngra Ko‘ksaroyda qatl etiladi.

Shu tariqa, 1220-yilning fevralida O‘tror mo‘g‘ullar tomonidan egallanib yer bilan yakson qilindi. Aholisini cho‘lga olib chiqib yoppasiga qirib tashladilar. O‘ldirilganlardan qolganlar – oddiy xalq qul «hasharchi» sifatida mo‘g‘ul qo‘shinining old saflariga qo‘yilib navbatdagi janglar uchun yuborilgan, hunarmandlar esa mo‘g‘ullar uchun shaharlar qurishga Mo‘g‘ulistonga olib ketilgan.



Chingizxonning harbiy yurishlari

21.2. BUXORO VA TERMIZNING BOSIB OLINISHI

O‘trordan Movarounnahrga tomon harakatni boshlagan Chingizxonning yo‘lini birinchi bo‘lib Buxoro shahri to‘sib turgan edi. Buxoro yo‘nalishida ketayotgan Chingizxonga esa Zarnuq (Zerinuh) va Nur qal’alari jangsiz taslim bo‘ldi. Manbalarda aytilishicha, Buxoro shahriga 616-yilning 1-zulhijja kuni (1220-yilning 6-fevralida) yetib keldi va uni qamal qildi. O‘rta asr tarixiy manbalarida Buxoro «Sharq mamlakatlarining islom qubbasi va shu mamlakatlarning tinchlik shahri, musulmonlar ahli shaharlarining onasi» («Quvvat al-islom fi bilodi-sh-Sharq va madinatu-s-salom hazihil-bilod va ummu jamiul-muminil muslimin») nomi bilan dong taratgan edi.

Bilib oling!

Uch kunlik shahar qamali boshlandi. Buxoroda bu paytda 12 ming kishilik shahar garnizoni va 20 ming kishilik, ja’mi 30 mingdan ortiq qo‘shin bo‘lgan. Shuningdek, Xorazmshoh tomonidan yuborilgan «lashkari berun» ham mavjud bo‘lgan. Lashkarlarga nufuzli sarkardalar Sulton amiroxuri Ixtiyoriddin Qushlu, Inanchxon nomi bilan mashhur bo‘lgan O‘g‘ul hojib, Hamid Pura Qoraxitoy, Suyunchxon, mo‘g‘ullardan qochib o‘tgan uyg‘ur sarkardasi Ko‘kxon (Go‘kxon) bosh edilar.

Mo‘g‘ullar Buxoro xalqidan taslim bo‘lishni talab qildi va taslim bo‘lishsa, omonlik berishini va’da qildi. Buxoro xalqi nima qilishga hayron bo‘lib qolishdi va oralarida ikkita fikr yuzaga keldi, birinchi fikr egalari aytishdiki: «Mo‘g‘ullarga qarshi jang qilib, shahrimizni mudofaa qilamiz». Ikkinchi fikr egalari esa: «Qatldan saqlanamiz, omonlik olamiz va mo‘g‘ullarga shahar darvozasini ochib beramiz», deyishdi. Bu bechoralar mo‘g‘ullarning biron mo‘min xususida ahd va burchga rioya qilmasliklarini qayerdan bilsinlar!

Avval boshida qo‘shin mo‘g‘ullarga zarba berishga muvaffaq bo‘ldi. Keyin esa mo‘g‘ullarning qo‘li ustun kela boshlaydi. Natijada shahar himoyachilari mudofaani buzib o‘tib Xurosonga chekinishga qaror qilishadi. Sarkardalardan Inanchxon bazo‘r Amudaryodan o‘tib qutulishga muvaffaq bo‘ldi, Hamid Pura Qoraxitoy esa mardonavor tarzda jangda halok bo‘ldi, qolgan-qutgan harbiylar esa Buxoroga qaytib chekinishga majbur bo‘ldilar. Ahli Buxoro o‘z himoyachilaridan ayrilgandan so‘ng shahar ahlining jonini salomat saqlab qolish niyatida shaharliklar maslahatlashib, Buxoro qozisi Badriddin qozi boshchiligidagi bir guruh oqsoqollarni Chingizxon huzuriga yuboradilar. 1220-yili 10-fevral kuni mo‘g‘ullar Buxoroga kirib keldilar.

Bilib oling!

Buxoroga kirib kelgan Chingizxonning xatti-harakatlari xususida Rashididdin shunday deb yozgan edi: «Chingizxon otda masjidi jome’ oldiga kelib to‘xtadi va shaharning kazo-kazolarini o‘z huzuriga chaqirtirdi. Mo‘g‘ullar shahar omborxonalarini ochib, g‘allalarni tashib oldilar. Qur’on nusxalari saqlanadigan sandiqlarni otlarga oxur qildilar, masjidlarga meshlarda sharob keltirib joylab qo‘ydilar, shahar hofizlari va o‘yinchilarini chorlab, raqsga tushirdilar. Oqsuyaklar, ulamolar va shayxlar otboqarlar o‘rnida otlarni qo‘riqlash uchun otxonalarda turar va o‘sha qabila (mo‘g‘ul) kelishlarini, amr-farmonlarini bajo keltirish bilan mashg‘ul edilar».

Buxoro talon-taroji xususida muarrix Ibn Attor shunday yozgan edi: «Ul kun haqiqatda dahshatli kun bo‘ldi. Bori manguga ketgan erlarning, xotinlarning, bolalarning tovushlarigina eshitilib turdi. Vahshiylar xotinlarni, qizlarni ham o‘zlarining birodarlari ko‘z oldida tahqirladilar. Bu tahqirlarga ularda ko‘z yoshlaridan o‘zga qurol topilmadi. Ko‘plar dahshatli manzaralardan ko‘ra o‘limni ortiq ko‘rdilar. Qozi Badriddin, Imom Rukniddin va uning o‘g‘li bu nomussizlik manzaralariga chiday olmay, g‘azablanib, o‘zlariga teng bo‘lmagan dushmanga hujum qilib, halokat topdilar».

Shunga qaramay, aksariyat shaharliklar o‘z qarshiliklarini davom ettirdilar, tunda esa yashirincha askarlarga yordam berib, mo‘g‘ul qo‘shiniga qarshi hujumlar uyushtirdilar. Tinimsiz tungi hujumlardan bezor bo‘lib, g‘azablangan Chingizxon shahardagi uylar butunlay o‘tda yondirilishi to‘g‘risida buyruq beradi. Natijada Buxoro yong‘in ichida qoladi. Yong‘indan faqat g‘ishtdan qurilgan katta masjid va ba’zi saroylar omon qoladi. Shundan so‘ng Ko‘kxon boshchiligidagi 400 ta mudofaachilar Buxoro arkida yana 12 kun qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Ular shahar ichiga berkinib, mo‘g‘ullar lashkariga tinimsiz tungi hujumlar uyushtirib turgan.

Bilib oling!

«Mo‘g‘ullar Buxoro xalqini qal’adagi mavjud bo‘lgan Sulton askarlariga qarshi jangga haydadi. Ikkala taraf orasida shiddatli jang boshlandi. Qal’a tashqarisidagilar ichkariga manjaniqlardan tosh, yoylardan o‘q yog‘dirar, ichkaridagilar esa tashqariga kerosin va neft shishalarini otardilar. Qisqa bir muddat ichida hamma yoq atrofga uchqun sachratib yonayotgan bir tandirga aylandi. Mana shu tarzda jang bir necha kun davom etdi. Qal’a ichidan bir guruh jangchi tashqariga chiqar, qahramonlarcha kurashib, qal’aga qaytib kirib ketardi. Ayniqsa, jasurlikni erkak sherning qo‘lidan tortib olgan Ko‘kxon bir hamla qilganida bir necha dushmanni birdaniga o‘ldirar va hujum qilganlarni orqaga chekinishga majbur qilardi.

Lekin bu hol uzoq cho‘zilmadi. Ularning ishlari borgan sari og‘irlashdi, g‘alabaga olib boruvchi najot yo‘li qolmadi. Oxirida Alloh va uning yaratiqlari qarshisida shahid bo‘lib narigi dunyoga ketdilar. Mana shu tarzda shahardagi chuqurlar va jarliklar inson-u jonzotlar jasadi bilan to‘ldi. Mo‘g‘ullar shahar devorini qo‘lga kiritib, shaharni qaytadan yoqib yubordi. Davrning og‘iz va quloqlari bo‘lgan olimlar oyoqlar osti bo‘ldi, falak gumbazining boshiga yarashgan buyuk kishilardan ba’zilari asir olindi, ba’zilari esa yo‘qlik dengiziga g‘arq qilindi».

Juvayniyning
«Tarixi jahongusho» asaridan.

Buxoro shahrida qad rostlagan Somoniylar maqbarasi Buxoro xalqi uchun muqaddas qadamjo hisoblanar, bu inshoot Buxoro xalqi uchun shahar erkinligi ramzi edi. Shahar uchun kurash vaqtida buxoroliklarning mo'g'ullarga qarshi yashirin tungi hujumlari natijasida mo'g'ul askarlari shaharga o't qo'yishgach, mahalliy aholi o'zlarining muhim qadamjolari sanalgan Somoniylar maqbarasini yong'indan saqlab qolish uchun qumga ko'mib tashlashadi.

Chingizxon qo'shini Buxoroni egallaganidan so'ng navbat Samarqand va Termiz kabi Movarounnahr shaharlariga keladi. 1220-yilning yozida Chingizxon Naxshabga qo'shin tortadi. Mo'g'ul istilosi dahshatidan naxshabliklar jangsiz taslim bo'lib, shahar darvozalarini ochib beradi. Chingizxon qo'shiniga Naxshab yerlarida dam berib, yozni shu yerda o'tkazadi. Yoz oxirlariga kelib, Chingizxon Termizga yurish qiladi. Chingizxonning taslim bo'lish to'g'risidagi talablari termizliklar tomonidan rad etiladi. Termiz Sulton Muhammad Xorazmshoh tomonidan Ayyor an-Nasaviy nomi bilan mashhur bo'lgan Faxriddin Xabashga berilgan bo'lib, u shahar mudofaasiga boshchilik qilgan.

Kuloba qal'asi Jayhun daryosining sohilidagi eng mustahkam qal'alardan biri edi. Ibn al-Asirning yozishicha, mo'g'ullar Chingizxon xohlaganidek, yakson qilishga kirishdi, mintaqalarning hammasini ishg'ol qildi va u yerlarda mo'g'ullarning odatiga ko'ra qatl, qirg'in, vayron qilish, tahqirlash, qul qilish, asir olish ishlarini olib bordilar. Termiz 11 kun davomida dushmanga qarshilik ko'rsatadi. Mo'g'ul lashkari Termizni egallagach shahar boshqa Movarounnahr shaharlari kabi vayron qilinadi.

21.3. SAMARQAND JANGI

Mo'g'ullar buyuk Buxoro shahrini xonavayron, uning xalqini qirg'in qilib, masjid va madrasalarini yoqib, so'ngra qo'shni shahar, Xorazmshoh Alouddin Muhammadning yangi poytaxti Samarqand shahriga otlanishdi. Mo'g'ullar bu ikki shahar orasidagi Zarafshon irmog'i bo'ylab yo'l yurishdi. Yo'lga chiqarkan, Buxoro shahridan asir

qilib olgan musulmonlarning katta jamoasini o‘zlari bilan olishgan edi. Ibn al-Asir bu haqida shunday yozadi: «Eng xunuk, eng razil sur’atda asirlarni olib ketishar, yo‘lda hushidan ketgan va yo‘l yurishdan ojizlik qilganlarni o‘ldirishar edi».

Bilib oling!

Asirlardan turli maqsadda foydalanishgan:

☑ ***Birinchidan***, **har o‘nta asirdan bittasiga mo‘g‘ul bayrog‘ini ko‘tartirib qo‘yishardi, hatto uzoqdan ko‘rganlar bularning barchasi mo‘g‘ul qo‘shini deb o‘ylashlari va jangchilarning sanog‘i adadsiz, qo‘rqinchli bo‘lib ko‘rinishi, dillarni qo‘rquv chulg‘ab, ularga qarshi chiqish amrimahol ekan, deb urushsiz taslim bo‘lish uchun edi.**

☑ ***Ikkinchidan***, **asirlarni o‘zlari bilan birga jang qilishga majbur etar, birga jang qilishdan bo‘yin tovlaganni va kuch bilan qarshilik qilganni o‘ldirishar edi. Shu zaylda musulmon asirlar birodarlariga qarshi mo‘g‘ullar safida majburan jang qilishar edi.**

☑ ***Uchinchidan***, **asirlar jonli qalqon vazifasini bajarib berardi, ularni safning oldiga qo‘yishib, o‘zlari ularning ortiga berkinishardi. Agar movarounnahrliklar mo‘g‘ullarga qarata o‘q otsalar, musulmon asirlarga tegardi.**

☑ ***To‘rtinchidan***, **bostirib kelgan shahar darvozasi oldida ularni qatl qilishardi, bu bilan dushmanining qalbiga qo‘rquv solish va mo‘g‘ullarga qarshi chiqishning oqibati mana shunday bo‘lishini e’lon qilar edilar.**

☑ ***Beshinchidan***, **janglarda dushman qo‘liga tushgan mo‘g‘ul asirlariga bu asirlarni almashtirar edilar. Garchi bunday holat kamdan kam bo‘lgan bo‘lsa ham. Chunki mo‘g‘ullar kam holda yengilgan edi.**

1220-yil 10-fevralda Chingizxon Buxoroni egallagach, o‘z qo‘shinini davlatning ikkinchi poytaxti bo‘lgan Samarqandni ishg‘ol qilishga tashlaydi. Xorazmshoh bu shaharga alohida diqqat-e’tiborini qaratadi. Shahar garnizoni 110 ming jangchidan iborat bo‘lib, shundan 60 mingini turklar, g‘urlar, xalajlar va xurosonliklar tashkil qilgan.

Mahalliy xorazmiy qo‘shinlari soni 50 ming jangchidan iborat edi. Bundan tashqari, Samarqandda 20 ta jangovar fil ham bor edi. Nasaviy bergan ma’lumotga ko‘ra, Sulton 40 ming g‘ur jangchisini o‘z tog‘asi Tog‘ayxon boshchiligida Samarqand mudofaasi uchun mas’ul qilib qoldiradi. Shahar oziq-ovqat zahirasi, mudofaa istehkomlarining puxtaligi jihatidan bir necha yillik qamalga ham chidashi mumkin edi. Mo‘g‘ullar bosqini boshlanishi bilanoq sarosimada o‘z qarorgohini Balxga ko‘chirgan sulton Muhammad ham Samarqand mudofaasiga umid ko‘zi bilan boqar edi.

Chingizxonning o‘zi shahar tashqarisidagi Ko‘ksaroy qo‘rg‘onidan turib shahar qamaliga boshchilik qildi. Dastlabki ikki kun Chingizxon qo‘shini faol hujumlar uyushtirmagan. Chingizxonning o‘zi shahar atrofini aylanib chiqib, shaharning minoralari, devor va xandaqlarini va mudofaa inshootlarini ko‘zdan kechiradi. Uchinchi kundan boshlab mo‘g‘ullar shaharga hujumlarini boshlaydi. Dastlabki kun shahar mudofaachilari Erxon, Shayxxon va Arslonxonlar shahar tashqarisiga chiqib mo‘g‘ullarga hujum uyushtiradi va dastlabki muvaffaqqiyatga erishadi. Ammo kutilmaganda shahar hokimi Tog‘ayxon Chingizxon tomoniga o‘tib, Samarqandni taqdir zarbasiga qoldirdi.

Bilib oling!

Qamal paytida Chingizxon harbiy hiyla ishlatadi. U shahar qamali uchun qo‘shinning ozgina qismini ajratgan, asosiy kuchlarni esa pistirmaga qo‘ygan. Samarqand amirlari bu hiylaga uchib, mo‘g‘ullarning ozligini ko‘rib qo‘shinning katta qismini shahardan tashqariga chiqarganlar. Mo‘g‘ullar yolg‘ondakam chekinishadi, Samarqand qo‘shini ularni ta’qib eta boshlaydi. Oldindan belgilangan yerda ular qurshab olinadi va bir necha soat ichida mo‘g‘ullar Samarqand jangchilarining juda katta qismini qirib tashlaydi. Ibn al-Asirning yozishicha, mo‘g‘ullar 70 ming jangchini, Juzjoniyning yozishicha, 50 ming jangchini o‘ldirganlar.

Shaharning qolgan mudofaachilari va aholisi bu holdan dahshatga tushib, tushkunlikka tushadi. Buning ustiga, mo‘g‘ullar Samarqand devorlari tagiga son-sanoqsiz asirlarni haydab keltirib ularni jangovar tartibda yuzlik va o‘nliklarga ajratib, har bir bo‘linmaga bayroq topshirganlar. Samarqand mudofaachilarining jangovar fillari bilan ikkinchi bor shahardan chiqib jang qilishlari ham muvaffaqqiyatsizlik bilan yakuniga yetadi.

Shundan so‘ng mo‘g‘ullar hujumni yanada kuchaytirganlar, shaharni manjaniqlardan o‘qqa tutib, kamondan ham o‘q yomgiri yog‘dirganlar. Mo‘g‘ullar Samarqand bosh suv inshooti – «Jo‘yi arziz» («Qo‘rg‘oshin novasi»)ni buzib tashlab, shaharni suvsiz qoldiradi. Shahar istehkomi buzib tashlandi. 20 000 chog‘li shahar mudofaachilari suv toshqini bois taslim bo‘lishga majbur bo‘ldilar. Samarqand mudofaachilari orasida sarosimalik boshlangan va nihoyat, Chingizxon huzuriga shahar qozisi, shayxulislom va boshqa hurmatli kishilar boshchiligida vakillar jo‘natiladi. Ular Xorazmshoh tomonidan mahalliy qoraxoniy sultonlari sulolasi yo‘q qilingandan buyon unga qarshi kayfiyatda edilar. Ular mo‘g‘ullarga shahar shahristonining darvozalarini ochib berishadi.

Bilib oling!

Qolgan mudofaachilar shahar arkiga joylashib olib, mo‘g‘ullarga qarshi kurashni davom ettiradi. Ulardan, Alpxon boshchiligidagi 1000 ga yaqin bir guruh jangchilar esa qarshi hujumga o‘tib, qamalni yorib chiqib, Xorazmshoh huzuriga qochishga muvaffaq bo‘ladi. Taxminan 1000 nafar-li mudofaachilar esa sulton tomonidan 1211-1214-yillarda qurilgan jome’ masjidiga kirib, neft to‘ldirilgan shisha otib dushmanga zarba bera boshlaydilar. Mo‘g‘ullar masjidga o‘t qo‘yib, mudofaachilarni tirik o‘limga mahkum etdilar.

Samarqand mo‘g‘ullar tomonidan 1220-yil 17-martda to‘la egallandi. Chingizxon shaharning mudofaa devorlarini vayron qiladi. Shaharning deyarli barcha hunarmandlari – 30 ming kishi mo‘g‘ullar

tomonidan asir qilib olib ketiladi. Samarqand egallangach, jami 30 ming turk-qang'li ularning 20 ta amirlari bilan qatl etiladi. Qozi, shayxulislom va ularning tarafdorlari, qarindoshlari jami 50 mingdan ortiq kishidan boshqa Samarqand aholisining katta qismi qamal ishlari uchun haydab ketiladi. Tirik qolgan shaharliklarga mo'g'ullar shaharga qaytishga ruxsat berib, ularga «jonlari omon qolgani uchun» 200 ming dinor tovon to'lash shartini qo'yganlar. Manbalarda aytilishicha, Samarqandda jami aholining faqat 1/4 qismigina tirik qolgan, xolos. Tovon pulini to'lash Samarqandning nufuzli kishilaridan Sikkat ul-mulk va Amidlarga yuklatiladi.

Bilib oling!

1221-yilning aprelida Samarqandda Chingizxon qoldirgan kuchlarga qarshi isyonlar bo'lib o'tdi. Ammo bu urinishlar mo'g'ul qo'shinlari tomonidan ayovsiz bostiriladi. Buning oqibatida «Sayqali ro'yi zamin» deb ulug'langan, Sharqning buyuk shaharlaridan biri, bir paytlar gullab-yashnab turgan Movarounnahr poytaxti huvillab qoldi.

21.4. SIG'NOQ VA JANDNING OLINISHI

Bu davrda mo'g'ullarning Jo'chi boshliq askariy qismlari Sirdaryo etaklarida bosqinchilik qilmoqda edi. Mo'g'ul bosqinchilari reja bo'yicha Sirdaryoning yuqori qismidagi yerlarni egallashi lozim edi. Ularning yo'lini birinchi bo'lib to'sgan shahar bu boy savdo shahri sanaluvchi Sig'noq shahri edi. Dastlab mo'g'ullarga shaharni jangsiz topshirish talabi bilan Sig'noqqa mo'g'ullar xizmatida bo'lgan musulmon Hasan Hoji elchilik uchun yuboriladi. Ammo Sig'noq aholisi taslim bo'lish talabi bilan shaharga tashrif buyurgan Hasan Hojini qatl etishadi. Elchining qatl qilinishi mo'g'ul lashkarboshilarining g'azabiga sabab bo'ladi. Natijada mo'g'ullar Sig'noqqa hujumga o'tib, shaharni 7 kun davomida qamal qilishgan. Sakkizinchi kuni mo'g'ullar qal'a darvozasini buzib kirishadi. Sig'noq

aholisining katta qismi o‘ldirilgan Hasan Hoji xuni uchun qatl qilinadi. Shundan so‘ng bu yerdagi qolgan aholiga Hasan Hoji o‘g‘illari hokim etib tayinlanadi.

Bilib oling!

«Sig‘noqliklar oldiga Hasan Hoji elchi qilib yuborilib, agarda jonlari va mollariga zarar yetishini istamasalar, ularga urush qilmasdan shaharni topshirishlarini buyurdi. Hasan Hoji Sig‘noqqa bordi. Elchilik vazifasini o‘rinlatib, nasihat boshlamasdan avval atrofiga to‘plangan ko‘cha daydilari va to‘polonchilar unga hujum qildilar. Takbir keltirib, uni o‘ldirdilar. Bu ishni qilarkan, katta bir g‘azo, ya’ni o‘z e’tiqodlari uchun muqaddas urush qildik, deb hisobladilar. Aslida unga hujum qilarkanlar, katta bir qavmning jon tomiriga hujum qilganliklarini, butun boshli bir millatning yo‘q bo‘lib ketishiga sababchi bo‘lganliklarini bilmagan edilar. «Tuyaning ajali yetsa, quduqning yoqasiga keladi». Chingizxon elchisi o‘ldirilganligini bilgach, barcha askarlarini Sig‘noq ustiga boshladi. Qahr-g‘azabdan titrab, hech to‘xtamasdan ertalabdan kechgacha jang qilishga buyruq berdi. Mana shu tarzda urush to‘xtovsiz yetti kun davom etdi. Mo‘g‘ullar sakkizinchi kuni shahar darvozasini ochib, afv va shafqat eshigini yopdilar. Bir kishining intiqomi uchun o‘n minglarcha kishini hayot daftaridan o‘chirib tashladilar».

Juvayniyning «Tarixi jahongusho» asaridan.

Sig‘noqdan keyin mo‘g‘ul qo‘shini Sirdaryoning yuqori tomonidagi Barchinlig‘kent, O‘zgand va Ashnos shaharlariga yurish qiladi va ushbu shaharlarni egallaydi. Xorazmshoh Muhammad Jand, Shahrikand, Yorkent himoyasini 10 ming kishilik qo‘shin bilan amirlar amiri (amiri amiron), Turkon Xotunning yaqin qarindoshi Qutlug‘xon qo‘liga topshirgan edi. Ammo Qutlug‘xon mo‘g‘ullarga qarshi mudofaani tashkil etmay, hududni o‘z holiga tashab, Xorazmga ketib

qoldi. Manbalarda aytilishicha, Qutlug‘xon «o‘z jonini saqlagan yaxshi natijalarga erishadi» degan naqlga amal qilib, o‘z askarlari bilan tunda shaharni tark etgan va Sirdaryodan kechib o‘tib, sahro yo‘li bilan Xorazmga yo‘l olgan. Natijada Sirdaryoning quyi oqimidagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Jand shahri mo‘g‘ul bosqini arafasida harbiy boshliqsiz, jangga tayyor bo‘lmagan holda qoladi.

Jand yurishiga boshchilik qilayotgan Jo‘chi tomonidan Jandga dastlab taslim bo‘lish talabi bilan mo‘g‘ul elchisi Chin Temur yuboriladi. Taslim bo‘lish borasidagi talab kelishi bilan shahar arkoni orasida kelishmovchilik yuzaga keladi. Ba’zi kishilar mo‘g‘ul elchisi Chin Temurni o‘ldirishmoqchi ham bo‘ladi. Ammo Chin Temur ustomonlik bilan Sig‘noq voqeasini shahar aholisiga eslatadi va ularni taslim bo‘lishga ko‘ndirib, Jo‘chi huzuriga qaytadi. Elchi borgan paytda shaharning yagona boshchisi bo‘lmay, vaziyatni har kim har tomonga tortib, hatto elchini o‘ldirmoqchi bo‘lganliklari haqidagi xabarni olgan Jo‘chi bu shahar to‘la taslim bo‘lmasligini, mo‘g‘ullar ketgach, yana shahar hokimiyatida bo‘linish bo‘lishini tushunib yetgan.

Shu tariqa, shahar ahlining taslim bo‘lishga to‘la rozi emasligini bilgan Jo‘chi Jand shahriga yaqinlashib, shaharni qurshab oladi. Sarosimaga tushgan Jand aholisi shahar darvozalarni berkitib qo‘yadi. Shahar aholisining katta qismi urush ko‘rmaganligi uchun qal’a devorlariga tirmashayotgan mo‘g‘ul askarlarini katta sarosima bilan kuzatib turgan. Ammo ko‘p o‘tmay mo‘g‘ullar manjaniq yordamida shahar darvozalaridan birining qulfini buzib kirishadi. Jandliklar shaharga kirgan mo‘g‘ullarga qarshilik ko‘rsatmasdan taslim bo‘lishgan. Shunday qilib, 1220-yil 4-aprelda Jand mo‘g‘ullar tomonidan jangsiz egallandi. Shahar aholisi tashqariga haydab chiqilib, toqqiz kun och-nahor dalada ushlab turildi. Bu vaqtda mo‘g‘ullar Jand va uning yon-atrofini butkul talon-taroj qildilar.

Bilib oling!

«Sig‘noq xalqi qarshilik ko‘rsatmaganliklari uchun ularga mehr-shafqat qo‘lini uzatib, ularning jonlarini saqlab qoldilar. Avvalroq Chin Temurga qarshi chiqqan bir necha

kishinigina o'ldirdilar, xolos. ...O'z ishini tugatganidan keyin ko'p vaqtdan beri xizmatida bo'lib kelayotgan va Buxoroning Qizduvon mahallasida tug'ilgan Ali Xo'jani u yerga amir qilib tayinlab, o'sha joyning boshqaruvini uning qobiliyatli qo'llariga topshirdilar. U ham bu ishda katta muvaffaqiyat ko'rsatib, hurmat va e'tibor qozondi. O'lgunigacha mana shu vazifada qoldi».

Juvayniyning «Tarixi jahongusho» asaridan.

Mo'g'ul qo'shinlari Janddan so'ng Sirdaryoning janubida joylashgan Yangikentga yurish qilib uni ham zabt etishadi.

Atamalar izohi

☑ **Olmaliq** – bu yerda Toshkent viloyatidagi Olmaliq shahri emas, Ili vodiysidagi, Yettisuvdagi tarixiy shahar nazarda tutilgan. U Chig'atoy ulusining poytaxti bo'lgan.

☑ **Lashkari berun** – lug'aviy ma'nosi «tashqi, tashqaridagi lashkar». Xorazmshohlar davlatida nomuntazam, harbiy jarayonlardagina xalqdan yig'iladigan armiyaga nisbatan aytilgan. Ular to'la professional bo'lmay, hukmdor huzuridagi muntazam armiya kabi doimiy safda bo'lmagan, tinchlik paytida o'z yumushlari bilan shug'ullanib yuradigan, shunday bo'lsada, belgilangan harbiy mezonga mos keladigan yigitlardan shakllantirilgan.

☑ **Zarnuq**, Zerinuh (Saritoq) – o'rta asrlardagi shahar-qal'a. Sirdaryoning so'l sohilida joylashgan. Abu Abdullo Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» asarida «zurnu istilohi chig'ir» ma'nosini anglatgan. Shunga qaraganda Zarnuq qal'asi chig'ir yordamida suv chiqariladigan balandlikda joylashgan. 1220-yil mo'g'ullar Chingizxonning kenja o'g'li Tuli rahbarligida Zarnuhni qamal qilganlar. Mo'g'ullar shaharga Donishmand hojibni jo'natib taslim bo'lishni taklif etgan. Zarnuq ahli kuchlar teng emasligi boisidan taslim bo'lgan. Mo'g'ullar Zarnuqga «Qutlug' balig'» (Qutlug' shahar) deb nom qo'yganlar.

☑ **Jand** – Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan o‘rta asr shahri. Xorazmshohlar davlatining shimoli-sharqiy istehkomi hisoblangan. Bu yerlarni Saljuq bosib olmasdan oldin ham, Sirdaryo etagi qipchoqlar qo‘lida mustaqil o‘lka (mulk) bo‘lgan. XII asr o‘rtasiga kelib, Jand bilan Forob oralig‘i butunlay Xorazmshohlar (Takish) qo‘liga o‘tgan. Xorazmshohlar Janddan turib qipchoqlar yeriga harbiy yurishlar qilgan. O‘sha davrda Orol dengizi ham Jand ko‘li deb atalgan. Jand Qozog‘istonning Qizilo‘rda shahri yaqinidagi Janqal’a harobalari o‘rnida bo‘lgan.

Savol va topshiriqlar

1. Chingizxon Xorazmshohlar davlati chegarasida harbiy harakatlar yo‘nalishini qanday taqsimlagan edi?
2. O‘tror qamali uchun Xorazmshohlar davlati qanday mudofaa choralarini ko‘rdilar?
3. O‘tror qamaliga boshchilik qilgan G‘oyirxonning bu qadar qattiq qarshiligi sabab nimada edi?
4. Buxoroning zabt etilishi jarayonini sozlang. Chingizxon nima uchun shaharni yoqib yuborish haqida buyruq bergan edi?
5. Mamlakat dushman hujumiga uchragan bir paytda nima sababdan Xorazmshoh Muhammad Samarqandda qolmasdan tezlik bilan Balxga qochib ketadi?
6. Chingizxon Samarqand qamalini qanday tashkil qilgan? Shahar mudoaasiga kimlar mas’ul edi?
7. Qal’adagi yirik kuchlarning mavjudligiga qaramay, nima uchun Samarqand qamali juda qisqa muddat davom etadi?
8. Mo‘g‘ullar asirlarga qanday munosabatda bo‘lishgan?
9. Qanday omillar sababli mo‘g‘ul lashkari yurtimizning yirik shaharlarini bu qadar oson va tez egallay olishdi?
10. Sig‘noq aholisining qatl etilishi voqeasiga o‘z munosabatingizni bildiring. Jandda ham Sig‘noqdagi kabi voqea bo‘ldimi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdirimov B. Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha. – T.: Sharq ma'rifati. 2021.

2. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahongusho (Jahon fotihi tarixi). / Turk tilidan Nazarbek Rahim tarjimasi. – T.: Mumtoz so'z, 2015.

3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

4. Buniyodov Z. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar: Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – T.: Mumtoz so'z, 2012.

5. Bo'riyev O.B., N.T.Toshev. Jaloliddin Manguberdi. – T., 1999.

6. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur: harbiy san'ati, strategiya va taktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2017.

7. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san'ati. – T.: «O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi» DIN, 2018.

8. O'zbekistonda elchilik xizmati tarixidan lavhalar. Mas'ul muh.: Otaxo'jayev A., Xidirova N. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.

9. Shihobiddin Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati. – T.: O'zbekiston, 1999.

10. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. – Т.: Узбекистан, 2006.

11. Фазлуллах Рашид-ад-дин. Джами ат-таварих. – Баку: Нагыл Ева, 2011.

22-MAVZU. VATAN MUDOFAASI YO‘LIDA KURASH

REJA:



22.1. Urganch mudofaasi va Najmiddin Kubro.
22.2. Temur Malik jasorati.
22.3. Chingizxon tomonidan Xurosonning egallanishi.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Urganch, Turkon Xotun, mo‘g‘ullar, vakil, mudofaa, qamal, Ilol qal’asi, Najmiddin Kubro, shahid, shayx, Chingizxon, Amudaryo, Xorazm, Xuroson, oziq-ovqat zaxirasi, qurol-yarog‘, shahar devori va darvozasi, Xumortegin, Jo‘chi, O‘qtoy, hiyla, Temur Malik, Xo‘jand, qal’a, Sirdaryo, orol, qayiq, kamon, Aloq no‘yon, Sukatu cherbiy, Binokat, namat, sirka, manjaniq, asirlar, safarbar, qahramonlik, Nishopur, Marv va Hirot, Sultonband, Tog‘achor.

22.1. URGANCH MUDOFAASI VA NAJMIDDIN KUBRO

Movarounnahr hududlari birin-ketin mo‘g‘ullar qo‘l ostiga o‘tgach, Chingizxon poytaxtda turgan Turkon Xotun huzuriga o‘z vakili Donishmand hojibni yubordi. Vakil olib kelgan nomada Chingizxon xuddiki o‘zini Turkon Xotun manfaatlari himoyachisi deb hisoblab, unga bo‘ysunishini talab qildi. Evaziga esa Turkon Xotunga Xorazm, Xuroson, Amudaryoning janub tarafidagi yerlar taqdim etilishini bildirdi.

Gurganj mustahkam mudofaa devoriga ega, hatto 1204-yili G'uriylar sultoni Shahobiddin G'uriyning qamaliga ham dosh bergan, poytaxt ahli o'z jasorati va harbiy tayyorgarligi bilan ham ajralib turar edi. Donishmand hojib «malikai olam» Turkon Xotunga uning o'g'li sulton Muhammad allaqachon qochib ketganligi, davlatning qator hududlari allaqachon mo'g'ullar qo'liga o'tganligini ta'kidladi.

Bilib oling!

Tabiiyki, bu xabarlar Turkon Xotun matonati-yu jasoratini bukib tashladi. U barcha qimmatbaho ashyolarni yig'ib, poytaxtni tezlik bilan tark etishga kirishdi. Poytaxtdan chiqib ketish chog'ida u yana bir yovuzlikka qo'l urdi. Malika garovda saqlangan, bir vaqtlar asirga olingan turli o'lka, shahar, hududlar hokimlari, ularning o'g'illari, jami 26 nafar kishini Amudaryoga cho'ktirishni buyurdi. Chunki, ular Xorazmshohlar davlatining dushmanlariga aylangan bo'lib, Chingizxon qo'liga tushgach, xon ulardan xorazmshohlarga qarshi yaxshigina qurol sifatida ishlatishi mumkin edi. Shu jihatdan, ko'pgina muarrixlar Turkon Xotunning ketish chog'ida qilgan bunday ishni g'alamislik deb baholaydi va ko'pchilikning undan yanada ko'ngli sovushiga olib kelgan voqea bo'ldi, deb ta'kidlashadi.

Turkon Xotun o'z yaqinlari, jami boyliklari bilan Mozandarondagi Ilol qal'asiga borib berkindi. Qal'a juda mustahkam, oziq-ovqat zaxirasi, qurol-yarog' yetarlicha edi. Mo'g'ullar qal'ani 4 oy qamal qildilar. Qamal azobi va suv tanqisligidan charchagan Turkon Xotun oxir-oqibatda taslim bo'ldi. Mo'g'ullar sultonning yosh o'g'illarini o'ldirdilar, ayollar esa Chingizxonning yaqinlariga bo'lib berildi. Turkon Xotunga Chingizxon ayollariga cho'ri sifatidagi ayanchli hayot nasib etdi. U xor-zorlikda 1233-yili Qoraqurumda vafot etdi.

1221-yilning boshida «sulton» deb e'lon qilingan Jaloliddin o'z inilari Oqshoh, O'zloqshohlar bilan Gurganjga keladi. Lekin Gurganjdagi siyosiy vaziyat, sobiq Jand noibi Qutlug'xonning unga

qarshi suiqasd qilishga urinishi, qipchoq sarkardalarining o‘zlarini xoinona tutishlari Jaloliddinni shahar mudofaasiga bosh bo‘lish fikridan qaytardi. Qipchoqlar uni hokimiyat tepasiga kelishini xohlamas edilar. Bunday vaziyatda mudofaani tashkil etib bo‘lmasligi aniq bo‘lib qolgandi. Ushbu voqealardan so‘ng Jaloliddin Temur Malik bilan birgalikda shaharni tark etib, Xurosonga yo‘l oladi. Uning ortidan esa, tez orada ukalari Oqshoh va O‘zloqshohlar ham yo‘l olishadi.



O‘ziyurar minora (matoris)

Gurganjga Chingizxonning o‘g‘illari – Jo‘chi, Chig‘atoy, O‘qtoy, taniqli mo‘g‘ul sarkardalari Tulun cherbi, Ustun no‘yon, Qozon no‘yon va boshqalar ham o‘z harbiy kuchlari bilan yetib keladilar. Shaharning jasur himoyachilari mudofaaga qat’iy tayyorgarlik ko‘rib, jonajon shaharlarini mo‘g‘ullarga berishdan qat’iy ravishda bosh tortadilar. Poytaxt atrofini 100.000 dan ziyod mo‘g‘ullar qo‘shini o‘rab olib, shahar devorlarini buzish uchun manjaniqlar o‘rnatdilar. Mo‘g‘ullar shaharni katta kuch bilan zabt etishga kirishdilar. Afsuski, yangi «sulton» (Xumortegin) shahar mudofaasiga bosh bo‘la olmadi. Holbuki, shaharda 90 ming kishilik qo‘shin ham bor edi.

Bilib oling!

Nasaviyning yozishicha, mo‘g‘ullar qamalga tayyorlanish uchun manjaniqlar, «toshbaqalar» (matoris), qamal mashinalari (dabbobat) tayyorlay boshlashgan. Ular Xorazm va uning viloyatlarida manjaniqlar uchun toshlar yo‘qligini bilgach, bu yerda ko‘plab katta tut daraxtlari borligini ko‘rganlar. Ular tutdan arralagan g‘o‘lalar og‘ir va toshdek qattiq bo‘lgan. Mo‘g‘ullar ulardan manjaniq uchun tosh o‘rnida foydalanganlar.

Oradan bir oz vaqt o'tgach, Movarounnahrdan Jo'chixon o'z qo'shini bilan keladi. U Xorazm ahliga taslim bo'lsa omonlik berishni va'da qiladi, chunki, Xorazm bosib olingach Chingizxon tomonidan unga berilishi kerak edi. Shuning uchun u shaharni vayron qilishni istamasdi. Biroq xorazmliklar qaysarlik qilib ona shahrini mo'g'ullarga berishga ko'nmaganlar. Xorazm poytaxti Urganch qamali, Ibn al-Asir va Ibn Xaldunlarning ta'kidlashicha, besh oy, Rashididdinning yozishicha, yetti oydan oshiq davom etgan. Chingizxon qamal ishlariga O'qtoyni bosh qilib tayinlaydi. Garchi Xorazmda ko'plab qo'shin bor bo'lsa-da, shahar mudofaasiga boshchilik qiladigan kishi bo'lmagan.

Bilib oling!

Manbalarda aytilishicha, «u yerni Turkon Xotun qarindoshlari va qo'shinning eng ko'zga ko'ringan mashhurlaridan Xumortegin idora qilayotgan edi. Mo'g'ul amirlaridan Mo'g'ul hojib, Erbuqa pahlavon, Ali Durugoniy (*Nasaviy uning laqabini «yolg'onlar tog'i» bo'lganligini, juda yo'lg'onchi va janjalkash odam bo'lganligini yozadi*) va yana ko'pchilik o'sha yerga borib yashiringandilar. Boshqa joylardan kelgan boy savdogar va olimlar ham o'sha yerda edilar. U yerda yashayotganlar soni qum va mayda toshlar sonichalik edi. Lekin o'sha odamlari ko'p bo'lgan shaharda xalqni boshqarib turadigan va urush holatida askarlar oldiga tushib, shaharni mudofaa qila oladigan muayyan boshqaruvchi yoki qo'mondon yo'q edi. Xalq hukmdor xonadoniga yaqinligi tufayli Xumorni bir ovozdan boshqaruvchi qilib saylab, unga sulton sifatini berdilar».

Xumortegin layoqatsiz, o'z fikriga ega bo'lmagan, qo'rqoq shaxs edi. Shu sababli mudofaa ishlari yetarlicha yaxshi tashkil etilmadi. Mo'g'ullar qamal paytida harbiy hiyla ishlatib, shahar darvozasiga bir qancha chorvalarni haydab keladi. Buni ko'rgan bir qator Urganch mudofaachilari chorva himoyasiz degan fikrda shahardan tashqariga

chiqib suruv ortidan tushadilar. Mo‘g‘ullar ularning shahar tashqarisidagi «Bog‘i Xurram»ga qadar kelishlarini ta’minlashadi. Bu yerda pistirmada turgan mo‘g‘ul otliqlari ularni qurshab olib qirib tashlaydi. Mudofaachilarning shahar tashqarisiga chiqib jang qilishga urunishi besamar ketadi. Mo‘g‘ul qo‘shini ularni shahar ichkarisiga ta’qib qilib, shaharga qadar kirib borishadi. Mo‘g‘ullar shaharga Qobilon darvozasi orqali bostirib kiradilar, lekin bu hujum Tonur mavzesi yaqinida to‘xtatilgan. Mo‘g‘ullarning ikkinchi hujumi ham bartaraf etilgan. Bu gal Faridun G‘uriy boshchiligidagi jangchilar jasorat ko‘rsatganlar. U o‘zining 500 kishilik harbiy otryadi bilan mardonavor tarzda shahar devorlari va darvozalari himoyasiga bosh bo‘ldi. Ushbu hujumlar bartaraf etilgach, ma’lum vaqt davomida mo‘g‘ullar hujumni to‘xtatib, shaharga taslim bo‘lish evaziga jon omonligi va’dasi bilan elchilar yuboradi. Aslini olganda bu elchilikdan maqsad vaqtdan yutish bo‘lib, bu orada Jand va Movarounnahrning boshqa hududlaridan yordamchi kuchlar yetib kelishi lozim edi. Yangi kuchlar ko‘magida mo‘g‘ul lashkari eski yo‘qotishlarni qoplab olar edi.

Bilib oling!

Shahar atrofida qamal inshootlari qayta tiklanadi. Ammo, shaharga uyushtirilgan keyingi hujumlar ham mudofaachilarning qattiq qarshiligiga uchraydi. Shahar mudofaasi uchun hal qiluvchi shunday bir pallada sarosimaga tushgan Xumortegin qarshilik ko‘rsatish befoyda ekanligini ko‘rgach, mo‘g‘ullarga taslim bo‘lgan. Shunga qaramay, shahar aholisi qarshilikni to‘xtatmaydi. So‘ngra mo‘g‘ullar asirlar ko‘magida xandaqlarni to‘latib, Amudaryodagi to‘g‘onni portlatmoqchi bo‘lgan, lekin uch ming kishilik mo‘g‘ul qo‘shini shahar mudofaachilari tomonidan qirib tashlangan. Shundan so‘ng, O‘qtoy shaharga chor atrofdan hujum qilishga buyruq bergan va mo‘g‘ullar yetti kun mobaynida shahar mudofaachilari bilan ko‘cha janglari olib borishgan, egallangan har bir uyni, imoratni vayron qilib, neft bilan yoqib yuborishgan, tirik qolganlarni borgan sari jipsroq qurshovga ola boshlashgan.

Shahardagi janglarda xorazmlik mashhur alloma, faylasuf va olim, «Kubroviya» tariqatining asoschisi Ahmad ibn Umar Abul Janob Najmiddin al-Kubro al-Xivaqiy (1145-1221) ham faol qatnashdi (uning taxallusi «dinning ulug' yulduzi» ma'nosini beradi). O'ziga «yo Vatan, yo sharofatli o'lim» degan g'oyani shior qilib olgan bu 76 yoshdagi buyuk shayx mo'g'ullarning taslim bo'lish haqidagi takliflarini rad etib, o'zining ko'plab shogird, do'stu-yor, muxlisu-safdoshlari bilan shahar ichki mudofaasida ishtirok etadi.

Chingizxon Xorazmga bostirib kirgan vaqt, shayx Urganchda edi. Najmiddin Kubro nomi qadimgi Xorazm chegaralaridan tashqarida ham ma'lum bo'lgan davr edi. Chingizxon uning juda yaxshi inson ekanligini allaqachon eshitgan edi. Chingizxon shayx va uning oilasiga shaharni tark etishni taklif qiladi. Biroq Kubro qat'iy rad javobini berdi: «Men bu shaharda ko'p yillar mobaynida yashayman va har bir jon men uchun aziz. Ushbu og'ir kunlarda men ularni tark eta olmayman». Shundan keyin mo'g'ullar shaharga hujum qilishga qaror qiladi.



Najmiddin Kubro dushman bilan jangga kirishdan oldin do‘stlari va ustozlarini shaharni tark etishni so‘raydi. Kubro o‘zining fidoyi shogirdlari – quroldoshlari bilan mo‘g‘ul qo‘shinini oxirigacha qaytarishga harakat qiladi. Ulug‘ shayxga shaharni tark etishni so‘raganlarga javoban shayx «Men shu yerda shahid bo‘laman, menga Xorazmni tark etishga ruxsat yo‘q» deya javob beradi. Jang mobaynida ikki marta yaralangan. Birinchi jarohatdan keyin shayx chopon kiyib, yara izlarini yashirishga urinadi. Ikkinchi jarohatdan so‘ng Kubro o‘qni o‘z qo‘li bilan ko‘ksidan chiqarib, osmonga uchirdi va Alloh taologa xitob qildi: «Agar menga yaxshilik qilsang, meni do‘stdek bilishni istasang, rahmating menga yetadi. Lekin najot so‘rab senga murojaat qilsam, mening erkaklik nomusim qayerda qoladi?!» deya aytgan gaplari og‘izdan-og‘izga o‘tib yurgan. Uning jangovar chaqirig‘iga muvofiq har bir qarich yerni shaharliklar qahramonona tarzda, bir tomchi qonlari qolguncha himoya qiladilar. Najmiddin Kubro mardona jang qilib, o‘lim oldidan mo‘g‘ul navkariga tashlandi, uni avval halok qilib, so‘ngra o‘zi ham halok bo‘ldi.

Bilib oling!

Shaharda egallanmagan uchta mahalla qolganda mo‘g‘ullar huzuriga omonlik tilab muhtasib Aliaddin al-Hayyotiy yo‘l olgan, biroq u Jo‘chiga hech qanday ta’sir ko‘rsata olmagan. Natijada shahar aholisining ko‘p qismi qatl etilgan. Juvayniy va Rashididdinlarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, 100 ming hunarmand qo‘lga olingan. Har bir mo‘g‘ul jangchisi qo‘liga 24 tadan asir tushgan, jangchilar soni esa 50 mingdan oshiq bo‘lgan.

Aholidan o‘ch olib bo‘lingach, mo‘g‘ullar shaharni rejali ravishda vayron qilishga o‘tgan. Ular Amudaryodagi to‘g‘onni buzib, shaharni suvga bostirganlar. Noyob madaniy yodgorliklar, kutubxonalar vayron qilingan. Urganch mudofaasidan so‘ng mo‘g‘ullar harbiy harakatlarni Xurosonga ko‘chirganlar.


22.2. TEMUR MALIK JASORATI

1220-yil bahorida Aloq no‘yon va Sukatu cherbiy boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Sirdaryoning yuqori oqimida joylashgan Fanokat (Banokat) shahriga yaqinlashadi. Fanokat hukmdori Malik Ingu bo‘lib, u mo‘g‘ullarga 3 kun davomida qarshilik ko‘rsatishni uddalay oladi, xolos. Mo‘g‘ullar Fanokat aholisini shahardan tashqariga chiqarib, tabib, san’atkorlar va yoshlarini ajratib oladi. Aholining bir qismi mo‘g‘ullar tomonidan qatl qilinadi. Shundan so‘ng Aloq no‘yon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Xo‘jand shahriga qarab yurishadi. Bu yerda ular Xo‘jand hokimi Temur Malikning qattiq qarshiligiga duch kelishadi.

Bilib oling!

Temur Malikning harbiy jasoratlari haqida tarixiy manbalarda «Agarda Pahlavon Rustam Xo‘jandning bu amiri davrida yashaganida edi, u Temur Malikka otboqar bo‘la olar edi xolos», deb ta’rif berilgan. Temur Malik asli turkiy qo‘mondonlardan bo‘lib, xorazmshohlar davlatida mohir sarkarda sifatida nom chiqargan, sulton va uning oilasiga tanish bo‘lgan shaxs edi. U Xo‘jand qal’asining tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda mudofaa ishlarini olib boradi. Xo‘jand qal’asi Sirdaryoning ikkiga ajralgan joyida qurilgan bo‘lib, atrofidagi tik jarliklar va daryo tabiiy mudofaa vazifasini bajarar edi. Shu bilan birga, qal’aga manjaniq otgan tosh yetib bormas, atrofi jar bo‘lgan qal’ani qamal qilish mushkul ish edi.

Manbalarda keltirilishicha, Aloq no‘yon Xo‘jand qamali uchun 20 ming nafar qo‘shinni safarbar qiladi. Dastlab Xo‘jand atrofidagi qishloqlardan, so‘ngra boshqa zabt etilgan hududlardan kelgan 50 mingga yaqin aholi qamal uchun safarbar qilinadi. Qamalga safarbar qilingan aholi ham harbiy birlik kabi kichik guruhlarga bo‘linib, har 18 kishiga 1 ta mo‘g‘ul askari boshchilik qiladi. Ular shahardan 3 farsax



masofadagi tog‘dan tosh keltirib, daryo o‘zaniga tashlashadi. Maqsad, daryo suvi sathini ko‘tarib, qal’ani suvga bostirish yo‘li bilan mudofaachilarga ziyon yetkazish edi.

Temur Malikning buyrug‘iga ko‘ra 12 ta qayiq yasatilib, ularning ichiga yondirilgan kamon o‘qi otmasligi, yonib ketmasligi uchun bu qayiqlarning usti namat bilan qoplanib, sirka shimdirilgan loy bilan suvab chiqiladi. Qayiqlarning ustida o‘q otish uchun mo‘ljallangan maxsus shinaklar bo‘lib, ular 6 tadan Sirdaryoning ikki tarafidan suzib mo‘g‘ul qo‘shinlariga tinimsiz o‘q yog‘dirib hujumlar uyushtiradi. Ammo Xo‘jand qal’asi zaxiralari uzoq muddatli qamalga dosh bera olmasdi. Juvayniyning yozishicha, zaxiralar tugay boshlagach, Temur Malik bu yerda turib qolish maqsadga muvofiq emasligini tushunib, qochish uchun tayyorlab qo‘yilgan 70 ta kemaga kechasi yuklarni ortib, jangchilarni joylashtiradi, o‘zi esa bir necha bahodir yigitlari bilan barkasga o‘tiradi. So‘ngra mash’ala yoqib, suvda yashin misoli suzib ketadi. Mo‘g‘ul qo‘shini bundan boxabar bo‘lishi bilan daryoning har ikki qirg‘og‘i bo‘ylab uni ta’qib etib yura boshlaydi.

Temur Malik qayerda mo‘g‘ullar to‘dasini ko‘rsa, zudlik bilan shu tomonga barkaslarni haydab, ularning ustiga o‘q yomg‘iri yog‘dirib ularni to‘zg‘itib yuborar edi. U kemani misli shamoldek haydab Banokatga yetib boradi. Bu yerda u kemalarga to‘siq bo‘lishi uchun

daryoga tortilgan zanjirni bir zarba bilan uzib o'tib, yo'lida davom etadi. U to Jand va Barchinlig'kentga yetgunga qadar mo'g'ullar bilan beto'xtov jang qilib keladi. Jo'chixon Temur Malikning Urganch tomon harakatlanayotganidan xabar topgach, lashkarini Sirdaryoning har ikki qirg'og'i bo'ylab joylashtiradi. Ponton ko'prik yasab, unga manjaniqlarni o'rnatadi, qo'ndoqli kamonlarni ishga soladi.

Temur Malik mo'g'ullar qo'ygan tuzoqdan xabar topgach, Barchinlig'kent yonida qirg'oqqa chiqib o'z lashkari bilan yo'lida davom etadi, mo'g'ullar esa uni ta'qib etadi. Temur Malik ug'ruqni (zaxira, oziq-ovqat ombori, xotin-qizlar, bolalar lageri) oldinga jo'natib o'zi orqada qolib to ug'ruq uzoqqa ketguncha jang qiladi, so'ng yana ularning orqasidan yo'l oladi.

Bilib oling!


Bir necha kun mobaynida u shu tarzda kurashdi, uning ko'plab jangchilari halok bo'ldi, mo'g'ul qo'shini esa borgan sari ko'payib boradi. Oxir-oqibatda mo'g'ullar undan ug'ruqni tortib olishadi, u bir necha kishisi bilan qoladi. Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma muqaddimasi»da yozilishicha, Temur Malik kurashni sabot-matonat bilan davom ettirgach, unda bor-yo'g'i uchta kamon o'qi qoladi: ularning ham bittasi singan va paykonsiz edi. U paykonsiz o'q bilan uni ta'qib qilib kelayotgan uch mo'g'uldan birining ko'zini ko'r qiladi, qolganlariga esa: «ikkingiz uchun ikki o'q qoldi. O'qlarimga achinaman. Yaxshisi orqalaringizga qaytib hayotingizni saqlab qoling», deb murojat qiladi.

Mo'g'ullar orqaga qaytadilar, u esa Xorazmga yetib borib yana jangga hozirlik ko'ra boshlaydi. U Yangikentga oz sonli lashkari bilan yurish qilib, u yerdagi mo'g'ul shixnasini (hokimini) o'ldirib, orqaga qaytgan. Shundan so'ng u sulton Jaloliddin orqasidan Shahristonga (boshqacha aytganda, Jurjon – qadimgi Girkaniya, Kaspiy dengizining janubi-sharqiy qismidagi viloyat va shahar) yo'l olgan va unga qo'shilgan.

Ma'lum muddat oralig'ida sulton bilan o'zini o'qqa cho'qqa urib, jasorat, bahodirlik sifatlarini namoyish etadi. Sulton halok bo'lgach, so'fiylar (ahli tasavvuf) kiyimida (jandasida) Shomga (Suriya) yo'l olgan. Oradan ancha vaqt o'tgach, vatanga bo'lgan muhabbati tufayli yurtiga qaytgan. Bir necha yil uy-joyi, farzandlari haqida ma'lumot to'plab Farg'ona hududidagi O'sh shahri (qasaba) da yashagan.

Bilib oling!

«Kunlardan bir kuni u Xo'jandga yo'l oladi. U yerda Botuxon huzuridan qaytib kelgan o'g'lini ko'radi. Unga otasidan qolgan yer-mulk in'om etilgan edi. U o'g'lining yoniga kelib: «Agarda otangni ko'rsang tanirmiding?» deydi. U bunday javob qiladi: «Otam ketgan chog'da men gudak edim, men uni taniy olmayman, ammo uni taniydigan bir g'ulomim bor». U g'ulomni chaqiradi. Temur Malik unga tanasidagi belgi-alomatlarni aytadi. G'ulom ko'rib uning shaxsini tasdiqlaydi. Temur Malikning hayotligi haqidagi ovoza tarqaladi. Odamlar mo'g'ullar qo'lida garov tariqasida ushlab turilgan kishilar ko'pligi tufayli uni tan olmasdan rad qiladilar. Shu sabab dan u mo'g'ullar qo'lida xizmat qilish uchun qoon xuzuriga yo'l olishga jazm qiladi. Yo'lda u Kadakon o'g'ulga duch keladi, u uning qo'l oyog'ini bog'lashni buyuradi va undan o'tmishda mo'g'ullar bilan qilgan janglari tafsilotini so'rab bilishga harakat qila boshlaydi. Temur Malik shahzodaga o'ta qo'rs javob beradi. Shu payt shahzoda askarlari orasida bo'lgan, bir paytlar Temur Malik tomonidan ko'zi ko'r qilingan mo'g'ul askari uni taniydi. Shundan so'ng Temur Malik shahzoda buyrug'iga ko'ra o'ldiriladi».



Juvayniyning «Tarixi Jahongusho» asaridan

22.3. CHINGIZXON TOMONIDAN XUROSONNING EGALLANISHI

Gurganj qamali bilan bir vaqtda Chingizxon 1221-yilning bahorida o‘zining e’tiborini Amudaryodan janubdagi yirik savdo yo‘llari ustida joylashgan boy madaniy markazlar bo‘lmish Balx, Hirot, G‘azna, Qandahor, Nishopur va boshqalarga ham qaratdi. Chingizxon shaxsan Balx yurishiga boshchilik qilib, shaharni zabt etdi. Balx aholisini esa qirib tashladi.

Bilib oling!

«Chingizxon Termiz kechuvidan o‘tib Balxga yo‘nalgach, balxliklar uni kutib olishga chiqib, unga tobeliklarini ma’lum qildilar va qimmatbaho gazlamalar hadya qildilar. Sulton Jaloliddin o‘sha o‘lkada isyon bilan mashg‘ul bo‘layotganligi va uning o‘sha yerlarda ko‘p sonli tarafdorlari borligini bilgan Chingizxon itoat qilish haqidagi gaplarga ishonmadi. Jang qilmasdan shaharni taslim qilgan Chingizxon kattayu kichik, erkagu ayol butun balxliklarni shahar tashqarisidagi bo‘sh maydonga chiqishlarini buyurdi. Odatdagidek, asirlarni o‘ntalik va yuztalik guruhlarga ajratib, ularni qilichdan o‘tkazdilar. Uzoq muddat vaxshiy hayvonlar odamlarning jasadlari bilan bayram qildilar. Shoqollar, bo‘rilar bilan kalxatlar janjallashmasdan o‘sha yemishlarni birga baham ko‘rdilar. O‘z ishlarini tugatgandan keyin qal’a devorlarini yer bilan yakson qilib, uylar va saroylarga o‘t qo‘ydilar».

Juvayniyning «Tarixi Jahongusho» asaridan.

Ba’zi bir janublik xorazmshoh noiblari, jumladan, Amin al-mulk ham xiyonatkorona ravishda mo‘g‘ullar tomoniga o‘tib ketdilar. Balxni egallagan Chingizxon o‘zi Taliqonga qarab harakat qiladi, o‘g‘li Tuluni katta qo‘shin bilan Xurosonning yirik shaharlarini zabt etish uchun yuboradi.

Xurosonda mo‘g‘ullar yo‘lidagi birinchi shahar Niso bo‘lgan. Mo‘g‘ullar 20 ta toshotar zambarak (manjanik) o‘rnatib, 15 kun davomida shaharni to‘xtovsiz tarzda qamal qildilar. Shahar qo‘lga kiritilgach, uning aholisini tashqariga haydab chiqarib, 70 ming kishini o‘ldirdilar. Bu xususda nisolik muarrix Nasaviy afsus-nadomat bilan «ular bilan yirtqich hayvonlarni va osmondagi qushlarni to‘yg‘azdilar. Qanchadan-qancha qonlar to‘kildi, ayollar zo‘rlandi, qanchadan-qancha bolalar onalarning yonida o‘ldirildi. Bu esa Xuroson viloyatlaridan faqat birginasi edi!», deb yozgan edi. Nisoda Xorazmshohlar davlatining taniqli namoyandalaridan biri bo‘lmish Shahobiddin Xivaqiy ham o‘ldirildi. Yo‘l-yo‘lakay mo‘g‘ullar duch kelgan mahalliy aholi vakillarini qilichdan o‘tkazib bordilar. 1221-yilning fevralida Xurosonning ko‘zga ko‘ringan shahri Marv aholisi boshiga ham shu kun tushdi.

Bilib oling!

Bu paytda Mozandaronda, Sulton Muhammad Xorazmshohdan ajralib chiqqan, sultonning vazirlaridan biri Muxbir ul-mulk Marvga kelib, bu yerning hokimi bo‘lgan edi. Bu paytda 7000 atrofidagi mo‘g‘ul qo‘shini Tus va Obivardni egallagan edi. Ular tomonidan Marvga yuborilgan mo‘g‘ul elchisi o‘ldiriladi. So‘ngra Muxbir ul-mulk mo‘g‘ullarga jangsiz taslim bo‘lgan Saraxsga, shaharni qaytarib olish uchun 2500 kishidan iborat qo‘shin yuboradi. Ular Saraxs hokimi bo‘lib turgan, shaharni dushmanga jangsiz topshirgan Shamsiddinni o‘ldirishadi. Shamsiddin o‘rniga Saraxsga Abu Bakr Devona hokim etib tayinlanadi.

Shuningdek, bu paytda Marvga Amuyadan qochib kelgan Ixtiyoruddin va Urganchdan kelgan Shayxxon, Mo‘g‘ul hojib kabi o‘g‘uz turkmanlaridan bo‘lgan lashkarboshilar boshchiligidagi 12 minglik qo‘shin ham kelib to‘planadi. Ular dastlab Marv yaqinida 800 nafar jangchidan iborat mo‘g‘ul bo‘linmasini qirib tashlaydi va Dastjird qal’asiga joylashadi. Marv himoyasi uchun muhim bir vaziyat yuzaga

kelgan bir davrda harbiy hojiblar va Muxbir ul-mulk o‘rtasida yakdillik bilan harakat olib borilmadi. Dastjirdda joylashib olgan Ixtiyoruddin bu yerdagi qo‘shin yordami bilan Muxbir ul-mulkdan Marvni tortib olishga harakat qiladi. Ammo uning Marvga uyushtirgan yurishi samarasiz tugaydi. Bu orada Marvga 70 ming atrofidagi qo‘shin bilan yetib kelgan Tulu vaziyatni tubdan o‘rganib chiqadi va pistirmadan kutilmagan hujum uyushtirgan holda 12 ming o‘g‘uz turkman lashkarlarini osonlikcha mag‘lub etadi. Shundan so‘ng, mo‘g‘ul qo‘shini Marv atrofida yashovchi yetmish mingdan ortiq turkman hazoralariga hujum qilib, ularning ko‘pini o‘ldiradi. Bir guruh turkmanlar o‘zlarini Marvarrud daryosiga tashlab g‘arq bo‘ladi. Qo‘y va chorvadan to‘planganlari mo‘g‘ullar qo‘liga tushdi.

Shundan so‘ng Tulixon o‘z qo‘shini bilan Marvga yuradi. Dastlabki hujumni 500 nafar otliq bilan Tuluning shaxsan o‘zi boshlab beradi. Ilk hujum Marvning Feruziy darvozasiga uyushtirildi. Dastlabki kichik hujumdan so‘ng mo‘g‘ul qo‘shini shahar atrofiga o‘rnashib, qal’a devorlari, burj-boru, xandaq va darvozani kuzatib o‘rgana boshlaydilar. Shu tariqa Marv shahri olti kun davomida qamal qilinadi. Muxbir ul-mulk shahar mudofaasiga boshchilik qiladi. Qamalning yettinchi kuni Shahriston darvozasi qarshisida yirik janglar bo‘lib o‘tadi. Mudofaachilardan ikki yuzga yaqin jangchi darvozadan chiqib, mo‘g‘ul qo‘shiniga hamla qildi. Ammo mo‘g‘ul lashkari ularni shahar ichiga qochib kirishga majbur etdilar.

Bilib oling!

Qamalning sakkizinchi kuniga kelib, Muxbir ul-mulk taslim bo‘lishdan boshqa chora topa olmadi. Marv imomlaridan Imom Jamoliddinni tashqariga chiqarib, joniga omon tiladi. Marv 1221-yil fevralida taslim qilindi. Tulu shahardagi mulkdor boylar va olimlar haqida batafsil so‘zlab berishni so‘radi. Muxbir ul-mulk Tuluga ikki yuz kishi ro‘yxatini beradi. Shundan so‘ng aholi to‘rt kun davomida shahar tashqarisiga haydab chiqiladi. Shahar devorlari buzib tashlanib, Marvning bosh to‘g‘oni Sultonband ham buzib yuboriladi va Marv shahri suvsiz qoladi.

Shahar egallangach, bu yerga Amir Ziyovuddin noib etib tayinlanadi. Ziyovuddin bir muddat oldin Saraxsda hokim bo'lib olgan Abu Bakr devonaga qarshi yurish qilib uni yengadi. Bu orada marvliklar mo'g'ullarga qarshi isyon ko'taradi. Ziyovuddin marvliklar isyonini bostirib ulgurmay, Sultonning harbiy boshliqlaridan bo'lgan Kuchtegin Marvga yurish qilib uni egallaydi. Ziyovuddinning Marvni qaytarib olishga urinishi muvaffaqqiyatsiz tugaydi. Ammo oradan kop o'tmay, To'rboy va Oqmalik boshchiligidagi 5 ming kishilik mo'g'ul lashkari Marvni qayta zabt etadi. Ular Marvdagi ko'plab masjid va madrasalarni vayron qiladi. Keyinchalik, O'g'uz Arslon tomonidan uyushtirilgan isyon ham ayovsizlarcha bostiriladi. Marv shahri to'la vayrona holga tushib qoladi.

Bilib oling!

Mo'g'ullar bosqini tufayli Marv shahri bir necha marotaba talon-taroj qilindi. Oxir-oqibatda shaharda biron-bir kimsa ham qolmadi. Holbuki, shahar musulmon olamida o'z madrasalari va kutubxonalari, olimu-ulamolari bilan mashhur bo'lib, o'z vaqtida «Marvi shohi jahon» nomini olgan shahar o'rnida kultepalar qoladi, xolos.

Marvdan so'ng Tulu boshchiligidagi mo'g'ul qo'shini Xurosonning yirik markazlaridan bo'lgan Nishopurga yurish qiladi. Shaharga dastlab 10 ming atrofidagi ilg'or qismlar bilan Tuludan ilgari yetib kelgan Chingizxonning kuyovi Tog'ochor hujum uyushtiradi. Shahar aholisi ayrim hujumlar bilan mo'g'ullarga juda katta zarar yetkazdilar. Jumladan, mudofaa chog'ida Tog'achor o'ldiriladi. Nishopur aholisi mo'g'ul hujumi oldidan kuchli mudofaaga tayyorlanadilar, istehkomlarni mustahkamlaydilar, qurollarni hozirlab, devorlar ustiga garnizonlar joylashtiriladi. Ammo mo'g'ullar ko'rgan tayyorgarlik ham ularnikidan yomon emas edi. Nishopurga qarashli hamma viloyatlarni oldindan yakson qilgan mo'g'ullar, qamal uchun 3000 ballist, 300 manjaniq, yonayotgan neft quyilgan xumlarni

uloqtiruvchi 700 ta qurilma, qamal qilish uchun mo'ljallangan 4000 ta narvon, 2500 qop tosh tayyorlab qo'ydilar. Qamal 1221-yil 7-aprelda boshlanadi. Garchi shahar aholisi taslim bo'lishni aytib, qozi Ruknіddin Mug'usiyni yuborsalarda, Tulu Tog'achor o'limi sabab, elchilikka befarq qaraydi. 9-aprel sanasiga kelib shahar xandaqlari tosh bilan to'ldirildi. Mo'g'ul qo'shini keyingi kuni devorda 70 ta raxna ochishga erishib, 10 000 kishilik mo'g'ullar shahar ichiga yopiriladi. Ko'chalarda jang olib borgan aholi jangga dosh berolmay keyingi kun shaharni qo'ldan beradilar. Mo'g'ullar tomonidan Marv aholisi qatliom qilinib, qirg'in to'rt kun davom etdi. Manbalarda aytilishicha, Chingizxonning qizi, Tog'achorning bevasi 10000 mo'g'ul jangchisi bilan o'zi shaharga kirib, duch kelgan odamni o'ldirishni buyurdi.

Bilib oling!

Tog'achorning qasdini olish uchun shaharning dehqonchilik qiladigan holga keltirilishi va it, mushuk hamda boshqa bironta tirik jonzot sog' qolmasligiga buyruq berildi. Chingizxonning qizi bo'lgan Tog'achorning xotini qo'shini bilan kelib tirik qolganlar hayotiga nuqta qo'ydi...Nishopur butunlay yiqildi, uylar yer bilan bir bo'ldi. Yuksaklik jihatidan osmon bilan o'lchana oladigan saroylar yuzlarini tuproqqa qo'yib, o'zlarining itoatkorligini ko'rsatdilar. Ma'muriy binolar o'rinlarida tosh-tuproq yig'imlari va singan uyumlar qoldi».

Juvayniyning «Tarixi jahongusho» asaridan.

Shu tariqa, mo'g'ullar hujumi sababli Xurosonning eng yirik gullagan shaharlari xarobaga aylanadi.

Atamalar izohi

☑ ***Niso*** *(Nasa)* – Ashxoboddan 18 km shimoliy-g'arbda joylashgan. Niso ikkita tepalik (Yangi Niso, maydoni 18 ga va Eski Niso, maydoni 14 ga)dan iborat. O'rta asrlarda Niso Xurosonning muhim markazi bo'lgan. Shihobiddin Nasaviy ham nisolik bo'lgan.

☑ ***Taliqon*** *(Toliqon)* – o‘rta asrlarda Shimoliy Afg‘onistondagi qadimgi shahar va viloyat. Taliqon o‘rta asrlarda To‘xaristonning poytaxti bo‘lsa-da, Balxdan 3 marta kichik edi. Qaliqon Qunduzdan sharqda, Qunduzdaryo irmog‘i Taliqon daryosi bo‘yida joylashgan. Taliqon mustahkam istehkomli, savdo yo‘llari kesishgan yerda joylashgani uchun obod va boy shahar hisoblangan. O‘rta asrlarda uni, shuningdek, «Xuroson Taliqoni» deb ham atashgan, chunki ayni vaqtda bu nomdagi yana 2 shahar Qazvin va Ray viloyatlarida ham bo‘lgan.

Savol va topshiriqlar

1. Urganch mudofaasiga Jaloliddin boshchilik qilmaganligi sababi nima edi?
2. Nima sababdan Urganch qamaliga Jo‘chi emas, O‘qtoy bosh qilib tayinlangan edi?
3. Urganch mudofaasi jarayonida mo‘g‘ullarga ustunlik bergan omillarni sanang.
4. Nima sababdan Chingizxon Najmiddin Kubroni o‘z tomoniga o‘tishga undaydi?
5. Temur Malikning jasorati haqida qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldingiz?
6. Temur Malik shaxsi va xotirasi yurtimizda qay darajada e’tiborga olingan?
7. Niso qamali va uning oqibatlari haqida kichik esse yozing.
8. Marv qamali misolida mo‘g‘ullarning qamal texnikasini tavsiflab bering.
9. Mo‘g‘ullar tomonidan Nishopur shahrining shafqatsiz qirg‘in qilinish sababini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdirimov B. Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha. – T.: Sharq ma’rifati. 2021.
2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O‘qituvchi, 1994.

3. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahongusho (Jahon fotihi tarixi). / Turk tilidan Nazarbek Rahim tarjimasi. – T.: Mumtoz so'z, 2015.

4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

5. Buniyodov Z. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar: Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – T.: Mumtoz so'z, 2012.

6. Bo'riyev O.B., N.T.Toshev. Jaloliddin Manguberdi. – T., 1999.

7. Masharipov Q. Jaloliddin Manguberdining jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o'rni. T.: Yoshlar media print, 2021.

8. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san'ati. – T.: «O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi» DIN, 2018.

9. Shihobiddin Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati. – T.: O'zbekiston, 1999.

10. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma (Muqaddima). 1-kitob. / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va ilmiy izohlar muallifi O.Bo'riyev. T.: Fan, 2020.

11. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. – Т.: Узбекистан, 2006.

12. Фазлуллах Рашид-ад-дин. Джами ат-таварих. – Баку: Нагыл Ева, 2011.

23-MAVZU. JALOLIDDIN MANGUBERDI VA CHINGIZXON



REJA:

23.1. Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati.

23.2. Jaloliddinning Xurosondagi dastlabki muvaffaqiyatlari. Parvon jangi.

23.3. Sind janggi: Jaloliddin Manguberdi mag'lubiyati sabablari.

Tayanch so'z va tushunchalar

Jaloliddin, Mankburni, Chingizxon, Xorazmshoh, mo'g'ullar, Xorazmshoh o'g'illari – Ruknіddin G'ursanchtiy, Sulton Jaloliddin, G'iyosiddin Pirshoh, O'zloqshoh, Oqshoh, navba, valiahd, sulton, Ashura oroli, G'azna, Valiyon qal'asi, Parvon dashti, A'zam Malik, Muzaffar Malik, Sayfiddin Ig'roq, xalajlar, pistirma, Shiki Xutuxu, otdan tushib piyoda kamondan o'q uzish usuli, Sind janggi, keshik.

23.1. JALOLIDDIN MANGUBERDI SHAXSIYATI

Jaloliddin og'ir bir paytda, Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo'g'ullar tomonidan istilo etilgan, xorazmshohlar qo'shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik, qolgani o'z joni-mulkini asrash yo'liga tushgan, xorazmshoh sulton Muhammad mamlakatni o'z holiga tashlab qo'ygan, o'zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo'ldi.

So‘nggi Xorazmshoh Jaloliddin Mankburni 1198-yili tug‘ilgan bo‘lib, burnida *mank*, ya’ni xoli bo‘lganligi sababli turkiycha *Mankburni* deya nomlangan. Bu nom, keyinchalik, Manguberdi tarzida ommalashib ketgan. U Xorazmshoh Qutbiddin Muhammadning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, manbalarda 1216-yil Irg‘iz bo‘yi jangida, 1217-yili xalifalikka qarshi yurish chog‘ida Xorazmshoh qo‘shinida alohida rol o‘ynagan qo‘mondon shahzoda sifatida eslanadi.

Bilib oling!

Manbalarda aytilishicha, Muhammad Xorazmshohning 6 nafar farzandi bo‘lgan. Qizi Xon Sulton, o‘g‘illari – Sulton Jaloliddin, Rukniddin G‘ursanchtiy, G‘iyosiddin Pirshoh, O‘zloqshoh, Oqshoh.



1217-yil Xorazmshoh Alouddin Muhammad xalifa Nosirga qarshi yurish uyushtirishidan oldin o‘zining o‘g‘illariga boshqaruv mulklari va navbalar bergan edi. Unga ko‘ra, to‘ng‘ich o‘g‘li Mankburniga *Jaloliddin* navbasi va G‘azna, Bomiyon, G‘ur, Bust, Takinobod, Zamin-Davora va Hindiston bilan chegaradosh yerlar mulk etib berilgan edi. Shu bilan birga, unga vazir etib taniqli davlat amaldori Shams al-Mulk Shahobiddin Alp al-Haraviyni, noib (o‘rinbosar) etib esa sarkarda Kuzbar Malikni tayinlaydi.

Shuningdek, Sulton Xorazmshoh Alouddin Muhammad ikkinchi o‘g‘li G‘ursanchtiyga *Rukniddin* laqabini va Iroq boshqaruvini tortiq

qiladi. Xorazmshoh Muhammad G‘ur viloyati bosib olinganligi sharafiga unga «G‘ursanchti» nomini bergan. Manbalarda aytilishicha, u husnixat sohibi bo‘lib, o‘smirlik chog‘idayoq Qur’oni karimni o‘z qo‘li bilan qayta ko‘chirgan. Unga Imomulmulk ibn Shadid as-Saviy vazir etib tayinlanadi. Rukniddinning farmonlari uchun «Islom amirining eng yaqin do‘sti, ulug‘ sulton Muhammadning o‘g‘li, yuksak markabli Sulton Rukn ad-Dunyo va-d-Din Abu-l-Horis G‘ursanchtiy» tug‘rosi yozilar edi. Sultonning boshqa o‘g‘li Pirshohga otasi Kirmon, Kish, Makron hududlarini boshqarishni topshiradi va unga *G‘iyosiddin* laqabini beradi. Tojiddin as-Sharq Nishopuriy G‘iyosiddin Pirshohning vaziri etib tayinlanadi.

Jaloliddin garchi katta o‘g‘il bo‘lsa-da, buvisi Turkon Xotun tomonidan valiahdlikdan chetlatilgan bo‘lib, taxt vorisi etib Turkon Xotun urug‘idan bo‘lmish boshqa bir malikadan tug‘ilgan shahzoda O‘zloqshoh valiahd deb e’lon qilingan edi. Unga Xorazm, Xuroson va Mozandaron boshqaruvini beradi. Garchi Jaloliddin buvisining izmi bilan markazdan chetlatilgan bo‘lsa-da, lekin sulton unga alohida muhabbat bilan qarar, uning jasurligini qadrlar, o‘g‘lini o‘zidan uzoqlashib ketmasligini xohlagan. Shunga ko‘ra, o‘z otasining vafotiga



qadar Jaloliddin uning yo'lida bo'lgan. Xorazmshoh o'limi yaqin qolganini bilgan holda bir paytlar onasi tayziqi bilan valiahd deb e'lon qilgan Qutbiddin O'zloqshohni taxt vorisligidan mahrum qilishini bildirdi. Nasaviyning yozishiga ko'ra, katta o'g'li Jaloliddin, boshqa o'g'illari O'zloqshoh va Oqshohlarni yoniga chorlab, shunday degan ekan: «Hokimiyat iplari uzildi, saltanat asoslari bo'shashdi va buzildi. Bu dushmanning maqsadi ayon bo'ldi: uning changali va tishlari mamlakatga qattiq sanchildi. Men uchun faqat o'g'lim Jaloliddingina qasos ololadi. Endi men uni taxtga valiahd etib tayinlayman».

Xurosondagi ko'pgina sargardonliklardan so'ng sulton Kaspiy dengizining janubidagi Ashuradi (Ashura) oroliga borib o'rnashadi. Uzoq sargardonlik, g'am-alam, saltanat va toju-taxtdan ayrilish sultonning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ham jismoniy, ham ruhiy, ham ma'naviy jihatdan ezilgan sobiq hukmdor bu yerda plevrit kasaliga chalindi. Sulton qilgan gunohlariga iqror bo'lgan holda azob-uqubat bilan ushbu orolda 1220-yilning dekabr oyida vafot etdi. Oradan birmuncha vaqt o'tgandan so'ng, Jaloliddin otasining murdasini tog'li Ardahn qal'asiga olib borib dafn etadi.

Bilib oling!

Sulton Jaloliddin shaxsiyati haqida uning kotib al-insho, ya'ni shaxsiy kotibi sifatida faoliyat yuritgan Shihobuddin Muhammad Nasaviyning esdaliklarida muhim ma'lumotlar keltirilgan: «U bug'doyrang, o'rta bo'ylik, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga forsiyda ham so'zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, yuqorida hikoya qilganim janglardagi faoliyatini eslab o'tishning o'zi kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so'zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi, ammo u yashagan davrdagi g'alayonlar, alg'ov-dalg'ovlar fe'l-atvorini o'zgartirdi. U qo'l ostidagi odamlarning og'ir

hayotini yengillashtirishni xohlardi, ammo u yashagan davr qonunlari uni zulm qilishga majbur etardi...

Bachkana ta'riflarni yoqtirmagan, faqat «sulton» deya murojaat qilishlarini so'ragan. Uning farmonlari, yorliqlaridagi tamg'asida «Yordam faqat yagona Allohdan» degan so'zlar bitilgandi».

Shihobiddin Nasaviyning «Siyrat as-Sulton Jaloliddin Mangburni»asaridan.

Xorazmshoh o'limi oldidan sulton Jaloliddinni «taxt vorisi» deb e'lon qilib, sultonlik ba'zi rutba (unvon)larini unga topshirdi. Shu davrdan boshlab Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarga qarshi 11 yil davomida tinimsiz Hindiston, Eron, Iroq va Kavkaz hududlarida kurash olib bordi, 17 marotaba mo'g'ullarga qarshi ot surib, uning 14 tasida g'oliblikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Bu orada Sulton nafaqat mo'g'ullar, balki uning ortib borayotgan kuch qudratiga hasad bilan qaragan Bag'dod xalifasi va Ko'niya sultoni Alovuddin Kaykubod kabi shaxslarga qarshi kurashishiga ham to'g'ri keladi. Shuningdek, vazirlari, sarkardalarining xiyonati va ukasi G'iyosiddin Pirshohning isyonlari ham Sultonning ozodlik uchun kurashiga ma'lum moneliklar ko'rsatadi.

23.2. JALOLIDDINNING XUROSONDAGI DASTLABKI MUVAFFAQIYATLARI. PARVON JANGI

Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar bilan ilk bor 1216-yili to'qnash kelgandi. Nayman kukmdori Kushlukxonning Qoshg'ar va Bolasog'un shaharlarini egallab, Qoraxitoylar yetakchisi Go'rxonni asir etganligi haqidagi xabarni olgan Chingizxon to'ng'ich o'g'li Jo'chini 20 ming kishilik suvoriylariga sardor qilib naymanlar ustiga jo'natadi. Ayni shu paytda Alouddin Muhammad Xorazmshoh ham 60 ming lashkari bilan Kushlukxonga qarshi harbiy safarga chiqadi. Irg'iz daryosi muzlaganligi tufayli undan kechib o'ta olmagan Xorazm qo'shini bir qancha muddat suv bo'yida to'xtab qolishga majbur bo'ladi.

Bilib oling!

Manbalarda hikoya qilinishicha, Irg‘izni kechib o‘tishga erishgan Xorazmshoh ikki daryo oralig‘ida son-sanoqsiz o‘liklarni, hali qotishga ulgurmagan qonlarni ko‘radi. Jasadlar orasidan bir yaradorni topadilar, undan bu qirg‘inning Jo‘chixon tomonidan sodir etilganini bilib olib, mo‘g‘ullar ortidan quvib boradilar. Ertangi kun tong-saharda Xorazm qo‘shini bamaylixotir ketayotgan Jo‘chixonga yetib oladi va hech ikkilanmasdan jangga kiradi. Muhammad Xorazmshohning o‘zi markazdan o‘rin oladi. O‘ng va so‘l qanotlarga Qutlug‘xon hamda Inonchxon singari tajribali sarkardalar qomondonlik qiladi. 18 yoshli Jaloliddin o‘ng qo‘ldan joy oladi.

Mo‘g‘ullar son jihatdan oz bo‘lishiga qaramasdan jangga kiradi hamda xorazmliklarning so‘l qanotiga qaqshatqich zarba beradi va uni to‘zg‘itib yuboradi. Natijada, markazda jang qilayotgan Sulton Muhammadning hayoti xavf ostida qoladi. Xorazm qo‘shinini ushbu jangda mag‘lubiyatdan o‘ng qanot jangchilari, ayniqsa, Jaloliddinning yovning chap qanotiga kuchli zarba berishigina saqlab qoladi.

Quyosh botishi bilan ikki raqib ertangi kun jangni davom ettirish niyatida o‘z pozitsiyalariga qaytadi. Mo‘g‘ullar tunda o‘z lashkargohini minglab gulxanlar yoqib qoldirgan holda tashlab, katta tezlikda chekinishga majbur bo‘ladi. Ushbu jangning o‘ziyoq Jaloliddinning qanchalar mohir harbiy yo‘lboshchi ekanligini bildiradi.

Xorazmshoh Alouddin Muhammad vafotidan so‘ng, Jaloliddin o‘z inilari O‘zloqshoh va Oqshohlar bilan otasini dafn etgach, 70 ta kishisi bilan to‘g‘ri Urganchga (Gurganj) keldi. Tez orada unga Xo‘jand hokimi Temur Malik va boshqa erksevar kishilar ham kelib qo‘shildilar. Xalq Jaloliddin Manguberdini shod-u xurramlik va katta umid bilan kutib oladi.

Lekin, inisi O‘zloqshoh va uning tarafdorlari, jumladan, Qutlug‘xon unga qarshi fitna tayyorlayotganidan xabar topgach, bu alfozda mo‘g‘ullarga qarshi kurashib bo‘lmasligini tushungan Jaloliddin 300 ta kishisi bilan yashirincha poytaxtni tark etadi. Jaloliddin 16 kun ichida Xorazmdan Xuroson yerlaridagi Niso qo‘rg‘oni atrofiga yetib keladi. Chingizxon xorazmshoh o‘g‘illarining Xorazmga qaytganliklaridan xabar topgach, ularning Xurosonga chekinishi mumkinligi nuqtai nazaridan ularga Xurosonning har yeriga pistirmalar qo‘yadi. Jaloliddin Niso yaqinida o‘zining 300 ta askari bilan mo‘g‘ullarning 700 kishilik pistirmadagi otryadini tor-mor etadi. Ushbu g‘alaba mo‘g‘ullarning «afsonaviy qudrati», «yengilmasligi» haqidagi mish-mishlarga chek qo‘yadi. Jaloliddinning obro‘si ko‘tarilib, xalq ommasida g‘alabaga bo‘lgan ishonch mustahkamlanadi.

Shunday bir vaziyatda Jaloliddinning ukalari O‘zloqshoh va Oqshohlar sarosimaga tushib, Jaloliddinning ketidan Xurosonga ketishadi. Ular mo‘g‘ullarning kichik otryadi ustidan g‘alaba qozonib, bu g‘alabaga juda katta e’tibor berib yuborishadi. Shundan so‘ng xotirjamlikka va aysh-ishratga berilib, Xurosonning Habushan shahri yaqinida mo‘g‘ullarga qarshi navbatdagi kurashda qo‘lga tushib, qatl etiladilar. Mo‘g‘ullar qatl etilgan shahzodalarning kallalarini namoyishkorona tarzda ma’lum bir vaqt Xurosonda olib yurishadi.

Jaloliddinning yana bir inisi, Iroq yerlarining noibi Ruknidin G‘ursanchtiy (manbalar unga «aql-zakovat va ko‘rkamlikda tengi yo‘q» deb ta’rif berishgan) Eronning Ustunavand qal’asida 6 oy mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib borib, mardonavor tarzda halok bo‘ladi. Qal’a olinganidan so‘ng Ruknidinni Toymas no‘yonni huzuriga olib kelishdi. No‘yon unga tiz cho‘kishni buyuradi. Ruknidin uni rad etgan va qiynoqli o‘limga mahkum etilgan.

Jaloliddinning boshqa bir ukasi, bir vaqtlar Kirmon, Makron yerlari noibi G‘iyosiddin Pirshoh Eronning Kirmon viloyatida muqim qolib, o‘zini «sulton» deb e’lon qiladi. Keyinchalik, G‘iyosiddin Pirshoh Jaloliddinga Eron yerlaridagi kurashlarida ma’lum darajada yordam beradi. Jaloliddin esa bu vaqtda Nishopurga yetib keladi. Bir oy davomida mo‘g‘ullarga qarshi kurashish maqsadida barcha amir,

sarkardalarga qo‘shin yig‘ish xususida murojaat qiladi. Mo‘g‘ullar uning ushbu faoliyatidan xabardor bo‘lganliklarini bilgach, Zavzon (Nishopur va Hirot oralig‘ida) tumanidagi al-Qohira qal’asiga kelib o‘rnashadi. Lekin bu vaqtda mahalliy noib, hokimlar Jaloliddinning atrofida jipslasha ololmaydilar. Hali yetarli kuchga ega bo‘lmagan Jaloliddin qal’ada uzoq turish xavfli ekanligini tushunib, G‘azna tomonga yo‘l oladi.

Chingizxon esa bu vaqtda ulkan qo‘shin bilan Xurosonga izma-iz kelayotgan edi. Jaloliddin G‘aznaga yetmasdan yaqin orada Hirot hokimi hamda qayinotasi bo‘lmish Amin Malik bilan uchrashadi va ular birgalikda Qandahor qal’asini qamal qilayotgan mo‘g‘ullar ustiga yurish qiladilar.

Bilib oling!

Jaloliddin bu kurashda harbiy ilm tarixida ilk bora «piyoda yoyandozlar»ni mo‘g‘ullarning otliq askarlariga qarshi qo‘yadi (*Inglizlar, keyinchalik bu harbiy usulga yuqori baho berib, 1346-yilgi o‘zlarining Kresi yonidagi mashhur janglarida undan foydalanishadi).* Qo‘qqisdan qilingan hujum sababli mo‘g‘ul qo‘shini kutilmagan shiddatli zarbaga dosh bera olmaydi. Uch kunlik jangdan so‘ng mo‘g‘ullar mag‘lub etilib, Jaloliddin boshchiligidagi kuchlar bosqinchilarning deyarli barchasini qilichdan o‘tkazadi. Jaloliddin g‘olib bo‘ladi va u G‘azna tomon yo‘l oladi.

U 1221-yil G‘aznaga kirib keladi. Manbalarda qayd etilishicha, xalq Jaloliddinni katta tantana bilan kutib oladi. Shahar xuddi hayit bayramidek shodu-xurramlikka to‘ladi. G‘aznada Jaloliddin xizmatiga Sayfiddin Ig‘roq al-Xalajiy, Balx hokimi A’zam Malik, afg‘on qabilalari sardori Muzaffar Malik va qarluqlar rahbari al-Hasan qarluq o‘z qo‘shinlari bilan qo‘shiladilar. Jami qo‘shinning soni tarixchilarning xabariga ko‘ra, 90-120 ming kishi atrofida bo‘lgan. Chingizxon Jaloliddinning kuch-qudratining oshib borayotgani va mo‘g‘ullar undan Qandahorda zarbaga uchraganligidan g‘azablanib,

no‘yon Shiki Xutuxu boshchiligidagi qo‘shinni uning ustiga yuboradi. U 1221-yilning kuzida Jaloliddin yerlariga yaqinlashib keladi. Bu vaqtda mo‘g‘ullarning Tekechuk va Molgor boshchiligidagi peshqadam guruhi Chorikordan shimolroqdagi Valiyon qo‘rg‘onini qamal qilishni boshlagan edi. Jaloliddin bir hamladayoq mo‘g‘ullarni zarbada mag‘lubiyatga uchratishga muvaffaq bo‘ldi. Bu jangda mo‘g‘ullarning 1000 dan oshiq kishisi halok bo‘ldi. Ko‘plab tarixchilar jumladan, Ibn al-Asir, Juvayniy, Rashididdin bu jangga yuqori baho bergan edilar.

Bilib oling!

Jaloliddinning mo‘g‘ullarga qarshi muhim janglaridan biri 1221-yilning kuzida shimoliy Afg‘onistonning Lagar daryosi bo‘yidagi Parvon dashti yaqinida bo‘lib o‘tadi. Parvon dashtidagi jangda mo‘g‘ul qo‘shiniga Chingizxonning o‘gay ukasi, bosh yasovul Shiki Xutuxu no‘yon boshchilik qiladi. Mo‘g‘ullar qo‘shini Valiyonda mag‘lub bo‘lib, chekingan jangchilar bilan birlashib, sultonga qarshi jangga kiradi.

Mo‘g‘ullarga qarshi birlashgan qo‘shinga shaxsan Jaloliddinning o‘zi lashkarboshilik qilib, o‘ng qanotga Amin Malik, chap qanotga Sayfiddin Ig‘roq boshchilik qiladi. Jang uch kun davom etib, unda Sulton Jaloliddin mo‘g‘ullarni hayratga solgan usuldan foydalanadi: sulton jangchilariga otdan tushib, ot yuganini bellariga bog‘lab olgan holda piyoda jang qilishga buyruq beradi. Jangning birinchi kuni mo‘g‘ul qo‘shini, asosan, Amin Malik boshchilik qilayotgan Jaloliddin qo‘shinining eng kuchli qismi hisoblangan o‘ng qanotga qattiq hujumlar uyushtiradi. Ammo Jaloliddin o‘ng qanotga o‘z vaqtida yuborgan madad kuchlari mo‘g‘ullarni chekinishga majbur qiladi.

Birinchi kunda mo‘g‘ul lashkari yaxshigina talafot ko‘radi. Ertasi kuni Shiki Xutuxu buyrug‘i bilan har bir mo‘g‘ul askarining orqasiga namatdan yasalgan soxta qo‘g‘irchoq – tulup o‘tqazishadi. Bu orqali

Shiki Xutuxu mo'g'ullar lashkariga madad kuchlari yetib kelganday ko'rinish hosil qilib, Sulton qo'shiniga g'ulg'ula solishni maqsad qilgan edi. Lekin bunga Jaloliddin ishonmaslikni tavsiya qilib, o'z qo'shini ruhini ko'targan.

Jangning hal qiluvchi uchinchi kuni mo'g'ul qo'shini asosiy hujumlarini Sayfiddin Ig'roq qomondonlik qilayotgan chap qanotga qaratishadi. Ammo Sayfiddin Ig'roq qo'shini piyoda kamondan o'q uzib, mo'g'ullarni chekinishga majbur qiladi va otga minib, dushmanni ta'qib etishadi. Mo'g'ul qo'shini Sayfuddin Ig'roq ilg'oridagi 500 jangchini o'ldirib qarshi hujumga o'tishadi. Shu paytda qo'shin markazidan Sulton Jaloliddin hujum qilib mo'g'ul qo'shinini chekinishga majbur qiladi. Parvon jangi mo'g'ullarning mutlaq mag'lubiyati bilan tugab, Shiki Xutuxu qo'shinining deyarli yarmidan ayriladi va qolgan qutgan qo'shini bilan Chingizxon huzuriga zo'rg'a qochishga ulguradi.

Bilib oling!

Parvon yaqinidagi jang Movarounnahr va Xuroson ahli uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu paytgacha mo'g'ullarning «lohiy», «yengilmas» kuch-qudratga egaliklari xususidagi gap so'zlarga, afsonalarga batamom chek qo'yildi. Jaloliddinning g'alabasidan Movarounnahr va Xuroson xalqlarining ruhi ko'tarildi, g'alaba ta'sirida Saraxs, Marv, Hirot va boshqa Xuroson shaharlarida mo'g'ul istilochilariga qarshi xalq isyonlari boshlanib ketdi. Buxoroda bosh ko'targan aholi esa mo'g'ullarni shahardan ma'lum muddat siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Chingizxon Jaloliddinning kuchayib borishi, uning xalq ommasi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mo'g'ullar bosib olgan yerlar uchun qanchalik xavf tug'dirishini yaxshi anglab yetgan edi. Shu sababdan ham shaxsan o'zi Jaloliddinni qanday qilib bo'lmasin mag'lub etish maqsadida shitob bilan katta qo'shinga bosh bo'lib, janub tomon yo'l oldi.

23.3. SIND JANGGI: JALOLIDDIN MANGUBERDI MAG‘LUBIYATI SABABLARI

Jaloliddinning qo‘shini Parvon jangidan so‘ng katta o‘ljani qo‘lga kiritgan edi. Ushbu o‘ljaning taqsimlanishi vaqtida Jaloliddinning ikki sarkardasi Amin Malik va Sayfiddin Ig‘roq o‘rtasida ixtilof chiqadi. Ixtilof natijasida Sayfiddin Ig‘roq va undan keyin boshqalar ham qo‘shindan ajrab chiqib ketadilar. Jaloliddinning qo‘shini nisbatan kamayib, uning o‘zi tang bir ahvolda qoladi. Jaloliddinning uni tark etgan sarkardalarga qayta ittifoq tuzish, dushmanga qarshi birgalikda kurash olib borish to‘g‘risidagi murojaatlari zoye ketdi. Jaloliddin ichak og‘rig‘i kasaliga duchor bo‘lib turgan paytida mo‘g‘ullarning peshqadam guruhi Gardizga (G‘aznadan 50 km. sharqda joylashgan shahar) o‘rnashganligidan xabardor bo‘ladi. Sarkarda xastaligiga qaramasdan Gardizdagi mo‘g‘ul askarlariga to‘satdan zarba berib, mo‘g‘ul otryadini mag‘lubiyatga uchratadi. U Chingizxonga qarshi ozchilik qo‘shin bilan kurasha olmasligini anglab, Sind (Hind) daryosi bo‘yiga chekinishga qaror qiladi.

Son jihatdan bir necha barobar ziyod g‘anim bilan yuzma-yuz to‘qnashishni ma’qul ko‘rmagan Jaloliddin Sind daryosi tomon ot suradi, u yerga yetgach uni tark etgan amirlar bilan qayta qo‘shilib Chingizxonga qarshi jangga kirishga qaror qiladi. Biroq uning bu rejalari amalga oshmaydi. G‘aznadan chiqib ketish paytida Jaloliddin betob bo‘lib qoladi. Bir necha kundan so‘ng sog‘aygan sulton, Shihobiddin Nasaviyning ta’kidlashicha, Gardiz shahrida to‘xtagan mo‘g‘ullarning ilg‘or qismiga tunda qo‘qqisdan hamla qiladi. Dushmanning joniga chopqir otlar ora kiradi. Sind daryosi qirg‘og‘iga qaytgan Jaloliddin kechuv uchun qayiqlarni hozirlashga, ketib qolgan qismlarni qaytarishga jon-jahdi bilan kirishadi. Ammo bu ishlarning ro‘yobga chiqishiga yov to‘sqinlik qiladi.

Nihoyat, 1221-yilning 25-noyabr payshanba kuni (hijriy 618-yil shavval oyining sakkizinchi kuni) Sind daryosi bo‘yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang boshlandi. Bir qator o‘rta asr musulmon tarixchilarining ta’kidlashlaricha, bunday qonli, keskin va dahshatli

jang tarixda ro'y bermagan ekan. Jaloliddin va uning qo'shini misli ko'rilmagan darajada jasorat va bahodirlik namunalarini ko'rsatdi. Selday yetib kelgan Chingizxon dastlab sultonning O'rxon boshliq ar'ergardi (orqa qismi)ga hujum qiladi va uni yakson etadi.

Manbalarning guvohlik berishicha, jangda Chingizxon bilan birga Urganch egallanishidan so'ng unga qo'shilgan Chig'atoy va O'qtoylar ham ishtirok etadi. Jaloliddin qo'shini markaziga o'zi boshchilik qiladi, o'ng qanotda esa Amin Malik boshchiligidagi qang'li jangchilari qo'yiladi. Sultonning o'zi dastlab mo'g'ullar tinimsiz hujum qilayotgan o'ng qanotga, so'ngra chap qanotga o'tib, ularga madad beradi.

Bilib oling!

JANG TAKTIKASI

Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo'shinidan 3 barobar kam bo'lgan o'z qo'shinini yarim oy shaklida safga tizadi. Qo'shinning o'ng qanotini sulton tog' etagiga joylashtirilgani holda, chap qanotni Sind sohiliga joylashtiradi. Natijada mo'g'ullarning xorazmliklarni qurshovga olishining oldi olinadi.

Chingizxon ham qo'shinini 3 qo'lga bo'lib dushmanga qarshi yo'naltiradi. Ammo, Jaloliddin qo'shinlari o'q uzib ularni chekinishga majbur qiladi. Mo'g'ullarning ikkinchi hujumi ham Jaloliddin tomonidan cson bartaraf etilib, mo'g'ullarning yolg'ondan chekinish orqali dushmanni olg'a undab, ularni qanotlardan qurshab olishga urunishini oldindan bilgan Jaloliddin chekingan mo'g'ul qo'shinini atayin ta'qib etmaydi. Ikki muvaffaqqiyatsiz hujumdan so'ng Chingizxon asosiy kuchlarni Sulton Jaloliddin qo'shini qanotlariga tashlaydi. Natijada, Jaloliddinning ochiq jangga kirishdan boshqa iloji qolmaydi.



Shundan so‘ng Sulton Jaloliddinning son jihatdan uch-to‘rt barobar ko‘p qo‘shinga ega bo‘lgan Chingizxon joylashgan markaziga hujum qiladi va uni ikki bo‘lakka bo‘lib yuboradi. Yov qochish taraddudiga tushadi. Biroq o‘n ming kishilik mo‘g‘ul jangchilaridan iborat *bahodirlar* yoki *keshik* deb ataluvchi Bala no‘yon boshchiligidagi maxsus qism xorazmliklarning yo‘lini to‘sadi. Bu harbiy qism Xitoydan to Erongacha yo‘lni bosib o‘tib hali biron marta jangga kiritilmagan edi. Bu qism dastlab Amin Malik qo‘mondonligidagi o‘ng qanotni yakson etadi va uni Jaloliddin zo‘r shijoat bilan jang qilayotgan markazgacha quvib boradi. Xorazmliklarning so‘l qanoti ham dushman hujumiga bardosh berolmaydi.

Jaloliddinning tang ahvolini ko‘rgan Chingizxon qanday qilib bo‘lmasin sultonni tiriklayin qo‘lga olishga buyruq berdi. Dushman sultonni o‘rtaga oladi, halokat halqasi tobora torayib boradi. Jaloliddin esa o‘zini qo‘lga olishga intilayotgan mo‘g‘ul qo‘shini qurshovini faqat shaxsiy bahodirligi tufayli yorib chiqib, Sind daryosi bo‘yiga yetib kelishga muvaffaq bo‘ladi. Manbalarning guvohlik berishicha, daryo bo‘yida uni onasi Oychechak va haramdagi boshqa ayollar kutib turishar edi. Shundoq ham bu jangdan ruhan va jismonan ezilgan Jaloliddinga ular: «Alloh nomi bilan sendan yolvorib so‘raymiz, bizlarni o‘ldir va shu tariqa asir tushishdan qutqar», deya murojaat qilishadi. Jaloliddin barcha haram ayollarini suvga cho‘ktirishga ko‘rsatma berishdan boshqa iloji qolmaydi. Nasaviy bu voqelikni «bu ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan baxtsizlik, og‘ir qayg‘u edi», deya yozgan edi. Jaloliddin oti bilan suvga sakrab, daryoning narigi qirg‘og‘i – Hindiston tomonga suzib o‘tadi.

Bilib oling!

JALOLIDDINNI CHINGIZXON CHANGALIGA TUSHIRGAN HAM, UNDAN QUTQARGAN HAM OT EDI

1221-yil bahor-yoz oylarida Jaloliddin mo‘g‘ullarga qarshi ayovsiz kurashga bel bog‘lab, ularga bir necha marta qaqshatqich zarba berganidan keyin, G‘azna yaqinida, Kobul

daryosi bo‘yidagi Parvon dashtida Chingizxonning mohir sarkardalaridan biri – Shixi Xutuxu no‘yon boshchiligidagi 45 minglik mo‘g‘ul qo‘shinlari ustidan g‘alabaga erishdi.

Jang natijasida qo‘lga kiritilgan katta miqdordagi o‘lja taqsimlanishi jarayonida Jaloliddin lashkarboshilari – qang‘li-qipchoqlardan (Turkon Xotun ham shu urug‘dan) Amin Malik turkmanlar yo‘lboshchisi Sayfiddin Ig‘roq bilan bir qimmatbaho arabi ot ustida talashib qolishadi (o‘ljalar orasida eng noyob ulush ot hisoblangan. Otlar zotiga va chiroyiga qarab bir necha ming tilloga baholangan).

Tortishish paytida qizishib ketgan Amin Malik Sayfiddin Ig‘roqning boshiga qamchi bilan uradi. Jaloliddin esa Amin Malikni bu ishi uchun jazolamaydi (Amin Malik Jaloliddinning qaynotasi edi, balki Amin Malikning jazolanmaganiga shu ham sabab bo‘lishi, ehtimol). Bu nomusga chiday olmagan va qattiq ranjigan Sayfiddin Ig‘roq o‘z yaqinlari bo‘lgan lashkarboshilar – A’zam Malik va Muzaffar Maliklarni olib, Jaloliddin qo‘shinini tark etadi. Buning natijasida xorazmshoh qo‘shini yarmiga qisqaradi.

Xufiyalari orqali Jaloliddinning ichki muammolaridan boxabar bo‘lgan Chingizxon Sulton qo‘shinlarini qayta birlashishi yoki ularning qochishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun bir haftalik yo‘lni ikki kunda bosib o‘tadigan darajada tezlik bilan ta’qib qila boshlaydi. Vaziyatni to‘g‘ri baholagan Jaloliddin esa zudlik bilan Hindistonga o‘tib ketish va u yerdan o‘zini tiklagan holda Chingizxonga qarshi hujumni tashkil etish uchun Sind (Hind) daryosi tomon oshiqadi.

1221-yilning 24-noyabrida Jaloliddin Sind daryosiga yaqin kelganida Chingizxon unga yetib oladi va o‘rtada, ta’bir joiz bo‘lsa, XIII asrning eng mashhur jangi ro‘y beradi. Jangda musulmonlar qo‘shinining markaziga rahbarlik qilgan Jaloliddin qo‘shini o‘zidan bir necha barobar ko‘p bo‘lgan mo‘g‘ullar qismini yanchib tashlaydi. Lekin Chingizxonning pistirmada turgan 10 ming zahira qo‘shini jangga kirishi bilan

jang tashabbusi mo‘g‘ullar tomoniga o‘zgaradi (Chingizxonning zahira qo‘shini «keshik» deb nomlanib, ular tajribali qo‘mondonlardan tuzilgan. Chingizxon juda zarur hollardagina ularni jangga tashlagan). Qurshab olingan Jaloliddin yarim kun mobaynida mo‘g‘ullar bilan olishadi. Uning 2 ta oti ishdan chiqqach, rikobdorlar (hukmdor otini yetaklab yuruvchi, hukmdor uzangisi sohibi) zahiradagi otni keltirishadi.

Ushbu otga o‘tirgan Jaloliddin o‘rab oluvchilarning nisbatan zaif ko‘ringan daryo tomoniga ot solib, u yerni yorib chiqadi, ahli haramini ham Chingizxon qo‘liga tushmasligi uchun daryoga yo‘naltiradi. O‘zi esa sadoqatli oti bilan birgalikda 18-20 metrlik jarlikdan daryoga sakraydi. Chingizxon esa Jaloliddinning ortidan kamondan o‘q uzmoqchi bo‘lganlarni to‘xtatib, uning jasoratiga lol bo‘lib qoladi. Shu vaqtga qadar Chingizxon bunday raqibga duch kelmagan edi.

Xullas, o‘ljalar orasidagi bir qimmatbaho ot sarkardalar o‘rtasidagi ziddiyatni keltirib, umumdavlat, umumxalq taqdiri hal bo‘ladigan pallada Jaloliddin imkoniyatlarini kamaytirib, uning kuchlarini zaiflashtirdi. Kuchlarning teng emasligi Jaloliddinning Chingizxon qurshovida ma’lum muddat qolishiga sabab bo‘ldi. Ikkinchi ot esa uni dushman qo‘lidan qutqarib, daryoning narigi sohiliga olib o‘tdi. Manbalarning guvohlik berishicha, shu vaqtdan boshlab Jaloliddin mazkur otni e’zozlab, minmasdan yana 5 yil, ya’ni 1226-yil o‘z ajali bilan o‘lguniga qadar o‘zi bilan olib yurdi (Hozirgi Gruziya poytaxti Tbilisining egallanishi jarayonida ot o‘lgan edi). Shuning uchun ham qadimgi va o‘rta asr buyuk sarkardalarining yarim bahodirligini ularning otlari bilan bog‘lash joizdir.

Akbar Zamonovning
«O‘rta asr tarixiy shaxslari hayotining
ayrim noma’lum sahifalari»
kitobidan.



Bilib oling!

Jaloliddinning har qanday vaziyatda ham o‘zini yo‘qotmasligi, uning jasorati va mardligiga, metindek irodasiga Chingizxon ham tan berdi. Tarixchilardan Juvayniy, Rashididdin va boshqalarning yozishlariga qaraganda, Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon o‘z o‘g‘illariga qarata «Otaning faqat shunday o‘g‘li bo‘lishi lozim. U olovli jang maydonidan o‘zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg‘og‘iga chiqdimi, undan hali ulug‘ ishlar, tashvishlar va qiyomatli isyonlar keladi!», – deydi va uning orqasidan ta’qib etishni ta’qiqlaydi. Sind daryosi bo‘yidagi jangdan so‘ng Chingizxon uch oy davomida Jaloliddin qo‘shinidan o‘z vaqtida ajrab ketgan sarkardalar qal’alarini qo‘lga olib, ularni yo‘q qilish bilan band bo‘lgan.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O‘zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Mavzu» ko‘rsatuvining *Jaloliddin Manguberdi jasorati*ga bag‘ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

Atamalar izohi

☑ ***Irg‘iz daryosi*** – Qozog‘iston Respublikasining Aqto‘be viloyatidagi daryo. To‘rg‘ayning o‘ng irmog‘i. Uzunligi 593 km bo‘lgan. Mug‘ojar tog‘larining sharqiy yon bag‘ridan boshlanadi. Yozda quyi qismi qurib, suv faqat daryo o‘zanining chuqurroq qismlarida saqlanib qoladi. Asosan, qordan to‘yinadi.

☑ ***Navba*** – hukmdorlar, shahzodalar yoki davlat amaldorlariga berilgan rasmiy va faxriy nomlar bo‘lib, ular shaxsning asl ismiga qo‘shib aytilgan.

☑ ***Plevrit*** – o‘pka qobig‘iga suv yig‘ilishi va yallig‘lanishi. Muhammad Xorazmshohning kasalligi plevrit bo‘lib, ko‘pchilk adabiyotlarda o‘pka kasaliga chalinganligi aytiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Xorazmshoh Muhammadning farzandlarini sanab bering.
2. Turkon Xotunning taxt uchun kurashda Jaloliddinni qo‘llab-quvvatlamasligiga sabab bo‘lgan omillarni ayting.
3. 1217-yil Xorazmshoh Muhammad o‘z o‘g‘illariga mulk taqsimlagan bo‘lib, shu taqsimotni jadvalda keltiring.

T.R.	Shahzoda	Hududi
1.	**Jaloliddin**	G‘azna, Bomiyon, G‘ur, Bust, Takinobod, Zamin-Davora va Hindiston bilan chegaradosh yerlar
...	...	...

4. Jaloliddinning ukalari taqdiri qanday kechgan? Manbalar asosida ushbu savol javobini o‘rganib chiqing.

5. Jaloliddin Manguberdining tarixiy portreti uning munshiysi tomonidan qanday chizilgan edi?

6. Jaloliddin Manguberdining dastlabki muvaffaqiyatlarini sanang va uning sabablarini izohlang.

7. Parvon jangining ahamiyati nimada? Uning oqibatlari nima bo‘ldi?

8. Bugungi kunda toponimikada Sind daryosi boyidagi jangning qanday tarixiy izlari saqlanib qolgan?

9. Chingizxonning «Otaning faqat shunday o‘g‘li bo‘lishi lozim. U olovli jang maydonidan o‘zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg‘og‘iga chiqdimi, undan hali ulug‘ ishlar va qiyomatli isyonlar keladi!» so‘zlari zamirida qanday ma’no yashirin edi?

10. Sind daryosi bo‘yidagi jangda Chingizxonning qo‘li baland kelishiga sabablar nimalardan iborat edi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdirimov B. Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha. – T.: Sharq ma’rifati. 2021.

2. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahongusho (Jahon fotihi tarixi). / Turk tilidan Nazarbek Rahim tarjimasi. – T.: Mumtoz so‘z, 2015.

3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

4. Buniyodov Z. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar: Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – T.: Mumtoz so‘z, 2012.

5. Bo‘riyev O.B., N.T.Toshev. Jaloliddin Manguberdi. – T., 1999.

6: Masharipov Q. Jaloliddin Manguberdining jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o‘rni. – T.: Yoshlar media print, 2021.

7. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – T.: Yosh kuch, 2019.

8. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san’ati. – T.: «O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi» DIN, 2018.

9. Shihobiddin Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati. – T.: O‘zbekiston, 1999.

10. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma (Muqaddima). 1-kitob. / Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va ilmiy izohlar muallifi O.Bo‘riyev. – T.: Fan, 2020.

11. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. – Т.: Узбекистан, 2006.

12. Фазлуллах Рашид-ад-дин. Джами ат-таварих. – Баку: Нагыл Ева, 2011.

24-MAVZU. JALOLIDDIN MANGUBERDI – SO‘NGGI XORAZMSHOH



REJA:

24.1. Jaloliddin Manguberdining Hindistondagi faoliyati.

24.2. Jaloliddinning Iroq, Ozarbayjon, Gruziyadagi harakatlari.

24.3. Jaloliddinning Yaqin Sharq bilan aloqalari. Arzinjon janggi.

24.4. Jaloliddin Manguberdi halokati.

24.5. Jaloliddin Manguberdi xotirasining tiklanishi.

Tayanch so‘z va tushunchalar


Jaloliddin, qo‘shin, Sind, G‘iyosiddin Pirshoh, Hindiston, Shatra rojasi, Nosiriddin Qubacha, Shamsiddin Eltutmish, Xalifa Nosir, Hilot, Xuziston, Alouddin Kaykubod, Otabek O‘zbek, Malika Xotun, Marog‘a, Gurjiston yurishi, Tiflis, Eron, Iroq, Toynal no‘yon, malika Rusudana, janglar, qarindoshlik, elchi, maktub, ittifoq, ayyubiylar, ismoiliylar, Arzinjon jangi, Jaloliddin Manguberdi yubeliyi, 800 yillik, haykal, Jaloliddin Manguberdi ordeni.

24.1. JALOLIDDIN MANGUBERDINING HINDISTONDAGI FAOLIYATI

Rashididdinning yozishiga ko‘ra, Sind bo‘yidagi jangdan so‘ng Jaloliddin bilan daryodan taxminan 4000 kishilik tirik qolgan askarlar Hindiston qirg‘og‘ida uchrashadi. Daryodan tirik chiqqanlar orasida

300 dan ziyod otliqlar ham bo‘lgan. Ular sarkardalar Qulbars Bahodir, Kabkux, Sa’daddin Ali Sharobdor boshchiligida bo‘lib, daryoning turli qirg‘oqlariga chiqishib, uch kun ichida uni izlab uchrashishgan edi. Jaloliddin va uning omon qolgan lashkari ham ma’naviy-ruhiy, ham og‘ir janglardan jismoniy ezilgan holda murakkab bir ahvolda qolgan edi. Bu vaqtda Hindistonning Shatra deb atalgan hududidagi mahalliy hind rojalaridan biri Jaloliddinning Sind bo‘yidagi mag‘lubiyati va og‘ir ahvolidan foydalanib unga qarshi yurish qiladi. Roja ming nafar otliq va besh ming piyoda jangchi otryadi bilan daryodan o‘tgan xorazmliklarni qirib tashlash niyatida edi.

Sulton Jaloliddin qo‘shini og‘ir jangdan chiqqan, ular orasida ko‘plab yaradorlar ham bor edi. Bu qo‘shin bilan dushmanga qarshi saf tortib urishish amri mahol bo‘lgan. Faqatgina Sulton Jaloliddinning tengsiz bahodirligi va qahramonona xatti-harakati tufayli roja o‘ldirilib, qo‘shin orqaga chekindi. Bu jangdan xorazmshoh askarlarining ruhi ham ko‘tarilib, tez orada Jaloliddin o‘z atrofiga bir necha ming kishilik askarni yig‘ishga muvaffaq bo‘ldi. Manbalarning guvohlik berishicha, bu jangdan so‘ng sulton lashkari 3000 kishiga yetadi. Shu bilan birga



Sind, Uchcha, Mo'lton, Lohur va Peshovar hokimi bo'lmish Nosiriddin Qubacha (1205-1227) ham Jaloliddin bilan yaxshi aloqalar yo'lga qo'yish yo'llarini izlay boshlaydi. Jumladan, ko'p o'tmay Sulton Jaloliddinga xotini, Amin Malikning qizi Sind jangida halok bo'lmay omon qolgani va Uchchada ekanligi to'g'risidagi xabar yetib keladi. Shu sababli Sulton Nosiriddin Qubachaga uni huzuriga yuborishini so'rab elchi yuboradi.

Bilib oling!

Nosiriddin Qubacha Sulton Jaloliddinga xotini bilan birga maxsus elchilik ham yuborib, ikki o'rtada do'stlik aloqalarini yo'lga qo'yadi. Ammo, keyinchalik, ikki hukmdor orasi buziladi. Bunga Qubacha xizmatida bo'lgan, dastlab Xoramshohlarga xizmat qilgan shaxslarning Sulton Jaloliddin xizmatiga qaytishga intilishi va ba'zi bunday niyatdagi amaldorlarning Nosiriddin Qubacha tomonidan o'ldirilishi sabab bo'ladi. Sulton Jaloliddin dastlab bunga ko'z yumishga majbur bo'ladi.

Ko'p o'tmay Sulton Jaloliddin qo'shiniga ukasi G'iyosiddin Pirshoh dargohini tashlab chiqqan Sanjoqxon, Elchi Pahlavon, O'rxon kabi amirlar, Sulton silohdori Sayirja, Tekchorik Xonkishi kabilar o'z lashkarlari bilan kelib qo'shiladi. Natijada kuchi sezilarli darajada ortgan Sulton Sind daryosi bo'yidagi yerlarni ishg'ol qila boshlaydi. Dastlab, u Kalor shahri tomon yurdi, uni qamal qildi. Ko'p o'tmay Kalor shahri taslim bo'ladi.

Bu yerdan keyin u Tarnuj qal'asiga yurish qiladi. Tanjurni egallagan Sulton qal'ani to'la vayron qiladi. Bularning hammasi Qubacha bilan uning o'rtasida dushmanlikni kuchaytiradi. Natijada Qubacha unga qarshi 10 minglik qo'shin bilan yurish qiladi. Bu yurishda Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish (1211-1236) ham o'z qo'shinlarini Nosiriddin Qubachaga yordam uchun yuboradi. Ikki

o‘rtadagi jang Jaloliddinning g‘alabasi bilan yakun topadi va ushbu g‘alabasi tufayli sulton katta miqdordagi o‘ljalarga ega bo‘ladi. Shundan so‘ng Sulton Lahorga yurish qiladi, bu yerda hukmronlik qilayotgan Qubachaning o‘g‘li Alouddin Bahromshoh Sultonga yirik miqdordagi o‘lpon to‘lab, unga tobeligini tan oladi. Shundan so‘ng, Sulton Sadusan shahriga yurish qiladi. Sadusan yaqinida shahardagi qo‘shinlar qomondoni Lochin shahar tashqarisida Sulton qo‘shinlari bilan to‘qnashadi, biroq O‘rxon boshchiligidagi Sulton lashkari Lochinni yengib Sadusanni qamalga oladi. Natijada Qubachaning Sadusandagi noibi Faxriddin Saloriy taslim bo‘lib, sulton huzuriga bo‘yniga qilich va kafan osgan holda tashrif buyuradi. Shundan so‘ng, Sulton Jaloliddin Uchchaga ham yurish qilib, Nosiriddin Qubacha Sulton hokimiyatini tan oladi.

Bilib oling!

Nosiriddin Qubacha mag‘lub etilgach, Sulton Jaloliddin o‘z qo‘shini bilan Xatisar, Deval va Damril shaharlariga yurish qiladi. Xatisar hukmdori Malik Sinoniddin shaharni tashlab qochadi. Sulton Jaloliddin Deval va Damril orasida qarorgoh qurib, Gujarot poytaxti Naxrvalga Xastxon boshchiligida qo‘shin yuboradi. Sulton qo‘shinlari Deval va Damrilga yuradi. Sulton Jaloliddin Damril qal’asini vayron qilib, o‘rniga yirik masjid qurdiradi.

Shu orada Dehli hukmdori Shamsiddin Eltutmishning 100 mingdan ortiq qo‘shin bilan Sulton Jaloliddinga qarshi yurishga otlangani haqida xabarlar tarqaldi. Ammo Sulton Jaloliddin Shamsiddin Eltutmish bilan to‘qnashishni istamay, qo‘shinlarini Mo‘ltonga yo‘naltiradi va ko‘p o‘tmay Shamsiddin Eltutmish Sulton Jaloliddin saroyiga elchi orqali xat yo‘llaydi. Xatda Shamsiddin Eltutmish quyidagi so‘zlarni bayon etadi: *«Hech sir emas-ki, hozir sening ortingda dinning dushmani turibdi. Sen esa hozirda musulmonlar sultoni va sultonlar musulmonining o‘g‘lisan. Men senga qarshi kurashishni, taqdirning yordamchisi bo‘lib xizmat qilishni istamayman. Sendaylarga qarshi*

qilich yalang'ochlamoq men kabi kishilarga yarashmaydi. Bunday holat faqatgina mudofaaga majbur bo'lganimizda yoki biror xavfni bartaraf etish zaruratga aylangandagina yuz berishi mumkin. Agarda maqsadga muvofiq desang, oradagi ishonchni mustahkamlash, dushmanlikni bartaraf etish, ehtiromimizni kuchaytirish uchun qizimni senga beraman».

Albatta, Jaloliddin Eltutmishning maktubida faqatgina do'stona munosabatlar o'rnatish fikri ilgari surilmagan, balki Eltutmish Jaloliddin uning mulklariga daxl qilmasligi uchun ogohlantirish vazifasidagi so'zlarni ham xatda bitib o'tgan edi.

Bilib oling!

Jaloliddin Hindistonda o'z nomidan kumush va misdan tangalar zarb qildi, unga qarashli mulklarda Xorazmshoh nomiga xutba ham o'qildi. Shu bilan birga, Jaloliddinning o'sib borayotgan qudratiga qarshi kuchlar ham paydo bo'la boshladi.

Ta'kidlash joizki, Hindistonda muqim qolish Jaloliddin rejalaridan joy olmagan edi. Qolaversa, Hindistondagi mahalliy hokimlar xufiyona ravishda uni o'lkadan siqib chiqarishni ham rejalashtirgan edilar. Ayniqsa, Shamsuddin Eltutmish saroyiga yuborilgan elchilik safida bo'lgan Sanqurjiq Toisiy va Yazidak pahlavonlarning Eltutmish tomoniga o'tib ketishi Jaloliddinning Hindistondagi kelajagi yorqin bo'lmasligidan dalolat edi. Shu jarayonda Jaloliddin amirlari bilan kelgusi harakatlar rejasi uchun mashvarat o'tkazadi. Ammo Jaloliddin amirlarining fikrlari ham yakdil emasdi. Jumladan, Jaloliddinning nomdor amirlaridan biri Jahon Pahlavon Hindiston hukmdorlari kuchsizligi, ularni yengib Hindistonda kuchli davlat qurish taklifi bilan chiqqan bo'lsa, sultonning ukasi G'iyosiddin Pirshohdan norozi bo'lib Jaloliddin huzuriga kelgan bir qator amirlar uni Fors va Iroq hududlariga ketishga undaydi. Shunday qilib, Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettirish maqsadida yana g'arb tomonga yo'l

olishga qaror qiladi. Jaloliddin Hindistonda o‘z nomidan bu yerdagi mulklarining noibi etib Jahon Pahlavonni qoldiradi. Jahon Pahlavon bu hududda 1229-yilga qadar hukmronlik qilib, so‘ngra Jaloliddin huzuriga Iroqqa borgan va uning harbiy yurishlarida yelkadosh bo‘lib xizmat qilgan.

24.2. JALOLIDDINNING IROQ, OZARBAYJON, GRUZIYADAGI HARAKATLARI

Jaloliddin 1223-yilning oxirlarida, xorazmshohlarning azaliy mulki bo‘lgan Iroq va Eronni o‘z izmiga kiritish, mo‘g‘ullarga qarshi kurashni davom ettirish maqsadida yo‘lga otlandi. 1224-yilning boshida Jaloliddin 4000 kishilik qo‘shin bilan Kirmonga keldi. U o‘zining asosiy maqsadi mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashib, mustaqil davlat yalovini tiklash ekanligini bildiradi. Ammo Kirmonda G‘iyosiddin Pirshoh noibi bo‘lib turgan Baroq Hojib Jaloliddinni shaharga kiritishdan bosh tortadi. Ammo Sulton Jaloliddinning Sheroz va Isfahonga tashrifini xalq ommasi katta tantana bilan kutib oladi. Jumladan, Yazd hokimi Otabek Alouddin To‘g‘onshoh Sultonni katta hadyalar bilan qarshi olib, unga tobelik izhor etadi. Jaloliddin uni Yazd hukmdorligi bilan birga Sheroz hokimi deb farmon beradi. Shuningdek, Jaloliddin huzuriga Fors hokimi Otabek Sa’d ibn Zangi o‘z o‘g‘lini elchi qilib yuborib Sultonga tobelik izhor etadi.

Bu paytda Otabek Sa’d va Kirmon hamda unga tutash yerlar hokimi, Jaloliddinning ukasi G‘iyosiddin Pirshoh orasida nizolar kelib chiqqan bo‘lib, Otabek Jaloliddin bilan yaqinlashuvdan manfaatdor edi. Buni yaxshi bilgan Jaloliddin Otabek Sa’dga elchi yuborib, uning qiziga uylanadi. Natijada ikki o‘rtada muhim siyosiy aloqalar o‘rnatiladi. Jaloliddinning mintaqadagi o‘sib borayotgan nufuzi ukasi G‘iyosiddinning hasadini qo‘zg‘ay boshlaydi. Hatto, Pirshoh 30 ming jangchi to‘plab akasiga qarshi yurish ham uyushtiradi. Ammo Sulton Jaloliddin siyosiy hiyla bilan ukasi xizmatida bo‘lgan bir qator amirlarni o‘ziga og‘dirib oladi. Jaloliddinning qat’iyligi, mardligi, azm-u shijoati, markazlashgan kuchli davlat barpo etish g‘oyasi xalq

ommasining turli qatlamlari manfaatlariga ma'qul keldi. Hatto G'iyosiddinning onasi ham Jaloliddin faoliyatini ma'qulladi. Shundan so'ng G'iyosiddin hukmidagi yerlar sulton Jaloliddin qo'liga o'tdi. Jaloliddin o'zboshimchalik va parokandalikka chek qo'ydi.

1224-yil Sulton Jaloliddin Xuziston va Iroq yerlariga yurish uyushtiradi. Bu yurish davomida Jaloliddin va Bag'dod xalifasi lashkarlari o'rtasida ilk to'qnashuvlar bo'lib otadi. 1224-1225-yillar boshlarida Ozarbayjon va Arron o'lkalari egallandi. Xususan, Marog'a aholisi unga murojaat qilib, Ozarbayjon otabegi O'zbekning bepisandligi va loqaydligi, uning xotini saljuqiylar so'nggi sultoni To'g'rul III ning qizi Malika xotunning beboshligidan shikoyat qilib, shaharni o'z himoyasi ostiga olishni so'radi.

1225-yil mayda Marog'a jangsiz taslim bo'ldi. U Marog'a va Tabrizda obodonchilik ishlarini amalga oshiradi, beboshlik, o'zboshimchalik, talonchilikni ancha bartaraf etdi. Shundan so'ng, Sulton Jaloliddin Ozarbayjon hududiga ham yurish uyushtiradi. Yuqorida zikr qilingan Otabek O'zbek o'ta mayparast bo'lib, davlat ishlarini uning xotini yuritar, Malika xotun Jaloliddinga qarshi tura olmasligini anglab, elchi orqali Jaloliddinga shaharni jangsiz topshirish evaziga Xoy shahrini mulk qilib berishini so'raydi. Natijada, Tabriz shahri Sulton tasarrufiga kiradi. Sulton Tabrizni o'zining yangi poytaxtiga aylantiradi.

Bilib oling!

JALOLIDDIN MANGUBERDIGA SOVCHI QO'YGAN MALIKA

Sulton Jaloliddin Manguberdi 1225-yil bir paytlar Xorazmshohlar mulki bo'lgan Shimoliy Eron va Ozarbayjon hududlarini egallash maqsadida shu o'lkalarga yurish boshlaydi. Bu o'lka – Ozarbayjon va Arronning so'nggi otabegi (hukmdori) O'zbek (1211-1225) mamlakatni boshqarishni o'z holiga tashlab, mayxo'rlik, aysh-ishrat bilan mashg'ul bo'ldi. Davlatni esa uning xotini, Iroq hukmdori

bo‘lgan oxirgi saljuqiy sulton To‘g‘rul ibn Arslonning (1176-1194) qizi – shijoatli va tadbirkor malika Tabriz (Janubiy Ozarbayjon)dan turib boshqarayotgan edi.



Tabrizdan Sulton tomoniga kelib qo‘shilgan ayrim sarkardalarning taklifiga ko‘ra, Jaloliddin Tabrizga qarshi yurish boshlaydi hamda qal’a har tomondan o‘rab olinadi. Malika hukmdor barcha mudofaa choralarini ko‘rib, qal’a burjlarini mustahkamlash, oziq-ovqat zaxiralarini qamal holatiga tayyorlash kabi choralarni ko‘radi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, dushman qo‘shinining kuch-qudratini chamalash maqsadida qal’a devoriga chiqqan malika Sulton Jaloliddinni ko‘rib, unga oshiq bo‘lib qolgan va xorazmshohga qarshi kurashish fikridan qaytgan. Tabriz qamalining yettinchi kuni malika bir guruh elchilarni Sulton Jaloliddin qarorgohiga yuboradi. Shuningdek, malika o‘zini tashlab qochib ketgan otabek O‘zbekdan ko‘ngli qolganini ma’lum qilib, unga eri bilan orasidagi munosabatlar uzilgani va undan ajraganini ko‘rsatuvchi Bag‘dod va Shom imomlaridan olgan fatvolarini ilova qilib noma yozgan edi. Elchilar Sultonga malika o‘zi, odamlari, mol-mulki uchun omonlik so‘raganini, Xoy shahri (Janubiy Ozarbayjondagi o‘rta asr shahri) o‘ziga berilishi sharti bilan Tabrizni Jaloliddinga berajagini bildiradi.

Malika shaharning kattalari va amirlarini chaqirib, ularga «Shahar oldida kuchli podshoh bor. Otabek unga qarshi tura olmay qochib ketdi. Agar u bilan kelishib, shaharni unga topshirmasak, u shaharni zo‘rlab egallaydi va xalqqa zulm o‘tkazadi. Agar ma’qul deb hisoblasangiz, qozi boshchiligidagi obro‘li odamlarni uning oldiga yuborib,

otabek harami va yaqinlariga tegmaslik sharti bilan shaharni uning ixtiyotiga topshiraylik», deydi. Yig'ilganlar esa malikaning fikrini ma'qullaydi.

Shu tariqa, muzokaralar natijasida 1225-yil 25-iyulda Tabriz Sulton Jaloliddin tomonidan egallanadi. Sultonning ikkita xos mulozimi – Tojiddin Qilich va Badriddin Hilol malika muhofazasi uchun yuboriladi. Ular malikani mulozimlari, yaqinlari, kanizaklari, mol-mulki bilan Xoy shahriga ko'chiradi. Jaloliddin esa Tabrizga kirib, bu yerda o'z boshqaruvini o'rnatadi.

Sultonning Tabrizdaligi paytida uning huzuriga Xoy shahrida turgan mazkur malika nomidan bir guruh ayollardan iborat elchilar kelishgan. Ular malikaning Jaloliddinga turmushga chiqish niyati borligini va eri, otabek O'zbekning ajrashganligini bildirishgan. Sulton bir shart bilan – agar malika eridan ajralganligini isbotlasa, unga uylanishga roziligini bildirgan.

Tabrizga yaqin bo'lgan hududlar, xususan, Varzukon qozisi ham otabek O'zbek malikani taloq qilgani haqidagi gaplarni tasdiqlashadi. Bu tasdiqlar malikaning tashabbusi bilan tashkil etilganmi yoki haqiqatan shunday bo'lganmi, bu haqda bilish bir oz mushkul. Lekin nima bo'lganda ham, Tabriz qozisi bo'lgan faqih (fiqh olimi) Izziddin Qazviniy otabek O'zbek va malikaning er-xotinlikdan chiqqanligi to'g'risidagi hukmni e'lon qiladi. Shundan keyin Jaloliddin Ozarbayjon malikasini o'z nikohiga oladi. U malikaga to'y sovg'asi sifatida Xoydan tashqari yana ikki shahar – Solmas va Urmiyani (Bu hududlar ham Janubiy Ozarbayjonda bo'lgan) atrof qishloqlari bilan birga mulk qilib beradi.

Akbar Zamonovning
«O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining
ayrim noma'lum sahifalari»
kitobidan.

1226-yil fevralida Jaloliddin Gurjistonga yurish qiladi. Dastlab Gurjistonning muhim qal'alaridan biri Garni yaqinida 60 minglik ulkan gurji qo'shinlari bilan janglar bo'lib o'tadi. Jangda Ivane va Shalva Axelitsin boshchiligidagi Gruzin qo'shimlari qaqshatqich mag'lubiyatga uchrab, 20 mingdan ortiq gurji jangchisi halok bo'ladi. Shundan so'ng, Dvin va Lori shaharlari bosib olinadi. Sulton Jaloliddin tomonidan Tiflis (Tbilisi) hukmdori malika Rasudana huzuriga yuborilgan elchi malika tomonidan sovuq tarzda kutib olinadi. Rusudananing tinchlik yo'li bilan taslim bo'lib, Jaloliddinga turmushga chiqish taklifi rad etiladi. Shuningdek, u Jaloliddinni xristianlikni qabul qilsagina uning shartini bajarajagini aytib, unga hurmatsizlik ham qilgan. Natijada Sulton Tiflisga yurish qilib, 1226-yil may oyida shaharni egallaydi. Gurjiston qattiq jang va kurashlar bo'lgan, bosh ko'targan Gurjiston ikkinchi marotaba 1228-yil qayta egallangan. Shu tariqa, Ozarbayjon, Shirvon, Gurjiston Jaloliddinning o'limiga qadar uning qo'lida bo'ldi.

Bilib oling!

Bir vaqtning o'zida Jaloliddin Manguberdi Kirmonda unga qarshi bosh ko'targan xiyonatkor Baroq Hojibga va ismoiliylarga ham qarshi kurash olib borishga to'g'ri keldi. Shuningdek, strategik jihatdan ahamiyatli hisoblangan Ararat tog'liklari etaklarida joylashgan Hilot qal'asi ham Jaloliddinga uzoq vaqt mobaynida qarshilik ko'rsatdi. 1227-yil kuzida mo'g'ullarning Eronga kirib kelish niyatlari borligini bilgan Jaloliddin ularga qarshi qat'iy jangga kirishga tayyorgarlik ko'rdi. Mo'g'ullarning o'sha yili yuborilgan 2000 kishilik avangardi tor-mor etilib, ulardan 400 tasi Isfahonda namoyishkorona tarzda jazolanadi.

1227-yil 5-sentyabrda Eronni zabt etish uchun kelgan *Toynal* no'yon boshchiligidagi mo'g'ul istilochilari bilan Isfahon yaqinida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Garchi jang vaqtida G'iyosiddin Pirshoh

xoinlik qilib, o‘z qo‘shini bilan Luristonga chekingan bo‘lsa-da, Jaloliddin qat’iy ravishda, bu holatga e’tibor qilmay, shiddatli kurash olib bordi. Jang vaqtida sulton qo‘shinlarining qanotlaridagi masofa uzoqlashib ketadi. Natijada, qanotlar orasidagi aloqa almashinuvi qiyinlashib qoladi. Shu sababli qo‘shin chap qanoti o‘ng qanotning faol yurishidan xabarsiz qoladi. Kechga yaqin mo‘g‘ul qo‘shini ortga chekinadi. Ularning ortidan harakatga tushgan sulton qo‘shini kutilmaganda pistirmaga duch keladi. Jang davomida Sulton Jaloliddin mo‘g‘ullar qurshovida 14 nafar xos soqchilari bilan qolib ketadi. Shunga qaramay, sulton mardonavorlik namoyish etib, qurshovni yolg‘iz o‘zi yorib o‘tadi. Manbalarning guvohlik berishicha, hatto mo‘g‘ul no‘yonining o‘zi «Sen qayerda bo‘lma, har qanday vaziyatdan qutilib keta olasan. Haqiqatan ham sen o‘z davringning bahodiri va tengqurlaringning yo‘lboshchisisan!», – deb uning jasoratiga tan bergan ekan. Garchi qo‘shinlar tarqab ketgan va katta yo‘qotishlarga qaramay, Jaloliddin bu jangda g‘oliblikni qo‘lga kiritadi. U sakkiz kun mobaynida Erondagi mo‘g‘ullarni izma-iz ta’qib etib, ularni mamlakatdan haydab chiqardi.

Bilib oling!

«Sulton totorlar bilan jang qilish uchun Isfahonga kelganida bir voqea bo‘lib o‘tdi. G‘iyosiddin sarhanglaridan bir guruhi ahvoli og‘irligi sababli uni tark etadilar. Nusratiddin bu sarhanglarni xizmatga olib, qanotidan joy beradi. Bir kuni kechqurun Sulton turar-joylaridagi ziyofat paytida G‘iyosiddin sharob boshqarishdan boshi aylanib, mast bo‘lgach undan «Mening g‘ulomlarimni saroyimga qaytarib yubrasanmi?» deb so‘raydi. Bu savolga Nusratiddin qo‘pollik bilan «G‘ulomlar kim qornini to‘ydirsa, o‘shanga xizmat qilishadi. Ular ochlikka chiday olmaganlar» dedi».

Bundan Giyosiddinning jahli chiqadi. U g‘azab bilan undan aytgan gaplarini takrorlashni talab qilgan. Sulton

ukasining g‘azablanganini ko‘rgach, Nusratiddinni saroydan chiqarib yuboradi.

Nusratiddin saroydan chiqadi. Undan keyin G‘iyosiddin chiqib, Nusratiddinning uyiga yo‘l oladi. U Nusratiddinning yoniga kirmoqchi bo‘ladi, lekin unga eshikni ochishmaydi. Shunda u tomdan oshib tushadi va Nusratiddinning yoniga kelib, biqiniga pichoq uradi. Bir necha kundan keyin Nusratiddin bu dunyo bilan hayrlashadi...

Sulton uning o‘limidan g‘amga botadi, odatdagidan ko‘proq qayg‘uradi. Uning qayg‘usi o‘g‘lidan ayrilgan otaning qayg‘usi kabi edi.

Keyin u ukasining qotilligi haqida ishni qozi hukmiga havola qildi: uni jazolash yoki kechirish qonun asosda amalga oshirilishini talab qildi. Sulton shundan keyin Nusratiddinning mayitini G‘iyosiddin eshigi oldidan ikki bor olib o‘tishni, shu bilan uni yana obro‘sizlantirishni buyurdi. G‘iyosiddin bundan so‘ng o‘limga hukm etilgan odamga o‘xshab qoldi. U bu hayollar bilan uxlay olmas, uyg‘onganda ham vahima bosardi. Bu hol Sulton totorlar bilan Isfahon ostonalarida yuzma-yuz kelgunga qadar davom etdi. U (G‘iyosiddin) Sultonning keskin bandligini ko‘rib, o‘z hayotini qo‘llab-quvvatlash yo‘lini tutdi.

Shihobiddin Nasaviyning «Siyrat as-Sulton Jaloliddin Mangburni» asaridan.

Jaloliddin erta tongda muzaffar sarkarda sifatida Isfahonga kirib kelgach, xalq uni g‘olib sulton sifatida shodu-xurramlik bilan kutib oladi. Jaloliddinning zafarli g‘alabasi ovozasi butun islom olamiga keng tarqaldi. O‘sha yili hatto mo‘g‘ullarning buyuk xoni bo‘lmish *Tulu* Jaloliddinning mo‘g‘ullar qo‘liga tushib qolgan egachisi Xon Sulton orqali unga maktub yuborib, u bilan sulh tuzish niyati borligini ham bayon qiladi. Jaloliddin bu diplomatik kelishuvdan voz kechib, xatni javobsiz qoldirdi. Shu o‘rinda masalaning yana bir jihatiga e’tiborni qaratish joiz. Xon Sulton tomonidan yuborilgan maktubda

sulh tuzish imkoniyati bilan birga, qasos olish to'g'risidagi gaplar ham bor edi. Jaloliddin shu paytda nihoyatda murakkab harbiy-siyosiy vaziyat domiga tushib qolgan edi. Bir tomonda mo'g'ullar, boshqa tomonda yon-atrofdagi arab, fors, turkiy hokimliklar, ularning manfaatlari, Bag'dod xalifaligi bilan chigal munosabatlar, o'z davlatidagi siyosiy nizolar – bularning barchasi yuqorida qayd etilgan mulohazaning mantiqiy tasdig'i bo'lib xizmat qilardi.

Jaloliddin har qanday ixtilof, nizolarni bartaraf etib, yon-atrofni o'z bayrog'i ostida birlashtirgan holda mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettirishni rejalashtirgan edi. Shu boisdan ham, u sulh tuzish haqidagi mo'g'ullar murojaatini javobsiz qoldirgan. 1229-yili jangda xiyonat qilgan ukasi G'iyosiddin Pirshohni Jaloliddin avf etadi, biroq tez orada yana fitnachilar domiga tushib qolgan G'iyosiddinning o'zi uning qurboniga aylanib, Baraq hojib tomonidan o'ldirildi. Bundan voqif bo'lgan Jaloliddin fitnachilarni jazolab, Kirmonda osoyishtalik o'rnatadi. Xorazmshoh Jaloliddin Kirmon, Fors, Fors Iroqi, Ozarbayjon, Gurjiston va unga tutash yerlarda katta davlat barpo etishga muvaffaq bo'ldi.

Bilib oling!

Jaloliddin murakkab va ziddiyatli davrda yashadi. Shubhasiz, u ham ushbu davrning farzandi edi. U qo'shinlarining ko'plab harbiy yurishlar vaqtida talonchilik, zo'ravonlik qilishlariga gohida ko'z yumdi. Bu esa Eron, Ozarbayjon, Iroq, Gurjiston ahlida ma'lum salbiy fikrlarning yuzaga kelishiga, noroziliklarning paydo bo'lishiga ham olib kelgan edi. Harbiy yurishlar vaqtida ba'zi amaldorlar, xususan, vazir al-Jandiyning riyokorligi Jaloliddinning obro'-e'tiboriga ancha zahmat yetkazdi.

Qaltis va tahlikali vaziyatga qaramay, sulton Jaloliddin ichki hayotdagi salbiy holatlarga qarshi kurashishga jazm qildi. O'z riyokorligi va mansabini suiste'mol qilganligi bilan nom chiqargan, Jaloliddin yo'q vaqtida xazinani talon-taroj qilgan vazir al-Jandiy

jazolanadi. Jaloliddin o‘z mansablarini suiste’mol qilgan, bu tufayli xalqqa ko‘p jabr-zulm keltirgan boshqa amaldorlar faoliyatini taftish qilib, ularni ham jazoga tortadi. Tabrizga tashrif buyurgan sulton barcha arzchilarning arzi-dodini tinglab, tegishli choralarni ko‘radi. Xalq ommasiga hayrixohlik nuqtai-nazaridan Tabrizni uch yillik soliqlardan ozod qiladi. Doimiy jang harakatlarida bo‘lishiga qaramay Isfahonda otasiga atab madrasa qurishni boshlaydi, ancha vaqt qamal qilingan Hilot qal’asini qayta tiklashga buyruq beradi va hokazo. Bu xususda tarixchi Nasaviy shunday yozgan edi: «Jaloliddin davrida bir qancha fitnalar, g‘am-qayg‘u, mashaqqatu-anduhlarga, vazirlarning tarqalib ketishiga va mehnatkash ommaning atroflarda boshpana izlab yurishlariga barham berildi. Ular birlashtirildi va mustahkamlandi».

24.3. JALOLIDDINNING YAQIN SHARQ BILAN ALOQALARI. ARZINJON JANGGI

Jaloliddin Manguberdi nima bo‘lganda ham o‘zining asosiy maqsadi mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashish ekanligini yodida saqladi. Bu kurashda u yon-atrofdagi musulmon hukmdorlarining qo‘llab quvvatlashlariga umid bog‘lagan edi. Lekin ko‘p holda, yuqorida qayd etilgan ma’lum sabablarga ko‘ra ular bilan umumiy til topish imkoni bo‘lmadi.

Sulton Jaloliddin va Arab xalifasi orasidagi ilk aloqalar 1224-yildayoq boshlanadi. Jaloliddin Xuzistonda qishlaganidan keyin Shustarni qamal qiladi. Shustarning hukmdori xalifa Nosirning odami amir Muzaffariddin edi. Shu asnoda, Jaloliddin xalifaga maktub yuborib, musulmonlarning umumiy dushmani bo‘lgan mo‘g‘ullarga qarshi kurashda uni yordamga chaqiradi. Ammo xalifa Xorazmshohlar bilan o‘z ajdodlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni eslaydi. Shu sababli xalifa Nosir nomaga javob qaytarmaydi va uning o‘rniga Xorazmshohga qarshi o‘z amiri Jamoliddin Qush Temur boshchiligidagi 20 ming kishilik qo‘shinini jo‘natadi.

Maktubiga javob ololmagan Jaloliddin qo‘shinlarini Iroqqa tashlaydi. Badray va Baksayni bosib olib, Basra ostonalaridan chiqadi.

Bu yerda ularga Basra shixnasi amir Miltegin qarshi chiqadi. Xorazmshoh Basrani ikki oy davomida qamal qilib, g'alabaga erisha olmaganidan keyin ortga qaytadi. Yo'lda xalifa qo'shinlariga duch keladi va Jaloliddin xalifa sarkardasi Qush Temurga o'z maqsadini, mo'g'ullarga qarshi kurashda xalifadan yordam so'rab noma yozganligini va yordam kutayotganligini bildiradi. Qush Temur shunga qaramay jangga kiradi. Uning lashkarlari Sultonning oz sonli qo'shini tomonidan mag'lub etiladi va amirning o'zi jangda halok bo'ladi.

Bilib oling!

Xalifa qo'shinining mag'lub bo'lgani haqidagi xabar Bag'dodga yetib borganida shaharda himoya istehkomlarini tiklashga kirishiladi. Jaloliddin qo'shinlari Bag'dod atrofidagi joylarga hujum qiladi va shahar atrofida 12 kun qoladi.

Xorazmshoh Daquqni bosib olganidan keyin Tikritga yo'l oladi. Bu yerga xalifalikning Muzaffariddin boshchiligidagi qo'shini yetib keladi. 1225-yilning aprel-may oylarida bo'lgan jangda Muzaffariddinning 10 ming lashkardan iborat qo'shini mag'lub qilinadi va uning o'zi asir olinadi. Jaloliddin undan o'ziga qarshi boshqa jang qilmaslik to'g'risida ishonchnoma olib, faxriy kiyim-bosh bilan siylab qo'yib yuboradi. Manbalarda aytilishicha, bundan xavotirga tushgan xalifa Nosir Jaloliddinga qarshi kurash uchun million dinor mablag' ajratadi.

Sulton Jaloliddin Marog'ada paytida Ozarbayjonga chegaradosh bo'lgan davlatlar hukmdorlari bilan hamkorlik qilishga urinib ko'rdi. U Ko'niyoliklar sultoni Alouddin Kaykubodga (1219-1236), Jazira hukmdori al-Malik al-Ashraf Muzaffariddin Musoga, Damashq hukmdori al-Malik al Muazzam Sharafiddin Isoga (1218-1227), Misr hukmdori Malik al-Muhammadga (1218-1236) maktublar yuboradi. Jaloliddin Ozarbayjonni bosib olgani xabarini va Gruziyaga hujum qilish niyati borligini ularga xabar qilgan. U g'arb hamda janubdagi qo'shni hukmdorlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatib, o'z xavfsizligini ta'minlashga ham urindi.

Sulton Alouddin Kaykubod elchiga hurmat-ehtirom ko‘rsatadi va sultonlar o‘rtasida do‘stlik munosabatlari o‘rnatiladi hamda do‘stlik qarindoshchilik bilan mustahkamlanadi. Kaykubod o‘g‘li G‘iyosiddin Kayxusrav II ga Sheroz hukmdori, Jaloliddinning yaqin qarindoshi otabek Abu Bakr ibn Sa’dning qizi olib beriladi. Xorazshoh maktubiga Kaykubod I dan tashqari Damashq hukmdori al-Malik al-Muazzam Iso ham javob beradi. Uning o‘zi Xorazmshoh bilan ittifoqda bo‘lish maqsadini bildirgan. Bu ittifoqqa, keyinchalik, Ibril hukmdori Ko‘k Bo‘ri ham kiradi. Jaloliddinning bu ikki ittifoqchisi ham uning nomini xutbaga qo‘shib o‘qittiradi va nomi bitilgan tangalar zarb ettiradi.

Bilib oling!

Bu ittifoq asosida Jaloliddin Yaqin Sharqda yirik davlat qurish va hatto, xalifalikni egallashni ham niyat qila boshlaydi. Jumladan, Damashqdagi ayyubiylar hukmdori al-Malik al-Muazzam Iso (1218-1227) Irbil hukmdori Muzaffariddin Ko‘k Bo‘riga bunday deb yozadi: «Menga Xorazmshoh Jaloliddin noma yubordi, unda shunday so‘zlar bitilgan: «Men bilan hamkorlik bitimi tuzganlar, sen va boshqalar, tayyor turinglar, xalifaga qarshi yurish boshlaymiz. Negaki, kofirlarning (mo‘g‘ullar) islom mamlakatlariga bosib kirishiga, musulmonlarning va mening otamning o‘limiga u sababchidir. Biz xalifaning ularga yozgan maktubini topdik. Bu maktubda u ularni islom mamlakatlariga hujum qilishga da’vat etgan». Shunday qilib, bu o‘rinda ham xalifa Nosirning Xorazmshohlarga qarshi kurashda mo‘g‘ullar bilan til biriktirganligini yaqqol ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, xalifa Jaloliddin timsolida Abbosiylarga qarshi katta kuchni ko‘rib, uni daf qilish maqsadida hatto o‘z dushmani bo‘lgan ayyubiylar hukmdori al-Malik al-Ashraf Muso (1210-1230) bilan ham hamkorlik o‘rnatishga harakat etgan.

O‘z vaqtida turk, arab, musulmon hokimlari uning hokimiyatini Yaqin Sharqda kuchayib ketishidan xavfsirashar, Jaloliddin bilan ittifoq tuzishni unchalik ham xohlashmas edi. Ularning ba’zilari hatto mo‘g‘ullar bilan ochiqdan-ochiq yaqinlashish siyosati tarafdori ham

edilar. Ayniqsa, Hilot qal'asining Jaloliddin tomonidan egallanishi unga da'vogar hokimlarning izzat-nafsini toptagan edi. Shu bilan birga, 1227-1228-yillarda Sulton qo'shini Anatoliya hududlariga kirib keladi va hatto Malazigirt egallanadi. Bu holat uning Alouddin Kaykubod bilan aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hilotning bosib olinishi sulton Jaloliddinning shu yerga yaqin viloyatlar hukmdorlari o'rtasida siyosiy mavqeini kuchaytirmadi, aksincha, u bu yerdagi girdobga chuqurroq cho'kdi va voqealarga o'ralashib qoldi. Jaloliddin bilan tinchlik, hamkorlik borasida muzokaralari muvaffaqiyatsiz yakunlangach, Ko'niya sultoni Alouddin Kaykubod I ayyubiy sultonlar bilan ittifoq tuzishga kirishadi. Bunda unga amakivachchasi Rukniddin Jahonshohning sotqinlik qilib Xorazmshoh tomonga o'tib ketishi qattiq ta'sir qiladi.

Bilib oling!

Rukniddin Xorazmshohga unga qarshi tuzilgan ittifoq to'g'risida ma'lumot berar ekan, dushmanlarning o'zaro qo'shilishiga qarshilik ko'rsatish xususida maslahat soladi. Ularning har qaysisiga qarshi alohida yurish boshlash zarurligini aytadi. Ammo Xorazmshohning kasalligi bu rejani amalga oshirishga halal beradi va vaqt boy beriladi. Ittifoqdoshlar qo'shinlari Sivosda to'planishib, Arzinjon tomonga qarab yuradilar. Sharq tomondan xuddi shu yo'ldan Jaloliddin qo'shinlari ularga qarshi borgan.

Jaloliddin unga qarshi ittifoq vujudga kelganidan xabardor bo'lsada, hech bo'lmaganda uni ma'lum turkiy hukmdorlar qo'llaydi deb yanglishgan edi. Jaloliddin va ittifoqchilar qo'shini o'rtasidagi birinchi jang 1230-yil 7-avgustda Yassi Chaman (Arzinjon yonida) tekisligida bo'lib o'tdi. Jaloliddin birlashgan ittifoqchilar qo'shinini mag'lub etsada, lekin ularni oxirigacha ta'qib etmadi. Bu hol ittifoqchilar qo'shiniga qo'l keldi.

1230-yil 10-avgustida Ko'niya sultoni Alouddin Kaykubod va Damashq hukmdori Malik Ashraflardan tashqari, Xums hokimi Mansur

Ibrohim Shirkuh, Xartabart hokimi Nuriddin O'turshoh, Halab hokimi Shamsiddin Savob, Mayaforiqin hokimi Muzaffar Shihobiddin va Baynas hokim Sulton Aziz Usmonlarning birlashgan ittifoqining Arzinjondagi jangida Jaloliddin mag'lub etildi. Ismoiliylar esa butkul xoinlik yo'lini tutib Jaloliddinning mag'lubiyati to'g'risida mo'g'ullarga yashirin noma ham yuboradilar.

24.4. JALOLIDDIN MANGUBERDI HALOKATI

Jaloliddin mag'lubiyatidan foydalangan mo'g'ullar uning Ozarbayjonning Mug'on, Shirkabutdagi qo'shin yig'ishi mumkin bo'lgan joylariga qo'qqisdan zarba berishdi. 1231-yil bahorida u Ganjaga kelib, barcha gina-kudratlarini unutib, yana mo'g'ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga murojaat etdi. Jaloliddin Ganjada turib o'zaro birlashish haqida qo'shni o'lkalar hokimlariga yuborilgan maktublarga javobni 17 kun davomida kutdi. Jaloliddinga hech qayerdan javob xati kelmadi. Jaloliddin Arrondan chiqib, Kichik Osiyo tomon yo'l olish va u yerda kuch to'plash niyatida edi. Lekin, Amid (Diyorbakir) amiri Malik al-Mas'ud taklifiga ko'nib, Ko'niya sultoniga qarshi kurash rejasini qabul qildi.

Shunda Amid yo'li yaqinida unga to'satdan mo'g'ullar hujum qilib qolishdi (1231-yil avgust boshi). Uni 15 chog'li mo'g'ul navkarlari ta'qib etishdi. Jaloliddin o'z sheriklaridan ajrab, Mayaforiqin (hozirgi Turkiyaning Silvan viloyati) yaqinida Ayndor qishlog'iga keladi. Ushbu tog'lik qishloqda u kurdlar qo'liga tushadi. O'zini «sulton» deb tanishtirgandan so'ng uni kurdlar o'ldirishga jazm etmaydilar. Uni tegishli joyga yetkazib qo'yish evaziga kurdlarga mukofot va'da qilinadi. Lekin kurdlar rahbari xonadonidan joy olgan, horib-tolgan Jaloliddinni boshqa bir kurd kishisi o'lgan inisi xuni evaziga o'ldiradi. Bu voqea taxminan 1231-yilning avgust oyi 17-20 sanalari oralig'ida ro'y bergan.

Ertasi kuni sulton buyumlarni sotib yurgan kurd xususida Mayaforiqin hukmdori al-Malik al-Muzaffarga xabar berishganda u qishloqqa o'z sarkardasi Shahobiddin G'oziyni yuboradi. Shahobiddin

G‘oziy sulton jasadini olib, qishloq erkaklarining barini o‘ldiradi va qishloqqa o‘t qo‘yib yuboradi. Muarrix Nasaviy buni eshitib, shaxsan Mayafariqinga o‘zi keladi. Jaloliddinning amakisi, vazir O‘turxon uning jasadini tanib, qattiq iztirobga tushadi. Jaloliddin Manguberdining murdasi Mayafariqinda dafn etilib, mo‘g‘ullar kirib kelgudek bo‘lsa, haqoratlanmasin degan maqsadda qabri yer bilan tekislab yuboriladi.

Bilib oling!

«Men Sulton mamlakatidagi qaysi uyda bo‘lmay, qaysi joyda yashamay, hamma yoqda xalq Sultonning hayot ekani, qo‘shinlarini yig‘ayotgani, totorlar ustiga yurish boshlashga tayyorlanayotgani haqida gapirayotganini eshitdim. Bu gaplar yolg‘on, u haqdagi umidlar sarob edi. Bular Sultonga bo‘lgan muhabbat, e’tiqod, sadoqat tufayli tug‘ilgandi. Men bu gaplarni Mayafariqinga yetib kelgunga qadar eshitgandim. Bu yerga kelgach, Sultonning o‘lganiga ishondim. Xorazmliklar xotirjam bo‘lgan payt totorlar (mo‘g‘ullar) Jaloliddinga qishloqda hujum qilishadi. Uning asir qilib olingan safdoshlari totorlarga, qochganlar orasida Sulton ham borligi haqida ma’lumot berishadi. Totorlar uning ketidan ta’qib etish uchun o‘n beshta otliqni yuboradi. Bulardan ikkitasi uning ortidan quvib yetadi. Lekin Sulton ularni o‘ldiradi, boshqalari uni tutishdan umidini uzib orqaga qaytishadi. Shundan so‘ng, Sulton toqqa ko‘tariladi. Tor yo‘llarda esa kurdlar talonchilik maqsadida pistirmalar qurgan edi. Ular Sultonni tutib olishadi va xuddi boshqalarni talagani kabi uning ham bor-yo‘g‘ini tortib olishadi. Ular Jaloliddinni o‘ldirishmoqchi bo‘lganda, u yo‘lto‘sar bosqinchilarning boshlig‘iga maxfiy ravishda bunday deydi: «Men, haqiqatan ham Sultonman, taqdirimni hal qilishga shoshma, sen uchun bir qancha imkoniyatlar bor: xohlasang meni Malik Muzaffar (Jaloliddinning noibi. Mayafariqin viloyati hokimi. – A.Z.) huzuriga olib bor, u seni taqdirlaydi,

xohlasang men bilan qo'l ostimdagi mamlakatlardan biriga yur, eng badavlat odamlardan biriga aylanasan».

Bosqinchilar yo'lboshchisi uni Sulton mamlakatlaridan biriga olib borishga ko'nadi. Chunki, Jaloliddinni uning noibi bo'lgan Malik Muzaffar huzuriga olib borish qaroqchi uchun xavfli bo'lib, u uchun sultonni uning o'ziga qarashli biror viloyatga olib borib, evaziga mukofot olish ma'qul ish edi. Shuning uchun u Sultonni urug'-aymoqlari yashaydigan chodirga olib boradi va uni xotini yonida qoldiradi (So'z Mayaforiqin yaqinidagi Ayndor qishlog'i haqida bormoqda. Ayndor hozirgi Turkiya Respublikasining Ozarbayjon chegarasiga yaqin hududida joylashgan. Sulton Jaloliddin shu qishloqda, 1231-avgust oyining o'rtalarida o'ldirilgan.- A.Z.). O'zi esa toqqa ot olib kelish uchun ketadi.

Oradan bir oz fursat o'tib, chodirga qo'lida nayza bilan kurd kirib keladi. Niyati buzuq, g'alamis bu odam ayoldan: «Bu xorazmlik kim? Nega uni o'ldirishmadi?» deb so'raydi. Ayol: «Uning kimligini aytishmadi, ammo erim uni Sulton deb rahm-shafqat qildi»,-deydi. Shunda kurd: «Sizlar uning Sultonligiga ishondingizmi? U sulton emas. Hilotda mening bundan yuz chandon yaxshi bo'lgan ukam o'lib ketdi. Bu nima bo'libdi», – deydi va nayzani unga shunday sanchadiki, boshqa nayza sanchishga zarurat qolmaydi».

Shihobiddin Nasaviyning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankburni» asaridan.

Jaloliddinning ashaddiy dushmani Damashq hokimi al-Malik al-Ashrafga sulton halokati xususida xabar etkazib suyunchi so'raganlarida, u qayg'uga botib: «Sizlar uning o'limi bilan meni qutlamoqchimisizlar? Ammo siz voqeaning achchig'ini tatib ko'rasizlar. Alloh nomi bilan qasam ichamanki, uning halokati islom olamiga mo'g'ullarning bostirib kirishini anglatadi. Endilikda biz bilan ya'juj va ma'jujlar o'rtasida devor bo'lib turgan Xorazmshohdek odam

yo‘qdir», – deb javob bergan edi. Ibn Vosil esa uni «mo‘g‘ullar va musulmonlar orasidagi istehkom bo‘lgan» deb ta’riflagan edi. Jaloliddinning o‘limidan so‘ng uning shonli nomi tez orada xalqlar tilida doston bo‘lib ketdi. «Jaloliddin tirik», «Jaloliddin qaytib kelayapti» degan ovozalar uzoq vaqtgacha mo‘g‘ullarni tahlikaga solib kelgan. Sulton Jaloliddin nomi bilan bog‘liq har qanday ma’lumot, voqelikni mo‘g‘ullar sinchkovlik bilan tekshirganlar. O‘zini «men Jaloliddinman» deb nomlagan turli shaxslar mo‘g‘ullarga qarshi ko‘p holatda isyon va qo‘zg‘olonlarga boshchilik qilganlar (masalan, 1236-yili Eronning Ustundorida ko‘tarilgan qo‘zg‘olon, 1255-yili Amudaryo bo‘yidagi voqealar va hokazo).

Jaloliddin Manguberdining o‘limi o‘sha davr muarrixlari tilida aytganda, «yo‘lbars (Chingizxon nazarda tutilgan. – A.Z.) changalidan omon chiqqan arslon chiyabo‘ri qo‘lida jon berdi». Uning o‘limini ko‘pchilik mutaxassislar Arab xalifaligi tugatilishini tezlatgan omil sifatida baholashadi. Ya’ni, mo‘g‘ullar va xalifalik o‘rtasida o‘ziga xos muhtasham devor 1231-yil qulaydi (Jaloliddin halok bo‘ladi) hamda oradan 27 yil o‘tib, 1258-yil xalifalik poytaxti Bag‘dod mo‘g‘ullar tomonidan egallanadi, xalifalik esa tugatiladi.

Xorazmshohlar avlodidan bo‘lgan Misr hokimi al-Muzaffar Sayfiddin Qutuz ajdodlarining kurash yo‘lini davom ettirib, 1260-yil 4-aprelda Falastindagi Ayn-Jalut yonida mo‘g‘ullarga qaqshatqich zarba berib, ularning Suriya va Misrga kirib kelishlariga chek qo‘yadi.



24.5. JALOLIDDIN MANGUBERDI XOTIRASINING TIKLANISHI

Jaloliddinning ozodlik va mustaqillik kurashlari tarixi asrlar davomida Sharq xalqlari tillarida doston bo‘lib ketdi. Eron, Turkiya, Misr, Pokiston, Suriya, Hindiston, Iroq va boshqa davlatlarda uning jasoratli hayot yo‘lini aks ettirgan asarlar nashr etilishi hamda buyuk sarkarda faoliyati xususida Yevropada ham tarixiy adabiyotlar chop etilganligi, 1998-yil Jaloliddin Manguberdining 800 yillik tavallud yoshiga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ta’kidlanganidek, sarkardaning «insoniyatga ozodlik yo‘lida kurashning, yurtni istibdod va zulmdan qutqarishning yorqin namunasi» sifatida bashariyat tarixida o‘chmas iz qoldirganligidan darak beradi.

Bilib oling!

O‘zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko‘rsatgan mislsiz jasorati, vatanga va o‘z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida «Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida» qaror qabul qildi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 24-sentyabrda 408-sonli maxsus qarori bilan tasdiqlanadi. Ushbu qarorga muvofiq, buyuk sarkardaning tavallud to‘yi keng miqyosda nishonlandi. Yubiley munosabati bilan Urganchda sarkardaga ulkan memorial yodgorlik o‘rnatildi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Xorazm Ma’mun akademiyasi, bir qator oliy o‘quv yurtlari, turli jamg‘armalar mutaxassislari tomonidan ko‘plab risolalar chop etildi, mohir rassom T.Quryozov tomonidan sarkardaning portreti yaratildi, «Jaloliddin Manguberdi – Vatan, yurt himoyachisi» mavzuida xalqaro ilmiy anjuman o‘tkazildi, yurtimiz mehmonlari ishtirokida ulkan teatrlashtirilgan tomoshalar bo‘lib o‘tdi.

1999-yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligining keng nishonlanishi, uning vatani Xorazmda unga mahobatli haykal o'rnatilinishi, O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, «G'anim oldida bosh egmagan, tiz cho'kmagan, Vatan deya halok bo'lgan» milliy qahramonimizga xalqimizning buyuk ehtiromi, muhabbati, ajdodlar xotirasini muqaddas saqlashi ramzi bo'lib qoldi. 2000-yil 30-avgustda «Jaloliddin Manguberdi» ordenining ta'sis etilishi esa uning sarkardalik faoliyatining yana bir e'tirofi bo'ldi.




2021-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Urganch shahri markazida Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasi rekonstruksiyasi boshlanadi. 2022-yil 29-avgust kuni Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ochilish marosimida ishtirok etgan davlat rahbari «Jaloliddin Manguberdi el-yurt istiqloli uchun kurashgan, shu yo'lda aziz jonini qurbon qilgan ajdodlarimizning buyuk namoyandasidir. Ona yurtga muhabbat va sadoqat, or-nomus va shon-sharaf bobida Jaloliddin Manguberdiga teng keladigan ulug' shaxslar dunyoda kamdan-kam uchraydi», – deya Sulton Jaloliddin siymosi haqida o'z fikini ifoda etgan edi.

Bo'yi 25 metrni tashkil etadigan haykalda Jaloliddin Manguberdi tulpor jilovini mahkam tutib, el-yurt himoyasiga otlanib turgani tasvirlangan. Sultonning qat'iyatli, mag'rur siymosida kelajakka katta ishonch bilan intilayotgan xalqimizning vatanparvarligi, bukilmas irodasi o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, haykal oldida Jaloliddin Manguberdi bitiktoshining nusxasi o‘rnatilgan. Eron hududidan topilgan, og‘irligi 32 kg, balandligi 30 sm bo‘lgan bu toshda Qur’oni karim oyatlari, Jaloliddin Manguberdining shajarasi yozilgan. Uning asli hozirgi kunda Londondagi mashhur Britaniya muzeyida saqlanadi. Majmua o‘rin olgan qariyb 8 gektar maydonda 18 mingga yaqin manzarali daraxtlar, gullar va butalar ekilgan.

Prezident buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish, uni xalq, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish zarurligini ta’kidladi. Xususan, shunday izlanishlar tufayli Turkiyaning Silvan shahrida uning taxminiy qabri topilgan. Davlat rahbari u yerda ramziy maqbara bunyod etish taklifini bildirdi. Shuningdek, 2022-yili Urganchda mudofaa vazirligi tashabbusi asosida o‘sib kelayotgan yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni harbiylik sohasi bilan yaqindan tanishtirish hamda yurt himoyachisi degan sharafli kasb egasi bo‘lishi uchun ma’nan va jismonan tayyorlash maqsadida «Jaloliddin Manguberdi maktabi» qurilishiga ramziy tamal toshi qo‘yildi.



Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O‘zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Ochiq dars» ko‘rsatuvining *Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari* mavzusiga bag‘ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

Atamalar izohi

☑ ***Roja*** – (sanskritcha – «hukmdor») - nufuzli shaxs, suveren, shahzoda yoki qirolning hind unvoni (zamonaviy hind tillarida, birinchi navbatda, hind tilida, u oxirgi «a» - rājsiz tez-tez talaffuz qilinadi). Ko‘rinishidan, u sanskrit tilidagi rāj ildizidan kelib chiqqan bo‘lib, «biror narsaning boshida bo‘lmoq», shuningdek, «porlash, chaqnamoq» ma’nosini bildiradi.

☑ ***Ya’juj va ma’jujlar*** – iudaizm, xristianlik va islom dinlarida 2 yovvoyi xalqning nomi. Afsonalarda Ya’juj va ma’jujlar uzun bo‘yli, keng yag‘rinli, ba’zilarining qulog‘i butun gavdasini qoplab turadigan, qiyomat kuni olamni bosib olib, hammayoqni xarob qiluvchi dahshatli va behisob xalq sifatida tasvirlangan. Islom rivoyatlariga ko‘ra, bu xalqlar qiyomat arafasida to‘siqni (metin devorni) teshib o‘tadi, yer yuziga yopirilib, barcha katta daryo va ko‘llarning suvini ichib tugatadi, uchragan odamni yanchib, yo‘q qilib yuboradi. Ya’juj va ma’jujlar haqida bir qancha hadislar ham kelgan. Mo‘g‘ullar bosqini paytida aksariyat mahalliy musulmonlar ularni «Ya’juj va ma’jujlar» deb bilishgan.

☑ ***Marog‘a*** — Eronning shimoliy g‘arbida, Sharqiy Ozarbayjon ostonidagi qadimgi shahar. Tabrizdan 80 km janubda joylashgan. Shahar yaqinidagi vodiyda mo‘g‘ul xonlari qishni o‘tkazishgan. Dastlabki hulokuiylarning qarorgohi bo‘lgan vaqtda ravnaq topgan.

Savol va topshiriqlar

1. Jaloliddin Manguberdining Hindistonda davlat qurish rejasiga to‘sqinlik qilgan omillar nimalardan iborat edi?

2. Jaloliddinning Hindistondan ketish sabablarini tushuntiring.

3. Sulton Jaloliddin va G‘iyosiddin Pirshoh o‘rtasidagi munosabatlarga baho bering.

4. Xalifalik va Sulton Jaloliddinning oralari buzilishiga sabab bo‘lgan voqealarni ayting.

5. Sulton Jaloliddin va Ismoiliylar o‘rtasida qanday aloqalar yo‘lga qo‘yilgan edi?

6. Sulton Jaloliddin va Tabriz o‘rtasidagi munosabatlarni izohlang. Tabriz malikasining Jaloliddinga sovchi yuborishi sabablarini tushuntiring.

7. Sulton Jaloliddinning Tiflis ustiga yurishiga izoh bering.

8. Tinimsiz yurishlar Sulton Jaloliddin davlati rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

9. Arzinjon jangiga sabab bo‘lgan omillarni sanang. Mag‘lubiyat sabablarini izohlang.

10. Jaloliddin Manguberdi halokati tafsilotlarini manbalar asosida tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdirimov B. Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha. – T.: Sharq ma’rifati. 2021.

2. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahongusho (Jahon fotihi tarixi) / Turk tilidan N. Rahim tarjimasi. – T.: Mumtoz so‘z, 2015.

3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

4. Buniyodov Z. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar: Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – T.: Mumtoz so‘z, 2012.

5. Bo‘riyev O.B., N.T.Toshev. Jaloliddin Manguberdi. – T., 1999.

6. Masharipov Q. Jaloliddin Manguberdining jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o‘rni. – T.: Yoshlar media print, 2021.

7. Xasanov F. Turon xalqlari harbiy san'ati. – T.: «O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi» DIN, 2018.

8. Shihobiddin Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati. – T.: O'zbekiston, 1999.

9. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma (Muqaddima). 1-kitob. / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va ilmiy izohlar muallifi O.Bo'riyev. – T.: Fan, 2020.

10. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т тарих. / отв. ред. Шамсиддин Камолиддин. – Т.: Узбекистан, 2006.

11. Фазлуллах Рашид-ад-дин. Джами ат-таварих. – Баку: Нагыл Ева, 2011.

25-MAVZU. CHIG‘ATOY ULUSINING SIYOSIY TARIXI



REJA:

25.1. Manbalar va adabiyotlar.
25.2. Chig‘atoy ulusining tashkil topishi.
25.3. Mahmud Tarobiy qo‘zg‘oloni.
25.4. Yalavochlar xonadoni faoliyati.
25.5. XIII asr ikkinchi yarmida Chig‘atoy ulusida siyosiy jarayonlar.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Manbalar, asar, Chig‘atoyxon, xon, Chig‘atoy ulusi, O‘qtoy, ulug‘ xoqon, Movarounnahr, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Olmaliq, Mo‘g‘uliston, Buxoro, Ili, Xo‘jand, «Yasoq», qonun, qoidalar, Mahmud Tarobiy, g‘alvir yasovchi hunarmand, qo‘zg‘olon, Mahmud Yalavoch, Mas’ud Yalavoch, islohot, noib, islom dini, o‘lpon, soliqlar, Qayduxon, Olg‘uxon, Muborakshoh, Baroqxon, Xubilayxon, Oltin O‘rda.

25.1. MANBALAR VA ADABIYOTLAR

Ushbu mavzuni o‘rganishda bir qator maxsus manbalar mavjud bo‘lib, ushbu manbalar orasida *Fazlulloh Rashididdin* qalamiga mansub «Jome ut-tavorix» asari muhim sanalib, asarning Chig‘atoyxon avlodlari haqidagi qismi ham ushbu davr tarixini o‘rganishda muhim manba sanaladi. Muallif aynan shu davrda yashab o‘tgani hisobiga asarda keltirilgan ma’lumotlarning bir qadar ishonchliligini ta’minlaydi.

Jumladan, asarda Chig'atoyxon, uning shaxsiyati, XIII asr o'rtalari va ikkinchi yarmidagi Chig'atoy ulusining siyosiy hayoti yoritib beriladi. Shuningdek, asarda Chig'atoy xonadoni shajarasi hamda Chig'atoy hukmdorlarining Elxoniylar bilan munosabatlari keng yoritilgan.

Yana bir manba *Hamdulloh Qazviniy*ning «Tarixi guzida» («Saylangan tarix») asari sanaladi. Qazviniy XIII asr so'nggi choragi va XIV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan yirik geograf va tarixshunos olimdir. Uning to'liq ismi Hamdulloh Abubakr ibn Ahmad ibn Nasr Mustavfiy Qazviniy bo'lib, 1281-yili Eron Ozarbayjonining Qazvin shahrida tug'ilgan. Hamdulloh Qazviniy Rashididdin davrida Qazvin, Abhar va Zanjon viloyatlarining moliya ishlarini boshqargan. Rashididdin qatl etilgandan so'ng, uning o'g'li G'iyosiddin Muhammadning xizmatida bo'lgan. Tarixchi 1350-yili vafot etgan.

Bilib oling!

«Tarixi guzida» umumiy tarix yo'nalishida yozilgan asar bo'lib, unda qadim zamonlardan to 1330-yilgacha Eron va qisman O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan voqealar bayon etilgan. Hamdulloh Qazviniy vafotidan keyin o'g'li Zayniddin tomonidan asar davom ettirilgan va unga 1392-yilgacha Eronda bo'lib o'tgan voqealar qo'shilgan. «Tarixi guzida» asari Eron va Turonning XIII-XIV asrning birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XIII asrda Osiyoga tashrif buyurgam yevropalik mashhur sayyoh Marko Polo (1254-1324)ning esdaliklari ham muhim manbalardan sanaladi. Asli venetsiyalik sayyoh Markaziy Osiyoga kelgan birinchi yevropalik emas edi, albatta. XIII asrda Sharqda yuzaga kelgan yangi kuch – Mo'g'ul imperiyasi g'arbdagi katolik cherkovi qiziqishiga sabab bo'ldi. Musulmon olamiga qarshi salib yurishlarini uyushtirishga homiylik qilgan Rim papalari endi bu yurishni mo'g'ullar kuchi bilan davom ettirishni o'ylay boshlagan. Shu maqsadda Osiyodagi mo'g'ul hukmdorlari huzuriga bir necha marta elchilar yuborishadi. Jumladan,



Marko Polo

venetsiyalik savdogarlar Nikolo va Marko Pololar 1261-yil Qrim orqali Buxoroga yetib keladilar. O‘sha vaqtlarda ushbu mintaqada Botuxonning ukasi Berkaxon urush harakatlarini olib borishi tufayli aka-uka savdogarlar ortga qayta olmay, Buxoroda uch yil qolib ketishdi. Ular 1266-yilda Xitoyda, Xubilay huzurida bo‘ladilar.

1271-yilda Marko Polo otasi va akasi bilan ikkinchi bor sharqqa safarga otlanadi. Marko Polo safar jarayonida yozgan esdaliklari yoki «Dunyo mo‘jizalari kitobi» asari ayni shu davrdagi Markaziy Osiyo va unga yondosh mintaqalar tarixi yuzasidan muhim tarixiy ma’lumotlar beradi.

Bilib oling!

Shuningdek, bu davr tarixini o‘rganishda temuriylar davrida yaratilgan qator manbalarni ham kiritish mumkin. Jumladan, Muiniddin Natanziyning «Muntaxab ut-tavorixi Muiniy», Fasih Xavofiyning «Mujmali Fasihiy», Xofizi Abruning «Zayli jome’ ut-tavorix», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi» asarlari ham ushbu davr tarixi uchun ma’lum darajada maxsus manba hisoblanadi.

25.2. CHIG‘ATOY ULUSINING TASHKIL TOPISHI

Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng Turonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchradi. Sharqda dong‘i ketgan qadimiy va obod shaharlar, jumladan, Samarqand, Buxoro, Urganch (Gurganj), Xo‘jand, Marv, Termiz, Niso, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobazorga aylantirildi. Marvdagi suv bilan shaharni ta’minlovchi Sultonband, Balxob daryosidagi Bandi amir, Samarqand

shahrini suv bilan ta'minlaydigan yagona to'g'on (Qo'rg'oshin nova)larning hammasi Chingizxon buyrug'iga ko'ra buzib tashlandi. Jumladan, Balx va uning atroflari olti oy mobaynida suv ofatini boshdan kechirdi. Samarqandning asosiy aholisi, buxoroliklarning ko'pchiligi, Urganch (Gurganj) va Marv kabi ulkan shaharlar aholisi ona shaharlarini yo tark etdilar yoki qirib tashlandilar. Istilochilar ilk bora yuqori madaniyatli aholining ilm-fan, me'morchilik sohalaridagi yutuqlarini, yuksak darajadagi hunarmandchilik, tijorat, sug'orma dehqonchilikni shu o'lkaga kelib ko'rdilar.

Bosqindan so'ng, sharqqa dong'i ketgan zargarlik, qurol-aslaha yasash, nafis matolar to'qish, naqshinkor nimchalar ishlab chiqarish va boshqalar barham topdi. Vohalarda suvsizlikdan yerlar qaqrab, dehqonchilikka qiron keldi. Bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan mashhur savdo yo'llari izdan chiqdi. Ilm-fan, madaniyat namoyandalari xor-zor etildi, tirik qolgan aholi esa zulm va zo'ravonlik, ochlik va qashshoqlikka mahkum etildi.

Bilib oling!

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o'z o'g'illariga mulklarini ulus qilib bo'lib berishni boshlagan edi. 1207-yildayoq katta o'g'il qo'l ostiga Selenga daryosidan Irtishgacha bo'lgan yerlar mulk etib berilgan edi. Chingizxon o'limidan oldin (1225-yil avgust) boshqa o'g'illariga ham turli zabt etilgan yerlarni ulus qilib bo'lib berdi. Ushbu taqsimotga ko'ra Oltoy tog'larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo'lgan yerlar Chig'atoyga merosiy mulk qilib berilgan.

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq xorazmlik taniqli savdogar, mo'g'ullar xizmatida anchadan beri faoliyat ko'rsatayotgan *Mahmud Yalavoch*ni Movarounnahr noibi etib tayinlashini bildirgan edi va u tez orada Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Uning qarorgohi esa Xo'jand shahrida joylashdi. Mahmud Yalavoch to'g'ridan to'g'ri *ulug' xoqon*ga bo'ysunar, shu sababli Movarounnahr boshqaruvi, asosan,



Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxonning (1183-1242) tasviri. “Mu’izz ul-ansob” ning XVIII asrga oid Hindiston nusxasidan olingan tasvir


ulug‘ xoqon qo‘lida edi. Chig‘atoyxon esa, asosan, Yettisuv va Elsuvi daryosi havzasiga egalik qilgan. Tarixchi Jamol Qarshiyning yozishiga ko‘ra, Chig‘atoy mulkining asosiy qismini tashkil qilgan hudud Yettisuvda joylashgan va El-Alarg‘u deb atalgan; uning asosiy shahri Ili vodiysidagi *Olmaliq* edi.

Chig‘atoyning o‘z ulusi hayotini yaxshilash uchun qilgan ba’zi tashabbuslari ma’lum. Misol uchun, uning buyrug‘i bilan sharqiy o‘lkalarni Ili vodiysi bilan bog‘lovchi ulkan yo‘l quriladi. Yo‘l Sharqiy Turkistondan Urumchi, Manas va Talki darasi orqali Ili vodiysiga o‘tadi, buning uchun bir qancha joylarda toshlar tashib, tog‘ o‘rmonidan 48 ta ko‘prik o‘rnatiladi. Bu ko‘prik o‘z davri uchun yetarlicha keng bo‘lib, uning ustidan bir vaqtning o‘zida ikkita arava o‘tishi mumkin edi. Shuningdek, Olmaliq yaqinida, Ko‘k tog‘lariga yaqin bo‘lgan hududda, Quyash («Quyosh») degan mavzeda Chig‘atoy *Qutlug‘* qishlog‘iga asos soldi. Bu yerda uning yozgi qarorgohi joylashgan edi. U qishni Ili vodiysidagi Merauzik-Ila hududida o‘tkazardi. Ili viloyati Chig‘atoyning o‘limidan keyin ham ulus hokimiyatining markazi bo‘lib qoldi. Chig‘atoylarning qo‘shini qarorgohi Tekes vodiysida joylashgan va Ulug‘-Ev (Ulug‘ xonadon) deb atalgan.

Xon oilasining eng kattasi sifatida otasi va akasi Jo‘chi vafotidan keyin (1227), Chig‘atoy so‘zsiz, nafaqat o‘z ulusida, balki Mo‘g‘ulistonda ham katta vakolatlarga ega bo‘ladi. Uning ukasi O‘qtoy ulug‘ xoqon bo‘lsa-da, akasining yosh xususiyatlarini inobatga olib, uning hurmatini joyiga qo‘yar edi.

Bilib oling!

Rashididdin O‘qtoy davrida (1229-1241) Chig‘atoy katta huquqlarga ega bo‘lganligini yozib qoldiradi: butun imperiya bo‘ylab buyuk xonning qarorlari «uning maslahati va roziligisiz» huqiqiy kuchga va hech qanday muhim ahamiyatga ega bo‘lmagan.



Musulmon va Xitoy manbalarida aytilishicha, Chig‘atoy og‘ir, bosiq odam bo‘lgan, guvohlar uning yuzida hech qachon tabassum bo‘lmasligini, faqat o‘z qat’iy so‘zlari bilan qo‘l ostidagilarni ilhomlantirib turganligini aytgan. Chingizxonning «Yasoq» qoidalarini yaxshi bilgan Chig‘atoyni zamondoshlari «Yasoq qo‘riqchisi» bo‘lganligini, qonunbuzarliklarga qat’iy qarshi turishini yozishadi. Mo‘g‘ul qonunlari va musulmon odatlari ko‘pincha ziddiyatli bo‘lganligi sababli, Yasoga qat’iy amal qilgan Chig‘atoy islom diniga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lmagan.



Chig‘atoyxon

1242-yil boshida o‘z ukasi ulug‘ xoqon O‘qtoy vafotidan bir oz o‘tib Chig‘atoy ham vafot etdi. Rashididdinning yozishicha, Chig‘atoyning sakkiz o‘g‘li bo‘lgan. Chig‘atoy tirikligi paytida o‘z vorisi sifatida sulola vakillari roziligi bilan to‘ng‘ich o‘g‘li, 1221-yilda Hindukushdagi Bomiyon jangida halok bo‘lgan Mutugenning farzandlaridan eng kattasi bo‘lgan *Qora-Hulagu*ni tayinladi.

Buyuk xoqon O‘qtoy va Chig‘atoyning o‘limi, mo‘g‘ullar imperiyasining ahvolini yanada murakkablashtirdi. Besh yil davomida hokimiyat uchun kurash, notinchlik avj oldi. Bu davrda hukmdor rolini O‘qtoyning bevasi *To‘ragana* bajardi. 1246-yilgi qurultoyda O‘qtoyning to‘ng‘ich o‘g‘li *Guyuk* ulug‘ xon deb e’lon qilindi. Guyukxon taxtga kelgach, Chig‘atoy ulusida uning buyrug‘i bilan Chig‘atoyning nabirasi Qora-Hulagu taxtdan ag‘darildi va yangi buyuk xon bilan mustahkam do‘stlik aloqalariga ega bo‘lgan Chig‘atoyning o‘g‘li *Yesu-Munqa* Chig‘atoy ulusi taxtiga o‘tirdi. Garchi taxt tepasida Yesu-Munqa turgan bo‘lsa-da, uning qo‘l ostida xotini Tukashi barcha ulus ishlarini boshqargan.

Guyukxonning qisqa hukmronligidan keyin (1246-1248), yana bir bor hokimiyat uchun kurash boshlanib ketadi. Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasida Jo‘chi va Tulu avlodlari o‘ziga xos to‘ntarishni amalga oshirib, 1251-yilda Tuluning katta o‘g‘li *Munqa*ni imperiyaning ulug‘ xoqoni deb e’lon qildilar. Yangi buyuk xonning hokimiyatga kelishi qonli qatag‘onlar bilan boshlandi. Munqaga qarshi fitna uyushtirishda ayblangan Chig‘atay va O‘qtoy xonadoni shahzodalari qisman o‘ldirilgan yoki mamlakatdan chiqarib yuborilgan, fitnachilarga sheriklikda gumon qilingan harbiy rahbarlar qatl etildi. Uluslar, jumladan, Chig‘atoy ulusi ham rasman bo‘lsada o‘z mavjudligini

saqlab qolgan. Ulug‘ xoqon Munqa Chig‘atoy ulusi taxtida bo‘lgan Yesu-Munqa o‘rniga *Qora Xulaku*ni qaytadan ulus hukmdori etib tayinlagan. Ammo Qora Xulaku Mo‘g‘ulistondan Iliga qaytishda vafot etadi. Shundan so‘ng, buyuk xoqonning roziligi bilan, marhumning bevasi *O‘rkina* ulusga hukmdor bo‘ldi.

Bilib oling!

Amalda hokimiyat Tulu va Jo‘chi avlodlari o‘rtasida bo‘linib, O‘qtoy hukmronligi davrida bo‘lgani kabi boshqarilmay, endi Chig‘atoy ulusida ikki tomonlama hokimiyat yuzaga keldi. Buyuk xon Munqa va Jo‘chi ulusi boshlig‘i Botuxon ta’sir doiralari orasidagi chegara, Talas va Chu daryolari oralig‘idagi dashtdan o‘tgan.

25.3. MAHMUD TAROBIY QO‘ZG‘OLONI

Rashididdinning ma’lumotiga ko‘ra, Chingizxon vafotidan so‘ng Chig‘atoyga 4000 ta askar berilgan edi. Ularning boshliqlari o‘z navbatida barlos, jaloyir, qavchin va orlot qabilalaridan bo‘lgan. Ibn Arabshohning yozishicha, qavchinlar Amudaryo shimoli, Buxoroning sharqiy qismida, barloslar Qashqadaryo vohasida, orlotlar Afg‘oniston shimolida joylashganlar. Keyinchalik, Mahmud Yalavoch ham o‘z siyosati borasida shu qabilalarga suyanib ish ko‘rar edi.

Mislsiz jabr-zulm, aholining xorlik va qashshoqlik domiga tashlanishi, soliqlarning haddan ziyod osishi, mehnatkash aholining tinka madorini quritib yubordi. Aholi ichida mo‘g‘ullarning zo‘ravonligi va istibdodiga qarshi norozilik harakati tobora kuchayib, bu norozilik ayniqsa, 1238-yilgi Mahmud Tarobiy qo‘zg‘olonida o‘z aksini namoyon qildi. Bu ozodlik qo‘zg‘oloni 1238-yil Buxorodan uch farsah (taxminan 18-21 km) uzoqlikdagi Tarob qishlog‘ida boshlandi. Bu qo‘zg‘olonda mo‘g‘ullar va mahalliy zodagonlar zulmidan ahvoli og‘irlashgan hunarmand, dehqon va kambag‘al aholi, ayniqsa, faol qatnashadi. Qo‘zg‘olonga esa asli Tarob qishlog‘idan bo‘lgan g‘alvir yasovchi hunarmand usta Mahmud Tarobiy boshchilik qiladi.

Bilib oling!

Manbalarda keltirilishicha, Mahmud Tarobiy «ko‘r va pes, shuningdek, boshqa surunkali kasalliklarni davolab, xalq orasida o‘z karomatiga ega shayx sifatida mashhur» bo‘la boshladi. Buxorolik aqoid (diniy ilm) olimi, mashhur shayx Shamsiddin Mahbubiy Mahmud Tarobiyning ortib borayotgan obro‘-e’tiboridan mo‘g‘ullarga qarshi kurash yo‘lida foydalanishga harakat qiladi. Jumladan, Mahbubiy Mahmud Tarobiy huzuriga kelib, unga: «Otamdan eshitganmanki, Buxoroning bir qishlog‘idan butun olamni zulmdan xalos etadigan bir kishi chiqadi, o‘sha kishida bor barcha ishoratlarni senda ko‘rayapman» qabilidagi so‘zlari orqali Tarobiyni isyonga chorlaydi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, mo‘g‘ul istilosi natijasida Movarounnahrda diniy ulamolarning nufuzi juda pasayib ketadi. Ayniqsa, hokimi mutlaq darajasidagi obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan Buxoro ulamolari uchun bu holat o‘ta erish tuyilar edi. Shamsiddin Mahbubiyning maqsadi Tarobiy orqali yangi saltanat qurish va eski imtiyozlarga qayta ega chiqish ham edi.

Mahmud Tarobiy avval o‘z qishlog‘ida istilochilar zulmi, bedodligiga qarshi otashin chaqiriqlar bilan chiqadi. Buxoro hududlarini nazorat qiluvchi doira va mo‘g‘ul bosqoq (mahalliy hokim)lari Mahmud Tarobiyni yo‘q qilishga urinishadi. Jumladan, ular Mahmud Tarobiyga ixlos qo‘ygan murid ko‘rinishida uning huzuriga borib, Mahmudni Buxoroga borishga ko‘ndiradi. Ammo ularning Saripul ko‘prigida Tarobiyni tutib o‘ldirishga bo‘lgan urinishlari bekor ketdi. Natijada, Mahmud Tarobiy Buxoroga sog‘-salomat kirib keladi. Shaharda uning atrofiga ko‘plab tarafdorlar yig‘ila boshlaydi. O‘z atrofiga yig‘ilgan qo‘zg‘olonchilarga murojaat etib: «Ey haq toliblari, qachongacha kutamiz va intizorlik tortamiz. Ro‘yi zaminni tangridan qorqmaydiganlardan pok qilmoq lozim. Kimning qanday qurolga qurbi yetsa, qilichmi, o‘q-yoymi, kaltakmi, qo‘lga olsin. Qoldan kelgancha tangridan qo‘rqmaydiganlardan birontasini ham tirik qoymaslik

lozim», – degan so‘zlar bilan xalqni ozodlik kurashiga da’vat etadi. Shu paytda Sherozdan harbiy anjomlar ortilgan karvon Buxoroga kelgan bo’lib, karvonni egallab olgan qo‘zg‘olonchilar shu orqali qurollanib olishadi. Qo‘zg‘olon kuch-qudrati oshib borayotganligini, xalq qo‘zg‘olonchilar tarafiga o‘tib borayotganligini ko‘rgan mo‘g‘ul no‘yonlari Movarounnahr hokimi Mahmud Yalavochdan yordam sorashga majbur bo‘ladilar. Mahmud Tarobiy o‘zining ko‘plab tarafdorlari bilan Buxoro tomon yo‘l oladi.

Bilib oling!

Tarixchi Atomalik Juvayniy Mahmud Tarobiy haqida shunday deb yozgan edi: «U akobir, boy-badavlat kishilarni haqorat qildi, sharmandasini chiqardi, o‘ldirtirdi, ularning bir qismi esa undan qochib qutuldi. U oddiy xalqqa va darbadarlarga aksincha iltifot va marhamat ko‘rsatdi. Darhaqiqat, Mahmud Tarobiy Buxoro ahliga muruvvat namunalarini ko‘rsatdi. Buxorodan qochgan mo‘g‘ul harbiylari va buxorolik zodagonlar Karmanaga kelib panoh topgan edilar. Bu yerda ular ma’lum kuch to‘plab, Mahmud Tarobiy ustiga harbiy yurishni boshlaydilar. Bundan xabardor bo‘lgan Mahmud Tarobiy dushmanga qarshi kurashish maqsadida shahar chetidan Karmana yo‘liga katta harbiy kuch bilan chiqadi. Ikki o‘rtadagi qattiq jangdan so‘ng istilochilar yengilib, orqaga chekindilar».

Qo‘zg‘olonchilar mo‘g‘ullarni to Karmanagacha quvib borganlar. Manbalarda aytilishicha, ushbu jangda mo‘g‘ullardan 10000 kishi qirib tashlangan. Shunday bo‘lsada, bu zafarli jangda qo‘zg‘olon rahbarlari bo‘lmish Mahmud Tarobiy va Shamsiddin Mahbubiylar ham halok bo‘lgan. Shundan keyin qo‘zg‘olonchilar halok bo‘lgan Mahmud Tarobiyning o‘rniga uning ukalari Muhammad va Alini rahbar etib saylaganlar. Lekin, bu yangi rahbarlarning harbiy tajribalari bo‘lmay, xalq ularni yaxshi tanimas, ular omma ichida nufuzga ega emas edilar. Bu esa qo‘zg‘olonning borishiga salbiy ta’sir o‘tkazdi. Oradan bir hafta

o‘tmay qo‘zg‘olonni bostirish uchun mo‘g‘ullarning *Elduz noyon* va *Chag‘an qo‘rchi* boshchiligidagi yangi qo‘shini yuborilgan. Ikki tomonlama jangda Mahmud Tarobiy tarafdorlari butkul tor-mor qilinib, ikkala tomondan 21 mingdan ortiq jangchi halok bo‘lgan.

Mahmud Tarobiy boshchiligidagi ushbu xalq ozodlik qo‘zg‘oloni xalqimiz ozodlik kurashlari tarixida o‘ziga xos iz qoldirdi. U, avvalo, istilochilar va ular tomoniga o‘tib ketgan mahalliy zodagonlarning umumiy zulmiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon edi. Bu ozodlik qo‘zg‘oloni mo‘g‘ul istilochilariga ular qanchalik shafqatsiz tuzum o‘rnatmasinlar, xalq hamisha o‘z ona vatani ozodligi yo‘lida kurashdan cho‘chimasligini namoyon qildi. Hokimiyat ham bu harakatdan o‘zlari uchun ma’lum xulosalar chiqargan. Jumladan, bosqoqlar tomonidan yig‘iladigan soliq va o‘lponlarni tartibga keltirishga harakat qildilar.

25.4. YALAVOCHLAR XONADONI FAOLIYATI

Mahmud Tarobiy qo‘zg‘olonidan keyin Chig‘atoy mahalliy noiblarga ham choralar ko‘rgan. Jumladan, qo‘zg‘olonni bostirishda sustkashlik qilgan deb hisoblab, Mahmud Yalavochni Movarounnahr noibligidan chetlashtirib, uni ulus hududidan chiqartirib yuborgan. Tez orada ulug‘ xoqon (O‘qtoy) uni Dasin (Pekin)ga shahar noibi etib tayinlaydi. Shundan so‘ng, Movarounnahr noibi hamda ijaradori sifatida Mahmud Yalavochning o‘g‘li Mas’udbek tayin etiladi. U o‘limiga qadar (1289) shu lavozimni egallab turadi.

Yuqorida qayd etilganidek, Mahmud Yalavoch va keyinchalik, uning avlodlari ham Movarounnahr va Sharqiy Turkiston hududida Chig‘atoy ulusi boshqaruvida katta nufuz va o‘ringa ega bo‘lgan. Chingizxon tiriklik vaqtidayoq xorazmlik taniqli savdogar, mo‘g‘ullar xizmatida anchadan beri faoliyat ko‘rsatayotgan Mahmud Yalavochni Movarounnahr noibi etib tayinlashini bildirgan edi va u tez orada Movarounnahr noibi etib tayinlangan. Uning qarorgohi esa Xo‘jand shahrida joylashdi. Shubhasiz, Mahmud Yalavoch yirik va boy savdogar bo‘lib, manbalarning guvohlik berishicha, uning boyligi shunchalik ko‘p bo‘lganki, hatto u butun Movarounnahrdan olinadigan

soliqni oldindan to‘lashi ham mumkin edi. Uning ixtiyorida mo‘g‘ullarning tayanchi bo‘lgan soliq yig‘uvchi mo‘g‘ul bosqoqlari, mahalliy hokimlar, dorug‘alar – harbiy ma’murlar hamda bir muncha mo‘g‘ul harbiy otryadlari bor edi.

Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish, o‘lkada mo‘g‘ullarga qarshi g‘alayon bo‘lishining oldini olish mas’uliyati yuklatilgan edi. Shu bilan Mahmud Yalavoch to‘gridan-to‘g‘ri ulug‘ xoqon O‘qtoyga bo‘ysunar edi.

Bilib oling!

Kelib chiqishi Xorazmdan bo‘lgan savdogar Mahmud Yalavoch 1218-yildan oldinroq Chingizxon xizmatga kirgan bo‘lishi kerak, chunki o‘sha yili mo‘g‘ul hukmdori uni boshqa turkistonlik savdogarlar bilan birga Xorazmshoh sulton Alouddin Muhammad saroyiga elchilik uchun yuborgan. Mahmud 1221-yili Chingizxon tomonidan ilk bora G‘aznada Dorug‘achi etib tayinlangan. 1229-yilda yangi saylangan O‘qtoyxon Mahmud Yalavochni Movarounnahr, Turkiston va Uyg‘uristonning birinchi hokimi (sohib-devoni) etib tayinladi.

Dabdabali o‘yin-kulgilar, ziyofatlar va qimmatbaho sovg‘alar bilan o‘z saxovatini namoyish qilgan Mahmud tez orada O‘qtoyning e’tiborini qozongan va bundan foydalanib, uning Movarounnahrdagi siyosatida bir qator yengilliklar qilinishiga erishgan. Mahmud Yalavochning harakatlari o‘laroq tinch aholi xonadonlari harbiy yig‘imlarni to‘lashdan ozod qilinadi va oldindan miqdori belgilan-magan «qobchur» (chorva solig‘i) solig‘i qat’iy kumush solig‘iga almashtiriladi. 1238–1239-yillarda u buxoroliklarning muvaffaqiyatsiz qo‘zg‘olonidan so‘ng oddiy aholini mo‘g‘ul qo‘shinlari tomonidan qirib tashlasnishdan saqlab qoladi. Bu holat esa Chig‘atoyning noroziligiga sabab bo‘lib, o‘z lavozimidan ozod etilishiga olib kelgan edi. Uning o‘rniga o‘g‘li Mas’udbek Movarounnahrdagi ulug‘ xoqon noibi etib tayinlanadi. Shundan keyin Mahmud Yalavoch ulug‘ xoqon

O‘qtoy buyrug‘i bilan Shimoliy Xitoyda noib va *yarg‘uchi* (nozir) etib yuboriladi (Keyinroq Pekin shahriga). Buning sabablaridan biri shunda ediki, 1240-yilda O‘qtoy Shimoliy Xitoyda ancha yuqori daromad olish imkoniyatiga qiziqib qolgan edi. Shu sababli ham Yelyuy Chutsay ornida yaxshigina moliyaviy bilimlarga ega bo‘lgan Mahmud Yalavoch bu yerga yuboriladi.

Bilib oling!

Mahmud Yalavochning Shimoliy Xitoydagi qarorgohi Beijing (Pekin) shahrida bo‘lib, u Xitoyda ham bir qator yangi boshqaruv usullari va soliqqa tortish tizimini ishlab chiqadi. Jumladan, soliqlar endilikda natura o‘rniga kumushda olina boshlandi, chorvachilik uchun soliq joriy etildi.

1241-yilda O‘qtoy vafot etgach, Yalavoch siyosiy ta’qibga uchraydi. O‘qtoyning xotini To‘ragana Yalavochni hibsga olishga harakat qiladi. Ammo Mahmud malika ta’siridan uzoq bo‘lgan O‘qtoyning o‘g‘li Xo‘ten huzuriga qochib ketgan. Shuningdek, uning o‘g‘li Mas’udbek ham Botu huzuridan siyosiy boshpana izlashga majbur bo‘ladi. Faqatgina, 1246-yilda taxtga kelgan Guyukxon ularni eski lavozimlariga qaytargan. 1248-yilda Guyukning erta vafoti ularning pozitsiyalariga ta’sir qilmadi: ular avvalboshdan Munqaning saylanishini qo‘llab-quvvatlaydilar va dastlab egallab turgan yuqori darajadagi lavozimini saqlab qolishgan.

Mahmudning kelib chiqishiga ko‘ra xorijiy yurt vakili bo‘lganligi va uning Xitoydagi soliq siyosati mahalliy amaldorlar hamda ba’zi sulola vakillariga yoqmas edi. Shu sababli, Mahmudning siyosiy raqiblari konfutsiylik asoslarida tarbiya topgan Xubilayni homiy qilib olishadi. 1252-yilda Xubilay Mahmudni sud nazorati chog‘ida gumondorlarni qatl qilgani uchun tanqid qildi. Natijada, Munqa (1251-1259) tomonidan ishdan olingan Mahmud Yalavoch ko‘p o‘tmay vafot etgan.

Mas’udbek 1259-yil, Munqa vafotigacha Turkiston hokimi bo‘lib qoldi. Munqa vafotidan so‘ng Xubilay va uning ukasi *Ariq-Buqa*

o‘rtasida fuqarolar urushi boshlandi. Mas’ud tabiiyki Xubilayga qarshi chiqdi. 1264-yilgacha Mo‘g‘ulistonda hukmronlik qilgan Ariq-Buqa Chig‘atoy ulusi bilan munosabatlarni tiklashga harakat qiladi. Ariq-Buqa Chig‘atoy avlodidan bo‘lgan Olg‘uni Chig‘atoy ulusi hukmdori etib tayinlashga erishadi. Olg‘uxon Mas’udbekni yana Movoraunnahrga sohib devon qilib qoldiradi. Olg‘u vafotidan keyin Baroqxon (1266–1271) xizmatiga kirgan Mas’udbek bosh vazir lavozimida faoliyat yuritadi. Biroq Baroqxon hukmronligi Movarounnahr dehqonlarining keng talon-taroj qilinishi bilan boshlandi. Bu esa 1269-1270-yillarda Mas’udning mamlakat xo‘jaligini, aholi turmushini tiklash siyosati mavaffaqiyatsizlikka uchradi. 1271-yildan keyin Mas’ud va uning o‘g‘illari Qayduxonga (1236–1301) xizmat qildilar.

Xullas, Mas’udbek Movarounnahrda katta tiklanish ishlarini olib bordi. Jumladan, Buxoroda Mas’udbek tomonidan ulkan Mas’udiya madrasasi bino qilinib, unda o‘z davrida 1000 ga yaqin talaba ilm olgan.



Mas’udbekdan so‘ng bir qator sulola vakillari ham Chig‘atoy ulusi hukmdorlari xizmatida bo‘ldi. Jumladan, Mas’udbek vafotidan so‘ng uning o‘g‘li G‘iyosiddin Abu Bakr Mas’ud II Qayduxon tomonidan otasining lavozimiga tayinlanadi va 1290-1298-yillarda bu lavozimda

O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronligi (XIII – XIV asrlar)

faoliyat yuritadi. Abu Bakrdan so‘ng uning amakisi Satilmishbek ibn Mahmud Yalavoch Mas’ud III nomi bilan vazirlik martabasida faoliyat yuritadi. Ammo keyingi sulola vakillari avvalgidek katta siyosiy nufuz va kuchga ega bo‘lmagan. Bu balki Chig‘atoy ulusida xonlarning boshqaruvdagi nufuzi ortishi bilan bog‘liq edi. Jumladan, sulolaning so‘nggi vakillaridan biri Suyunchbek Mas’ud IV faqatgina Qoshg‘arning noibi sifatida faoliyat yuritgan, xolos.

25.5. XIII ASR IKKINCHI YARMIDA CHIG‘ATOY ULUSIDA SIYOSIY JARAYONLAR

Munqaxon vafotidan so‘ng mo‘g‘ul ulusi taxti uchun kurashlar boshlanib ketdi. Jumladan, Xitoyda Xubilayxon, Qoraqurumda esa Ariq Buqoxon, Chig‘atoy ulusining shimoliy chegarasi bo‘ylab Qayduxon hukmron bo‘lib oldilar. Xubilayxon va Ariq Buqoxon o‘rtasidagi kurashlar, ayniqsa, shiddatli kechdi. Xubilayxon Qoraqurumga oziq-ovqat yuborishni cheklab qo‘ydi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismini Xitoydan oladigan dashtlik xalqlar qiyin ahvolda qolgan. Shu sababli, Ariq Buqoxon Olg‘uni Chig‘atoy ulusi taxtini egallab, uni Oltin O‘rda ta’siridan chiqarib olishiga yordam beradi. Jumladan, Mirzo Ulug‘bek aytganidek «Olg‘u va Ariq Buqo o‘rtasida to‘liq muvofiqlik va sadoqat mavjud edi». Chig‘atoy ulusini idora qilayotgan *O‘rkina* xotunning Olg‘uga turmushga chiqishi ham, o‘z navbatida, Olg‘uning hokimiyatini huquqiylashtiradi. Ammo ko‘p o‘tmay Olg‘u Ariq Buqoxonga qarshi harakat qila boshlaydi va munosabatlardagi muvozanat buziladi. 1263-1264-yillar atrofida Olg‘u vafot etgan. Natijada Xubilayxon boy hudud sanalgan Movarounnahr hududlari ustidan siyosiy nazorat o‘rnatishga harakat qiladi va o‘ziga xayrixoh bo‘lgan xonzodalarni (Muborakshoh va Baroqxon) Chig‘atoy ulusiga yuboradi.

Muborakshohxon 1264-yil bahorida Ohangaronda Chig‘atoy ulusining xoni deb e’lon qilindi. Xubilayxon yuborgan yorliqqa ko‘ra Baroqxon Muborakshohdan so‘ng Chig‘atoy ulusi taxtiga o‘tirishi mumkin edi. Shu sababli, Baroqxonning otasi Esun Duvaning Chig‘atoy ulusi-

dagi obro‘sini hisobga olgan Muborakshoh Baroqxonni o‘ziga yaqin tutishga intilgan. Jumladan, Baroqxonga *«Barschi»* unvonini beradi.

Muborakshohxon birinchi bo‘lib *islom* dinini qabul qilgan Chig‘atoy xoni edi. U Toshkent vohasidagi Ohangaronda yangi dinga o‘tganligini e’lon qildi. Balki, aynan shu jihat ba`zi mo‘g‘ul amaldorlarining undan norozi bo‘lishiga sabab bo‘lgani, ehtimol. Chunki, mo‘g‘ul aristokratiyasining huquqiy qomusi sanalgan Chingizxonning yasosida dinlarga birdek munosabatda bo‘lish uqtirgan edi. Natijada Muborakshohdan norozi bo‘lgan amaldorlar Baroqxon atrofida birlashadi. Jumladan, Rashiddiddin bergan ma’lumotga ko‘ra, harbiylarning bir qismi va Muborakshohxonning bitikchisi (munshiysi) Baroqxon tarafiga o‘tib ketadi. Buning oqibatida Chig‘atoy ulusida fuqarolar urushi yuzaga kelgan, desak xato bo‘lmaydi. Ulusning shimolida Mubarakshohxon o‘rnashib olgan edi. Baroqxon esa kuch to‘plash maqsadida Movarounnahrning markaziy va janubiy hududiga joylashganligi, ehtimol. Chunki, Movarounnahr janubidagi Chag‘oniyon Baroqxonning otameros mulki sanalar edi. Nihoyat, 1265-yil kuzida Muborakshoh va unga qarshi turgan Baroqxon qo‘shinlari Xo‘jandda to‘qnash keladi, jang natijasida Muborakshohxon taxtdan ag‘dariladi.

Bilib oling!

Baroqxon 1266-yil boshida Chig‘atoy ulusi taxtiga o‘tiradi. U ko‘p o‘tmay Movarounnahrni to‘liqligicha o‘z tasarrufiga kiritib, davlatni mo‘g‘ul ulug‘ xonlari ta’siridan to‘liq ajratib oladi. Jumladan, 1266-yillar atrofida Xubilayxonning Baroqxonni Mo‘g‘ulistonga bo‘ysundirish uchun yuborgan qo‘shinlari Sharqiy Turkistondan quvib chiqariladi. Natijada Baroqxon Chig‘atoy ulusining amalda o‘z qo‘liga o‘tishiga erishdi. Bunga qadar esa Chig‘atoy ulusi xonlari ma’lum darajada ulug‘ xoqonga qaram edi.

1268-yilda Baroqxon va Chig‘atoy ulusining shimoli-sharqiy qismida hukmronlik qilayotgan Qayduxon o‘rtasida janglar bo‘lib o‘tadi. Ammo ko‘p o‘tmay ikki o‘rtadagi kurashga Oltin O‘rda

hukmdori Mangu (Munqa) Temur aralashadi. Oxir oqibatda ikki o‘rtada sulh tuziladi. Sulhga ko‘ra, bir yildan so‘ng Talas vodiysida qurultoy chaqirtirilishi lozim edi. 1269-yili Talas vodiysida chaqirilgan qurultoyda Mangu Temur, Qaydu va Baroqxonlar ishtirok etib, ikki xon o‘z mulklari chegarasini belgilab oladilar. Ushbu bitimga ko‘ra, Movarounnahrning 2/3 qismi Baroqxonga, 1/3 qismi Qayduga beriladi. Shuningdek, Baroqxonning Xurosonga yurishi vaqtida Qayduxon o‘z qo‘shinlari bilan unga yordam ko‘rsatishiga kelishiladi.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O‘zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Tarixiy savol» ko‘rsatuvining *Chig‘atoy ulusi*ga bag‘ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «YouTube» videohostingidagi rasmiy sahifasi)

1270-yil bahorida Baroqxon katta qo‘shin bilan Xuroson yurishiga otlandi. Dastlabki jangda Abaqaxonning ukasi Tushbin o‘g‘ul va amir Arg‘un boshchiligidagi qo‘shin Baroqxon tomonidan mag‘lubiyatga uchratiladi. Ammo ko‘p o‘tmay o‘rdudagi kelishmovchilik sababli Qayduxon yuborgan amirlar Baroqxon qo‘shinidan ajralib, ortga qaytib ketishadi. Natijada, Abaqaxon qo‘shinlari bilan bo‘lgan hal qiluvchi jangda Baroqxon mag‘lubiyatga uchraydi. Abaqaxondan yengilib Movarounnahrga qaytgan Baroqxon falajga chalingan bo‘lib, uni taxtiravonda ko‘tarib yurishar edi. Baroqxonni jismonan davlat boshqarishga layoqatsiz hisoblagan ba’zi mo‘g‘ul xonzodalari isyon ko‘tara boshlaydi. Natijada, Baroqxon yordam ilinjida yana Qayduxon huzuriga ketishga majbur bo‘ladi.

1271-yil Baroqxon vafot etgach, Chig‘atoy ulusi Qayduxon ta’siriga tushib qoladi. Bu jarayon yana 30 yil davom etgan.

Atamalar izohi

☑ **Yalavoch** – qadimgi va o‘rta asr turkiylarda elchi, xabarchilarga nisbatan «yalabach» atamasi ishlatilgan.

☑ **Barschi** – Rashididdinning yozishicha, Muborakshoh Baroqxonni o‘ziga yaqin tutib, «Barschi» unvonini beradi. Bu unvonning o‘zagi «bars» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, hukmdor saroyidagi mushuksimonlar – yo‘lbars, qoplon, sher kabi ov hayvonlarini boquvchilarga mas’ul shaxs bo‘lgan.

☑ **Ulus** (mo‘g‘ulchadan «davlat», «xalq») – 1) Mo‘g‘ullar davlati shakllanish davri (XIII asr boshi)da muayyan bir no‘yonga tobe bo‘lib, unga qarashli yerlarda ko‘chmanchilik bilan hayot kechiruvchi katta-kichik oilalar guruhi; 2) Chingizxon tuzgan ilk mo‘g‘ul davlati; 3) mo‘g‘ullar istilosi davrida bosib olingan hududlardan Chingizxon farzandlariga bo‘lib berilgan mulk (udel) lar (masalan, Jo‘chi ulusi, Chig‘atoy ulusi va boshqalar). XIII asrning 2-yarmida bu uluslar mustaqil davlatlarga aylanib, nomigagina saltanat hukmdori – ulug‘ qoonga bo‘ysunganlar. «Ulus» atamasi mulk ma’nosida qo‘llanilmaydigan bo‘lgan va asta-sekin «xalq» ma’nosini anglata boshlagan.

Savol va topshiriqlar

1. Chig‘atoy ulusi tarixi bilan bog‘liq qanday manbalar mavjud?
2. Pololarning O‘rta Osiyoga sayohati haqida gapiring. Zamonaviy xaritadan ularning sayohat yo‘nalishini ko‘rsating.
3. Chig‘atoy ulusi tashkil etilgan vaqtda mustaqil davlat edimi? Fikrlaringizni tarixiy dalillar bilan asoslang.
4. Chig‘atoy ulusiga qaysi hududlar kirgan. Zamonaviy xaritadan ulus chegaralarini ko‘rsating.
5. Chig‘atoy hukmdorlari nima uchun o‘z poytaxti sifatida Elsuvi vodiysi hududini tanlagan edi?
6. Mahmud Tarobiy kim? Uning qo‘zg‘oloni sababalarini tushuntiring.
7. Mahmud Yalavoch kim? U nima sababdan Movarounnahr noibi etib tayinlangan? Nima sababdan bu lavozimdan bo‘shatilgan?

8. Muborakshohning islom dinini qabul qilishiga qanday omillar sabab bo‘lgan edi?

9. Qayduxon shaxsi haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?

10. Qayduxon qanday legitimlik asosida Chig‘atoy ulusiga da’vo bilan chiqa olgan?

11. Baroqxon faoliyatiga tavsif bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahongusho (Jahon fotihi tarixi). / Turk tilidan Nazarbek Rahim tarjimasi. – T.: Mumtoz so‘z, 2015.

3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

4. Madraimov A. Fazailova G. Manbashunoslik. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati –T., 2008.

5. Masharipov Q. Jaloliddin Manguberdining jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o‘rni. – T.: Yoshlar media print, 2021.

6. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – T.: Yosh kuch, 2019.

7. Michal B. Qaidu and rise if the independent state in Central Asia. Curzon Press. Great Britain: 1997.

8. O‘zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas’ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

9. Shihobiddin Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati. – T.: O‘zbekiston, 1999.

10. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma (Muqaddima). 1-kitob. / Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va ilmiy izohlar muallifi O.Bo‘riyev. – T.: Fan, 2020.

11. Бартолд В. Сочинения. Том II, часть 2. Москва: Наука. 1964.

12. История Казахстана в персидских источниках: Том I: Джамал ал-Карши. ал-Мулхакат би-с сурах. Дайк-пресс. Алматы, 2005.

13. История Казахстана в персидских источниках: Том III Му’изз ал-ансаб. Дайк-пресс. Алматы, 2006.

14. Фазлуллах Рашид-ад-дин. Джами ат-таварих. – Баку: Нагыл Ева, 2011.

26-MAVZU. CHIG‘ATOY ULUSIDA SIYOSIY JARAYONLAR. HOKIMIYAT UCHUN KURASH (XIV asr)



REJA:

26.1. Kebekxon va Alouddin Tarmashirin siyosiy faoliyati.

26.2. Chig‘atoy ulusida siyosiy tarqoqlik. Chig‘atoy ulusining ikkiga bo‘linishi.

26.3. Qozonxon va Amir Qazag‘on.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Chig‘atoy ulusi, Sharqiy Turkiston, Kebekxon, Esan Buqa, Qarshi, Tarmashirinxon, ulus, Duvaxon, Yuan imperiyasi, Eron, elxoniylar, isyonlar, kurash, taxt, islomni qabul qilish, qurultoy, shariat, isyon, nestorianlik, yasavuriylar, mamluklar sultonligi, Buzan, o‘g‘lon, Yettisuv, vabo tarqalishi, Termiz, xristianlik, qo‘shhokimiyat, ulusning ikkiga bo‘linishi, Qozonxon, Dug‘lat amirligi, Zanjirsaroy, Amir Qazag‘on, Bayonqulixon, qavchin, amirlar isyoni.

26.1. KEBEKXON VA ALOUDDIN TARMASHIRIN SIYOSIY FAOLIYATI

1303-yilda uzoq hukmronlikdan so‘ng Qayduxon vafot etadi. Oradan ko‘p o‘tmay, Chig‘atoy ulusida Duvaxon (1285-1307) hukmronlik qilgan bo‘lsa, Sharqiy Turkistonda Qaydu taxtiga uning o‘g‘li Chapar ko‘tarilgan. Chapar va Duvaxon o‘rtasi nizolar yuzaga

kelib, ko‘p o‘tmay Chapar taxtdan ag‘dariladi hamda Duvaxon Chig‘atoy ulusi, shu jumladan, Sharqiy Turkiston hududlari ustidan ham yakka hukmdorga aylanib oladi. Duvaxon 1307-yilda Olmaliq yaqinidagi Sebkun-qal’a mavzeyida vafot etadi. Uning vafotidan so‘ng taxtga Barko‘lda o‘g‘li Kunjak (1307-1308) o‘tiradi. Shu bilan birga, bir qator Kunjakka qarshi bo‘lgan xonzodalar unga qarshi kurash uchun qo‘shin to‘plashadi. Taroz yaqinidagi Bo‘riboshi mavzesida ikki o‘rtadagi janglarda Kunjak g‘alaba qozonadi.

Bilib oling!

Ammo Kunjakning hukmronligi ham uzoq davom etmagan. Kunjak 1308-yili Yulduz deb ataluvchi hududda vafot etadi. Natijada, taxtga Xizr nomi bilan tanilgan Toliquxon (1308-1309) o‘tiradi. Xizr Toliquxon hukmronligi qizg‘in kurashlarga boy holda kechadi. Dastlab, Toliquxon Chaparning avlodlarini quvg‘in ostiga oladi. Shu bilan birga, Xizr Toliquxon uchun taxt masalasida asosiy raqib sanalgan Duvaxonning avlodlari ham unga qarshi harakat boshlagan edi. Bu kurashlar natijasi o‘laroq, 1309-yili Duvaxonning o‘g‘li Kebek Toliquxonni o‘ldiradi. Xonning o‘limi mamlakatda yangi isyonning boshlanishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, ilgari taxtdan ag‘darilgan sharqiy ulus xoni, Qayduning o‘g‘li Chapar o‘zining ukalari va qarindoshlari bilan mustaqillik da’vo qila boshlaydi. Shuningdek, Chig‘atoyzoda Tukmaning ham isyonlari boshlanib ketadi. Shunday bir sharoitda Kebekxon o‘zini hukmdor deb e’lon qiladi va boshqaruv tizginini o‘z qo‘liga oladi. Ili bo‘yidagi jangda Kebekxon Tukma qo‘shinlarini mag‘lub etadi. Ko‘p o‘tmay Tukma qo‘lga olinib qatl etiladi.

1309-yili Kebekxonning tashabbusi bilan o‘tkazilgan qurultoyda Kebek taxtga akasi Esan Buqa (1309-1318)ni chiqarishga erishadi. Garchi Esan Buqa xon deb e’lon qilingan bo‘lsa ham, mamlakatda Kebek katta nufuzga ega bo‘lib oladi. Esan Buqa davrida Chig‘atoy ulusi sharqda Yuan imperiyasi bilan, g‘arbda esa Elxoniylar bilan tinimsiz kurashlar olib boradi.

Yuan imperiyasi .bilan chig'atoylar o'rtasida ma'lum siyosiy qarama-qarshiliklar yuzaga kelgan bo'lib, 1310-yil atroflarida Chig'atoy ulusidagi taxt uchun kurashlar jarayonida Chapar o'ziga bo'ysungan ko'plab aholi bilan sharq tomon harakatlanib, Yuan imperatoriga tobelikka o'tishi ham buning sabablaridan edi. Natijada, avval Chig'atoy va Qaydu mulklarini tashkil qilgan yerlarning ba'zi qismlari Yuan imperiyasi hududiga o'tib ketadi. Bu holat ikki o'rtada yaylovlar masalasida nizolarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, 1313-yilda Bayju boshchiligidagi Yuan elchilik missiyasi Esan Buqa tomonidan tutib qolinadi va keyinroq talanadi. Buning natijasida ikki orada harbiy-siyosiy kurash yuzaga keladi. Jumladan, 1315-1317-yillarda Yuan qo'shinlari tomonidan Chig'atoy ulusining sharqiy yaylovlari talon-taroj qilinadi.


Bilib oling!

Bu yo'qotishlarni qoplash uchun chig'atoyzodalar Xurosonga talonchilik yurishlarini uyushtiradi. Jumladan, 1312-1313-yillarda Kebek va amir Mansur boshchiligidagi chig'atoy qo'shini Xurosonga bostirib kirib, ko'p o'lja bilan qaytdi. O'z navbatida amir Ali-Qushchining Xuroson jangchilari Movaronnahrni talon-taroj qildilar. 1316-yilda qo'zg'olonchi Chig'atoy shahzodasi Yasavur va Eron Xulokuiylari qo'shini Movaronnahr shaharlariga bostirib kirdi. Bu harbiy harakatlar natijasida Yasavur Termizdan Samarqand chegarasigacha bo'lgan barcha viloyat va qishloqlar aholisini Amul (Amudaryo bo'yi) hududlariga ko'chirdi, Kebek qo'l ostidagi shaharlarni vayron qildi.

1318-yilda Esan Buqaxon vafot etadi. Endilikda taxtga amalda akasi davrida ham katta huquqlarga ega bo'lib turgan Kebekxon (1318-1326) o'tiradi. Kebekxon davri mamlakat tarixidagi muhim burilish davri sifatida tarixda qoldi. Kebekxon qo'shni mo'g'ul mamlakatlari bilan kelishuv siyosatini yuritadi. Shu bilan birga, mamlakatning ichki tuzumini ham yaxshilash uchun ma'lum harakatlar olib boradi. U

Chig'atoy ulusi poytaxtini Sharqiy Turkiston (Olmaliq)dan Movarounnahrga ko'chirdi. Eski Nasaf shahri o'rnida *Qarshi* shahri quriladi. Pul va ma'muriy islohotlarni amalga oshirdi. Shuningdek, Chingizxon bosqini davridan beri vayron bo'lib yotgan Balx shahri qayta tiklanadi.

Kebekxonning o'troq hayotga o'tishga urinishi sulolaning ba'zi vakil-lariga yoqmagan, albatta. Hatto, 1320-yil atroflarida Elsuvi vohasida Kebekka qarshi isyon ko'tarish va uni taxtdan ag'darish uchun maxfiy reja tuzilgan. Ammo, Kebekxon tomonidan bunday isyonlar bartaraf etiladi. Kebekxon bu davrda Yuan imperiyasi bilan yaxshi aloqalar o'rnatishga erishadi. Jumladan, 1319-1320-yillarda Yuan sulolasi bilan uzilib qolgan munosabatlar tiklanishiga erishiladi. Shu bilan bir qatorda, Erondagi elxoniylar bilan ham ittifoq yuzaga keladi. Bunga asosiy sabab, 1316-1317-yillarda Chig'atoy ulusidan





Kebekxonning kumush tangasi

kelishmovchilik sababli ajralib chiqqan Yasavur o‘g‘lon ko‘p o‘tmay elxoniylarga qarshi isyon ko‘taradi. Natijada Yasavurga qarshi ittifoq ikki tomon uchun ham manfaatli shartnomaga aylanadi. Natijada, 1320-yilda shahzoda Yasavur Kebek qo‘shinlari bilan to‘qnashuvda o‘ldiriladi.

Kebekxon davrida Chig‘atoy ulusida ijtimoiy va iqtisodiy hayot tizimi tartibga solinadi. Mamlakatning siyosiy tizimi ham ma’lum darajada izga solinadi. Kebek tomonidan amalga oshirilgan o‘troqlashuv siyosatini uning vorislari sanalgan ukalari Elchigaday (1326-1329) va Duva Temur (1329-1331) ham davom ettiradi.

Elchigaday davrida Xuroson bilan bog‘liq siyosat davom ettiriladi. Jumladan, shahzoda Yasavur vafotidan so‘ng uning tasarrufida bo‘lgan hududlar Chig‘atoy ulusiga qo‘shib olinadi. Elchigaday shahzoda Yasavur o‘g‘longa tobe bo‘lgan aholini qayta tiklangan Balx shahriga ko‘chirib o‘tkazadi. Natijada, keyinchalik, bu aholi *yasavuriylar* qavmi sifatida shakllanadi.

1331-yilda Chig‘atoy ulusi taxtiga musulmon hukmdor Alouddin nomini olgan Tarmashirinxon o‘tiradi. Alouddin Tarmashirinxon davrida Chig‘atoy ulusining g‘arbiy qismi to‘la o‘troqlashadi. Tarmashirinxon islom an’analariga to‘la amal qilib, mahalliy islom dini ulamolari bilan keng ko‘lamli aloqalarni yo‘lga qo‘yadi.

Bilib oling!

«Yana sulton Tarmashirin hikoyasiga qaytsak. Men u yerda o‘rdu deb ataladigan qarorgohda bir necha kun turib qoldim. Bir kuni odatdagidek masjidga kirib bomdod namozini o‘qidim. Namoz tugagach, kimdir menga sulton ham shu masjidda ekanligini aytdi. Men o‘rnimdan turib, unga salom berish uchun yaqiniga bordim. Shayx Hasan va faqih Hisomuddin al-Yog‘iy sultonga mening to‘g‘rimda, bu yerga bir necha kun muqaddam kelganligim haqida so‘zlab

berishdi. Sulton menga turkiy tilda murojaat qildi: «Xushmisan, yaxshimisan, qutlug‘ o‘lsun».

Bu paytda u yashil quddusiy qabo kiygan, boshiga xuddi shu matodan tikilgan shoshiya qo‘ndirgan edi. Sulton masjiddan chiqib o‘z qabulxonasi tomon piyoda yo‘l oldi. Kishilar uning atrofini o‘rab olib, o‘z arzlarini aytar edilar. Sulton yo‘lda to‘xtab, har bir arzchini, u boymi-kambag‘almi, ermi-ayolmi, baribir tinglar edi...

Sulton bomdod namozini ham, xufton namozini ham, albatta, jamoat bilan birga o‘qir edi. Bomdod namozidan so‘ng to oftob chiqquniga qadar u turkiy tilda zikr aytib o‘tirar edi. Masjidda kim bo‘lmasin, sultonning yoniga borib, u bilan qo‘l berib ko‘rishardi. Peshin namozi paytida ham xuddi shunday hol takrorlanardi. Agar sultonga mayiz yoki xurmo keltirib berishsa, ularda xurmo go‘yat qadrlanib, mo‘tabar meva sanaladi – o‘z qo‘li bilan masjiddagilarga birma-bir ulashar edi».

Ibn Battutaning «Sayohatnoma»asaridan.

Tarmashirinxon islomni Chig‘atoy ulusining rasmiy diniga aylantirdi. Obodonchilik va qurilish ishlariga xayrixoh bo‘ldi, savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojiga o‘z hissasini qo‘shdi. Shuningdek, ko‘plab musulmon davlatlari bilan siyosiy aloqalar olib boradi. Jumladan, Tarmashirinxon Oltin O‘rda, Elxoniylar va Dehli sultonligi bilan faol aloqalar o’rnatiladi. Tarmashirin davridan boshlab Misrdagi mamluklar sultonligi bilan aloqalar ham yo‘lga qo‘yiladi.

26.2 CHIG‘ATOY ULUSIDA SIYOSIY TARQOQLIK. CHIG‘ATOY ULUSINING IKKIGA BO‘LINISHI.

Garchi, Alouddin Tarmashirinxon mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, mo‘g‘ul amaldorlarini o‘troq hayot tarziga moslashtirishga uringan bo‘lsada, bu bir qator noroziliklarga ham sabab bo‘ladi.



Tarmashirinning kumush dirhami

Uning islom dinini qabul qilishi, shubhasiz, Tarmashirinni musulmon fuqarolariga yaqinlashtirdi. U o'z qo'shiniga aholiga zarar yetkazmaslik, uning tobelariga adolatli muomalada bo'lishlariga buyruq beradi. Tarixchi as-Safadiyning yozishicha, Tarmashirinning akasi tomonidan boshqarilgan bir shahar aholisi uning adolatsiz boshqaruvidan norozi bo'lib, shikoyat qilish uchun xon huzuriga kelgan. Uning xatti-harakati uchun Tarmashirin moliyaviy tovon to'lashni taklif qildi. Ammo ular bunga rozi bo'lmay qattiqroq jazoni talab qilganlarida, Tarmashirin ularning talabini bajarib, zulmkor birodarini o'ldiradi. Bu kabi holatlar mo'g'ul aristokratiyasi, shu jumladan, chig'atoyzoda shahzodalarning Tarmashirinxondan norozi bo'lishiga olib keladi.

Bilib oling!

Manbalar Tarmashirinni o'z mamlakatida shariat qoidalarining qat'iy o'rnatilganligi bilan shuhrat topgan hukmdor sifatida ta'riflaydi. Ammo, bu siyosat Chingizxon davridan beri qat'iy amal qilib kelinadigan «Yasoq» qoidalari bilan nomuvofiqlikni yuzaga keltirdi.

Shuningdek, Duvaxonning avlodlari orasida taxtga qonuniy da'vo qila oladigan bir qancha shahzodalar mavjud bo'lib, Alouddin Tarmashirinxonga siyosiy raqib bo'lishi mumkin bo'lgan shahzodalar qatorida Duva Temurning o'g'li Buzan, shuningdek, boshqa jiyanlari – Kebekning o'g'li Yanqi va Ebugenning o'g'illari Jenkishi, Yesun Temur kabilar bor edi. Shuningdek, as-Safadiyning yozishicha, Tarmashirin mo'g'ul amirlarini dehqonchilik bilan shug'ullanishga majbur qilgan. 1326-yildayoq bir qancha Chig'atoy amirlari Movarounnahrda yer yoki bog'larga ega bo'lgan bo'lsa-da, bu yerdan istaganicha foydalanib, dehqonchilik bilan shug'ullanishlari shart emas edi. Bu holatlar o'z navbatida Tarmashirinxonga nisbatan qarshi

muxolifning shakllanishiga olib keladi. Natijada, 1334-yili Chig'atoy ulusining sharqiy qismida Tarmashirinxonga qarshi isyon yuzaga keladi va isyonga uning jiyani, Buzan ibn Duva Temur boshchilik qiladi.

Bilib oling!

«Buzan Duva Temur o'g'li musulmon bo'lib, ammo imoni sust, axloqi buzuq odam edi. Unga qasamyod qilib, Tarmashirinni ag'darganlarining sababi shunda ediki, sulton o'z bobosi yuqorida aytganimdek, musulmon mamlakatlarini xonavayron etgan la'nati Chingizning vasiyatlarini bajarmagan. Chingiz o'z farmoyishlaridan iborat «Yasoq» deb atalgan bir kitob tuzgan... Kimki shu kitobda bitilgan buyruq berishlarni bajarmasa, u ag'darib tashlanishi shart. Chingizning vasiyatiga ko'ra, ular yilda bir marta to'y deb ataladigan ziyofatga yig'ilishadi. Chingiz avlodlari – amirlar, xotunlar va yirik sarkardalar shu kuni mamlakatning to'rt tarafidan kelib, jamuljam bo'lishadi.

Sulton Tarmashirin ziyofat tiklashni bekor qilib, bu odatga barham bergan edi. Ular Tarmashirinning xuddi shu ishi uchun, shuningdek, to'rt yil mobaynida Xurosonga tutash viloyatida yashab, mamlakatning Xitoyga yaqin qismiga kelmaganligi uchun ham undan darg'azab bo'lishgan. Mavjud urf bo'yicha esa har yili shu joyga kelib, bu yerda joylashgan qo'shinlarning ahvolini ko'rib qaytishi shart edi».

Ibn Battutaning «Sayohatnoma»asaridan.

Tarmashirin siyosatidan norozi bo'lgan ko'chmanchi mo'g'ul zodagonlari isyon ko'tarib, Buzanni o'zlariga hukmdor deb e'lon qiladi. Tarmashirinxon taxtga o'tirishidan oldin G'azna noibi sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, G'aznada uning asosiy kuchlari to'plangan. G'azna noibi *amir Buruntoy* Alouddin Tarmashirinxonning sodiq kishilaridan edi. Shu sababli G'aznaga yo'l olgan Tarmashirin yo'lda Kebekning o'g'li Yanqi tomonidan qo'lga olinadi va ko'p o'tmay qatl etiladi.

Bilib oling!

MUSULMONLIGI VA TAQVODORLIGI UCHUN TAXTDAN AG‘DARILGAN HUKMDOR

Chig‘atoy ulusining o‘n sakkizinchi xoni Tarmashirin faoliyatiga u qadar jiddiy yondashiimagan. Vaholanki, Tarmashirin Movarounnahrdagi mo‘g‘ul xonlari ichida eng dindor, taqvodor va o‘ta kamtarin hukmdorlardan biri bo‘lgan. U Chig‘atoy ulusi taxtiga o‘tirgach, islom diniga e’tiqod qilishi bilan birgalikda musulmoncha Alouddin ismini ham qabul qiladi va unga Sulton al-A’zam (eng oliyjanob sulton) degan unvon beriladi. Tarmashirin taxtga kelguncha Qashqadaryo vohasida yashagan. Uning islom dinini qabul qilishi va bu dinga e’tiqod qilishida aynan shu hududda yashovchi shayxlar va islom ulamolarining ta’siri katta bo‘lgan. Xonni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, u bilan suhbatda bo‘lgan arab sayyohi Ibn Battutaning guvohlik berishicha, Naxshabda Shayx Hasan ismli shayx unga ustozlik qilgan. Bu davrda yashagan Shayx Shamsiddin Kulol va Imom Hisomiddin Yog‘iy Tarmashirin atrofida faoliyat ko‘rsatadilar. Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi» asarida yozilishicha, «uning saodatli hukmronligi davrida Chig‘atoy ulusi islom davlatiga aylandi. Tangri taolo bandalari uning davlati zamonida ayni farovonlikda hayot kechirdi».

Tarmashirin islom arkonlariga shu qadar qat’iy rioya qilar ediki, din marosimlari va qoidalari shaxsiy va davlatning maishiy masalalariga zid bo‘lgan holatda ham, islom qoidalariga og‘ishmasdan amal qilar edi. Uning davrida diniy ulamolar, shayxlar va imomlarga yetarlicha hurmat ko‘rsatilgan. Ibn Battutaning quyidagi hikoyasi buning tasdig‘idir: «...Bir kuni men peshin namozini o‘qish uchun masjidga bordim. Ammo xon hali yo‘q edi. Uning mahramlaridan biri joynamoz keltirib, mehrob yaqiniga,

odatda sulton namoz o‘qiydigan joyga yozdi va Hisomiddin Yog‘iy (imom)ga: «Sultonimiz tahoratlarini tugallamagunicha namozni boshlamay, kutib turar ekansiz», – dedi. Imom o‘rnidan turib: «Namoz Xudo uchunmi yoki Tarmashirin uchunmi?» U muazzin (azon aytuvchi)ga namozni boshlashni buyurdi.

Sulton masjidga kirib kelganda ikki raka’t namoz o‘qib bo‘lingan edi. Shunda u qolgan ikki raka’t namozni kelgan joyidan tugalladi. U namozni odamlar poyabzallarini yechib qoldiradigan joyda, masjid ostonasida o‘tirib o‘qidi. Namozning o‘qilmay qolgan qismini ham tugatib, imomning oldiga so‘rashgani keldi. Men imomning yonginasida turgan edim. So‘ng sulton menga qarab «Sen o‘z mamlakatingga qaytib borganingda ajamlarning (arab bo‘lmaganlar. Movarounnahr aholisini nazarda tutayapti) kambag‘allari sultonga qanday muomala qilishini aytib bergin», – dedi».

Lekin Tarmashirinning ijtimoiy adolatli siyosati, dinparvarligi va xudojo‘yligi mo‘g‘ul xonadoniga mansub hukmdor tabaqalarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Ya’ni, Tarmashirinning davlat va jamiyat boshqaruvini islomlashtirish siyosati uning dushmanlariga qo‘l kelib, Chingizxon tomonidan joriy etilgan qoidalar, xususan, «Yasoq» qonuniga amal qilinmayotgani asosiy sabab qilib olinadi hamda xonni almashtirish lozim deb topiladi. Xo‘sh, Tarmashirin faoliyatida «Yasoq»da belgilangan qaysi qoidalarga zid alomatlar mavjud edi?

Chingizxonning vasiyati hamda «Yasoq» qoidalariga ko‘ra, bir yilda bir marta katta qurultoy chaqirilib, ziyofatlar, to‘ylar tashkil etilishi hamda unda barcha mo‘g‘ul xonlari ishtirok etishi lozim edi. Aftidan, Chingizxon shu yo‘l bilan xon xonadoniga mansub shahzodalar va sarkardalarning ittifoqini, do‘stligi va


birdamligini mustahkamlamoq-chi bo‘lgan. Tarmashirin esa butun Movarounnahrda oliy darajadagi, dabdabali ziyofatlar uyushtirishni bekor qilib, bu odatga barham bergan. Uning bu qarorga kelishiga o‘zining islom shariatiga mos siyosat yuritishi, ortiqcha isrofgarchiliklar hamda ulardan tiyilish va taqvoni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish sabab edi. Shuningdek, mamlakatda u chiqargan farmonlar hamda yo‘lga qo‘yilgan tartib-qoidalar «Yasoq» qonunlariga emas, shariat qoidalariga asoslangan edi. Bundan tashqari, Tarmashirin o‘z hukmronligining oxirgi to‘rt yilida biror marta ham Mo‘g‘uliston poytaxti Qoraqurumda, ulug‘ xon qarorgohida bir yilda bir chaqiriladigan qurultoyga bormagan.

Chingizxon vasiyatida mazkur qurultoyda barcha xon xonadoni vakillarining qatnashishi shartligi ko‘rsatilgan edi. Tarmashiringa qarshi bo‘lgan fitnachilar, «Yasoq» qonunining birinchi tamoyili, ya’ni, «hukmdor (xon) «Yasoq»qa qat’iy rioya etishi xususida qasamyod qilishi va unga amal qilishi, amal qilmagudek bo‘lsa xonni umrbod qamash yoki jazolash (hatto, qatl qilish)» mumkin bo‘ladi degan qoidaga asoslanib, Tarmashirinni xon hokimiyatiga noloyiq deb, uni taxtdan tushirish va Buzanni xon qilib saylash taraddudiga tushadi. Shundan keyin, Tarmashiringa qarshi suiqasd tashkil etilib, Xuroson tomon ketayotgan taqvodor xon Kesh yaqinida tutib o‘ldiriladi.

Akbar Zamonovning
«O‘rta asr tarixiy shaxslari hayotining
ayrim noma’lum sahifalari»
kitobidan.

Buzan dastlab Yetisuvda amirlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bo‘lib, u yerdan Tarmashiringa qarshi chiqqan. U islom diniga e’tiqod qilsa-da, yahudiy va nasroniylarga ham homiylik qilgan. Buzan Chig‘atoy ulusining poytaxtini Olmaliqqa ko‘chirdi, u bir yildan

kamroq vaqt hukmronlik qilib, o‘z siyosatida qabilaviy mo‘g‘ul-turk aristokratiyasi vakillariga, shuningdek, o‘sha paytgacha davlatning yirik shaharlarida ma`muriy vazifalarni egallab olgan uyg‘ur buddaviylari orasidan bir guruh amaldorlarga tayangan. Buzan siyosiy jihatdan o‘ta qattiqqo‘l bo‘lib, *yasoq* qoidalarini qayta joriy qiladi. Shuningdek, Buzan saltanatni yakka idora qilishga intilib, sulola vakillarini qirg‘in qilish yo‘lidan boradi. Jumladan, Elchigaday avlodlari Buzan tomonidan qatl qilinadi. Shuningdek, o‘z siyosatidan norozi bo‘lgan amirlarni, shuningdek, o‘z otalig‘ini ham qatl qildiradi. Natijada, bir qator amirlar Buzandan norozi bo‘lib, unga qarshi isyon tayyorlaydilar. Muiniddin Natanziyning yozishicha, Buzan o‘z amirlari tomonidan o‘ldirilgan va Olmaliqdan uncha uzoq bo‘lmagan Xarror qishlog‘idagi qabristonga dafn etilgan.



Chig‘atoy ulusi bayrog‘i

Undan keyin Chig‘atoy ulusini Duvaning nabirasi Jengshi 1335-yil oxiridan 1338-yilgacha idora qiladi. Jengshi katolik missionerlari va buddaviylik ruhoniylariga homiylik qilgan. Hatto, Olmaliqda Nestorian yepiskopligi ochiladi. Hukmdor o‘zining 7 yoshli o‘g‘lini xristian bo‘lishiga izn berib, suvga cho‘qintiradi. Manbalarda keltirilishicha, xonning qarorgohi Olmaliqda bo‘lib, uning o‘zi ov va shaxmatni yaxshi ko‘rar, davlat ishlariga esa beparvo edi. Shu tufayli, taxt uchun unga qarshi ukasi Yesun Temur boshchiligida isyon yuzaga keladi. Oxir-oqibat taxt uchun kurashda, Yesun Temur g‘alaba qozonadi. Lekin, Yesun Temur davrida ham mamlakatda siyosiy tizim tartibga solinmaydi. Hukmdor haqida muarrixlar «akasini taxtdan ag‘dargach aqldan ozadi, hatto uni akasiga qarshi qayragan degan bahonada onasini qattiq jazolashgacha boradi», deb eslashadi.

1339-yilda taxt tepasiga O‘qtoy avlodidan bo‘lgan Ali Sulton keladi. Ali Sulton musulmon hukmdor bo‘lib, Chig‘atoy ulusining sharqiy qismida islomni asosiy din darajasiga olib chiqishga harakat qiladi. Uning davrida ko‘plab buddaviylik va nasroniy dinidagi

ruhoniylar quvg‘in qilinadi yoki o‘ldiriladi. 1338-1339-yillarda Chig‘atoy ulusining sharqiy qismida vabo tarqalib, hukmdor bundan g‘ayridinlarga qarshi kurashda qurol sifatida foydalangan.

Bilib oling!

1339-yili Chig‘atoy ulusining sharqiy qismida tarqalgan vabo epidemiyasi, mahalliy aholi bunday epidemiyalarga qarshi kurashishning zaruriy choralari bilan yetarlicha tanish bo‘lgani sababli bo‘lsa kerak, bu yerda uzoq davom etmagan. Ammo ushbu kasallik sayyohlar, elchilar va karvonlar orqali tarqalib, 1340-yillar ikkinchi yarmida Yevropaga keng yoyiladi. Tozalik va sanitariya ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganidan bo‘lsa kerak, bu vabo Yevropada o‘ta katta ko‘lamli halokatga sabab bo‘ladi. Bu epidemiya Yevropa tarixida «Qora o‘lim» deb yuritilib, uning natijasida Yevropa aholisining 30-40 foizi nobud bo‘ladi.

1340-yilda Termizda Chig‘atoy ulusidan bo‘lgan Muhammad ibn Po‘lod o‘zini hukmdor deb e’lon qilgan. Ko‘p o‘tmay u xonlikning sharqiy qismlarini ham egallab olishga kirishadi. Bunga 1341-yili kutilmaganda Ali Sultonning vafot etishi yo‘l ochib beradi. Ammo Muhammadning hukmdorligi ham uzoq davom etmagan va 1342-yildayoq uning o‘rniga boshqa bir hukmdor – Xalil taxtga keladi. Xalil dastlab Hirotdagi *Kurt* sulolasi yordamida Taroz yaqinidagi jangda g‘alaba qozonib, imperiya poytaxti bo‘lgan Chig‘atoy ulusining shimoliy qismini ham o‘ziga bo‘ysundiradi. Xalil hatto, Qoraqurum shahriga yurish qilib, uni talab ortga qaytadi. Xalilning boshqaruv siyosatida, asosan, Termiz xovandzodalari katta obro‘ga ega edi. Jumladan, Tarmashirin davrida Termiz noibi sifatida faoliyat yuritgan A’loulmulk Termiziy Xalilning vaziri etib saylangan edi. Xalil A’loulmulkni Olmaliq egallangach, sharqiy hududlar noibi etib tayinlaydi. Ammo ko‘p o‘tmay A’loulmulk Xalilga qarshi isyon ko‘tarmoqchiligi to‘g‘risidagi xabarlar sababli qatl qilinadi. Bu holat,

ayniqsa, musulmon aholining noroziligiga sabab bo‘ladi. Ibn Battutaning yozishich, Xalil ko‘p o‘tmay bir paytlar o‘ziga yordam bergan Hirot hokimi Husayn kurtga qarshi yurish qiladi va bu yurishda mag‘lub bo‘lib, qo‘lga olinadi. Shundan so‘ng taxtga chig‘atoiyzoda yasavur o’g’lonning o’g’li *Qozonxon* o‘tiradi.

XIV asrning 40-yillariga kelib, Yettisuvda *Dug‘lat amirligi*ning yuzaga kelishi, amalda Chig‘atoy ulusining tarqab ketishidan, o‘rniga Movarounnahr amirligi yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. Chig‘atoy xonlarining so‘nggi vakillaridan biri Qozonxon (1343-1346) markaziy xon hokimiyatining kuch-qudrati ta’sirini ko‘tarib, ichki siyosatda Kebekxon-Tarmashirinxon yo‘lini tutishga harakat qildi. U ko‘chmanchi harbiylarga qarshi kurash olib borib, Qashqadaryo vohasida hatto ularga qarshi tayanch markazi etib *Zanjirsaroy* qal’asini ham barpo etgan edi. Shuningdek, 1345-yilda Qozonxon tangalarining Olmaliq shahrida zarb qilinishini uning kuchi va ta’siri Chig‘atoy ulusining sharqiy hududlariga yoyilganligini ko‘rsatadi.

26.3. QOZONXON VA AMIR QAZAG‘ON

Qozonxon hokimiyatning markazlashuviga qarshilik ko‘rsatgan turk-mo‘g‘ul amirlari bilan kurashga kirishadi. Isyonkor feodallarning boshida kelib chiqishi *qavchin* urug‘idan bo‘lgan amir *Qazag‘on* turar edi. U ochiqdan-ochiq xonga qarshi chiqadi va 1345-yil kuzida Amudaryo qirg‘oqdagi Soli-Saroy hududida qo‘shin to‘playdi. Darai Zangi dashtida ikki qo‘shin to‘qnash keladi. Jang davomida Amir Qazag‘onning ko‘ziga o‘q tegadi. Natijada, amir Qazag‘on yengilib janubga chekinadi. Qozonxon esa dushmanga qarshi yurish o‘rniga Qarshiga qaytib keladi. Ammo shu yili Qashqadaryo vohasida qishning qattiq kelishi natijasida Qozonxon qo‘shinidagi otlarga qirg‘in keladi va aksariyat suvoriylarning piyoda qolishi Qozonxon qo‘shinining harbiy salohiyatini pasaytirgan. Bundan foydalangan Amir Qazag‘on Qozonxonga qarshi qo‘shin tortib, ikkinchi jangda uni mag‘lub etadi.

Qozonxonning o‘ldirilishi natijasida Chig‘atoy xonadoni a’zolarining Movarounnahrdagi hukmronligi amalda tugagan. Ularning

qo‘lidan boshqaruvni olgan amirlar xon xonadoni vakillarini faqat Chingizxon urug‘idan bo‘lganligi sababli nomigagina taxtga o‘tqazishgan. Amir davlatning boshida turgan va u ulus amiri deb atalgan. Amir Qazag‘on joriy etgan Chig‘atoy xonlarini nomigagina xon deb taxtga ko‘tarish an’anasi esa shu davrdan boshlab o‘zbek davlatchiligi tarixiga «xon ko‘tarish», «soxta xon» kabi tushunchalarni olib kirgan. Amir Qazag‘on ilk bor «soxta xon» sifatida O‘qtoy naslidan bo‘lgan Donishmandchani (1346-1348) taxtga ko‘targan.

Bilib oling!

«Amir Qazag‘on... Donishmanchaning shunchaki bir nishon sifatidagi nomini aytmasa, amir Qazag‘on uning mulk va xazina ishlariga aralashuviga yo‘l qo‘ymadi. Fitnachi badkor odamlar uning oldida so‘zlashga og‘iz ocholmasliklari uchun, ishonchli voqeanavislarni mulozim va keshiktonlar nomi bilan uning o‘rdusiga (xizmatga) tayinladi. Alqissa, ikki yil ichida mamlakatda barqarorlik o‘rnatilib, fitnachilar dimog‘ini sharorat tark etib, yomonliklar bosilgach, amir Qazag‘on Donishmanchaga O‘qtoy qoon naslidan degan ayb qo‘yib, uni shahid qildi va Chig‘atoy naslidan bo‘lgan Bayonqulini saltanat taxtiga o‘tqazdi. Donishmanchaning ko‘rguliklari uning ham boshiga tushishani anglab, u zaruratdan zamona mijoziga moslashdi va saltanat gilamida amir Qazag‘on bilan nadim kabi nard o‘ynadi. Bu ikki ulug‘ zotning ittifoqi mujdasi va Qazag‘onning adolati tufayli mulku millat ishlari shu darajada mustahkam va ustuvor bo‘ldiki, bo‘ri bilan qo‘y bir suvloqdan suv ichib, darvish kulbasi (bexatarligidan) najot uyiga aylandi. Zulm nomi va sitam nishoni hayot yuzasidan batamom yo‘qoldi. Oddiy odamlar va ulug‘lar, musofirlar va muqimlar, kattayu kichik, xosu om – hech kimning dilida ro‘zg‘or gardishidan shikoyat g‘ubori qolmadi va Anushervon adolati haqidagi hikoyalar xalq

xotirasidan unutildi. Uning adli o'lchovi shu qadar yuksakka yetdiki, biron amir yoki vazir mol-mulkdan ushr solig'i va rasmiy qabchurdan boshqa biron ism yo biron rasm bilan hech bir bandadan bir dinor ham ololmasdi. Misol sifatida agar musofirlarning o'tib-kechish va qo'nish joyi sher uyasi va ajdaho komida joylashgan bo'lsa ham (ular bu yerda) o'z uylari va najot xonasidan ko'ra osudaroq bo'lishardi. Shamoldan boshqa biron mavjudot Olloh bandalarining eshigidan o'zboshimchalik bilan (ijozatsiz) kirmasdi».

Muiniddin Natanziyning

«Muntaxab ut-tavorixi Muiniy» asaridan.

Amir Qazag'on hukmronligining dastlabki ikki yilida mamlakatdagi ichki tartib intizomni mustahkamlash, shuningdek, o'z hokimiyatini kuchaytirish yo'lidan boradi. 1348-yilda o'z hokimiyatini yetarlicha kuchaytirib olgan Amir Qazag'on Donishmandchani qatl ettirib o'rniga Bayonqulixon (1348-1358)ni o'tqazadi.

Shuningdek, Amir Qazag'on qo'shni davlatlar bilan ham siyosiy aloqalar o'rnatdi. Jumladan, XIV asrning 50-yillari boshida Hirot hukmdori Husayn Kurtdan norozi bo'lgan bir guruh *orlot* va *apardiy* beklari, shuningdek, Jom ulamolari Amir Qazag'on xuzuridan panoh topadi va ko'p o'tmay uni Amir Husayn Kurtga qarshi qayray boshlaydi. Natijada 1351-yilda Amir Qazag'on va Amir Husayn Kurt o'rtasida to'qnashuv bo'lib, Husayn yengiladi va Amir Qazag'onga tobeligini bildiradi. Ayni shu davrda Amir Qazag'onning valiahdi Amir Abdulloh Xorazmga yurish qilib, yirik miqdorda o'lja bilan ortga qaytgan. Bu holat, keyinchalik, Oltin O'rda xoni Jonibek va Amir Qazag'on o'rtasidagi nizoga sabab bo'ladi.

Amir Qazag'on garchi yirik hukmdor sifatida mamlakatdagi mahalliy amirlarning isyonlariga bir qadar barham bergan bo'lsada, legitimlik jihatidan hukmronlik huquqlari yuqori emas edi. Shu sababli ham uning hukmronligi to'la huquqli mutlaq hokimiyat sanalmagan. Amir Qazag'on 1358-yilda fitna natijasida, ov paytida Qutlug' Temur tomonidan o'ldiriladi.

Amir Qazag‘on o‘limidan so‘ng, o‘g‘li Abdulloh taxtni egallaydi va poytaxtni Samarqandga ko‘chiradi. Abdullohning hokimiyati uzoq davom etmaydi. Bunga bir qator sabablar mavjud edi. Jumladan, taxtga kelgan amir Abdulloh Bayonqulixonni yetarli sababsiz qatl ettiradi va uning o‘rniga Temurshohxon (1359)ni taxtga ko‘taradi. Shu bilan birga, ko‘plab Movarounnahr amirlari, asosan, amir Qazag‘onning shaxsi vositasida birlashgan bo‘lib, uning o‘limi va Bayonqulixon qatli Movarounnahrda amirlar isyoniga sabab bo‘ladi. Jumladan, *sulduz* qavmi yetakchisi Amir Bayon Sulduz va *barlos* urug‘idan Amir Hoji Barlos boshchiligidagi bir guruh amirlar isyon ko‘tarib, Abdullohni o‘ldirishadi. Ushbu isyon natijasida Movarounnahrda boshboshdoqliklar avj olib ketadi.

1345-1346-yillarda Chig‘atoy ulusining g‘arbiy qismida taxt uchun kurashlar ketayotgan bir paytda, Chig‘atoy ulusining sharqiy hududida bu yerdagi real kuchni tashkil etuvchi dug‘lat urug‘i amirlari deyarli mustaqil siyosat yurita boshlashadi. Jumladan, 1348-yilda dug‘lat urug‘i amiri Amir Po‘lodchi Oqsuvda yashayotgan Chig‘atoyzoda Emil Xo‘janing o‘g‘li 16 yoshli *Tug‘luq Temur*ni Chig‘atoy ulusining sharqiy qismida hukmdor deb e’lon qiladi. Buning, natijasida Chig‘atoy ulusi rasman ikkiga bo‘linib ketadi.

Bilib oling!

CHIG‘ATOY ULUSI XONLARI

- ☑ **Chig‘atoyxon – 1227-1242**
- ☑ **Qora Hulagu – 1242-1245**
- ☑ **Yesu Munqa –1246-1248**
- ☑ **Qora Hulagu – 1248-yil ikkinchi marta**
- ☑ **O‘rkina (Eragana) Xotun – 1248-1260**
- ☑ **Olg‘u – 1260-1264**
- ☑ **Muborakshohxon – 1265-yil**
- ☑ **Baroqxon –1266-1271**
- ☑ **Qaydu qo‘l ostida (1271-1303)**
- ☑ **Nikpay – 1271-1272**

☑ **Bek Temurxon – 1272-1282**
☑ **Duvaxon –1282-1305-1307**
☑ **Kunchak – 1307-1308**
☑ **Toliqu – 1308-1309**
☑ **Kebek – 1309-yil ilk marta**
☑ **Esan Buqa –1309-1318**
☑ **Kebek – 1318-1326**
☑ **Elchigaday – 1326-1329**
☑ **Duva Temur – 1329-1331**
☑ **Alouddin Tarmashirin – 1331-1334**
☑ **Buzan – 1334-1335**
☑ **Jengshi – 1335-1338**
☑ **Yesun Temur – 1338-1339**
☑ **Ali Sulton (O'qtoy avlodi) – 1339-1341**
☑ **Muhammadxon (1340-yil Termizda) – 1341-1342 (Chig'atoy ulusi xoni)**
☑ **Xalil Sulton – 1342-1343**
☑ **Qozonxon – 1343-1346**
☑ **Donishmandchaxon – 1346-1348 (Amalda Amir Qazag'on)**
☑ **Bayonqulixon –1348-1358 (Amalda Amir Qazag'on)**

Atamalar izohi

☑ ***Dug'lat amirligi*** – XIV asrning 40-yillarida Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketishi natijasida uning sharqiy qismi (Sharqiy Turkiston va Yettisuv)da tashkil topgan davlat. Dug'latlar qadimgi turkiy qavmlardan biri bo'lib, XIII asrda Chig'atoy ulusining Sharqiy mintaqalarida yashovchi yetakchi qabilalardan bo'lgan. Dug'latlar Sharqiy Turkistonda, Issiqko'lning Janubda, Farg'ona vodiysining shimol rayonlarida ko'chib yurganlar.

☑ ***Zanjirsaroy*** – («saroy-qal'a») 1334-1340-yillarda qurilgan bo'lib, mo'g'ul xoni Qozonxonning qarorgohi va qal'asi edi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Zanjir saroy Qarshidan

Buxoroga ikki dovonda joylashgan. Uning qoldiqlari hozirda Qashqadaryo viloyati Muborak tumani Ko'hnashahar qishlog'ining g'arbiy qismida, Qarshi shahridan 65-70 km g'arbda joylashgan.

☑ ***Elxoniylar*** – Eron va Iroqda Tulu avlodi bo'lgan Hulokuiylar davlatini boshqargan sulola. Sulolaning eng yirik namoyandalari: Huloku (1256-1265), Abaqaxon (1265-1282), To'qudor Ahmad (1282-1284), Arg'un (1284-1291), Kayxotuxon (1291-1295), Boyduxon (1295), G'ozonxon (1271-1304), O'ljoytuxon (1304-1317), Abu Said (1316-1335).

☑ ***Andijon*** – O'qtoyning (1186–1241) nabirasi bo'lsa ham, 1271-yilda Chig'atoy ulusi hukmdoriga aylangan Qayduxon topshirig'iga binoan Buqaxon ismli amaldor buzilib ketgan eski Andijon yaqinidan yangi shahar qurdirgan. Temuriylar davrida Andijon Farg'ona viloyatining markaziga, yirik savdo va madaniyat markaziga aylangan.

Savol va topshiriqlar

1. Chig'atoy ulusi davlatchiligining o'ziga xosliklari nimada edi?
2. Kebekxon qaysi dinda bo'lgan? Uning islom diniga munosabati qanday edi?
3. Kebekxon davlat boshqaruvida o'troqlashuv siyosatini olib borishiga sabab nimada edi?
4. Kebekxonning poytaxtni Qarshiga ko'chirishini izohlang. Qarshi so'zi qanday ma'noni anglatadi?
5. Tarmashirinxonning davlat boshqaruvidagi tutumi qanday edi?
6. Alouddin Tarmashirin va Ibn Battuta o'rtasidagi suhbatni izohlang.
7. Alouddin Tarmashirinxon siyosatidagi xatolar nimalardan iborat edi?
8. Dug'lat amirligi va Movarounnahrda Amir Qazag'on hukmronligi yuzaga kelishining sabablarini ayting.
9. Qozonxon davri boshqaruviga izoh bering.
10. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizdan foydalanib, Chig'atoy hukmdorlari ro'yxatini tuzing.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Achilova G. Movarounnahrning Chig'atoy ulusi tarkibidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (1227-1370). T.f.f.d. disser. avtoreferati. T., 2019.

2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

3. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – T.: Yosh kuch, 2019.

4. Michal B. Qaidu and rise if the independent state in Central Asia. Curzon Press. Great Britain: 1997.

5. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

6. Shihobiddin Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati. – T.: O'zbekiston, 1999.

7. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma (Muqaddima). 1-kitob. / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va ilmiy izohlar muallifi O.Bo'riyev. – T.: Fan, 2020.

8. Бартолд В. Сочинения. Том II, часть 2. Москва: Наука. 1964.

9. История Казахстана в персидских источниках: Том I: Джамал ал-Карши. ал-Мулхакат би-с сурах. Дайк-пресс. Алматы, 2005.

10. История Казахстана в персидских источниках: Том III Му'изз ал-ансаб. Дайк-пресс. Алматы, 2006.

11. Караев О. К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. Образование кыргызского народа.-Б.: Кыргызстан, 1995

12. Фазлуллах Рашид-ад-дин. Джами ат-таварих. – Баку: Нагыл Ева, 2011.

27-MAVZU. CHIG‘ATOY ULUSINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI VA BOSHQARUV TIZIMI



REJA:

27.1. Chig‘atoy ulusida boshqaruv tizimi.
27.2. Soliq siyosati.
27.3. Kebekxon islohotlari.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Chig‘atoy ulusi, urug‘lar, shaharlar, ulug‘ xoqon, xon, egalik huquqi, davlat boshqaruvi, qoraunas, jete, dorug‘a, bosqoq, soliqlar, qopchur, shulen, tamg‘a, kalon, xoqon, payza, yom, dehqonlar, hunarmandlar, chorvador aholi, suyurg‘ol, Plano Kaprini, Barschi, bosh qomondon, islohot, Qarshi, yom, korxona, tuman, o‘rchin, Kebekxon islohotlari, dinor, dirham, ma’muriy islohot, kepaki.

27.1. CHIG‘ATOY ULUSIDA BOSHQARUV TIZIMI

Tarixchi Juvayniy bergan ma’lumotga ko‘ra, Chig‘atoyning qarorgohi Ili daryosining janubiy qismida Kunas (yoki Quyosh) deb atalgan joyda bo‘lgan va u *Ulug‘ ev* (Katta uy) deb atalgan. Keyinchalik, u qarorgohini Olmaliqning g‘arbiga ko‘chirgan. Tarixchi Rashididdinning keltirishicha, ulus poytaxti Uyg‘urlar mamlakatidagi *Beshbaliq* shahri bo‘lgan. Chig‘atoy ulusi tarkibiga Movarounnahr,


Yettisuv, Qoshg‘ar, Xorazmning sharqi, Xurosonning bir qismi, Uyg‘urlar mamlakati, Badaxshon, Balx va G‘aznaning Hind daryosigacha bo‘lgan hududlar kirgan.

Bilib oling!

Til tarixida «shahar» ma’nosini anglatgan so‘zlar tizimi shakllangan bo‘lib, shulardan biri baliqdir. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, «baliq – johiliya davridagi turklar va uyg‘urlar tilida shahardir. Uyg‘urlarning eng katta shahri Beshbaliq – besh shahar deyilishi ham shundandir». Koshg‘ariy shahar ma’nosini anglatuvchi so‘zlardan yana biri sifatida «kand», «kent» so‘zlarini keltiradi: «kend, kand – o‘g‘uzlar va ularga yaqin xalqlarning tilida qishloqdir». Qadimgi turkiy tilda «shahar» ma’nosida o‘rda so‘zi ham ishlatilgan. U ko‘p hollarda poytaxt ma’nosida ham keladi. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, «o‘rdu – shoh turadigan shahar, o‘rda» ma’nosini bildiradi.

Ulus boshlig‘i chingiziylar sulolasiga mansub xoqon tomonidan tayinlangan xon bo‘lib, u o‘z mulkining asosiy xo‘jayini sanalgan. Mo‘g‘ullar hukmronligining birlashgan saltanat davrida xonni tayinlash tartibi merosiylikka asoslangan. Shunday bo‘lsa-da, vorislik huquqiga ega bo‘lgan shahzodani xon sifatida tasdiqlash xoqonlik qurultoyining qarori va xoqonning yorlig‘i orqali amalga oshirilgan. Ulus boshqaruvida xondan keyingi o‘rinda turuvchi amaldor bosh vazir hisoblangan. Xoqon va xon huzuridagi vazirlar vakolati doirasida amalga oshirgan vazifasiga ko‘ra, bir necha kishidan iborat bo‘lgan.

Rashididdinning yozishicha, xonlar qo‘lida cheklanmagan va amalda nazoratsiz hokimiyat mavjud bo‘lgan. Lekin har bir xon to‘la hokimiyatni qo‘lga kiritishi uchun o‘zining shaxsiy qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan. Agar davlat boshlig‘i o‘z hukumatida aniq va hal qiluvchi so‘zni ayta oladigan, Chingizxon *yasoq*lariga amal qiladigan kuchli shaxs bo‘lsa, davlatni deyarli mustaqil boshqara olgan. Ushbu davrda ulus xonining qat’iy belgilangan quyidagi oliy huquqlari va vazifalari mavjud bo‘lgan:


1. Xon o‘zi boshqarayotgan urug‘ning oliy hokimiyat egasi sifatida mamlakat hududiga, ulus tarkibiga kiruvchi barcha o‘ziga qarashli yerlardagi xalqqa egalik qilib, uning asosiy vazifasi va eng muhim majburiyati davlatni va xalqni tashqi dushmanlardan himoya qilish edi.
2. Xonlar boshqa hududlarga urush e’lon qilish huquqiga ega bo‘lgan va bu urushda qo‘shinning eng asosiy qismini boshqargan.
3. Xonlarning chet davlatlar bilan oliy darajadagi muzokaralar olib borishi mumkin bo‘lgan, bu ularning davlat tashqi siyosati yo‘nalishini belgilash vazifasi ko‘rsatgan.
4. Xon o‘ziga bo‘ysunuvchilar orasida aybdorlarni o‘limga hukm qilishi mumkin bo‘lgan, bu uning oliy hakamlik vazifasini belgilagan.
5. Nihoyat, xonlar qonun chiqarish va bu qonunlarga barcha jamiyat a’zolari bo‘ysunishi ko‘rsatilgan, bu ularning jamoa tuzilish va tartibini saqlashdagi vazifasi hisoblangan. Keltirilgan dalillar mo‘g‘ul xonlarining yagona oliy hokimiyat egasi hisoblanganligini isbotlaydi.

Chig'atoy ulusida oliy hokimiyatning yuqori mansablarini mo'g'ul harbiy-ko'chmanchi zodagonlari va shahzodalari egallagan. Ular katta-katta udellarga ega bo'lganlar. Harbiy jarayonlarda (ulus no'yonlari, tuman va minglik amirlari) qo'shinni boshqarish bilan birga, qabilalarga sardorlik qilish, yaylovlar va mulklarga egalik qilish huquqi ham bo'lgan. Mo'g'ullar bosqinigacha va ularning hukmronligi davrida bunday mulk egalari *muqto* yoki *iqtodor* deb atalgan. Ular ushbu yerlarni boshqarish barobarida, shu hududda yashovchi aholiga ham egalik qilishgan. Bu esa ularda o'z qo'l ostidagi dehqonlarni harbiy xizmatga ko'ngilli sifatida olib borish huquqini berar edi.

Bilib oling!

Mo'g'ul saltanati tarkibiga kirgan uluslar xon boshqaruviga berilgan bo'lsa ham, ijroiya hokimiyatda ishtirok etgan ko'pgina amaldorlar to'g'ridan to'g'ri xoqonga itoat etishgan. Boshqaruvda, shuningdek, qo'shin boshliqlarining mavqei yuqori bo'lgan. Manbalarda aytilishicha, 1241-1242-yillarda Chig'atoyning nevarasi, Mutugenning o'g'li Bo'ri shunday mavqega ega bo'lgan. Uning qarorgohi Samarqand shahrida joylashgan bo'lib, qo'shin boshlig'i sifatida xondan kam bo'lmagan hokimiyatga ega edi.

Turondagi mo'g'ullar davlati ko'chmanchi va o'troq viloyatlarga bo'lingan. Ko'chmanchilar shahzodalar va harbiy boshliqlar hukmronligi ostidagi o'nlik harbiy birlashmalarni tashkil qilgan. Qayduxon davrida uning qo'shini va chig'atoylar ittifoqi o'rtasida aniq belgilangan tafovut bo'lgan. Chig'atoylar hukmdorlarni qo'riqlaydigan va ularga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradigan soqchi qismlar – *keshik*larni ham saqlagan. Xon va shahzodalar o'zlarining shaxsiy soqchilariga ham ega bo'lishgan va bu birlashmalar ba'zida o'z boshliqlarining vafotidan keyin o'z harbiy faoliyatlarini to'xtatishgan. Qayduxon hukmronligi davrida xon odatda qo'shinning asosiy old qismini, shahzodalar esa boshqa old qismlarni boshqargan. Faqatgina

Movarounnahr va Xurosonda qo‘shin boshqaruvida bu usul qo‘llanilmay, chingiziylar boshqaruvidagi boshqa o‘lkalarda ham bu an’ana saqlangan. Bu vazifani bajaruvchi shahzodalar tez-tez taxtga da’vogar bo‘lib turgan. Tarmashirin sharqda ishonchli harbiy boshqaruvchiga ega bo‘lmagan va uning hukmronligi davrida *qoraunas* amirlari (g‘arbdagi chig‘atoiylar)ning mavqei oshgan. Ular shahzoda deb tan olinmagan bo‘lsa-da, amirlikka ega bo‘lgan. Qoraunas amirlari qudrati Qazag‘onning 1347-yilda Movarounnahrni egallab olgan vaqtida eng yuqori darajaga yetgan edi.

Chig‘atoy va uning atrofidagi davlat arkoni Movarounnahrdan uzoqda bo‘lganligi sababli, o‘lkani boshqarishga doimo ham to‘liq aralashmagan. Chig‘atoy hukmronligi yillarida Movarounnahr shaharlarini nazorat qilishdan ko‘ra, bu hududdan keladigan soliq va to‘lovlar bilan qanoatlangan. Natijada, Movarounnahr viloyatlari boshqaruviga dastlabki yillarda dorug‘a va uning qo‘l ostidagi mansab egalaridan tashqari deyarli yangilik kiritilmagan. Mahalliy hokimlarning mavjud tartibga ko‘ra, idora ishlarini davom ettirishiga mo‘g‘ul hukmdorlari qarshilik ko‘rsatmagan. Ya’ni, Turonda davom etib kelayotgan an’anaga muvofiq oliy davlat organlari – dargoh va devonlar tizimidan iborat boshqaruv mahalliy hokimliklar boshqaruvida bo‘lgan. Dargohda hukmdorning shaxsiy xizmatidagi eng yaqin kishilari – hojib, ustozdor, amiri oxur, amiri shikor, tashtdor, choshnigir, davatdor, bayroqdor va shu kabi boshqa lavozimdagilar faoliyat yuritgan. Devon esa davlat miqyosidagi masalalar bilan shug‘ullanuvchi vazirliklardan iborat edi.

Bilib oling!

Chig‘atoy ulusida boshqaruv tizimi tuzilishini o‘rga-nish natijasida uning Movarounnahrda quyidagi tartibda yo‘lga qo‘yilganlagini ko‘rsatish mumkin: 1) xon; 2) boshqaruvda ishtirok etuvchi ma’muriy birliklarning boshliqlari; 3) noiblar – (mo‘g‘ulcha «dorug‘achi», «dorug‘a» va turkiyda «bosqoq») shahar va qishloq o‘troq aholisini boshqaruvchilar; 4) davlat ma’muriy apparatiga bo‘ysunuvchi mahalliy hokimlar.

Chig‘atoy xonadoni hukmronligi davrida Movarounnahr boshqaruv tizimiga kiritilgan asosiy o‘zgarishlardan biri *dorug‘a* lavozimining joriy qilinishi bo‘lgan. Xoqon ulus hukmdorining hududlarni idora qilish ishiga doimiy ravishda aralashishiga yo‘l qo‘ymagan va dorug‘achining boshqaruvini oldingi o‘ringa chiqargan. Shu sababli, Turon hududlari Chig‘atoyning mulki bo‘lishiga qaramay rasmiy tarzda xoqon tayinlagan va unga bo‘ysunadigan dorug‘a tomonidan boshqarilgan.

27.2. SOLIQ SIYOSATI

Mo‘g‘ullar hukmronligining dastlabki yillarida egallangan hududlardan yig‘iladigan soliq va yig‘imlarni tizimlashtirish asosiy masalalardan biriga aylangan. Bunga Chingizxon hukmronligi davrida mo‘g‘ullarda soliq va to‘lov turlari tartibga solinmaganligi sabab edi. O‘qtoy xoqonlik taxtiga o‘tirishi bilan soliqlarni tizimlashtirish borasida dastlabki rasmiy hujjatni qabul qilgan (1229). Unda soliqlarni xon saroyi foydasiga yig‘ish haqida buyruq berilgan edi. Aytish mumkinki, xoqonning bu farmoni tartibsiz tarzda mahalliy harbiy hokimiyat vakillari tomonidan soliqlarning to‘planishiga chek qo‘yish, yig‘imlar miqdorini aniq qayd etish yo‘lida birinchi qadam hisoblangan. Lekin mazkur farmon bu boradagi muammolarni hal qilishda yetarli bo‘lmagan. Shu sababli xoqon tomonidan chaqirilgan har bir qurultoyda soliqlarni tartibga solish va bu borada adolat o‘rnatishga qaratilgan qonunlar chiqarilgan.

O‘qtoy farmoni asosida saltanat doirasida to‘rtta soliq turi joriy qilingan. Shaharda yashovchi hunarmand va savdogarlardan «tamg‘a», chorvadorlardan «qopchur» va dehqonchilik mahsulotlaridan olinadigan «kalon» doimiy tarzda to‘langan. O‘troq aholidan tashqari ko‘chmanchilar davlat xazinasiga to‘laydigan mahsulot tarzidagi soliq «shulen» deb nomlangan. Bunda har bir podadan ikki yashar qo‘y, qimiz uchun har mingta otdan bir biya olingan. To‘rtinchi soliq esa bir yilda bir marta mo‘g‘ul hukmdorlarini sharaflash uchun ularga bo‘ysunuvchi xalqlardan yig‘ib olingan. Shu asosda mo‘g‘ullar

istilosidan keyin Chig‘atoy ulusida ham soliq tizimi hukumat manfaatlariga moslashtirilib, 1230-yilda Mahmud Yalavoch tomonidan ulug‘ xoqon farmoniga moslab qaytadan ishlab chiqilgan. U ayni paytga qadar mavjud bo‘lgan an’anaviy tizimni ham o‘rnida qoldirib, O‘qtoy tomonidan joriy qilingan yangi soliq yig‘ish tartibini amalga kiritgan. Bu davrda dehqonlar va chorvadorlardan tashqari yana bir asosiy soliq to‘lovchi guruh – hunarmandlarning ahvoli yanada og‘irlashgan. Mo‘g‘ullarga qarashli bo‘lgan harbiy qurol-aslaha va anjomlar ishlab chiqaradigan ustaxonalarda hunarmandlar og‘ir sharoitlarda ishlagan. Shu bilan birga, ular ham maxsus tamg‘a solig‘ini to‘lagan.

Bilib oling!

O‘z navbatida o‘lkada o‘zlarining tayanch vositasi bo‘lishlariga harakat qilgan mo‘g‘ullar ham bu toifadagi kishilarni qo‘llab-quvvatlay boshladilar. Mo‘g‘ul xonlari (viloyat hokimlari xon, oliy hukmdor esa qoon yoki xoqon deb yuritilgan) va mahalliy zodagon yer egalarining zulmi natijasida mehnatkash xalq endilikda ikki tomonlama ezila boshlaydi. O‘lponu soliqlarning miqdori tobora oshib bordi, undan tashqari esa aholidan yig‘ib olinadigan turli to‘lov va yig‘imlar, jarimalarning soni haddan tashqari oshib keta boshladi. Yangi yer solig‘ining nomi – «kalon» deyilib, u hosilning o‘ndan bir miqdorida olingan. 1235-yilgi qurultoydan so‘ng esa chorva mol boshidan olinadigan yalpi soliq – «qopchur» ta’sis etilgan. Unga ko‘ra, 100 tadan bir miqdorda chorva soliqqa to‘lanar edi (Bu soliq, asosan, mo‘g‘ullar turmush tarzi xususiyatini hisobga olgan holda joriy etilgan edi). «Yasoq»qa ko‘ra, davlat xazinasi uchun «shulen» deb nom olgan oziq-ovqat solig‘i joriy qilingan. Mazkur soliqqa ko‘ra har bir podadan ikki yashar qo‘y, qimiz uchun har mingta otdan bir biya hisobidan olingan. Munqaxon soliqlarni pul bilan belgilab, har kishidan 11 dinorgacha soliq olishni joriy etgan. Biroq hamma hududlarda ham soliqlar bir xilda emasdi. Masalan,

Xurosonda yiliga boy kishidan 7 dinor, kambag'aldan 1 dinor, Movarounnahrda esa boy kishidan 10 dinor va kambag'aldan 1 dinor talab etilgan.

Soliqlar asosan xonlar tomonidan barot (ijara) tarzida oldindan xazina uchun yuborilib, so'ngra aholidan zo'ravonlik bilan oshirilgan miqdorda undirilar edi. Ayniqsa, hunarmandlarning ahvoli og'ir bo'lgan. Ularning o'z yurtlarida tirik qolganlariga mahalliy xonlarning mulki sifatida muomala qilinar edi. Masalan, 1262-yil Buxoroda bo'lgan Xubilayxonning vakili bu yerda 5000 ta hunarmand Botuxonga, 3000 tasi malika *Suyuruk Tanibeka*ga (Xubilay va Munqalarning onasi) tegishli bo'lganligini qayd etadi. 1246-yil Mo'g'ulistonda bo'lgan sayyoh Plano Karpini eng yaxshi hunarmandlar xoqon xizmatida ekanligini va ularga qullarcha munosabatda bo'lishlarini qayd etib o'tadi. Bu guruh shaharlik hunarmandlarga esa kundalik ovqat berilib, ularga qullarcha munosabatda bo'lingan bo'lsa, ikkinchi guruh shaharlik hunarmandlarga esa katta soliqlar solingan.

Bilib oling!

Mo'g'ullarga qarashli bo'lgan harbiy qurol-aslaha va anjomlar ishlab chiqaradigan ustaxonalar – «korxona» nomini olgan bo'lib, u yerdagi hunarmandlar esa qul darajasidagi kishilar hisoblanar edi. Hunarmandlar to'laydigan maxsus soliqning nomi «tamg'a» deb atalgan. Mo'g'ullar shuningdek, qullar mehnatidan ham foydalanishar edi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida yer egaligi holati ham o'zgarib, yangi in'om etilgan yerlar mo'g'ulcha «suyurg'ol» nomini olgan. Suyurg'ol hajmi jihatidan (uning tarkibiga juda katta yer maydonlari, suv havzalari, dasht-yaylovlar ham kirib ketar edi) iqtodan farq qilar edi. Bu davrda davlat, mulk (xususiy yerlar), vaqf (diniy idoralar ixtiyoridagi yerlar) yerlarda ko'p holda ijaraga chorakor dehqonlar mehnat qilishgan. Bir qism ijarador-o'rtahol dehqonlar esa muzoriylar deb yuritilgan.

Buyuk xoqon hisoblangan O‘qtoy davridayoq mo‘g‘ullar o‘zlariga xizmat ko‘rsatayotgan ayrim kishilar, katta yer egalari, savdogarlarga turli yorliq va payzalar bera boshladilar. Payza qimmatbaho metall (oltin, kumush) yoki jez, yog‘och taxtalardan ishlangan bo‘lib, unga no‘yonning muhri qo‘yilar edi. Bunday payzaga ega bo‘lgan kishilar, shu jumladan, elchilar, soliq yig‘uvchilar va boshqa shaxslar aholidan turli yig‘im, to‘lovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. Ko‘plab beriladigan payza egalari aholidan tekinga ot-ulov, yem-xashak, yotar-joy, oziq-ovqat talab qilishga ham haqli edi. Savdo yo‘llarida joylashgan bekatlar «yom» (jom) deyilib, ularning xizmati va harajati mahalliy aholi bo‘ynida edi. Bu bekatlar bo‘ylab davlat ishlari bo‘yicha ko‘plab elchi, chopar, vakil va boshqalar o‘tib, xalq ularga tekinga xizmat qilib, yana ularni ta’minlab turishi ham lozim edi. 1235-yildan boshlab xoqon farmoniga ko‘ra har bir yomning aloqa xizmati va harakati ikkita tuman aholisiga yuklatildi. Ikki tuman aholisi yom uchun 20 bosh ot, so‘yishga qo‘y-echki, sog‘ishga biyalar, arava va boshqa zarur anjomlar ajratishlari lozim edi. «Yomlar bo‘yidagi aholida toqat va majol ham qolmagan edi», – deb yozgan edi tarixchi Rashididdin.

Mahalliy aholi – hunarmand, dehqon, chorvador, kim bo‘lishidan qat’iy nazar, umumhashar ishlarida qatnashishi va tekinga ishlab berishi shart edi. Shuningdek, shahar va qishloqlarda joylashgan harbiy guruhlarni kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan ta’minlash ham oddiy aholi zimmasida edi. Hunarmandlar, ayniqsa, qattiq nazorat ostiga olingan bo‘lib, ular yuqorida eslatilgan soliqlardan tashqari mo‘g‘ul hukmdorlariga ma’lum miqdordagi mahsulotlar ishlab berardilar.

Chig‘atoy ulusi xonlari o‘z uluslariga *inju* tarzida egalik qilganlar, ya’ni xonu xonzodalar o‘zlariga berilgan yurtning daromadidan foydalanish huquqiga ega bo‘lganlar.

Munqa qoon nomidan pul zarb etilgach, soliq va jarimalar pul bilan olina boshlagan. Shuningdek, Mas’udbek tashabbusi bilan 1271-yilda pul islohoti o‘tkazildi. Chig‘atoy ulusining barcha shahar va tumanlarida bir xil vazndagi kumush tangalar zarb etish va muomalaga kiritish bu islohotning asosiy mohiyatini tashkil etar edi. Bu hol ichki

savdo va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solardi: endi kumush tangalar zarb etish erkinligi vujudga keldi; xohlagan kishi o'z ixtiyoridagi kumush buyumlarini zarbxonaga olib kelib kumush tangaga aylantirishi mumkin edi. Pul ulusning ko'plab yirik shaharlarida, masalan, Olmaliq, Buxoro, O'tror, Taroz, Qoshg'ar, Toshkent, O'sh, Marg'ilon, Oqtepa, O'zgand, Xo'jandda zarb qilingan. Mo'g'ullar bosib olingan xorazmshohlar davlatining aholisini o'nlik, yuzlik, mingliklarga bo'lganlar. Ana shu tartibda 10000 aholidan iborat ma'muriy birlik tumanlar joriy qilingan. 1235-1251-yillarda ikki marta aholi ro'yxati o'tkazilib, hatto hunarmandlar ham mo'g'ul feodallariga, oilalar hazora – mingliklarga bo'lib biriktiriltan.

Shuningdek, ulkan harbiy yurishlar va harbiy harakatlar oldidan xonlar qo'shin ehtiyoji uchun harbiy xarajatlarga aholini talon-taroj qilish orqali ham mablag' to'plagan. Olg'uxon va Baroqxon davrlarida shunday holatlar yaqqol ko'zga tashlangani holda, keyingi davrlarda bu holatga barham beriladi. Amir Qazag'on davriga kelib soliq siyosati bir qadar tartibga solinadi. Jumladan, amir va davlat mansabdorlarining oddiy xalqdan yig'ib oladigan yig'imlari ham imkon boricha qisqartiriladi.

27.3. KEBEKXON ISLOHOTLARI

Sharq mualliflari Kebekni «adolatli sulton, yaxshi xulqli va ajoyib odam» deya ta'riflashadi. U shomoniylik diniga e'tiqod qilgan bo'lib, umri davomida o'z dinida qoldi, lekin musulmonlarga homiylik qildi va islom dini ulamolari bilan yaxshi munosabatda bo'lib, ularning majlislarida ham qatnashib turgan.

Kebekxon chig'atoy xonlari orasida birinchi bo'lib o'z qarorgohini Movarounnahrga ko'chiradi. Qashqadaryo vohasida qadimiy Nasaf shahri yaqinida Kebekxon o'zi uchun saroy qurdi. Saroy so'zi qadimgi turkiy tilda «xarsh» yoki «qarsh» deb nomlangan, keyinchalik, bu saroy atrofida Nasaf bilan birlashib ketgan butun shahar shu paytdan boshlab Qarshi nomi bilan tanilgan. Kebekxon mamlakatni Qarshidan turib idora etgan. Albatta buning bir qator sabablari mavjud edi. Jumladan,

Kebekxon mo‘gullarning o‘troq Movarounnahr aholisi bilan yaqinlashuvini istagan, shuningdek, akasi Esan Buqa davridayoq Qahqadaryo vohasi Kebekxonga mulk sifatida berilgan edi. Bundan tashqari, ov-shikorni doimiy mashg‘ulotga aylantirgan ko‘chmanchi mo‘g‘ul xonlari uchun Qarshi shahri atrofi dasht va to‘qaylardan iborat, ov qilishga qulay bo‘lgan shahar edi.

Bilib oling!

Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, «shoh qasri», «saroy» – qarshi deb atalgan. Hozirgi Qarshi shaharining oti ham shu so‘zdan olingan. Ayrim olimlar hozirga qadar bu so‘zni mo‘g‘ulchadan o‘zlashgan, deb qaraydi. Bu fikr to‘g‘ri emas, u asli turkiy bo‘lib, mo‘g‘ulchaga keyin o‘zlashgan.

Chig‘atoy ulusidagi ma’muriy va pul islohoti Kebek nomi bilan bog‘liq. Undan oldin bu mamlakatning barcha mo‘g‘ul xonlari ko‘chmanchi hukmdorlar edi. Ular xalq ommasi, shaharlar va madaniy hududlarni boshqarishga bevosita aralashmagan, balki urush holatida ulardan askar yig‘ish, shuningdek, soliq va majburiyatlar bilan chegaralangan xolos. Madaniy sohalarda asosiy yetakchilik mahalliy hokimlar qo‘lida bo‘lib, ularning xizmatidan mo‘g‘ullar ham foydalanib kelishadi. Mahalliy hokim va hukmdorlar o‘z manfaatlarini ko‘zlab, shaharliklar va dehqonlardan soliqlarni to‘lanishi kerak bo‘lgan miqdoridan ancha ko‘p yig‘ib olardilar. Natijada Movarounnahrning qishloq va shahar aholisi Chig‘atoy xonlarining mamlakatni o‘z qo‘liga olishga urinishini qo‘llab-quvvatlashga tayyor edi.

Bundan tashqari, Chig‘atoy ulusi yagona pul tizimining yo‘qligidan katta zarar ko‘rdi. Bu holat Kebekxonni ma’muriy va pul islohotlarni amalga oshirishga majbur qildi. Yozma manbalarda Kebekxonninng islohotlarni amalga oshirgan yillari qayd etilmagan. Biroq, Kebekxon tomonidan zarb qilingan bizga ma’lum bo‘lgan eng qadimgi tangadan islohot taxminan 1321-yil amalga oshirilgan degan

xulosaga olib keladi. Yangi pul islohoti savdo-sotiq jadal rivojlanishi uchun xizmat qilishi lozim edi. Kebekxon Oltin O'rda va Xulakular saltanati namunasida ikki xil tangalar zarb ettirgan. Pul islohotiga ko'ra, ilgari chiqarilgan bitta kumush tanga o'rniga endi bir xil qiymatdagi og'irligi 8 grammdan ortiq bo'lgan kichik dirhamlar va yirik dinorlar zarb qilindi. Qonunga ko'ra 1 dinor 6 dirhamga teng qilib belgilanadi. Bu islohot natijasida yaratilgan yangi tangalar xalq orasida «kepaki» nomini oladi. Bunga qadar esa savdo munosabatlarida mahalliy sulola hukmdorlarining pullaridan foydalanilar edi.

Bilib oling!

Mazkur pul birliklari, keyinchalik, Oltin O'rda davlati hududida ham ommalashgan bo'lib, u orqali rus knyazliklariga ham muomalada bo'lgan bo'lishi yoki nomi kirib borgan bo'lishi, ehtimol. Lekin, shu narsa aniqki, keyinchalik, Rus davlatida joriy bo'lgan «kopeyka» aynan «kepaki» pul birligi nomining buzilgan shaklidir.

Kebekxonning ma'muriy islohotlari ham mamlakat hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Uning islohoti bo'yicha davlat yurtlarga va 10 minglik harbiy birlik yig'iladigan maxsus hududiy birliklarga ajratiladi. Bu ma'muriy-harbiy birliklar Movarounnahr va unga tutash o'lkalarda «tuman», Qoshg'ar va Sharqiy Turkistonda «o'rchin» deb nomlanadi. Jumladan, Samarqand viloyati 7 ta, Farg'ona vodiysi 9 ta tumanga bo'lingan. Ammo ma'muriy islohot mahalliy hokimliklar va bekliklarga barham bermaydi, balki ularga moslashadi. Ilgarigi mahalliy hokimlar tumanlarning noibiga aylantiriladi. Avvalgi mahalliy hukmdorlar – maliklar va sadrlarning o'rinlarini turk-mo'g'ul urug' boshliqlari egallaydi. Kebekxon joriy qilgan ma'muriy bo'linish, garchi qadimiy an'analarga barham bera olmagan bo'lsa-da, davlatni mustahkamlashda ijobiy rol o'ynadi. Kebekxon davlatni idora etish tuzilishini va uning iqtisodiy hayotini tartibga solish maqsadida ma'muriy va pul islohoti o'tkazadi.

Shunday qilib, turk-mo‘g‘ul ko‘chmanchi zodagonlari, shuningdek, mahalliy malik va sadrlarning avtonom huquqlari bekor qilindi. Balki bu chora faqat oldingi huquqlarni yangilari bilan almashtirish edi. Shunga qaramay bu islohot ulusning ma’muriy-siyosiy boshqaruvida katta o‘zgarishlar kiritdi. Markaziy Osiyo shaharlari, ularning ichki va tashqi savdodagi faolligi uchun yanada qulay sharoit yaratdilar.

Videosaboq



Quyidagi *QR-kod* orqali «O‘zbekiston tarixi» telekanali tomonidan efirga uzatiladigan «Ochiq dars» ko‘rsatuvining *Chig‘atoy ulusidagi bosqaruv va din* masalalariga bag‘ishlangan sonini tomosha qilishingiz mumkin.

(*Manba*: O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «Telegram» tarmog‘idagi rasmiy sahifasi)

Atamalar izohi

☑ ***Qoraunas*** – Mo‘g‘ullar (tarixiy Mo‘g‘uliston) qoraunaslar deb g‘arbiy chig‘atoylar (Chig‘atoy ulusi aholisi)ni atashgan. Mo‘g‘ullar kelib chiqishi aralash bo‘lgan (asl mo‘g‘ul bo‘lmagan) odamlarni «qoraunas – qorag‘unas» (aralashgan, duragay) deb atashgan. Shunday qilib, Yettisuvda yashayotgan mo‘g‘ullar Movarounnahrga ko‘chib kelganlarni «qoraunas» deb yuritganlar.

☑ ***Jete*** – Movarounnahrda yashayotgan mo‘g‘ullar Sharqiy Turkiston va Yettirsuvda yashovchi mo‘g‘ullarni «jete» (qaroqchi, talonchi) deb atay boshladilar. Bu amalda bir-birini haqorat qilish edi. Qoraunas va Jetelar o‘rtasida ziddiyat, nafrat kuchayib bordi.

☑ *Qarshi* – Chig'atoiy xonlardan bo'lgan Kebekxon ko'chmanchilikdan o'troq hayotga o'tish maqsadida markazni Yettisuvdagi Olmaliq shahridan Movarounnahrga ko'chirgan. U vayron bo'lib ketgan Naxshab yaqinidan saroy qurdirgan. Saroy atrofida o'tovlardan iborat shahar vujudga kelgan; keyinchalik g'ishtin binolar, mahallalar, masjid-madrasalar, bozorlar, maydonlar, karvonsaroylar barpo etilgan. Shu tariqa Qarshi shahri vujudga kelgan.

Savol va topshiriqlar

1. Chig'atoy ulusi boshqaruvi qanday asosda qurilgan edi?
2. Chig'atoy ulusining asosiy shaharlari qayerlarda joylashgan edi?
3. O'troq va ko'chmanchi boshqaruv tartiblari orasida qanday farqlar mavjud? Chig'atoy ulusidagi boshqaruvning qanday o'ziga xosliklari bor edi?
4. Shahar ma'nosini anglatuvchi so'zlar qanday shakllangan?
5. Chingizxonning yasog'iga ko'ra ulus xonlariga qanday vazifalar belgilangan edi?
6. Jete va qoraunas atamalariga izoh bering.
7. Mo'g'ullar davrida joriy etilgan yangi soliq turlarini izohlang.
8. Chig'atoy ulusida soliq siyosati qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilgan edi?
9. Kebekxon pul islohotlari o'lka iqtisodiyoti uchun qanchalik ahamiytga ega bo'ldi?
10. Kebekxon nima sababdan mamlakat poytaxtni Qarshiga ko'chirgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Achilova G. Movarounnahrning Chig'atoy ulusi tarkibidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (1227-1370). T.f.f.d. disser. avtoreferati. T., 2019.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.
3. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – T.: Yosh kuch, 2019.

4. Michal B. Qaidu and rise if the independent state in Central Asia. Curzon Press. Great Britain: 1997.

5. Бартолд В. Сочинения. Том II, часть 2. Москва: Наука. 1964.

6. История Казахстана в персидских источниках: Том I: Джамал ал-Карши. ал-Мулхакат би-с сурах. Дайк-пресс. Алматы, 2005.

7. История Казахстана в персидских источниках: Том III Му'изз ал-ансаб. Дайк-пресс. Алматы, 2006.

8. Караев О. К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. Образование кыргызского народа. – Бишкек: Кыргызстан, 1995.

9. Рашид-ад Дин Фазлуллах. Джами ат-Таварих. Баку: Нагыл Еви, 2011.

28-MAVZU. CHIG‘ATOY ULUSINING IJTIMOIY VA MADANIY HAYOTI



REJA:

28.1. Chig‘atoy ulusida diniy hayot.
28.2. Chig‘atoy ulusida ta’lim tizimi.
283. Chig‘atoy ulusida ilm-fan.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Chig‘atoy, Chig‘atoy ulusi, diniy erkinlik, islom, diniy tenglik, Yasoq, Berkaxon, Sayfiddin Boxarziy, Muborakshoh, Baroqxon, o‘troq turmush, nestorianlik, katolik, buddaviylik, cherkov, Samarqand mitropoliti, tasavvuf, ta’lim, tarbiy, madrasa, kutubxona, kitoblar, Buxoro, mutavalli, Xoniya, Mas’udiya, Mas’udbek, ilm-fan, asarlar, diniy bilimlar, fiqh, astronomiya, rasadxona, zij, Sadr ash-Sharia.

28.1. CHIG‘ATOY ULUSIDA DINIY HAYOT

Chingizxon istilosi va mo‘g‘ul shahzodalari o‘rtasidagi doimiy urushlarning Turon xalqlari uchun keltirgan og‘ir oqibatlaridan biri sifatida aholi sonining keskin kamayishi va ijtimoiy jihatdan muammolarning ko‘payib ketishi, deb hisoblash mumkin.

Chingiziylar hukmronligi davrida aholining soni keskin kamayib ketgan bo‘lsa-da, ijtimoiy jihatdan avvalgi tarkibiy tuzilishini saqlab qolgan. Ular orasida mo‘g‘ullargacha va keyingi davrlarda bo‘lganidek,

diniy ulamolar: shayxlar, rasmiy diniy davlat lavozimlari vakillari va mahalliy hukumatni boshqargan sadrlar, qozi hamda muftiylarning obro'si baland hisoblangan. Diniy ulamolarning o'z vaqf mulklari hisobidan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlaganligi ham bu davrdagi muhim hodisa hisoblanadi.

Bilib oling!

Garchi Chingizxonning *buyuk yasosi* diniy tenglikka qaratilgan bo'lsada, ulusning dastlabki hukmdori sanalgan Chig'atoyxon xristian diniga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, Turon orqali Xitoyga safar qilgan sayyoh Marko Poloning yozishicha, Chig'atoyxonning buyrug'i bilan Samarqandda ulkan xristian cherkovi qurilgan. Samarqand shahrida hatto xristianlikning oqimi sanalgan *nestorianlik*ning Turondagi markazi joylashgan bo'lib, manbalarda 1281-yil Bag'dodda bo'lib o'tgan Nestorian yepiskopligi yig'ilishida Samarqand mitropoliti *Mak-Yablaxi*ning ishtirok etgani tilga olingan edi.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatda islom dini va islom ulamolarining nufuzi ham ma'lum darajada yuqoriligicha saqlanib qoldi. XIII asrning 60-yillariga kelib, Chig'atoy ulusi hukmdorlari islom diniga alohida e'tibor bera boshladi. Bunga sabab siyosiy maydonda ancha ommaviy va keng qamrovli bo'lgan islom hodisasi – tasavvuf ta'limotining xalq orasida keng yoyganligida va tasavvuf vakillarining mo'g'ul hukmdorlari tomonidan tan olinib ularga ishonch bildirilganligida edi. Jumladan, Shamsiddin Zahabiyning yozishicha, bu paytda Buxoroda istiqomat qilgan shayx Sayfiddin Boxarziynind nufuzi hatto ulug' xoqon saroyida ham yuqori edi. Munqaxon taxtga o'tirgach, shayx Sayfiddin Boxarziyga atab hadyalar yuboradi, shuningdek, Bag'dod xalifasi, Mavsil, Sheroz, Ozarbayjon voliylari shayxga hadyalar yuborib turgan.

Umuman olganda, islom diniga mo'g'ul hukmdorlari orasidan birinchi bo'lib Berkaxon (1255-1266) e'tibor qaratadi. Mirzo

Ulug'bekning yozishicha, Berkaxon musulmon ayoldan tug'ilgan bo'lib, ehtimolki, o'z onasi ta'siri o'laroq islomni qabul qilgan. Berkaxon islom dinini shayx Sayfiddin Boxarziy qo'lida qabul qilgan. Chig'atoy hukmdorlari orasida birinchi bo'lib islomni qabul qilgan hukmdor sifatida esa Muborakshoh ibn Qora Xulaku tilga olinadi. Muborakshoh 1265-yilda Ohangaron vodiysida taxtga ko'tariladi va islomni qabul qiladi. Ammo Chig'atoy xonzodalaridan birinchi bo'lib islomning qabul qilinishi ertaroq boshlangan. Jumladan, Shamsuddin Zahabiy Buxoroda shayx Sayfiddin Boxarziy qo'lidan islomni qabul qilgan shaxslar haqida gapirib «u kishining qo'llarida o'sha paytning amiri islomni qabul qildi... Shayx uni Mo'min deb nomladilar» – deya, ilova qiladi. Shayx Sayfiddin Boxarziy vafoti 1261-yilda ekanligini hisobga olsak, bu voqea Muborakshoh taxtga o'tirishidan avvalroq sodir bo'lganligini ko'rsatadi.

Bilib oling!

Ammo, Muborakshoh tomonidan islomning qabul qilinishi Chig'atoy aristokratiyasi tomonidan iliq kutib olinmagan ko'rinadi. Sababi, taxtga chiqqaniga ko'p bo'lmagan Muborakshoh amakivachchasi Baroqxon tomonidan taxtdan ag'dariladi. O'z navbatida keyingi islomni qabul qilgan hukmdor Baroqxon sanaladi. 1266-1271-yillarda hukmronlik qilgan Baroqxon taxminan 1270-yilda Buxoroda islomni qabul qiladi. Ammo hech bir manbada uning kimdan va qay maqsadda islomni qabul qilganligi haqida ma'lumot uchramaydi. Bizningcha, bu vaziyatda Baroqxon Buxoroda islomni qabul qilishidan ma'lum ma'noda siyosiy ahamiyatga molik maqsad ko'zlangan edi.

1270-yilda Baroqxon Xurosonga yurish qilib qaqshatqich mag'lubiyatga uchragan. Ko'p o'tmay falajlanib qolgan Baroqxonga qarshi mamlakatda qator isyonlar boshlanadi. Shu bilan bir qatorda, Baroqning o'z ittifoqchisi sanalgan Qaydudan yordam olishga bo'lgan

urinishi behuda ketadi. Xurosondagi mag'lubiyat Chig'atoy ulusining janubiy chegaralari xavfsizligiga putur yetkazadi. Baroqxon islomni qabul qilish orqali Movarounnahrdagi katta boylik va nufuzga ega bo'lgan islom ulamolarining qo'llab quvvatlashidan foydalanish imkoniga ega bo'lib, bu yo'l orqali u o'z hukmronligini saqlab qolishni maqsad qilgan edi.

XIV asrning dastlabki yillarida Chig'atoy ulusi taxtiga yana bir musulmon hukmdor Toliquxon (1308-1309) keladi. U qo'shin boshliqlarini ham islom dinini qabul qilganlardan tayinlashga urinib ko'radi, lekin bunday siyosat uning taxtdan ag'darilishiga olib keldi. Undan keyin taxtga o'tirgan chig'atoy shahzodasi Eson Buqa (1309-1318) ham musulmon bo'lgan. Bu shahzodalar islom dinini davlat siyosati darajasiga olib chiqa olmaganligini birinchi navbatda davlatdagi siyosiy vaziyatning og'irligi va ularga qarshi mo'g'ul an'analarini himoya qiluvchi kuchlarning mavjudligi bilan izohlash mumkin.

1318-yili ulus taxtiga Kebekxon keladi. Kebek hukmronligi davrida poytaxt uning udeli – mulk yerlariga, Movarounnahr janubiga ko'chiriladi. Qadimiy Naxshab yaqinida Qarshi endilikda ulus hukmdori qarorgohiga aylanadi. Buning natijasi o'laroq Chig'atoy ulusi aristokratiyasining islomga yaqinlashuvi yuzaga keladi. Garchi, Kebekxon islomni qabul qilmagan bolsa-da, islom dinidagi mahalliy aristokratiya bilan yaxshi munosabatda bo'lgan. Jumladan, mashhur sayyoh Ibn Battuta Kebekxonning voiz Badiruddin al-Maydoniy bilan bo'lib o'tgan suhbatini yozib, ushbu suhbatdan so'ng Kebekxon musulmonlarga yanada yaxshiroq munosabatda bo'lganligini ta'kidlaydi. Kebekxon bilan musulmonlar orasidagi munosabatlar iliqligining yana bir misoli Kebekxon qabri ustida qurilgan gumbazli maqbara bo'lib, bunday usuldagi qabrlar islom an'analariga xos edi.

1331-yilda Chig'atoy ulusi taxtiga musulmon bo'lgan hukmdor Alouddin Tarmashirin keladi (1331-1334). Uning davrida mamlakatda islom dini asosiy dinga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tarmashirinxon davrida mamlakat janubida islom an'analari to'la qaror topdi. Taxminlarga ko'ra, Alouddin Tarmashirinxon tomonidan islomning qabul qilinishi 1329-yillar atrofiga to'g'ri kelib, u O'trorda

shayx Hisomiddin al-Yog'iydan islom dinini qabul qilgan. Shu o'rinda boshqa Chig'atoy hukmdorlarining islom dinini qabul qilishi ayrim manbalarda bahslarga sabab bo'lganligini, Tarmashirinxon to'g'risidagi ma'lumotlar hech qanday bahslarsiz tasdiqlanganligini eslatib o'tish lozim. U islom dini amallarini to'lig'icha ado etgan.

Bilib oling!

Bu davrga kelib, bir qator Movarounnahrda yashab kelayotgan mo'g'ul sarkardalari allaqachon islomni qabul qilgan edi. Ammo mamlakat sharqiy viloyatlarida hali ham shomoniylik, buddaviylik va xristianlik kuchli bo'lgan. Jumladan, XIV asr o'rtalarida Ali Sultonning Sharqiy Chig'atoy ulusi hududida islomni targ'ib qilishga urunishi hukmdorning o'ldirilishi bilan tugaydi. Shunga qaramay, Movarounnahrda islom dini tezlik bilan rivoj topa bordi, islomning tarqalishi turk-mo'g'ul qabilalarining o'troqlashuviga ham yol ochib beradi. Shunday qilib, XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib islom Chig'atoy ulusining asosiy diniga aylanadi.

28.2. CHIG'ATOY ULUSIDA TA'LIM TIZIMI

XIII asr boshlarida mo'g'ullar bosqini va ularning Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda bir yarim asrlik hukmronligi boshqa sohalarda bo'lganidek, ta'lim-tarbiya va ma'naviy hayotga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bosqinchilar to'z-to'poloni vaqtida Buxoro, Samarqand, Urganch kabi shaharlarda bir nechta maktab, madrasa, kutubxonalar yonib ketgan. Qanchadan qancha qo'lyozmalar, muqaddas kitoblar yoqib yuborilgan. Kitob jovonlari otlarga oxur sifatida ishlatilgan. Vaqf yerlarini tortib olishib o'zlarining mulklariga qo'shganlar. Mulla va mudarrislar o'ldirilgan yoki qul sifatida ishlatilgan. Ayrim ma'lumotlarda mulla va mudarrislarning bir qismi chingiziylar xonadonlariga majburlab olib borilib, Chingizxon o'g'illari va nevaralariga ta'lim bergan. Ayrim shayx va maktabdorlar o'z shogirdlari hamda

mulozimlari bilan o‘z yurtlaridan bosh olib ketganlar. Shunga qaramay, ayrim mo‘g‘ul xonlari tomonidan tasavvuf vakillariga hurmat va ehtirom ham ko‘rsatilgan. Albatta, bundan ko‘zlangan maqsad xalq hurmat qilgan va ergashgan toifani qo‘llab-quvvatlash orqali aholi ehtiromiga erishish, barqarorlikni yuzaga keltirish edi.

Faqatgina XIII asrning ikkinchi yarmiga kelib O‘rta Osiyoda ilm-fan, adabiyot, ma’rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari tiklana boshlagan. Jumladan, XIII asrda O‘rta Osiyoda ta’lim-tarbiya va xalqning boy intellektual salohiyati, mo‘g‘ullar istilosiga qaramasdan ma’naviy-marifiy jihatdan rivojlanishni boshladi. Ajdodlarimizning bunday ta’lim jarayonidagi mazmun, shakl, usul va vositalaridan boxabar bo‘lishi yoshlarning tarbiyasida o‘zining bebaho qiymatga egaligi bilan ajralib turgan.

Bilib oling!

Shuningdek, Chig‘atoy ulusida uyg‘ur tili ham alohida nufuzga ega til hisoblangan. Dastlab mo‘g‘ul qabilalarining yozuvlari mavjud emas edi. Shu sababdan Chingizxon mo‘g‘ullar uchun yozuv vositasi sifatida uyg‘ur yozuvini qabul qildi. Hattoki, Chingizxon o‘z farzandlariga ham ushbu yozuvni o‘rgatishni buyurgan. Shu sababli, xon oilasi va nufuzli sarkardalar orasidagi yozishmalar uyg‘ur tilida olib borilgan hamda ko‘plab yirik mo‘g‘ul amaldorlari uyg‘urlardan bo‘lgan. Jumladan, Chin Qoya, Amir Ko‘rkuz kabilar uyg‘urlardan bo‘lib, uyg‘ur yozuvini yaxshi bilganligi tufayli yuqori lavozimlarga erishadi.

Shu tufayli bo‘lsa kerak, Chig‘atoy ulusida baxshi lavozimidagi uyg‘ur xattotlari faoliyat olib borishgan. Ular hukmdorlarning maxsus farmonlari va zafarnomalarni yozish bilan shug‘ullangan o‘z davrining ziyoli kishilari bo‘ldilar. Keyinchalik, Chig‘atoy ulusi hukmdorlarining islomiy muhit bilan yaqinlashuvi o‘laroq, uyg‘ur yozuvi o‘rnini arab yozuvi egallay boshlagan. Shunga qaramay, uyg‘ur xati temuriylar davrida ham ma’lum darajada amalda bo‘lib keldi. Baxshilar uyg‘ur

yozuvini avloddan avlodga meros qilib kelishgan. Arab yozuviga nisbatan u qadar keng tarqalmagan bu yozuv, asosan, saroyning ichki yozuviga aylanib qoladi.

Chig'atoy ulusida madsrasa ta'limi ham yo'lga qo'yilgan edi. Garchi mo'g'ul bosqinidan so'ng ko'plab madrasalar vayron qilingan yoki ko'plab olimlar Qoraqurumga olib ketilgan bo'lsada, madrasa tizimi ko'p o'tmay qayta tartibga solina boshlaydi. Jumladan, Mahmud va Mas'ud Yalavochlarning xizmatlari bilan Buxoro shahri deyarli butkul qayta tiklanadi.

Bilib oling!

Bu paytda Buxoro shahrida ikkita yirik madrasa bunyod etilgan. Bular, Xoniya va Mas'udiya madrasalari bo'lib, Xoniya madrasasi Munqaxonning onasi *Suyuruk Tanibeka* tomonidan moliyalashtirilgan. Malika shayx Sayfiddin Boxarziyga 1000 kumush *balish* yuborib, madrasa qurilishi uchun homiylik qilgan. Shuningdek, malika Buxoro shahri yaqinidagi qishloqlardan bir nechtasini sotib olib madrasaga vaqf qilgan va vaqf mulkiga *mutavalli* qilib Sayfiddin Baxorziyning o'zi tayinlangan. Malika Suyuruk Tanibeka 1252-yilga qadar yashaganini hisobga olsak, bu madrasa taxminan XIII asrning 40-yillarida bunyod etilgan.

Yana bir madrasa Mas'udiya bo'lib, u hozirda Buxoroning Mir Mas'ud guzarida joylashgan. U ulug'vor, katta madrasa bo'lib, Movarounnadrdagi Chig'atoy ulusi noibi Mas'udbek tomonidan qurilgan. Ba'zi adabiyotlarda Mas'udbek Chig'atoy ulusini boshdargan yillarda (1254-1289) musulmonlar va ilm toliblari uchun oliy o'quv dargohi bino qilganligi aytiladi. Aytishlaricha, mazkur madrasada qariyb 1000 nafar talaba ilm olar ekan. Unda ko'plab qimmatbaho kitoblar to'planib, boy kutubxona tashkil etilgan.

Rashididdinning «Jome ut-tavorix» asarida aytilishicha, hijriy 671-yil (1272-1273) Mas'udbek Movarounnahrda yo'qligidan foydalangan

mo‘g‘ullarning Xurosondagi hukmdori Abaqaxon buyrug‘iga ko‘ra, Oqbek ismli sarkarda Movarounnahrga yurish qilgan. U Amudaryodan o‘tib, Kesh va Naxshabni vayron qilgan, keyin esa, Buxoroga yurib, uni qamal qilgan. Buxoroning din ulamosi (Sadri Jahon) roziligiga ko‘ra sulh tuzilganch, Xuroson mo‘g‘ullari sulhni buzib, shaharga kirishgan va talon-taroj qilib, Mas’udbekning madrasasiga o‘t qo‘yib yuborganlar. Bu madrasa va unda saqlanayotgan nafis kitoblar kulga aylangan. Mazkur bosqindan keyin Buxoro shahri huvillab qoladi. Bu ham kamlik qilganday, oradan uch yil otib, hijriy 674-sanada (1275-1276) baraqiylar (Baroqxon avlodlari) Buxoroga o‘t qo‘yishadi va shahar katta alanga ichida qoladi. Sayyid Muhammad Nosir shahar yetti yilgacha «odamsiz va hayvonsiz» huvillab qolganini ta’kidlaydi.

Keyinchalik, Qayduxon Mas’udbekka vayronagarchilikni bartaraf etib, shaharni obod qilishga farmon bergan. Qisqa fursatda Mas’udbek boshchiligida Buxoro obod qilingan. «Tarqab ketgan xalq, raiyat, olimlar va ijod ahli yana ushbu muborak makonga qaytgan».

Bilib oling!

Mas’udiya va Xoniya madrasalari o‘z davrining eng yirik madrasalaridan bo‘lib, har birida 1000 dan ortiq talaba ilm olgan. Mas’udiya madrasasida, shuningdek, o‘z davri uchun nihoyatda yirik va qimmatli manbalar yig‘ilgan *kutubxona* mavjud bo‘lgan. Afsuski, ushbu kutubxona ham madrasa bilan birga vayron etilgan edi.

XIII asrda, shuningdek, Buxoroda Xoja Bulg‘oriy madrasasi hamda Urganchda Xorazm noibi Qutlug‘ Temur tomonidan qurdirilgan ulkan madrasalar ham faoliyat yuritgan. Shuningdek bu davrda Buxorodan quyiroq darajada bo‘lsada Samarqand ham o‘zining madaniy-ma’rifiy va ilmiy markaz maqomini saqlab qoladi. Garchi Chingizxon bosqinidan so‘ng Samarqand shahri deyarli vayrona holga kelib qolgan bo‘lsa hambu yerda ilm-fan sohasi to‘xtab qolmagan. Jumladan, bu davrda manbalarning guvohlik berishicha Samarqandda

Tamg‘achxon (Qusamiya), Javzoniya va Amir Ziyovuddin kabi madrasalar faoliyat yuritgan. Yuqoridagi madrasalardan Amir Ziyovuddin madrasasi XIII asr ortalarida qurilgan deb taxmin qilinadi.

28.3. CHIG‘ATOY ULUSIDA ILM-FAN

Chig‘atoy ulusi davriga kelib, Turonda ilm-fan qo‘shni hududlarga nisbatan biroz oqsagani seziladi. Shunga qaramay, adabiyot, tafsir, tarixnavislik va hadis ilmi ma’lum darajada rivoj topdi.

Bu davrning mashhur olimlaridan biri – tarixnavis, shoir va tilshunos Jamol Qarshiy bo‘lib, u 1230-yilda Chig‘atoy ulusi poytaxti Olmaliqda tug‘ilgan. U o‘z davrining yetuk olimi Ashraf Kosoniydan ta’lim olgan bo‘lib, ma’lum muddat mahalliy hokim Sig‘noqtakinning o‘g‘liga ustoz va otabeklik qiladi. 1269-1294-yillarda O‘rta Osiyoning ko‘plab hududlarida sayohat qilgan va o‘zi uchrashgan olim, shoir va shayxlar haqida yozib qoldirgan. Uning qalamiga mansub «Mulhaqat us-Suroh» asarida ushbu davrda yashab ijod etgan qator olim va mutafakkirlar xususida so‘z yuritadi. Shuningdek, asarda qomusiy olim, ma’danshunos Muhammad Faroxiy, tafsirshunos va muhaddis Ashraf Kosoniy ham eslab o‘tilgan.

Bu davrning yana bir mashhur shaxsi – faylasuf va ruboiynavis Pahlavon Mahmud (1247-1326) sanaladi. Pahlavon Mahmud olim, shoir, kuragi yerga tegmagan pahlavon, shu bilan birga po‘stindo‘z va telpakdo‘z hunarmand bo‘lgan. Uning «Kanzul haqoyiq» («Haqiqatlar xazinasi») nomli masnaviy yaratgani haqida ma’lumotlar bor. Pahlavon Mahmudning ruboiylari mashhurdir. Shoir o‘z ruboiylarini fors-tojik tilida yozgan. Shuningdek, manbalarda uning mohir musiqachi sifatida bir qator musiqalar bastalagani ham qayd etiladi. Pahlavon Mahmud sufiy shayx sifatida javonmardlik tariqatiga asos solib, hatto hozirgi kunda ham kosib va hunarmandlarning ma’naviy rahnamosi sifatida qaralib kelinadi. Pahlavon Mahmud kurashchi sifatida ham mashhur bo‘lib, umri davomida turli yurtlarni kezib kurash bilan shug‘ullangan. Shu sababli *Puriyo Vali* – pahlavonlar boshlig‘i nomini oladi. Keyingi



Pahlavon Mahmudning hind polvoni bilan kurash tushishi. Noma'lum musavvir

asrlarda hatto yovmut turkmanlari bu nomni o'zlarining harbiy hayqiriqlariga aylantirganlar.

Pahlavon Mahmud Jamol Qarshiyning jiyani hisoblanib, Qarshiy u haqida o'z asarida eslab, u bilan 1293-yilda Toshkentda uchrashganini, uning to'la ismi Pahlavon Mahmud ibn Sayyid Adjal Alauddin ekani va uning sayyidlardan bo'lganligini yozib qoldiradi.

Shuningdek, bu davrda garchi biroz sekinlashgan bo'lsa ham aniq va tabiiy fanlar ham rivojlanishdan to'xtab qolmagan. Falsafa, astronomiya, kalom, matematika va shu kabi qator fanlar rivoji oz bo'lsa ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, ushbu fanlar bilan shug'ullanuvchi bir qator olimlar faoliyati e'tiborga molikdir. Jumladan, tarixchi Rashididdin Marog'a rasadxonasida, keyinchalik, Qoraqurumda Munqaxon va Xubilayxon saroyida faoliyat olib borgan buxorolik Jamoliddin Buxoriy ismli mashhur matematik va astronom haqida eslab o'tadi.

Bilib oling!

1267-yilda Jamoliddin Buxoriy Xubilayga xitoy manbalarida «vannyanli» («10 ming yil taqvimi») deb ataladigan musulmon taqvimini va astronomik asboblarni takdim etgan. 1271-yilda xoqonning ijozati bilan Pekinda rasadxona qurgan va unga mas'ul xodim etib tayinlangan. Bu bilan olim Turkiston astronomiya ilmiga tayangan bilim dargohining Pekinda tashkil topishiga asos solgan. Jamoliddin Buxoriy 1282-yilga qadar Pekinga bir qancha vaqt davomida astronomiya, geografiya, matematika

fanlarining vakillari asarlarini oldirib kelgan va ularni jamlash, xitoy olimlarining asarlari bilan taqqoslash asosida yangi asar yozishga kirishgan.

Shunday olimlardan biri mashhur matematik, faylasuf va astronom Shamsiddin Samarqandiy edi. U taxminan 1250-yilda Samarqandda tug'ilgan bo'lib, Nosiriddin Tusiy (1201-1274) va Qitbiddin Sheroziy (1236-1311)larning zamondoshi edi. Mashhur mantiqshunos Samarqandiy matematiklar orasida o'zining «Kitob ashkal at-tasis» («Asosiy teoremalar to'g'risida kitob») risolasi bilan mashhur bo'lgan. Yigirma sahifadan iborat bu asar, ehtimol, 1276-yilda tuzilgan bo'lib, Evklid geometriyasining 35 ta asosiy xossalarini qisqartirilgan holda izohlanadi. Evkliddan farqli o'laroq, Samarqandiy geometriyada harakatdan keng foydalanadi, harakat yordamida isbot «haqiqiy yo'l bilan ishlab chiqariladi» deb hisoblaydi. Asar qisqa bo'lishiga qaramay muhim matematik qo'llanma sifatida keyingi davrlarda ham bir qancha matematiklar tomonidan foydalanilib kelingan, xususan, XV asrda Qozizoda Rumiy tomonidan ham sharhlangan. Samarqandiy, shuningdek, dialektikaga oid «Risola fi adob al-bahs»(«Tekshirish usullari haqida risola») kitobi bilan ham mashhur bo'lgan. Samarqandiy unda dialog yordamida fikrlashning aqliy tekshirish usulini muhokama qilgan. Uning mantiqqa oid yana ikkita asari ma'lum: «Mezon al-Qustas» va «Kitob ayn al-nazar fi' ilm al-jadal».

Bilib oling!

Samarqandiy «Konus kesimlarini chizish uchun kompas haqida risola» asari, Klavdiy Ptolomeyning «Almagest»iga sharh ham bitgan, astronomiya bilan ham shug'ullanib, «At-Tazkira fi'l-hay'a» («Astronomiya tazkirasi») va 1276–1277-yillar uchun yulduz taqvimini yaratgan. Uning «Sahoif al-ilohiyya» va «Aqoid» nomli aqidaviy ilohiyotga oid ikkita asari ham mavjud. Shamsiddin Samarqandiy taxminan 1310-yilda vafot etgan.

Yana bir mashhur astronom Al-Vobkanaviy bo‘lib, u XIV asr boshlarida Buxoro shahridan 20 km uzoqlikdagi Vobkana qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning hayoti haqida deyarli hech narsa ma’lum emas. Olimning astronomiyaga oid faoliyati haqida mavjud ma’lumotlar, asosan, «al-Zij al-muhaqqaq as-sultoniy ala uṣul al-rasad al-Elxoniy» nomli jadvali astronomik qo‘llanma bo‘lgan. Bu asarning muqaddimasidan ma’lum bo‘lishicha, Vobkanaviy 40 yil davomida Eronning shimoli-g‘arbiy qismidagi Marog‘a shahridagi mashhur rasadxonada kuzatuvlar olib borgan (bu rasadxonaga 1258-yilda Tashuna tashabbusi bilan Xulaguxon asos solgan). Shuningdek, Tabrizda rasadxona qurgan Mahmud G‘azonxon (1295–1304) tomonidan molikiy kalendarini isloh qilishda ishtirok etgan. Shu sababli, Vobkanaviy ijodiy faoliyatining bir qismini Marog‘ada, bir qismini Tabrizda o‘tkazgan. Vobkanaviyning «Zij»i bir nechta to‘liq bo‘lmagan nusxasi saqlanib qolgan bo‘lib, ulardan Istanbuldagi Ayo Sofiya kutubxonasida saqlanayotgan nusxa eng to‘lig‘idir.

Vobkanaviy O‘ljaytuxon (1304–1316) davrida (Eron xulagulari sulolasi) «Zij» ustida ishlay boshlagan va nihoyat, uni Abu Saidga (1316–1335) bag‘ishlagan. U beshta maqoladan iborat bo‘lib, unda zijning barcha yo‘nalishlarini, xususan, xronologiya, sayyoralarning joylashuvi va tutilishi, sferik astronomiya hamda vaqtni hisobga olish kabi masalalarni juda keng yoritadi.

«Zij»ning xronologik bobida 1302-yilda Mahmud G‘azonxonning buyrug‘i bilan amalga oshirilgan Molikiy yoki Jaloliy taqvimidagi islohot tasvirlangan. Asl taqvim Saljuqiylar sultoni Malikshoh I tomonidan 1079-yilda va boshqa turli yillarda qabul qilingan. G‘azonxon yil boshining aniq ta’rifini (ya’ni bahorgi tengkunlik kunini) o‘zgartirib, «Xoniy» deb nomlangan yangi davrni qabul qildi va turkiy oy nomlaridan foydalanishni joriy qildi. Vobkanaviy o‘zining «Zij» asarida yangi kalendarni qabul qilinganligini yozadi va uning o‘zi yangi kalendar tuzilishiga boshchilik qiladi. Vobkanaviy, shuningdek, mo‘g‘ullar tomonidan Eronga kiritilgan va birinchi marta Nosiriddin Tusiyning «Elxoniy zij» asarida tasvirlangan xitoy-uyg‘ur taqvimining keng izohini taqdim etadi.

Bilib oling!

Vobkanaviyning usturlobga oid asari «Kitob-i ma'rifat-i usturlab-i shamaliy» (Shimoliy usturlab haqida) fors tilida yozilgan bo'lib, Istanbuldagi To'pqopi saroy muzeyi kutubxonasida saqlanadi. Vobkanaviyning Quyosh va Oyning botish vaqtlari farqi haqidagi arabcha qisqa risolasi Qohirada saqlanib qolgan.

Mashhur qomusiy olim Sadr ash-Sharia nomi bilan ulug'langan Ubaydulloh ibn Mas'ud Buxoriy ham ushbu davrdagi buyuk allomalardan biri edi. U Islom huquqshunosi, dinshunos, mufassir (Qur'on sharhchisi), muhaddis, lug'atshonos, tilshunos, mantiqchi, astronom, vaqt va makon nazariyalari hamda sharhi bilan tanilgan olim edi. Uning turli fanlardan olib borgan ilmiy izlanishlari olimning chuqur bilimlarga ega ekanligini tasdiqlaydi. Sadr Sharia Ubaydulloh ibn Mas'ud kelib chiqishiga ko'ra Buxoroning mashhur ulamolari avlodidan bo'lib, ajdodlari ham islom olamining nufuzli faqih olimlari sanalgan. U bir qator hanafiy fiqhiga oid qator nufuzli asarlarning muallifi. Uning eng mashhur asari «Ta'dil al-ulum»(«Ilmlar izohi») asari sanaladi. Asar 7 bobdan iborat bo'lib, ayniqsa, asarning 3-bobi muhim sanaladi. Ushbu bobda olim vaqt, makon, harakat, to'rt unsur, koinot va g'ayritabiiy ta'sirlar, minerallar, o'simliklar, hayvonlar, mavjudotlar, ruhlar haqida qarashlari va ruhlarning paydo bo'lishi, o'limdan keyin ruhlarning omon qolishi hamda yo'q bo'lib ketishi bilan bog'liq qarashlarni o'z ichiga oladi.

Bilib oling!

Tadqiqotchilarning fikricha, Sadr ash-Sharia Ubaydulloh ibn Mas'ud Sohibqiron Amir Temurning ona tomondan bobosi sanaladi. Jumladan, qator manbalarda keltirilishicha, Amir Temurning onasi Takina Begim buxorolik Sadr ash-Sharianing qizi sifatida keltirilgan edi.

Uning «Kitob ta'dil hay'at al-afloq» nomli astronomiyaga oid qo'lyozmasi ham mavjud bo'lib, ushbu asarda olim Ptolomey asarlaridan sitarhlar va ma'lumotlar keltirib o'tadi. Shuningdek, u Nosiriddin Tusiy va Qutbiddin Sheroziy asarlarida murojaat qilib, ularning asarlaridagi xatoliklarni to'g'rilashni o'z zimmasiga olgan. Sadr ash-Sharia Ubaydulloh 1347-yili Buxoroda vafot etgan.

Atamalar izohi

☑ ***Baxshilar*** – bu atamaning dostonlar kuychisi ma'nosida boshqa mazmuni ham bor. Mo'g'ullar istilosi davrida budda dinidagi qalandarlarni, uyg'ur alifbosi asosida turli hujjatlar tuzuvchi idora xodimlarini, mo'g'ullarda jarrohlarni, Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda, keyinchalik, Qozon va Qrim xonliklarida kotiblarni, Boburiylar davlatidagi harbiy qismlarning hisob-kitob ishlarini olib boruvchi va ularga maosh to'lovchi yirik amaldorlarni, Buxoro xonligida ma'muriy binolar qurishda mablag' (sarf-harajat) hisobini olib boruvchi kishilarni, turkmanlarda urug' oqsoqollarini ham *baxshi* deb atashgan.

☑ ***Mutavalli*** – (arabcha «ishboshi», «boshqaruvchi») — islom tarixida vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga vasiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi diniy amaldor. Vaqf yerlarini ijaraga berish, vaqf mulkida xo'jalik ishlarini yuritishni ham mutavalli bajargan.

☑ ***Evklid*** – taxminan mil. avv. 325-265-yillarda yashagan qadimgi yunon matematigi, geometriyasi, matematikaga oid bizgacha yetib kelgan birinchi nazariy risolaning muallifi. Evklid haqidagi biografik ma'lumotlar juda kam. Uning asosiy ilmiy faoliyati miloddan avvalgi III asrda Iskandariya shahrida bo'lganligi ma'lum.

☑ ***Balish*** – qadimgi mo'g'ul pul birligi bo'lib, Chingizxon davrida mo'g'ul davlatining pul birligi sifatida xizmat qilgan. Keyinchalik uluslarda ham qisman faol bo'lib, 1 balish kumush – 60 dirhamdan 300 dirhamgacha baholangan.

Savol va topshiriqlar

1. Chig'atoy ulusida diniy hayot qay tartibda kechgan?

2. Chig'atoy ulusida islom dinining tarqalishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan omillarni ayting.

3. Qaysi mo'g'ul hukmdorlari islom dinini qabul qilgan dastlabki xonlar bo'ldilar?

4. XIII asrda bunyod etilgan madrasalar haqida ma'lumot bering.

5. XIII asrda ta'lim tizimida qanday o'zgarishlar yuz berdi? Madrasa tili va yozuvi qanday edi?

6. Suyuruk Tanibeka kim? Uning Movarounnahr ilm-fani uchun xizmati nimada?

7. Jamol Qarshiyning faoliyati haqida nimalarni bilib oldingiz?

8. Al-Vobkanaviy qaysi soha bilan shug'ullangan. Uning ilmiy merosi haqida gapiring.

9. Sadr Sharia Ubaydulloh ibn Mas'ud qaysi buyuk davlat arbobining bobosi hisoblanadi?

10. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida Chig'atoy ulusida faoliyat olib borgan olimlar va ularning ilmiy izlanishlariga oid jadval tuzing.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumanazar A. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – T.: Akademnashr, 2017.

2. Jumanazar Abdusattor. Samarqand ta'lim tizimi va madrasalari tarixi. – T.: Fan, 2021.

3. Jumayeva N. O'rta Osiyo allomalarining ilmiy merosi. Uslubiy qo'llanma. – Buxoro: Durdona, 2013.

4. Ta'lim tarixi. O'quv qo'llanma. M.Abdullayeva (va boshqalar). – T.: «Muharrir» nashriyoti, 2013.

5. Zunnunov A. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: Sharq, 2000.

6. O'zbekiston tarixi. I-qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S. T.: Fan, 2019.

7. Vaxitov M., Mirzayev Sh. Me'morchilik tarixi. 1-qism. T.: Tafakkur, 2010.

8. Ziyo A. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2001.

9. История Казахстана в персидских источниках: Том I: Джамал ал-Карши. ал-Мулхакат би-с сурах. Алматы, Дайк-пресс, 2005.

10. Матвиевская Г. П., Розенфельд Б. А. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII–XVII вв.). В 3 т. М.: Наука, 1983.

11. Матвиевская Г. П. Учение о числе на средневековом Ближнем и Среднем Востоке. Т.: Фан, 1967.

12. Khaled El-Rouayheb. Relational Syllogisms and the History of Arabic Logic, 900-1900. BRILL–Boston: 2016.

MUNDARIJA

Kirish.....3

1-mavzu: Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Tohiriylar va Safforiylar davlati.....6

2-mavzu: Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Tohiriylar va Safforiylar davlati.....27

3-mavzu: Somoniylar davrida O'rta Osiyo (1-qism).....42

4-mavzu: Somoniylar davrida O'rta Osiyo (2-qism).....55

5-mavzu: Somoniylar davrida O'rta Osiyo (3-qism).....75

6-mavzu: Qoraxoniylar davlati.....94

7-mavzu: Qoraxoniylar va qoraxitoylar 116

8-mavzu: G'aznaviylar davlati siyosiy tarixi.....130

9-mavzu: G'aznaviylar davlatining siyosiy va ijtimoiy tuzumi.....148

10-mavzu: Saljuqiylar davlatining siyosiy tarixi.....166

11-mavzu: Saljuqiylar davlatining ijtimoiy-siyosiy tarixi.....187

12-mavzu: Anushtegin-Xorazmshohlar davlati.....212

13-mavzu: Anushtegin-Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tarixi 235

14-mavzu: Bayt-ul hikma va unda O'rta Osiyolik allomalar faoliyati.....255

15-mavzu: O'rta Osiyolik qomusiy olimlar 278

16-mavzu: Islom dinining rivoji va taraqqiyotiga hissa qo'shgan allomalar. Muhaddis olimlar.....308

17-mavzu: IX-XII asrlarda ta'lim tizimi.....339

18-mavzu: O‘rta Osiyoda musiqa, san’at va me’morchilik.....356
19-mavzu: O‘zbek xalqining shakllanishi.
Etnogenez va etnik tarix.....368
20-mavzu: Xorazmshoh va Chingizxon o‘rtasidagi munosabatlar...387
21-mavzu: Chingizxonning Movarounnahrga bosqini.....411
22-mavzu: Vatan mudofaasi yo‘lida kurash.....430
23-mavzu: Jaloliddin Manguberdi va Chingizxon.....448
24-mavzu: Jaloliddin Manguberdi – so‘nggi Xorazmshoh.....467
25-mavzu: Chig‘atoy ulusining siyosiy tarixi.....494
26-mavzu: Chig‘atoy ulusida siyosiy jarayonlar. Hokimiyat uchun kurash (XIV asr).....514
27-mavzu: Chig‘atoy ulusining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va boshqaruv tizimi.....534
28-mavzu: Chig‘atoy ulusining ijtimoiy va madaniy hayoti.....549

QAYDLAR UCHUN

Akbar, Zamonov
O'zbekiston tarixi. II qism: IX – XIV asr o'rtalari. Darslik / A.Zamonov, S.Abdusodiqov. – Toshkent: «BAYOZ», 2024. – 568 b.

ISBN 978-9943-8692-0-2

UO'K 94(575.1)(075)
KBK 63.3ya73

AKBAR TURG'UNOVICH ZAMONOV
SARDORBEK ZOKIRJON O'G'LI ABDUSODIQOV

O'ZBEKISTON TARIXI

II QISM
(IX – XIV asr o'rtalari)

Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun darslik
Ta'lim yo'nalishi: 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)

Muharrir	Zokir Zamonov
Texnik muharrir	Shohrux Botirov
Dizayner	Bahodir To'xliyev
Sahifalovchi	Bekzod Raxmatov

Nashriyot litsenziyasi: AI №234, 11. 02. 2013.
Bosishga ruxsat etildi: 10.01.2024.
Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16.
Times garniturasi. Ofset bosma.
Hisob nashri t.: 23,66. Shartli b. t.: 35,5.
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 3.

«BAYOZ» nashriyotida nashrga tayyorlandi.

«BAYOZ» MChJ matbaa korxonasida chop etildi.
Toshkent. Lutfkor 1-tor ko'chasi, 1-uy.

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI
KIMYO INTERNATIONAL UNIVERSITY IN TASHKENT



ISBN 978-9943-8692-0-2

BAYOZ NASHRIYOTI